

R. Murtazayeva

# O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA TOLERANTLIK



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI**

**RAHBARXON MURTAZAYEVA**

**O'ZBEKISTONDA  
MILLATLARARO  
MUNOSABATLAR VA  
TOLERANTLIK**

**5A 120301 – O'zbekiston tarixi mutaxassisligi  
magistrantlari uchun**

**D A R S L I K**

**Toshkent  
“Go To Print”  
2020**

UO'K: 327(072)

KBK: 66.4

M 88

**Murtazayeva, R.**

**O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik**

[Matn]: darslik / R. Murtazayeva. – Toshkent: «Go To Print», 2020. – 344 b.

Darslikda “O'zbekiston tarixi” ta'lif mutaxassisligi o'squv rejasida asosiy fan sifatida o'qitilayotgan (umumiy o'squv soati 186 soat, shu jumladan ma'ruza – 54 soat, seminar mashg'ulot – 54 soat, mustaqil ta'lif – 78 soat). “O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik” fanining o'squv dasturida belgilangan mavzularning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Bakalavr bosqichida tarix fanidan olingan bilim bazasiga tayangan holda mavzular shakllangan bo'lib, bag'rikenglik g'oyasining hozirgi zamonda har bir davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim o'rinnegallashi, O'zbekistonning bu masalada tarixan o'ziga xos xususiyatlarga egaligi, bag'rikenglik – o'zbek xalqi mentaliteti o'zagini tashkil etishi, turli tarixiy davrlarda aholi milliy tarkibi o'zgarishlarining sabab va oqibatlari, o'zbek xalqining deportatsiya qilingan xalqlarga ko'rsatgan g'amxo'rliги hamda bag'rikeng munosabati ochib berilgan. Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlardagi barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati rasmiy hujjalalar va aniq ma'lumotlar asosida ko'rsatilgan. Darslik nafaqat magistrantlar, balki mavzu mohiyati bilan qiziqqan keng ilmiy jamoatchilik doirasiga ham mo'ljallangan.

***Mas'ul muharrir:***

X.E.Yunusova – tarix fanlari doktori, professor.

***Taqrizchilar:***

D.B.Bobojonova – tarix fanlari doktori, professor

A.A.Odilov – tarix fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2019-yil 2-maydag'i 394-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

**ISBN 978-9943-6883-9-1**

© Murtazayeva, R.  
© «Go To Print», 2020.

**1-mavzu. O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO  
MUNOSABATLAR VA BAG'RIKENGLIK FANI PREDMETI,  
UNI O'RGANISHNING AHAMIYATI!**

**Reja:**

1. Zamonaviy dunyoda bag'rikenglik masalasi dolzarbligining kuchayishi sabablari. Globallashuv va bag'rikenglik.
2. Fan o'rganilishining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati.


**1. Zamonaviy dunyoda bag'rikenglik masalasi dolzarbligining kuchayishi sabablari. Globallashuv va bag'rikenglik**

Hozirgi vaqtga kelib tobora globallashib borayotgan dunyoda bag'rikenglik tamoyili ijtimoiy-ma'naviy hayot turli sohalarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Inson, jamiyatning mohiyati, ularning kejalakdag'i taqdiri muammolari nuqtai nazaridan qaraganda, bag'rikenglik masalasining har tomonlama turli darajadagi yondashuvlar ro'y bermoqda.

XXI asr boshlariga kelib "bag'rikenglik" tushunchasi jamiyat hayotida noyob madaniy hodisa darajasiga ko'tarildi. Dastlabki yaqtarda u murosai-madora ma'nosida e'tirof ciilgan bo'lsa, bora-bora uning ma'no-mohiyati kengaya bordi. Hozirgi vaqtga kelib, ijtimoiy fanlarning sohalari – etika, tarix, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, falsafa va boshqalarda bag'rikenglik tushunchasi bevosita foydalanimoqda.

Bag'rikenglik shunchaki tushuncha emas, balki jamiyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismi sifatida muayyan ijtimoiy-ma'naviy hodisa, xilma-xil tur, shakl va talqinlardagi noyob holat sifatida tushunilmoqda. Bag'rikenglik tamoyilining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, hodisalarning tafovutlari, ziddiyatlari, farqlari haqida so'z borganda unga ehtiyoj paydo bo'ladi. Umuman, bag'rikenglik sabrlilik yoki befarqlik deb emas, turli madaniyat, din, antropologik toifalarda namoyon bo'ladigan xilma-xillikkarga hurmat va ehtirom bilan yondashish degan ma'noda talqin etiladigan bo'lib qoldi. Bundagi birdan-bir chegara yoki cheklash shundan iboratki, xilma-xillik umume'tirof etilgan insonparvarlik me'yorlaridan chetga chiqmasligi kerak, bunda insoniyatning mazkur me'yorlarni qabul qilishi nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda ushbu muammo butun insoniyat uchun alohida ahmiyat kasb etmoqda. Butun dunyoda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish zarurati xalqaro niqyosda davlatlarning kuch-g'ayratini birlashtirishni talab qiladi. Shu yo'li bilangma tinchlik va inoqlikda yashash, o'zga madaniyat va diniy konfessiyaga, o'zga irqqa murosa



muhitini yaratish, turli xalq va millatlarning bahamjihatligiga erishish mumkin.

Globallashib borayotgan dunyoda bag'rikenglik obyektiv voqelikka aylanib, xalqaro ma'no kasb eta boshladi. Bag'rikenglik fuqarolik jamiyatini barpo etishda tag-zaminli demokratik qadriyatga, zamnaviy tamaddunning yashab, rivojlanishining zarur shartiga aylana boshladi.

Hozirgi kunga kelib, bag'rikenglik ijtimoiy munosabatlarning yangi toifasi deya talqin etilmoqda. Bag'rikenglik hodisasining noyob mohiyati uning fanlararo' xususiyatidan iborat bo'lib, u shuning uchun ham aksariyat gumanitar fanlar tomonidan o'rganilmoqda. Garchi bag'rikenglik voqeligini o'rganish sohasida ayrim natijalarga erishilgan bo'lsa ham, bu tushunchaning ilmiy kategoriya sifatida amaliy yo'nalish mohiyati haligacha aniq ta'riflab berilgan emas.

Tolerantlik so'zi lotincha (tolerantia) so'zidan olingan bo'lib, sabr-toqat ma'nosini bildiradi. Bag'rikenglikning ma'no va mohiyati turli xalqlarda bir-biriga o'xshash tarzda talqin etiladi. Masalan, ispan tilida – o'z g'oyalaridan farqlanuvchi fikri tan olish usuli; fransuzchada – o'zgalar sendan ko'ra boshqacharoq o'yashlari yoki harakat qilishlari mumkinligiga yo'l qo'yish; inglizchada – sabr-toqatli, iltifotli bo'lish; xitoychada – boshqalarga nisbatan kechiruvchan, muruvvatli, olivjanob bo'lish; arabchada – kechirimli, marhamatli, yumshoq, muruvvatli, rahmili, olivjanob, sabrli bo'lish; ruschada – nimagadir yoki kimgadir nisbatan sabrli bo'lish, og'ir-vazmin, chidamli bo'lish; nimagadir yoki kimgadir toqat qilish, o'zgalarning fikri bilan hisoblashish, iltifotli bo'lish; o'zbekchada – boshqalarga nisbatan bag'ri ochiqlik, o'zgalarning turmush tarziga, fe'l-atvoriga, urf-odatlariga, his-tuyg'ulari, fikrmuzohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga muruvvatli bo'lish va h.k. ma'nolarni bildiradi.

Darhaqiqat, mazkur so'zning etimologiyasiga nazar solinsa, ijtimoiy munosabatlarda tolerantlik iborasining chin insoniy ma'nosini hamfikrlik, hamjihatlik, shaxslararo amaliy muloqotga to'g'ri keladi. Tolerantlik atamasini nazariy va amaliy qo'llashda 1995-yilgi "Tolerantlik tamoyillari Deklaratsiyasi"da berilgan ta'rifga tayanilmoqda.

Mazkur hujjatda bunday deyilgan:

Bag'rikenglik – bizning dunyomizdagи turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik – turli-tumanlikdagi birlikdir.

Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki, siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik – tinchlikka erishishni musharraf qilg'uvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

Bag'rikenglik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag'rikenglik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Har qanday vaziyatda ham bag'rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo'lib xizmat qilmaydi. Bag'rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Bag'rikenglik – inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjalarda o'matilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir.

Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiyadolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo'lishni, o'z iymon-e'tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e'tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkendir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o'z tabiatiga ko'ra tashqi ko'rinishi, qiyofasi, o'zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e'tirofga loyiqligi barobarida, ular dunyoda yashashga va o'zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Fandagi tasniflashga binoan tolerantlikning 12 ta tipi: gender, yosh, ma'lumot, millatlararo, irqiy, diniy, jug'rofiy, sinflararo, fiziologik, siyosiy, seksual-yo'nalishli, marginal tiplari mavjud. Hozirgi globallashuv sharoitida bag'rikenglikni madaniy taraqqiyotning zarur sharti deb bilmox kerak. Insoniyat tarixida murosasizlik hamisha mavjud bo'lib, urushlarga sabab bo'lgan. Diniy ta'qiblar va g'oyaviy ziddiyatlar fanatizmga, haqoratlarga, hayot huquqlarini buzishga olib borgan. Ana shunday sharoitda xalqni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash doimo zarur bo'lgan.

Hozirgi zamон bag'rikenglik madaniyati o'tkir o'zaro ziddiyat sharoitida shakllanayotganligini aytib o'tmoq kerak. Bu esa, insoniyatning ijtimoiy munosabatlar madaniyatini ancha Yuqori pog'onaga ko'tarishni va buning uchun sodir bo'layotgan

o'zgarishlarning mazmun va mohiyatini yaxshiroq anglab olishni talab qiladi.

2000-yilning sentyabrida BMTning Ming yillik sammiti bo'lib o'tgan. Unda to'plangan dunyodagi ko'pgina mamlakatlar rahbarlari insoniyat oldida turgan va sivilizatsiyani saqlab qolish maqsadida kechiktirmay hal etilishi lozim bo'lgan asosiy muammolarni belgilab olganlar.

Sammit deklaratsiyasida butun insoniyat uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lgan oltita qadriyat ta'riflab berilgan. Bular erkinlik, tenglik, birdamlik, mas'uliyat tufayli bo'lgan tabiatga hurmat bilan bir qatorda tolerantlik ham xalqaro munosabatlarning asosi sifatida tilga olingan.

Insoniyat XXI asrga qadam qo'ygan paytdan boshlab yer kurrasining turli mintaqalarida zo'ravonlik haddan oshib, xalqaro terrorizm kuchayganligi ham kuzatilmoqda. Hozirgi paytda ko'pincha etnik, diniy, mafkuraviy tafovutlar ekstremistik fe'l-atvor shakllari uchun bahona bo'lmoqda. O'z g'arazli maqsadlarini ko'zlovchi muayyan siyosiy kuchlarning g'alamisliklari esa vaziyatni tobora keskinlash-tirmoqda. Ekstremizmnинг kuchayishi esa tinchlikka, insoniyatning barqaror va xavf-xatarsiz rivojlanishiga tahlika soluvchi yangi xavf-xatarlar orasida oldingi o'rnlardan biriga chiqib oldi. BMT e'lon qilgan g'oyalar, oliy maqsadlar va tamoyillar bilan siyosiy-milliy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarga erishish maqsadida zo'ravonlikning yashovchanligini ko'rsatuvchi haqiqiy jarayonlar orasida katta tafovut borligi yaqqol ko'rinish turibdi. Insoniyat jamiyat tinch hayotiga va xalqaro barqarorlikka tahlika solayotgan global xavf-xatarlar orasida tadqiqotchilar, avvalo, quyidagilarni ko'rsatib o'tmoqdalar:

- etnik-milliy mojarolar;
- ozchilikka nisbatan kam situvchanlik;
- qochoqlar va migrantlarga qarshi ksenofobiya harakatlari;
- irqchilik tashkilotlari va mafkuralari hamda irqiy jabr-zulm harakatlari;
- diniy ekstremizm;
- fikr erkinligi va ifodalash erkinligini talab qiluvchi ziyorilarga, boshqa shaxslarga qarshi zo'ravonlik va quvg'inlar;

– himoyasiz guruhlarni marginalizatsiyalash<sup>1</sup> va jamiyatdan badarg'a qilishda yoki mazkur guruhlarga qarshi kamsitish va zo'ravonlikda namoyon bo'ladigan murosasizlik (notolerantlik).

Murosasizlik hozirgi dunyoning eng katta global muammolaridan biriga aylandi. Buning mohiyati ayrim kishilar va madaniyatlar o'tasidagi tafovutlarni inkor qilish va bostirishdan iborat. Jamoaviy, institusional va hatto davlat nuqtai nazari darajasiga ko'tarilgan murosasizlik demokratiya tamoyillarini qo'poradi hamda insonning shaxsiy va jamoaviy huquqlari buzilishiga olib boradi.

Bugun jahonda globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish eng dolzarb vazifalar qatorida turadi. Chunki bugun millatlarning o'zligini anglash jarayoni globalashuvning o'tkazayotgan ta'siri natijasida har qachongiga qaraganda ham tez rivojlanmoqda. O'zining nomi bilan ataluvchi davatlardan yiroqda yashayotgan millat va elatlar vakillari eng zamonaviy axborot vositalari yordamida o'z millatdoshlari, ularning turmush tarzi, taraqqiyot darajasi va muammolari haqida bir zumda zarur ma'lumot olish imkoniyatiga egadirlar. Ayni chog'da ayrim siyosatchilar, yengil obro' orttirishga harakat qilayotgan "millatparvar"larning "poymol etilgan" millatdoshlari huquqlarini himoya qilish borasidagi chaqiriqlari ana shu zamonaviy axborot vositalarda tarqatilishi ham ko'p millatli davatlarda millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar ko'p millatli hisoblanadi. Globallashuv ham yana shu jarayonga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yana ham aniqroq qilib aytganda, globalashuv turli millatlarning o'zaro aralashib yashash jarayonlarining kuchayishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu jarayonning millatlararo munosabatlarga ta'siri nihoyatda katta. Buni quyidagilarda ko'rishimiz mumkin.

Birinchidan, Yuqorida ta'kidlaganimizdek, insoniyat mavjud ekan, millatga mansublik tuyg'usi uning ma'naviyatining yuksak ko'rinishi sifatida namoyon bo'lib qolaveradi. Shu ma'noda hech kim o'z millati sha'ni, g'ururi, or-nomusi toptalishiga besarq bo'lolmaydi. Shunday ekan, bugun rivojlangan mamlakatlarning "titul" millati migrantlarni quchoq ochib kutib olayotgani yo'q. Aksincha, ularni o'z

<sup>1</sup> Marginallik – o'z guruhi, uyushmasidan tashqarida bo'lish, umum qabul etilgan me'yorlar, tushunchalar chegarasidan chiqish.

mamlakatlaridan chiqarib yuborishga qaratilgan turli me'yoriy hujjatlar ishlab chiqmoqdalar, ba'zan esa turli millatchi guruhlar ularga nisbatan jismoniy kuch ishlatishgacha borib yetmoqdalar. Bu millatlarining o'zaro aralashib yashayotgan sharoitida hatto millatlararo barqarorlik mavjud bo'lgan mamlakatlarda, ham "titul" bo'lmanan millat vakillarida o'z kelajagi uchun hadiksirash, ishonchsizlik yoki ikkilanish kayfiyatini vujudga keltirishi mumkin. Bu esa millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Ikkinchidan, globallashuv ko'p millatli mamlakatlarda milliy madaniyatlardagi o'ziga xoslikning asta-sekinlik bilan emirilishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayondagi muammo shundaki, "titul" millatning ma'naviyatidagi o'ziga xoslikka qaraganda "titul" bo'lmanan millat va elat vakillarining milliy ma'naviyatiga globallashuv jarayonining o'tkazadigan ta'siri kuchli bo'ladi. Chunki unga har doim "zaryad", kuch-quvvat va ilhom bag'ishlab turadigan milliy-madaniy ildizlardan o'sib keladigan ehtiyoj darajasiga foydalanish imkoniyati cheklangan. Boz ustiga "titul" millat ma'naviyatiga globallashuv ta'sirida shakllanayotgan "ommayiv madaniyat"ning singib borishi, uning "titul" bo'lmanan millatlar vakillarining madaniyati bilan o'zaro boyitilib borish imkoniyati ham barham topib boradi. Bunday sharoitda, nisbatan kam taraqqiy qilgan davlatlarda yashayotgan turli millat, elat vakillari va "titul" millat ma'naviyatining o'zaro ta'sir etish va boyish jarayonining o'rmini taraqqiy qilgan mamlakatlar xalqlari tomonidan shakllantirilayotgan "ommayiv madaniyat"ning ta'sir o'tkazish jarayoni egallashi mumkin bo'ladi. Bu, o'z navbatida, milliy ma'naviyatdagi o'ziga xoslikning yemirilib borishiga, uning ta'sirida ko'p millatli mamlakatlardagi milliy-ma'naviy "yaqinlik" ruhiyatining buzilishiga olib keladi. Bu ham millatlararo munosabatlarning barqaror rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Millatlar mavjud ekan, ular o'rtasida o'zaro munosabatlar ham mavjud bo'ladi. Shunday ekan, bugun globallashuvning bu jarayonga o'tkazayotgan salbiy ta'sirining oldini olish haqida bosh qotirish va samarali mexanizmlarni topish o'z mustaqilligini, erkini, o'ziga xosligini qadrlashga qodir bo'lgan barcha millatlar oldida turgan eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Globallashuv chuqurlashib, shiddat bilan rivojlanib borgani sari uning milliy o'ziga xoslikni yemiruvchi ta'siriga qarshi qaratilgan samarali omillarning shakllanishi ham muqarrardir. Buning uchun esa jahon xalqlarining milliy xususiyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishga

yo‘naltirilgan yaqdil harakatini vujudga keltirish lozim bo‘ladi. Bu harakatda millatlar madaniyatining o‘zaro boyishi tabiyi jarayon sifatida kechishiga erishish katta ahamiyatga ega. Agar bu jarayonda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlarning oldi olinmas ekan, unda, fikrimizcha, istiqbolda:

Birinchidan, asosiy ziddiyat globallashuv bilan millatlarning o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishi o‘rtasida vujudga keladi. Globallashuv o‘zining eng Yuqori pallasiga yetgandan keyin, uning milliy o‘ziga xoslikni yemirishga ta’sir o‘tkazish imkoniyati barham topadi. Chunki milliy o‘zlikni anglash umuminsoniy qadriyat sifatida globallashuv “beradigan” har qanday “farovon”likdan ustun darajaga ko‘tarilib boradi.

Ikkinchidan, globallashuvning turli millat va elatlар hayotiga ta’siri kuchayib boradi. Bu jarayon ma’lum bosqichga yetganda, ularning “uyg‘onishi” o‘z huquq, erkinligini anglab yetish jarayonini ham kuchaytiradi. Natijada, bugun globallashuv ta’sirida milliy chegaralar “barbod” bo‘layotgan bo‘lsa, istiqbolda ularning qayta tiklanish jarayonlari boshlanadi. Bu nafaqat yirik shuningdek, kam sonli millatlar va elatlarning o‘zligini anglash jarayonini, ularning o‘z zaminlariga “qaytish”ga intilishini kuchaytiradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, globallashuv qanchalik qudratli jarayon bo‘lmasisin, u millatlarning o‘ziga xosligiga muayyan ta’sir o‘tkazishi mumkin, ammo uni butunlay barbod qilishga qodir emas. Chunki milliylik obrazli qilib aytganda, insoniylikning irsiyati, bu unga jon va qon bilan berilgan. Shuning uchun ham, u insoniylikning oliy qadriyati sifatida millatga kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlab turaveradi.

Ammo bu globallashuvning milliy ma’naviyatga o‘tkazishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’siridan xavotirga tushmasa ham bo‘laverar ekan-da, degan xulosa chiqarishga asos bo‘lmaydi. Aksincha, globallashuv keltirib chiqaradigan salbiy hodisalarning oldini oladigan samarali omillarni vujud keltirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham, uning oldini olish qanday murakkab bo‘lmasisin, uning qarshi kurashishni ommalashtirishga ehtiyoj oshib boraveradi. Ehtiyoj hisobga olinsagina, uning oldini olish bilan bog‘liq vazifalar amalga oshirilsagina, globallashuvning milliy ma’naviy o‘ziga xoslikka o‘tkazadigan salbiy ta’siridan himoyalanishimiz mumkin bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, har bir millatning “Men”ligini qaror toptirish zaminida millatlarning o‘zaro erkin hamkorligiga, madaniyatlarining o‘zaro ta‘biiy ta’sirlashuvi natijasida ularning har birining boyishiga yo‘l ochadi.

Globallashuv tolerantlik muammosiga yangi sifat va o'tkirlik baxsh etadi. Olimlarning ta'kidlashicha, turli madaniyatlar, dinlar, sivilizatsiyalar avval ham o'zaro muloqotda bo'lgan, ayni vaqtida ko'pincha keskin adovat va murosasizlik ro'y berib turgan. Ammo bularning asosiy manbalari hududiy jihatdan bo'lingan, bir-biridan ajratilgan holatda bo'lgan. Endilikda migratsiya oqimlari mavjud to'siqlardan oshib o'tmoqda, turli madaniyat va turmush tarzlarini jahon maydonidagi yagona makonga jipslashtirmoqda. Ijtimoiy o'zaro munosabatlarning bir-biriga singib boruvchi tig'iz tarmog'i vujudga kelmoqda. Ana shunday sharoitdagi notolerantlik keskinlikni kuchaytirib, milliy darajada ham, jahon darajasida ham ijtimoiy tuzumlarning hayot faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda.

Umuminsoniy siyosiy madaniyatning zarur unsuriga aylangan bag'rikenglik madaniyatining alohida hayotiy ahamiyati insoniyatning vayronagarchilik va boshboshoqlik botqog'iga botib ketishiga to'sqinlik qiluvchi to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lur edi.

Bag'rikenglik madaniyati ana shu rolni o'ynay oladimi? Darhol shu rolni o'ynay oladi, deb umid qilish qiyin, ammo ijobji siljish sezila boshladi. Buning uchun qulay huquqiy va siyosiy shart-sharoit zarur bo'ladi. Insoniyat tarixida tinch-totuvlik muhitini yaratishga bo'lgan urinishlarga ko'pgina misollar bor: Versal sulhi; Yalta uchrashuvi yakunlari bunga misol bo'la oladi.

Hozirgi vaziyatda siyosiy tolerantlik tushunchasini aniqlab olish muhimdir. Siyosiy tolerantlik – o'zgalarning fikrlari, e'tiqodlari, urfdotatlariga sabr-toqatli bo'lish. Siyosiy tolerantlik – ijtimoiy hayotda faol qatnashuvchi, davlat ichida ham, davlatlar o'rtasida ham tartibli, madaniy munosabatlar zarurligini anglaydigan barchaga nisbatan quyiladigan talab. Tolerantlik tamoyiliga og'ishmay rioya etish-shaxslar, jamoat tashkilotlari partiyalar bilan davlat o'rtasida natijali aloqalar o'rnatishning birinchi sharti. Xoh tashkilotlar, partiyalar yoki davlatlar bo'lsin, tomonlar o'rtasida ixtilofga sabab bo'luvchi keskin siyosiy muammolar xususida muzokaralar yuritish paytida sabr-toqatli, tolerantli bo'lish qobiliyati alohida muhim ahamiyatga egadir. Bunday holatlarda tolerantlik aslo zaiflik emas, balki shunday qobiliyatni namoyon qiluvchi tomon uchun kuchli, obyektiv jihatdan ijobjiy va manfaatli fazilatdir. Tolerantlilik qobiliyati o'zga tomonning barcha fikr-mulohazalari va dalil-isbotlarini tinglash, ularni puxta mushohada qilish, o'zga tomonning nuqtai nazariga xolisona yondoshish, uning yondoshuvidagi

zaif va kuchli jihatlarini aniqlash, so'ogra shunga muvofiq ravishda o'z nuqtai nazari va taktikasiga tuzatish kiritish imkonini beradi.

Etnik tolerantlikni o'z madaniyatini ijobiy idrok etgan holda o'zga madaniyatga ijobiy munosabatning mavjudligi deb tushunmoq kerak. Buning ma'nosi shuki, etnik tolerantlik o'z madaniyatidan voz kyechib, o'zga madaniyatga qo'shilib ketish emas, balki o'ziga xos etnoslararo integratsiyadir, bunda o'z etnik madaniyatini ham, shuningdek mazkur guruh bilan aloqa qiladigan o'zga guruhning etnik madaniyatiga ijobiy munosabat tushuniladi. Guruhlar idrok etishining o'xshashligini ana shunday tushunish etnik madaniyatlar qadriyat tengligi hamda bir madaniyatning ikkinchisidan afzal deb hisoblashiga yo'l qo'ymaslik taomiliga asoslangan bo'ladi.

Murosa tushunchasi murosasizlik tushunchasining aksidir. Murosa – qiyinchiliklarga bardosh berish qobiliyatida va turli manfaatlar, e'tiqodlar, urf-odatlarni o'zaro anglash va unga rozi bo'lishga intilishda namoyon bo'ladigan xarakter belgisidir. Murosa o'zgalarni fikrini hurmat qilishni nazarda tutadi. Murosasizlik qiyinchiliklarga bardosh bera olmaslikda, insonning o'z tuyg'ulari, tasavvurlari, e'tiqodlari, urf-odatlariga mos kelmaydigan hamma narsaga e'tiroz bildirish odatida ifodalanadi. Murosasiz kishi muqobil mulohazalar, fikrlar, e'tiqodlar bilan hisoblashmaydi. Xarakter belgisi bo'lmish murosasizlik odatda ma'naviy tarbiyadagi kamchiliklarning natijasidir.

Mazmun nuqtai-nazaridan olganda esa "tolerantlik" tushunchasi bilan "notolerantlik" yoki "intolerantlik" tushunchasining munosabati o'ziga xos xususiyatga egadir, chunki "tolerantlik" hamisha muayyan obyekt (obyektlarga) nisbatan kechinmalar, fikr-o'ylar va harakatlarning birmuncha cheklanishi mavjudligini nazarda tutadi; bu cheklanishning ma'nosi va yo'nalishi esa mavhumligicha qolaveradi.

Holbuki yuqorida sanab o'tilgan boshqa ijobiy tushunchalarning mazmunida aniq sharoitni hisobga olmay shunchaki ko'rib chiqiladigan va hech qanday limitlarsiz qolaveradigan jarayonlar va nuqtai nazarlarning yo'nalishiga asosiy urg'u beriladi. "Tolerantlik"da esa cheklash, asosiy imperativ hisoblanadi, bunda o'z psixologik faoliyatining emotsional, ratsional va amaliy-iroda sohalariga yetarli ravishda ega bo'lgan va o'z kechinmalari va harakatlarining yo'nalishini ham, mazmunini ham nazorat qila olish uchun sotsiumda amalga oshiriladigan subyekt (subyektlar)ning mavjudligini taqozo etadi. "Notolerantlik" esa, aksincha, tanqidiy- buzg'unchilik harakatlarida tø'la erkinlikni nazarda tutadi, bu harakatlarning chuqurligi va davomiyligi

(hech bo'lmaganda ularning tashqi ko'rinishlari) notolerant subyekt (subyektlar) tomonidan o'zini o'zi biror-bir tarzda cheklashlar nimaligini bilmaydi".

Tolerantlikning teskarisi murosasizlik, janjalbozlikdir. Garchi tolerantlik mojaroli vaziyatlarni hal qilmasa ham, ammo u murosaga kelish yo'lini topishning eng muhim sharti bo'lib mojarolarni zo'ravonliksiz, tinch hal etish muhitini yaratishga ko'maklashadi. Dinlar, xalqlar, sinflarning o'zaro adovati va kelishmovchiliginibildiruvchi fanatizm notolerantlikni kuchaytiradi.

Shunday qilib, tolerantlik tamoyili shaxslar o'rtasida, turli sivilizatsiyalarga ishlab jamiyatlar o'rtasida, erkaklar bilan ayollar o'rtasida, katta yoshdagilar bilan bolalar o'rtasida, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida va hokazolar o'zaro hurmatni nazarda tutadi. Turli ziddiyatlar sharoitida tolerantlik – atrofdagilarga zarar yetkazmagan holda o'zini-o'zi qaror toptirishdir. Tolerantlik his-tuyg'ularni jilovlaydigan ongli sergak nuqtai nazardir. Tolerantlik shunday bir qadriyatki, u o'zgalar bilan qarama-qarshi turishga emas, balki tinch-totuv yashashga, "o'zgalar"ni inkor qilishga emas, balki tan olishga, zo'ravonlikka itoatkorona sabr-toqat bilan qarashga emas, balki uni bartaraf etishga asoslanadi. Faol sabr-toqat – toqatsizlik, boshboshdoqlik va har qanday qilmishlarni kechirib yuborishning haddan tashqari hukmli shakllarini qabul qilmaslikdir".

Xullas, tolerantlikning mohiyatini har kim har xil tushunadi, ba'zilar uni asosan sabr-toqat deb tushunsa, boshqalar insoniyatning birligi, boshqalar huquqini hurmat qilish va boshqacha bo'lish huquqi deb tushunadi, yana boshqalar esa tolerantlikni jazavalarga, nomuayyanlik vaziyatiga, mojaro vaziyatiga chidamlilik deb tushunadilar.

Jahon hamjamiyati davlatlar o'rtasida bag'rikenglik munosabatlarini o'matishga katta e'tibor berilmoqda, zo'ravonlikka barham berish, tinchlikni ta'minlashning yangi yo'llarini izlamoqda va ko'p hollarda bunga erishmoqda ham. Shu jihatdan olganda, Yevropa mamlakatlari va ularning uyushmasi bo'lmish Yevropa Ittifoqining bag'rikenglik g'oya-larini targ'ib qilish va shu yo'ldan borayotgan kuchlarni jipslashtirish sohasidagi faoliyati diqqatga sazovordir.

Fransiya poytaxti Parijda 2008-yil 7-oktabr kuni bo'lib o'tgan birinchi yig'ilishida Yevropa bag'rikenglik va kelishuv Kengashi ta'sis etilgan edi.

Mazkur Kengashning asosiy maqsadi bag'rikenglik sohasida Yevropadagi vaziyatni monitoring qilish, qit'ada dinlararo va

millatlararo munosabatlarni yaxshilash yuzasidan milliy hukumatlar va xalqaro tashkilotlarga takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Kengash dunyoda ksenofobiya, antisemitizmga va irqiy kamsitishga qarshi kurash maqsadini ko'zlovchi xalqaro tashkilotlardan biridir.

2008-yil 9-16-noyabr kunlari Bag'rikenglik Kengashi "Yevropada tolerantlik haftaligi" nomli xalqaro tashabbusi doirasida bir qator tadbirlarning tashabbuskorlari va tashkilotchilaridan biri bo'ldi. Bu loyiha "Billur tun" voqealarining 70 yilligi va Xalqaro bag'rikenglik kuniga bag'ishlandi. Rasmiy tadbirlar jarayonida Kengash Yevropa Parlamentiga "Umumyevropa tolerantlik konvensiyasi" loyihasini va "Tolerantlik oq kitobi" konvensiyasini taqdim etdi. Mazkur hujjatlar Yevropada bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilishga qaratilgan.

"Yevropada tolerantlik haftaligi"ni Yevropa bag'rikenglik va kelishuv Kengashi, Yevropa yahudiylar kongressi, Yevropa Parlamenti, Yevropa Kengashining Parlament Assambleyasi, Rossiya yahudiylar kongressi, "Xolokost xotirasi jahon forumi" Fondi, "Yad Vashem" falokat va qahramonlik Milliy memoriali tashkilotlari uyuشتirdi.

2008-yilda Yevropa Bag'rikenglik va Kelishuv Kengashi bag'rikenglik sohasidagi Yevropa mukofoti – Tolerantlik medalini ta'sis etgan. Bu mukofot Yevropada sabr-toqat va o'zaro hurmat g'oyalarini targ'ib qilish, shuningdek, ksenofobiya, irqiy va diniy kamsitishga qarshi kurash sohasidagi atoqli arboblarning xizmatlarini taqdirlash uchun ta'sis etildi. Tolerantlik medali qarindosh-urug'lari ekstremizmga va teqatsizlikka qarshı kurashda halok bo'lgan oilalarga ham topshiriladi.

O'zbekiston dunyoning ko'pmillatli davlatlaridan biri ekanligi, bu yerda yuzdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilayotgani, ularning har biri noyob moddiy va ma'naviy madaniyatga ega ekanligi ma'lum. Ularning aksariyati asrlar davomida shu yerda yashab, etnik birlik sifatida shakllangan va shu ma'noda O'zbekistonning tub joy xalqlari hisoblanadi. O'zbek xalqining bag'rikengligi tufayli O'zbekiston hududida turli xalqlarning noyob birligi va xilma-xilligi, ma'naviy mushtarakligi shakllangan.

Jamiyatdagi bag'rikenglik muhitini baholash uchun ijtimoiy muassasalar va rasmiy tashkilotlar bag'rikenglik munosabatlarini qanday qo'llab-quvvatlayotganliklarini e'tiborga olmoq kerak. Shu jihatdan olganda, keyingi 1,5-2 yil mobaynidagina millatlararo munosabatlarga taalluqli bir qancha hujjatlar qabul qilindi. Chunonchi, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor

yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi” V bobida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagি Farmonida, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida, Oliy Majlisga Murojaatnomasida, Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan nutqida, boshqa ko‘pgina hujjatlarda millatlararo munosabatlarga, bu muhim sohadagi vazifalarga alohida ahamiyat berildi.

## **2. Fanni o‘rganilishining yoshlар tarbiyasidagi ahamiyati**

Har qanday ko‘pmillatli davlat kabi O‘zbekistonda ham mamlakatda istiqomat qilayotgan millatlar o‘rtasida hamjihatlik va hamkorlik muhitini ta‘minlash hayotiy muhim, ustuvor ishdir. O‘zbekiston axolisining 64 foizni yoshlар tashkil etilishini va “Yoshlар davlati” hisoblanishini e’tiborga olsak, ularni “Vatan”, “Ona yurt” tushunchalarini chuqur idrok etish, millat va elatlar istiqomat qilayotgan O‘zbekistonni o‘z Vatani va ona yurti deb tushunishi dunyoqarashini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tolerantlik, ya‘ni bag‘rikenglik ko‘ngil holati bo‘lib, alohida olingen jamiyatda bag‘rikenglik ongini vujudga keltirish muayyan darajada murakkab vazifa hisoblanadi. Bag‘rikenglikning samaradorligi uning shakl-tamoyili mazkur jamiyatdagi ustun ong xarakteriga qanchalik muvofiqligiga bog‘liq. Bu narsa avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ong hamjamiatning poydevori ekanligi bilan belgilanadi. Butun insoniyat tarixi davomida til birligi va etnik yaqinlik tuyg‘usi insonlar hamjamiatining asosi bo‘lib kelgan.

Ta’lim sohasidagi bag‘rikenglik haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu masalada pedagogika jarayonini aniq maqsadni ko‘zlab, asosli ravishda qayta qurish, chunonchi, ta’limning mazmuni, tarbiyaviy vositalari va o‘quv usullarini puxta o‘ylab tanlash, o‘quvchi va talabalarning darsdagi va darsdan tashqari mashg‘ulotlarini nihoyatda puxta o‘ylab yo‘lga qo‘yish, avvalo, bag‘rikenglikni yoshlар ongiga singdirish uslubini chuqur ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Shuni nazarda tutish kerakki, yoshlар ongida yangicha qadriyat tushunchasini shakllantirish ko‘p jihatdan ta’lim tizimi qanday tashkil etilishiga bog‘liq ekanligini unutmaslik kerak. Binobarin, O‘zbekistonning barcha ta’lim muassasalarida yoshlarni ezzulik,adolat, demokratiya qadriyatlari ruhida tarbiyalashga, ularni mustaqil o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyorlik, ijtimoiy faollik, xilma-xil axborotlardan to‘g‘-risini tanlash va ularni tanqidiy baholashga, bilimlarning yangi-yangi

sohalarini o'rganishga ishtiyoqmand qilib voyaga yetkazishga alohida e'tibor berilishi talab qilinadi.

Mamlakatimiz yosh fuqarolarining mentaliteti, bino'barin, umuman jamiyatning muttasil rivojlanishi o'quv yurtlarida yoshlarning insonparvarlik ta'limini modernizatsiyalash muvaffaqiyatiga bog'liqdir. Shunday qilib, bag'rikenglik jamiyat turmushining barcha jabhalarida namoyon bo'ladigan jahon va mintaqqa miqyosida ham, milliy miqyosda ham bo'rtib ko'rindigan haqiqatga aylanmog'i oliy maqsad bo'lib hisoblanadi. Bag'rikenglikni zamонави jamiyat hayotining universal qadriyatlaridan biriga aylantirish, jahon miqyosidagi tamoyillarni kuchaytirish va milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish hayotiy konsepsiya-mizning bosh maqsadiga aylanmog'i lozim. Hozirgi jo'shqin davrimizda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni yanada rivojlantirish va mustahkamlash tadbirlarida umumbashariy va milliy qadriyatimizga aylanib borayotgan bag'rikenglik tamoyillari yaqqol ko'zga tashlanayotganligi quvonchli holdir.

Agar masalaga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, biz yashab turgan davrda bag'rikenglik, keng ma'noda olganda, umuman, jahondagi ilg'or tajriba zamiridagi umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarni va madaniy xalqlar milliy turmushidagi yaxshi an'analarni davom ettirib, rivojlantirish barobarida o'zaro hurmat, birdamlik va hamnafaslikka zamin yaratadi.

Xullas, globallashuv sharoitida sivilizatsiya zamirida orttirilgan va milliy madaniyatlar zaminida rivojlanib borayotgan umumbashariy qadriyatlar yuksak samarali kommunikatsion-dunyoqarash texnologiyasiga aylanib, zulmsizlikni zamонави insonlarning kundalik turmush tarziga, jamiyat va davlatlarning hayot faoliyatiga aylantirmoqda. O'zbekistonda odamlar o'rta-sida zamонави bag'rikenglik mavzui mustaqillik sharoitida, chinakam fuqarolik jamiyatni qurilganidan keyin haqiqiy maqomga ega bo'lganligini alohida ta'kidlamoq kerak. Shu munosabat bilan bag'rikenglikni jamiyatda mustahkam totuvlik va barqaror taraqqiyotning pishiq-puxta poydevorini yarata oladigan insoniy ong va fe'l-atvorning tarkibiy qismi deb bilmoq darkor. Mana endi ma'naviy-ijtimoiy fazilat tariqasidagi bag'rikenglik shaxs, millat, jamiyatning qimmatbaho bisotiga aylandi, desa bo'ladi. Bag'rikenglikning mohiyati mazkur atamaning chin mohiyati namoyon bo'lishi bilan yuzaga chiqishini ana shundan bilib olish mumkin.

Bag'rikenglik o'zgalarning haq-huquqiga daxl • qilmaydigan, insonparvarlik tamoyillarini va amaldagi qonunlarni oyoqosti

qilmaydigan turli fikrlar va xatti-harakatlarga nisbatan faol va halol ochiq ko'ngillik bo'lib hisoblanadi.

Bundan chiqadigan ma'no shuki, bag'rikenglik inson dunyoqarashining asosi bo'lib, fuqarolarning konstruktiv ongiga va mamlakatdagi barqarorlikka faol ta'sir o'tkazishga ko'maklashadi. Agar o'tmishta nazar tashlasak, O'zbekiston o'zining uch ming yillik tarixi davomida bag'rikenglik o'lkasi bo'lib keldi, odamlar ongi va shuuridagi bu fazilat aslida Mavarounnahrda paydo bo'lgan, deb aytish uchun barcha asoslar bor, deb bemalol da'vo qila olamiz va bu bilan faxrlanishga haqlimiz. O'tmishtagi Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Buxoriy, Amir Temur, Navoiy, Bobur kabi bobolarimiz benihoya insonparvar, qalbi daryo shaxslar bo'lganligi buning dalilidir.

Zero, O'zbekiston hozir ham millatlararo munosabatlarda barqarorlik bilan, noyob tarzda saqlanib kelayotgan bag'rikenglik bilan yaqqol ajralib turadi.

Hozirgi sharoitda ko'pmillatlilik, ko'pkonfessiyalilik, ko'ptillilik, millatlararo bag'rikenglik O'zbekistonning vizitkasi bo'lib qolgan. O'zbekistonda bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va dinlararo inoqlik sohasida ijobjiy tajriba orttirilgan.

Bu strategiya o'quv jarayoni orqali ta'lif jamoalarida xayrihoxlik muhitini yaratish orqali irqchilik, shovinism, ekstremizm, ksenofobiyaning har qanday ko'rinishlarini bartaraf etishi, turli etnoslarga mansub bo'lgan o'quvchilarni birlashtiradigan sohalarga (madaniy merosga, fan, san'at, davlatni rivojlantirishga qo'shiladigan hissaga; xarakterning ijobjiy xislatlari) e'tiborni kuchaytirishi kerak. Boshqa kishilarga hurmat va ochiq ko'ngillik bilan munosabatda bo'lish, bir-biridan farq qiladigan madaniy, diniy va ijtimoiy muhitlardagi kishilar hayotining xilma-xilligini tushunish ruhini singdirish zarur. Har qanday millat kishisi o'zini bemalol his qilishi, himoyalanganligi, qo'shni bilan va dunyo bilan oshkora hamjihatlik qila olishni his qiladigan yashash muhitini yaratishga ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag'rikenglik ruhini tarbiyalashda o'zimizning holatimizni, an'analarimiz va madaniyatimiz xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, odamlarning u yoki bu o'zgarishlarni anglashga va o'zimizga bog'liq bo'Imagan sharoitlarning xususiyatlarini e'tiborga olishga tayyorligini hisobga olib ish tutmoq kerak bo'лади.

Bag'rikenglikning asosi- avvalo shaxsning tajribasidadir. Shu sababli bag'rikenglik tarbiyasi, pedagogika nuqtai nazaridan, ijobjiy

bag'rikenglik tajribasini aniq maqsad yo'lida tashkil etishdan, ya'ni "o'zga" kishilar bilan birligida harakat qilishni talab etuvchi shart-sharoitlarni sobitqadamlik bilan yaratishdan iborat.

Bag'rikenglik – ko'p ma'noli tushuncha, shu sababli uni falsafiy, tarixiy, adabiy, diniy, siyosiy va shu kabi nuqtai nazaridan ko'rib chiqmoq kerak. Har qanday holatda ham bag'rikenglik tarbiyasi insonning muayyan sharoitdag'i fe'l-atvorini qaror toptirishdan iborat.

Hoizorda ko'p madaniyatli ta'lim makonini vujudga keltirish muammosi ta'limning barcha bosqichlariga tatbiq etilmoqda. Oly o'quv muassasalarida turli millatlarga mansub yigit va qizlar birligida ta'lim olishi sababli, bu joylarda bag'rikenglik tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish zarur.

O'zbekitonliklarining bag'rikenglik ongini shakllantirishda barcha ta'lim texnologiyalariga shaxsiy ekstremistik ko'rinishlardan xoli qiladigan ichki barqarorlik tamoyilini asos qilib olish muhimdir.

Mamlakatdagi zamонави та'limning mazmuni jamiyatning umumiylari va kasb-hunar madaniyati sohasida jahon darajasidagi fuqaroni kamol toptirishni ta'minlashi lozim. O'zbekistonning hozirgi jamiyatni ko'pmillatli va ko'p madaniyatli ekanligi sababli pedagogika fani va ta'lim tizimi oldida bu yerdagi turli madaniyatlarning tinch-totuv yashab, bir-birini boyitib borishi vazifalari bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy muammolarning butun bir majumasini ko'ndalang bo'lib turibdi.

Dunyoning yangi ijtimoiy-madaniy voqealiklar: dunyoning globallashuvi va baynalmilallashuvi, etnoslarning o'z madaniyatlarini yuzaga chiqarish va qayta tiklash jarayonlari, ko'pmillatli jamiyat va migratsiya muammolariga javoban jahon pedagogika tafakkuri tegishli ta'lim strategiyasini ishlab chiqmoqda, bu narsa BMT, Yevropa Kengashi, YUNESKO va boshqa nufuzli tashkilotlarning hujjatlarida o'z ifodasini topmoqda.

Bag'rikenglik hozircha Yer kurrami yosh avlodining fe'l-atvorining tarkibiy qismiga aylangan emas. Shu boisdan ham bag'rikenglik ongini takomillashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibida turishi bejiz emas.

Bu maqsadga erishmoq uchun jamiyatda psixologlar, pedagoglar, siyosatshunoslar, tarixchilar, sotsiologlar, madaniyatshunolar, faylasuflar ka shu kabi olimlarning birligidagi kuch-g'ayratlari bilan ijobiy bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirish borasida aniq maqsadni ko'zlovchi ta'lim strategiyasini amalga osishish zarur bo'ladи.

Tadqiqot dasturini amalga osishish menuni orada o'iaziladigan sotsiologik so'rov usullaridan foydalamanish, joyina dasturiy faoliyatini

amalga oshiruvchi jamaot tashkilotlari, harakatlar, o'quv yurtlari, fondlarining rahbarlari bilan mutaxassislarning suhbatlarini o'tkazish, ommaviy axborot vositalari monitoringidan, diniy muassasalar, milliy birlashmalar va oqimlar faoliyatiga oid axborotni mutaxassislar yordamida tahlil etish usullaridan foydalanish, O'zbekistonda bag'rikenglikka doir materiallardan foydalanish dasturini amalgga oshirish asosida jamiyatda, boshqaruv bo'g'inda aniq-ravshan tavsiyalar ishlab chiqaladi.

Yuzdan ortiq milliy madaniy markazlarni birlashtiruvchi Respublika baynalmilal markazi tashkil etilganligi, mamlakatda millatlararo do'stlikni, hamkorlikni mustahkamlashga, milliy ma'anaviy qadriyatlarlarni targ'ib qilishga, umuman, davlat bilan milliy jamoatchilikning hamkorligi vositalarini shakllantirishga hissa qo'shib kelmoqda. Mazkur markazlar o'z madaniyatini targ'ib qilish sohasidagina emas, shu bilan millatlararo munosabatda bag'rikenglikni tarbiyalash sohasida ham doimo ko'pgina rejalarni amalgga oshirmoqda.

Maktablar, kollejlar, akademik litseylar va universitetlarda, norasmiy ta'lif doirasida, uyda va ishda bag'rikenglik ruhini mustahkamlash, ro'y-rostlik, bir-biriga e'tibor va birdamlik munosabatini vujudga keltirish, doimo tolerantlik fe'l-atvorini o'rgatish, zo'ravonlik va begonalashuvga asos bo'ladigan toqatsizlikning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manbalarini oolib tashlash zarur bo'ladi.

Agar joylarda "Bag'rikenglik markazlari" deb atalgan ilmiy-amaliy markazlar tashkil etilsa, bu hol tolerantlik ruhida tarbiyalash muammolarini hal etishda muhim o'rinni o'rganish bo'lar edi. Ularning oldiga amalgga oshirish va jamiyatda bag'rikenglik muhitini rivojlantirishga ko'maklashuvchi maxsus tadqiqotlar o'tkazish vazifasini qo'yish lozim. Ushbu vazifalar, o'z navbatida, quyidagilarni qamrab oladi:

- jamiyatda shakllangan bag'rikenglik munosabatlari tuzilmasi va darajasini o'rganish;
- dunyoda va mamlakatda amalgga oshirilgan bag'rikenglik ongi taomillarini shakllantirish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash yo'lida ularning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan dastur va loyihalarini tadqiq qilish;
- mustaqillik yillarda davlatimizda qabul qilingan va jamiyatimizda bag'rikenglik munosabatlari shakllantirishga ta'sir o'tkazgan qonunchilik va boshqaruvchilik qarorlarini o'rganish;
- jamiyatda bag'rikenglik ongi tamoyillarini shakllantirish ta'minlaydigan va O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlik sharoitini yaratishga

ko'maklashadigan davlat xizmatchilarining lavozim majburiyatlarini o'rganish;

– barcha pog'onadagi davlat xizmatchilarining lavozim majburiyatlarini o'rganish;

– barcha pog'onadagi davlat xizmatlarining boshqaruv faoliyati jarayonlarida bag'rikenglik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga bo'lgan ehtiyojlarini tadqiq qilish.

Madaniyat yoki dindagi eng muhim an'analar hisobiga o'z birligini saqlab qolgan an'anaviy hamjamiyatlarga nisbatan hozirgi zamondagi barcha millatlar madaniy, diniy va siyosiy jihatdan ko'proq xilmashildirlar.

Etnik bag'rikenglikni shakllantirish – millatlararo mojarolarning oldini olish va bartaraf etishning eng to'g'ri yo'lidir. Bu jarayonda turli madaniyatlarni birlashtiruvchi yagona makoni vujudga keltirishning ahamiyati katta. Buning uchun, avvalo, millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash zarur. Quyidagi lar ushbu madaniyatning oddiy unsunlari hisoblanadi:

– “etnik indiferentlik” (beparvolik), ya'nisi shaxslar o'rtasidagi muamalada milliy omilni e'tiborga olmaslik (alohida holatdar bundan mustasno);

– boshqa millat kishilari bilan munosabatda mulohazali bo'lish;

– har bir kishi har qanday dunyoqarash masalasida o'z nuqtai nazarini aytish huquqiga ega ekanligi;

– milliy, etnik muammolar xususidagi muhokamada mazkur masala yuzasidan o'zi ega bo'lgan bilimlar hajmiga tayanish;

– inson o'zi yashab turgan etnik guruhning marosimlari, rasmmusumlari, urf-odatlarini bilishi zaruriyat;

– til masalasi – millatlararo muomala madaniyatining eng muhim jihatlaridan biri ekanligini esda tutish.

Bag'rikenglik ongini shakllantirishning til masalasini hal etishda ommaviy axborot vositalalarining ahamiyati juda katta.

Ta'lim, uslubiy yo'nalish barcha pog'onalardagi ta'lim muassasalarida bag'rikenglik ongini, dirlarga sabr-toqat bilan qarashni shakllantirishga va millatlararo muloqotni o'rganishga qaratilgan ta'lim dasturlari va texnlogiyalarini yaratib, joriy etish; muassasalarda ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi mutaxassislarini, davlat xizmatchilarini, shuningdek, huquq-tartibot idoralari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha maxsus psixologik treninglar (mashg'ulotlar) o'tkazish nazarda tutiladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Jahonda bag'rikenglik masalasining dolzarbliji kuchayish sabablari nimadan iborat?
2. Turli millatlarda bag'irkenglik tushunchasini qaysi jihatlari bir xil ma'noni bildiradi?
3. O'zbekiston hududi azaldan bag'rikenglik makoni ekanligini izohlab bering.
4. Yevropada bag'rikenglikni targ'ibot-tashviqot qilishdagi xattiharakatlari nimadan iborat?
5. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi" mazmun-mohiyatini ochib bering.
6. O'zbekistonda millatlararo munosabat va bag'rikenglik fanini o'rGANilishi yoshilar uchun qanday ahamiyatga ega?

### **Kalit so'zlar:**

Tolerantlik, intolerantlik, globallashuv, bag'rikenglik, xalqaro bag'rikenglik kuni, "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi".

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Murtazayeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlari va bag'rikenglik. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.
- Murtazayeva R.X. Толерантность как интегрирующий фактор в многонациональном Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 2010. – 152 с.
2. Voxidova M.T. Tolerantlik – yoshlarni ijtimoiy-axloqiy yuksaltirish omili. Fals.f.nomz.avtoref.- Toshkent, 2010.
3. Xajiyeva M.S. Milliy ongda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tahlili. Fal.f.dokt.avtoref. – Toshkent, 2011.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. Betti Readon. Bag'rikenglik: tinchlik sari olg'a qadam. YUNESKO, 2005.
2. Bag'rikenglik – jamiyat barqarorligining asosi (ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Toshkent: Universitet, 2003. -296 b.
3. Murtazayeva R.H. Bag'rikenglik masalalarining hozirgi davrda dolzarbliji // Yosh avlodni bag'rikenglik g'oyalari asosida tarbiyalashda xotin-qizlarning o'rni. – Toshkent, 2006.

## **2-mavzu. O'ZBEKISTONDA BAG'RIKENGLIKNING TARIXIY ILDIZLARI**

### **Reja:**

1. Bag'rikenglikning tarixiy ildizlari.
2. Buyuk ipak yo'li – muloqot va hamkorlik yo'li.
3. O'rta asrlarda etnoslar va dinlararo bag'rikenglik.

### **1. Bag'rikenglikning tarixiy ildizlari**

Tolerantlik (bag'rikenglik) chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, turli davrlar jamiyati hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bag'rikenglikning shakllanishi ibtidoiy jamiyat davrida insonning o'zini, olamni bilishga intilishi va dunyoqarashining kengayib borishi, e'tiqod, urf-odatlar, tasviriy san'at va ma'naviy madaniyatning vujudga kelishi natijasida boshlangan.

Ilk yozma manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Qadimgi Sharqning sivilizatsiyalari paydo bo'lgan davrlardayoq qadimgi xalqlar, misol tariqasida Shumerlar, haqiqat va yaxshilik, qonun va tartib, adolat va erk, himmat va rostgo'ylik hamda mehriconlikni yuksak baholab, yolg'on va yovuzlik, tartibsizlik,adolatsizlik, rahmsizlik, buzib ko'rsatish va boshqa turli illatlarni rad qilganlar. Shumerlarning qarashlarida yuksak axloqiy fazilatlar va himmat insonning ezentlik va yaratuvchanlikka intilishi, uning ma'naviy madaniyati mahsuli sifatida talqin qilinmagan, chunki bunday fazilatlar faqat xudolar hadysi deb hisoblangan. Shu sababli, xudolar nomidan idora qilgan hukmdorlar buyruqlariga binoan bitilgan qadimiyo yozuvlarida, podsholar tomonidan mamlakatda qonun va tartib o'rnatilishi, yovuzlik va zo'ravonlikni batamom yo'q qilinishi haqida axborot hamisha o'z aksini topgan. Jahon tarixi fanida mashhur "Xammurapi qonunlari"ning moddalari quyidagi satrlardan so'ng boshlangan: "Odamlarni adolatli boshqarib turish va mamlakatga baxt in'om qilish uchun Marduk meni yuborganda, o'sha zamonda men mamlakatda haqiqat va adolatni o'rnatib, insonlar hayotini yaxshi holga keltirdim". Shuningdek, mazkur qonunlarning xulosa qismida shunday e'lon qilinadi: "Mana adolatli qonunlar, mamlakatga haqiqiy baxt va e'zgu boshqaruv tortiq qilgan qudratli shoh Xammurapi bularni o'rnatgan. Men o'zaro urushlar ildizlarini quritdim, mamlakat hoftatini yaxshiladim, odamlarni mustahkam manzillarga joylashtirdim va qo'rqishdan xalos qildim. Zo'rlar kuchsizlarni jabr qilmasligi, yetim va bevaga adolat berish uchun...".

Mazkur manbaning muhim jihatlari shundaki, qadimgi davrlardan boshlab, bosqinlar, o'zaro urushlar, kuchsiz va himoyaga muhtojlarni talash kabi voqealarni salbiy baholash, ularga xotima berish muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

O'rta Osiyo jahon sivilizatsiya o'choqlaridan biri hisoblanadi. Mil. avv. III – mingyillik oxirlari – II – mingyillikning boshlarida mintaqaning janubiy viloyatlari – Marg'iyona va Baqtriya hududlarida ilk davlatchilik va shaharsozlik madaniyati shakllanadi. Bronza davriga oid mazkur sivilizatsiya "Oks (Amudaryo) sivilizatsiyasi" deb e'tirof etilgan.

O'rta Osiyo tarixining xususiyati shundan iboratki, hali olis o'tmishlardayoq mahalliy aholi tarkibi turli davrlarda nafaqat ichki o'sish hisobiga, balki tashqi migratsiyalar evaziga ham kengaya borgan. Arxeologiya ma'lumotlarining guvohligiga qaraganda migratsiya jarayonlari eneolit va bronza davriga kelganda ayniqsa kuchayadi. Bu davrda qadimgi ziroatchilarning Kopettog' oldi, Murg'ob daryosi etaklari, Shimoliy Afg'oniston hamda Surxon va Zarafshon vohalariga keng joylashuvi qayd qilinadi. Shuningdek, Belujiston va Xarappa axolisining Afg'onistonning janubi va Hind daryosi vodiyisidan Panj daryosi havzasiga bosqichma-bosqich singib ketishini ham ta'kidlash joiz. Mil. avv. II mingyillikning ikkinchi yarmida chorvador aholining Uralbo'y, Markaziy Qozog'iston va G'arbiy Sibir dashtlaridan O'rta Osiyoga jadal siljishi boshlanadi. Shunday qilib, O'rta Osiyoning eng qadimgi tarixi qabilaviy migratsiyalar, turlicha iqtisodiy va madaniy asosdagi qabilalar o'rtasidagi assimilyatsiya (qorishib ketish) jarayonlari hamda uzoq davom etgan o'zaro madaniy hamkorlik bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda bag'rikenglik mezonlari yangi asoslarda rivoj topgan.

Qadimgi migratsiyalarning asosiy sabablari ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ta'sirida ro'y bergan, jumladan, o'zlashtirilgan hududlarda aholi sonining keskin o'sib borishi, hosildor yerlar, suv manbalari va chorva boqish uchun yaylovlarning kamchiligi, iqlimning keskin isib ketishi, qurg'oqchilik va Mesopotamiya sivilizatsiyalari misolida – bu o'zaro raqobatchilik, serhosil yerlar va savdo yo'llarni egallash uchun shahar – davlatlarning o'rtasidagi urushlar bo'lgan.

Mil.avv. III mingyillikning oxirlarida Old Osiyo hududlarida (Suriya, Akkad, Shumer) bosqinlar va harbiy to'qnashuvlar avj olgan. Hayot uchun xavfli bunday sharoitda tinch aholining katta qismi, ya'ni yirik o'troq jamoalar a'zolari, o'z hududlarini tark etishga majbur bo'ladi. Bunga o'xshash ommaviy ko'chish mobaynida, migrantlarning

miqdori qadimiy yo'llarida joylashgan viloyatlar axolisi evaziga oshib borgan.

Marg'iyona va Baqtriya zaminida bronza davri madaniyatning shakllanishi (Gonur, To'g'oloq, Dashtli, Sopolli, Jarqo'ton) ilg'or sivilizatsiyalar (Akkad, Shumer, Elam) rivoj topgan hududlaridan boshlangan migratsiyalar bilan bog'langanligi ehtimoldan xoli emas. Asosiy arxeologik belgilariغا ko'ra, Oks - Amudaryo sivilizatsiyasi Qadimgi Sharq me'morchiligi, hunarmandchiligi namunalari va tasviriy san'at obidalarida o'xshashlik topadi.

Olis yurtlardan ko'chib kelgan aholi guruhlari quyi Murg'ob daryosidagi Marg'iyonada dehqonchilikka qulay, aholi tomonidan o'zlashtirilmagan, bo'z yerlarga kelib joylashgan. Mazkur davrda voha suv manbaiga serob edi, chunki Amudaryoning suvlari Kalif Uzboyi o'zani orqali Murg'ob vohasiga yetib borgan, Murg'ob daryosi Amudaryoning qadimiy irmog'i bo'lgan.

O'zlashtirilgan yerlarda bir vaqtning o'zida ko'p sonli manzilgohlarga asos solinadi, shuningdek, migrantlar voha chegaralaridan chiqib, Shimoliy Afg'onistonda quyi Balxbob vohasi, Janubiy O'zbekistonda O'lanbuloqsoy hamda Sherobod vohalarida joylashib, bu yerdan ular Buxoro vohasi, Yuqori Zarafshon (Panjikent atroflari), Sharqi Farg'ona, hamda Tarim daryosi (Sharqi Turkiston) havzasiga yo'l olganlar. Shuningdek, Oks sivilizatsiya vakillari shimoli-sharqi Afg'oniston orqali Hind vodiysiga etib borib, mazkur zaminda Xarappa madaniyatining an'analari Baqtriya-Marg'iyona, ya'ni Oks sivilizatsiyasining madaniy innovatsiyalariga almashadi. Ta'kidlash joizki, bunday uzoq masofadagi bronza davri migratsiyalari tinch sharoitda amalga oshirilgan. Qabilalar tomonidan o'zlashtirilmagan daryo vohalaridagi qo'sriq va bo'z yerlar hamda tog'oldi va dashtlarda keng yaylovlarining serobligi tufayli, migrantlar raqiblarni deyarli bilmagan.

Xullas, bronza davrida yashash yerlari tobora kengayib, tinch sharoitdagi madaniyatning rivojlanishi o'zaro aloqalarga asoslangan.

Mil. avv. II mingyllikning ikkinchi yarmida dasht yaylovlarida boqiladigan chorvachilik keng yoyilib, xo'jalikning maxsus turiga aylangan. Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Panj daryolari bo'ylab dasht chorvadorlarining migratsiya yo'llari paydo bo'ladi. Chorvadorlarning ba'zi bir guruhlari o'troq bo'la boshlagan va dastlab, dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan aholining voha chegaralarida joylashib, keyinchalik zirotatchilar bilan etnomadaniy jihatdan qorishib ketganlar. Shu bois

O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi etnik tarixi quyidagi tartibda kechgan: tub (avtoxton an'analar) – sintez – yangilanish, yana an'analar hamda etnomadaniy yangiliklar – innovatsiyalarning bo'y ko'rsatishi. Shu asosda O'rta Osiyo xalqlarining yozma manbalaridan ma'lum bo'lgan qadimiy elatlarning (marg'iyonaliklar, baqtriyalar, sug'diyalar, xorazmiylar) va sak-massagetlar kabi ko'chmanchi qabilalarning shakllanishi ro'y berdi.

Bag'rikenglikning tarixiy ildizlariga murojaat etar ekanmiz, Yuqorida tilga olingen davrlarning tarixiy jarayonlarlarida xilma-xil e'tiqodlar, urf-odatlar, moddiy madaniyatning keng hududiy doirasida yoyilishiga yordam bergan tinch ta'sir yo'lini kuzatish mumkin. Bu nafaqat tashqi madaniy aloqalar, balki to'g'ridan-to'g'ri aholi ko'chishi – migratsiya jarayonlariga asoslangan bo'lib, turli dunyoqarash, ma'anaviyat sintezi, shuningdek, etnik qorishib ketish yuz berdi.

O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid ilk yozma manba "Avesto" va arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, mil.avv. VIII-VII asrlarga kelib mintaqaning dasht va tog'liq joylarida yashovchi ko'chmanchi chorvador qabilalari harbiy soha va yarog'-aslahalarni ishlab chiqarishda (harbiy boltalar, xanjarlar, bronza nayzalar va o'qlar) katta muvaffaqiyatlarga erishiб, ularning suvoriy qo'shinlari o'troq zirotchi aholiga tahdid soladi. Mazkur davrda tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish maqsadida (dehqonchilik vohalar hududini himoya qilish) katta mudofaa ishlari amalga oshirilib, mustahkam qal'a-markazlaridan vohalar axolisi uchun boshpana, jamoalar mulkining asosini tashkil etuvchi chorva podalari uchun pana joy sifatida foydalilanigan. Bunday qal'alar arxeologlar tomonidan Marg'iyona, Baqtriya, Sug'd va Xorazm vohasi hududlaridan topib tekshirilgan.

Shu davr dehqonchilik va chorvador aholi o'rtasidagi siyosiy qarama-qarshiliklar, kurash va tinimsiz bosqinlar haqida "Avesto"ning Yasht kitobi ma'lumot beradi: "Ko'p yaylovlarga ega Mitrani biz ulug'laymiz, qonxo'r dushman qo'shinlariga qarshi chiqib janga kirgan mamlakatlar hukmdorlari unga sajda qiladilar". Shuningdek, boshqa joyda: "Yaylovlari keng Mitra, bizning kuchlarimizga abzal, o'zimizga salomatlik ber, dushmanlarni uzoqdan ko'rib, har birini, barchasini bir zarba bilan yengishga salohiyat ber".

Qabilalar bir-biri bilan yovlashardi. Bosqinlar, urushlar, inson zotiga cheksiz judoliklar, o'lim keltirardi. Yo'lboschchilar va jangchilar harbiy yurishlarga chiqib, kuchsiz va himoyaga muhujlarni talar edilar. "Avesto"da ta'kidlanishicha, bosqinlar va o'zaro urushlar

“xonadonlarga, manzilgoh, viloyat va mamlakatga qashshoqlik va vayronlik keltirardi”.

Turli tillarda yoritilgan manbalar dalolat berishicha (bobil, qadimgi fors, oromiy, yunon) uzoq yurtlardan kelib chiqqan xalqlar vakillari Sharq sivilizatsiyalarining qadimgi markazlarida mahalliy aholi bilan birgalikda yashaganlar. Ularning an'analari, urf-odatlari, tili va marosimlari o'zaro aloqalarga to'sqinlik qilmagan. Turli xalqlar bir-birining dini va dunyoqarashlariga hurmat bilan qaraganlar. Yangi hududiy va madaniy sharoitdagi ijtimoiy va iqtisodiy hayotga moslanish uchun irqiy va diniy to'siqlar bo'limgan. Aralash nikohlar asosida assimilyatsiya jarayonlari rivojlangan.

Tadqiqotchilarning yozishicha, qadimiylar dogmatik xususiyatga ega emas edi, shu bois, o'zga xalqlarning e'tiqodlariga nisbatan diniy bag'rikenglik namoyon bo'lib, uning asosiy sababi Qadimgi Sharqdagi siyosiy yoki axloqiy omillar emas, balki soxta e'tiqod va dahriylikning shakllari haqidagi tushunchalarning ma'lum bo'limganligi, irqiy nafrat va bir xalqning boshqa xalqlarga nisbatan ustun turishi tuyg'usi, ya'ni alohida xalqning etnik tanlanganligi va madaniy afzalligi to'g'risidagi tushunchalar hamda g'oyalarning butunlay yo'qligidir.

Bu borada o'zga xalqlarning dinlari va xudolariga izzat-hurmat hatto urushlar paytida ham namoyon bo'lgan. Gerodotning yozishicha, yenon-fors urushlari davrida, qadimgi fors lashkarboshisi Mardoniy Plateya jangidan oldin, yunon xudolaridan madad so'rab, yunon kohini Gegistrat yordamida, mahalliy marosimlari talablariga rioya qilib, yunon xudolarga qurbanlik qilgan. Bunday yondashuv begona yurt, Yunoniston hududida Eron xudolariga ko'ra, yunon xudolari forslar taqdirini hal qiladi degan tasavvurdan kelib chiqqan.

Gerodotning bag'rikengligidan ham saboq olish mumkin. Tarixchi o'zga xalqlarning madaniyati, e'tiqodi, urf-odatlari haqida yozib qoldirar ekan, ularning ma'naviy qadriyatlariga zarracha, napisand, behurmatlik bilan qaramaydi yoki Sharq xalqlariga nisbatan yunon madaniyatini ustun qo'ymaydi.

O'rta Osiyoda tolerantlik qadimgi ildizlarini o'rganish yozma manbalarning kamligi bilan chegaralanadi. Agar "Avesto"da bu masala diniy falsafa va nasihatlar bilan bog'liq bo'lsa, Gerodot ilk bor O'rta Osiyo tarixidagi bag'rikenglik mavzusiga oid tarixiy voqelikdan kelib chiqqan yozma ma'lumot keltiradi. U qadimgi fors shohi Kir II ya massagetlarning malikasi To'maris siyosiy munosabatlari haqidagi hikoyada o'z aksini topgan.

Mahalliy aholi va yunonlar o'zaro madaniy ta'siri asosida turli sohalarga tegishli (hunarmandchilik, me'morchilik, haykaltaroshlik va tasviriy san'atning boshqa yo'naliishlari) bilimlar va ko'nikmalar oshib borgan, dunyoqarash va ma'naviyat yangi asoslarda rivoj topgan.

Siyosiy jihatdan, Aleksandr va undan keyin Sharqda vujudga kelgan yangi ellenistik davlatlarning hukmdorlari, Ahamoniylar davrida paydo bo'lgan hududiy-ma'muriy boshqaruv va tayanch harbiy garnizonlarni bunyod etish, qo'shinlar tuzishda turli xalqlarning vakillarini jaib etish an'analarini davom ettirganlar.

Tadqiqotchilarning yozishicha, mil. avv. 324 yilda Aleksandr etnik qo'shilish g'oyasini ro'yobga chiqaradi. Mazkur g'oyaga ko'ra, bir xalqning boshqa xalq bilan qorishib ketishi natijasida ommaviy assimilyatsiya jarayoni boshlanishi lozim. Shu bois xalqlar orasida mavjud etnik va madaniy farqlar bir xillikka aylanadi. Aslida, bunday g'oya Sug'diyonada Aleksandrning Roksanaga uylanishi misolida dastlab namoyon bo'lgan. Shuningdek, Sharqning turli viloyatlarida harbiy tayanch qal'alarga asos solish oqibatida, mazkur garnizonlarda qoldirilgan yunon-makedon jangchilarining mahalliy ayollarga uylanishi ham nazarda tutilgan.

Yurishlar yakunlanishidan so'ng, Suza shaxarida ommaviy nikohlar amalga oshiriladi. Aleksandr va uning yaqin do'stlaridan biri Gefestion Doro III ning qizlariga uylanadi. Sharq viloyatlari zodagonlarining qizlarini ko'plab yunon-makedon lashkarlari xotin qilib oladilar. Misol tariqasida, Spitamenning qizi Apamaga sarkarda Salavk uylanadi. Bunday nikohlar teng huquqli bo'lganligidan, Salavkiylar davlatida Apama nomidagi shaharlarning bunyod etilishi dalolat berishi mumkin.

Qadimdan O'rta Osiyoda diniy tolerantlik rivojlangan. Bu jarayon antik davrida ham namoyon bo'lib, ilk o'rta asrlarda (V-VIII asrlar) xalqlarning o'zaro munosabatlarda muhim o'rinn egallab turgan.

Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan O'rta Osiyo Sharqi Turkiston va Uzoq Sharq hududlariga turli dinlarning tarqalishida (buddaviylik, zardushtiylik, moniylik, xristian) katta o'rinn tutgan. Mazkur dinlar ma'naviyat rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Qo'shni o'lkalarga yozuv tizimi (sug'd, parfiya yozuvi) va yangi musiqa asboblarining kirib borishi O'rta Osiyo ta'sirida ro'y berdi. Xitoyda VII-VIII asrlarda buxorolik, samarqandlik, chochlik musiqachilar mashhur bo'lgan.

Mintaqaning o'zida tolerantlikning rivojlanishi madaniyatning ko'p xilligida va diniy bag'rikengligida o'z aksini topgan. Misol tariqasida,

Surxandaryo vohasida turli shakldagi yozuv namunalarini aniqlangan. Oromiy va yunon yozuvlari asosidagi baqtriya yozuvi, yunon yozuvi, hind-kharoshtxi va braxma yozuvlari shular jumlasidandir. Shuningdek, qo'hna Termizda, Fayoztepa va Qoratepada Buddha ibodatxonalarini. Dalvarzintepada Buddha ibodatxonasi va hayvonot olami ilohasi Nana ibodatxonasi (kushonlar davri) hamda qadimgi shahar tevaragida zardushtiylar maqbarasi – novus o'rganilgan.

Bunday holat mintaqaning turli viloyatlarida namoyon bo'lgan. Marg'iyonaning Marv shahrida antik davri va ilk o'rta asrlarga oid arxeologik va yozma ma'lumotlarga ko'ra, moniylik, yahudiylilik, xristianlikning oqimi nasroniylik va buddaviylik diniari rivoj topgan. Ular bilan birga mahalliy e'tiqodlar ona iloha va olovga sig'inish tarqalgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Marvda mahalliy aholi bilan birqalikda yahudiylar, buddaviylik va xristian dini targ'ibotchi – qohinlari va boshqa xalqlarning vakillari yashaganligi ehtimoldan xoli emas.

Janubiy Orolbo'yi Xorazm vohasida ham e'tiqodlar va diniy qarashlar turlicha bo'lgan. Zardushtiylik va hosildorlik e'tiqodi, olovga, ajdodlar ruhiga hamda o'lib borayotgan va jonlanayotgan tabiatga sig'inish shular jumlasidandir. Olov ibodatxonalarini mil.avv. V asrga oid Katta Oybo'yirqal'a va Xumbuztepada, hosildorlik e'tiqodi bilan bog'liq ibodatxonalar Quyiqirilganjal'a va Qal'aliqir 2 da (mil. avv. IV-II asrlar) topib tekshirilgan. Ilolahlar tasviri Elxaras ibodatxonasida aniqlangan (mil. avv. V-IV asrlar chegarasi). Tuproqqal'a saroy-ibodatxonasida (milodiy II-III asr) shohlar ajdodlari ruhlariga ta'zim qilish an'analari saroy haykallari tasvirlarida o'z aksini topgan. Hukmdor – ajdodlar mavzusi Oqshaxonjal'a devoriy rangtasvirlarida ham mavjud (mil. avv. II-I asrlar).

O'rta Osiyo qadimiy axolisining dunyoqarash va ma'naviyati rivojlanishi darajasi turlicha san'at namunalarida ifodalangan (haykaltaroshlik, devoriy rangtasvirlar, ossuariylar tasvirlari). Ular ko'p hollarda mintaqaga xalqlari madaniyatining umumumiyligidan dalolat beradi.

Qadimgi davr va ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida tolerantlikka oid talaygina misollar keltirish mumkin. Bu borada turli din va e'tiqodlar tarafdorlarining yashash joyini tanlash huquqi cheklanmagan. Ular shaharlar umumiy hududi guzarlarida joylashib, turli kasb-hunar sohalari bilan shug'ullanish imkoniyatlariga ega edi. Odamlar o'z diniy bayramlari va marosimlarini erkin amalga

oshirishgan. Zardushtiyarning otashgohlari, buddaviylik, xristian va yahudiylik ibodatxonalarining yonma-yon qurilishi man etilmagan. Boshqa e'tiqodlar va o'z ma'budalariga sig'inishgan kishilarga nisbatan dushmanlik kayfiyati hamda irqiy nafrat mayjud bo'lmagan.

Shu bois, ilk o'rta asrlarda Choch, Farg'ona vodiysida va Yettisuv vohalarida buddaviylik dini va xristianlik ta'llimoti tarqaladi. Sug'diy larning Buyuk ipak yo'li bo'ylab Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharq hududlariga migratsiyalari tufayli, Xitoydag'i Chanyan, Loyan va Kayfan shaharlarida otashgohlari, ya'ni olov ibodatxonalari buniyod etilgan.

Qadimgi davr va ilk o'rta asrlarda turli e'tiqod va diniy qarashlar doimo bir-biriga ta'sir qilgan va o'zaro boyigan Sug'diy lar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, farg'onaliklar o'zga qabilalar va elatlarga madaniy yutuqlarni yetkazishda muhim o'rinn tutgan. Xalqaro madaniy muloqot dunyoqarashning yangi asoslarda rivojlanishiga zamin yaratgan. Ma'naviy madaniyat taraqqiyoti darajasi betakror san'at namunalarida ifodalangan. San'at obidalarida ezgulik, yaratuvchanlik va go'zallikka intilish o'z aksini topgan.

## 2. Buyuk ipak yo'li – muloqot va hamkorlik yo'li

O'zbekistonda tamaddunning shakllanib rivojlanishida bag'rikenglik an'analarining mustahkamlanib kuchayishida savdo-sotiq va aloqa yo'llarining ahamiyati katta bo'ldi. Qadimiyo yo'llar muammolariga oid tadqiqotlar XIX asrning ikkinchi yarmidan shu kungacha davom ettirilmoqda. Ana shu tadqiqotlar O'zbekiston tamadduni butun Sharq tamadduni bilan bevosita bog'liq ekanligini uzil-kesil tasdiqlab berdi.

O'rta Osiyo qadimiy yo'llarini o'rganish uchun ko'pgina tadqiqotlar o'tkazildi. Masalan XIX asrning oxirlari va o'tgan asrning boshlarida tadqiqotchilar o'rta asr mualliflarining asarlaridan Balxdan Kesh va Samarqandgacha bo'lган qadimiy yo'llarni va boshqa yo'naliishlardagi magistrallarning bayon etilganini topdilar. Tadqiqot ma'lumotlarining ko'rsatishicha, ayrim qadimiy yo'llardan so'ng o'rta asrgacha foydalanib kelgingan.

O'lkamiz hududida yashagan eng qadimiy xalqlar to'g'risida ma'lumot beruvchi ko'hna yozma manbalarda shu hududlarda istiqomat qilgan aholining iqtisodiy va madaniy aloqalari to'g'risida yetarlichcha to'liq ma'lumot bayon etilmagan. Shu sababli arxeologiya, etnografiya va antropologiya sohasidagi izlanishlarning ma'lumotlari g'oyat ahamiyatlidir. Shu sohadagi ma'lumotlarni tahlil etish natijasida

dehqonlar va chorvadorlar tomonidan O'rta Osiyo hududidan yerlami o'zlashtirish sohasidagi o'ziga xos xususiyatlar va qonuniyatlarini o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Savdo-sotiq, mol ayrboshlash va madaniy aloqalarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hududdagi o'zaro munosabatlar, jumladan, qadimiy yo'llar va yo'nalishlar tarixini o'rganish ham g'oyat ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklardayoq O'rta Osiyo hududi Qadimiy Sharqda vujudga kelgan va ko'p hollarda ayni shu hududga xos bo'lgan savdo-sotiq, mol ayrboshlash va madaniy munosabatlar tizimiga kira boshlagan edi. Shu paytda eng qadimiy yo'llar paydo bo'lishi natijasida sharq xalqlari o'rtasida madaniy va iqtisodiy munosabatlar, xususan savdo-sotiq rivojlanganligi kuzatiladi.

Masalan, tadqiqotchilarining fikricha, miloddan avvalgi 4-3 ming yillikdayoq Janubiy Turkmaniston hududida loydan yasalgan dastlabki g'ildiraklar, miloddan avvalgi 3-ming yillik o'rtalariga kelib, ho'kiz qo'shilgan to'rt g'ildirakli aravalalar paydo bo'lgan. Dastlabki yuk tashish vositalari paydo bo'lib rivojlanishi ichki hududda qishloq xo'jalik va hunarmandchilik mahsulotini taqsimlash jarayonini jadallashtirish uchun yaxshi sharoit vujudga keltirganligini, bu esa qadimiy yo'llarda iqtisodiy va madaniy munosabatlar samadorligini oshirishga ko'maklashganligini ta'kidlab o'tmoq kerak.

Yuqorida aytib o'tilganidek, jez davriga kelib O'rta Osiyodagi yangi yernarning aholi tomonidan o'zlashtirilish jarayoni jadal tus oldi. Shu vaqtida O'rta Osiyoda yashovchi ko'pdan-ko'p qabila va etnik guruhlar Qoraqum va Qizilqumning ichki qismidan Pomir va Oloyning Yuqori mintaqalaridan tashqari butun hududni o'zlashtirib bo'lgan edilar. Shu hududdagi moddiy madaniyat umumiy tarzda olinganda ikki guruhg'a – chorvachilik xo'jaligiga ega bo'lgan Andronovo tarixiy-madaniy jamoasi (Ijtimoiy zona)ga va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi Namozgoh tarixiy-madaniy jamoasi (Janubiy zona)ga bo'linar edi. Ular o'rtasida va ularga qo'shni bo'lgan hududlar bilan qadimiy yo'llar orqali turli sohalarda aloqa qilib turilar edi. Bu aloqalar chorvadorlar bilan o'troq aholi o'rtasida savdo-ayrboshlash munosabatlarini tez rivojlantirish imkoniyatini yaratdi. Muayyan hududda tayyorlangan mahsulotning boshqa hududda topilishi yoki qadimiy hududlardan topilgan xomashuolar shu fikrni isbotladi.

Masalan, Andronovo madaniyatiga xos bo'lgan idish-toyeqlar Marg'iyona, Baqtriya, Sog'diana hududlaridan topilgan, Xorazmda

yasalgan loy va metall buyumlar ko'pincha shimoliy hududlaridagi qazishmalarda uchrab turadi. Zamonbobo va Xo'jayli yodgorliklari atrofida Badaxshon lojuvardidan yasalgan buyumlar topilgan.

O'rta Osiyo hududi qadim zamonlardan qimmatbaho tosh va metallarga boy bo'lган, bu yerda topilgan nodir toshlar butun Sharqda ma'lum va mashhur bo'lган. Lojuvarddan yasalgan buyumlarga talab katta bo'lган. Tadqiqot natijalariga ko'ra, miloddan avvalgi 4-3- min yilliklarda Old Osiyo, Mesopotamiya, Eron va O'rta Osiyoda lojuvarddan yasalgan buyumlar paydo bo'lган. Ko'pgina tadqiqotchilarining fikricha, ularning aksariyati Badaxshon lojuvardidan tayyorlangan. O'rta Osiyo qimmatbaho metallarining Sharqda yoyilganligi qadimiy yo'llar haqida ilmiy munozaralarga sabab bo'ldi.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: jez davridayoq qadimiy savdo-tranzit (karvon) yo'llari paydo bo'lган. Ko'pgina tadqiqotchilar bu yo'lni "Lojuvard yo'li" deb ham ataydilar. O'sha davrda O'rta Osiyoning savdo yo'llaridan biri Baqtriya va Marg'iyonani qadimiy Xorazm, So'g'diyona, Markaziy Qozog'iston va Urol bilan bog'lagan. Badaxshon lojuvardi miloddan avvalgi 3-ming yillikda Mesopotamiyada ayniqsa shuhrat qozongan. Tadqiqotchilarining fikricha, jez davrida Badaxshondan janubi-sharq tomonga boriladigan yana bir yo'l O'rta Osiyoning qadimiy xalqlarini Afg'oniston orqali Mesopotamianing yirik markazlari – Ur, Uruk, Kish, Lagash shaharlari bilan bog'lagan. Jez davridagi uchinchi yo'l O'rta Osiyo janubidash Baqtriya va Marg'iyonani Hindistonning Xarappa va Eronning Moxanjo Boro madaniy markazlari bilan tutashtirgan. Miloddan avvalgi 2-ming yillikka kelib, Farg'ona va Shosh hududlari bilan Qadimiy Sharq o'rtasida munosabat boshlangan. Qadimiyat tadqiqotlari natijalariga ko'ra, shu davrda Mesopotamiya shaharlaridan boshlangan savdo yo'llari Janubiy Turkmaniston orqali Baqtriya va So'g'diyonaga va so'ngra Farg'onaga olib borgan. Bu yo'lning bir tarmog'i Farg'onadan G'arbga, Qozog'iston cho'llari orqali Uralga va Volga bo'ylariga borgan. Boshqa bir tarmogi esa Farg'onadan Sharqqa, devon orqali Shingjonga, Shimoliy Xitoygacha cho'zilgan.

Miloddan avvalgi 3-ming yillikka kelib O'rta Osiyo mintaqalari Mesopotamiya, Hindiston, Eron kabi tamaddunli mamlakatlar bilan ham aloqa o'matgan edi. Tadqiqotlar natijasida Zarafshonning Yuqori qismida joylashgan Sarazm qadimiy madaniyat yodgorliklarida hind tamadduni ashuolariga o'xshash buyumlar: chig'anoq toshdan yasalgan bezaklar, sopol idish namunalari topildi. Shu o'xshashliklarga qarab,

ikkala hudud o'rtasida munosabat mavjud bo'lganligini aytish mumkin. Ko'riniib turibdiki, miloddan avvalgi 12-3 ming yilliklarda O'rta Osiyo janubida yashagan aholi Mesopotamiya va Eron xalqlari bilan, markaziy hududlarning axolisi esa, asosan, Hindiston bilan bevosita aloqada bo'lgan. 2-ming yillik o'rtalarida ichki va tashqi savdo bilan shug'ullangan Mesopotamiya savdogarlar uchun Mesopotamiya va qo'shni davlatlar bo'yicha yo'l ko'rsatkich-xaritalar bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar borligini aytib o'tmoq kerak. Ashshurbanipal kutubxonasida O'rartidan Misrgacha bo'lgan hududlarning joylashish xaritalari topilgan. Tadqiqotchilarining fikricha, Hindistonning Mesopotamiya va Eron bilan munosabatlari dengiz yo'li orqali, O'rta Osiyo bilan munosabatlari esa, asosan quruqlikdagi yo'llar orqali olib borilgan.

So'nggi yillardagi tadqiqot natijalariga ko'ra, Hindistondan O'rta Osiyoga kelinadigan yo'l Hindikush dovonlari orqali o'tib, Ko'kcha daryosining Amudaryoga quyilish joyi (Shimoliy Afg'oniston)da shoxobchalarga bo'linib ketgan.

Yo'lning shimoliy yo'nalishdagi tarmoq Baqtriya (Dashli, Sopolli, Jarqo'ton) orqali Zarafshon vodiysi (Sarazm, Zamonbobo)ga, undan Qizilqum-CHotqol-Qurama tog'lariga va Markaziy Qozog'istonning mis-qo'rg'oshin qonlariga olib borgan. Ikkinci tarmoq esa Sho'rto'qaydan Amudaryoning so'l sohili bo'ylab Murg'ob, Tajan daryolari vodiyalariga, Janubiy Turkmaniston (Oltintepa, Namozgoh)ga va shimoli-g'arbiy Eronga olib borgan.

Xalqimiz bag'rikenglik an'analarining yoyilishi va rivojlanishida bevosita iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda qadimiy yo'llarning ahamiyati kattaligiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Shu bilan birga qadim zamonalarda ro'y bergen migratsiya jarayonlari ham bag'rikenlikning muhim tarixiy ildizlardan biri bo'lganligini qayd etish lozim.

Xalqlar ko'chishining mahalliy madaniyatga ta'siri haqida keyingi yillarda muayyan tadqiqotlar o'tkazildi. Ba'zi olimlar O'zbekiston janubidagi (Bo'stonsoy) qadimiy aholining o'rtacha umri uzoqligi va antropologik qiyofasini jez davrida O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida yashagan aholining ana shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslاب, ular o'rtasida unchalik tafovut yo'q, degan xulosaga keldilar.

Shu davrda O'rta dengiz irqiy qiyofasiga va o'z moddiy madaniyatiga ega bo'lgan xalqlar migratsiya jarayonlari ta'sirida mahalliy aholiga yaqinlashganlar, O'zbekiston hududi (Chust, Dalvarzin,

Sopolli, Jarqo'ton, Mullali)dagи jez davri yodgorliklari va janubi-g'arbiy Tojikiston (Shersoy, Makanimar), Janubiy Turkmaniston (Oltintena, Namozgoh), Shimoliy Asg'oniston va Shimoliy Eron madaniyat yodgorliklari shundan dalolat beradi. 2-ming yilliknnng oxiri va 1-ming yillikning boshlaridagi migratsiya jarayonlari kuchayishi natijasida O'rta Osiyoning katta hududida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shu davrda shimoldan kelgan ko'chmanchi Andronovo madaniyati kishilari mahalliy aholi bilan qo'shilib ketdi va dehqonchilik bilan shug'ullanish uchun qulay yerkunda joylashib, o'troq hayot tarziga o'tdilar.

Ko'pchilik tadqiqotchilar 3-ming yillik o'rtalari va 2-ming yillikda yangi tarixiy an'analar vujudga kelganligini va bu holat O'rta Osiyodagi migratsiya jarayonlarining natijasi ekanligini ta'kidlaydilar. Bu jarayonda, tegishli aloqalar tufayli yuzaga kelgan madaniy-iqtisodiy o'zaro ta'sir ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. O'rta Sharq tarixiy tamadduni rivoji uchun qadimiy Shumer-Elom an'analarini asos bo'lib xizmat qilganligini ta'kidlab o'tmoq kerak. Ularning ta'sir darajasini iqtisodiy va madaniy turmush ashuolarida, joylarning me'moriy-tarixiy rivojlanishida, hunarmandlarning ayrim buyumlarida ko'rish mumkin. Bundan tashqari hind madaniyati ham O'rta Sharq tamadduniga kuchli ta'sir o'tkazdi.

So'ngga madaniy ekspansiya davom eta borib, iqtisodiy va madaniy rivojlanish doirasini shimoli-sharqiyan tarafga – janubi-g'arbiy Tojikiston hududiga yoyiladi va dasht chorvadorlari madaniyatiga duch keladi. Shu paytdan e'tiboran dasht va o'troq jamoalarning chegara hududlaridagi o'zaro madaniy ta'sir mintaqada tarixiy-madaniy asosda sodir bo'layotgan etno-siyosiy jarayonlarni yanada ko'proq chigallashtirib yuboradi.

Shu bilan birga bu davrda dehqonchilik va chorvachilik madaniyatlarining birlashuvni xo'jalikni nisbatan samarali yuritishning muhim asosi bo'ldi. Metall qazib olish va uni qayta ishlashda kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ham Yuqori natijalarga erishildi. Jez davri hunarmandlari faoliyatida texnologiya o'zgarishlari tufayli mahsulot sifati yaxshilandi, bu hol ham ichki, ham tashqi omillar bilan bog'liq edi.

Miloddan avvalgi 2-ming yillikda janubiy dehqonlar bilan shimoliy chorvadorlarning (avvaliga aloqa orqali, so'ngra bevosita ekspansiya va migratsiya, ya'ni yoyilish va ko'chish orqali) faol o'zaro munosabatlari O'rta Osiyodagi tarixiy-madaniy jarayonlarga sezilarli ta'sir o'tkazdi va

mazkur hudud axolisining tarixiy taqdirida, shuningdek bag'rikenglik an'analarini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

### **3. O'rta asrlarda etnoslar va dinlararo bag'rikenglik**

Uzoq vaqt davomida bag'rikenglik (tolerantlik) faqat g'arbiy sivilizatsiya fenomeni deb tan olingen edi. Ammo, bugungi kunda ko'plab yevropalik va amerikalik tarixchi, siyosatshunos, madaniyatshunoslar tomonidan tolerantlik (diniy, etnik, madaniy) Sharqda qadimdan mavjud bo'lib, keyinchalik esa g'arb jamiyatining qadriyat sifatida qabul qilingan, deya fikr yuritmoqdalar.

Tarixiy jihatdan tolerantlik insonlarga hamdard bo'la olish xususiyatlari asosida Sharq sivilizatsiyasi tarkibida shakllangan.

O'zbekiston diyorida qadimdan turli sivilizatsiya vakillari, madaniy qatlamlar, xilma-xil e'tiqod va dunyoqarashlar yonma-yon yashab kelgan. Bu yerda yashovchi xalq boshqa joydan ko'chib kelib, o'mashib qolgan emas. Bu zamin Sharq va G'arbning, Shimol va Janubning, qadim o'tmish va buyuk kelajakning tutashgan joyi, Markaziy Osiyoning yuragi, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatining eng ko'hna o'choqlaridan biridir. Bu tuproqda jahonni hayratga solgan sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub diniy va falsafiy an'analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni "falsafiy tafakkur beshigi", deb bekorga ta'riflamagan. Shuni ta'kidlash joizki, bizning sivilizatsiya o'ziga xos bag'rikenglik tafakkur uslubiga tayanadi. Bunday tafakkur uslubiga bizning zaminimizda uzoq vaqt ham otashparastlik, ham buddaviylik, ham yahudiylilik, ham xristianlik, ham islom dinlari bo'lganini misol keltirish mumkin.

Qayd etish lozimki, O'rta Osiyo hududida ma'lum din, xususan xristian jamoalarining paydo bo'lishi aslida er.avv. III asrga borib taqaladi. Aynan shu davrda Eronda boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarni ta'qib qilish jarayoni avj olgan edi. Zardushtiylik dinining mutaassib kohini bo'lmish Kartir bu ishda asosiy rol o'ynab, aynan uning ko'rsatmasiga muvofiq Eron va unga qo'shni bo'lgan o'lkalarda o'zga din vakillarini qatag'on qilish harakati ommaviy tus oldi. Xristian diniga e'tiqod qiluvchi jamoa vakillari Eronda boshlangan bu ta'qibdan qochib, O'rta Osiyodagi Sug'd, Choch, Xorazm yerlariga kelib o'masha boshlaganlar. O'rta Osiyo xalqlari bunday vaziyatda bu qochqinlarga xayrihohlik va bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lib, ularning o'z hayot yo'llarini davom ettirishlariga katta ko'mak berdilar.

Masalan, Erondagi xristianlikni qabul qilgan shahzodalardan biri e'tiqodi tufayli ta'qibga uchrab, Sug'dga qochib keladi. Buxoro hokimi buxorxudot shahzodaga oliv himmat ko'rsatib, unga katta yer-mulk in'om etadi. Mazkur davrda bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin edi.

Er.av.II-III asrlarga oid xristian jamoalarining ashuoviy qoldiqlari qadimgi Marv qo'rg'oni yaqinidan, Yerqal'a, Ko'ktepa manzilgohlaridan topilgani mazkur e'tiqod guruhlarining hududdagi mavqeidan darak berardi. Xususan, Xorazmdagi davlat boshqaruvi ishlarida pravoslav xristianlar (malkitlar), Marv, Sug'd, Chochda esa nestorian mazhabidagi xristianlar faol ishtirok eta boshlashdi. Qayd qilish lozimki, Issiqko'l bo'yidagi Qurmantı degan joyda arxeologlar tomonidan qadimgi xristian cherkovlari qoldiqlarining topilishi eramiz boshlarida xristian jamoalarining O'rta Osiyo shimoli-sharqidagi ko'chmanchi aholi orasidagi o'ziga xos o'mi mayjud bo'lganligidan darak beradi. Chunonchi, yevropalik kartograf Kresres 1375-yili tuzgan Osiyo qit'asi katalogida Issiqko'l idagi avliyo Matfeyga bag'ishlangan xristian cherkovi tasvirlangan edi. 2005-yili amalga oshirilgan arxeologik qazishma ishlarida esa mazkur hududda yashagan xristianlarga oid qator yodgorliklar ham topildi.

Eramizning III asriga oid ma'lumotlarda Marvdagi mitropoliya haqida ma'lumotlar berilib, ushbu mitropoliya o'z ta'sirini Qashg'arga qadar yoyishga harakat qilganligi bayon etiladi. Turli savdo chorrahalar tutashgan Xorazm hududi esa azaldan Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo va madaniy aloqalarga ega bo'lgan. Mazkur hududga Parfiya orqali xristianlik dini kirib kelib, eramizning IV asrida u yerda mahalliy pravoslav xristianlar (malkitlar) eparxiyasi ham o'z faoliyatini yuritgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, aynan Suriyadagi Antioxiya shahri xristianlikni Sharq tomonga yoyilishida katta rol o'ynagan edi.

Bu davrda O'rta Osiyoda zardushtiylik dini hukmronlik qilib, zardushtiylar o'z vaqtida boshqa din vakillari, xususan xristianlarga xayrihohlik bilan munosabatda bo'lganlar. Xususan, Marvdagi diniy vaziyat xususida eramizning III asr oxirlariga oid zardushtiylik dini mutaassib qohini Kartirning yozishmalarida shunday holat tasvirlanadi. Unga ko'ra Marv shahrida yahudiylar, buddaviy rohiblar, brahmanlar, xristianlar, moniyalar yashab, bu o'z vaqtida mazkur hududda hukmronlik qilgan diniy bag'rikenglik holatidan darak berardi.

Mazkur davrdagi xristian jamoalarining nufuzi ancha o'sib, Mar yepiskopi Iliya hatto Nikeya soboridagi sinod yig'ilishida ham ishtirok etar edi.

Manbalarning xabariga ko'ra, Marv shahridan shimolda avliyo Mar Georgis Marvazayaga bag'ishlab Zarb qishlog'ida, keyinchalik "Xaroba qo'shiq" nomini olgan monastir yodgorligi bo'sib, bu yerga ko'plab xristian nestorianlar ziyorat uchun ham tashrif buyurishardi.

Bu paytda Sirdaryo bo'yida xristianlarning Vinkerd shaharchasi bunyod bo'sib, Isfijob va Farg'onada ham xristian jamoalari yuzaga keladi. Qashg'arda ham yepiskoplik yuzaga kelib, uning yepiskopi Maraya sinod sobor yig'ilishida (424-yili, Markabt) ham ishtirok etadi. Masalaning yana bir e'tiborli jihatni shundaki, bu davrdagi xristianlik Osiyodagi mahalliy an'ana va o'zga elementlar bilan aralasha keta boshlaganligini ham ko'rish mumkin edi.

V asr o'rtalarida yuzaga kelgan eftaliylar davlatida ham xristianlik zardushtiylik bilan bir qatorda asosiy dinlardan biriga aylana boshladi. Shu boisdan ham 549-yili O'rta Osiyodagi eftaliy-xristianlar nestorianlar patriarxi Mar-Abudan o'zlariga yepiskop tayinlashlarini ham so'rashgan edi.

Qayd etish lozimki, eramizning VI asri o'rtalarida yuzaga kelgan Turk xoqonligi o'z ichiga Xitoydan Qora dengiz sohillariga qadar bo'lgan ulkan hududni qamrab olgan edi. Avval eftaliylar, so'ngra Turk xoqonligi hukmronlik davrida ham O'rta Osiyoda turli diniy qarashlar hukmronlik qilganini ko'rish mumkin bo'lgan. Xususan, o'lkada zardushtiylik, Ko'k tangriga sig'inish, moniylik, shomoniylilik, buddaviylik, turli animistik qarashlar, shu jumladan xristianlik diniga e'tiqod qiluvchi jamoalar mavjud bo'lgan.

Mamlakatimiz zamini boshqa dinlar kabi buddaviylik uchun ham boshqa hududlarga o'tish yo'lagi rolini ham o'tagan. Eramizning boshlariga oid yurtimiz janubiy sarhadlaridagi (Ayrитом, Dalvarzintepa, Qoratepa, Fayoztepa va boshqalar) manzilgohlardan topilgan yodgorliklar uning amaliy tasdig'i bo'sib xizmat qiladi. Kushon davrida uning davlat dini bo'lgan buddizm bu davrda o'z pozitsiyasini ancha mustahkamladi. Buning isbotini V-VI asrlarda Hindiston, aniqrog'i uning shimolidagi Kashmir hududidan O'rta Osiyoga ko'plab buddaviy rohiblar kirib kelishida ham ko'rish mumkin edi.

VI-VII asr boshlarida hatto ba'zi G'arbiy Turk xoqonligidagi hukmdorlar ham buddaviylikni qabul qilganlar. Ular O'rta Osijo janubi, hozirgi Afg'oniston, shimoliy Hindistondagi buddaviy diniy inshootlar

qurilishi ishiga ham homiylik qilganlar. Xususan, VIII asrda janubdag'i Tohariston, Xuttalonda buddaviylik keng tarqaldi. Buddaviy monastir ibodatxonalar qurilish ishlari rivoj topib, bunday inshootlar avval Balxda barpo etilgan edi. Keyinchalik ular Termizda – o'nta, Shumanda – ikkita, Qubadiyonda uchta bo'lgan va hokazo. Ajinatepa, Kofirqal'adagi yodgorliklar, Zangtepadagi brahmiy yozuvidagi buddaviy matnlar buddaviylik dinining janubdag'i o'ziga xos mavqeidan darak berardi.

626 yilda O'rta Osiyoda bo'lgan xitoylik sayoh va ruhoniylar Syuan-Szyan Termizdag'i o'nta monastirda mingga yaqin buddaviy ruhoniylari yashaganliklarini ham qayd etgan edi.

Mazkur din nafaqat janubda, balki Sug'dda ham tarqalgan bo'lib, ushbu holat haqida hududdagi Sanozor buddaviylik ziyyaratgohi qoldiqlari ham xabar beradi.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida yana bir diniy oqim – moniylik paydo bo'lgan. Mazkur din vakillari Erondag'i quvg'indan qochib, o'zlariga O'rta Osiyo hududidan manzil qidira boshlaydilar. Ushbu din o'z ta'sirini ayniqsa Samarqand va Chag'oniyon hududida keng yoyaadi. Ta'kidlash lozimki, Sug'd hududidagi moniylik diniga e'tiqod qiluvchilar ta'siri oshib borib, ularning diniy rahnamosi qarorgohi ham aynan Sug'd markazi Samarqandda joylashgan edi. Sug'd tili esa VII asr oxirlariga kelib sharqiy moniylik cherkovining rasmiy tili sifatida ham qabul qilingan edi. Mamlakatimiz hududidan moniylik diniga oid ashuoviy dalillar janubdag'i ba'zi manzilgohlar, xususan Surxondaryodagi Bittepa yodgorligidan ham topilgan. Moniylik ma'lum vaqtidan so'ng, turkiy qavmlar ichida ham tarqala boshladi. Moniylik dinining "Nafnama" – "Xalq noma" – xalqlar ro'yxati tegishli ahamiyat kasb etadi. O'rta Osiyo, xususan Sug'dda keyinchalik sug'd va turkiy tilidagi moniy adabiyoti ham yuzaga kelgan.

Avval boshida O'rta Osiyo hududida yahudiylilik dini vakillari Ahamoniylar hukmronligi (er.avv. VI asr) davridayoq paydo bo'la boshlagan edilar. To'g'ri, ular ko'p holda xalqaro Buyuk ipak yo'li tarmog'i ta'sirida yuzaga kelgan savdo-sotiq, tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'lib, hududda juda oz holdagina istiqomat qilishgan. Umuman olib qaraganda, o'lkada yahudiylar jamoasining paydo kelishi aslida milodiy V-VI asrlarga borib taqaladi.

Nasafiyning "Qandiya" nomli asarida shu davrdagi bir rivoyat keltililadi. Unga ko'ra Zarafshon vohasidagi suv to'g'oning (Jo'yi-arziz) mualliflari aynan yahudiylilik dini vakili bo'lganligi qayd etiladi. Ba'zi bir rivoyatlarga ko'ra Xorazmnning qadimiy poytaxti – Kot hamda Xivaga asos solinishida yahudiylarning ham ishtiroki bo'lgan deyiladi.

Avval eftaliylar, so'ngra Turk xoqonligi davrida ham ijtimoiy-ma'naviy hayat bobida o'zga xalq, o'zga din vakillariga nisbatan xayrihohlik va bag'rikenglik ruhi ustuvor bo'lgan.

O'zaro yaxshi qo'shnichilik va hurmat turkiy qabilalarga xos fazilatlardan biri bo'lib hisoblangan. Ta'kidlash joizki, VI asrning ikkinchi yarmi – VII asr boshlarida Turk xoqonligi tarkibiga Uzoq Sharqdan to Azov dengizi sohillarigacha, shimaliy Sibirdan Himolay tog'lari etaklarigacha bo'lgan ulkan hudud kirat edi. Ushbu hududda ko'plab xalq, elat va qabilalar istiqomat qilib, o'z navbatida ularning barchasi turli dinlarga e'tiqod qilishar, barchasida o'ziga xos qadriyat va qarashlar jo bo'lgan edi. Ko'k tangri ruhiga e'tiqod qilgan turkiy qavmlar orasida keyinchalik Xitoy va O'rta Osiyoning ta'siri natijasida boshqa dirlar, jumladan xristianlik, buddaviylik, moniylik ham tarqala boshlaganligi xususida avval ham to'xtalib o'tilgan edi. G'arbiy Turk xoqoni bo'lmish To'n-Yabg'u (To'nshoh) (618-630) mahalliy xalq vakillari, avvalo zodagonlar bilan yaqinlashish, ular bilan qarindoshlik aloqalarini o'rnatish siyosatini yuritdi. U o'z davlati manfaatlari mohiyatidan kelib chiqqan holda O'rta Osiyo xalqlari, ularning madaniyatiga xayrihohlik bilan qaradi. To'n-Yabg'u ijtimoiy-ma'naviy hayatda bag'rikenglik, ayniqsa diniy, etnik, fuqarolararo bag'rikenglik, hamjihatlik masalalariga ham e'tibor qaratdi. Xoqonlikda zardush-tiylikning ustuvor o'rni bilan bir qatorda turli animistik qarashlar, Ko'k tangri ruhi, xristianlik, moniylik, buddaviylik ham ma'lum darajada tarqalgan hamda xoqonlik tomonidan ularning e'tiqodi tegishli darajada muhofaza ham qilinardi.

Boshqa din va qavm vakillariga nisbatan o'zaro hurmat, yaxshi qo'shnichilik an'analari bunda katta rol o'ynadi. Shubhasiz, To'n-Yabg'uning Yuqorida qayd qilingan ichki siyosati aholining hamjihat bo'lishi, turli etnik va diniy nizolarning oldini olishda katta rol o'ynadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, azaldan Sug'd va unga qo'shni hududlarda turli elatlar va xilma-xil diniy jamoa vakillari hamjihat va hamkor bo'lib yashashgan. Bu borada sug'dlar va turklar o'rtasidagi munosabatlar tarixi va ularning o'zaro simbioz jarayoni ibratli ahamiyat kasb etadi.

Agar sug'd yozma yodgorliklari asosida sug'd va turklar orasidagi bag'rikenglik — tolerantlik g'oyasi ildizlarni o'rganadigan bo'lsak, ko'plab ahamiyatga molik ma'lumotlarga duch kelamiz. Jumladan, VII asr oxiri VIII asr boshlarida Sug'dda ro'y bergan jarayonlar haqida ma'lumot beruvchi Mug' tog'i arxivi hujjatlari bu borada tegishli

ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjatlar asosan “Sug’d podshosi, Samarqand hokimi”, so’ng Panjikent hokimi Devashtich devoniga tegishlidir. Ushbu hujjatlardan Devashtichdan avvaligi Panj hokimi Chakin Chur Bilga Bichut o‘g‘li ismli turk bo‘lganidan dalolat beradi. U 15 yildan ziyod (taxminan 693-yildan to 708-yilgacha) Panj viloyati va shahriti boshqarib kelgan. Sug’d aslzodasi Devashtich Panj hokimi bo‘lgan kezlarda uning xo‘jalik boshqaruvchisi — farmondori vazifasini O‘tt ismli turk zodagoni bajargan. O‘ttning mavqeい Devashtichdan keyin ikkinchi darajada bo‘lganligi ko‘plab hujjatlar orqali o‘z tasdig‘ini topmoqda. 718-719-yillarda bitilgan hujjatlarda Devashtich Sug’d podshosi va Samarqand hokimi bo‘lgan yillarda, arablarga qarshi kurash uchun yordam so‘rab o‘z elchisi Fatufarnni Chochga jo‘natadi.

Hujjat esa Fatufarnning Devashtichga javob maktubi bo‘lib, u o‘z navbatida Choch tuduni va Farg‘ona tutudi bilan uchrashganini ma’lum qiladi. Ushbu hujjatlar Sug‘ddagi etnoslararo masalalarga oydinlik kiritib, sug‘dlar va turklarning yagona maqsad yo‘lida birlashib, hamjihat, o‘zaro ittifoqligidan faoliyat yuritganliklarini ko‘rsatadi. Bu ittifoq, 719-722-yillarda arablarga qarshi Sug‘d, Choch, Farg‘ona va turklar koalisiyasiga asos bo‘lib xizmat qildi. Ajnabiy bosqinga qarshi mahalliy xalqlar o‘zaro birqalashib, ozodlik harakatida ishtirok etishlari ushbu xalqlar orasidagi mustahkam do‘stona munosabatlardan darak berardi. Mug‘ tog‘i arxivining yana bir hujjati “Nikoh guvohnomasi” va “Kuyovning kelin oldidagi majburiyatlar” bitiklaridan iborat bo‘lib, unda O‘ttagin ismli turk aslzodasi bilan Navekat (Navkat, Yetisuvdag‘i sug‘d shahri) hokimi Cher homiyligidagi sug‘d qizi Dug‘druncha nikohi va o‘zaro bitimi qayd etilgan. Hujjatning ahamiyatlari jihat shundaki, unda turklar va sug‘dlar o‘rtasidagi nikoh namunasi aks etgan. Bu nikoh zardushtiylarning “Qonunlar uyi“da bitilgan. Turkiy O‘ttagin zardushtiylarning an‘anasiga asosan “muqaddas iloh Mitra ishtirokida” kelin Dug‘druncha oldidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi. Mazkur hujjat ikki xalq orasidagi yaqin munosabatlarni aks ettirganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug‘d va turkiy aholi orasidagi diniy bag‘rikenglik, tom ma’nodagi tolerantlik ular e’tiqod qilgan dinlarning bir-birini to‘ldirganligi bilan ham izohlanadi. Xitoy sayohi Syuan Szyan o‘z “Biografiya“sida Yetisuvdag‘i Turk xoqonligi saroyidagi zardushtilik an‘analari, turklarning olovga sig‘inishlari haqida xabar berganligi Yuqoridagi mulohazalarning mantiqiy tasdig‘i bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon dirlari orasida eng yosh din bo'lgan – islom dini o'zga din vakillariga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lish g'oyasini yoqlab, ularga nisbatan zulm-zo'ravonlik va tayziqni qoralagan. Muhammad payg'ambar (s.a.v) Madinaga hijrat qilgan vaqtlaridanoq (622-y.) u yerdagi yahudiy qabilalar bilan o'zaro shartnomaga asosida, sabr-toqat va bag'rikenglik ruhidagi tamoyillarga rioya qilgan holda yashadilar. Aynan Muhammad payg'ambar (s.a.v) yahudiylarga yaxshi munosabatda bo'lib, ularga hadyalar bergenliklari tarixdan yaxshi ma'lum. Shuningdek, ul zot (s.a.v) Najron xristianlari guruhi Madinaga tashrif buyurishganida, ularni o'z masjidlariga tushirib, ibodatlariga ruxsat bergenlar. "Ahli kitob" vakillari ya'ni – yahudiylarning Muso, xristianlarning Iso payg'ambarga e'tiqodi katta hurmat ostiga olingan.

Islom dinida kishilar orasida samimiyligi va halol munosabatlarni qaror toptirish, o'zgalarga nisbatan rahm-shafqatli va saxovatli bo'lish, qarindosh-urug'larga "siylai rahm" ko'rsatish, e'tiqod erkinligi, diniy bag'rikenglikni qaror toptirish masalalariga katta e'tibor berilgan. Islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish – Qur'oni Karimda turli elat, xalq va dirlarga mansub kishilar orasida ayirmachilik, nizo-adovatga yo'l qo'ymaslik, turli din vakillarining o'zaro hamjihatlik va totuvlikda yashashlari borasida 50 dan ziyod suralarda ko'plab oyatlar keltirilgan ("Yunus" surasi, 19, 193-oyatlar; "Shuar" surasi, 8-oyat; "Hujurot" surasi, 13-oyat; "Nahl" surasi, 125-oyat; "Moida" surasi, 32-oyat; "Niso" surasi, 75-76 oyatlar va boshqalar).

Qur'oni Karimda bag'rikenglik borasidagi yana bir sura shubhasiz o'quvchi e'tiborini tortadi. Xususan, "Ankabut" surasining 46-oyatida "(Ey mo'minlar!) Sizlar ahli kitoblar bilan faqat eng chiroyli uslubda munozara qilingiz, illo ularning orasidagi zulm (tajovuz) qilganlar bundan mustasnodir", deya ta'kidlanadi.

Mazkur surada "ahli kitob" vakillari ya'ni yahudiylar va xristianlar bilan hamjihat bo'lish g'oyasi oldinga surilsa, "Kofirun" surasining 6-oyatida "Sizga – o'zingizning diningiz, menga – o'zimning dinim" deya, yana bir surada "Agar Robbingiz xohlasa edi, yer (yuzi)dagi barcha kishilar yoppasiga imon keltirgan bo'lur edilar. Bas, siz odamlarni mo'min bo'lishlariga majbur qilasizmi?!" ("Yunus" surasi, 99-oyat) deya masala mohiyatiga oydinlik kiritiladi. Islom o'z diniga zo'r lab kiritish, o'z e'tiqodini majburan tabbiq etish g'oyasidan qat'iyan uzoqdadidir. Shu bois ham islomning muqaddas ilohiy kitobi bo'lmish Qur'oni Karimda "Dinda zo'r lash, majburlash yo'q" ("Baqara" surasi, 256-oyat) g'oyasi ustuvor bo'lib, islomning tom ma'nodagi mazmun-mohiyatini anglagan

kishigina mo'min-musulmon bo'lishi, islom barcha o'zga e'tiqoddagi kishilar uchun ham ochiqligi qayd etiladi.

Aynan islomda inson, shaxs qadr-qimmati, sha'ni, or-nomusi, haq-huquqlari u kim bo'lishidan qat'iy nazar Alloh taoloning bandasi sifatida qadrlanishi bayon etiladi. Bu esa turli diniy qarash, ta'limotlarga hurmat ruhi bilan qarash, o'zgalarga, ularning irqi, e'tiqodi, etnik kelib chiqishidan qat'iy nazar hurmat-e'tiborda bo'lish zaruriyatini oldingi safga olib chiqadi.

Islomda bag'rikenglik tushunchasiadolat tushunchasi bilan hamohang tarzda keladi. Xususan,adolat tushunchasi bo'lmanida edi, o'rta asrlarda doimo bo'lganidek, hukmron din boshqa dindagilarga zo'r lab joriy etilar, bundan norozi bo'lganlar esa yoki dinni qabul qilishlari yoki vatanlarini tark etishlari lozim bo'lgan. Islom bu masalada ham adolatli yondashuvni oldinga suradi.

Alloh taoloning muqaddas kitobi bo'lmiss Qur'oni Karimda bu xususda shunday deyiladi: "Din to'g'risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o'z yurtingizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo'lishingizdan Allah sizlarni qaytarmas. Albatta, Allah adolatli kishilarni sevar" ("Mumtahana" surasi, 8-oyat). Ushbu surada Allah taolo musulmonlarni adolatli bo'lishga, o'zgalarga yaxshi munosabatda bo'lishga chorlaydi. Zero, adolat hukm surgan joydagina tom ma'noda totuvlik, hamjihatlik qaror topadi.

Habashiston (Efiopiya) xristianlari vakillari tashrif buyurganlarida Muhammad payg'ambar (s.a.v) ularni masjidga tushirib, o'zlarini ziyofat berib, xizmat qilganlar. Shuningdek, payg'ambar (s.a.v) Misrdagi xristian kopt (qibtiy)lar podshosi bilan ham yaxshi munosabat o'rnatganlar. Islom qaror topgan yurtda yashashni istagan o'zga din vakillari "ahli zimma" ya'ni, "musulmon jamiyati kafolatlagan kishilar" deya nom olishgan. ularning haq-huquqlari o'z navbatida musulmon hukmdorlari tomonidan himoya etilgan. Bu xususda payg'ambar (s.a.v) shunday degan edilar:

"Kim ahli zimmadan bir kishini o'ldirsa, jannatning hidini ham hidlamaydi. Albatta, uning hidi yetmish yillik masofadan kelib turur".

Payg'ambar (s.a.v) vafotlaridan so'ng ham o'zga dinlagilarga nisbatan bag'rikenglik siyosati, sabr-toqatli bo'lish, yaxshi qo'shinchilik munosabati davom etdi. Masalan, Umar ibn Hattob (r.a) (634-644) Quddus (Baytul Maqdis) va Luddani egallagan vaqtida o'sha yerdagi xristian axolisiga muruvvat ko'rsatib, ular bilan shartnomaga tuzgan holda,

xristianlarga e'tiqod erkinligini bergen. Shu shartnomaga muvofiq cherkovlar buzilmasligi, musulmonlar ularni egallab olmasliklari va ularda ibodat qilmasliklari kafolatlangan edi.

Ta'kidlash joizki, ma'rifatli xalifa al-Mun davrida (813-833) Bag'doddagi "Dorul hikma" (akademiya)da musulmonlar bilan bir qatorda boshqa dinga e'tiqod qiluvchi olimlar ham faoliyat ko'rsatishgan. Qolaversa, xalifalikning har xil hududlaridan kelgan turli xalq vakillariga ham hech qanday etnik e'tiroz bo'lmagan. Umuman olganda musulmon davlati ijtimoiy hayotida etnik, qavm-qabila, hududiy ajratish man etilgan bo'lib, shaxsning diniy e'tiqodigina ahamiyatli hisoblangan. Bag'dod va Basra shaharlarida doimiy ravishda o'tkaziladigan she'riyat, adabiyotga oid mushoiralarda sunniy va shia yo'nalişidagi musulmonlar, yahudiy, zardusht, xristian shoir va adiblar bermalol ishtirok etib, ular turli darajadagi babs-munozaralarini yuritishardi.

Masalan, Xalaf ibn Musanno Basradagi ilmiy bir majlisda sunniy mazhabdagagi nahvchi olim Xalil ibn Ahmad, shialardan bo'lgan shoir Humayriy, xorijiyalar ta'limoti ixlosmandi Sufyon ibn Majoshi', yahudiy ibn Ra'sil-Jolut, xristian Nazir al-Mutakallam, majusiy (zardusht) Umar ibn al-Mu'yid kabilarning do'stona ruhdagi suhbatи haqidagi ma'lumotni keltiradi. Musulmon davlatida o'zga din ibodatxonalarini, cherkovlar ko'p holda yonma-yon ham joylashib, turli din vakillari bermalol o'z dirlari amallarini bajo keltirganlar.

Keyinchalik Ummaviylar jome masjidiga aylangan Buyuk Ioann ibodatxonasida o'z vaqtida musulmonlar bilan xristianlar yonma-yon ibodat amallarini bajarganlar. Konstantinopolga "Istanbul" deya yangi nom berib, uni o'z poytaxtiga aylantirgan usmoniy turk sultonlari bu yerdagi xristian cherkov va mazhablari orasidagi ixtilosflarga chek qo'yib, xristian va boshqa dindagilarga diniy erkinlikni ta'minlab berishgan. Musulmon davlatlari, jumladan O'rta Osiyo va Xutosonda IX-XII asrlarda hukmronlik qilgan Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniyilar, G'aznaviyilar, Saljuqiylar, Xorazmshoh-Anushtaginiylar sulolalari davrida ham ushbu masalaga tegishli e'tibor bilan qaralgan.

Asrlar davomida mamlakatimiz zaminidan yetishib chiqqan olim uamo, allomalar o'z asarlarida ham bag'rikenglik, xususan diniy bag'rikenglik tushunchasini ma'naviy hayotning uzviy bo'lagi sifatida mintaqa axolisi ongu shuuriga singdirib kelishgan. Zero, buyuk muhaddis Imom Buxoriy – hadis ilmida, Imom Moturudiy-aqida ilmida, Burhoniddin Marg'inoniy – fiqhda, Abu Lays Samarqandiy – tafsir

ilmida, Xoja Ahmad Yassaviy –tasavvufda, bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib etganlar. Muhammad payg‘ambar (s.a.v)ning “Zimmiya zarar yetkazganga men dushmanman”, mazmundagi hadislari bois musulmon olimlari masalaning ham ilmiy, ham nazariy tomoniga e’tibor qaratganlar. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hadisi shariflarda tahlil etilayotgan masala keng va har tomonlama bayon etilgan. Musulmon hukmdorlari esa zimmiylar (o‘zga dindagilar)ning barcha haq-huquqlarga ega bo‘lishlarining kafolatini bergenlar.

Arab xalifaligi va undan keyingi Toxiriyolar davrida (821-873) Movarounnahr zaminida arablar “majusiy” deb ataydigan zardushtiy-otashparastlar jamoalari ham ma’lum vaqt saqlanib turgan. Xususan, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy XI asrda ham o‘lkada zardushtiyolar jamoasi mayjudligini qayd etgan edi.

Ba’zi manbalar ma’lumotiga ko‘ra, Samarqandda yashovchi majusiyolar jamoasiga shaharning bosh suv to‘g‘oni – Jo‘yi Arzizga (“Qo‘rg‘oshin nova”) qarab turish va uni ish faoliyatini kuzatish mas‘uliyati yuklatilgan ekan. Bu o‘z navbatida ular uchun jizya solig‘ining o‘rniga o‘tgan. Fors tilida majusiyolar (zardushtiyolar)ni “mug‘lar” deya atab, manbalarda ularni turli shaharlarda istiqomat qilganliklari ham qayd etiladi.

X asrga kelib Somoniylar davlatida garchi islom tan olingen davlat dini darajasiga chiqqan bo‘lsada, mamlakatda zardushtiyolar, moniylik ixlosmandlari, xristianlar, yahudiylik jamoalari ham hayot kechirar edi. Xususan, Buxoro va Samarqandda majusiyolar nomi ostida zardushtiy otashparastlar jamoasi faoliyat ko‘rsatar, Buxoro yaqinidagi Romush va Romiton qishloqlarida otashparastlar ibodatxonalari ham mavjud bo‘lgan. Buxorodagi Mox masjidi yonida X asr tarixchisi Narshaxiyning xabariga ko‘ra, ma‘budlar bilan savdo qilish an’anasi saqlanib qolingen edi. Mazkur asrda Iloq o‘lkasida ham zardushtiy otashparastlar “Muqanna ta’limoti”ga e’tiqod qilishardi.

Marvda shu davrda (IX asr) Beruniyning ma’lumotiga ko‘ra, suriyalik malkit (pravoslav) mazhabining mitropoliti (mitran) va qator nestorian xristian yepiskoplari faoliyat ko‘rsatishgan. Marvdan suriya tili lug‘ati muallifi, nestorian xristian Iso va “Yangi xabar” (“Noviy zavet”) xristian dini talqini izohi muallifi Ishodod yetishib chiqqanligi ham o‘zga din vakillariga berilgan imkoniyat, ularning salohiyatidan darak berardi. Xorazmda esa nestorian xristian dini vakili, tabib va faylasuf Abulkayr ibn-Xummor yashab, ijod qilgan. Aynan Xummor suriya tilidan arab tiliga Aristotel va boshqa antik davr mualliflari asarlarini ham tarjima qilgan edi.

O‘z vaqtida Marvda Rabbon sharifidagi xristian oilasi harn shuhrat qozongan edi. Oila asoschisi Sahl mashhur tabib, matematik ustozi sifatida katta obro‘ egasi bo‘lgan. Ushbu shaxs Ptolomeyning “Almajist” asarini ham tarjima qilib, zamondoshlarining hurmatiga sazovor bo‘lgan. Uning o‘g‘li Ali ibn Sahl sharq va yunon fanlaridan boxabar bo‘lgan mashhur tabib sisatida nom chiqargan edi.

Marvda yana bir mashhur xristian dinidagi tabib ibn Muso ham faoliyat ko‘rsatib, u davolashdan tashqari, dorishunoslik va botanika fani masalalari bilan ham shug‘ullangan. U Marvdagi shifoxonada ishlab, ovqatlanish muammolarini ham o‘rgangan.

Movarounnahr va Turkiston hududidagi xristian e’tiqodi yodgorliklari namunalari Marv, Yettisuv, Sharqi Turkiston hududidagi manzilgohiar bilan bir qatorda eski Termiz va Qashqadaryodan topilgan yangi arxeologik topilmalar hududda Somoniylar davrida ham turli dirlarga e’tiqod qiluvchilar nafaqat bir hududda, balki o‘lkanning ko‘plab boshqa joylarida ham mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Tarixchi Narshaxiyning ma‘lumotiga ko‘ra esa xristianlar ibodatxonasi Buxoroda ham, uning Attaron darvozasi yonida joylashgan bo‘lgan. Keyinchalik bu ibodatxona o‘mida arablar masjid barpo etganlar. IX asr boshlarida Movarounnahrdan sharqda, hozirgi Qirg‘iziston hududidagi Bishkek, To‘qmoq, Chu, Talas vodiyisida xristianlikning ta’siri ancha kuchli bo‘lgan. Xristian patriarxi Timofey (780-819) ning missionerlik faoliyati natijasida turk xoqonlari ichida ham xristianlik dini tarqala boshlagan.

Mazkur davrda Movarounnahr va Xuroson shaharlari ham ko‘plab yahudiylar jamoalari istiqomat qilishgan. Bu paytda yahudiylar jamoalari nafaqat Samarcand va Buxoroda, balki G‘uzg‘on viloyatidagi Yahudiya shahrida, Balxda va boshqa yerdarda ham yashab, faoliyat ko‘rsatganlar.

Yahudiylar o‘z mavqeini keyinchalik ham saqlab turganlar. 1165-yili Sharqqa sayohat qilgan mashhur sayoh Veniamin de Tadelning xabariga ko‘ra, Sharqqa tomon qancha uzoqroq kirib borilsa, yahudiylar soni ko‘payib boravergan. Sayoh garchi Bag‘dodgacha borgan bo‘lsada, lekin uning O‘rtta Osiyo, xususan Samarcanda yahudiylar Damashqqa qaraganda ancha ko‘p bo‘lgan deya ta’kidlashi, hududdagi diniy bag‘rikenglik holatini yana bir karra tasdiqlar edi.

Qayd etish lozimki, IX-XIII asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan sulolalar davrida ham (Toxiriylar (821-873), Somoniylar (874-1005), Qoraxoniylar (927-1213), G‘aznaviylar (997-1186), Saljuqiylar (1040-1157), Xorazmshohlar-Anushtaginiylar

(1097-1231)) o'zga din vakillari, turli etnos, xalq vakillari qonunan himoya qilinganlar. To'g'ri, musulmon davlatida o'zga dinga e'tiqod qiluvchilar jon solig'i – jiz'ya to'laganlar. Boshqa dindagilarga sipo rangdagi kiyimlik kiyish, beliga arqon (zunnor) o'rash, shaharda otda yurmaslik, o'z uylari va ibodatxonalarini masjiddan baland qurmashlik kabi ma'lum ta'qiqlar ham bo'lgan. Lekin, bu ta'qiqlar hayot kechirish, faoliyat yuritish, shaxs haq-huquqlariga aksariyat holda salbiy ta'sir ko'rsatmagan. Boshqa dindagilarga o'z diniy e'tiqodlarini erkin bajarishlari, bayram va tadbirlar o'tkazishlariga to'sqinlik qilinmagan. Maishiy turmush tarzi ham dalxsiz va erkin holatda bo'lgan.

O'zga dinga e'tiqod qiluvchilarga savdo, tijorat, qurilish, ilm-fan, adabiyot, madaniyat, san'at sohasida faoliyat ko'rsatishlariga imkon berilib, ularning faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlangan. Bu holni IX-XII asrdagi madaniy uyg'onish – Renesans hamda Xorazm Ma'mun akademiyasi misolida ham ko'rish mumkin bo'ladi. Masalan, Xorazm Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatgan Abu Sahl Masihiy xristian bo'lib, u Ibn Sinoning yaqin do'sti va ustozи bo'lgan.

Shuningdek, bu zot Beruniyga ham maslakdosh ham do'st bo'lgan. O'z vaqtida Beruniy va Ibn Sinoning turli mazhab, boshqa dindagi shogirdlari ham bo'lib, ularga hech qachon diniy e'tiqodiga ko'ra munosabat bildirmaganlar. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Sharqning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniyning o'zi ham etnik va diniy e'tiqod masalasiga befarq bo'lgan. U Ziyorilar sulolasining (927-1090) mashhur vakili Qobus ibn Vashmgirning (978-1012) shia mazhabida bo'lganligini o'zaro munosabatlarda to'siq deya hisoblamagan. Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini ham aynan unga homiylik qilgan shu hukmdor nomiga bag'ishlagan edi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Beruniy Jurjonda xristian dinidagi Abu Sahl al-Masihiydan ham saboq olgan edi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Bag'rikenglik Sharq sivilizatsiyasi tarixida shakllanganligini qanday izohlaysiz?
2. O'rta Osiyon eng qadimgi tarixi qabilaviy migratsiyalar, assimilyatsiya jarayonlari bag'rikenglik asoslarini rivojiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
3. O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid ilk yozma manba "Avesto" va diniy bag'rikenglikni ifodalang.

4. "Buyuk Ipak yo'li" – bag'rikenglikning namunasi ekanligini izohlab bering.

5. O'rta asrlarda etnoslararo va dinlararo bag'rikenglik namunalarini keltiring.

### **Kalit so'zlar:**

Sharq sivilizatsiyasi, hamkorlik, qabila, sug'diyilar, "Avesto", etnik bag'rikenglik, diniy bag'rikenglik, "Buyuk Ipak yo'li".

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sagdullayev A.S. Bag'rikenglikning tarixiy ildizlari (qadimgi davr misolida). – Toshkent, 2018.

2. Odilov A.A. O'zbekiston ijtimoiy-ma'naviy hayotida bag'rikenglik tamoyilining tutgan o'rni (o'rta asrlar misolida). – Toshkent, 2018.

3. Murtazayeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlari va bag'rikenglik. – Toshkent, 2007.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.

2. Sagdullayev A.S. Istoricheskie korni tolerantnosti v Sredney Azii. Mejdunarodnaya nauchnaya konferensiya "Tolerantnost kak instrument razvitiya mer vzaimnogo doveriya". – Toshkent, 2018.

3. Kobzeva O.P. Velikiy SHelkoviy put: istoriya i sovremennost. – Tashkent: Fan, 2005.

4. Filanovich M.I. Religioznaya tolerantnost gorodov na Velikom shelkovom puti // Bag'rikenglik – jamiyat barqarorligining asosi. – Toshkent, 2003.

### **3-mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI**

#### **Reja**

1. O'zbekistonda davlat milliy siyosatining o'rni, uning asosiy tamoyillari.
2. Millatlararo inoqlikning O'zbekiston modeli.

#### **1. O'zbekistonda davlat milliy siyosatining o'rni, uning asosiy tamoyillari**

Mustaqillik yillarda ko'p millatli Respublikada fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvliklikni ta'minlangani O'zbekiston qo'lga kiritgan katta yutuqlardan biridir. Ko'p millatli mamlakatimizda turli millatga mansub aholining o'ziga xos milliy-ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga sharoit yaratish va millatlararo totuvlikni mustahkamlab borish ijtimoiy-ma'naviy hayotning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Respublika baynalmilal markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqida quyidagilarni haqli tarzda ta'killagan edi: "Mustaqillik yillarda mamlakatimizda millatlararo munosabatlар rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi".

Ma'lumotlarga ko'ra, bundan yuz yil avval hozirgi Respublikamiz hududida 70 ga yaqin millat vakillari istiqomat qilgan. 1926-yilda esa Respublikamizda 90 millat va elat yashagan bo'lsa, 1959-yilda ularning soni 113 taga, 1979-yilda 123, 1989-yilda esa 130 taga yetgan edi. Hozirgi vaqtga kelib yurtimizda 130 tadan ziyyod xalq vakillari istiqomat qilmoqdalar.

Millatlararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish borasida O'zbekiston o'ziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi"<sup>1</sup>, deya qayd etilgan. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida yashab, mehnat qilayotgan har bir kishi, millati va irkiy mansubligidan, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, mamlakatimizning teng huquqli fuqarosi bo'lishga munosib. Demak O'zbekiston fuqarolari o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qatiy nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili – o'zbek tilidir, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", deya ta'kidlangan<sup>2</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitobida ta'kidlab o'tganidek, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlatchilik jamiyatni barpo etish yo'lida asosiy ustuvor yo'naliishlarga aylangan masalalar – tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo hamjihatlikni asrash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, iqtisodiyotni tubdan isloh etish, milliy armiyani shakllantirish, sud huquq tizimini yangi asosda barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish, aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport jabhalariga e'tibor qaratish, jahon hamjamiyatida munosib o'rinnegallash kabi ko'pdan-ko'p dolzarb vazifalar mustaqilligimizning poydevori qo'yilayotgan davrlardayoq har tomonlama o'z ifodasini topgan edi.

Birinchi Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va izchil tatbiq etilayotgan taraqiyotning o'zbek modeli tufayli yurtimizda millatlararo totuvlik va hamjihatlik qaror topdi. Mazkur masalaga to'xtalib, Birinchi Prezident "O'zbekistonning boyliklari ko'p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz, bu –

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.5.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B.4.

jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikdir", degan edi<sup>1</sup>.

Respublikamizda millatlararo totuvlikni ta'minlash orqali tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlab borish g'oyasi davlatimiz birinchi rahbarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bu xususda shunday deyiladi: "Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni, tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o'z ahilligi va birdamligini saqlab, o'z milliy manfaatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va xushuorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir-oqibatda o'zining eng katta, tengsiz boyligi bo'lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubhasiz".<sup>2</sup>

Mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab jamiyatimizda ma'naviy poklanish, islohotlarning g'oyaviy asoslarini mustahkamlashga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Birinchi Prezident Islom Karimov istiqlolning dastlabki yillardanoq jamiyatda ma'naviy poklanish uchun eski aqidalardan xalos bo'lish lozimligini ko'rsatib berdi, milliy g'oyani yaratish zaruratini asosladi va jamiyatimiz e'tiborini unga qaratdi.

Tarixiy an'analar asosida shakllangan milliy g'oya O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlar vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-umidlari, oliyjanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi. Shu ma'noda, jamiyatimizning milliy mafkurasi, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istiklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

Ushbu tizimning tarkibiy qismi millatlararo totuvlik g'oyasi bo'lib, u – umumbashariy qadriyat, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Har bir millat Yaratganning mo'jizasidir. Jahon dinla rining muqaddas kitoblarida qayd etilishicha, Alloh insonni bir ota, bir onadan yaratgan, lekin ular bir-biri bilan muloqot qilishi, tanishishi uchun millatlarga bo'lib qo'ygan. Davlatlar bu borada ko'p millatli (polietnik)

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B.414-421

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.81

va bir millatli (monoetnik) tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiyl manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiyl qadriyat va xususiy manfaatlarni bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Globallashuv davridagi jarayonlar monoetnik davlatlar kamayishiga olib kelmoqda. Mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, davlat axolisi 5 foizini boshqa titul bo'limgan millatlar tashkil etsa, u monoetnik davlat hisoblanadi. Migratsion jarayonlar avj olayotgan hozirgi zamonda deyarli monoetnik davlatlar qolmagan.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar vakillari manfaatlarni uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, xalqaro maydonidagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'likdir. Xalqimizning "Qo'shning tinch – sen tinch" degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Bugun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq, istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtaсидаги о'заро hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.

Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoque. Birinchi Prezident Islom Karimov O'zbekistonning bu borada o'ziga xos siyosatini bayon etib, "Respublika axolisi o'rtaсидада ко'пчилликни ташкил қилидиган о'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixiy tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish

uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir", – deb ta'kidlagan edi. Bunday muhit Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi kabi umumimilliy g'oyalarni hamkor va hamjihat bo'lib amalgga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uch ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, oliyjanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Millatlararo totuvlik g'oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani mustaqil O'zbekiston rivojida qo'lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biridir. Mamlakatimiz rahbariyati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos yo'l bilan yechish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish chora-tadbirlarini ko'rdi. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Yurtimizning ko'p millatli xalqi ongida "O'zbekiston – yagona Vatan" degan g'oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg'usini shakllantirish bu boradagi ishlarning muhim yo'nalishiga aylandi.

Qayerdaki millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalgga oshirishga g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siq – tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g'oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko'ra ko'proq kulfat, ofat-balolar yog'dirib, oxir-oqibatda o'zi ham halokatga uchradi. Lekin hanuzgacha fashizm, shovinizm, irqchilik g'oyerlarini tiriltirib, millatlararo totuvlik, hamjihatlik g'oyasiga qarshi "salb yurishi" uyuştirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni xushuor torttirishi lozim.

Mafkuraviy kurashlar kuchaygan bugungi kunda fuqarolarimiz qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tilimizga sog'lom munosabatni qaror toptirish, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish zarur.

Amaliyot xilma-xil milliy siyosat modellari mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, ayrim millatlar vakillarini jismonan qirib tashlashga qaratilgan

etnatsid siyosati ko'plab fojialarni keltirib chiqargani ma'lum. Millatni o'tkinchi tarixiy hodisa sifatida baholash, yirik millatlar zamirida yangi xalqni shakllantirish yo'lidagi urinishlar esa ayrim yirik davlatlarning parchalanib ketishiga olib keldi. O'zlarini demokratiyaning yalovbardorlari deb bilayotgan ba'zi bir davlatlarda fuqaroviylar mansublikni urg'ulash, iqtisodiy farovonlikni ta'minlash orqali etnoslarni qorishtirib yuborishga qaratilgan harakatlar samara bermayotgani bunday milliy siyosat modellarining ham istiqboli yo'qligini tasdiqlaydi.

Yuqorida milliy siyosat modellari ko'p millatlilikni salbiy hodisa sifatida baholashning natijasidir. Bundan farqli ravishda, o'zbek milliy siyosat modeli uni yaratuvchilik qudratiga ega omil sifatida tan olish, milliy mansubligidan qat'iy nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, ijtimoiy hayotdagi tenghuquqli ishtirokini kafolatlashga asoslanadi. O'zbekiston o'z milliy siyosatining "Ko'p millatlilik – O'zbekistonning boyligi" degan g'oyaga asoslanishini mustaqilligining ilk kunlaridanoq ochiq bayon qildi. Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonotida O'zbekiston o'z hududida yashovchi barcha xalqlarga teng huquqlar va imkoniyatlarni kafolatlashi, millatchilikning har qanday ko'rinishlariga qat'iyan qarshi chiqishi e'lon qilingan edi. Bunday qoida 1991-yilning 31 avgustida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunda ham mustahkamlab qo'yildi.

Millatlararo nizolar davlatning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga tahdid tug'diruvchi omillardan biri hisoblanadi. Ko'p millatlilik milliy-madaniy rang-baranglik bilan bir qatorda tafovut va farqlarni ham ifodalashini, bu o'zaro tushunmovchilik uchun ham zamin yaratishi mumkinligini inobatga olsak polietnik jamiyatda tanglik va nizoli vaziyatlar uchun imkoniyat obyektiv ravishda mavjud bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida sodir bo'lgan katta-kichik nizolar esa milliy ehtiyojlar va manfaatlar bilan hisoblashmaslik og'ir oqibatlarga olib kelishini yaqqol namoyish etdi.

Etnik rang-baranglik tafovut va farqlarning o'zaro ta'sirlashuv va boyish yoki kelishmovchilik va nizo manbaiga aylanishi xilma-xil omillarga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, asosiy qonunimizda ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlab qo'yilgani millatlararo munosabatlар sohasidagi bugungi muvaffaqiyatlarimizning mustahkam huquqiy zaminlaridan biri bo'ldi. Xususan, ayrim Yevropa va MDH davlatlarida milliy asosda

tuzilgan partiyalar faoliyati tajovuzkor millatchilik ko'rinishidagi harakatlarga zamin yaratayotgani tanlab olgan yo'limizning to'g'riligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda milliy o'zlikni saqlab qolish, etnik qadriyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlarga, yaqin o'tmishdagidan farqli ravishda millatchilikning o'sishi deb emas, balki tabiiy-tarixiy jarayon sifatida qaralmoqda va tegishli tashkiliy asoslar yaratilmoqda.

– O'zbekiston Respublikasining davlat milliy siyosati davlat va uning idoralarining milliy masala va millatlararo munosabatlari soxasidagi qarashlari sistemasini, asosiy tamoyillari, ustuvor yo'nalishlari va vazifalarini o'zida ifodalaydi;

– davlat milliy siyosati millatlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, turli millat va elat vakillarining konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashning umumiy dasturini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi;

– davlat milliy siyosati O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat va elat vakillarining intilishlarini mamlakatning birligi va yaxlitligini saqlash manfaatlari bilan uyg'unlashtirishi, ularning har tomonlama hamkorligini mustahkamlash, milliy madaniyatlarini asrabavaylash va rivojlantirishga qaratilgan ishlarning asoslarini belgilaydi;

– davlat milliy siyosati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa normativ huquqiy aktlar, umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalar, xalqaro huquqiy shartnomalarda belgilangan huquq va erkinliklar va majburiyatlarni amalga oshirish, mamlakatda yashovchi millat va elat vakillarining huquq va erkinliklarini ta'midaydi. Shunindek, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish insonparvar demokratik tamoyillarga asoslangan huquqiy fuqaroviylar jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biri ekanligini, millatlararo totuvlik mamlakat va mintaqalari davlatlari ijtimoiy va milliy xavfsizligi, barqarorligini mustahkamlash, izchil taraqqiyotini ta'minlash hamda ular o'rtaSIDagi integratsiya jarayonining yanada chuqurlashuvida muhim ahamiyat kasb etishini, jamiyatda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini yanada oshirishini e'tirof etadi.

– O'zbekiston Respublikasining davlat milliy siyosati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi imzolagan xalqaro huquqiy hujjatlar va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarga asoslanadi;

-- mazkur davlat milliy siyosati barcha darajadagi davlat boshqaruv, qonun chiqaruvechi va ijroiya idoralarining milliy masala va millatlararo munosabatlarni tartibga solish, bu sohadagi muammo va tahdidlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi va yechib beradi.

O'zbekiston milliy siyosatining tamoyillari:

a) yaratuvchanlik qudratiga ega milliy mansubligidan qat'iy nazar fuqarolarning tengligini ta'minlash, ijtimoiy hayotda teng huquqli ishtirokini kafolatlashga asoslanadi;

b) O'zbekiston milliy siyosatining "Ko'p millatilik" – O'zbekistonning boyligi" degan g'oyaga asoslanadi;

v) millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish;

g) har bir millat iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish.

Tolerantlikning mohiyatiga berilgan quyidagi ta'rif bizga ma'quldir: tolerantlik – bu har qanday jamiyat, har qanday ijtimoiy qatlarm, har qanday fuqaro (uning jinsi, millati, yoshi, dini va irqidan qat'iy nazar) ma'naviy, huquqiy, siyosiy madaniyati sifatidir. Tolerantlik turli shakllarga: axloq, fe'l-atvor, ijtimoiy psixologiya, ongda aks etadigan shaxsiy, ijtimoiy shakllarga va qonunchilikda, siyosiy amaliyotda aks etadigan davlat shakliga egadir.

Biz o'rganayotgan predmetning ko'pdan-ko'p ta'riflarini ko'rib chiqib, o'z asarimizda tolerantlikni keng ma'noda – shaxsning ma'naviy normasi e'tiqodi, fe'l-atvor modeli sifatida (bunda og'ir-vazminlik murosaga kelishga tayyorlik nazarda tutiladi), shuningdek turli ijtimoiy hodisalarga, birinchi navbatda etnoslararo munosabatlarga shaxsiy yoki ijtimoiy javob shaklida ko'rib chiqishi ma'qul deb hisoblaymiz.

## 2. Millatlararo inoqlikning O'zbekiston modeli

Tarixan O'zbekiston polietnik davlat bo'lib, mustaqillik yillarida ko'pmillatilikdan kelib chiqib, Respublikada tinchlik va millatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati olib borildi.

Har qanday ko'pmillatli va ko'p dinli jamiyatning umummilliyl xavfsizligini va barqaror taraqqiyoti ikkita eng muhim nodir hodisa bilan chambarchas bog'liqdir. Bu hodisalarning birinchisi mamlakatda yashovchi turli millat vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar butun majmuasining uyg'unligi, mamlakat asosiy millati bilan etnik ozchiliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning alohida mohiyatini e'tiborga olish bo'lsa, ikkinchisi mazkur jamiyatni tashkil etuvchi turli diniy konfessiyalar vakillari o'rtasidagi o'zaro sog'lom munosabatlardir.

O'zbekiston misolida yaqqol ko'rish mumkinki, davlat faqat adolat kuchiga tayanib, milliy, irqiy, diniy mansubligidan qat'iy nazar, mamlakat fuqarolarining huquq va manfaatlarini birdek himoya qila oldi.

O'zbekistonda milliylikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. Mustaqillik sharoitida Respublikaning asosiy titul millati bo'l mish o'zbeklarning zimmasiga millatlararo tinchlikni saqlashdek katta mas'uliyat tushdi-ki, ular bu sinovdan sharaf bilan chiqdilar. Bu hol o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan bag'rikenglikning natijasidir.

O'zbekiston fuqarolari o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat'iy nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

Mustaqil O'zbekiston milliy siyosatining eng asosiy qoidalari quyidagi tarzda e'lon qilindi:

- millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar Respublika barcha fuqarolarining teng huquqliligi;
- shaxsning ustuvorligi va jamiyatdagi ijtimoiy adolatni belgilaydigan inson huquqlarining boshqa barcha huquqlardan ustunligi;
- oz sonli millatlarning haq-huquqlariga e'tibor bilan qarash, ularning tili, an'ana va urf-odatlarini hurmat qilish, ularning o'ziga xosligini saqlab qolish, shuningdek erkin va har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- har bir oilaning, har bir insонning millatidan qat'iy nazar ijtimoiy himoyalanishini ta'minlaydigan yuksak darajada rivojlangan, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga tayanish;
- millatlararo munosabatlardagi nizoli vaziyatlarni ijtimoiy-siyosiy asosda tinch yo'l bilan hal etish.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo'nalish sifatida "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqr o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" belgilandi. Bu ham yurtimizda fuqarolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bag'rikenglikka berilayotgan ulkan e'tibordan dalolat beradi.

Taraqqiyotning asosiy omillaridan biri bo'lgan bag'rikenglik borasida 1995-yil 16-noyabrda BMT tizimida Fan, ta'lim va madaniyat

sohasida ixtisoslashgan tashkilot (YUNESKO) bosh konferensiyasining 28-sessiyasida “Bag‘rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi” qabul qilindi. Deklaratsiyada irqi, jinsi, kelib chiqishi, tili, dinidan qat’iy nazar, bag‘rikenglikni targ‘ib etish, inson huquq va erkinliklariga hurmat bilan qarash kabi majburiyatlar belgilab qo‘yilgan.

1998-yil 6-noyabrda Toshkentda o‘tkazilgan YUNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasida “Tinchlik madaniyati va YUNESKOning a’zo davlatlaridagi faoliyati” deklaratsiyasi qabul qilindi. YUNESKOning “Tinchlik madaniyati” konsepsiysi BMT tomonidan ma’qullanib, 2000-yil “Xalqaro tinchlik madaniyati yili”, 2001-yil esa “Xalqaro madaniyatlararo muloqot yili” deb e’lon qilindi.

#### O‘zbekiston axolisining milliy tarkibi (ming hisobida)

	Millati	1989-yil	2000-yil	2008-yil	2013-yil	2017-yil
Nº	Jami	1 9810,1	2 4430,2	27072,2	29993,5	32120,5
1.	o‘zbeklar	14142,5	18959,6	21962,1	24858,2	26917,7
2.	ruslar	1653,5	1199,0	913,0	809,5	750
3.	tojiklar	933,6	1166,7	1327,2	1450,0	1544,7
4.	qozoqlar	808,2	990,0	862,3	803,5	803,4
5.	tatarlar	467,8	324,1	230,6	211,1	195
6.	qoraqalpoqlar	411,9	504,3	593,4	661,6	708,8
7.	koreyslar	183,1	163,8	147,7	140,0	136,9
8.	qirg‘izlar	174,9	231,9	241,5	260,5	274,4
9.	ukrainlar	153,2	104,7	85,3	75,5	70,7
10.	turkmanlar	121,6	152,1	162,9	179,5	192
11.	armanlar	50,5	42,4	38,5	36,7	35,4
12.	ozarbayjonlar	44,4	35,8	40,4	41,1	35,4
13.	nemislar	39,8	7,8	4,8	4,3	3,8
14.	beloruslar	29,4	20,4	20,6	19,3	17,6
15.	buxoro yohudiylar	28,4	19,7	10,6	10,2	8,4

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng nafaqat mamlakatga nom bergan o‘zbek xalqi, balki shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining ham millat sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratdi.

Millatlararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish borasida O‘zbekiston o‘ziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi va quyidagi siyosat yurg‘izildi:


- ko‘p millatlilikni yaratuvchilik qudratiga ega bo‘lgan omil sifatida tan olish;
- fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat’iy nazar, tengligini ta’minlash;
- milliy mansubligidan qat’iy nazar, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi teng huquqli ishtirokini kafolatlash;
- milliy til, urf-odat va an'analar hurmat qilinishini ta’minlash va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanishini ta’minlash
- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan irqiy, diniy adovat va nizoni targ‘ib qiluvchi faoliyatga yo‘l qo‘ymaslik;
- millatlar va elatlar huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga doir xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olish kabi tamoyillarga tayangan holda izchil amalga oshirilmoqda.

Shuni unutmaslik kerakki, qayerda millatlararo totuvlik g‘oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo‘layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Millatlararo totuvlik g‘oyasini amalga oshirishga g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘sinq – tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g‘oya tuzog‘iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda halokatga yuz tutadi.

Bag‘rikenglikning muhim yo‘nalishlaridan biri “diniy bag‘rikenglik”dir. Turli din vakillari e’tiqodidagi mavjud farqlardan qat’iy nazar, ularning yonma-yon, o‘zaro tinch-totuv yashashi hamda har bir diniy ta’limotga hurmat bilan qarashni anglatadigan mazkur tushuncha, har kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkin bo‘lgani holda, bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e’tirof etishini nazarda tutadi. “Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratasiysi”da ta’kidlanganidek,

“Bag‘rikenglik bo‘lmasa, tinchlik bo‘lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo‘lmaydi”.



Asrlar mobaynida o‘lkamizning shahar qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko‘rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o‘z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og‘ir davrlarida ham ular o‘rtasida diniy asosda mojarolar bo‘lмаган. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat’iy nazar, insonni ardoqlash va o‘zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish kabi tuyg‘ular yurtimiz axolisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo‘lgan diniy bag‘rikenglikning ma’naviy asosini tashkil qiladi.

Ma’lumki, har bir dinning o‘ziga xos aqidalari mavjud. Ular ba’zan bir-biriga mutanosib bo‘lsa, ba’zan zid ham kelishi mumkin. Diniy bag‘rikenglik ana shu xilma-xillik asosida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini oladi, turli e’tiqodlarning yonma-yon va bir paytda mavjud bo‘la olishi uchun xizmat qiladi.

Qadim zamonalardanoq o‘lkamizda zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi dinlar mavjud bo‘lgan. Eng qadimiyy va keng tarqalgan dinlardan biri bo‘lmish zardushtiylikning vatani ham bizning yurtimizdir. Chunki, u qadimgi Xorazmida shakllanib, rivoj topgan.

Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda buddizm ham muhim o‘rin tutgan. Hattoki, Buxoro shahrining nomi ham “Vaxara” – buddaviylar ibodatxonasi nomidan kelib chiqqan, degan fikrlar bor.

Markaziy Osiyoga islom dinining yoyilishi arafasida bu yerga Eron orqali Suriyadan kirib kelgan nestorian yo‘nalishidagi nasroniylik dini muhim mavqeni egallagan. VI asr boshlarida Samarqandda nestorian yepiskopi, VIII asrda esa mitropolita xizmat qilgan. Shuningdek, qadimda hozirgi Toshkent va Xorazm viloyatlari hududlarida nasroniy diniga mansub aholi ham yashagan. VIII asrda Markaziy Osiyoga arablar bilan birga islom dini ham kirib keldi.

Aholining bu dinni qabul qilishi asta-sekinlik bilan, bir tekis bo‘lmagan holda yuz berdi. Aholining bir qismi o‘zlarining qadimgi dirlariga e’tiqod qilishda davom etdi. Bu vaqtida islom va mahalliy dirlarning, ularga xos qadriyat va odatlarning qorishuvi yuz berdi. Mavarounnahr xalqlarining islom diniga zid kelmaydigan ma’rifiy-axloqiy g‘oyalari, huquqiy me’yor va urf-odatlari to‘la saqlanib qoldi hamda islom ta’limoti asosida yanada sayqallandi. Bu holat Mavarounnahrda islomning o‘ziga xos xususiyatlar kasb etishiga sabab bo‘ldi. Bu ham yurtimizda uzoq yillar davomida shakllangan diniy bag‘rikenglik samarasi edi.

O‘lkada tinchlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minalashda islom ta’limotidagi o‘zga din vakillari bilan o‘zaro murosa yo‘lini tutish, ular bilan dunyoviy ishlarda hamkorlik qilish va hamjihatlikda yashashga chorlovchi tamoyillar ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, islom ta’limotidagi dinni qabul qilish yoki qabul qilmaslik qalbga bog‘liq, insonning to‘liq ixtiyoridagi amal deb qaralishi mintaqada diniy bag‘rikenglik muhiti barqaror bo‘lishi uchun asosiy omillardan bo‘ldi.

Diyorimizdan yetishib chiqqan allomalarining asarlarida ham diniy bag‘rikenglik bilan bog‘liq qadriyatlar targ‘ib qilingan g‘oyalarni uchratamiz. Jumladan, Shayh Ahmad Yassaviy ham o‘z hikmatlarida o‘zga din vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lishni uqtirgan:

*Sunnat ermiss, kofir bo‘lsa, berma ozor,*

*Ko‘ngli qattig‘ dilozordan xudo bezor.*

Yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarimizning bu kabi o‘gitlari uzoq yillar davomida xalqimizni bag‘rikeng bo‘lishga, turli din va elatlar bilan tinch-totuvlikda hayot kechirishga chorlab kelgan.

Hozirgi kunda ham yurtimizda istiqomat qilayotgan turli din vakillari uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, ayniqsa, diniy bag‘rikenglikka doir qoidalarning qonuniy asoslarda mustahkamlanishi tahsinga sazovordir.

Eng avvalo, Konstitutsiyamizning 31-moddasida mustahkamlangan “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qiliш yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” degan qoida diniy bag‘rikenglik uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu tamoyilga ko‘ra, har kim o‘z dini va e’tiqodiga amal qilishda erkendir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini tan olmog‘i lozim. Bir kishining din borasidagi qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Konstitutsiyamizning 61-moddasida, yurtimizda faoliyat olib boruvchi diniy tashkilotlar va birlashmalarining davlatdan ajratilgani haqidagi qoida mustahkamlangan. Unda aytishicha, “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi”. Bu qoidaning mohiyati shundaki, O‘zbekistonda har qanday din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan va barcha diniy konfessiyalar qonun oldida barobardir. Davlat diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlaydi hamda ular o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘matilishiga ko‘maklashadi.

O‘zbekistonda e‘tiqod erkinligi va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun 1991-yilda qabul qilingan bo‘lib, 1993-yilda kiritilgan ba’zi qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar bilan 1998-yilga qadar amalda bo‘lib keldi. So‘nggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o‘zgartirish zarur bo‘lib qoldi va 1998-yilning 1-may oyida O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonun dinga e‘tiqod qilish yoki o‘zga e‘tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan darajadagina cheklanish mumkinligini ta‘minlaydi. Mazkur me’yor 1966-yil 16-dekabrda BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 18-moddasiga muvofiqdir.

Xalqaro huquqiy hujjalarda ham e‘tiqod erkinligi va diniy bag‘rikenglik xalqaro huquq himoyasida ekanı ta‘kidlanadi. Jumladan, 1948-yili qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 18-moddasida “Har bir inson fikr, vijdon, din va e‘tiqod erkinligi huquqiga egadir”, deb ta‘kidlangan. 1966-yili qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”da ham “Biror odam ham o‘z ixtiyori bilan o‘z dini va e‘tiqodiga ega bo‘lish yoki ularni qabul qilish erkini kansitadigan majburiy xattiharakatlarga duchor bo‘lmasisligi kerak”, deb ko‘rsatilgan. Bu esa, diniy bag‘rikenglikning nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqiy normalar muhofazasida ekanidan dalolat beradi.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi huquqiy me’yorlarning qonunchilikka kiritilishi diyorimizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratib berdi.

Jumladan, mustaqillikgacha yurtimizda bir necha cherkov va sinagogalar faoliyat olib borgan bo'lsa, qonuniy asoslar mustahkamlangach, dunyoning turli mintaqalarida diniy ibodatlarini amalga oshiruvchi evangel-lyuteran jamoasi, rim-katolik cherkovi, "yettinchi kun adventistlari" diniy tashkiloti, bahoiylar, yahudiylar diniy jamoalari kabi konfessiyalar rasmiy faoliyat yurita boshladi.

Hukumatimiz tomonidan turli diniy tashkilotlarning o'z faoliyatlarini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berildi. Jumladan, markaziy televideniya orqali O'zbekiston musulmonlari idorasi ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni berib borishi, Imom Buhoriy, Imom Termizi, Imom Moturidiy kabi mashhur allomalarning tavalludiga bag'ishlangan anjumanlarning keng ko'lamda nishonlanishi kabi tadbirlarni aytib o'tish o'rindidir. Ayniqsa, haj ibodatini to'la-to'kis va hamjihat holda ado etish uchun barcha sharoitlar yaratilgani tahsinga sazovor.

O'z navbatida, pravoslavlар uchun Isroil, Gretsiya va Rossiya, katoliklar uchun Isroil va Italiya, armanlar uchun Isroil va Armaniston, yahudiylar va bahoiylar uchun Isroil, krishnachilar uchun Hindiston va buddaviylar uchun Koreyada joylashgan muqaddas joylarga ziyoratlar tashkil qilinmoqda.

Bundan tashqari, Prezidentimiz farmoniga ko'ra, 1903-yilda qurilgan "Svyataya Bogoroditsa" ibodatxonasining Arman apostol cherkoviga topshirilgani, o'z vaqtida faoliyati to'xtatib qo'yilgan Evangel-lyuteran cherkovi Kirxasining Respublikamizda istiqomat qiluvchi nemislarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida "Vidergeburt" nemis madaniyat markaziga foydalanish uchun qaytarib berilgani va 1996-yilning dekabrida ushbu konfessiyaning yurtimizda faoliyat boshlaganining 100 yilligi keng nishonlanishi ham Yuqoridagi fikrimiz isboti bo'la oladi.

Shuningdek, xristianlarning "Rojdestvo", "Pasxa", yahudiylarning Rosh-Ashona (Yangi yil), Yom-Kipur (Gunohlardan poklanish bayrami), Pesax (Pasxa), buddaviylarning Sagaalgan (yangi yil), Donchod-xural (Buddaning tug'ilgan kuni) kabi bayramlarini nishonlash uchun yurtimizda yashovchi shu din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

2000-yil 13-15-sentyabrda Toshkentda o'tgan dinlararo muloqot YUNESKO kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xillikni muhokama qildi. Unda 40ga yaqin davlatdan 80dan ortiq turli din va konfessiyaga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok

etdi. Kongressdan so'ng 18-sentyabrda Buxoro shahrida "Tasavvuf va dinlararo muloqot" mavzusida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi. Unda "tasavvuf"ga bag'rikenglikni targ'ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi islom dinining noyob, o'ziga xos ko'rinishi, degan ta'rif berildi. Shuningdek, 2001-yil sentyabrda Toshkentda o'tgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi YUNESKO "Bag'rikenglik tarmog'i"ning ikkinchi yig'ilishida bag'rikenglik tamoyillari o'zbek xalqining urf-odatlari bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlandi.

Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESKO) tomonidan Toshkentning islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishi munosabati bilan 2007-yil 14-15 avgustda Toshkent va Samarqand shaharlarida "O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi" mavzuida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada ham mamlakatimizning jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirish yo'lidagi yutuqlari yana bir bor e'tirof etildi. Shuningdek, 2014-yilning 15-16-may kunlari Samarqand shahrida "O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Bugungi kunda ham mamlakatimiz boy tarixiy, ilmiy-ma'rifiy va madaniy merosni o'rganish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va targ'ib etish, islomning ma'rifiy g'oyalarini yoyish hamda diniy bag'rikenglikni qaror toptirish va mustahkamlashda butun dunyoga o'rnat bo'lmoqda.

Bag'rikenglikning ziddi "mutaassiblik"dir. Umumiy ma'noda "mutaassiblik" – bu bir g'oyaning to'g'rilingiga qattiq ishonish va undan o'zgalarini keskin rad etishni anglatadi. Mazkur fenomenning xavfli jihat shundaki, u borgan sari kuchayib ksenofobiya, ekstremizm va hatto terrorizmga aylanadi.

Terrorizm butun dunyoda tinchlikni ta'minlash yo'lidagi asosiy g'ov, to'siqdir. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro miqyosda o'zini ochiq namoyon etayotgan xatarli voqeliklardan biri, turli shiorlar bilan niqoblangan terrorizm mintaqalar va mamlakatlar hayotiga birdek tahdid solmoqda. Keng ko'lam va xilma-xil ko'rinishlar kasb etayotgan ushbu illatga qarshi kurash butun dunyo uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo bo'yicha 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bir yil mobaynida butun yer yuzida sodir etilgan teraktlar va ularning oqibatida halok bo'lganlarning soni bir necha o'n mingni tashkil etishi terrorizmnинг tinchlik va hotirjamlikni izdan chiqarishga qaratilgan asosiy tahdidlardan biriga aylanganini ko'rsatadi.

Ayni paytda zamonaviy terrorizmning, bir tomonidan, tobora shafqatsiz, g‘ayriinsoniy mohiyat, ikkinchi tomondan, aqlga sigdirish qiyin bo‘lgan jug‘rofiy ko‘lam kasb etib borayotganini alohida ta‘kidlash lozim. Hozirgi vaqtida har kuni dunyoning u yoki bu burchagida kimlarnidir qo‘rquvgaga solish orqali muayyan maqsadlarga erishishni ko‘zlagan qo‘poruvchilik harakatlari amalga oshirilmoqda. Afsuski, ularning soni muntazam oshib bormoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida diniy mutaassib oqimlar faoliyati XX asming 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar sa'y-harakatlari bilan shakllana boshladi. Mintaqada xorijdan kelayotgan molivaviy yordam hisobidan jangari sifatida foydalilaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug‘ullanadigan guruuhlar paydo bo‘ldi. Markaziy Osiyo Respublikalari mustaqillikka erishgan 90-yillarning boshlarida esa, bu guruuhlar faollahшиб ketdi. Mintaqada “Hizbut-tahrir”, “Turkiston islom harakati”, “Akromiyalar”, “Nurchilar” kabi guruhlarning faoliyati kuzatildi.

Islom asoslarini buzib talqin qilish, ilmsiz, tashqi ta’sirga beriluvchan aholini o‘z talqinidagi diniy g‘oyalar bilan zaharlash, o‘zlariga qo‘shilмаган kishilarga, davlatlarga va tuzumlarga nisbatan zo‘ravonlik, buzg‘unchilik, qotillik bilan munosabatda bo‘lishni halol deb hisoblash kabi xususiyatlar Yuqorida zikr etilgan tashkilotlarning barchasiga hosdir. Afsuski, so‘nggi yillarda mazkur guruuhlar faoliyati natijasida dunyo bo‘ylab har yili 30 mingdan ortiq tinch fuqaro halok bo‘lmoqda. O‘nlab million aholi o‘z uylarini tashlab ketib, dunyoning turli-mamlakatlarida sarson-u sargardon bo‘lishga majbur qolmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, bir milliondan ortiq yosh bolalar ochlikdan o‘lish xavfi ostidadir. Ularning aksariyati terrorchilik avj olgan, buzg‘unchi guruuhlar tomonidan egallab turilgan hududlarga to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda Iraq, Suriya, Nigeriya, Afg‘oniston, Yaman, Liviya hanuz dunyoning eng xatarli nuqtalari hisoblanadi. Tahlilchilarning fikricha, hech qaysi davlat o‘zining terrorchilar hurujidan holi ekaniga 100 foiz kafolat bera olmaydi. Jumladan, 2015-yilda dunyoning 96 mamlakati, u yoki bu darajada terrorchilikdan aziyat chekkan.

Mana shunday sharoitda ekstremizm va terrorizm xavfini to‘g‘ri anglab yetish, ularga qarshi amaliy choralar ko‘rish – davr talabidir. Shunday ekan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “yanada ogoh va sergak bo‘lish, eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko‘p millatli xalqimizning birdamligi va

jinsliginni ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir“.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Milliy masalada O'zbekistonning o'z yo'li, ya'ni o'z modelining mavjudligi haqida gapirib bering.
2. O'zbekiston Respublikasi milliy siyosatining asosiy tamoyillari nimadan iborat?
3. Milliy siyosatning o'zagini nima tashkil etadi?
4. Milliy g'oya va milliy siyosatning o'zaro bog'liq jihatlarini tushuntiring.
5. O'zbekiston hududida azaldan qanday din vakillari istiqomat qilingan?

### **Kalit so'zlar:**

Milliy siyosat, tamoyil, barqarorlik, bag'rikenglik, totuvlik, diniy, dinlararo bag'rikenglik, milliy g'oya.

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Birinchi Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishidagi nutqi. // Xalq so'zi, 2015-yil 13-yanvar.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi // Xalq so'zi, 2017-yil 25-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdalar" nutqi. 2017-yil 19-sentyabr.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi. 2018-yil 7-dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvar “Respublika Baynalmilal madaniyat markazi to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 1992-yil 13-yanvar – №10.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 8-aprel “Respublika Baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2003.- №7-8.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-may “Millatlararo munosabatlar va xorijiy davlatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017-yil 23-may.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.

2. O‘zbekiston – ko‘pmillatli ahil oila. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.

3. O‘zbekiston – tinchlik va totuvlik mamlakati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

4. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – B.210-217.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. "Bag'rikenglik – o'zaro ishonchni rivojlantirishning vositasi sifatida" xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent: Universitet, 30-may 2018-yil.
2. Bag'rikeng O'zbekiston diasporalari tarixi (buxoro yahudiylari, nemis, polyak, koreys, grek, uyg'ur, boltiqbo'yi xalqlari misolida). 2-kitob. Jamoaviy manografiya. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018.

## **4-mavzu. DAVLAT MILLIY SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI**

### **Reja:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat milliy siyosatini aks ettirilishi.
2. Milliy siyosatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar.

### **1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat milliy siyosatini aks ettirilishi**

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonida ijtimoiy siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlikning ta'minlanishi, mustahkamlanishi va yanada rivojlantirilishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish jarayonida hozirgacha qo'lga kiritilgan eng asosiy, eng katta yutug'imir mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va millatlararo munosabatlardagi totuvlikdir.

Istiqlol yillarda ko'pmillatli O'zbekistonda ijtimoiy siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning ta'minlanishini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, demokratik talablar asosida boshqaruva tizimining isloh qilinishi natijasida davlat tashkilotlari qonunga tayanadigan va uni himoya qiladigan oliy nazorat tizimiga aylandi. Kuchli ijroiya hokimiyatining vujudga kelishi o'z navbatida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun shart-sharoit yaratdi.

Ikkinchidan, xalqning o'z fikri, xohish-irodasi, maqsad va muddaolarini erkin, demokratik tarzda namoyon etish imkoniyatining yaratilishi, shuningdek, millatlararo munosabatlarda o'zaro hurmat va hamkorlikning yuzaga kelishi.

Uchinchidan, bozor munosabatlariga o'tilishi hamda yangicha xo'jalik yuritish tizimi va iqtisodiy siyosat natijasida ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarining erkinliklari, huquqlarining himoya qilinishi.

To'rtinchidan, o'tish davrida aholining kuchli ijtimoiy himoya qilinishi natijasida moddiy turmush darajasining bir me'yorda ushlab turilishi.

Beshinchidan, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama faol integratsiyalashuvi, shuningdek, uning MDH va Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi. Mazkur harakatlar orqali eng avvalo

mintaqada, shu bilan birga, jahonda ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik hukmron bo'lgan jamiyatda barcha muammolarni kuch ishlatmasdan, muzokaralar, ma'lum darajada yon berishlar, bir-birlarini tushunishga intilishlar, konsensuslar orqali hal qilishga imkoniyat mavjud bo'ladi. Bu mamlakatlararo, millatlararo munosabatlarga ham taalluqlidir.

Mamlakatimizda millatlararo totuvlikni saqlab qolishga O'zbekiston fuqarolarining demokratik tamoyillarga asoslangan teng huquqliligi bilan bog'liq hamma muammolarni xal etadigan qonunchilik bazasi yordam bermoqda. Boshqacha aytganda, O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash amaldagi demokratik tamoyillarga asoslangan qonunchilik bilan mustahkamlangandir.

Har bir xalqning taqdirda muhlanib qoladigan tarixiy hujjatlar millat ravnaqi, davlatchilik poydevorining mustahkam bo'lishi uchun xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir. O'zbek xalqi tarixida ham keskin burilish yasagan, istiqlol uchun kurashlar samarasi bo'lgan, ahamiyati jihatidan asrlarga tatiflik huquqiy hujjatlar qatorida "Mustaqillik deklaratasiysi", "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi qaror, "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun va albatta, Asosiy Qonunimiz – Konstitutsiyamizni alohida ehtirom bilan tilga olamiz. Mustaqil davlatchilikning belgisi hisoblanmish Konstitutsiya, avvalo, millatning yuzi, xalqning erki ifodasi, jamiyat taraqqiyotining asosidir. Tom ma'noda yangi demokratik tuzumni barpo etish maqsadida qabul qilingan Konstitutsiyamizning g'oyasi, asosiy prinsip va qoidalari umum e'tirof etilgan xalqaro talablar bilan birga, xalqimizning ming yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarini ham o'zida mujassam etgan.

Qabul qilinish tartibining o'zi yoki, jahon konstitutsiyaviy tajribasida alohida o'rin tutuvchi, huquqiy pretsedent hisoblangan, ya'ni loyihasi ikki marotaba umumxalq muhokamasidan o'tgan Konstitutsiyamizning yaratilish davri o'ta murakkab tarixiy jarayonlar silsilasiga to'g'ri keldi. Oz fursat ichida mamlakatimiz Konstitutsiyasini qabul qilish zarurati mas'uliyatni yanada oshirdi. Davlat qurilishi sohasida mustaqil tajribaning endigina shakllanayotgani, davlat boshqaruvi, jamiyatni idora etish masalalariga tamoman yangicha yondashuv lozimligi, ijtimoiy munosabatlarni tamoman yangidan

huquqiy tartibga solish ehtiyoji Konstitutsiyani qabul qilishga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi murakkab omillardan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganidek: “Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro‘-e’tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlat komusnomasidir. Shu ma’noda asosiy Qonunimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chiqish va muhokama etishda butun xalq ishtirok etdi. Bir so‘z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz tom ma’noda xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir”.

Muqaddima Konstitutsiyaning mohiyatan muhim tarkibiy qismi sifatida katta ahamiyatga ega. Chunki unda O‘zbekiston xalqining mustaqil taraqqiyot yo‘li eng muhim sakkizta siyosiy-huquqiy g‘oya va prinsiplarga, milliy qadriyatlarga tayanishi aniq ko‘rsatib berilgan. Bu negiz va prinsiplar:

*Birinchidan*, jahoning yuksak darajada taraqqiy etgan demokratik davlatlari tomonidan e’tirof etilgan inson huquqlari va davlat suvereniteti g‘oyalari hamda prinsiplariga sodiqlik namunasini ko‘rsatishdek mas’uliyatni o‘z zimmamizga oldik. Zero, hayotda inson, uning ajralmas huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanadi.

*Ikkinchidan*, milliy xususiyatlarimiz -qadriyatlarimizdan kelib chiqib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas’uliyatni anglab, ushbu Konstitutsiyani qabul qilar ekanmiz, ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni o‘rganish, ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish asosida bugungi va kelajak avlodlarimiz dunyo hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun ham jon kuydiramiz.

*Uchinchidan*, shu kungacha to‘plangan o‘zbek davlatchiligining boy tarixiy tajribasiga tayanish orqali Asosiy Qomusimizda bobolarimiz yaratgan, ya’ni Soxibqiron Amir Temur, Ulug‘beq, Muxammad Bobur, Temur Malik kabi tarixiy shaxslarning milliy davlatchiligidagi o‘mi, ular amal qilgan davlat boshqaruvidagi an’analarni e’tiborga olib, madaniyatimiz rivojiga bebafo hissa qo‘sghan buyuk ajdodlarimiz – sharqning buyuk mutafakkirlari Imom al-Buxoriy, at-Termiziyy, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshband, Navoiy va boshqa daholarimiz qoldirgan madaniy-axloqiy meros asosida mazmunan yangi davlatchilikni tashkil etishni ko‘zladik. Ularning insonni ma’naviy komillikka chorlovchi diniy-axloqiy va huquqiy hikmatlari Konstitutsiyamizga ruh bag‘ishlagan.

*Turtinchidan*, demokratiya na ijtimoiy adolat g'oyalariga sadoqatimizni namoyon etish orqali, xalq hokimiyatichilagini mustahkamlash, xalq vakilligi institutlarini rivojlantirish, referendum va saylovlar asosida davlat va jamiyat hayotiga oid muhim masalalarni hal qilish, demokratiya o'chog'i sanalgan milliy qadriyat – mahalla instituti orqali har bir insonning siyosiy-huquqiy qarashlarini yuksaltirish bosh vazifa sifatida qaralmoqda. Bunda ijtimoiy adolatni targ'ib qilish hamda unga amal qilish barobarida jamiyat a'zolari o'rtasidagi tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, ularda bir-biriga mehr-muruvvat hissini uyg'otish, kam ta'minlangan, parvarishga muhtoj, nogiron va boquvchisi bo'limgan insonlarni ijtimoiy himoya qilish kabi insoniy fazilatlarga tayanishni muhim omil, deb hisobladik.

*Beshinchidan*, xalqaro huquqning e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda, xalqaro xamjamiyat bilan o'zaro tenglik asosida siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy hamkorlik qilish, xalqaro munosabatlarda to'la huquqli a'zo sifalida har tomonlama sheriklik qilish, milliy huquq tizimimizni xalqaro huquq talablari darajasida shakllantirishni majburiyat, deb qabul qildik.

*Oltinchidan*, O'zbekiston fuqarolarining farovon hayot kechirishlarini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotni bozor munosabatlari prinsiplari doirasida erkinlashtirish, barcha mulk shakllarining muqaddas va daxlsiz ekanligini e'tirof etish, mehnat qilish va tadbirkorlikni rag'batlanirish, iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish kabi qoidalari o'matilishiga erishildi. Bundan keyin ham fuqarolarning moddiy turmush tarzini yanada yuksaltirish davlatimizning bosh vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

*Ettinchidan*, insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etishni ko'zlab, hamma narsa inson uchun, inson baxt-saodati uchun yaratilishini anglagan holda qonunlarimiz ruhiga insonparvarlik g'oyalarini singdirish, jamiyat huquqiy tafakkurini yuksaltirish, qonunlarni hurmat qilish va ularga itoatda bo'lish talablarini joriy etish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirishga erishishni davr talabi, deb bildik.

*Sakkizinchidan*, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatligini ta'minlash orqali davlatning oldida turgan asosiy funksiyasini bajarish maqsadida huquqni muhofaza qilish organlarini, mudofaa va xavfsizlik idoralarini ta'sis etishni muhim vosita deb bildik. Bunda milliy hamjihatlikni, bag'rikenglikni, xalqimizning osoyishtaligini saqlash bosh mezonimiz bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi chinakam xalqchil va demokratik konstitutsiya bo'lib, u tarixan sinalgan umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan. Haqiqatdan ham, "Mustaqil O'zbekistonning kuch-kudrat manbai -xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir". O'zbekiston Konstitutsiyasi yaratilishida eng rivojlangan, taraqqiy topgan demokratik davlatlarning tarixiy tajribasi va jahon konstitutsiyaviy amaliyoti inobatga olingan. Konstitutsiyamiz birinchi navbatda Birlashgan Millatlar Tashkilotining qator hujjalariiga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalariga va o'zbek xalqining boy tarixiy tajribasiga asoslangan.

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning ma'naviy, madaniy meros, milliy tafakkur, muqaddas islomi qadriyatlar va ko'p asrlik o'zbek davlatchiligi tajribasi hamda huquqiy an'analariga asoslangan va bu ijobjiy yutuqlarni o'zida aks ettiradi.

Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi kelajagi buyuk davlatning ishonchli huquqiy kafolati hisoblanadi. Konstitutsiya o'zida inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik va taraqqiyot tamoyillari majmuuni ifodalaydi, jamiyat esa u orqali demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyagini barpo etishni eng oliy maqsad deb, tomon intildi.

Bag'rikenglik haqida gapirar ekanmiz, Konstitutsiyaning shu masalaga bag'ishlangan moddalarini ko'rib chiqamiz. Masalan, 4-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Har bir xalq, har bir elat o'z hurmat-ehtirom qiladigan tilga ega. Tilga bo'lган munosabat ana shu tildan foydalanuvchi odamlarning ko'p yoki oz sonli ekanligiga bog'liq emasdir. Tilda ana shu tilning ijodkor bilan xalqning, elatning tarixi va madaniyati aks etadi.

Til millatning ajralmas belgisi va davlat mustaqilligini ifodalovchi jihatlardan biridir. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasining 4-moddasida mustahkamlangan me'yorlar o'zbek tilining huquqiy maqomini tiklashga qaratilgan bo'lib, unda, avvalo, Respublikamizning davlat tili o'zbek tili ekanligi qayd etilgan. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining o'ziga xos tarixi bor. Ma'lumki, 1989-yil 21-oktabrda O'zbekistonning "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilindi, 1995-yil 21-dekabrda bu qonunning yangi tahriri amalgalari kiritildi.

"Tilga e'tibor — elga e'tibor", "Til — millatlarning o'lkan boyligi va bebaivo mulki", deb bejiz aytishmaydi. Chunki til millat mavjudligini, uning yashayotganligini, o'z taqdiriga ega ekanligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonunida belgilanganidek, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakat hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

O'zbek tilining mamlakatimiz hududida davlat tili sifatida amal qilishining hukuqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Ushbu qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq, udumlarni ado etishda qo'llanilishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit yaratilgan hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlangan, bu tillarni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish bepul amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarga ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqi kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiyligida, kasb-hunar, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyyati va boshqaruvenning organlarining boshqa hujjalari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon qilinadi. Bu hujjalarning tarjimalari boshqa tillarda ham chop etiladi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruvenning organlarining hujjalari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zinch

yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari Respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishiga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. O'zbekistonda boshqa millat vakillariga til tengligi to'la ta'minlangan.

Davlat tilining muhim belgilardan biri, uning barcha rasmiy ish yuritishda to'laligicha qo'llanilishidir. O'zbekistonning davlat tili haqidagi qonuniga ko'ra, O'zbekiston hududida yashovchi har bir shaxsning davlat, jamoat idoralari va tashkilotlariga ish yuzasidan taklif, ariza hamda shikoyat bilan davlat tilida murojaat etish va javoblar olish huquqi ta'minlanadi. O'zbekistonda ishlovchi barcha mansabdon shaxslar, rahbar xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun Respublika davlat tilini yetarli darajada bilishlari shart. Aholiga xizmat ko'rsatish ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxslar ham o'z xizmat vazifalarini bajarish uchun davlat tilini bilishlari lozim. Mamlakatimizda qonunlar, qarorlar, farmonlar va boshqa hujjatlar bevosita davlat tilida tayyorlanib, qabul qilinmoqda va e'lon etilmoqda. Hozirgi vaqtida barcha turdag'i yig'ilishlar, majlislar va kengashlarning o'zbek tilida o'tayotganligi Qonunning tobora hayotimizga singib borayotganini ko'rsatmoqda.

2004-yil 30-aprelda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi "O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan bo'lib, unga ko'ra lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich o'tilib, 2010-yilning 1-sentyabriga qadar to'liq tugallanishi belgilandi.

Kirill yozuvidan lotin yozuviga o'tilishi ham ona tilimiz ravnaqiy yo'lidagi yana bir muhim qadamdir.

O'zbekistonning davlat tili haqidagi Qonuni va Konstitutsiyaning 4-moddasi o'zbek tilining yanada rivojlanishi, keng o'rganilishi, targ'ib qilinishi uchun yordam beradi. O'zbek tilining davlat tili sifagida xizmat qilayotganligi bugungi milliy istiqlolimizning muhim belgilardan biridir.

Shunday qilib, Konstitutsiyamizning ushbu moddasida belgilangan me'yor, bir tomondan, o'zbek tili va o'zbek xalqi hayotida, tilning taraqqiyoti va xalqning ma'naviy kamolotida, milliy istiqlolga

erishishida beqiyos omil bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomonidan esa, boshqa millat va elatlarning teng huquqliligi saqlab qolinishida, ularning tillari, urf-odatlari va an'analarining hurmat qilinishi va yanada rivojlanishida muhim kafolatdir.

8-modda. O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

Mazkur moddada qayd etilgan qoidaning mazmuni jahondagi hech bir Konstitutsiyada uchramaydi. Bu Asosiy Qonunimizning yana bir muhim xususiyatlaridan biridir. Ushbu moddada "O'zbekiston xalqi"ga Konstitutsion ta'rif keltirilgan. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida istiqomat va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy va irqiy mansubligidan, e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquqlu fuqaro hisoblanadi.

O'zbekiston fuqarolari, o'zlarining nasl-nasabi, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa holatlaridan qat'iy nazar, O'zbekiston xalqini tashkil etadi. Konstitutsiyamiz va u asosida qabul qilingan qonunlarimiz O'zbekiston xalqini tashkil etuvchi barcha millat va elatlarning urf-odatlari va milliy an'analarini hurmat qilinishini kafolatlaydi.

O'zbekiston axolisining ko'p millatliligi o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va ma'naviy qayta tiklanishining o'sishi bilan chambarchas bog'liq holda jamiyatni yangilash, uni demokratlashtirishga undovchi zo'r kuch bo'lib xizmat qilmoqda. Bu Respublikaning jahon hamjamiatiga qo'shilishi uchun qulay shart-sharoit yaratyapti. Mamlakatimizda asosiy millat – o'zbeklar bilan bir qatorda o'z madaniyati va an'analariga ega bo'lgan yuzdan ortiq millat vakillari istiqomat qilishadi. Ularning mamlakat axolisi urnumiylar tarkibidagi ulushi 20 foizdan oshib ketadi.

O'zbekiston tarixida qabul qilingan avvalgi Konstitutsiyalardan farqli ravishda mazkur Konstitutsiya O'zbekiston xalqini ishchilar dehqonlar, ziyorolar, musulmonlar, askarlar va hokazolarga ajratmaydi. Konstitutsiya bo'yicha kim qanday kasbni egallashidan, qanday mashg'ulot turi bilan shug'ullanishidan, jamiyatda qanday o'rin tutishidan, ijtimoiy kelib chiqishidan va boshqa holatlaridan qat'iy nazar inson deb e'zozlanadi.

18-modda. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart.

Inson va fuqarolarning huquqlari ichida fuqarolarning tengligi prinsini alohida o'rinni tutadi. Fuqarolarning tengligi prinsipi xalqimizning mentalitetiga, uning insonparvarlik ruhiga, diniy qadriyatlarimizga ham juda mos keladi.

Konstitutsiyamizning 18-moddasida insoniyatning, o'zbek xalqining asrlar davomida intilib kelgan azaliy qadriyati – ya'ni fuqarolarning tengligi mustahkamlangan.

Insonlarning qonun oldida tengligi tamoyili ularning teng huquq va majburiyatlar sohibi ekanligini anglatadi. Fuqarolarning tengligi – demokratiyaning muhim elementi hamda jahon konstitutsiyaviy taraqqiyotining muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Bu tenglik fuqarolarning davlat, qonun va sudoldida rasmiy tan olinadigan tengligi bo'lib, u har bir davlat fuqarolarining jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, egallab turgan lavozimi, turar joyi, dinga munosabati, qarashlari, jamoat birlashmalariga mansubligi va boshqa holatlardan qat'iy nazar teng huquq, erkinlik va burchlarga ega ekanligini anglatadi.

Huquqiy tengliq bu, albatta, formal tenglikdir, ya'ni rasmiy jihatdan teng huquq va majburiyatlarga ega bo'lishlikdir. Ta'kidlash joizki, teng huquqlilik faqat teng huquq va erkinliklar sohibi bo'lishni anglatibgina qolmay, balki teng majburiyatlarni ham zimmaga olishni taqozo etadi.

Insonlarning teng huquqligini o'z ichiga qator elementlarni oladi:

- teng huquqlilik nuqtai nazaridan insonning huquqiy maqomi va fuqaroning huquqiy maqomi masalasini;
- insonlar real hayotda farqlanishidan qat'iy nazar teng konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarga ega bo'lishini;
- insonlarning qonun va sud oldida tengligini va b.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonunda va xalqaro shartnomalarda ko'rsatilgan hollardan (istisnolardan) tashqari barcha chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan bir qatorda huquq va erkinliklar beradi va ularni kafolatlaydi.

Shunga binoan, yuqorida ham qayd etilgan 18-moddaning 1-bandida mustahkamlangan qoida tahibili quyidagilarni ko'rsatadi:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Konstitutsiya bilan O'zbekiston fuqarolari uchun kafolatlangan teng huquq va erkinliklarga egadir;

— O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar (apatriidlari) O'zbekistonda har kimga kafolatlanadigan huquq va erkinliklardan foydalanadilar.

O'zbekistonda fuqarolarning teng huquqliliginu ta'minlashning muhim huquqiy vositasi — teng huquqlilikni buzganlik uchun jinoiy javobgarlikning mavjudligidir.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat Kodeksining "Fuqarolarning teng huquqliliginu buzish" – 141-moddasiga muvofiq "Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeiga qarab, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish" jinoiy harakat hisoblanib, bunday harakatlarni sodir etganlik uchun eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Ushbu moddaning ikkinchi bandida fuqarolarning teng huquqligini buzish zo'rlik ishlatib sodir etilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Asosiy Qonunimizda mustahkamlangan fuqarolarning tengligi tamoyilini buzganlik uchun juda jiddiy javobgarlik choralar, jumladan, jinoiy javobgarlik ham belgilab qo'yilgan. Bu esa fuqarolarning tengligi tamoyilini amalga oshirishning samarali qonuniy kafolati hisoblanadi.

Ma'lumki, bilim olish huquqi insonlarning eng muhim huquqlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuning 4-moddasida: "Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi", - deb mustahkamlab qo'yilgan.

Buning ma'nosi shuki, O'zbekiston fuqarolari hamda ular bilan bir qatorda xorijiy mamlakatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham amaldagi qonunchilikka va xalqaro normalarga muvofiq O'zbekiston hududida bemalol bilim olish huquqiga egadirlar.

O'zbekistonda ta'lif tizimi dindan ajratilgan. Biroq bu holat fuqarolarning dunyoviy ta'lif olish huquqi ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'iy nazar ta'min etilishiga to'sqinlik qilmaydi. Bu qoida "Ta'lif to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolar ta'lim va tarbiya olishda til tanlash huquqiga ega bo'lib, boshqa millat vakillarining o'z ona tillarida, masalan, tojiq, qozoq, rus tillarida ta'lim olishlari ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksining 42-moddasida fuqarolarning tarbiya va ta'lim berishda tilni erkin tanlashdan iborat huquqlarini buzish, tildan foydalanishda to'sqinlik qilish va cheklash kabi harakatlar uchun ma'muriy-huquqiy javobgarlik belgilangan.

Konstitutsiyamizning 31-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dingga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dingga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishiga yo'l qo'yilmaydi", - deb oliv maqomda mustahkamlab quylgan. Mazkur konstitutsiyaviy qoida o'zining bat afsil qonuniy ifodasini "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda topgan. Mazkur qonunning 3-moddasida Yuqoridagi konstitutsiyaviy qoida batafsilroq mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, "Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dingga e'tiqod qilish yoki hech qanday dingga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dingga, dingga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi", deb mustahkamlangan. Bu qoidalarning ma'nosi shuki, biror-bir dingga e'tiqod qilish yoki qilmaslik har bir odamning vijdoniga havoladir. Bu masalaga hech kim aralashishi yoki tazyiq o'tkazishi mumkin emas.

Biroq, ta'kidlash joizki, Yuqoridagi qoidalardan ota-onaning farzandlari qaysi e'tiqodga moyil, bolasi nimalarga sig'inayapti, turli zararli oqimlarga kirib ketmayaptimi kabi masalalarda javobgarligi, mas'uliyati yo'q, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, ular farzandalarining to'g'ri yo'lga kirishlariga, dindor bo'ladigan bo'lsa, to'g'ri dingga sig'inishiga mas'uldirilar. Diniy mutaassiblikning, xalqaro miqyosda diniy ekstremizmning ashaddiy lashuv jarayoni bu masalani yanada keskin tarzda kun tartibiga qo'ymoqda.

Yuqorida qayd etilgan qonunning 4-moddasida esa: "O'zbekiston Respublikasi fuqorolari dingga munosabatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirilar. Rasmiy hujjatlarda fuqarolarning dingga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning dingga munosabatiga qarab ularning huquqlarini har qanday cheklash va ularga bevosita yoki

bilvosita imtiyozlar belgilash, dushmanlik va adovat uyutish yohud ularning diniy yoki daxriylik e'tiqodi bilan borliq xis-tuyg'ularini haqoratlash, diniy ziyyaratgohlarni oyoq osti qilish qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Hech kim diniy e'tiqodini ro'kach qilib qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli emas. Qonunga muvofiq bajarilishi majburiy bo'lgan bir vazifani diniy e'tiqodi tufayli boshqasi bilan almashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi", – deb mustahkamlab qo'yilgan.

Bundan tashqari, siyosiy qarashlari yoki u yoxud bu partiyaga a'zoligiga qarab fuqarolarning huquqlarini cheklash qat'ian man etiladi va bunday harakat Konstitutsiyaga ziddir. Chunki Asosiy Qonunimizning 34-moddasiga binoan "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar".

Siyosiy partiyalarda ozchilikni tashkil etuvchi muxolisatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamshitishi mumkin emasligi ham Konstitutsiyamizda o'zining huquqiy ifodasini topgan.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi fuqarolarning turli huquqlarini amalga oshirishda tengligini ta'minlashning to'la huquqiy asoslari mayjud.

21-modda. O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'matiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'iy nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtida O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi.

Dunyo hamjamiatidan o'zining munosib o'mini egallashga harakat qilayotgan O'zbekiston Respublikasi milliy huquq tizimini bunyod etar ekan, milliy davlatchilik ramzlaridan biri bo'lgan fuqarolik institutiga alohida e'tibor qaratdi.

Fuqarolikning huquqiy asoslarini yaratishda asosiy e'tibor, albatta, xalqaro huquq tomonidan umum e'tirof etilgan tamoyillarga qaratilgan. Dunyoviy, huquqiy, demokratik tamoyillarga asoslangan davlat qurish va fuqarolik jamiyati barpo etish mazmunida, uning manbai va faol a'zosi

hisoblangan fuqarolarning huquq va erkinligi, manfaati, insoniy qadriyatlari ustuvorligini belgilash va ta'minlash bosh qoida sifatida mamlakatimiz tomonidan e'tirof etildi.

O'zbekistonda milliy va xalqaro huquqiy normalar zaminida "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonun ham qabul qilindi.

Mazkur qonunda fuqarolikka oid masalalarga juda katta mas'uliyat bilan yondashilganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlarning negizida fuqarolik huquqiy holatiga doir masalalarning to'g'ri va ijobjiy xal etilgani yotadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir necha joyida inson va fuqarolarning huquqiy maqomini belgilovchi normalar mustahkamlab qo'yilgani ham fuqarolik institutiga davlat tomonidan o'ta jiddiy ahamiyat berilganini ko'rsatadi. Zero, har bir demokratik davlat faoliyatining mazmuni, avvalo, o'z fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Fuqarolik holatiga tegishli asosiy tamoyillarning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi oqibatida fuqarolarning davlat bilan mustahkam huquqiy munosabatiga asos solindi. Konstitutsiyamizda yagona fuqarolik barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, barcha insonlarning teng huquqliligi, davlat o'z fuqarolarining himoyachisi ekanligi kabi tamoyillar o'rnatilganki, bu o'z navbatida, fuqarolarning davlat hokimiyyati bilan bo'ladigan munosabatlarda o'zaro hurmat va mas'uliyat bilan yondashuvini taqozo etadi.

Fuqarolik holati bilan bog'liq muammolar yechimini topishga qaratilgan huquqiy asoslarning yaratilishida mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimovning siyosiy-huquqiy qarashlarining ta'siri va ahamiyati alohida tilga olinadi. Ayniqsa, uning yagona fuqarolik prinsipini o'rnatishga daxldor bo'lgan quydagi g'oyasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi: "Umum e'tirof etilgan qoidaga ko'ra, har bir shaxs faqat bir davlatning fuqarosi bo'la oladi".

31-modda. Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har-bir inson xohlagan dingga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dingga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.

Vijdon erkinligi – insonning ajralmas huquqlaridan biridir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18- va 19-moddalarida vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topgan.

Vijdon erkinligi masalasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda quyidagi holatlar aks etgan:

- o'z xohishiga ko'ra maslakka yoki dinka ega bo'lish;
- tushunchaga va dinka ega bo'lish;
- o'z maslagi va dinini o'zgartirish;
- dinka va maslakka bir o'zi, birligida e'tiqod qilish, ommaviy yoki shaxsiy tartibda dinni o'rganish va sig'inish;
- diniy rasm-rusum va toat-ibodat marosimlarini o'tkazish;
- ota-onalarga yoki qarovchilarga o'z tushunchalariga amal qilgan holda, o'zlarining bolalarini diniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashini ta'minlash.

Konstitutsiyamizda vijdon erkinligi masalasiga bag'ishlangan muddanining o'rinni egallashi muhim ijobiy ahamiyatga ega. Mamlakatimizda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi masalalari Asosiy Qonunimiz, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun (yangi tahriri) va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Tilga olingan Qonunning 3-moddasida belgilanishicha, vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinka e'tiqod qilish yoki hech qanday dinka e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir. Fuqaro o'zining dinka, dinka e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lif olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'lli qo'yilmaydi.

Voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'mini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinka o'qitishga yo'lli qo'yilmaydi.

Dinka e'tiqod qilish yoki uzga e'tiqodlari erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

Chet el fuqaroari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqididan foydalananilar hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi"dagi Qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladir.

Demak tabiiy va demokratik huquqlardan hisoblanadigan vijdon erkinligi masalasi Konstitutsiya va qonunlarimizda o‘z aksini topgan va mustahkamlangan.

32-modda. O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo‘li bilan amalgalashiriladi.

Sharhanayotgan moddada fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqi o‘z ifodasini topgan.

57-modda. Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irkiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘ligi va ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

Har qanday jamoat birlashmasi tuzilishidan oldin o‘z oldiga muayyan maqsadlarni qo‘yishi tabiiy. Lekin biror maqsadga erishish davlatda o‘rnatalgan qoidalarga zid bo‘lmasligi lozim.

Hech bir jamiyat o‘rnatalgan qoidalarga amal qilmaydigan, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, ularning sog‘lig‘i va ma‘naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, millatlar va turli dinga e’tiqod qiluvchi shaxslar o‘rtasida adovat va urushni targ‘ib etuvchi birlashmalarining mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Yuqoridaq fikrlarning huquqiy asosi sifatida “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunda belgilanganidek faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan o‘zgartirish yoki O‘zbekiston Respublikasi va Qoralpog‘iston hududining birligini buzish, urushni, zo‘rvonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xattiharakatlar qilish maqsadini ko‘zlaydigan jamoat, birlashmalarining tuzilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalarini va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xarakterga ega partiysulari, ularning filiallari va boshqa struktura bo'laklari tashkil etish taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalarini va ularning idoralari tomonidan qonuniy va demokratik yo'l bilan shakllantirilgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda hokimiyat vakolatlariiga ega bo'lganlarga nisbatan g'ayridemokratik tarzda kuch ishlatisib tazyiq o'tkazish taqiqlanadi. Qonuniy ravishda amal qilib turgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdar shaxslarga demokratik usulda hal etish bahonasi bilan tazyiq o'tkazishga bo'lgan har qanday urinishga qonun bilan barham beriladi.

Aholining salomatligi va axloqiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladigan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati qonunga muvofiq ta'qib qilinadi. Zero, davlat o'z fuqarolarining sog'lig'i to'g'risida doimiy qayg'uradi. Buning isboti sifatida Prezidentimiz tomonidan 2005-yil "Sihat-salomatlik yili" deb e'lon qilingani va bu borada maxsus dastur qabul qilinib, amalgaga oshirilganini ko'rsatish mumkin.

Respublikamizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida maxfiy jamiyatlar va uyushmalar hamda harbiylashtirilgan birlashmalar tuzishning oldini olish borasida barcha chora-tadbirlar ko'rib kelinmoqda. Chunki bunday jamiyatlar davlat va uning fuqarolari uchun turli hil xavf tug'diradi. Respublikamiz qonunchiligidagi bunday harakatlar uchun javobgarlik belgilangan. Masalan, Jinoyat kodeksida jamoat birlashmalarini yoki diniy tashkilotlarni qonunga xilof ravishda tuzish, diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtiroy etish jinoyat hisoblanadi va bu harakatlar uchun tegishli javobgarlik belgilangan.

1993-yil 9-aprelda qabul qilingan Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat tuzilishining asosiy prinsiplarini, davlat hokimiyatining tizimini va davlat, jamiyat, shaxs munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Ta'kidlash joizki, mazkur Konstitutsiya o'zida jahon konstitutsiyaviy tajribasini, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va tartibga solishning ilg'or amaliyotini, jamiyatning demokratik asoslarini mujassamlashtirgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 tabob va 119 ta moddadan iborat.

Qoraqolpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ustunligini so'zsiz tan oladi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi 1-moddasida: "Qoraqolpog'iston - O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiramidan suveren demokratik Respublika... O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqolpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi", — deb belgilab qo'yilgan.

72-modda O'zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida ham majburiydir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining butun hududida (Qoraqalpog'iston esa uning tarkibiy qismidir) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari ustunligi so'zsiz tan olinadi.

Ushbu modda demokratik huquqiy davlatning eng asosiy belgilardan biri — Konstitutsiya va qonun ustuvorligi tamoyilidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, Qoraqolpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinishi belgilab qo'yilgan.

Sharhanayotgan modda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasi qoidalari bilan ham hamohangdir.

73-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi va chegaralari uning rozilgisiz o'zgartirilishi mumkin emas. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'z ma'muriy-hududiyl tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi.

Davlat hokimiyatining ta'siri ma'lum hududga va tegishlicha aholiga joriy qilinishi har qanday davlatning muhim belgisidir.

Davlatning o'z hududida Konstitutsiyasining va qonunlarining ustunligi suverenitet belgilaringin biti hisoblanadi. Konstitutsiyaning ushbu moddasida Qoraqalpog'iston o'z ma'muriy-hududiyl tuzilishi masalalarini mustaqil hal qiladi, davlat hokimiyati organlari tizimini belgilaydi, deb mustahkamlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI bobi Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiyl tuzilishi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, uning 67-moddasida: "Tumanlar,

shaharlar tashkil qilish va ularni tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi", — deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston hududlarini ajratib turadigan chegaralarni o'zgartirish zaruriyati tug'ilsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziliginini olish lozim bo'ladi.

74-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qorakalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumi asosida ajralib chiqish huquqiga ega.

Mazkur moddada bayon qilingan qoida Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 1- va 9-moddalarida hamda referendumga oid O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlarida yanada rivojlantirilgan.

Referendum o'tkazish haqidagi qarorni Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi qabul qiladi, ovoz berish sanasini ham uning o'zi belgilaydi. Referendumda qabul qilingan qaror Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida oliy yuridik kuchga ega va faqat referendum yo'li bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Mazkur konstitutsiyaviy norma Qoraqalpog'iston xalqining o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqini, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining suverenitetini O'zbekiston tan olganligini anglatadi. Shu bilan birga, ushbu qoida xalqaro huquq normalariga mos keladi. Xususan, 1966-yil 16-dekabrda fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro paktda barcha xalqlar o'z takdirini o'zi belgilash huquqiga egadir, deb belgilangan.

Ushbu modda, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston tarkibidan chiqish huquqini amalga oshirish mexanizmi mustahkamlangan bo'lib, bunda jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini fuqarolarning to'g'ridan-to'g'ri ovoz berishi (umumxalq referendumi) bilan hal etilishi lozimligi to'g'risidagi demokratik talab o'z ifodasini topgan.

75-modda. O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtaida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtaсидаги низолар муросяга келтирувчи виситалар йордамда ҳал этилади.

Sharhanayotgan moddada Qoraqalpog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi huquqiy maqomi ikki tomon o'rtaсидаги муносабатларда давлат суверенитетини о'заро hurmat qilish va tan olish zamirida, qonunlar ustuvorligiga tayanib va unga riosa etib ish yuritish asosida amalga oshirilishi huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Ikkala davlat konstitutsiyalarining normalari bilan bir qatorda, bu munosabatlar ular tuzadigan shartnomalar hamda bitimlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'istonning munosabatlarini shartnomalar va bitimlar ko'rinishida huquqiy mustahkamlab qo'yish, o'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasining, boshqa ma'muriy-hududiylar birliklardan farqli o'laroq, alohida maqomga ega ekanligini anglatadi.

Ta'kidlash joizki, har qanday huquq subyektlarining o'zaro munosabatlarida muayyan masalalar yuzasidan nizolar va ziddiyatlar yuzaga kelishiga tabiiy hol sifatida qarash kerak. Bunda yuzaga keladigan nizolar murosaga keltiruvchi vositalar yordamida, ya'ni nizoli masalaning mohiyatini jiddiy va chuqur o'rgangan hamda buning natijasida har ikkala tomonning manfaatini e'tiborga olgan holda murosali qarorga kelinadi.

Ushbu o'rinda alohida qayd etish lozimki, mustaqillik yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining rivojlanish jarayonida uning ijtimoiy hayotiga oid bo'lgan barcha masalalar va muammolar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi doirasida hal etib kelinmokda.

O'zbekiston bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtaсидаги о'заро munosabatlarni tashkiliy jihatdan mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Doimiy Vakolatxonasi tuzilgan. Ushbu vakolatxona Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari va boshqa tashkilotlari bilan xo'jalik hamda madaniy-qurilish masalalari bo'yicha kundalik aloqalarini amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

115- modda. O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagи ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtiroy etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Sud ishlari yuritiladigan til Jinoyat-protsessual kodeksining 20-moddasi va "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Protsessual qonunchilik protsess ishtirokchilariga o'z protsessual huquq va majburiyatlarini to'liq qilishlari uchun qator aniqlik va qo'shimchalar kiritadi hamda kafolatlar yaratib beradi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchilariga tarjimon xizmatidan foydalanish imkoniyati kafolatlangan. Tarjimonga ham, o'z navbatida, ishlri aniq hamda to'liq bajarish majburiyati yuklatiladi. Ushbu majburiyatni lozim darajada bajarmaslik hatto, tarjimonning jinoiy javobgarlikka tortilishi uchun sabab bo'ladi. Ayblanuvchiga (gumondorga, sudlanuvchiga) tarjimon tomonidan barcha holatlarda ko'rsatilgan yordam bepul amalga oshiriladi.

Mas'ul organlarning mansabdon shaxslari protsess ishtirokchilariga ularning huquqlarini tushuntirish majburiyatini olar ekanlar, shu jumladan ularni tarjimon bilan ta'minlanish huquqi, shuningdek protsess ishtirokchisining o'z ona tilida yoki o'zi yaxshi biladigan tilida tushuntirish va sudda so'zlash huquqiga ega ekanligi haqida ogohlantirishi shart.

Tergov hamda sud hujjatlari ushbu shaxslarga ularning tushunadigan tiliga tarjima qilinib topshiriladi. Bulardan tashqari, sudda yuritilayotgan tilni yaxshi bilmaydigan shaxslarning dastlabki tergov yoki sud muhokamasi davrida tarjimon bilan majburiy ta'minlanishi belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi fuqarolarning huquqlari va erkinliklarining kafolatlarini ko'rsatish bilan birga ularning har tomonlama yuksaltirishga, o'z imkoniyatlarini yaxshi ishlarga to'la safarbar etishga, tadbirkorliklarini, tashabbuskorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratib bergen. Shu bilan birga aytish joizki, Respublikamiz fuqarosi o'zining amalga oshiriyotgan barcha ishlarini, harakatlarini, amallarini o'zining moddiy va ma'naviy manfaatdorligiga qaratish bilan birga O'zbekistonimizning taraqqiyoti, yuksalishi, gullab-yashnashiga ham qaratish lozim. Bu uning vatanparvarlik burchidir. Fuqarolar tomonidan olib boriladigan barcha ishlar Asosiy Konunimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar talablari doirasida bo'lishi kerak. Bu – davlatning buyuk kelajagi uchun ham, har bir fuqaroning yaxshi va tinch yashashi uchun ham muhim omildir.

## **2. Milliy siyosatini muvofiqlashtiruvchi qonunlar**

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotining barcha jahbalarda amalga oshirilgan tub islohotlar o‘z samarasini berayotganini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish, yangi jamiyat barpo etishda bosqichma-bosqich va izchil ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar amalda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik, siyosiy, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda dunyoning yirik davlatlari ham to‘qnash kelgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida yurtimiz erishayotgan bunday muvaffaqiyatlar bilan haqli ravishda fahrlansak arziyi.

1997-yil 29 avgustdagagi Qonuni bilan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik Konsepsiyasida nazarda tutilgan hayotiy muhim milliy manfaatlardan biri sifatida millatlararo, konfessiyalararo va fuqaroviylararo totuvlikni ta’minlash hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligi prinsiplaridan biri millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlash hisoblanadi.

1994-yil 5-mayda “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning vakillari o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash ishida erishgan katta yutuqlari, O‘zbekiston xalqining boshqa mamlakatlar xalqlari bilan do‘stlik va har taraflama hamkorligini rivojlantirganlik-lari uchun Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tasdiqlash haqidagi 2004-yil 1-martdagagi Qarori bilan Diniy ta‘lim muassasalarining faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan.

Nizomga asosan voyaga etmagan shaxslarni ularning irodasiga, otanalar yoki ularning o‘mini bosuvchi shaxslar (vasiyalar)ning xohishiga xilof ravishda o‘qitishga, ta‘lim jarayonida urush, zo‘ravonlik, prozelitizm va har qanday missionerlik faoliyati targ‘ib qilinishiga, mamlakat xavfsizligi va ijtimoiy-siyosiy barqarorliq jamiyatning huquqiy va ma’naviy asoslari, fuqarolar tinchligi, millatlararo va dinlararo totuvlik bo‘zilishiga, O‘zbekiston to‘g‘risida noto‘g‘ri axborotlar tarkatilishiga hamda uning tarixiy, madaniy va ma’naviy boyliklari buzib ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik litsenziya olish talablarini va shartlaridan biri hisoblanadi.

Millatlararo munosabatlari sohasida faoliyatni muvofiqlashtirishni yanada takomillashtirish, o‘sib kelayotgan avlodni milliy mustaqillik

g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash, xalqlar o'tasida do'stlikni mustaqkamlash, O'zbekistonda yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishiga ko'maklashish, milliy madaniyat markazlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 8-apreldagi Respublika baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to'g'risidagi Qaroriga asosan Respublika baynalmilal madaniyat markazi to'g'risidagi Nizomning yangi tahriri hamda uning tuzilmasi tasdiqlandi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlari, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining totuvligi va hamkorligini ta'minlash, ularning o'ziga xos madaniyatlari va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar xokimliklari, shuningdek, jamoat tashkilotlari bilan birqalikda millatlararo munosabatlар sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish;

- millatlararo totuvlik prinsiplari qaror topishiga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlari madaniyatini rivojlantirish;
- davlat organlarida madaniyat markazlarining manfaatlarini ifodalash, Nizomda qayd etilgan vazifalar amalga oshirilishi masalalari bo'yicha ular faoliyatini muvofiqlashtirish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish;
- turdosh xorijiy tashkilotlari bilan aloqalar o'rnatilishida madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu masalada ularga har tomonlama ko'maklashish, millatlararo munosabatlarni tartibga solishga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlar ma'lumotlari bankini barpo etish;
- millatlararo munosabatlari masalalariga tegishli konun hujjatlari va normativ hujjatlari loyihibarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda ishtirok etish;
- madaniyat markazlariga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;
- adliya organlaridan ro'yxatdan o'tishda madaniyat markazlari tomonidan kiritiladigan hujjatlar yuzasidan xulosalar tayyorlash;

– jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish;

– millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalg'a oshirishda tashkiliy, huquqiy, metodik yordam ko'rsatish, konferensiyalar, seminarlar va "davra suhbatlari" tashkil etish;

– har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan teleradio ko'rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risolalar, ma'lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashish markaz vazifalaridan hisoblanadi.

1998-yil 1-mayda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinka munosabatidan qat'iy nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat. Ta'kidlash lozimki, ushbu Qonun millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashdagi muhim qonunlardan biri hisoblanadi.

"Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (yangi tahriri) Qonuni ham davlatimizda millatlararo totuvlik xukm surishiga yo'l ochib beradi.

#### 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinka munosabatidan qat'iy nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

#### 5-modda. Dinning davlatdan ajratilganligi

Diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjalari talablariga rioya etishlari shart. Dindan davlatga va konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik nafrat, *millatlararo adovat* uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviylar totuviyki buzishda, bo'hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirlanalarni tarqatishda, aholi o'rtaida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'ilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek boshqa

g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi.

Mamlakatimizda Konstitutsiya hamda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun bilan kafolatlangan vijdon va e'tiqod erkinligi, millatlararo totuvlik va diniy tenglikni ta'minlash siyosati yuritilmoqda. 1990-yilda Respublikamizda 200 ga yaqin diniy tashkilot faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, mazkur qonunning qabul qilinishi bilan hozirga qadar 2000 dan ortiq diniy tashkilot davlat ro'yxatidan o'tdi. Ular orasida 160 ta xristianlik tashkiloti, 8 ta yahudiylar jamiyat, 6 ta baxriylar jamiyat, krishnachilar va buddaviy ibodatxenasi kabi O'zbekiston uchun an'anaviy bo'lмаган 176 ta tashkilot ham bor.

Davlat va jamiyatning yuksalishi, fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanishida mamlakat tinchligi, barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat va jamiyat xavfsizligi umummilliy xavfsizlik sifatida "milliy xavfsizlik" tushunchasida o'z ifodasini topadi.

"Milliy xavfsizlik" atamasi ilk marotaba siyosiy lug'atga AQSH prezidenti T.Ruzvelt tomonidan 1904-yilda kiritilgan bo'lib, keyinchalik mazkur tushunchaning mazmun doirasi ijtimoiy munosabatlar, globallashuv va integratsiya jarayonlari, shuningdek hilma-hil ko'rinishdagi tahdid va tahliqlarini izohlash bilan uzviy bog'liq ravishda kengayib bordi. Bugungi kunda mamlakat hayoti uchun xatarli bo'lgan har qanday muammo milliy xavfsizlikka tahdid sifatida baholanishi mumkin.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlatimiz siyosati mamlakat va butun dunyodagi vaziyatning, Konstitutsiyada belgilangan, hozirgi davrning alohida xususiyatlari, jo'g'rofiy-siyosiy omillar, Markaziy Osiyodagi vaziyatning va tashqi siyosatdagi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan kelib chiquvchi ustuvor vazifalarning chuqur, har tomonlama tahlilini hisobga olgan holda yuritiladi. Milliy manfaatlarni turli ko'rinishdagi ichki va tashqi tahdidlardan kafolatli himoya etish milliy xavfsizlikning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Milliy xavfsizlikning obyekti inson – uning huquq va erkinliklari; jamiyat – uning ma'naviy va moddiy boyliklari; davlat – uning konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi. Davlat faoliyatida siyosiy fikrlar xilma-xilligi, demokratik huquq va erkinliklarni, inson va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga, ijtimoiy adolat va qonuniyligini, ijtimoiy-siyosiy barqarorliq millatlararo totuvlik va hokazolarni ta'minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy prinsiplar hamda

normalarning barchasi siyosiy xavfsizlikni ta'minlash institutini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 57-moddasida, yuqorida aytildigandek, davlat hokimiysi va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari va fuqarolar amal qilishlari lozim bo'lgan xavfsizlik mezonlari belgilab berilgan. Bu moddada ko'rsatilgan konstitutsiyaviy norma mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy xavfsizlik birgina davlatning tashqi xavfsizligiga tegishli tushuncha bo'lib qolmay, balki jamiyatning ma'naviy va moddiy boyliklari, davlatning konstitutsiyaviy tuzumi, fuqarolarning xuquq va erkinliklarini ta'minlashni o'zida aks ettirgan keng qamrovli tushunchadir.

Asosiy konunimizda faqat davlat hokimiysi va boshqaruv organlarining milliy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyati emas, balki fuqarolarning o'z mamlakatini himoya qilish majburiyatlari ham belgilangan. Masalan, Konstitutsiyaning 52-moddasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashlari shart".

Ma'lumki, milliy xavfsizlik tushunchasi o'z ichiga tashqi siyosatda milliy manfaatlarni himoya qilish, texnogen va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy hayotida shaxs kamoloti va jamiyatning barqaror rivoji singari bir qancha sohalarni qamrab oladi. Tashqi siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat faoliyatining sohasi sifatida belgilangan bo'lib, unga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga sodiqlik, shuningdek, davlatlararo tuzilmalarda ishtirok etish nuqtai nazaridan qaraladi hamda oliy milliy manfaatlardan kelib chiqib amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama hamkorligining asosiy yo'nalishlari, asosan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasi ikkinchi qismida belgilab qo'yilgan bo'lib, unda: "Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin", – deyilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda va mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida EXHT, Yevropa Ittifoqi, NATO, SHHT, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik mustahkamlanayotgani buning yorqin dalilidir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartiari va taraqqiyot kafolatlari” asarida bugungi kunda davlatimiz xavfsizligiga tahdid qiluvchi asosiy xavflar sifatida: mintaqaviy mojarolar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizni va agressiv millatchilik, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik munosabatlari, ekologik xavf-hatar kabi illatlar va muammolar ta’qidlanib, ularning jamiyatga qanchalik salbiy ta’sirga ega ekanligi batafsil izohlangan.

Har bir davlat o‘zi duch kelayotgan xavf-hatarni engib o‘tish uchun mintaqaviy va dunyo miqyosidagi omillar ta’siri doirasida o‘z imkoniyati darajasidagi barcha resurslarni yo‘naltiradi.

Davlatimiz milliy xavfsizligini ta’minalash va mudofaa kobiliyatini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risidagi qonunlar va “Milliy xavfsizlik konsepsiysi” mudofaa va xavfsizlik tizimidagi faoliyatni huquqiy jihatdan asoslashi bilan ahamiyatlidir.

“Milliy xavfsizlik konsepsiysi”da diniy ekstremizm, millatlararo va etnik ziddiyatlarning kuchayishi, qurollarning, jumladan, yadro qurolining tarqalishi, xalqaro terrorizm, uyushgan jinoyatchilikning avj olishi, narkotik moddalarning tarqalishi hamda ekologik tanazzul ko‘rinishidagi mintaqaviy va yalpi tahdid mavjudligi ta’kidlangan.

Xullas, davlatimizning milliy xavfsizligini ta’minalash faqat davlat yoki huquqni muxofaza qiluvchi organlarning vazifasi bo‘lib qolmay, balki har bir fuqaroning majburiyati va burchi hamdir. Zotan, milliy xavfsizligimiz – biz yashayotgan mamlakat, jamiyatimiz, oilamiz, otanonamiz, farzandlarimiz, qolaversa, kelajak avlodlarimiz xavfsizlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori “Deportatsiya qilingan shaxslar, kam sonli millatlar va xalqlarning huquqlarini tiklash bilan bog‘liq masalalarga doir bitimni ratifikatsiya qilish haqida”gi qarori 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan. Unda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan Mustaqil Davlat Hamdo‘sligi tarkibiga kirgan davlatlarning rahbarlari 1992-yil 9-oktabrda Bishkek shahrida imzolangan deportatsiya qilingan shaxslar, kam sonli millatlar va xalqlarning huquqlarini tiklash bilan bog‘liq masalalarga doir Bitim ratifikatsiya qilinsin, deb qaror qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiysi 1997-yilda tasdiqlanib, unda quyidagi maqsad-vazifalari belgilangan:

O'zbekiston izchillik bilan ruyobga chiqarayotgan yangilanish va taraqqiyotning o'ziga xos yo'li strategiyasi barqaror va doimiy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratdi va jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi.

O'zbekiston o'z suverenitetini ta'minlashga hamda XXI asrda jahon hamjamiyati, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatida munosib o'rinn egallashga qodir davlat.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash O'zbekiston respublikasining yanada rivojlanishi, demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishning eng muhim shartidir.

Ushbu konsepsiya O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalariga tayangan holda milliy xavfsizlik sohasida yagona davlat siyosati asoslarini belgilaydi.

Milliy xavfsizlik sohasidagi yagona davlat siyosatida quyidagilar nazarda tutiladi:

- O'zbekiston respublikasining jahon hamjamiyatidagi o'mni va rolini belgilash;
- O'zbekiston respublikasining milliy manfaatlari va ustuvorliklari tizimini belgilash;
- milliy xavfsizlikka ichki va tashqi tahdidlarni aniqlash hamda ularga baho berish;
- milliy xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish uchun davlat va jamiyatning real imkoniyatlari va resurslarini aniqlash hamda ularga baho berish;
- milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik vazifalarini belgilash va ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini takomillashtirish va tegishli qonunchilik bazasini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining O'zbekiston fuqarolariga, barcha mamlakatlarning parlamentlariga, jahoning taraqqiyatparvar jamoatchiligiga murojaatnomasi" to'g'risidagi qarori 2000-yil 30 avgustda qabul qilingan. Unda Oliy Majlis terrorizmni, diniy ekstremizm va fundamentalizmni keskin qoralab, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ma'rzasining asosiy qoidalaridan kelib chiqqan holda qaror qiladi:

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining O'zbekiston fuqarolariga, barcha mamlakatlarning parlamentlariga, jahoning

tarakqqiyparvar jamoatchiligiga murojaatnomasi” matni tasdiqangan va uni mazmun-mohiyati quyidagidan iborat:

O’zbekiston Respublikasining ayrim chegara hududlariga xalqaro terrorchi to’dalarining suqilib kirgani xalqimizning tinch buniyodkorlik hayotiga, mamlakatimiz hamda Markaziy Osyo mintaqasidagi boshqa davlatlarning barqarorligi va xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Tish-tirnogigacha qurollangan, chet ellarda maxsus tayyorgarlikdan o’tgan, turli millatga mansub bosqinchi-terrorchilar zo’ravonlik va yovuzlik bilan jamiyatimizning tinchligi, osoyishtaligini buzishga o’rinmoqda.

Bu razil harakat – odamiylik qiyofasini yo’qotgan terrorchilarning O’zbekiston mustaqilligiga, uning konstitutsion tuzumiga qarshi, ko’pmillatli xalqimizga, shu zaminda yashayotgan har bir insonga nisbatan qabih xurujidir.

Bu – farzandlarimiz, ota-onalarimizning hayotiga, opan-singillarimizning or-nomusi va qadr-qimmatiga qarshi qaratilgan jirkanch tajovuzdir.

Biz mamlakatimizning chegara hududlarida sodir etilgan bu terrorchilik harakatlarini xalqimizni o’zi tanlagan demokratiya va taraqqiyot yo’lidan rivojlanib kelmoqda.

O’zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari” to’g’risidagi qonuni 2003-yilda qabul qilingan bo’lib, uning 14-moddasida “Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligi” masalasiga bag’ishlangan.

Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga quyidagi yo’llar bilan erishiladi:

- demokratik fuqarolik jamiyati asoslari rivojlantirilishini, ommaviy axborot erkinligini ta’minalash;

- qonunga hilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta’sir ko’rsatishga, uni chalgitishga yo’l qo’ymaslik;

- jamiyatning ma’naviy, madaniy va tarixiy boyliklarini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish;

- milliy o’zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an’analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish.

Shunday qilib, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlik o’zaro uzviy bog’liq bo’lgan, bir-biriga asoslanadigan hamda

taraqqiyotning muhim omili hisoblangan yagona jarayondir. Bir mamlakat miqyosida va davlatlararo munosabatlardagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik umumiy rivojlanishning asosi sanaladi. O‘z navbatida, ijtimoiy barqarorlikning to‘la ta’minlanishi, millatlararo totuvlik va siyosiy jarayonlar taraqqiyotining shartidir. Demak, mamlakatimizda, mintaqada va davlatlararo munosabatlardagi siyosiy barqarorlik demokratik jamiyat barpo qilishni belgilovchi muhim omildir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O‘zbekiston Konstitutsiyasida milliy siyosatga tegishli moddalarni aytib o‘ting.
2. O‘zbekiston Konstitutsiyasining 4, 8, 18 moddalarni mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. “Do‘slik” ordeni qachon ta’sis etilgan?
4. Respublika Baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qachon e’lon qilingan? Uning mazmun-mohiyatini yoriting.
5. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qachon qabul qilingan? Uning mohiyati nimada?
6. “Deportatsiya qilingan shaxslar, kam sonli millatlar va xalqlarning huquqlarini tiklash bilan bog‘liq masalalarga doir bitimni ratifikatsiya qilish haqida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarorining ahamiyati nimada?
7. Qachon Respublika Baynalmilal madaniyati markazining nomi va maqomi o‘zgardi?

### **Kalit so‘zlar**

Bosh qomusi, qonun, teng huquqli, O‘zbekiston xalqi, suverenitet, hudud, til, millat, elat, do‘slik, diniy tashkilotlar.

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanalari marosimdagi ma’ruzasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyati markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 2017-yil 24-yanvar.

**Normativ-huquqiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.
2. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stilik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017-yil 19-may.
3. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Toshlonov T. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bag'rikenglik g'oyalari. // Ijtimoiy fikr, 2002. – №4.

## **5-mavzu. O'ZBEK MENTALITETIDA ETNOTOLERANTLIK XUSUSIYATI-MILLATLARARO TOTUVLIKNING GAROVI**

### **Reja:**

1. Mentalitet tushunchasi, tarixi, hozirgi holati va o'ziga xosligi.
2. O'zbek mentalitetida tolerantlik xususiyati.

### **2. Mentalitet tushunchasi, tarixi, hozirgi holati va o'ziga xosligi**

Mentalitet – bu millatning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik holati bo'lib, u o'zida xalqning etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy yashash shart-sharoitlarining uzoq va barqaror ta'sirini aks ettiradi.

Mentalitet turlari:

1. individual mentalitet;
2. ijtimoiy guruh tabaqalar mentaliteti;
3. etnos, millat mentaliteti.

Turli tarixiy davrlarda milliy birlikni muhofaza etish quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

1. O'zbek xalqi tanazzul va mustamlaka davrlaridan o'zining etnik yaxlitligining saqlangan holda chiqa bildi.

2. Xalqimiz ma'naviyatining yorqin ifodasi bo'lgan urf-odat, qadriyat, an'ana, rasm-rusumlar tizimi saqlab qolindi.

3. Xalqimizning o'zining bag'rikenglik, saxovatpeshalik, mehmondo'stlik, sabr-bardoshlilik singari chin insoniy fazilatlarini yo'qotmadi.

4. O'tmish madaniyatimizning o'imas obidalari, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub bebaho asarlarning katta qismi, vahshiyarcha talon-tarojlarga qaramay, turli asrab-avaylanib, kelajak avlodga etkazildi.

5. Til birligi va tozaligini uzoq yillar davomida o'tkazilgan ta'sir va tazyiqlarga qaramay saqlashga erishildi.

O'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini saqlab qolishida quyidagi omillar xal qiluvchi ahamiyat kasb etdi: xalqimiz tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida turli moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratib, o'ziga xos sivilizatsiyalarga asos solganlar.

Tabiat va jamiyatdagи barcha o'zgarish, jarayonlar birinchi navbatda inson fe'l-atvori, ruhiyati, mentalitetida o'z ta'sirini qoldiradi. Mentalitetdagи o'zgarishlar esa o'z navbatida hatto ijtimoiy hayot qiyofasini ham o'zgartirib yuborishga qodir ekanligi ayon bo'imqoda.

Globallashuv asri bo‘lmish XXI – asrda bu hol tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy dunyo hozirgi kunda umumiy axloq muayyan mazmundagi ma’naviy qiyofa, global mohiyatga ega tamoyillar uchun kurash jabhasiga qadam qo‘ydi. Rivojlangan mamlakatlar nafaqat sanoat mahsulotlari, informatsion va mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish omillari orqali keng ko‘lamlardagi geopolitik siyosat yurg‘azishmoqda, balki o‘z xalqi tabiat, fe'l-atvori, mentalitet o‘ziga xosliklarini muntazam ravishda dunyo xalqlari turmush tarziga, ular hayotining barcha jahbalariga izchil tarzda singidirishga intilmoqda. Jamiyat hayotida umumiy etiket, fe'l-atvor, mentalitet izchil ravishda tarkib topa boshlab, siyosiy, iqtisodiy va informatsion xaraktyerdagi globallashuv jarayonlari mentalitet, ruhiy o‘ziga xoslik, fe'l-atvorning me’yor darajasiga kelishiga turtki bermoqda.

Bir tomondan dunyo xalqlari mentalitetlarining me’yorlashuv jarayoni muayyan ijobjiy jihatlarni ifoda etsa, ikkinchi tomondan esa ma’lum salbiy natijalarini ham namoyon etadi. Xususan, bu holat xalqning milliy o‘zlik xususiyatlaridan chekinish, madaniyatning vorisiylik an’analari, milliy xarakter butunligiga putur etkazadi.

Shunday qilib, XX asrning 20 yillarining oxirida gumanitar fanda “mentalete” fenomenining bo‘lajak tadqiqotlari uchun poydevor yaratilgan. Shunga ahamiyat berish kerakki, L.Levi-Bryueldan boshlab “mentallik” kategoriyasi qandaydir ijtimoiy birlashma yoki etnik umumiylilik tafakkur shakllarining xususiyatlariga ta’rif berish uchungina emas, balki uning aniq tarixiy davr ichidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettrish uchun ishlatib kelingan. Ibtidoiy davr mentalligining masalalarini P.Radin, B.Malinovskiy, K.Levi-Stross o‘rganib chiqqan. Boshqa davrlarning inson mentalligini o‘rganish bilan “Annallar” fransuz tarix maktabining asoschilari va izdoshlari, hamda boshqa ilmiy oqimlarning vakillari shug‘ullangan.

O‘zbekiston jamiyatshunosligiga kelib to‘xtasak, o‘zbeklar mentalitetining muammosi ko‘proq darajada faylasuflar, sotsiolog va psixologlarning tadqiqot obyekti bo‘ldi. Bu yo‘nalishda M.Bekmurodov jiddiy ish olib bormoqda. Uning ilmiy ishlarida “mentalitet” falsafiy kategoriyasining jihatlari har tomonlama yoritilgan. M.Bekmurodovning ma’lumotlariga ko‘ra ba’zi chet el tadqiqotchilari (B.Appelbaum, G.Grachyov) mentalitetni mafkura bilan bog‘laydilar va uni siyosiy boshqarishning qulay usuli deb hisoblaydilar. Boshqa olimlar esa (A.Panarin, I.Panarin) mentalitet xalqning diniy-ma’naviy holatinining asl

mahsuloti deb tasdiqlaydilar. Shuningdek, mentalitet – bu millatlarning milliy-urf odatlari majmuasi degan tushuncha ham mavjud.

Mentalitet xususiyatlari haqida so‘z ketganda har bir millatning intellektual imkoniyatlari va psixologik o‘ziga xosligini ham qo‘sishchacha sifatida ta’kidlab o‘tish lozim. Zero, xalq mentalitetining o‘ziga hos xususiyatlarining negizida nimalar bor degan savolga – bu avvalambor xalqning tarixiy tajribasi, asrlar davomida shakllangan urf-odatlar tartibi ekanligini qayd etish darkor. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov bu xususda quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan: “O‘zbekiston xalqining ko‘philik qismi birinchi o‘ringa o‘z shaxsiy xotirjamligini emas, balki o‘z oilasi, qarindoshlari, yaqinlari va qo‘snilarining sog‘-salomatligi va xotirjamligi haqida g‘amxo‘rlik qiladilar. Bu insonning eng oliv ma’naviy boyligidir. Bizning xalqimiz hech qachon o‘zini boshqa xalqlardan ustun deb bilmagan, boshqa millat va boshqa din vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. Asrlar davomida shakllanib kelgan sahiylik, mehmondo‘stlik va oljanoblik – o‘zbek xalqining yuksak ma’naviy fazilatlaridandir. Bu fazilatlar eng mashhaqqatli tarixiy sinovlar paytida juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, xalqimiz matonatining asosi bo‘ldi”.

Mentalitet – bu millatning o‘ziga xos ijimoiy-psixologik holati bo‘lib, u o‘zida xalqning etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy yashash shart-sharoitlarining uzoq va barqaror ta’sirini aks ettiradi. Shubhasiz, har bir xalqning mentaliteti bilan o‘zgarishlar ro‘y beradi, va unga o‘zaro munosabatlar ta’sir etadi. Shu jumladan, o‘zbek xalqining mentalitetiga XX asrda sovet tuzumi, O‘zbekistonga slavyan va boshqa o‘zlikni asrash, milliy birlik, ma’naviy hamda axloqiy yaxlitlikni saqlab qolish borasida mislsiz matonat ko‘rsata oldi. Milliy birlikni muxofaza etish zaiflashgan davlat homiyligida emas, balki asosan aholi turli tabaqalariga mansub oddiy insonlar, ziyoli, hunarmand, dehqonlar, umuman olganda jamiyat kuchi vositasida amalga oshirilib kelindi. Bu holat o‘z navbatida quyidagilarda o‘z ifodasini topdi:

1. O‘zbek xalqi tanazzul va mustamlaka davrlaridan o‘zining etnik yaxlitligini saqlagan holda chiqa bildi;
2. Xalqimiz ma’naviyatining yorqin ifodasi bo‘lgan urf-odat, qadriyat, an’ana, rasm-rusumlar tizimi saqlab qolindi;
3. O‘tmish madaniyatimizning o‘lmas obidalari, buyuk mutafakkirlarimiz qalamiga mansub bebaho asarlarning katta qismi, vahshiyarcha talon-tarojlarga qaramay, turli tadbirlarni qo’llash orqali asrab-avaylanib, kelajak avlodga etkazildi;

4. Til birligi va tozaligini uzoq yillar davomida o'tkazilgan ta'sir va tazyiqlarga qaramay saqlashga erishildi;

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, millat ma'naviyatiga yet bo'lgan axloqiy qadriyatlar, turmush tarzining o'zgacha uslublarini singdirish borasidagi uzlusiz tazyiqlarga qaramay, xalqimiz o'zining bag'rikengilik, saxovatpeshalik, mehmondo'stlik, sabr-bardoshlilik singari chin insoniy fazilatlarini yo'qtomadi.

Tabiiyki, yurtimizning asl farzandlari tomonidan o'zbek xalqining milliy o'ziga xosligini saqlab qolish, uning ma'naviy poydevorlariga jiddiy putur etkazmaslik uchun olib borgan goh oshkora, goh xufiyona kurashida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi:

1. Xalqimiz tarixiy-madaniy ildizlarining teranligi va sertomirligi, boy ma'naviy merosning mavjudligi;

2. Xalqimizning asosan o'troq hayot kechirib kelganligi, o'troq hayot esa turgun mazmundagi urf-odatlarni taqozo etishi, aholining ijtimoiy-ma'naviy mo'ljalilarida shahar ruhi, ma'naviyatining an'anaviy ustuvor mavqeいi kasb etib kelganligi;

3. Xalqimizning o'z milliy madaniyati, tili, san'ati, adabiyotiga bo'lgan muhabbat, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'ana va marosimlarga sodiqligi, xalq odatlariga millatning ma'naviy qiyosiy sifatida yondosha bilganligi;

4. Islom dini bilan xalq an'anaviy madaniyatining uyg'unlashuvi, ta'qibdagи din bilan mazlum xalqning ozodlik va mustahkam hayot tarzini saqlab qolishga amal qilib kelganligi;

5. O'zbek xalqining chidamliligi, sabr-bardoshi, bag'rikengligi, g'animlarni beixtiyor qurolsizlantirishga qodir sofdilligi, samirniyati, mehribonligi, yordam va hamisha hamkorlikka shay kalbi va hokazo omillar xalqimizning ma'naviy, etnik hamda ijtimoiy-siyosiy voqelik sifatida saqlana bilganligi va yashovchanligiga imkon berdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi o'tmishdan meros bo'lib o'tgan barcha holatlarga yangicha ko'z bilan qarash, yalpi tiklanish, umummilliy ma'naviy yangilanishlarni boshlash imkoniyatini berdi.

Istiqlol hammamizga mamlakatni yalpi ma'naviy sog'lomlashtirish, milliy butunlikni ta'minlash, ma'naviy yaxlitlikni yuzaga keltirish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Bugungi kun mantiqi xalqimiz fe'l-atvori, mentaliteti o'zgarishlariga jiddiy e'tibor qaratishga undadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Tafakkur" jurnali va "Fidokor" gazetasidagi bergan intervyyularida, shuningdek "Kamolot yoshlari ijtimoiy harakati tashabbusi guruhi bilan

uchrashuvda so'zlagan nutqida xalqimiz mentalitetini jiddiy o'zgartirish borasida dastur konsepsiyasini o'rtaqa qo'ydi. Davlatlararo va mintaqalararo siyosiy va iqtisodiy muloqotlar doiralarida o'z so'zini ayta boshlagan mamlakatimiz uchun tarafdarlar bilan bir paytda, xolis tashqi va ichki siyosatimiz, "karvon o'tar..." faoliyatimiz va bunyodkor sa'y-harakatlarimizda hasadgo'ylar ham ko'p ekanligi nafaqat davlatning mustaqilligi, balki jamiyatimiz, har birimizning jipsliligimiz kuchi – dolzarb masalaga aylandi. Shu boisdan ham Yurtboshimiz xalqimiz tabiatidagi ishonuvchanlik, soddadillik, ochiqqo'ngillik fazilatlarini ijobji hol sifatida qayd etish bilan birga, tashki xavf-xatarlar xuruji kuchaygan murakkab shart-sharoitlarda mazkur xususiyatlarning amaliy o'mni xususida jiddiy o'ylab ko'rishga da'vat etadi.

Xususan, Birinchi Prezidentimiz tashqi tazyiqlar va ichki xavf-xatarlarga "soddadillik bilan, yuzaki tushunchalar" bilan na qarshi tura olish va na kurasha olish mumkin emasligini alohida uqtirib o'tgan edi.

Millat mentalitetini o'zgartirish jarayonlarini tadrijiy tarzda amalga oshirishda asosan ikki yo'nalishda amaliy faoliyatlarini tashkil etish lozim:

1. An'anaviy azaliy an'analarimiz, bugungi milliy taraqqiyotimizga xizmat qiladigan xalqimizning urf-odatlari, tili, dini, ruhiyatiga, qisqacha aytganda, dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanishi;

2. Umuminsoniy va zamonaqiy yutuqlarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib berdi.

Ma'lumki, tafakkur tarzi, dunyoqarash, ruhiyat omillari fe'l-atvor, xarakter tizimida o'zak jihatlar hisoblanib, barcha o'zgarishlarning ibtidosidir. Tafakkur tarzini takomillashuvida esa ma'naviy-ma'rifiy omillar muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi, ma'naviyat omilining davlat siyosatida ustuvor yo'nalishga aylanishi, bu borada amalga oshirilgan keng ko'lamdag'i sa'y-harakatlar millat fe'l-atvori, tafakkuri o'zgarishlariga jiddiy turtki berdi.

Ikkinchi jihatdan esa jamiyatimizning rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik doiralarining, ilmiy-teknikaviy, madaniy uyg'unlashuv miqyoslarining muntazam kengayib borishi kishilarimiz dunyoqarashi, turmush tarzida yangicha yondoshuvlarni tarkib topayotganligidan darak beradi. Binobarin, har qanday taraqqiyot, sivilizatsiyalar turli xalqlar ma'naviyati, madaniyati, erishgan yutuqlar va intilishlarining uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi.

Bugungi o'zbek mentaliteti bozor munosabatlari hamda hozirgi zamon informatsion intellektual texnologiyalarning ustuvorligi davrida yana qanday muhim xususiyatlarga ega bo'lishi zarur?

O'zgarayotgan zamon va yangilanayotgan makon dunyo xalqlari fe'l-atvori tizimida miya faoliyati, sa'y-harakatlarda tezkorlik, topqirlik va ayni chog'da har bir ishda rejaviylik, puxta tayyorgarlik, fahm-farosat muammolarni hamkorlik asosida hal etish xususiyatlarini rivoj topishini taqozo etmoqda. Shuningdek, shaxs va jamiyat, shaxs va davlat munosabatlari tizimida alohida subyektlar – insonlar rolining benihoya oshib borish jarayoni kuzatilmoqda.

Ana shu munosabat bilan mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimov xalqimiz xarakterida pragmatistik, ekzistensialistik hamda ratsionalistik xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish zaruriyati masalasini ilgari surdi. Ma'lumki, pragmatizm – harakat, intilish ma'nolarini ifodalab, shu harakat orqali muayyan foyda, manfaatlarga ega bo'lishni, shaxsning maqsadi sa'y-harakatlari, faoliyatları unga mehnatiga muvofiq naf, foyda keltirishini ifoda etadi. G'arb kishisi tabiatan individualist bo'lib, manfaat omili uning barcha xaraktyerlarini faollashtiradi, faol shaxs sa'y-harakatlari uchun asosiy mezon vazifasini o'taydi. Bizda esa, shaxsiy foyda izlash yo'llaridan ko'ra, o'zini ko'proq o'ylab ish tutish odob doirasidan chetdagi hol sanalib, kishini jamoadan begonalashtiruvchi, uni go'yoki xudbin qilib qo'yuvchi omil vazifasini bajarib kelgan.

Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotta undab, mushohada asosida ish tutish, tadbirkorlikka da'vat etadi. Bozor itisodiyoti hamma narsaga ongli yondoshuvni, oqillik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Me'yorsiz ravishdagagi bag'rikenglik, hotamtoylik, saxovatpeshalik, agar lozim bo'lsa serchikimlilik, hisobsiz sarf-xarajat qilishga moyillik singari holatlar shu yo'nalishdagagi odatlarimizni ma'lum darajada cheklaydi. Har narsaga aql ko'zi bilan qarash asta-sekin turmushning bosh tamoyiliga aylanib boradi. Bu esa Ekvizistensialistik, ya'ni hayotga bugungi kun talablaridan kelib chiqib, xushuorlik va oqilona yondashuvlarni yoshlarimiz fe'l-atvorlariga singdirish nechog'li dolzarbligini yanada ravshan ko'rsatadi. Odatiy hayot tarzimizda biz o'zimizni doimiy ekzistensiya holatida, ya'ni yashashga ma'sul va yashayotgan shaxs sifatida mutazam xis etib turmaymiz. Biz o'zimizni emas, ko'proq boshqalarni kuzatish, kuzatayotganda ham ongli, tizimiy emas, betartib qayd etib yurishga moyilmiz. Ekvizistensialistik yondoshiş insonni ongli, xushuor, sergak, o'zini tirik, oqil mavjudot sifatida doimiy

anglash va xis etib turishga undovchi kuchdir. Bunday yondoshuv insonda o'zini-o'zi doimiy tarzda yangilab borish, tashki shart-sharoitlarga moslashuvchanlik, o'zini-o'zi muhofaza eta bilish, muntazam ravishda takomillashuvga ehtiyoj sezish xususiyatlarini tarkib toptiradi. Ekzistensialistik yondashish kishini konformizm, ya'ni hamma narsaga ko'nib ketaverishdan, ortiqcha kanoat, befarqlik va loqaydiliklarga berilishdan xalos bo'lishga, o'z so'zi, o'z nuqtai-nazari, e'tiqodiga qat'iy va barqaror bo'lishlikka da'vat etadi. Ekzistensializm o'z so'zi, ishi va taqdiri uchun ma'sullik hissini ham tarkib toptiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur g'oya ulug' ajdodimiz al-Moturidiyning "har bir inson u dunyo va bu dunyodagi taqdirini o'zi yaratadi, inson erkinligi, hurligini ta'minlovchi kuch" – har bir hayotiy vaziyatda oqilona me'yor, murosaviy muvozanatni ta'minlay bilish lozim.

O'zbek xalki mentalitetida qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan, chunki oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik vatan tuyg'usining debochalaridir. Oila masalaning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-bandida "voyaga etgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar", deb maxsus qayd etiladi. Dunyo konstitutsiyalarining birortasida ham bunday mazmundagi huquqiy modda alohida ajratib ko'rsatilmagan bo'lib, masalaning bu tarzda qo'yilishi O'zbekistonda ota-onsa va farzand munosabatlari umum davlat darajasidagi favqulodda muhim masala ekanligidan dalolatdir.

Oila mustaqil ijtimoiy institut bo'lib shakllanganidan boshlab, to istiqlo'l davrigacha ko'p qirrali va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Har bir tarixiy davrda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari xilma-xil mazmun bilan boyib bordi hamda oila davrning chigalli sinovlaridan omon o'tib, jamiyatning negizi sifatidagi xususiyatini saqlab qoldi. Oilaning fuqarolik jamiyatidagi muhim ijtimoiy institut sifatidagi o'rni xususida mutafakkirlar ibratlari nuqtai-nazarlar bayon etishgan.

Xususan, bu borada, ya'ni oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayxon Beruniyning "Mineralogiya", "Geodeziya", "Hindiston", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Abu Ali Ibn Sinoning "Axloq fani", "Oila xo'jaligi", qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog' idir.

Oila millat sharafini yuqori martabaga ko'taradigan madaniyat o'chog'i ham hisoblanadi. Mohiyat e'tiborga ko'ra esa, oila ikki jinsga mansub insonlarning ya'ni, erkak va ayolning o'zaro hamjihatlikda

yashay boshlashi, muhabbat, bir-birlarini anglagan holda turmush kechirishi va ko'payishi istagini, jamiyatni to'ldirish, avlodlarni muntazam yangilab turish, eng muhim u ham iqtisodiy ham ma'naviy-ahlokiy jihatdan mukammallashtirish yo'lida birgalikda qiladigan harakatining hosilasidir.

Oilada ijtimoiy tarbiya samaradorligini xalqimizning turmush tarzi, demografik holatiga bog'liqidir. Bu boradagi muhim muammo – o'zbek oilalarining ko'p farzandliligidir. Chunki aholining ko'payib borishida, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oiladagi serfarzandlik muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda nikohdan o'tish, oila kurish hollarining Yuqoriligi ham oila sonining ko'payishiga, bu esa o'z navbatida, tug'ilishning o'sishiga bog'liq. 1960-yilda Respublika bo'yicha oila a'zolarining o'rtacha soni 4,7 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1992-yilda – 5,5, 1994-yilda 5,4 kishini tashkil etadi. 2000-yil ma'lumotlariga ko'ra esa oila a'zolarining o'rtacha soni 5,2 kishidan iboratdir.

Mamlakatimizda 1998-yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998-yilda amalga oshirilgan tadbirlar Davlat dasturining qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi, Respublikamizda "oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, oila masalalarini ilmiy-amaliy o'rganishda milliy va diniy qadriyatlarimizning ahamiyatiga katta e'tibor berilishi tamoyillariga rioya qila olishdan iboratdir" degan konsepsiyasiga ayni muvofiqligi hamda insonning har ishga qodirligi va ma'sulligi g'oyasining mamlakatimiz tarixida ma'naviy poydevori mavjudligini ko'rsatadi. Shu boisdan ham tarbiyaviy faoliyatlarimizda xalqimiz ma'naviy merosi, xotirasida tarixan mavjud bo'lgan milliy fazilatlarimizni qaytadan tiklash va bugungi kunimizga xizmat qildirish yo'lidan borishimiz zarurdir.

O'zbek mentaliteti o'zgarishlari tizimidagi yana bir muhim jihat – aholi turli tabaqalari ijtimoiy-madaniy va siyosiy sa'y-harakatlari jarayonlarini me'yoriy va ongli boshqarishdan iboratdir.

Ma'lumki, o'zbek xalqi tabiatan yaxshiga havasli, ibratga moyil, kattaga ehtiromli, kichikka izzatli, ergashuvchanlik moyil kuchli xalqdir. Ana shu ergashuvchanlik, ibratga moyillik xislatlarini millat manfaatlariga bura olish, ularni Vatan ravnaqi yo'liga safarbar etish, bu fazilatlarimizni noplak qimsalar, shubhali siyosiy oqimlardan muhofaza etish, g'animlarning g'arazli kirdikorlariga qurban bo'lishdan asrash favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv jarayonlari dastavval aholini e'tiqod, qiziqish va boshqa o'lchamlar asosida tashkillashtirish ishlarini tizimli yo'nga solishni talab etadi. Tashkillashtirish jarayonlarini esa, muayyan guruhi lar tarkibidagi yetakchilar, yo'lboshchi shaxslar atrofida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Zero, ergashuvchanlik tabiatini ergashuvchanlik omiliga doimiy ehtiyoj sezib turadi.

Ommani maqsadli boshqarish va bu jarayonlarni milliy manfaatlar va umuminsoniy tamoyillar mutanosibligi negizida amalga oshirish mamlakatning umumiyl intellektual-estetik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, siyosiy va axloqiy barqarorligiga mustahkam zamin yaratadi. Jamiyatni maqsadli boshqarish xalqimiz tabiatiga o'tmishdan salbiy meros sifatida o'tgan irratsionalistik kayfiyatlardan, ya'ni voqelikni chuqur his etmaslik, yuz berayotgan jarayonlar, o'zgarishlar, tashqi va ichki xavflarni anglab etmasdan g'aflatda yashayverishdan ishonchli muhofaza ham etadi. O'zbek mentalitetida o'zgarishi zarur bo'lgan yana bir jihat – bu xalq tabiatidagi jamoaviyilik va individualizm omillarining nisbatidir. Ma'lumki, G'arberda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlарini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa inson ichki, botiniy dunyosi, ruhiyati shaxsiy hayotiga mutlaqo aralashmaydi. Sharqda esa, jamoa asosan insonni ijtimoiy nazorat ostida tutib turish, shaxsining jamoalardagi muntazam ishtiroki uning umumiyl axloqiy me'yorlar doirasida ish tutayotganligining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ayricha ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida qaraladi. Ammo jamoaviyilik nisbatining mutlaqlashtirilishi shaxs erkinligi va ozodligiga ma'lum tarzda xavf tug'diradi. Shu boisdan ham o'zbek mentalitetida jamoaviylikka me'yoriy bog'liqlik fazilatini saqlagan holda uning bir qadar individuallashuvi, javobgarlik xissini rivojlantirish, o'zi uchun hisob bera olishi, mustaqil ish tutish, shaxsiy mas'ullik singari xususiyatlarini yanada takomillashtirish zarurdir. Ammo, shu o'rinda ta'kidlash joizki, inson fe'lida individualistik tabiatning kuchayishi uni urf-odatlar, marosim va an'analar bilan boshqarish samaradorligini pasaytiradi. Inson o'ziga bevosita naf keltiruvchi udumlar, rasm-rusumlar bilan yashashga o'ta boshlaydi. Darhaqiqat, har qanday odat, marosimlar kishilarga foydali bo'lganligi uchun ham yashovchandir. Odamlar hayotini og'irlashtiruvchi, ularni murakkab iqtisodiy, moddiy-ma'naviy holatlarga solib qo'yuvchi rasm-rusumlar esa jamiyatning nechog'li rivojlanishiga ko'ra asta-sekin barham topa boradi. Jamiyatning intellektual-ma'naviy darajasi qancha Yuqori bo'lsa,

qonunlarning o'rni va roli muttasil orta boradi. Shu boisdan ham atoqli nemis sotsiolog Zimmel, mulohazasiga ko'ra odamlarni ularning taraqqiyoti darajasiga ko'ra uch xil ravishda boshqarish usuli deb hisoblanadi. "Ba'zilarni, deydi u, – shaxsiy namunalar, ko'rsatmalar bilan, boshqalarni urf-odat, rasm-rusumlar va an'analar bilan boshqarish, eng rivojlanganlarni esa, faqat qonunlar vositasidagina boshqarish mumkin".

Darhaqiqat, rivojlangan G'arb mamlakatlarda xalq an'analarini, urf-odatlarga faqat maishiy turmush doirasida amal qilindi. Fuqarolarning keng ko'lamdag'i hayot tarzi, davlat va jamiyat tuzilmalari, ijtimoiy munosabatlar tizimi asosan qonunlar vositasida boiqariladi. Yuksak rivojlangan an'anaviy sharq mamlakatlari – Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya singari mamlakatlarda ham xalq odatlari, an'analarning jamiyat hayotidagi mavqeiga nisbatan qonunlar ta'sirining salmog'i juda Yuqoridir. Shunday ekan, mamlakatimizda ham umumiyligi iqtisodiy, texnologik va ma'naviy taraqqiyotimizning darajasi nechog'li Yuqorilab borishi bilan jamiyat hayotida qonunlarning o'rni va roli shunchalik ortib borishi tabiiy holdir.

Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan tub islohotlar, huquqiy davlat qurish, qonun ustuvorligini o'rnatish, yalpi ma'naviy tiklanish jarayonlari, fuqarolik jamiyatini va komil inson shaxsini tarkib topishi vazifalari – birinchi navbatda millat mentalitetini bugungi kun tartibiga qo'ymoqda. XXI asrga qadam qo'ygan O'zbekiston kelajagi, shubhasiz, ozod va ongli fikrlovchi fuqarolarning erkin tafakkur tarzi, ularning yangilikka tashna bunyodkorlik ruhi hamda yangilanib berayotgan o'zbek mentaliteti vositasida yuzaga keladi.

Shu boisdan ham Respublikamizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni ozod va ongli shaxs ma'naviyatini tarkib toptirish dasturini pirovard natijada yurtimizda qonun ustvorligi ruhini mustahkam qaror toptirish, aholini milliy istiqbol yo'lidan maqsadli boshqarish orqali amalga oshmoqda.

## 2. O'zbek mentalitetida tolerantlik xususiyati

Jamiyat tarixi mohiyat e'tiboriga ko'ra kishilar o'rtasidagi munosabatlar tarixidan iboratdir. Tarixiy taraqqiyotning har bir davrida tarkib topgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum esa jamiyatni tashkil qilgan shaxslar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarni shakllantiradi va idora qiladi. Shu sababli, har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, maqsadi, manfaatlari, tuzum tomonidan unga berilgan

erkinlik darajalari o‘rni kabi masalalar o‘ziga xos ijtimoiy muammolarni tashkil qiladi.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tishi, mamlakatimizni buyuk tarixiy burilishlar, ma’naviy-siyosiy va axloqiy o‘zgarishlar jarayoniga boshladi. Ma’lumki, sobiq Ittifoq davrida madaniy merosni, qadriyatlarni o‘rganishga sinfiylik va partiyaviylik mezonlari asosida yondoshilgani xalqimiz tarixining ko‘plab yorqin sahifalarini soxtalashtirishga, yoki butunlay inkor etishga olib kelgan edi. Mustaqillikdan keyin biz o‘z Ona yurtimiz tarixi, madaniyati va ma’naviyatini yahlit va xolisona o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Hozir bu borada katta va zalvorli qadamlar qo‘yilmoqda.

Ma’lumki, Turkiston qadimgi davrlardayoq, jahon sivilizatsiyasi zanjirining mustahkam xalqaliridan biri bo‘lgan. Turkistonliklar ulug‘vor tarixiy obidalar, saroylar, madrasalar, masjidlar, ilm maskanlari sug‘orish inshootlarini barpo etganlar. Bularning hammasi bu yerda yashagan xalqlarning yuksak iste‘dod va qobiliyatga, mehnat malakaliriga, Yuqori ma’naviyat va madaniyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Shuni aytish kerakki, yuksak madaniyatni yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan xalqgina yaratishi mumkmn.

O‘zbek xalqining yuksak ma’naviyati o‘ta vazminlik, sabr-toqatlilik, insonparvarlik fazilatlarida namoyon bo‘ladi. “Insonparvarlik – bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatlaridandir. SHafqatsizlik va zo‘ravonlik uning tabiatiga etdir. Bizning xalqimiz o‘zining voqealarga boy, ko‘p ming yillik tarixi davomida ko‘p narsalarni boshidan kechirdi, madaniyat, ilm-fan o‘z davlatchilik yutuqlari nashidasini surdi, o‘zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi, eng yaxshi o‘g‘il-qizlaridan judo bo‘ldi. Lekin tarixning o‘yini ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog‘ tushura olmadi. O‘zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug‘lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg‘usiga hamdardlik mujassamlashgandir”, degan edi Birinchi Prezidentimiz I.Karimov “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” nomli asarida.

Darhaqiqat, o‘zbek xalqining yana qator o‘ziga xos xususiyatlari borki, ulardan biri biz bugun alohida tadqiq qilishga harakat qilmoqchi bo‘lganimiz tolerantlik (bag‘rikenglik, sabr-toqatlilik) xususiyatidir.

Tolerantlik terminiga ingliz olimi P.Medavar “nimagadir toqat qilish”, “kimgadir yoki nimagadir nisbatan sabrli bo‘lish” deb ta’rif beradi.

O'zbek xalqi o'zining butun tarixi davomida hamma vaqt boshqa xalqlar va konfessiyalar vakillariga nisbatan o'zining xayrihohlik va etnik, madaniy va diniy xayrixoxlik va ochiq ko'ngillik o'zbek xalqining o'ziga xos tug'ma fazilatlaridan biriga aylangan. Qayd qilish kerakki, akademik E.Rtveladze Kushonlar davlati tarixiga to'xtalib, bu davrda turli xil diniy e'tiqodlar va qavmlar vakillari tinch-totuv, axillikda yashaganini, tolerantlik (sabr-toqatlilik) hodisasi Sharqda juda qadimdan mavjudligini, Markaziy Osiyo jamiyatni hozir ham o'zining bu xususiyatini o'zgartirmasdan saqlab qola bilganligini ta'kidlar ekan, bu hodisaning siyosiy raqiblar fikrlariga xayrihohlik, tushunish va sabr-toqat bilan munosabatda bo'lish ildizlari va omillari haqida fikr yuritadi. Mazkur ilmiy tahlil ko'laming teran va asosli ekanligini tan olgan haqida qayd etish zarurki, tolerantlik hodisasi mohiyat etiboriga ko'ra faqat "moslashuvchanlik"ning o'zigina emasdир. Tolerantlik ko'p qirrali va murakkab hodisa. Ayni chog'da, u ijtimoiy munosabatlar hosilasi sifatida jamiyatning muayyan madaniy-tarixiy holatiga muvofiq hodisadir. Jamiyat obrazining timsoli o'laroq, u shu jamiyatga xos mentalitet, insoniy mexr-oqibat, hurmat, muhabbat, bag'rikenglik darajalarini o'zida aks ettiradi.

Abu Rayhon Beruniy nuqtai nazariga ko'ra, tolerantlikning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan. Masalan, kishilar o'rtasidagi hamkorlik, odamlarning o'zaro birlashish ehtiyojlaridan hamda tashki xavf xurujlaridan birgalikda halos bo'lish zarurati tufayli vujudga kelgan. Shuningdek, Beruniy sabr-toqat va bag'rikenglik xususiyatlari xalqlarning yashovchanligini ta'minlashda tarixiy ahamiyat kasb etishini alohida qayd etadi.

Sharqning mashhur faylasufi Abu Nasr Forobi shunday yozadi "Ba'zilar odamlar o'rtasida tabiiy yoki ixtiyoriy bog'lanishlar yo'q, har bir odam o'z manfaati uchun boshqalarning manfaatiga zarar yetkazishi, biri boshqasiga begona bo'lishi zarur, mobodo ular birlashsalar ham zarurat, majburiyat tufayli birlashadilar, o'zaro murosaga kelishsalar ham faqat biri qolib chiqib, boshqalari mag'lub bo'lganda murosaga kedadilar deb o'yaydilar. Bunda ular tashqaridan ta'sir etuvchi bir kuch tazyiqida o'zaro kelishuvga majbur bo'ladilar, agar ana shu kuch yo'qolsa, kelishuv ham yo'qoladi, yana begonalashuv paydo bo'ladi va ular tarqalib ketadilar. Insoniyatga xos xayvoniy aqidalaridan biri mana shu noto'g'ri tasavvur va aldamchi aqidadir".

Forobiyning bu fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, u insonlarni majburan emas, balki ixtiyoriy ravishda birqalashib, hamkorlikda yashashlari zarurligini, ana shunda o‘zaro nizolar tugashini uqtiradi. Yoki yana: “Ba’zilar o‘ylashicha, odamlar orasidagi bog‘lanish vositalari shu odamlarning xulq-atvori, tabiat, fe’li va tilining umumiyligiga asoslanadi. Har bir xalq o‘ziga xos bo‘lgan mana shunday xususiyatlarga ega.

Ba’zilar o‘ylashicha, odamlarning o‘zaro bog‘likligi o‘ylari, umuman yashash joylarining umumiyligiga asoslanadi”.

Bu bilan Forobiy insonlarning bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, sabr-toqatli bo‘lishining etnoregional, geopolitik ildizlari ustida fikrlash zaruratini ta’kidlaydi.

Forobiy olamni bilih, haqiqatga intilish, umumiy ijtimoiy muammolarni hal etish, muayyan real sa’y-harakatga bosh qo’shishda, rahbar, yo’lboshchi, ustoz roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini alohida qayd etadi. Yo’lboshchi, ustoz nafaqat muayyan bilimlar sirlaridan voqif bo‘lishi, balki kishilarni maqsadga yetkazish, xavf-xatarlardan saqlash yo’llarini ham biliishi lozim. Forobiy harakatga etaklovchi yo’lboshchilar kishilarning tafakkuri zaif kimsalar o‘rnida ko‘radi, yalpi umidsizlikka, tushkunlikka berilmaslik, sabr-qanoat bilan maqsadga intilish zarurligini uqtiradi.

Jamoa kishilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning alohida jihatlariga e’tibor qiladigan bo‘lsak, bu xususda turli-tuman o‘ziga xoslik va silsila yasovchi nuqtai nazarlar mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Ularni Forobiy xaqli-ravishda quyidagi guruhlarga ajratadi:

- kishilar o‘rtasida bag‘rikenglik, sabr-bardoshlilik fazilatlari qarindoshlik yoki qon yaqinligi tufayli namoyon bo‘ladi va bunday yaqin hamjihatlik mustahkam turmush ham-ohangligi va yaqdilligini yuzaga keltiradi;

- kishilarning o‘zaro bog‘liqligi zamirida muayyan qabilaturug‘larga tegishlilik yotadi, bu esa katta miqdordagi kishilar guruhi o‘rtasida fikr yaqdilligini tashkil etishi mumkin;

- kishilar islom aqidalaridagi muhim talab – imondan keyin yoziluvchi, ammo imondan qadri-qimmati past bo‘Imagan lafzni o‘rtaga qo‘yishib, ahd, qasam asosidagi o‘zaro ittifoq negizida bir-birlari bilan bog‘lanadilar. Bu bog‘lanish o‘zaro sabr va bag‘rikenglik fazilatlariga yo‘l ochadi;

- kishilar o‘rtasidagi o‘zaro yaqin aloqalar, o‘zaro sabr-toqat, bag‘rikenglik, urf-odat, an’analar, fe’l-atvor birligi, saviyalar tengligi,

didlar o'xshashligi, xarakter yaqinligi hamda tilning umumiyligi tufayli ham yuzaga keladi;

— kishilarni o'zaro bog'lovchi yana bir muhim vosita — ularning tug'ilib o'sgan yurtlari, yashash joylarining umumiyligi hodisasidir. Xavf umumiy bo'lganda, hamyurtlik hodisasi uni bartaraf etish uchun yaqdillikni ta'minlaydi va muhim ijtimoiy-ma'naviy ornil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayni vaqtida tolerantlikni ifodalovchi xususiyatlarga odamlarning hammasi ham ongli ravishda bo'y sunavermaydi, balki ularning bir qismi ko'pchilikka tahdidan, masala mohiyatini yetarli his etmasdan turib ham amal qilaveradilar. Chunki, bu ruhiy holat o'zbek xalqi xarakterida o'ziga xos inersion tabiat kasb etib qolgan.

O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalqimiz o'z tarixining o'tmishi mobaynida 4 ta diniy-mafkuraviy bosqichni (zardushtiylik, budda, islam, kommunistik) o'z boshidan kechirgan. Turli bosqinchiliklarni (greklar, arablar, mo'g'ullar va ruslar) qurgan, hammasiga sabr-toqat qilgan, o'zga millat vakillarini qabul qilib, birgalikda yashagan. Bunga misol qilib O'zbekistonning mustaqillikka erishgan birinchi kunlarini olishimiz mumkin. Sobiq SSSR parchalangandan keyin mustaqillikka erishgan ko'plab Respublikalarda boshboshdoqlik, tarqoqlik, qashshoqlik va bularning natijasida turli to'qnashuvlar kelib chiqib, guruhbozlik kuchaydi. Lekin o'zbek xalqining sabr-toqatiligi, muammolarni bosiqlik bilan hal etish xususiyatlari va Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan bozor munosabatlariga hech qanday sakrashlarsiz, tinch yo'l bilan, bosqichma-bosqich o'tish tamoyillari ishlab chiqilganligi oqibatida O'zbekiston hozirgi kunda ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, siyosiy na madaniy jihatdan o'zini tiklab oldi.

Tolerantlik xususiyatini o'rganishda milliy an'analariga, milliy qadriyatlarga va milliy madaniyatga e'tibor berish lozim. Chunki tolerantlik xususiyati ham o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi.

O'zbek milliy qadriyatları negizini ifodalonchi o'zbek xalqining qator fazilatlari turkumi borki, ular tolerantlikning namoyon bo'lish omili hisoblanadi. Masalan, hayo, ibo, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo'stlik, ota-onani ulug'lash, o'z manfaatini ustun qo'y mastlik, o'zgalar harakatiga toqat kabi fazilatlar orqali tolerantlik kafolatlangandir.

Ammo tolerantlik o‘z millatining boshqalar tomonidan kamsitilishiga yo‘l qo‘yish degani emas. Bu tuyg‘u kishilarni shunchaki olilianob qilib qo‘ymaydi, balki uning hulk-atvorini, axloqini, siyosiy va ma’naviy pokligini, burchga, o‘z xalqiga va muqaddas narsalarga bo‘lgan munosabatini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Bular insonda bag‘rikenglik, xotamtoylilik, baynalmilallik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Odamshinavandalik, oriyat, halollik, kamtarlik fazilatlarini mustahkamlaydi. O‘z qadr-qimmatini bilish tuyg‘usi rivojlangan kishi esa odatda o‘zgalarga xayrihoh, sezgir, mehribon bo‘ladi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” nomli asarida: “6-ustuvor yo‘nalish – jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta‘minlashdan iborat”, – deya ta‘kidlagan edi. Voqelikka bunday yondashuv konsepsiyasidan kelib chiqib, tolerantlik hodisasining ijtimoiy-siyosiy namoyon bo‘lish xususiyatlarini ko‘yidagicha tasniflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- millatlararo;
- fuqarolararo;
- davlatlararo;
- aholi yosh qatlamlararo;
- madaniyatlararo;
- partiyalararo;
- qadriyatlararo;
- konfessiyalararo (dinlararo);
- hududlararo;
- urug‘-qabilalararo;
- jamoalararo tolerantliklar.

Millatlararo tolerantlikda jamiyatdagi barcha millatlarning teng huquqlilik, tinch-totuvlikda yashashlari ifodalangan bo‘lsa, fukarolararo tolerantlikda insonlarning o‘zaro bir-birlariga hurmatda bo‘lishlari, mehribonlikni, odamgarchilikni unutmasliklari ifodalanadi. Davlatlararo tolerantlikda esa davlatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, chegaralar daxlsizligini ta‘minlash, tinchlikni saqlash muammolari ifodalangan.

### O'zbek xalqi xislatlari to'g'risida turli millat vakillarini fikri, %

Afzalliklar	O'zbek-lar	Markaziy Osiyorning xalqlari	Slavyan-lar	Boshqa millat vakillari
Mehmono'stlik	57,6	52,6	83,3	76,2
Buyuk ajodolar	42,6	49,5	55,6	47,6
Mehnatsevarlik	32,1	28,9	66,7	61,9
Ilmiy meros	31,3	18,6	5,6	23,8
Tarixiy meros	28,8	32,0	22,2	42,9
Axloqiy-ma'naviy meros	27,5	38,1	27,8	38,1
Tinchliksevarlik	24,1	18,6	55,6	23,8
"Oq oltin"	22,1	24,7	16,7	9,5
Adabiy meros	16,6	19,6	-	14,3

Tolerantlikni ta'minlovchi omillarini ham ajratib olishimiz mumkin:

- boshqa davatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish (bunda tolerantlik faqat himoya mohiyatini emas, balki peshvoz harakat mohiyatini ham o'zida ifodalaydi);
- har bir davlat, region va jamoada barqaror tinchlik va tinchlikka amal qilinishi.

Ijtimoiy-ruhiy tasnif talablariga ko'ra tolerantlik hodisasini ikkiga bo'lib o'rghanish mumkin:

1. Anglangan tolerantlik.
2. Anglanmagan tolerantlik.

Anglangan tolerantlikda jamiyatda yashayotgan kishilarning murosaviy turmush tarzi, kamolotga hamkorlikda intilish, ular o'rtasidagi o'zaro bir-birlariga hurmat, o'zaro yordam, mehr-oqibat va bir birlariga bo'lgan qadr-qimmat ifodalanadi. Anglanmagan tolerantlik esa ijtimoiy-ma'naviy qaraxtlik, intellektual turg'unlik holatlariда, jamiyatda yashayotgan kishilarning o'zlarini tutishlarida namoyon bo'ladi. Masalan, yuz berayotgan siyosiy-madaniy jarayonlar mohiyatiga tushunib etmaslik yoki tabiat hodisalarini tushunmaganliklari sabablari, ularni taqdir taqozasi, yuz berishi muqarrar hodisalar sifatida talqin etish, inersion sabr-toqat kilishlari anglangan tolerantlikdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, butunjahon axloqini ishlab chiqishga harakat qilinayotgan bir paytda o'zbek tolerantligini tadqiq etish uning umuminsoniy qadriyatlarga mosligini ko'rsatish imkonini beradi. O'zbek tolerantligi umuminsoniy qadriyatlар va tamoyillarning o'zaro muvofiqlik darajasini belgilash omili hamdir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbek mentaliteti xususiyatlari nimalardan iborat?
2. O'zbek millati etnobag'rikengligi turli tarixiy davrlarda qanday namoyon bo'lgan?
3. Mustaqillik davrda etnobag'rikenglikning namoyon bo'lishini yoritib bering.
4. Xalq urf-odatlari va mentalitet tushunchasi haqida qanday tasavvurga egasiz?
5. O'zbek mentalitetidagi o'zgarishlar nimadan iborat?
6. Mentalitet masalasi bilan qaysi ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillari shug'ullanishadi?

### **Tayanch so'zlar:**

Mentalitet, o'zbek mentaliteti xususiyatlari, individualizm va jamoaviylik, xalqimiz ma'naviy merosi, etnotolerantlik.

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I. YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent: O'zbekiston, 2008.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Bekmuradov M. O'zbek mentaliteti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
2. Bekmuradov M. Mentalitet o'zgarishlari va butunlik falsafasi. // Ijtimoiy fikr. – №3, 2002.
3. Murtazayeva R. O'zbek mentaliteti xususiyatlari to'g'risida. // Ijtimoiy fikr. – №4, 2011.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Abdunabiyev A.G., Mandralskaya N.V. Ob osobennostyax mentaliteta narodov Uzbekistana (istoricheskiy aspekt). – Tashkent, 2006.
2. Ubaydullayeva R.A. Semya v Uzbekistane. – Tashkent, 2012.
3. Madayeva SH.O. Mahalla va milliy mentalitet. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.
4. Ashirov A. O'zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix. – Tashkent, 2004.

## **6-mavzu. O'LKA MILLIY – TARAQQIYPARVAR ZIYOLILARINING DINIY VA MILLIY BAG'RIKENGЛИГИ**

**Reja:**

1. Jadidchilik harakatining maqsad-vazifalari.
2. Jadidchilik harakati va bag'rikenglik g'oyasi.

### **1. Jadidchilik harakatining maqsad-vazifalari**

O'rta Osiyoda XIX-XX asrlar oralig'ida mustamlaka tuzumining qat'iy chegaralariga qaramay, jahon integratsiya jarayonlari ta'sirida ijtimoiy-syosiy siljishlar ro'y berdi, ular milliy-taraqqiyparvar ziyyolilarning jamiyatni yangilash va isloh qilish harakati – jadidchilikning shakllanishi va rivojlanishi uchun turki bo'ldi. Ushbu mavzudagi tadqiqotlar ko'rsatishicha, jadidchilik harakati milliy o'zini anglash uchun juda kuchli turki bo'ldi. Milliy ziyyolilarning maqsadi jamiyatda etilgan muammolarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yechish va jamiyatning kelgusi rivoji yo'lini topish edi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya tomonidan bosib olinishi ijtimoiy-syosiy va madaniy tanglikka olib keldi. Bunga, bir tomondan, o'lkaning Rossiya imperiyasining mustamlaka va xomashyo bazasiga aylantirilishi, ikkinchi tomondan – tarqoqlik, iqtisodiy turg'unlik, rivojlangan mamlakatlardan bilan izchil aloqalar yo'qligi, aholining diniy mutaassibligi hamda ta'limga diniy safsatabozlik (sxolastika) ustunligi sabab bo'ldi. Ushbu davrning ilg'or namoyandalari bu salbiy hodisalarining mohiyatini yaxshi tushunib va jamiyatni tanglikdan chiqarishga urinib, usuli-jadid, ya'ni yangi usulni jamiyat hayotining barcha jahbalariga, ayniqsa madaniyat sohasiga tatbiq qila boshladilar. Ushbu harakatning nomi – jadidchilik ("jadid" – "yangi" demakdir) ham shundan kelib chiqqan. Aslida bu avvalo ma'naviyat, din va ta'limda tub o'zgartirishlarga chaqiruvchi yangi fikrlesh edi.

XIX asr oxiridan 1917-yilgacha jadidchilik ma'rifatchilikdan boshlab to kuchli siyosiy harakatgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Madaniy qoloqlik, jamiyat ongidagi turgunlik jadidlarni yuzaga kelgan tanglik holatidan chiqish yo'llarini jahon taraqqiyoti tajribasiga tayanib izlashga undadi, etilgan muammolar yechimining boshlanishi ma'rifatchilik harakati bo'ldi. Bu taraqqiyot uchun kurashning birinchi bosqichi edi.

Jadidlar ham Sharq ham G'arb madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga intildilar. Shaxsning ma'naviy kamolotida va jamiyatning rivojlanishida dinning rolini to'g'ri tushunish masalasi jadidlar mafkurasida muhim o'rinni egallagan. Ushbu dolzarb masalani echmasdan boshqa masalalarni yechib bo'lmasdi, chunki mutaassib ulamolar jamiyatdagi barcha salbiy tomonlarni oqlash uchun islom dinidan foydalananardilar.

Islom dini tomonidan asoslanmaguncha, jahon standartlariga yaqinlashgan mukammal ta'lim olish, uning yangi shakllarini joriy etishning hech iloji yo'q edi. Shuning uchun milliy taraqqiyotchilar O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir! diniy tasavvurlar reformasini o'tkazishga urindilar. Diniy bag'rikenglik g'oyalari ifodachisi bo'lmish jadidlar o'zlarining diniy va dunyoviy bilimlari, keng dunyoqarashlari va intilishlari bois tom ma'nodagi milliy ma'rifatchilar edilar. Jadidlarning atoqli namoyandalari faqatgina madrasani tugatibgina qolmay, diniy rutbaga ham ega edilar. Misol uchun, Mahmudxo'ja Behbudiy muftiylar sulolasiga mansub edi, u bir vaqt Samarqand muftiysi bo'lgan. Munavvar Qori Abdurashidxonov madrasani bitirgach, Toshkent shahri Darxon masjidni imomi bo'lgan.

Shu bilan birga jadidlar boshqa dinlarga sabr va hurmat bilan munosabatda bo'lish lozimligini tushuntirardilar. Buning uchun ular o'z asarlarida Yevropa va Osiyo tarixiga murojaat qilib, ikki madaniyat va ikki jahon dinining tutash nuqtalarini ko'rsatardilar. Har qanday ko'pmillatli davlat taraqqiyoti ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy-siyosiy asoslar va axloq qoidalari bilan bir qatorda elatlар birlashmalari va diniy konfessiyalarning o'zaro hamjihatligiga bog'liqdir. Zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik va islom dini ta'limotlari mavjud bo'lgan O'rta Osiyo taraqqiyoti tajribasi ko'rsatishicha, ushbu mintaqaga dinlararo bag'rikenglikning o'ziga xos o'chog'i bo'lgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda davlat bilan din o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga dinlararo totuvlik va sabrning tarixiys an'analari asos bo'ldi. Jamiyatda har bir shaxs, har bir e'tiqod va har bir madaniyat o'ziga xosligi va betakrorligini saqlab qolib, ichki ma'naviy qadriyatlar rivoji yordamida to'liq namoyon bo'lish imkonini oladigan sharoit yaratishga intilish respublika taraqqiyotini xarakterlovchi muhim tomonlardan biridir. Ushbu sohada O'zbekiston jamiyatni ma'naviy hayotida din hayotbaxsh rol o'ynay boshladi hamda mamlakat axolisi hayot tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, asl islom dini doimo boshqa dinlarga munosabatda bag'rikengligi bilan ajralib turgan. Ushbu dalilni Toshkent va O'rta Osiyo Mitropoliti Vladimir ota keltirgan: "Musulmonlarning Ollohi – xuddi o'sha nasroniyalar e'tiqod qiluvchi Yagona Xudo, olamlarning Yaratguvchisi va Hukmronidir. Xuddi biz kabi musulmonlar Yaratguvchining har narsaga Qodirligiga va har narsani Bilguvchiligiga, Marhamat va Adolatiga ishonadilar. Qur'onda ham qadimgi hukmdor va payg'ambarlar Injildagi kabi ulug'lanadi.

Pravoslavlik ham, musulmonlik ham insonlarni bir xil hayotiy, axloqiy fazilatlar sohibi bo'lishga chaqiradi. Nasroniylikni ko'pincha muhabbat dini deb, islomni esa adolat dini deb atashadi".

Ugoridagilardan ma'lum bo'ldiki, dinlararo totuvlikka erishish uchun tarixiy tajribani o'rganish zarur va joizdir. Mavjud global muammolarning o'zgaruvchanligi asnosida dinlararo bag'rikenglik masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Diniy matnlarni izchil o'rganib borish shuni ko'rsatadiki, ularning deyarli barchasida din erkinligiga tegishli maxsus nizomlar mavjud. Islom dini ham bundan mustasno emas. Qur'onda o'zga dinlarga e'tiqod qiluvchilar va boshqacha dunyoqarashga ega bo'lganlarga nisbatan sabrli bo'lishni tarbiyalashga alovida ahamiyat beriladi. Qur'onda o'zga maslakdagilarga munosabatda sabrli bo'lishga chaqirish turli shakkarda ifodalangan. Ba'zi oyatlarda din ixtiyoriy xarakterga egaligi va majburlashni tan olmasligi ta'kidlanadi.

Boshqalarida musulmonlarga o'zga din vakillari yetkazgan ozorlar uchun ularni afv etish maslahat beriladi. Kitobning ba'zi joylarida o'zga dinga e'tiqod qiluvchilarining maqtovga arzirli xislatlari sanab o'tiladi.

Bundan tashqari, Qur'on musulmonlarni panoh so'ragan g'ayridinlarning iltimoslarini rad etmaslikka chaqiradi. O'lkanning ilg'or ziyolilari inson tafakkuriga kirib borayotgan turfa olam uni yangi ma'naviy tayanchlar va tarixiy haqiqat bo'lmish ko'p elatli va ko'pkonfessiyali muhit bilan muloqotning boshqa, oqilona tamoyillarini izlashga majbur qilayotganini tushunardilar. O'zlarining diniy va dunyoviy bilimlari, taraqqiyotga intilishlari bilan ular diniy bag'rikenglik g'oyalari tarafдорлари bo'lib chiqardilar.

Yevropa xalqlarining madaniyat va texnologiyalar borasidagi yutuqlaridan bahramand bo'lish maqsadiga erishuvda ushbu tamoyil asosiy o'rinni egallar edi. Jadidlar ushbu tajriba O'rta Osiyoni turg'unlik holatidan olib chiqishga ko'maklashadi, deb hisoblardilar. Buning uchun ular birinchi navbatda islom dini va taraqqiyotning moslashuvi g'oyasini,

jamiyat va inson taraqqiyotining o'zaro bog'liqligi muammosiga islom dinining munosabatini nazariy asoslashlari zarur edi. Ushbu mavzudagi ko'plab nashrlar jadidlarning bag'rikenglikka qarashlarining ancha mantiqiy konsepsiyasini yaratdi.

Birinchi navbatda ular mazkur g'oya diniy ta'lilotlarning o'zida, xususan islom dini ta'lilotida aks ettirilganini isbotlashga urinishgan. O'rta Osiyo jadidchiligi rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy uch asosiy jahon diniga ta'rif berishdan boshladi. Barcha xalqlar va millatlarning birligini yakkaxudolikda ko'rdi. Uning ma'lumotiga ko'ra, XX asr boshida musulmonlar 300 milliondan ortiq edilar.

Ikkinci guruh – nasroniyarni ta'riflar ekan, ular 400 mln. kishilagini aytib, dunyoda nasroniyarchalik kuchli va dunyoviy bilimlarni egallagan konfessiya yo'qligini qayd etadi.

XX asr boshida soni 10 mln. ga yetgan, Muso payg'ambarning qavmi bo'lmish yahudiylarni ta'riflar ekan, bu xalq kichik jamoalarga birlashib, deyarli barcha mamlakatlarda yashashi, lekin o'z davlati yo'qligini ta'kidlaydi. Bunday sodda usul bilan Behbudiy ushbu dinlarning vakillariga hurmat uyg'otishga harakat qilgan, musulmonlar Qur'on bilan bir qatorda ularning muqaddas kitoblariga ham hurmat bilan qarashlari lozim deb hisoblagan. Turkiston jamiyatining ko'pkonfessiyalik darajasi yuqori ekanligini, shuningdek, turli konfessiyalar vakillarining o'zaro tinch-totuvligini saqlashning muhimligini nazarda tutib, milliy vatanparvarlar – jadidlar islom dini musulmonlarning nasroniyalar, yahudiylar va boshqalar bilan do'stligini olqishlashini isbotlashga urindilar.

Shu tariqa, olamning konfessional holatining rang-barang suratini chizib, islohotchilar tor diniy chegaralarga qarshi kurashdilar, Turkistonning barcha xalqlarini birlashtirish va ichki nizo hamda qarama-qarshiliklardan qutulishga intildilar.

Jadidchilikning yana bir yorqin namoyandası Abdurauf Fitrat o'zining "Munozara" (Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarası) va "Hind sayohi bayonoti" asarlariida birodarlik va o'zga dinlarga hurmat g'oyasini ochib berib, boshqa xalqlar tajribasi va taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish lozimligini ta'kidladi.

Qur'on va hadislarni bir xilda yaxshi biladigan yevropalik va hind, nasroniy va musulmon tilidan XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston va Buxorodagi ta'lim tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotga baho berdi. Bu ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llangan ajoyib badiiy

usul edi. Xususan, uning qahramonlaridan biri – farangi (yevropalik) musulmonlarning o‘zлari hamda Yevropa axolisining islom diniga munosabatiga ta’rif bergen.

Ammo agar yevropaliklar islom dini qoidalarini o‘rganib, ijtimoiy taraqqiyotning yuqori darajasiga yetgan bo‘lsalar, nima uchun musulmonlar o‘z ta’limotlarining samarasidan foydalana olmadilar? – deb savol beradi Fitrat. Muallif fikricha, musulmonlarning fojiasi shundaki, ular haqiqiy e’tiqodga emas, kimlardir yuz yillar davomida o‘z manfaati yo‘lida atayin noto‘g‘ri talqin qilgan denga ergashadilar. Yevropaliklarning islom diniga hurmatini ko‘rsatish borasida A.Fitrat o‘z hamyurtlarida ham dindoshlariga, ham boshqa xalqlar madaniyati, an‘analari va urf-odatlariga nisbatan sabr va insonparvarlik hissini uyg‘otishga harakat qiladi. O‘z davrining ilg‘or muallimlaridan biri bo‘lgan A.Avloniy “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida faqatgina atoqli musulmon mutafakkirlari emas, balki Arastu, Gippokrat, Suqrotlarning fikrlariga ham asoslanib mulohaza yuritar ekan, insonning ijobjiy va salbiy sifatlarini ta’riflab berdi.

Muallif ta’kidlashicha, musulmonchilikda islom diniga e’tiqod qilmoqchilarga nohaq ozor berish, ayniqsa ularning izzat-nafsi, mulki yoki hayotiga tahdid solish qoralanadi. Uning fikricha, Qur‘on va hadislarda keltirilgan ko‘rsatmalar jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta’minlashga, turli madaniyat va tamaddunlararo hamfikrlikni o‘matishga, jamiyatdagi ahvolni izdan chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga to‘liq qaratilgan.

Jadidlar boshqa denga e’tiqod qiluvchi olimlarning asarlarini o‘rganish gunoh emasligini; qaysi konfessiyadan kelib chiqqanidan qat‘iy nazar, har qanday tajribadan foydalanib ilm-fan bilan shug‘ullanish islom dinida ma’qullanishini tushuntirishga harakat qilganlar. Xususan, beshak o‘rganilishi lozim bo‘lgan “ilmarning asosini” xristian olimlari o‘rtta asrlardagi musulmon mutafakkirlari asarlaridan olganlar, deb yozgan A.Fitrat. Umuman olganda, ilm-fanning denga ham, millatga aloqasi yo‘q.

Bilimlarni rivojlantirish sohasidagi G‘arb va Sharqning izchilligi jadidlarning asosiy g‘oyalaridan biri edi. “Oyna” jurnalida Ayni ismli muallifning maqolasi nashr qilindi, uning fikricha, dunyoviy bilimlarni egallash – diniy ziddiyatlarga qarshi kurashning yagona vositasidir. U vatandoshlarini musulmonlar ilmi va ruslar ilmiga ajratmasdan, yutuqlar musulmonlarga yohud boshqa konfessiya vakillariga tegishliligidan qat‘iy nazar, din va millat uchun foydali bo‘lgan barcha narsani

o'rganishga chaqiradi. Ilg'or ziyolilar: "fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini o'ziga singdirmaydigan millatlarning taqdiri jahon tamaddunining ovloq joylarida kun kechirishdan iborat bo'lib qolishini tushunar edilar. Shuning uchun ular O'rta Osiyo xalqlarini din va milliy iftixorning haqiqiy tayanchiga aylanishi lozim bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarini boyitishga chaqiradilar. O'z fikrlariga isbot tariqasida jadidlar yer-suvsiz qolib, o'z bilimlari va tirishqoqliklariga tayanib, hayotning barcha jabhalarida katta yutuqlarga erisha olgan yahudiylar tarixini misol qilib keltiradilar. Xususan, Rajabzoda Niyoziy yahudiylarga hurmatini yashirmay, vatandoshlarini ulardan ba'zi bir fazilatlarni o'rganishga chaqiradi. Bunda muallif o'zgalar yo'liga ko'rko'rona ergashmasdan, avvalo, umumjahon tamaddunining milliy tajribani uyg'un ravishda to'ldira oladigan eng sara yutuqlarini ajratib olishga chaqiradi.

Shunga o'xshash nuqtai nazarni M.Behbudiy asarlarida uchratamiz.

Maqolalaridan birida muallif savol beradi – nima uchun Turkistonning davlat va jamoa organlariga asosan aholining nomusulmon qismi rahbarlik qiladi, shu vaqtning o'zida tub aholi noaqliy faoliyat yuritishga majbur? Buning asosiy sababini u mahalliy aholining ta'lim tizimi kamchiliklarida ko'radi. M.Behbudiy aholi ta'limini oshirishning vositalaridan biri, birinchi navbatda, konfessional va etnik sabr deb hisoblaydi. Misol tariqasida u Rossiyanı keltiradi, u yerda turli xalq vakillari tinch-totuv hayot kechiradilar.

"Hind sayohi hikoyalari" ("Hind sayohi bayonoti")da A.Fitrat musulmonlar bilimsizlik oqibatida turli ma'bndlarga sig'inganlariga bir qancha misollar keltiradi, bu musulmonchilik qoidlariga butunlay ziddir. Shu vaqtning o'zida ba'zi buxoroliklar nasroniylar xoch tutgani uchun ularni butparast deb ataydilar.

Jadidlarning fikricha, bunday misollar musulmonlar ongiga boshqa dirlar va ularning vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lish lozimligini singdirishning eng yaxshi usuli bo'lib, taraqqiyotning majburiy shartidir deb hisoblaganlar.

O'rta Osiyoning g'arb tamadduni yutuqlari bilan tanishishi o'sha davrdagi sharoitda ilk marotaba faqat rossiya orqali oshirish mumkin edi.

M.Behbudiy Samarqand mustisi sifatida "Oyna" jurnali sahifalarida diniy turmush tarzining bir qator munozarali masalalarini yechishga harakat qildi. Musulmonlar rus taomlarini yeyish man etilganligi rus madaniyati bilan yaqinlashuvga qarshilik qiluvchilarning asosiy

dalillaridan biri edi. Hadisni faqatgina boshqa hech qanday egulik bo‘lmagan taqdirda qo‘llash mumkin.

Farg‘ona jadidlari vakili bo‘lmish Ishoqxon Ibrat ham rus xalqi bilan munosabatlar masalasida konstruktiv aloqalar tarafdori bo‘lgan. Ibratning jahon bo‘ylab qilgan sayohati, Qora dengiz bo‘ylari, Hindiston, Xitoy va Rossiyaga tashrifi izsiz yo‘qolmadi, Turkistonning texnik va madaniy qoloqligini ko‘rsatdi. Uning fikricha, bu qoloqlikning sababi, avvalambor, musulmonlar Ollohning asosiy amri – bilim olishni bajarmayotganlardadir. Ibrat diniy bilimlar o‘rnini foydasiz safsata va mutaassiblik olganini ta’kidlaydi. O‘z nuqtai nazarini Qur’on oyatlari va hadislarga asoslar ekan, Ibrat musulmonlar nasroniyalar ishlab chiqargan texnik yangiliklardan ham albatta foydalanishlari lozim, deb hisoblaydi.

Milliy matbuot tarixi 1906-yil 27-iyundan boshlangan, I.Obidov (Gabidov) boshchiligidagi toshkentlik taraqqiyotchilar o‘zbek tilida birinchi marta “Taraqqiyot” gazetasini nashr qildilar, o‘sha yili sentyabrdagi Munavvar Qori Abdurashidxonov tahriri ostida “Hurshid” gazetasini nashr qilina boshladi. 1907-yil dekabrda A.Avloniy “Shuhrat” gazetasini nashr qilishga ruxsatnoma oldi. 1908-yilda boshidan A.Bektemirovning “Osiyo” va S.Saidazimboyevning “Tujjor” gazetalari nashr qilina boshladi.

Biroq, tez orada bu matbaa organlarining barchasi mustamlaka ma’muriyati farmoyishiga binoan yopildi.

Milliy-taraqqiyotchilik harakatining matbuot organlari avval Toshkentda faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsalar, 1912-yildan Turkistonning boshqa shaharlarida ham gazetalar chiqar boshladi. Xususan, Buxoroda Mirzo Jalol Yusufzoda asos solgan “Buxoroi SHarif” va G.Xusayniy tahriri ostida “Turon” gazetalari nashr qilina boshladi. 1913-yilda Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Samarqand” gazetasini, u yopilgach, “Oyna” jurnalini chiqara boshladi. 1914–1915-yillarda Toshkentda “Sadoyi Turkiston” (muhabiri U.Xo‘jayev), Farg‘onada “Sadoyi Farg‘ona” muhabiri O. Mahmudov) gazetalari nashr qilingan.

Milliy vaqtli matbuot sahifalarida elatlararo va konfessiyalararo bag‘rikenglikni targ‘ib qilishga katta ahamiyat berilgan. Xususan, 1906-yilda “Taraqqiy” gazetasida nashr qilingan “Toshkent, 12 avgust” maqolasida millataararo adovat qo‘zgatishning har qanday usullariga qarshi chiqilgan.

M. Behbudiy tahriri ostida chiqqan “Samarqand” gazetasining ilk sonlaridan birida uning “Dastur” maqolasi chop’ etilgan, unda

islohotchilar rus tili va adabiyotini o'rganishga katta ahamiyat berishlari aks ettirilgan.

Manbalardan ko'rindik, jadidlar faqatgina jahon xalqlari tillari va madaniyati, tarixini o'rganishga chaqiribgina qolmay, bilimlar fuqarolik yohud boshqa jahbada qay tariqa yutuqlar garovi bo'la olishini o'zlar misolida namoyish qilishga uringanlar. Milliy-taraqqiyat parvarlik harakati namoyondalarining ko'philigi bir necha sharq va g'arb tillarini bilganlar. Ushbu bilim ularga ham sharq ham g'arb olimlarining ilmiy-falsafiy asarlarini asl nushada o'qish imkonini bergen. Ishakxan Ibrat o'z ona tili – o'zbek tili bilan birga arab, fors, hind, turk, ingлиз, fransuz va rus tillaridan tashqari qadimgi finikiya, suriya, yunon yozuvni va ivridni ham bilgan hamda g'arb madaniyatini o'rganishning astoydil tarafdoi bo'lgan. Ushbu bilimlar unga noyob asar bo'lmish olti tilli (o'zbek-arab-fors-turk-hind-rus) "Lug'ati-sitta-al-sina" lug'atini yaratishga imkon berdi.

Til madaniyati muammosi bag'rikenglik g'oyasining muhim tarkibiy qismi edi. Munavvar Qori Abdurashidxonov Turkistonda yashovchilarning barchasi zamonaviy bilim olishi va rus axolisi bilan doimiy muloqotda bo'lishi hamda turli sohalarda yaqinlashishi uchun rus tilini bilishi zarur deb hisoblar edi. Shu sababdan u 1911-yil 10-fevralda Sirdaryo viloyati xalq bilim yurtlari noziriga murojaat qilib, o'zi rahbarlik qilayotgan mакtabda shaxsiy mablag'i hisobiga rus tilini o'qitishni tashkil qilishga ijozat so'radi. Turkiston o'lkasi ta'lim muassasalari Boshqarmasi huzuridagi Vasiylirkengashi iltimosnomani ko'rib chiqib, Xalq ma'rifati vazirligidan o'lkada yangi usuldagи maktablarni ochish va ta'minlash to'g'risida tegishli ko'rsatmalar bo'lmaganini ro'kach qilib, ushbu iltimosnomani rad qilganiga qaramay, M. Abdurashidxonov o'z maktablarida rus tilini o'qitishni kiritishga erishdi. "Turkiston vedomostlari" gazetasida yozilishicha, Munavvar Qori maktabida rus tili darslariga haftasiga 12 soat ajratilgan, ularni rus-tuzem maktabidan taklif qilingan rus muallimi olib borgan. Rus tili darslari o'quvchilar tomonidan yaxshi o'zlashtirilgan va maktabni bitirgach, ularning bilimlari rus-tuzem mакtabining 2-sinfini bitirgan bolalar bilan teng bo'lgan. Munavvar Qorining o'quvchilarini rus tilidan bitiruv imtihonlarini muvaffaqiyat bilan topshirdilar va rus-tuzem mакtabi bitiruvchilaridan bilimlari kam bo'lmay, nozirlik guvohnomiasiga sazovor bo'ldilar.

M.Behbudiyning "Ikki emas, to'rt til lozim" maqolasi tildagi plyuralizmga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif chet tillarni bilishning

muhimligini aniq misollar bilan isbotlaydi. Vaholanki, chet tillarni bilish faqatgina savdo-sotiq faoliyatida emas, balki sanoatni rivojlantirish, davlat ishlarini yuritish va hatto diniy ta'limni yuksaltirishda ham kerakdir.

Shu tariqa, jadidlar faoliyatining eng muhim yo'nalishi islom dini va taraqqiyotning moslasha olishi g'oyasini, jamiyat va inson o'zaro bog'liqligi muammosiga musulmon munosabatini nazariy asoslash edi.

Umuman olganda, jadidlarning jamiyatni ma'nayiy jihatdan isloh qilish sohasidagi faoliyatini izchil tahlil qilinib, vatandoshlarini bagrikenglik va o'zga dinlarga sabrli bo'lish ruhida tarbiyalashda jadidlar

– dinlararo totuvlik jamiyatda barqarorlikni va uning kelgusida muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Islom dini e'tiqod masalasida majburlashning har qanday shaklini qoralaydi, shuning uchun har bir musulmon o'z tanlovi bilan bir qatorda o'zgalarining ham tanlovini hurmat qilishi lozim;

– boshqa jamiyatlarning etnik va konfessional mansubligidan qat'iy nazar ularning ilm-fan, madaniyat va texnologiyadagi ijobjiy yutuqlaridan samarali foydalanimangandagina O'rta Osiyo jamiyatni rivojlanishi, uning madaniy va texnologik turg'unlikdan chiqishi mumkin bo'ladi. Islom dini nafaqat bunday o'zlashtirishlarga qarshi emas, balki ularni ma'qullaydi, vaholanki taraqqiyotga intilish ushbu dinning mohiyatida mayjud. Shuning uchun bu masaladagi har qanday munozara noo'rin va ular johillik hamda g'arazli niyatda yuzaga keladi.

– Juhon tajribasi bilan tanishuvning muhim vositasi chet tillarini bilishdir. Tildagi plyuralizm jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mahalliy aholiga rus tilini o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki rus tilini bilish, birinchidan, tub-joy xalqi vakillarining yangi sharoitga tezda moslashishiga, umumimperiya jarayonlarida qatnashishiga yordam beradi, ikkinchidan, mahalliy jamoaning Yevropa tamaddunining eng yangi yutuqlari bilan tanishishini ta'minlaydi.

Jadidlarning siyosiy faolligi eng yuqori bo'lgan davrda barcha xalqlarga nisbatan bag'rikenglik, diniy sabrlilik va do'stona munosabat ayniqsa yorqin namoyon bo'lib, "Turkiston muxtoriyati" milliy-hududiy avtonomiysi tuzish g'oyasida aks etdi. Bu umuminsonparvarlik g'oyasining jahon tajribasiga asoslangan milliy-davlat qurishga ilk marta urinish bo'ldi.

Jadidlarning "Sho'roi Islomiya" partiyasi tashabbusi bilan chaqirilgan O'lsa musulmonlarining 2-syeyzdida (1917-yil 7-11-sentyabr) qabul qilingan qarorda syezd hokimiyatning soldat, ishchi va dehqon deputatlari Soveti berilishiga qarshi. Hokimiyat koalitsion bo'lishi va o'lkaning barcha kuchlariga tayanishi, ya'ni umumxalq bo'lishi lozimligi aytilgan. Bolsheviklar hokimiyatidan farqli o'laroq Turkiston muxtoriyati haqiqatan vakolatlari va bag'rikeng edi. Turkiston muvaqqat soveti tartibi 32 kishidan iborat bo'lib, avvalroq Ummrossiya ta'sis yig'ilishiga Turkiston o'lkasidan yuborilgan deputatlar soniga qarab belgilangan. Millat Majlisi 54 o'rindan iborat bo'lib, 4 tasini shahar o'zini o'zi boshqarish kengashi vakillariga va 18 tasini o'lkaning turli yevropa tashkilotlari vakillariga berish ko'zda tutilgan. Bu shuni anglatadiki, o'lkadagi yevropalik aholining nisbiy miqdori 7% dan oshmagan holatda ularga o'rirlarning uchdan bir qismi ajratilgan.

1917-yil 1-dekabrida Turkiston muxtoriyatining Vaqtli hukumati Turkiston o'lkasi axolisiga murojaat qilib, varaqqa tarqatdi. Unda O'lsa musulmonlarining favqulodda syezdi (unda avtonomiya e'lon qilingan) Turkistonning barcha fuqarolari va tashkilotlarini Turkiston xalqi hukumati atrofida birlashib, uning zimmasidagi murakkab vazifalarini bajarishda yordam berishlari so'rалган.

Bu vaqtga kelib taraqqiyotchilarining ham diniy, ham milliy bag'rikengligi bitta tushunchaga birlashib, umum davlat siyosati maqomini oldi. Biroq jadidlarning bag'rikengligi islom madaniyatining ahamiyatini birinchi o'ringa qo'yishga monelik qilmasdi. Ular musulmonlarning jahon tamadduniga dahldorligini doimo ta'kidlardilar. Arastu, Aflatun, Suqrotlarning asarlaridan foydalaniib, zamonaviy falsafiy oqimlar bilan tanishib, ular islom sharq falsafasini bilan tutash nuqtalarni topa olardilar. G'arb va Sharq teng muzokara qilganda mujassamlasha oladi deb hisoblab, madaniyatlararo musohaba dunyoqarashi tamoyillarida mustahkam turardilar. Balki ularning zamonasidagi jarayonlar va ta'lim buning asosiy sababi bo'lmagandir. Masalaning mohiyatiga ko'ra, diniy bag'rikenglik O'rta Osiyoda tarixiy ildizlarga ega. Ko'p asrlar mobaynida bu yerda turli konfessiya va elatlarning vakillari tinch-totuv hayot kechirishgan. Shuning uchun ham jamiyatning taraqqiy topgan qismi ongida atrofdagilarning irqi va e'tiqodidan qat'iy nazar, ularga bag'rikenglik bilan do'stona munosabatda bo'lish bor edi.

Aynan ana shu holat jadidlarga yosh turklar va Misr islohotchilarini izidan borib, yevropaliklarning siyosiy tajribasiga jiddiy ravishda

murojaat etish, lekin bunda milliy o'ziga xosligini saqlab qolish imkonini berdi. Bora-bora ularda ijtimoiy qurilmaning yevropa va sharq tamoyillari nisbati darajasiga qarashlar shakllandi – konstitutsiyaviy monarxiya, shariat va mahalliy o'zini o'zi boshqarishni qisman qo'llashdan tortib islom dini me'yorlarining xalq-demokratik qurilish bilan hamkorligini o'rnatuvchi kengaytirilgan konvergensiayiv yondashuvgacha. Ana shularning hammasi ularga huquq va erkinliklar kafolatlangan demokratik davlat qurish g'oyasini amalga oshirishga imkon berdi.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Qachon va nima maqsadda jadidchilik harakati shakllandi?
2. Jadidchilar ma'naviyat, til va ta'linda qanday o'zgarishlar tarafdori edilar?
3. O'lka milliy-taraqqiyparvar ziyorilar namoyondalardan kimlarni bilasiz?
4. Jadidchilik g'oyalarida bag'rikenglikni o'rnini ko'rsating.
5. Jadidchilik harakatida bag'rikenglik ifodasining nazariy va amaliy jihatlarini keltiring.

#### **Kalit so'lar:**

Usulli-jadid, ma'rifatchilik, diniy bag'rikenglik, Sharq va G'arb madaniyati, ilg'or g'oyalar, zamonaviy bilim, taraqqiyot.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud axloq. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.
2. Behbudiy M. Kitobi muntaxabi jug'rofiya-i umumiy. Tanlangan asarlar, 2-nashr. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
3. Fitrat. Najot yo'li. (Rahbari najot). – Toshkent: Sharq, 2001.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxodja Bexbudi i ego istoricheskie vozzreniya. – Tashkent: Ma'naviyat, 1998.
2. Alimova D.A. Religioznaya tolerantnost i gumanisticheskie idei natsionalno-progressivnoy intelligensii Turkestana // O'zbekiston tarixi, 2005. – №3. – B.12-20.
3. Alimova D.A. Jadidchilik va diniy bag'rikenglik // Tafakkur, 2005. -№4.

## **7-mavzu. XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASRDA O'ZBEKISTONDA KO'PMILLATLILIKNING SHAKLLANISHI VA BAG'RIKENGLIK**

### **Reja:**

1. Istilochilar bosqini va o'lka hududiga xalqlarning ko'chib kelishi.
2. Sovetlar hukmronligi davrida ko'p millatlilikning shakllanishi. Sovet hokimiyatining millatlarga doir tuzilmalari va ularning dastlabki qadamlari.

#### **1. Istilochilar bosqini va o'lka hududiga xalqlarning ko'chib kelishi**

Uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar davomida O'zbekiston axolisining xilma-xil etnik tarkibi shakllandi, natijada vujudga kelgan yirik elatlar XIX asr oxiri – XX asr boshlari millatlarni shakkantirish yo'liga o'tdilar, shuningdek, migratsiya asosida turli etnik guruhlar ham vujudga keldi.

Ushbu hududda yashaydigan va davlatga nom bergan asosiy etnos o'zbeklardir. Bu xalq o'z nomidan ko'ra ancha avval vujudga kelganligini tadqiqotchilar haqli tarzda bir necha marta ta'kidlaganlar. O'ikaning qadimiyligi axolisi o'zbek millati tarkibiga kirgan dastlabki etnik qatlami edi. So'g'dlar, baktriyaliklar, xorazmiylar, farg'onaliklar, qang'lar o'zbek xalqining tarixiy ajodolaridir. Bu yerda turli tarixiy davrlarda joylashgan turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar ikkinchi qatlamni tashkil etadi. X-XI asrlarning oxiriga kelib o'zbeklar asosan etnos sifatida shakllanib bo'lgan edi.

Shundan keyin ayniqsa XVI-XVII asrlarda unga yangi etnik qatlamlar kelib qo'shildi. XVI asrdan boshlab ikki daryo oraliq'ining asosiy xalqi "o'zbek" deb atala boshlandi. XVIII asda mintaqadagi deyarli barcha elatlarning joylashuvida o'zgarishlar ro'y berdi, ommaviy migratsiya jarayoni sodir bo'ldi. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlarning joylashuv makonlari muayyan darajada barqarorlashib, birlashish va qo'shilish jarayonlari davom etdi.

Bu hodisaning ko'p qirraliligi o'zbek xalqining tarkibiga kiruvchi ba'zi xalqlarning etnografik o'ziga xosligini uzoq vaqtgacha saqlab qolganligida ifodalananishini tadqiqotchilar ta'kidlab o'tadilar. XX asr arafasida o'zbeklarning bir qismi o'zlarini kelib chiqqan qabila va urug'lar nomi bilan mang'it, qo'ng'iroq, nayman va hokazo deb atalganligi, ba'zi

guruuhlar esa o‘zları yashaydigan joyga qarab, toshkentlik, xivalik, qo‘qonlik va hokazo atalganlıkları ma’lum. Bir qator shaharlarning, ba’zan esa qishloqlarning axolisi (masalan, Xorazm, Farg‘ona vodiyisida o‘zbeklar) o‘lkaning boshqa xalqlari bilan qo‘shilib ketgan qadimiy mahalliy aholining ajdodlari “sart” deb atalgan.

O‘sha davrdagi aholining etnik tarkibi dinamikasini, turli xalqlarning shaklu-shamoyilini aniqlash juda murakkab vazifadir. Buning o‘z navbatida bir qancha sabablari bor. XIX asr oxirida hozirgi O‘zbekiston hududi Rossiya imperiyasining Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi tarkibiga kirganligini e’tiborga olish kerak.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida aholi ro‘yxatlari o‘tkazilmagan, bu esa ma’lumotlarni aniqlashda birmuncha xatoliklarga olib boradi. Rossiya imperiyasining birinchi umumiy aholi ro‘yxati Turkiston o‘lkasi hududida 1897-yil kuzida o‘tkazilishi natijasida aholi haqida to‘liq ma’lumot olindi. Shunga binoan, Turkiston o‘lkasida yashovchi 5,3 mln. aholidan o‘zbeklar 35,75%, qozoqlar va qirg‘izlar 44,36%, tojiklar 6,73%, turkmanlar 4,98%, ruslar 3,75%, qoraqalpoqlar 2,26%, boshqa millatlar 2,15% bo‘lgan.

O‘zbeklar asosan Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Xorazm yohalarida joyalashgan edilar. Ro‘yxat o‘tkazilgan hududda yashovchi O‘zbekiston axolisining milliy tarkibida ruslarning ulushi birmuncha kamroq – 1,9% bo‘lib, tojiklar 7,4%, qozoqlar 6,5%, qirg‘izlar 3,4% ni tashkil etgan.

Shu hududdagi aholining ko‘pchiligi – 79% qishloqlarda yashar edi. Faqat ruslar bundan mustasno bo‘lib, ularning ko‘pchiligi – 37,9 ming kishi yoki 85% shaharlarda istiqomat qilgan.

Aholining jinsiy tarkibiga kelganda, shaharda ham, qishloqda ham barcha millatlar orasida erkaklar nisbatan ko‘pchilikni tashkil qilgan. Eng ko‘p sonli xalq o‘zbeklar bo‘lib, ular jami 1515,5 ming kishi (64,4%)ni tashkil qilar edi. Shundan 1261,9 ming kishi yoki butun aholining 83,3% qismi qishloq joylarda yashar edi. Qishloq axolisining tarkibida o‘zbeklarning ulushi 67,8% bo‘lgan.

Mustaqil mashg‘ulotga ega bo‘lgan asosiy kishilar dehqonlar bo‘lib, ular 317726 nafar kishini, shundan o‘zbeklar 239153 nafar kishi edi. Shaharliklar orasida dehqonchilik bilan 16448 kishi shug‘ullangan. 28968 kishining asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan. Shaharlarda savdo-sotiq bilan 18229 kishi, qishloq joylarda 10989 kishi mashg‘ul edi. Bundan tashqari mashg‘ulotlarning mustaqil guruuhlari orasida hunarmandlar, turli mahsulotlar yog‘och, mineral xomashyoni qayta

ishlovchilar, qurilish va ta'mirlash ishlari bilan mashg'ul bo'lganlarni ham sanab o'tmoq kerak.

Turkistonga chetdan kelib istiqomat qilayotganlar orasida Volga bo'yidan kelganlar 9236 kishi, Rossiyaning Markaziy Yevropa qismidan kelganlar 7385 kishi, Uraldan kelganlar 7360 kishi, imperiya janubidan kelganlar 7068 nafar bo'lgan. Hozirgi O'zbekiston hududida 1897-yilda jami 3948 ming kishi yashab, shundan 81,2% qishloq joylarda istiqomat qilgan edi.

Axolisining qadimiyligi va zichlik darajasi bilan ajralib turadigan Farg'ona viloyati alohida qiziqishga sazovordir. XIX asr oxirlarida migratsiyaga qaramay, tub joyli bo'limgan aholining soni bu yerda juda oz edi. 1884-yilda viloyatda ana shunday aholidan 6,1 ming kishi yashagan. Eng yirik etnik guruh – turkiyzabon o'troq aholi sartlar bo'lib, ular 475,6 ming kishini tashkil qilar edi. Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi o'zbeklar (5,7 ming), ko'chmanchi qipchoqlar (5,6 ming), turklar (5,1 ming), quramalar (1,4 ming), yuzlar (0,3 ming) til jihatidan ularga yaqin edi.

Ana shu barcha etnik birliklar keyinchalik birga qo'shilib "o'zbeklar" nomini oldi va 493,8 ming kishini, jami aholining 69% tashkil etdi. Keyingi o'rinda qirg'izlar 104,1 ming kishi (14,5%), uchinchi o'rinda tojiklar – 43,2 ming kishi (6,0%) turar edi.

Farg'ona vodiysi, Samarqand va Toshkent viloyatlarining dehqonchilik qilinadigan tumanlari oralig'ida joylashgan Mirzacho'l boshqa bir o'ziga xos joy bo'lgan. Bu yerda XIX asrning oxirlarida 175 ming kishi istiqomat qilgan. Ulardan ko'pchiligining turmush tarzi yarim ko'chmanchilik edi. O'zbeklar yarim ko'chmanchi aholi orasida 145 ming, o'troq aholi orasida 18 ming bo'lsa, o'troq aholining saltkam 5 mingi tojiklar, 3,5 ming ruslar edi. Qozoqlar asosan ko'chmanchi aholi jumlasiga kirar edi. O'sha davrda ular orasida o'troqlashish jarayoni davom etar edi.

Bir qancha shaharlarning etnik tarkibi juda xilma-xil edi. Chor Rossiya imperiyasining istilosidan keyin barpo etilgan shaharlarda bu hol ayniqsa sezilarli bo'lgan. Agar Marg'ilon, Andijon, Qo'qon, Namangan shaharlarda o'zbeklar 97,6%, 96,5%, 92,9%, 85,2% ni tashkil qilgan bo'lsa, Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) axolisining tarkibi quyidagicha edi: ruslar – 42,9%, o'zbeklar – 29,2%, ukrainlar – 8,1%, polyaklar – 8,1%, yahudiylar, asosan Buxoro yahudiylari – 2,0%, nemislar – 1,7%, tatarlar – 1,6%, qirg'izlar – 0,9%, armanlar – 0,5%, xitoylar – 0,3%, uyg'urlar – 0,2% va hokazo edi.

O'lkaning asosiy shahri Toshkentdag'i vaziyat ham shunga o'xshash edi. Uning 155673 kishilik axolisi 43 tilni o'z ona tili deb atagan. Shaharda turkiy tillarda so'zlashuvchi katta guruhi bilan yonma-yon oz sonli va mayda guruhi - grek, ingliz, italyan va boshqa tillarni ona tili deb hisoblar edi.

Xullas, hozirgi O'zbekiston hududida tub joy axolisidan tashqari boshqa xalqlar vakillarining guruhlari ham yashar edi. Ularning bir qismi o'lkaga qadim zamonalarda kelib qolgan arablar, eroniylar, lo'lilar, afg'onlar bo'lsa, boshqalari XX asr boshlarida ko'chib kelgan etnoslarning vakillari edi. Mazkur xalqlar bir qismining etnogenezi va antropologik turi, moddiy madaniyati, an'analarini bu mintaqadan olisda tarkib topgan edi.

Uyg'urlarning Markaziy Osiyoga ommaviy tusda ko'chishlari XVII asrdan boshlanadi. Bu ko'chishlar ommaviy tusdagi ko'chishlar bo'lib, Sharqiy Turkiston hududlarida elat sifatida o'ziga xoslik shakllangan kishilarni bir hududdan boshqa bir hududlarga ko'chirish edi. Uyg'urlarning Markaziy Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududiga ommaviy ko'chib o'tishlar 1917-yilgacha bo'lgan davrda 7 ta bosqichni bosib o'tgan.

Dastlab XVII asrning o'rtalarida Sharqiy Turkistondagi diniy ziddiyatlar sabab yuzaga kelgan siyosiy boshboshoqlik va iqtisodiy tanglik tufayli aholining Farg'ona vodiysiga ommaviy ko'chishi boshlandi. Ular avvalgi yashash manzillar bo'yicha o'zlarini "qashqarlik", "yorkentlik", "turfonlik" yoki "tog'lik", "og'acha", "povon" deb atalganlar.

Sharqiy Turkiston axolisining O'zbekistonga (Farg'ona vodiysiga) ommaviy ko'chishining yana bir to'lqini Manjur-Xitoy imperiyasi ko'shinlarining 1750-1759-yillarda Sharqiy Turkistonga bostirib kirishi bilan boshlangan. Farg'ona vodiysiga 1759-1760-yillarda 9 ming oila ko'chib kelgan.

Uyg'urlarning keyingi ko'chishlari 1826-1830 - yillardagi Qo'qon xoni Muhammad Alixonning Sharqiy Turkistonga yurishdan so'ng 70 ming uyg'ur Qo'qon, Shahriston va Farg'ona vodiysining boshqa shaharlariiga o'mashganlar.

Farg'ona vodiysiga yana bir ommaviy ko'chish jarayoni 1848-1860-yillarga to'g'ri kelib, unda 15 ming sharqiy turkistonlik yana Farg'ona vodiysiga ko'chib kelgan. 1862-1877-yillarda Qo'qon.xonligi hududida 85-162 ming kishi ko'chib kelgan. 1881-yil 15-sentyabrdan 1883-yil 15-martga qadar bo'lgan jarayonda 11 385 nafar uyg'ur oilasi Markaziy

Osiyo hududlariga ko'chib o'tadi. Sharqiy Turkistondagi hujjatlar bo'yicha esa XIX asrning 80-yillarida Yettisuv va Farg'ona viloyatlariga deyarli 100 ming "Xitoy musulmonlari" deb nom olgan kishilar ko'chib ketishga majbur bo'lганлар. Ularning aksariyat qismi uyg'urlar bo'lганлар. Sharqiy Turkiston axolisi osoyishtalik paytlari ham Qo'qon xonligi hududlariga kirib kelganlar. Jumladan, erta bahordan vodiya tushib mardikorlikka yollanib kech kuzda o'z vataniga qaytib ketgan kishilar ham bor edi. 1906-yili Sharqiy Turkistondan Farg'ona vodiysiga mavsumiy ishlash uchun 14689 kishi, 1907-yili 24 107 kishi, 1908-yili 2800 kishi kelgan. Ular asosan dehqonchilik, qurilish ishlari, novvoychilik va oshpazlik bilan shug'ullanishgan. Ularning ko'pchiligi shu yerlarda butunlay yashash uchun qolib, keyinchalik oilalarini ham olib kelganlar. Ular borib o'mashgan joylarda uyg'ur qishloqlari va mahallalari tashkil topgan. Qashqarqishloq, Uyg'urqishloq, janjal, Tog'liq, Payonob, Do'lon, Qovul, To'qyo, Pushmon, Paydo, Go'zo, SHavruq, Taxtako'prik, To'qqizoq, Ortish, Ozoh, Ovot, Olaqanon, Qo'og'onoldi, Eshakchi, Tovorchi, Changot, Kirmachi, Qorakiy, Kepakchi kabilar shular jumlasidandir. Ushbu ko'chganlarning aksariyat qismi qashqarlik va taranchi nomini olgan uyg'urlar bo'lib, ularning soni 300 ming nafardan ortiqni tashkil qilgan.

Mennoniylar (mennochilar) etnik diniy birligi namoyondalarining tarixi o'ziga xosdir. XVI asrdan boshlab Yevropada quvg'inga uchragan mennoniylar Niderlandiyadan Shimoliy Germaniya, Prussiya, Polshaga ko'chib kelib, nemis axolisi bilan qo'shilib ketadi, uning madaniyati, tilini qabul qiladi. XVIII asrda ular yana ta'qibga uchragach, Rossiyaga ko'chib keladilar. XIX asr oxirida diniy tariqat ichidagi bo'linishlar oqibatida ularning bir qismi G'arbiy Sibir, Ural va Turkistonga kelib qoladi. Bu yerda ular bir qancha tumanlarda, shu jumladan, Xiva atroflarida joylashadilar. Birinchi jahon urushiga qadar Turkistonda alohida ajralib yashaydigan bir necha ming mennoniy va baptistlar yashar edi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi o'lkani bosib olib, Buxoro amirligi va Xiva xonligi ustidan protektorat joriy qilganidan so'ng, bu o'lkada mustamlakachilik siyosatini yurita boshlashi sababli sharqiy slavyan diasporasi (ruslar, ukrainlar, beloruslar) faol tarzda tashkil topa boshladi.

Turkiston general gubernatorligi tashkil etilganidan keyin rus axolisining bir qismi mustamlaka hududiga ko'chib kelishi (ikkinch bosqich) boshlandi. Peterburg hokimiyati va mustamlaka

ma'muriyatining ko'rsatmasiga binoan yangi, shu jumladan o'zboshimchilik bilan ko'chib kelganlar uchun, bundan avval rus qal'alari va istehkomlari tevaragiga dastlabki kelib o'mashganlar uchun beriladigan soliq sohasidagi va boshqa imtiyozlar saqlanib qolganligi bunday ko'chib kelishni rag'batlantirar edi. Xo'jalik vayrongarchiliklari, tez-tez bo'lib turadigan hosilsizliklar va pomeshchiklar zulmi davom etishi, ularni Turkiston tomon yetaklar edi. Ular asosan Astraxan, Voronej, Samara, Xarkov va Orenburg guberniyalaridan ko'chib kelgan ruslar, ukrainlar va qisman nemislar edi. Garchi bunday ko'chishlarning aksariyati dehqonlarning o'z tashabbusi bilan ro'y bersa-da, mustamlaka ma'murlari ularni joylashtirishga, er bilan ta'minlashga va xo'jaliklarini tiklab olishga har tomonlama ko'maklashar edi.

Rus armiyasining quyi amaldorlari xizmat muddati tugagandan keyin Turkistonda yashab qolishlariga mustamlaka ma'muriyati ko'maklashar edi. Ularning o'z oilalalarini chaqirishlariga va bepul ko'chib kelishlariga ijozat berilar edi. Har bir oilaga kamida o'n desyatina qulay sug'oriladigan yer va bir qancha imtiyozlar berilgan edi. Shuni hisobga olish kerakki, har bir tuzuqroq garnizonda, masalan, birinchi raqamli qal'ada bir yarim mingdan uch minggacha askar xizmat qilar edi. Biroq ko'chib kelish jarayoni tashkiliy jihatdan tartibga solinishiga qaramay, o'lka hududiga o'zboshimchilik bilan keluvchilar, jumladan, Yettisuvga kazaklarning kelishi oqimi qisqarmaganligi sababli, ularni boshqa tumanlarga, avvalo Kaspiyorti viloyatiga ko'chirishga to'g'ri kelar edi. General-gubernator K.P.Kaufman kazaklarning mustamlaka ichkari mintaqalariga joylashuvini maqsadga muvofiq emas, deb hisoblab, 1873-yilda kazaklarning bu yerga ko'chib kelishiga qarshi chiqdi. Turkiston general-gubernatori "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom" loyihasiga yozgan tushuntirish xatida: bundan buyon o'lkani mustamlakaga aylantirishni, unga ruslarni ko'chirib keltirishni ikki yo'nalish: Orenburgdan Toshkentgacha va Toshkentdan Verniy orqali Semipalatinskacha yo'nalish bo'ylab amalgalashishni taklif qildi.

U ikkinchi yo'nalishni maqbul deb bilar edi, chunki bu yo'nalishdagi yerlar o'mashib olish uchun qulay, serhosil edi. Aslida Kaufman boshqa holatlarni ham e'tiborga olgan edi. Uning Yuqoridagi takliflari 1876-yilda Qo'qon xonligi tugatilganidan keyin qabul qilindi. Endi birinchi yo'nalish Orenburgdan Toshkent va Xo'jand orqali O'sh va Jalolobodgacha, shuningdek Ursatevsk (Xovos) ya Jizzax orqali Samarqandgacha va Amudaryogacha cho'ziladigan bo'ldi.

1881-yilning o‘rtalariga qadar fon Kaufmanning takliflariga binoan Rossiyadan ko‘chib keluvchilar (Astraxan va Saratov guberniyalarining dehqonlari) afzalroq deb topilgan hamda Talas, Chu vodiylaridagi qirg‘iz yerlarini, Yetisuvni va Dasht o‘lkasining boshqa tumanlarini o‘z ichiga olgan ikkinchi yo‘nalish bo‘yichagina joylashtirilmay, ayni vaqtida birinchi yo‘nalish bo‘yicha, jumladan yer, suv munosabatlari busiz ham murakkab bo‘lgan Toshkent vohasiga ham ko‘pgina boshqa joydan kelganlar joylashtirildi. Vaholanki, bu vohaning bir qismiga ancha avval qambag‘allashgan qozoqlar joylashib olgan edi. Rossiyadan ko‘chib kelganlarni Mirzacho‘lning sug‘oriladigan tumanlariga, Farg‘ona vodiysi shaharlariha ham joylashtirdilar.

Shunday qilib, imperianing xalqlarni ko‘chirish siyosati va amaliyotidagi ikkinchi va rasmiy birinchi bosqich 1867-1881-yillarni o‘z ichiga oldi.

Shundan keyingi davrda metropoliyadan Turkiston va Dasht general- gubernatorliklariga ko‘chib keluvchilar, ayniqsa, o‘z tashabbusi bilan ixtiyoriy ko‘chib keluvchilar oqimi, Xitoydan uyg‘urlar va dunganlarning, Turkiyadan armanlarning (Kaspiyorti viloyatiga) stixiyali ko‘chib kelishi ko‘paygach, imperiya hukumati mustamlakalarda jiddiy chigalliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ko‘chib kelishga oid barcha ishlarni tartibga solish choralarini ko‘rishga majbur bo‘ldi. Buning natijasi o‘laroq Rossiya imperatori 1881-yil 10-iyulda “Dehqonlarning bo‘sh hukumat yerlariga ko‘chib borishi to‘g‘risida muvaqqat qoidalar”ni tasdiqladi.

Imperianing hukmdor doiralari xristian tariqatlariga ibodat qiluvchilarning ko‘plab ko‘chib kelishidan, chamasi tashvishga tushib, 1883-yilda yangi qoidalarni joriy etdi, bu qoidalarda Turkistonga faqat ruslar va pravoslav diniga e’tiqod qiluvchilar ko‘chib borishi mumkinligi, shuningdek beriladigan er normasini kamaytirish va uni 10 yildan keyingina ko‘chib keluvchi mulkiga o‘tkazish ko‘zda tutildi hamda bu yerlarga har yili ekin ekish shart qilib qo‘yildi. So‘ngra Rossiya hukumati va o‘lkaning mustamlaka madaniyati o‘zgargan sharoitni, Rossiyalik ko‘chib keluvchilarni Turkistonga joylashtirish imkoniyatini e’tiborga olib, yana yangi qoidalarni ishlab chiqdi. Uni 1886-yil 12-iyulda imperator Aleksandr III imzoladi. Bu qoidalarda belgilanishicha: “1. Turkiston o‘lkasiga faqat xristian dinida bo‘lgan va qishloq abivatellari tabaqasiga mansub rus fuqarolarigina ko‘chib borishiga yo‘l qo‘yiladi. 2. Ko‘chib boruvchilarga general-

gubernatorning ijozati bilan bo'sh yerlardan mahalliy vaziyatga ko'ra qiyinchiliksiz ajratib berish mumkin bo'lgan miqdorda beriladi...".

Turkistondagi obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar hamda 1881 va 1886-yillardagi ko'chib kelish qoidalari o'rtasida katta tafovutlar borligi rus axolisining mazkur mustamlaka hududiga ko'chib kelib joylashishidagi butun ishda sifat o'zgarishlarini belgilab bergenligi sababli 1881-yilning iyulidan 1886-yilning iyunigacha o'tgan davrni Turkiston general-gubernatorligiga ko'chib kelish jarayonining yangi bosqichi deb hisoblash mumkin.

Oradan uch yil o'tgach, Rossiya imperiyasi qishloqlaridagi yersiz va kam yerli dehqonlar ulushini qisqartish hamda yangi mustamlakalarda rossiyalik savdogarlar va ishbilarmonlarni ko'paytirish ehtiyojlarini, jumladan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol mushkullashganini e'tiborga olib, imperiya ma'muriyati 1889-yil 13-iyunda "Qishloq abivatellari va ishchilarining podsholikka qarashli yerlarga ixtiyoriy ko'chishi va mazkur tabaqalarga mansub bo'lgan va avvalgi vaqtarda ko'chib borgan shaxslarni ular qatoriga qo'shish tartibi haqida" nomli qonunni chiqardi.

Endilikda ko'chishda xristian bo'lmaganlardan tashqari barchaning o'lkaza ko'chishi uchun muhim chegaralar qo'yilmaganligi sababli, ko'chib keluvchilar oqimining ko'payishi uchun yo'l ochib qo'yildi hamda Turkiston o'lkasi va butun Markaziy Osiyo tub axolisining ijtimoiy ahvoli yanada ko'proq mushkullashib boradigan sharoit vujudga kealdi. Ma'lumotlarga qaraganda 1889-1891-yillarning o'zida Turkistonga 28911 oila yoki 100 mingdan ko'proq kishi ko'chib keldi. Shundan keyingi yillarda Volga bo'yи va Rossiyaning boshqa bir qator g'allakor mintaqalarida hosilsizlik ro'y berib, ocharchilik boshlangani sababli ko'chib keluvchilar soni yanadi ko'paydi. Shuning oqibatida, Sirdaryo viloyatida tub joy axolisining yerlari ko'chib keluvchilarga teztez olib berilgandan keyin, 1892-yilga kelib bo'sh yerlar deyarli qolmadı. Shu bois 1892-yilning mart oyida Rossiya imperiyasi hukumati joylarda ko'chish hujjatlarini berishni to'xtatish to'g'risida farmoyish chiqardi. Ammo bu hujjat ham o'zboshimchalik bilan ko'chib keluvchilar oqimini to'xtatmadı. Buning ustiga, hatto 1896-yilda imperianing Ichki ishlar vazirligi huzurida ko'chish masalalari bilan shug'ullanuvchi bo'lim (1907-yildan Boshqarma) tuzilishi ham Turkistonni, Markaziy Osiyoning boshqa hududlarini o'zboshimchalik bilan ko'chib keluvchi rossiyaliklardan xalos etmadı. 1896-yilning o'zida Turkistonga ko'chib

kelgan 178400 kishining 38.1% o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan qambag'al shaxslar edi.

1892-yilsh Toshkent qo'zg'oloni va 1898-yilgi Andijon (Dukchi eshon) qo'zg'olonidan keyin mustamlaka ma'muriyati tub joy aholini qisuvga olishni, xususan, milliy zulmni kuchaytirdi. 1903-yil 10-iyunda joriy etilgan yangi ko'chirib keltirish qoidalari shu maqsadga xizmat qilishi lozim edi. Ushbu qoidalarga binoan faqat pravoslav diniga e'tiqod qiluvchi ruslarni emas, Ichki ishlar vazirligining roziligi bilan raskolniklarning ham ko'chishiga ijozat berildi. Biroq avvalgi barcha qoidalardan bu qoidalarning farqli jihatni shundan iborat ediki, unda molmulk, xo'jalik bilan ta'minlangan shaxslarning ko'chib kelishi talab qilinar edi.

Hukumat ma'murlarining metropoliya axolisi bir qismini mustamlakalarga, jumladan, Turkistonga ko'chirishga yondashuvlaridagi va o'lka ijtimoiy-siyosiy vaziyatida 1903-yil 10-iyundagi yangi ko'chish qoidalari qabul qilingan vaqtida ro'y bergan jiddiy o'zgarishlarni hisobga olib, 1886-1903-yillarni imperianing ko'chirish siyosatidagi yana bir bosqich, deb ajratish mumkin.

1903-1917-yillar ko'chish harakatida navbatdagi va so'nggi bosqich bo'ldi. Bu davrda, 1903-yil 10-iyun qoidalardan tashqari Metropoliyada 1905, 1907-yillardagi voqealardan keyin, Turkistonga ko'chib kelgan salkam 100 ming kishining turmushi yo'lga qo'yilmaganligi aniqlangandan so'ng hamda Stolipin islohoti munosabati bilan Rossiyadan ko'chib keluvchilar sonini ko'paytirish uchun juda qat'iy choralar ko'rildi. Ammo, bu choralar Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodan butun hukmronlik yillari mobaynida birinchi marotaba bundan keyingi ko'chirish siyosati masalasida Peterburg hokimiyatining qarashlari bilan Turkiston ma'muriyatining qarashlari o'rtasida qaramaqarshilik kelib chiqishiga sabab bo'ldi. 1908-yil 31-yanvardagi rasmiy hujjatlardan birida ta'kidlanishicha, Turkistonni jadal mustamlakaga aylantirish zarurligi va mumkinligiga qaramay, "general-gubernator, polkovnik Mustafin ham, o'lkadagi hokimiyatning boshqa vakillari ham, u joydagи yerlarni egallab olishning muhim davlat ahamiyatini to'la-to'kis tan olsalar-da, ayni vaqtida o'lkada sug'oriladigan bo'sh yerlar yo'q, deb isbotlamoqdalar". Ammo, 1906-yilning mart oyida erkin ko'chishga ruxsat beradigan Nizom ma'qullandi, 1910-yilda esa tub joy axolisining ortiqcha yerlarini tortib olish to'g'risida qonun chiqarildi. Bu hujjatlar butun Markaziy Osiyodagi tanglik holatini kuchaytirdi.

1891-1892-yillarda imperiya markazidagi ocharchilik tufayli o'lkaga ko'chib kelish holati kuchaygan bo'lsa, 1906-1910-yillarda ko'chib keluvchilar oqimining ko'payishi Stolipin islohotlari amalga oshirila boshlaganligi tufayli sodir bo'ldi. 1912-yildan boshlab esa Volga bo'yida boshlangan ocharchilik munosabati bilan ko'chib keluvchilar soni yanada ko'paydi. XX asming bosqlaridan dehqonlarning ommaviy harakati, 1905-yil inqilobi podsho hukumatini ko'chirish siyosatini tubdan qayta qurib chiqishga majbur qildi. U aholini ko'chirish yo'li bilan mamlakatdagi agrar va siyosiy inqirozlarni bartaraf etishga ko'proq e'tibor bera boshladi. 1904-yil, so'ngra 1906, 1909-yillarda aholini ko'chirish to'g'risida chiqarilgan qonunlar shuning natijasi bo'ldi. Bu qonunlar Rossiyaning markaziy guberniyalaridagi dehqonlarni ko'chirishni rag'batlantirar va hatto ularga birmuncha imtiyozlar ham berar edi. Avvalgi qonun hujjatlarida va ma'muriy farmoyishlarda joriy etilgan cheklashlar va to'siqlar bekor qilindi, ya'ni aholini ko'chirish siyosatida "yangi yo'l" boshlandi. Bu yo'ning mohiyati badavlat unsurlardan Rossiyaning chekka o'lkalarida imperiyaning mustahkam tayanchini vujudga keltirishdan iborat edi. 1907-yildan boshlab faqat "baquvvat xo'jaliklar" Turkiston o'lkasiga ko'chib borish uchun rasmiy ruxsat ola boshladi. Shu paytdan boshlab o'lka yerlarini mustamlakachilar tomonidan keng miqyosda egallab olish boshlandi, natijada 1913-yil ga kelib Turkiston o'lkasi qishloq axolisining 5,3% ni ruslar tashkil eta boshladi.

Ko'chib kelganlarning aksariyati shaharlarda o'mashib oldi. Chunonchi, 1907-yilda Farg'ona vodisida sharqiy slavyan millatlariga mansub 24346 kishi bo'lsa, shundan 14712, ya'ni guruh tarkibining salkam 2/3 qismi shaharlarda yashar edi. Markaz xalqlarning vakillaridan eng ko'pi Yettisuv va Sirdaryo viloyatlariga ko'chib keldi. 1913-yilning oxirlarida Sirdaryo viloyatidagi ruslarning soni 116861 kishiga yetdi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlarida sharqiy slavyan diasporasining shakllanishi birmuncha boshqacharoq kechdi. Bu joylarda asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan aholi guruhlari kelib o'mashdi. Chunonchi, temir yo'l qurilishi bir qancha rus shahar manzilgohlari (Chorjo'y, yangi Buxoro kabilar) vujudga kelishiga imkoniyat yaratdi. Agar Buxoro amirligida 12 mingga yaqin rus fuqarosi bo'lsa, 1917-yilga kelib harbiy xizmatchilarni hisobga olmaganda, ularning soni 50 ming kishiga yetdi.

Rossiya imperiyasi hukumati Turkiston o'lkasiga paxtachilikni rivojlantirishga qiziqib qarar edi. Shubhasiz, imperiya yengil sanoatini

rivojlantirish uchun paxtaga ehtiyoj baland bo‘lgan. Har yili Rossiya imperiyasidagi fabrikalar 22 million pudga yaqin paxta tolasi ishlatar edi. Shuning yarmiga yaqini Turkistondan va qisman Kavkaz ortidan olinar, qolgan yarmini Rossiya Amerikadan sotib olar edi.

Shu sababli o’sha paytdagi barcha rasmiy maxfiy ma'lumotlarda Turkiston yerlarini tezroq o’zlashtirish maqsadi yaqqol sezilib turar edi. Chunonchi, Turkiston o’lkasi general-gubernatori 1909-yilda bergen ma'lumotida bu yerda ruslar ta’sirini har tomonlama kengaytirish, fabrika va zavodlar, maorif muassasalari barpo etish ta’kidlangan edi. “Mamlakatning kelajagi va bu yerlarning o’zlashtirib olinishi ko‘p jihatdan rus sanoatchilari, tadbirkorlari, savdogarlar va madaniyat namoyondalariga bog‘liq” deya ta’kidlagan edi Turkiston general-gubernatori.

Shu davrning o‘zida dehqonlar bilan ayni bir vaqtida Turkistonga Rossiyadan fabrika, zavod ishchilari ham kela boshladi. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Qo‘qon va boshqa shaharlarda mahalliy xomashyo asosida ishlaydigan kichik-kichik zavod va fabrikalar qurildi, o’lkani Rossiya bilan bog‘laydigan temir yo‘llar barpo etildi. Shahar axolisi tez ko‘paya boshladi. 1897-1913-yillar mobaynida hozirgi O‘zbekiston hududidagi shaharlarning axolisi 300 ming kishiga ko‘paydi. Shaharlarda rus axolisining salmog‘i oshdi. 1911-yilda ruslar Andijonda 15%, Samarqandda 20%, Toshkentda 25%, eski Marg‘ilonda 30% ni tashkil etdi. Mahalliy aholi va Rossiyadan kelganlar hisobiga ishchilar sinfining soni tez o‘sdi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida o’lkadagi vaziyat o‘zgarishi tufayli tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar va o‘z moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida pul ishlab olishga qiziquvchi shaxslar Turkistonga ko‘plab kirib kela boshladilar. XX asrning 20-yillariga kelib, Turkistonda, Buxoro amirligi va Xiva xonligida 9 millionga yaqin tub joy axolisi, 500 mingdan ko‘proq yevropaliklar (asosan ruslar, ukrainlar, beloruslar), 400 mingdan ziyod Rossianing milliy rayonlaridan, Osiyo, Yevropa davlatlaridan kelganlar yashar edi.

Sharqdan kelganlar orasida g‘arbiy Xitoydan ko‘chib kelgan 250 mingga yaqin kashg‘arlik, tarancha, dungan va boshqalar, 60-100 ming eronlik, ozarbayjonlar, kurdlar, balujlar va Erondan kelgan boshqa xalqlarning vakillari, 54 mingdan ortiq arablarning avlodlari, 6-7 ming afg‘on, xazora, jamshid hamda Afg‘onistonning boshqa elat va qabilalarining vakillari, 5-6 ming hindistonlik, salkam 30 ming tatar va boshqird, 18-20 ming nafar mahalliy yahudiy va boshqalar bor edi.

Yevropa davlatlaridan Rossiya imperiyasining milliy rayonlaridan kelganlar orasida 20-21 ming arman, salkam 2 ming gruzin va Kavkazdag'i boshqa xalqlarning vakillari, 9-10 ming polyak, 8 mingdan ko'proq nemis, 5 mingga yaqin yevropalik-rossiyalik va xorijiy yahudiyilar, 1000-1200 litvalik, 600 ming grek, 80-100 nafar fransiyalik va shvetsariyalik, 60-70 nafar italyan, 50-60 nafar buyuk britaniyalik va boshqalar bo'lgan.

1897-yilda o'tkazilgan Rossiya imperiyasi axolisining birinchi aholi ro'yxati, o'lkadagi polyaklar to'g'risida juda to'g'ri tasavvur berdi. Undagi so'rov varaqlarida millat katagi emas, balki ona tili katagi mavjud edi va shunga binoan polyak tilini ona tili deb atagan shaxslar Kaspiyorti viloyati umumiy axolisining 1,0%, Sirdaryo viloyatida 1,19%, Samarqand viloyatida 1,17%, Farg'on'a viloyatida 0,10% ni tashkil qilar edi.

Bu raqamlarni batafsil ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sirdaryo viloyatida polyak tilini o'z ona tili deb atagan 2825 kishidan 2671 kishi erkaklar va 154 kishi ayollar edi. Ro'yxat natijasida aniqlangan jinslar tarkibida erkaklarning juda ko'pligini (17,3 baravar ortiqligi)ni arxiv ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Shu ma'lumotlarga ko'ra polyaklar diasporasi armiyada qisman temir yo'l batalonlarida xizmat qilgan va keyinchalik bu yerda doimiy yashash uchun qolgan, shuningdek, surgun qilinganlar va ayrim ko'chib kelganlar hisobiga shakllangan. Erkaklarning ko'pligi tufayli bu yerda millatlararo nikohlar ko'paygan. Polyaklar boshqa xalqlar, asosan yevropaliklar ayollar bilan turmush qurganlar.

Polyaklarning hududiy joylashuvi qanday bo'lganligini quyidagi ma'lumotlardan bilish mumkin. Viloyat shaharlarida 2787 kishi, shu jumladan 2641 erkak va 146 ayol yashagan. Shaharlari bo'Imagan uezdlarda 38 kishi, shundan 30 erkak va 8 ayol yashagan.

Polyaklarning eng ko'pi Toshkent uezdida bo'lib, 2214 kishidan erkaklar 280 kishini va ayollar 134 kishini tashkil etar edi. Hozirgi O'zbekiston hududidagi polyaklarning eng katta guruhi Toshkent shahrida joylashgan edi. Ularning soni 2206 kishiga borar, shundan erkaklar 2074 va ayollar 132 kishi edi. Toshkent uezdining qishloq joylarida esa polyak xalqiga mansub atigi 6 erkak va 2 ayol yashar edi. Viloyatning hozirgi O'zbekistondan tashqaridagi birmuncha yerlarini ham o'z ichiga olgan hududida jami 611 nafar polyak istiqomat qilgan.

Polyaklar o'zining diniy e'tiqodi sababli muayyan muammolarga duch kelar edilar. Rim katolik ruhoniylari yo'qligi sababli katoliklarning

ayrim farzandlari birmuncha vaqt cho'qintirilmay qoldi, nikohlarning bir qismi cherkovda rasmiylashtirilmadi. Diniy ibodatlar va rasm-rusumlarni imperianing boshqa viloyatlaridan xizmat safariga yuborilgan ruhoniylar o'tkazar edi. Chunonchi, 1895-yilda Turkiston harbiy okrugi harbiy xizmatchilari orasida diniy ibodatlarni bajo keltirish uchun Vladikavkaz rim-katolik cherkovining bosh ruhoniysi va Tver viloyati qo'shinarining popi Varputsyanskiy Kaspiyorti viloyatiga borayotib yo'l-yo'lakay to'xtab o'tdi. U Chorjo'y, Samarqand, Toshkent, Yangi Marg'ilon, Andijon, O'sh, Namangan, Kerki va Petro-Aleksandrovskda bo'lib, kazarmalarda va ijaraga olingan xonalarda diniy ibodatlarni bajardi.

Garchi 1897-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra Turkiston o'lkasida 11 mingga yaqin katolik bo'lib, ularning bir qismini polyaklar tashkil etsada, XX asrning boshlariga qadar bu yerda birorta katolik cherkovi bo'lмаган. Rossiya davlatidagi qonunlarga ko'ra katolik cherkovlari ixtiyoriy ehsonlar hisobiga qurilar edi. Ehson to'planganidan keyin Samarqand va Ashxobodda cherkovlar qurildi. Toshkentda Kostyol barpo etila boshlandi, ammo 1917-yil voqealari sababli bu qurilish to'xtab qoldi. Katolik dini bo'yicha Turkiston viloyatining rahbari etib tayinlangan Oiga Yustin Bonavenshura Pranaytis bu qurilishda katta rol o'ynadi. Jumladan, u birinchi jahon urushi yillarda kastyol qurilishida ishlash uchun shahar ma'muriyatidan asosan polyaklar va avstriyaliklarni so'rab oldi.

A.M.Matveevning ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning ikkinchi o'n yilligiga kelib Turkistonning (Buxoro amirligi va Xiva xonligini ham qo'shib hisoblanganda) taxminan 9 million tub joy axolisi va 500 mingdan ko'proq yevropaliklar orasida 9-10 ming nafar polyak bor edi.

Birinchi jahon urushi yillari (1914-1918-yillar)da Turkistondagi polyak diasporasi son jihatidan ko'payganligi kuzatiladi. Parchalangan Polshaning ikki qismidan kelgan kishilar: birinchidan, urush harakatlari davomida Rossiya imperiyasidan bosib olingan hududlardan qochib kelganlar; ikkinchidan, dushman armiyasidan qo'lga tushgan harbiy asirlar va "Fuqaro asirlari" deb atalgan kishilar yoki "Harbiy unvoni bo'lмаган asirlar" bu yerdagi diasporaga qo'shildi.

Avstro-Vengriya va Germaniya armiyalarining harbiy asirlari Turkistonga 1914-yil oktabridan keltirila boshlandi, 1913-yilda ularning kelishi faollashib 148 ming nafar kishiga yetdi. Iqtisodiy vaziyat yom'onlashuvni sababli 1915-yilning iyulidan boshlab asirlarning katta qismi O'rta Osiyodan olib ketildi. Turkiston o'lkasida harbiy asirlar

nisbatan erkin hayot kechirib, bir oz erkinroq harakat qilishlariga va hatto o'zlariga ish qidirib topishlariga ham yo'l qo'yildi.

Rossiyaning g'arbiy yerlarida ko'chirib keltirilgan qochoqlar o'lkada 1915-yil iyulidan paydo bo'la boshladi. 1915-yilning oxiriga kelib bu yerda kamida 72 ming kishi joylashtirildi. Ular orasida Polshadan ko'chirilgan 8-10 ming polyak va yahudiylar ham bor edi. Natijada, o'lka shaharlaridagi polyaklar soni ko'paydi. Masalan, statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, Samarcandda 1866 nafar, Kattaqo'rg'onda 15 nafar, Jizzaxda 16 nafar polyak va litvalik istiqomat qilar edi. Sirdaryo viloyatining Chernyayev uezdida 1916-yilda Grodnò, Xolmsk, Minsk, Loblinsk, Vilnensk guberniyalaridan kelgan 115 polyak qochoqlari bor edi. Bu yerga kelgan qochoqlar to'da-to'da bo'lib yashar edilar.

## **2. Sovetlar hukmronligi davrida ko'p millatlilikning shakllanishi.**

### **Sovet hokimiyatining millatlarga doir tuzilmalari va ularning dastlabki qadamlari**

1917-yil 26-oktabr (8-noyabr) kuni Petrogradda Sovetlarning II Butun Rossiya syezdida Xalq Komissarlari kengashi; ya'ni hukumat tuzildi. Kengash tarkibida Millatlar ishlari Xalq Komissarligi ta'sis etildi. Davlatning milliy siyosati tamoyillarini amalga oshirishi lozim bo'lgan bu mahkama ko'p millatli Rossiya davlatining butun tarixi davomida birinchi marotaba tuzilgan bo'lib, uning vazifasi milliy munosabatlar sohasidagi muammolarni hal qilishdan iborat edi. Millatlar ishlari Xalq Komissarligi faoliyatining tarixi shu paytgacha yetarli yoritilmaganligi sababli sovet hokimiyatining ana shu tuzilmasiga batafsiloq to'xtalib o'tamiz. Mazkur komissarlik hay'ati Milliy Komissarlar yig'ilishidan iborat edi. Hay'at majlisi haftasiga bir marotaba chaqirilar edi. Ushbu hay'at komissarlikning rus tilidagi matbuot organini nashr qilishi kerak edi, Komissarlik tarkibida umumiylar dekretlarni tayyorlash; tashviqot va targ'ibot; milliy komissarliklar bilan aloqa, chet ellar bilan aloqa; statistika bo'limlari; "Jizzn natsionalnostey" gazeta tahririyati ta'sis qilindi. "Milliy komissarliklar va Qizil armiya" masalasi yuzasidan qabul qilingan rezolyutsiyada shunday deyilgan edi: "Musulmon komissari bu masalani shoshilinch tarzda hal etish istagini bildirgani uchun bu masala ... o'rtoq Stalinning Musulmon komissarlari bilan b'irgalikda hal etishiga maxsus ravishda taqdim etiladi".

Millatlar ishlari komissarlik tuzilmasi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga muvofiq ravishda shakllantirilar va o'zgartirilib turilar edi.

Birinchi bosqichda Komissarlik g‘arb xalqlari va frontlardagi ahvol bilan shug‘ullanadi. Ichki va tashqi aksilinqilob (kontrrevolyutsiya)ga qarshi kurash sharoitida komissarliklar va bo‘limlar o‘z xodimlarini Qizil Armiyaga yordam berish uchun frontning turli joylariga yuborib turdilar.

Sovet hukumati millatlarning o‘z taqdirini o‘zi hal qilish huquqini e‘lon qilganligi sobiq rus imperiyasi tomonidan ezilgan xalqlar orasida ommaviy ko‘tarinkilikni keltirib chiqardi; butun mamlakat bo‘ylab milliy konferensiyalar va syezdlar o‘tkazildi, ularda ijtimoiy-siyosiy tuzilish dasturlarini muhokama qildilar. RSFSR hukumati millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash masalalarini hal etish uchun vakolatli delegatsiyalar sayladilar, milliy masalalar bo‘yicha Xalq Komissarligi Rossiya Federatsiyasining xalqlari uchun milliy davlatchilikni barpo etish sohasida ma’lum ishlarni olib bordi.

1918-1919-yillarda sovet hokimiyatining butun kuchi ichki va tashqi aksilinqilobga qaratilgan bir paytda, buyuk davlatchilik shovinizmi sarqitlaridan xalos bo‘lmagan ko‘pgina davlat arboblari milliy siyosatga mensimay qaradilar. 1919-yilning oxirida partiya va hukumat organlarida Millatlar ishlari Xalq Komissarligini tugatish to‘g‘risidagi masala rasmiy va norasmiy tarzda ko‘tarila boshladi. Ularning asosiy dalili – ayrim sohalarda Xalq Komissarligi davlat miqyosida xuddi shunday vazifalarni bajarayotgan boshqa muassasalar qilayotgan ish bilan shug‘ullanishida edi. Bir qancha Xalq Komissarliklari tuzilmasi qayta tashkil etilganidan keyin “Milliy masalalar bo‘yicha Xalq Komissarligini tugatish kerak” degan fikr ayniqsa mustahkamlandi. Natijada Millatlar ishlari Xalq Komissarligi millatlar orasida o‘tkazayotgan madaniy-ma’rifiy ishlar Maorif Xalq Komissarligiga, ijtimoiy-siyosiy ishlar esa RKP(b) Markaziy qo‘mitasi huzuridagi Milliy ozchiliklar bo‘limiga olib berildi. Millatlar ishlari Xalq Komissarligi rahbariyati va vakillari Yuqoridagi muassasalar milliy turmush muammolarining butun majmuasini qamrab olishga qodir emas, deb hisobladilar va o‘z mahkamalarining tugatilishiga qarshilik qilishga urindilar.

Millatlar ishlari Xalq Komissarligini tugatish to‘g‘risidagi takliflar g‘oyat qat’iyat bilan qo‘yilganligi sababli 1919-yil 12-dekabrda Komissarlik hay’ati o‘z mahkamasining bundan buyongi faoliyati naqadar maqsadga muvofiq ekanligi to‘g‘risidagi masalani muhokamaga qo‘ydi.

Butun Rossiya Markaziy ijroiya qo‘mitasi Milliy masalalar bo‘yicha Xalq Komissarligining holati haqida tegishli axborotni olgach, “Milliy

masalalar bo'yicha Xalq Komissarligini qayta tashkil etish to'g'risida" dekret qabul qildi.

Millatlar ishlari Xalq Komissarligi quyidagi asoslarda qayta tashkil etildi: RSFSR doirasidagi har bir millat komissarlikka mahalliy Kengashlardan yoki muxtor (avtonom) hukumat orqali rais va ikki a'zodan iborat vakillik ajratadi; vakilliklar tegishli bo'limlarga boshchilik qiladi, bu bo'limlarni o'z millati mehnatkashlarining ehtiyojiga muvofiq ravishda o'zgartiradi; milliy vakilliklarning raislaridan iborat bo'lgan Millatlar Kengashi Milliy masalalar bo'yicha Xalq Komissarligiga boshchilik qiladi. Kengashga komissar boshliq bo'ladi va uning huzurida besh kishilik hay'at tuziladi; Komissarlik xalqlarning o'zaro hamkorligini, ularning millat mansaflatlarini ta'minlaydigan tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Mazkur hujjatni rivojlantirish yuzasidan Milliy masalalar bo'yicha Xalq Komissarligining hay'ati 1920-yil 20-mayda qaror qabul qildi. Ushbu qarorga muvofiq o'zlarining muxtor hukumatlariga ega bo'lgan yoki uyushgan omma bo'lib yashaydigan millatlar uchun ilgari mavjud bo'lgan bo'limlar va komissarliklar o'miga 18 ta milliy bo'lim – boshqird, yahudiy, qaldoq, qirg'iz (qozoq), mari, nemets, tatar va boshqa bo'limlar tuzildi; RSFSR hududida o'zga milliy birliklar ichida ora-sira joylashgan millatlar (beloruslar, latishlar, polyaklar, finlar va boshqalar) uchun milliy ozchiliklar bo'limi tashkil etildi.

1920-yil iyun oyining boshlarida Milliy masalalar bo'yicha Xalq Komissarligi e'lon qilgan yo'riqnomada bunday deyilgan edi: Millatlar ishlari Xalq Komissarligiga vakilliklar saylash uchun milliy qurultoylar o'tkaziladi; milliy ozchiliklarning vakillari ijroqo'mlar huzuridagi tegishli milliy kichik bo'limlar orasidan saylanadi.

1920-yil 19-maydag'i Dekret aslida uning tashkiliy tuzilmasiga taalluqli edi. Bu hujjat Milliy masalalar bo'yicha Xalq Komissarligining davlat boshqaruvi tizimidagi, milliy davlat qurilishi sohasidagi mavqeini aslo mustahkamlagani yo'q, qonuniy vakolatlarga ega bo'lmagan, moliyaviy ahvoli zaif bo'lgan mazkur Xalq Komissarligi milliy muxtoriyatlarga taalluqli masalalarni hal etishda boshqa idoralarga jiddiy ta'sir o'tkaza olmas edi.

Millatlar kengashi Milliy masalalar bo'yicha Xalq Komissarligining qonun chiqaruvchi organi edi; unga Xalq Komissari va unga besh kishidan iborat hay'at boshchilik qilar edi.

Millatlar kengashi Butun Rossiya Markaziy Ijroiya qo'mitasiga va Xalq Komissarları kengashiga milliy muammolarga oid qonunlar va

dekretlarning loyihalarini; biror-bir millat bilan bog'liq bo'lgan masalalar yuzasidan rahbar organlarda ishlab chiqilgan yoki mavjud qonun hujjatlarini o'zgartirishga qaratilgan qarorlarining loyihalarini taqdim etar va ular o'z navbatida Millatlar kengashining majlislarida albatta ko'rib chiqilar edi. Kengash Respublikalar, viloyatlar yoki ayrim milliy ozchiliklar xususida komissarliklar tomonidan qilinadigan barcha harakatlar yuzasidan xulosalar berib turar, mintaqalarda milliy siyosatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan farmoyishlar o'zgartirilganligi yoki yangi farmoyishlar chiqarilganligi haqida Xalq Komissarliklariga ma'lumot berib turar edi.

Millatlar ishlari Xalq Komissarligining vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan: milliy siyosat masalalariga oid hujjatlarning loyihalarini ishlab chiqishi va Butun Rossiya Ijroqo'mi va Xalq Komissarları Kengashining tasdig'iga havola etidi; umumfederal qonunchiligini, shuningdek ayrim Xalq Komissarliklarining farmoyishlarini butun RSFSR hududidagi ayrim millatlar va milliy-hududiy tuzilmalarning ehtiyojlariga hamda ularning tur mush madaniyati va iqtisodiyoti xususiyatlariga moslashtirish choralarini ko'radi; markaziy idoralarda byudjet masalalari muhokama qilinayotganida muxtor Respublikalar va viloyatlarning manfaatlarni himoya qiladi; moliyalash smetalari bo'yicha xulosa beradi; umumfederal soliqlarni ishlab chiqishda qatnashib, muxtor Respublikalar va viloyatlarning manfaatlari hamda xo'jalik rivojlanishi bilan ularni muvofiqlashtirish maqsadida soliqlarning ayrim moddalari yuzasidan o'z xulosasini beradi, barcha muxtor Respublikalar va viloyatlarning vakilliklarini birlashtiradi, ularning Federatsiya markaziy idoralari bilan o'zaro hamijihatlikda ishlashiga ko'maklashadi, ularning umumiyl faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Millatlar ishlari Xalq Komissarligi milliy ozchiliklarning huquqlarini himoya qiladi, buning uchun Konstitutsiyaning dekretlar va qarorlarning alohida millatlarga taalluqli bo'lgan tegishli moddalari bajarilishini kuzatib boradi:

- muxtor Respublikalar markaziy ijroqo'mlari va Xalq Xo'jaligi Kengashlari, avtonom viloyatlarning ijroqo'mlari huzurida o'z vakolatlarini ochadi;
- ayrim millatlarning vakillari bilan muzokaralar olib boradi, yangi muxtor birliklar tuzish to'g'risida Butun Rossiya Markaziy Ijroqo'mi va Xalq xo'jaligi kengashiga takliflar kiritadi;
- millatlarning hayotiga taalluqli hujjatlarni to'playdi va o'rganadi;
- ularning tarixiga oid ilmiy ishlarni nashr etadi;

– ayrim millatlar va qabilalar hayotini o'rganish uchun maxsus ilmiy jamiyatlar tuzadi, rus bo'lмаган millatlar orasidan siyosiy va sovet idoralari uchun xodim kadrlar tayyorlash uchun maxsus institut va kurslar ochadi.

Turkiston, Boshqirdiston, Qirg'iziston (Qozog'iston) va Yakutiya muxtor respublikalari vakolatxonalarining huquq va vazifalari boshqa muxtor respublika va viloyatlar vakolatxonalarining huquq va vazifalaridan ancha keng bo'lганligini ta'kidlab o'tmoq kerak.

1918-yil 20-aprelida Toshkentda Turkiston o'lkasi sovetlarining V qurultoyi ochildi. Delegatlar RSFSR Xalq Komissarlari kengashining to'g'ri milliy siyosati uchun uni olqishladilar. Kun tartibida milliy davlatchilik, Ta'sis qurultoyini chaqiruvchi komissiyani tuzish, muxtoriyatning huquq doirasini, uning chegaralarini belgilash masalalari bor edi.

1918-yil 22-aprelda RSFSR Xalq Komissarlari Kengashining raisi delegatlarga telegramma yubordi. U RSFSR hukumati o'lkanning sovet negizlaridagi muxtoriyatini qo'llab-quvvatlashini ta'kidlab quyidagilarni yozgan edi: "Sizlardan Sovetlarning Ta'sis syezdini chaqirish uchun tuzayotgan komissiyangizni o'lka muxtor organining Xalq Komissarlari kengashiga munosabatini belgilab olish to'g'risidagi masalani birqalikda ishiab chiqish uchun bizning huzurimizga, Moskvaga yuborishingizni so'raymiz".

Qurultoy "Markaziy hukumat bilan o'zaro munosabatlarni belgilash" uchun besh kishilik Favqulodda komissiyani tuzdi. Turkiston Respublikasi Markaziy ijroqo'mining a'zosi Sobirjon Yusupov komissiya raisi etib tayinlandi.

RSFSR Millatlar ishlari Xalq Komissarligi hay'atining majlisida S.Yusupov Moskvada Turkiston ASSR vakolatxonasini ta'sis etishni taklif qildi. 1918-yil 6-sentyabrda hay'at, Rossiya federatsiyasining hukumati huzurida Turkistonning Markaziy vakolatxonasi ochilsin, uning zimmasiga "Turkiston manfaatlarini va Buxoro manfaatlarini himoya qilish vazifasi yuklatilsin", degan qarorni qabul qildi.

V.Troitskiy bilan S.Yusupov Millatlar ishlari Xalq Komissarligi hay'atining qarorini olib, ertasi kun – 1918-yil 7-sentyabrda Toshkentga quyidagi radiogrammani yo'lladilar: "Turkistonning manfaatlarini yagona himoya qilish va Turkistonning talablari salmog'ini oshirish hamda uning barcha muxtor vakillarini birlashtirish uchun Turkiston Xalq Komissarlari Kengashini tayinlash bilan Moskvada muxtor Turkistonning Markaziy vakolatxonasini darhol tuzish zarur deb

hisoblaymiz". Telegrammada vakolatxonani ikki bo'lim: siyosiy va iqtisodiy bo'limlardan iborat qilib tuzish, ularning rahbarlari etib Troitskiy va Yusupovni tasdiqlash taklif qilingan edi.

Turkiston ASSR vakolatxonasini ta'sis etish uchun Favqulodda komissiya quyidagi mas'ul shaxslarning, Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroqo'mi raisi P.A.Kobzev va Butun Rossiya Markaziy Ijroqo'mining raisi Ya.M.Sverdlovning roziligin oldi. Toshkentdan, Turkiston Markaziy Ijroqo'midan olingan radiogramma S.Yusupov va V.Troitskiyning vakolatlarini tasdiqlar edi.

Millatlar ishlari Xalq Komissarligida V.Troitskiy va S.Yusupov ishtirokida vakillik to'g'risida Nizom ishlab chiqildi. Unda quyidagi so'zlar bor edi: "RSFSR markaziy muassasalarining Turkiston bilan aloqa o'rnatishi va markaziy muassasalarining Turkiston va unga chegaradosh davlatlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarga oid faoliyatini kelishib olib borish maqsadida, Butun Rossiya Markaziy Ijroqo'mi huzurida Turkiston Respublikasining vakolatxonasi ta'sis etiladi". Chegaradosh davlatlar deganda Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Afg'aniston, Eron nazarda tutilgan edi.

Yuqorida hujjalardan ko'rish mumkinki, birinchi bosqichda Favqulodda Komissiya a'zolarida vakolatxonani RSFSR hukumati – Xalq Komissarlari Kengashi huzuridagi yoki Qonunchilik hokimiyatining oliv organi – Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi huzuridami – qayerda ta'sis etish haqida aniq tasavvur yo'q edi.

I.Stalinning so'roviga binoan S.Yusupov Millatlar ishlari Xalq Komissarligiga Respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanish istiqbollari to'g'risidagi tahliliy hujatlarni, muxtoriyat loyihasini, milliy masalalar bo'yicha komissarning ma'rzasini, aholining milliy va ijtimoiy tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar va hujatlarni taqdim etti.

Turkiston vakolatxonasining bevosita ishtirokida Respublikani iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim masalalari hal etildi. Natijada, 1918-yil 9-aprelda Turkistonda paxta xarid qilish uchun 500 mln. so'mdan ko'proq pul ajratish to'g'risidagi dekret, 17-mayda esa o'lkada sug'orish ishlari uchun 50 mln. sum pul sarflash haqidagi dekret imzolandi. Rejada Mirzacho'lda 500 ming desyatina, Dalvarzin dashtida 40 ming desyatina va Uchqo'rg'on dashtida 10 ming desyatina yerni sug'orish uchun irrigatsiya inshootlari qurish ko'zda tutilgan edi. O'sha yili dekabr oyida Turkistondagi irrigatsiya ishlari qanday borayotganligi to'g'risida V.Troitskiy bilan S.Yusupovning ma'rzasini tinglandi.

Mazkur davrda frontlar halqasi ichida qolgan Turkiston Respublikasida ham ochlik va qahatchilik hukm surar edi. O'z hukumatining topshirigiga binoan Troitskiy va Yusupov RSFSR Oziq-ovqat Xalq Komissarligidan yordam so'radi. O'sha yili yordam tariqasida Turkistonga 614 vagon don, bir necha vagon bir qator iste'mol mollari yuborildi. Respublikaning Markazdan olisda ekanligi munosabati bilan Toshkentda tuzilgan Turkiston oziq-ovqat mahkamasi (Turkprod) Turkiston vakolatxonasi ixtiyoriga topshirildi va u Moskvada ishlashga kirishdi.

1919-yil 9-fevralda S.Yusupov Butun Rossiya Markaziy Ijroqo'miga "Turkiston sanoati uchun talab qilinadigan materiallar yig'ma vedomosti"ni taqdim etdi. U 73 nomdagi sanoat buyumlari va ashuolari (temir, cho'yan, stanok va hokazo) ro'yxatidan iborat. Idoralararo kengash Respublikaga zarur asbob-uskuna va xomashyolarni ajratib berishga qaror qildi. Turkiston vakolatxonasining talabnomalariga binoan Respublika dori-darmon xarid qilish uchun 500 mln. so'm miqdorida kredit oldi.

Tinch qurilish davriga o'tilgach, Turkiston ASSRning Moskvadagi vakolatxonasining huquq va vazifalari birmuncha kengaydi. Shu munosabat bilan yangi hujjat – Turkiston ASSRning RSFSRdag'i vakolatxonasi to'g'risida Nizom ishlab chiqildi. Unda belgilanishicha, mazkur muassasa Turkiston Markaziy ijroqo'mi va Respublika Xalq xo'jaligi kengashining Butun Rossiya Markaziy ijroqo'mi va RSFSR Xalq Komissarlarli kengashi huzuridagi idora sifatida mavqeい belgilab qo'yildi.

Turkiston vakolatxonasi RSFSR Markaziy ijroqo'mi huzurida ta'sis etilgan va harakat qilgan bo'lsa-da, ammo madaniyat sohasidagi siyosat bilan bog'liq bo'lgan masalalarni, odatda, RSFSR Milliy masalalar bo'yicha Xalq Komissarligi oldiga qo'yar edi.

1920-yil 19-mayda Butun Rossiya Markaziy Ijroqo'mita Millatlar ishlari Xalq Komissarligini qayta tuzish to'g'risida qaror qabul qildi, shu qarorga binoan muxtor Respublikalarning vakolatxonalari mazkur komissarlik boshqaruviga o'tkazildi. Respublikalarda bu yangilik vakolatxonalarning maqomini pasaytirish deb tushunildi va ularni boshqa komissarlik qaramogiga o'tkazishni paysalga soldilar. Turkiston Respublikasining vakolatxonasi bilan ham shunday bo'ldi. 1920-yil 16-noyabrda milliy ishlar bo'yicha Xalq Komissarligi Butun Rossiya Markaziy Ijroqo'mi Prezidiumiga shunday axborot berafdi: "Milliy ishlar Xalq Komissarligi Turkiston Markaziy ijroqo'miga necha martalab

murojaat qilib Milliy ishlar Xalq Komissarligi huzurida Turkiston vakolatxonasini tashkil etish uchun o'zining muxtor vakilini yuborishni so'radi, ammo bunga javob berilmadi. Komissarlik Sizning nomingizdan Turkiston Markaziy Ijroqo'miga murojaat qilib o'z vakilini yuborishni so'raydi".

Toshkentda Milliy ishlar Xalq Komissarligining taklifi qo'llab-quvvatlandi. 1920-yil 5-dekabrda RKP(b) MK Turk byurosiga zolarining yopiq kengashida "TASSR bilan RSFSRning o'zaro munosabatlari to'g'risida"gi masala muhokama qilinib, quyidagi qaror qabul etildi: "Milliy ishlar Xalq Komissarligi huzurida Turkiston Respublikasining vakolatxonasini tashkil etish zarur deb topilsin... TASSR bilan Qirg'iziston Respublikasining muvaqqat vakolatxonasi zarurligi tasdiqlansin, buning uchun markazqa'mlar o'zaro delegatlar yuborishsin".

RSFSR Markaziy ijroqo'mi va Xalq Komissarlari kengashi qabul qiladigan qonunlar va me'yoriy hujjatlarni o'rganish, ularning Turkistondagi o'ziga xos xususiyatlarga muvofiqligini tahlil etish vakolatxona faoliyatining eng muhim sohasi qilib belgilandi. Markaziy mahkamalar tomonidan ruslashtirish yo'lida yangi urinishlar bo'l shidan xavfsirab vakolatxona xalqlarning madaniy va ma'naviy hayoti bilan bog'liq bo'lgan yangi qonunlarni g'oyat sinchiklab o'rganar edi.

1921-yilning bahorida Turkiston ASSR vakolatxonasi o'z rahbariyatidan turk tilshunosligi muammolarini ilmiy ishlab chiqishni tashkil etish, bu muhim ishga atoqli rus turkologlarini jaib qilish topshirig'ini oldi. 1921-yil 31-may kuni RSFSR Milliy ishlar Xalq Komissarligi hay'atiga xat kelib tushdi. Unda aytishicha, axolisining "adabiy tili hali to'la-to'kis ishlab chiqilmagan" muxtor Respublikaning juda muhim vazifasi "umumbashariy madaniyatga tezroq qo'shilish vositasi sifatida tub joy millatlarining tillarini ishlab chiqish" choralarini ko'rishdan iborat edi. Turkistonda buning uchun dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lib, markaz "kam madaniyatli millatlarning tillarini ishlab chiqishning qat'iy ilmiy usulini yaratishda" tilshunos, sharqshunos olimlarning yordamiga tayanib Turkiston ASSRning turkiy xalqlariga "yordam berish" lozimligini qayd etdi. Muxtoriyatlarining xalqiga ilmiy yordamni tashkil etish – RSFSR Millatlar ishlari Xalq Komissarligidan mutaxassilar ishtirokida komissarlik huzurida alohida organ tashkil etish uchun komissiya ta'sis etish so'raldi".

28-iyunda komissarlik hay'ati Turkiston Respublikasi vakolatxonasining raisi Kucherboyev va uning o'rinosi Buratov tayyorlagan "Tub joy xalqlarining tillarini ishlab chiqish to'g'risida"gi

tezislarini tinglab, asosan ma'qulladi. Broydo, Pavlovich, Kucherboevdan iborat komissiyaga uni qo'shimcha ravishda ko'rib chiqish vazifasi topshirildi.

Turkiston etnik guruhlari tillarini o'rganishga turkshunoslardan A.K.Borovkov, S.E.Malov, E.D.Polivanov, L.M.Icherbak va boshqa mutaxassislar jalb etildi. 20-yillarning o'ttalariga kelib turqshunoslikka oid yangi tadqiqotlar e'lon qilina boshlandi. Masalan, K.K.Yudaxinining "Qorabuloq shevasining ba'zi xususiyatlari" nomli kitobi bosilib chiqdi, unda o'zbek shevalari xarakterlab berildi. Qurama vobasining o'zbek lahjalari A.K.Borovkov tomonidan tadqiq etildi. V.V.Reshetov o'zbek adabiy tili va lahjalarini qiyosiy tarzda tahlil etdi. RSFSR hukumati 20-yillarning boshlarida Turkistondagi arxeologik yodgorliklarini ta'mirlashga pul ajrata boshladi. Turkiston Respublikasining vakolatxonasi shu maqsadlar uchun moliyaviy mablag' berilishini nazorat qilib turdi. Iqtisodiy qiyinchiliklar sababli 1923-yilda ta'mirlash ishlarini moliyalash "to'xtatildi". 1923-yil 26-yanvarda Turkiston vakolatxonasingning raisi Salko RSFSR Xalq Komissarlari kengashiga xat yozib Turkiston Respublikasining muxtor vakolatxonasini "Samarqand shahridagi qadimiy musulmon me'morchilik yodgorliklari Xalq Komissarlari kengashining diniy tusdagi binolarni ta'mirlashga mablag' ajratmaslik to'g'risida"gi 1921-yil 8-sentyabrdagi qarorga qaytganligini bilib haddan tashqari hayratga tushdi. Juda katta tarixiy va badiiy ahamiyatga ega bo'lgan bu yodgorliklar, shubhasiz, alohida muhofaza etilishi lozim, bu narsa Turkiston ASSR Xalq Komissarlari Kengashining 1921-yil 11-iyundagi qarorida yozib qo'yilgan...,- deya ta'kidlagan edi.

Shunday qilib 1920-yilning oxirida Turkiston vakolatxonasi RSFSR Millatlar ishlari Xalq Komissarligi huzurida ishlay boshladi. Shuni ta'kidlash lozimki, agar RSFSRning boshqa muxtor Respublikalari vakolatxonalari Millatlar ishlari Xalq Komissarligi vositachiligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etgan bo'lsalar, Turkiston vakolatxonasi tom ma'nodagi siyosat bilan shug'ullanmas edi; bu masalalar RKP (b) MK Turk byurosi, Butun Rossiya Markaziy Ijroqo'mi bilan RSFSR Xalq Komissarlari Kengashining Turk komissiyasi, so'ngra RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi tasarrufida edi, ular bevosita Turkistonda faoliyat yuritar edi.

Moskvadagi vakolatxona esa asosan ta'minot vazifalarini bajara'di. Rossiya Federatsiyasining Davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlarning dalolat berishicha, Turkiston vakolatxonasi faoliyatining asosiy

yo‘nalishi Turkiston ASSR uchun sanoat asbob-uskunalari, xomashyo va oziq- ovqat olish, ularni respublikaga jo‘natish maqsadida Xalq Komissarliklari bilan o‘zaro munosabat o‘rnatishdan iborat edi.

Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tuzilishi munosabati bilan RSFSR Millatlar ishlari Xalq Komissarligi tugatildi. 1923-yil 29-iyunda 10-chaqiriq Butun Rossiya Markaziy ijroqo‘mining 2- sessiyasi Millatlar ishlari Xalq Komissarligi o‘z vaqtida tugatilgan deb hisoblab, o‘z qarorida bu komissarlik ittifoqdosh va muxtor Respublikalar, muxtor viloyatlar tuzilishiga tayyorgartik ko‘rish va ularni Sovet Ittifoqiga birlashtirishdan iborat bo‘lgan o‘zining asosiy vazifasini bajarganligini ta‘kidladi. 1924-yil 9-aprelda Xalq Komissarligi o‘z faoliyatini to‘xtatdi.

Ijroiya hokimiyat organi bo‘lmish Millatlar ishlari Xalq Komissarligi davlatning milliy siyosatini amalga oshirishda yetakchi rol o‘ynadi, uning zimmasiga yuklatilgan tarixiy vazifa milliy davlat qurilishiga ko‘maklashishdan iborat edi.

Millatlar ishlari Xalq Komissarligi boshqa davlat va partiya tuzilmalari bilan bir qatorda milliy ziddiyatlarni bartaraf etishi lozim bo‘lgan mafkuraviy markaz bo‘ldi va shu bilan birga hududiy hamda iqtisodiy muammolar yuzasidan federatsiya subyektlari o‘rtasida kelib chiqqan nizolarni hal etishda hakam vazifasini ham o‘tadi. Shubhasiz, kam sonli xalqlar haq-huquqlarini himoya qilish va qaror toptirishda, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishda komissarlikning xizmati katta bo‘ldi.

Ma’lumki, Rossiyaning boshqa mintaqalari kabi Turkiston ham ko‘pmillatli o‘lka bo‘lib, unda tub joy millatlari bilan bir qator milliy ozchilikni tashkil etuvchi xalq va elatlari ham istiqomat qilar edilar.

Shuni ta‘kidlash e’tiborga molikki, 20-yillarga oid ba’zi hujjatlarda milliy ozchilikni tashkil etuvchi tub joy xalqlariga va Yevropa xalqlariga bo‘linar edi. Bu sohada chunonchi, ma’lum bir vaqtidan keyin bo‘lib o‘tgan voqelikni eslatib o‘tish mumkin bo‘ladi. O‘rtta Osiyoda milliy-davlat chegaralanish o‘tkazilgandan keyin O‘zbekiston SSR Sovetlari Markaziy ijroqo‘mi, Milliy ozchiliklar bo‘limining muvaqqat mudiri Kalonov tomonidan imzolangan va Samarqand shahar Komitetiga atalgan yo‘riqnomada shunday so‘zlar bor edi: “... Siz (chamasi, shahar komitetining raisi nazarda tutiladi) shuni yodda tutishingiz kerakki, milliy ozchiliklar ham tub joyliklar, yevropaliklarga bo‘linadi, O‘rtta Osiyo mahalliy yahudiylar tub joyli milliy ozchiliklar jumlasiga kiradi”.

Turkiston ASSR, shuningdek Buxoro va Xorazm respublikalarida turli-tuman xalq vakillari birgalikda yashab, ular orasida yirik etnoslar ham, kam sonli elatlar va milliy guruhlar ham bor edi. Sovet hokimiyatining millatlar o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va erkin rivojlanishi to‘g‘risida e‘lon qilgan shiorlari xalqlarning milliy o‘zligini tanish ongini oshirib yuborib, ularning ozodlikka erishish va bilim olish ishtiyoqini kuchaytirgan bir paytda, milliy ozchiliklarning o‘lka hokimiyati bilan ham, shuningdek yirik tub joy etnoslari bilan o‘zaro munosabatlari sohasida turli muammolar kelib chiqishi ham mumkin. Shu munosabat bilan oktabr to‘ntarishidan keyingi dastlabki yillardayoq Turkiston Millatlar ishlari Xalq Komissarligi va uning doirasida milliy ozchiliklar bo‘limi tuzilganligi ijobiy ahamiyatga ega bo‘lganligi Yuqorida ham ta‘kidlab o‘tildi.

Turkiston Millatlar ishlari Xalq Komissarligi va uning bo‘limlari milliy ozchilikning ahvolini muntazam o‘rganib bordi. CHiqadigan axborot ma’lumotnomalarida shu ishlar o‘z aksini tonib, u yoki bu kam sonli milliy guruhlar hayot faoliyatining turli sohalari yoritildi. Oktabr tuntarishidan keyinsh dastlabki yillarda va 20-yillarning boshlarida nashr etilgan “Jizn natsionalnostey” gazetasi bu ishda muhim rol o‘ynadi. Masalan, “Turkistonlik armanlar”, “Turkistonlik ukrainlar”, “Turkiston Respublikasida nemis axolisining axvoli sharxi” va shu kabi maqolalarda milliy ozchiliklarning hayoti va muammolari to‘g‘risida bir qator ma’lumotlar berildi. Mazkur maqolalarning mazmunidan etnik mayda millatlarning o‘ziga xos milliy muammolari haqidagina emas, ayni vaqtida ularning o‘lkadagi joylashish geografiyasi to‘g‘risida, ular qaysi yo‘llar bilan Turkistonga kelib qolganliklari haqida tasavvur olish mumkin edi. Masalan, ukrainlarning Turkiston o‘lkasiga ko‘chib kelishining asosiy sababi Ukraina axolisining zichligi va boshqa sabablarga ko‘ra kam erli dehqonlar qulay yerkarni qidirib bu yerga kelib qolganligidan iborat. Armanlarning bu yerda ko‘chib kelishi uchun turli sabablar tilga olinadi, shu sabablarning eng muhimlaridan biri savdo orqali boylik orttirishga intilish edi, ular orasida Qorabog‘, Zangizo‘r va Jibraidda yerlaridan mahrum bo‘lgan ko‘pgina kishilar, chayqov savdosidan o‘zlarining bevosita mashg‘ulotiga o‘tish uchun Turkistonga kelgan bir talay hunarmandlar bor edi. Usha yillarda e‘lon qilingan maqolalarda ayrim milliy ozchiliklarning bu yerga kelib qanday o‘rnashganliklari va ularning mashg‘ulotlari himoya qilinadi. Chunonchi armanlar dastavval Marv, Toshkent, Qo‘qon va Andijonda zich bo‘lib yashab, asosan savdo-sotiq bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, ukrainlar

Sirdaryo viloyatida, qisman Farg'onada joylashib g'allachilik bilan shug'ullanganlar, ukrain ishchilari esa Samarqand va Toshkentda makon topganlar.

Turkiston Millatlar ishlari komissarligining hujjatlarida nemis axolisi Toshkent va Marv uezdlarida joylashganligidan darak beradi. Nemislarning asosiy mashg'uloti g'allakorlik bo'lgan. Komissarlikning axborotida o'lkada yashovchi ba'zi oz sonli millatlar haqida tasavvur beradi. Chunonchi 20-yillarning boshlarida bu yerda 500 ming ukrain yashaganligi, ammo bu raqam unchalik aniq emasligi aytildi, armanlar 80-100 ming kishi, ocharchilik bo'lib turgan Volga bo'yidan ko'chib kelgan nemislар 635 ming kishi, polyaklar 4500 kishi, deb ko'rsatiladi.

Turkiston ASSR Maorif Xalq Komissarligi huzurida kam sonli millatlar ishlari Kengashi tuzilgan va uning faoliyati ham diqqatga sazovordir. Bu organ avvalo oz sonli millatlarning ma'naviy ehtiyojlarini o'rganish va bu ehtiyojlarni qondirish uchun amaliy harakatlar qilishi lozim edi. 20-yillarda uning tarkibida arman, eron-ozarbayjon, mahalliy yahudiy, ukrain, tatar-boshqird, nemis va yahudiy markaziy byurolari ishlar edi. Ular oz sonli millatlarning tillarida maktablar va ishchilar uchun uylar ochish va ularni o'quv adabiyoti va pedagog kadrlar bilan ta'minlash haqida g'amxo'rlik qilar edi. Bu byurolarning ishi qiyin sharoitda o'tar, ayniqsa fuqarolar urushidan keyin o'lkada hukmon bo'lgan xonavayronlik, zarur moddiy mablag'ning yo'qligi va turli xalk va elatlar o'rtasidagi muayyan keskinlik buning asosiy sabablarini tashkil etar edi. Ana shunday vaziyatda oz sonli millatlar kengashining Markaziy Byurolari milliy ozchiliklarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun muayyan ishlar olib bordi. Bu tuzilmalarning ish uslubi va mazmuni haqida 1923-yil yanvar-mart oylariga oid hisobotlarning qisqa satrlari yaqqol tasavvur beradi. Masalan, arman Markaziy byurosining faoliyati haqida shunday ma'lumot beriladi: "Ishchilar uyida 6 ta ma'ruza o'qildi, saltkam 30 ta konsert va kecha o'tkazildi, ulardan tushgan mablag' ishchilar uyi ixtiyoriga berildi va yo'qsil arman talabalariga tarqatildi. O'lkada 10 ta maktab bor, ularning ba'zilariga arman tilidagi darsliklar yuborildi".

Eron ozarbayjon Markaziy byurosi bo'yicha shunday xabar qilinadi: "O'lkada 10 ta maktab bor, ular mahalliy mablag' hisobiga ta'minlanadi, ularning bir qismini bahoiylar jamiyatni otaliqqa olgan. Maktablarning deyarli hammasida madaniyat xodimlari etishmaydi, ona tilida darslik va adabiyotlar yo'q".

Ukrain Markaziy byurosini haqida bunday deb yozilgan: “Joylar bilan aloqa yo‘qligi, mablag‘ etishmasligi va ukrainlarni bioror-bir markaz tevaragida birlashtirishning qiyinligi sababli mazkur millat orasida barcha madaniy-ma’rifiy tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyati yo‘q. Shuning oqibatida Ukrain Markaziy Byurosini deyarli nochor ahvolda qolgan”. Turkiston Millatlar ishlari Xalq Komissarligining Sovet hokimiyati dastlabki yillardagi hujjatlari olyi hokimiyat va boshqaruv idoralari mahalliy yahudiylar (Buxoro yahudiylari) kabi milliy guruhga alohida e’tibor bergenliklarini ko‘rsatadi. Rossiya imperiyasi davrida mahalliy yaxudiylar kamsitilgan ahvolda ekanliklari sababli hukumat idoralari millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va erkin milliy rivojlanish huquqi e’lon qilingan sharoitda mahalliy yahudiylarni o‘lkaning boshqa millatlari bilan teng bo‘lgan turmush va rivojlanish asosiga o‘tkazishga ko‘maklashuvchi choralarни qurishga majbur bo‘lganliklarini ko‘rish mumkin. Chunonchi, Yuqorida qayd etilgan Samarqand shahar Komitetiga yuborilgan xatda, jumladan, shunday ta’kidlangan edi: “O‘zbekiston SSR Sovetlarining Markaziy ijroiya komiteti Milliy ozchiliklar bo‘limi Sizga shuni ma’lum qiladiki, Buxoro yahudiylari yoki O‘rtta Osiyoning yahudiylari tub joy aholi bo‘lib, hukumat tomonidan O‘zbekiston SSRning asosiy millatiga beriladigan barcha imtiyozlar ularga ham joriy etiladi”.

Mahalliy yahudiylar uchun maktablar ochish, ularni o‘lkaning boshqa millatlari bilan teng ahvolga ko‘taradigan maxsus qarorlar qabul qilish bilan birga Respublikaning olyi idoralarida ularning manfaatlariga xizmat qiladigan maxsus tuzilmalarni tashkil etish chora-tadbirlari ham qurildi.

O‘zbekistonning milliy tarkibi xilma-xil bo‘lganligi sababli u yoki bu millatlar zich bo‘lib yashaydigan joylarni alohida milliy-ma’muriy birliklarga ajratish yo‘li keyingi davrida ham davom ettirildi. 1926-yilda o‘tkazilgan Butunittifoq aholi ro‘yxati ma’lumotlariga ko‘ra respublikada yashab turgan 5,3 million kishidan 3,5 millioni (yoki aholining 65%) o‘zbeklar bo‘lsa ular bilan bir qatorda 968 ming tojik, 247 ming rus, 107 ming qozoq, 91 ming qirg‘iz, 28 ming tatar, 28 ming arab, 27 ming qoraqalpoq, 26 ming turkman, 25 ming ukrain, 29 ming yahudi, 15 ming arman va boshqalar ham yashar edilar.

Tabiiyki ko‘pmillatlilik sharoitidagi O‘zbekiston, avvalo, millatlararo tinchlik va totuvlikni ta’minlanishi asosidagina to‘g‘ri rivojlanishi mumkin edi. Kam sonli millatlar g‘uj bo‘lib yashaydigan joylarda milliy tumanlar va milliy qishloq kengashlarini tuzish, ularni

tillaridan bernalot foydalanishni yo'lga qo'yish esa aynan shu maqsadga xizmat qilar edi. O'zbekiston SSRning milliy-davlat chegaralarishi davomida, Revolyusion qo'mita huzurida tuzilgan milliy ozchiliklar qo'mitasining vazifasi, boshqa ishlari bilan bir qatorda u yoki bu xalq axolisi ko'p va bir xil tarkibda bo'lgan tumanlarni alohida mintaqalarga ajratish va mazkur mintaqaning ko'pchilik axolisi ona tilida ish yuritishi to'g'risida O'zbekiston SSR Markaziy ijroqo'miga mulohazalar topshirishdan iborat edi. Respublika Sovetlarining 1925-yil fevralidagi Ta'sis qurultoyidan keyin bu qo'mitaning nomi o'zgartirilib, O'zbekiston SSR Sovetlari MIQ huzuridagi milliy ozchiliklar ishlari bo'yicha Markaziy komissiya deb atala boshlandi. 30-yillarning boshlarigacha partiya qo'mitalari huzurida ham milliy ozchilik kichik bo'limlari va seksiyalari mavjud edi. Ularning faol ishtiroki bilan 1925-1926-yillarda O'zbekistonda tumanlashtirish o'tkazilib, Yuqorida qayd etilganidek, kam sonli millatlarning 302 ta qishloq kengashi va 175 ta aralash kengashi tuzildi. Ular esa o'z navbatida respublikadagi barcha qishloq kengashlarining 3% tashkil qilar, bu esa respublika axolisi tarkibidagi kam sonli millat vakillarining ulushiga to'g'ri edi. Bundan tashqari 4 ta tojik, 4 ta qozoq, 1 ta turkman, 1 ta qirg'iz milliy tumanlari, shuningdek milliy ozchiliklarning ikkita boshqa tumanı, aralash tuman ham mavjud edi. Bular respublikadagi barcha tumanlarning 17% ko'prog'ini tashkil etar edi.

Shu yillarda milliy tumanlardan tashqari yuzlab milliy qishloq kengashlari ham tuzildi. Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, ularning soni jami 333 tagacha etgan. Ushbu yillarga oid partiya-hukumat hujjatlari ham kam sonli millatlar bilan ishslash masalasiga jiddiy e'tibor bilan qaralganligidan dalolat beradi. Masalan, O'zbekiston SSR Sovetlar Markaziy ijroqo'mining 1929-yil markaziy kengashlar, xo'jalik muassasalari, tashkilotlar hamda barcha okrug ijroiya qo'mitalariga yo'llagan farmoyishida kam sonli millatlar bilan ishslashdagi kamchiliklar oshib tashlandi "... joylarda shu vaqtga qadar milliy ozchiliklarga xizmat qilish sohasidagi ishga, - deb ta'kidlangan edi shu hujjatda, - Xalq Komissarliklari Markaziy Kengashlar va xo'jalik organlarining, joylardagi kengashlar va okrug ijroqo'mlarining kundalik ishi bilan uzviy bog'liq bo'limgan qandaydir bir ish deb qaralayotganligi kuzatilmogda. Kam sonli millatlarning iqtisodiy va madaniy saviyasini ko'tarish tadbirlari rejali ravishda olib borilmayapti, bunday rejalar mavjud bo'lgan joylarda esa, ular ayrim millatlarning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlari anik hisobga olmay tuzilgan,

milliy ozchiliklar o'rtasida ishlash yuzasidan Xalq Komissarliklari o'zlarining mahalliy organlari va ijroqo'mlarning bo'limlari topshiriqlarini qanday ijo etayotganliklarini tekshirishga berilayotgan e'tibor haddan tashqari sust darajada. Milliy ozchiliklarga xizmat ko'rsatish aksariyat hollarda hali ham rus tilida olib borilmoqda ... xalq maorifi idoralari kam sonli millatlarning tillaridagi o'quv qo'llanmalari va darsliklarni g'amlab qo'yish zarurlishga deyarli e'tibor bermayapti. Nihoyat, ayniqsa oz sonli millat axolisi bilan ishlaydigan organlarda milliy ozchilik xodimlarini sovet va xo'jalik apparatlaridagi rahbarlik ishiga ko'tarish mutlaqo yetarli emas“.

Qayd etilgan kamchiliklarni tugatish maqsadida Markaziy ijroqo'm bu ishlar sust olib borilayotgan joylarda kam sonli millatlarning xo'jalik-iqtisodiy ahvolini aniqlash va e'tiborga olishni taklif qildi. Respublikaning asosiy millat axolisi bilan bir darajada kam sonli millatlarning madaniy yuksakligini ta'minlash va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, shuningdek, mazkur millat mehnatkashlar ommasini sovet qurilishiga jalb etish bosh vazifa ekanligi ta'kidlangan.

Partiya va hukumatning ko'rsatmalariga binoan 20-yillarda milliy ozchilik vakillarini respublika hokimiyat va boshqaruvin idoralariga jalb etish sohasida ham ishlar olib borildi. Masalan, 1926-yilda respublika boshqaruvin apparata tarkibida ruslar 61,9%, o'zbeklar 24,7%, yahudiylar 6,0% va boshqa millat vakillari 7,4% ni tashkil qilgan.

O'zbekiston SSR apparatida ishlovchilarining miqdoriy nisbatida oz sonli millatlarning ko'pligi ko'rinish turibdi. Bu xol ko'p jihatdan respublika kechroq davrda tashkil etilganlish va tub joy millati vakillarini boshqaruvin apparatiga jalb qilish siyosati xali unchalik keng tus olmaganligi, tub joy aholining muayyan tarixiy sharoitlari bilan izohlanadi. 1931-yilda O'zbekiston qishloq Kengashlari tarkibiga saylangan kam sonli millatlar vakillaridan 27%ni va qishloq Kengashlari raislaridan 16% ayollar edi. Birok, yuqoridaqilardan O'zbekistonda kam sonli millatlarga nisbatan olib borilgan siyosat hech bir kiyinchiliksiz, sillik o'tgan degan tasavvurga borish xato bo'lar edi. 20-30-yillardagi hujjatlar tahlil etib ko'rilganida, ma'lum bo'lishicha turli millatlarning teng huquqlar bilan yonma-yon yashashi va rivojlanishini ta'minlash yo'lida jiddiy qiyinchiliklar ro'y berganini ham ko'rish mumkin edi. respublikada ko'pgina xalq va elatlarning birgalikda yashashi, hokimiyat va boshqaruvin idoralarining noyo'ya xatti-harakatlari natijasida ayrim ziddiyatlarni hal etish sohasida qarshiliklar ham bo'lib turdi.

1925-yilda O'zbekiston SSR KP(b) MK va Markaziy ijroqo'm Prezidiumining ko'rsatmasiga binoan uch viloyat – Toshkent-Farg'on va Samarqand viloyatlarining ruslar yashaydigan qo'rg'onlari (posyolkalari) tekshirib chiqilganida millatlararo munosabatlardagi ishlarning ahvoli unchalik yaxshi emasligi ma'lum bo'ldi. Bu viloyatlarda ruslar yashaydigan 70ta qo'rg'on borligi, boshqa viloyatlarda esa bunday qo'rg'onlar yo'qligi ma'lum bo'ldi.

Tekshirilgan tumanlarda rus axolisining muayyan qismida buyuk davlatchilik shovinizmi sarqitlari mavjudligi ravshan bo'ldi. Toshkent uezdining Lunacharskiy qo'rg'onida ruslar bilan tub joy aholi o'rtaida er-suv masalasidagi nizolar mavjudligi ochib tashlandi. Buning sababi shu ediki, imperiya zamonida bu yerga o'mashib olib, paxtazorlarda ishlash uchun dehqonlarni yollashga va ularga arzimagan pul to'lashga odatlanib qolgan rus dehqonlari, 1917-yil oktabrдан keyingi yillarda bunday imkoniyatdan mahrum bo'lganlar, chunki endi bu yerlar ularning mulki deb hisoblanmay qolgan edi.

Sovet hukmronligi davrining boshlarida O'zbekistonda yuz bergan millatlararo munosabatlarda nohush manzaralarni ko'zatish mumkin. Masalan, rus qo'rg'onlarini tekshirish asosida tuzilgan ma'lumotnomaning mazmuni millatlar orasidagi o'zaro keskinlik, hatto millatlararo mojarolar sabablari, bir tomonidan, ayrim qo'rg'onlardagi rus axolisi ongida shovinizm unsurlari saklanib kolganligi va jabrdiyda mahalliy dehqonlar bunga javoban millatchilik harakatlari kilganliklaridan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy sovet ma'murlarining bu borada haddan oshib, xato yo'l tutganliklaridan iboratdir. Bu nizolarga shubhasisiz, nafaqat milliy ehtiroslar, balki ijtimoiy ziddiyatlar ham asos bo'lgan. Avvalo NEP (yangi iqtisodiy siyosat) yillarda jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalashuvning kuchayishi, ijtimoiy tengsizlik holatini keltirib chiqqangan edi. Milliy munosabatlarda o'tmishdan qolgan g'oyaviy-ruhiy sarqitlar, rivojlanish yo'lida paydo bo'lgan muammolar ham ahvolni mushqo'llashtirar edi. Bunday ahvolni tezroq va samaraliroq bartaraf etish kun tartibida turgan asosiy masalalardan edi.

20-30- yillarda kam sonli millatlarning vaqtı-vaqtı bilan o'tkazib turilgan respublika kengashlari millatlararo munosabatlardagi muammolarni aniqlashning eng maqbul shakli bo'lgan. Bunday kengashlarda katnashgan vakillar o'z xalqlaridagi dolzarb masalalar haqida gapirib, ularni hal qilish yo'llarini taklif qilishlari ham mumkin edi. O'zbekistonda bir qator, jumladan 1928, 1932 va 1935-yillarda

shunday kengashlar chaqirilgan. Ularning hujjatlarida turli xalq va elatlarning teng huquqli yashashi va faoliyat yuritishi sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar ham, usha yillarda mavjud bo'lgan jiddiy muammo va ziddiyatlar ham aks etar edi. Bu borada quyidagi misolni keltirish mumkin 1932-yil fevralida o'tkazilgan kam sonli millatlarning 2-respublika kengashida raislik qiluvchi jumladan, shunday degan edi: "... vaqtimiz juda cheklangan, shu sababli kengashimizni ertaroq tugatishimiz kerak. So'zga chiquvechilarining ikki tilda (chamasi, o'zbek va rus tillari nazarda tutilgan) gapirishlari taklif qilinadi. O'z tilida gapirishni istovchi o'rtoqlar bo'lsa, ona tilida gapirishlari mumkin". Bundan shuni ko'rish mumkinki, milliy ozchilik vakillari ma'lum tadbirdorda o'z ona tillaridan bevosita foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Kengash O'zbekistonda elliktaga yakin millat va xalq vakillari borligini qayd etdi. Oliy o'quv yurtlariga o'qishga qirgan 15205 nafar kishidan 1590 nafari milliy ozchiliklarning vakillari ekanligi, bu esa jami 10% tashkil etishi kengashda alohida qayd etildi. Bu raqam mazkur millat vakillarining soniga to'la-to'kis teng keladi, degan xulosa chiqarildi.

Milliy siyosat bobida ma'lum ijobiy o'zgarishlar qayd etish bilan birga, kengash butun sobiq Sovet Ittifoqi miqyosida targ'ib etib kelinayotgan barcha millat, elat va milliy ozchiliklarning teng huquqliligi va erkin rivojlanishi mafkurasiga zid bo'lgan tashvishli holatlarni ham ochib tashladi. Makeevning tuman ijqroq'mlari va shahar Kengashlarining kam sonli millatlar orasida ishlash sohasidagi vazifalariga bag'ishlangan ma'rzasida mazkur millat vakillarini boshqarish idoralari va sanoatga jalb etish yo'llidagi to'siqlar borligi ko'rsatildi. Notiq biron aniq odamning nomini tilga olmagan holda, bunday holat uchun boshqaruv apparatga va sanoatga faqat tub joy axolisini (ya'ni o'zbeklarni) tortishni talab qilayotgan ayrim partiya va sovet xodimlari aybdor ekanini aytdi. "...Aytaylik, eroni, mahalliy yahudiy, uyg'ur va boshqalar ish so'rab kelsa, – deya ta'kidlagan edi Makeev, – ular, sen o'zbek ermassan, bizga o'zbeklar kerak, deydilar. Ular idoralarga tub joy vakillari jalb etilmoqda, deb aytadilar, shtatlar kiskartirilganida uyalmay-netmay mayda millat vakillarini ishdan bo'shatadilar, biz tub joy axolisi vakillarini emas, boshqa millatdoshlarni bushatyapmiz, deb o'zlarini oqlaydilar". Ma'ruzachi bunday nuqtai nazarning manbalarini ochishga intilib, milliy siyosatning mohiyatini bunday tushunmaslikni faqatgina shunchaki tushunmovchilik deb talqin.

qilib bo'lmaslikni ta'kidlaydi. Bunday tushunmovchilikdan tashqari u mahalliy yahudiylarga dushmanlik munosabatida namoyon bo'ladigan pinxona aksilinqilobiy harakat, boshqa xalqlarga nisbatan buyuk davlatchilik shovinizmi va mahalliy millatchilik hollari borligini uqtiradi.

Eron tumani vakili Adirbekovning nutqida ham millatlararo munosabatlar rivojidagi salbiy jihatlardan darak beruvchi ma'lumot aytildi. "Bizning tumanimizda o'zbeklashtirish boshlangandan keyin barcha millatlar g'aroyib tarzda yo'qolib, hamma o'zbek bo'lib qoldi, – deydi u, – tojiklar xam, eroniylar ham o'zbekka aylandi va hokazo. Statistikada ajabtovur holat ro'y berdi. Bu ne gap, tojiklar qayoqqa ketdi, eroniylar qayoqqa g'oyib bo'ldi? Tekshirib ko'rilmaga ularning hammasi o'zbek bo'lib qolganligi aniqlandi.

Endi shunday holat kuzatilmoqda. Tojik tilida dars berila boshlasa, o'zlarini tojik deb e'lon qiladilar, o'zbeklashtirish boshlansa, eronlar o'zlarini o'zbek deb ataydilar va ularga o'zbek tilida dars o'tiladi. Darslar tojik tiliga o'tkazilganda ular qynalishadi, albatta. Bu yil qarasam, ularga yangi kitoblar paydo bo'libdi, eron yoki ozarbayjon tiliga o'tishibdi. Shunday qilib, ularda dars berish tili uch marta o'zgaribdi. Bu esa o'qish sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Bunga barham berish kerak".

Yuqorida ta'kidlangan ushbu misollar millatlararo munosabatlardagi nuqsonlardan darak berar edi. CHamasi, usha yillarda avj oldirilgan mahalliylashtirish siyosatini ayrim partiya va sovet xodimlari o'zbek millatiga ustunlik berish yo'li deb tushunganlar. Ular sovet idoralaridagi hamma lavozimlarni faqat o'zbeklar egallashi, maktablarda faqat o'zbek tilida dars berilishi kerak, deb bilganlar. Mazkur davrda partiya xodimlaridan biri Tojiyev tomonidan nashr etilgan kitobda, mahalliylashtirish siyosati xuddi shunday talqin etilganini ko'ramiz. U respublika hayotida o'zbek tilining ahamiyatiga to'xtalib, bunday deb yozgan edi: "Modomiki O'zbekiston sharoitida o'zbek tili davlat tili ekan, modomiki, respublikaning iqtisodiy va siyosiy hayoti o'zbek tilida ro'y berar ekan, bu til kam sonli millatlarning barcha maktablarida majburiy bo'lishi kerakligi ravshan".

20-30-yillarda o'tkazilgan mahalliylashtirish siyosati, aslida to'g'ri siyosat bo'lib, milliy chekka o'lkalarining o'tmishtdagi qoloqligini tugatishni ittifоqdosh respublikalardagi asosiy tub joy millatlarning tilini har tomonlama rivojlantirish mahalliy ishchilar sinfi va ziyyolilarni shakllantirishga ko'maklashishi kerak edi. Ammo, bu siyosat ba'zan oqilonalik doirasidan chiqib, kam sonli millatlar muayyan qismining

huquqlarini poymol qilishga aylanib ketganligi yuqoridagi misollardan ko'rinish turibdi. Shuni ta'kidlash lozimki, sobiq Soviet davlatining ruslashtirish siyosati va jamiyat turmushining barcha sohalarida boshqa xalq va elatlarning ham huquqlarining kamsitilishi, bir qator salbiy oqibatlarga olib keldi.

O'zbekiston Sovetlari Markaziy Ijroqo'mining 1934-yil fevralda bo'lib o'tgan 4-chaqiriq to'rtinchi sessiyasida Respublikaning ba'zi tumanlarida milliy ozchiliklar bilan ishlashdash ahvol unchalik yaxshi emasligi ayon bo'ldi. Sessiyada milliy ozchiliklarga xizmat ko'rsatish masalalari yuzasidan so'zga chiqqan Yuabov bir qator tuman ijroqo'mlari va shahar Kengashlari, shu jumladan Toshkent va Buxoro shahar Kengashlari kam sonli elat va xalqlarning manfaatlarini pisand qilmayotganliklari haqida gapirdi. Ish yuritish va maorif sohasida bu xalqlarning tillaridan foydalanish borasidagi ishlar qoniqarsiz tarzda ekanligi to'g'risida mulohazalar bildirildi. Masalan, Nurota tumanida aholining ko'pchiligi tojiklar bo'lishiga qaramay, maktablarda o'zbek tilida dars olib borilgan, o'qituvchilar o'zbek tilidagi darslikni tojik tiliga tarjima qilish yo'li bilan o'quvchilarga ta'lrim berar edi.

Rossiyadagi Fevral inqilobi va ayniqsa Oktabr to'ntarishi mintaqada taraqqiyotning tabiiy-tarixiy jarayonini tubdan o'zgartirdi. 1917-yil Oktabr to'ntarishining va shundan keyingi davrlarning ijtimoiy agrartuntarları natijasida ijtimoiy munosabatlar haddan tashqari keskinlashganligi, Turkiston o'lkasida, shu jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmay qolmadı.

Urush harakatlari, yuqumli kasalliklarning tarqalishi, iqtisodiy vayrongarchilik, ko'pgina qonlarning va ishlab chiqarish korxonalarining yopilib qolganligi, 1917-1918-yillardagi dahshatli hosilsizlik natijasida ko'pgina xo'jaliklar xonavayron bo'lganligi aholi orasida o'limni ko'paytirib, tug'ilish darajasini kamaytirdi. Aholining umumiyl soni kamayib ketdi. Farg'onan viloyatining o'zidagina qishloq axolisi salkam 25% ga kamaydi.

1920-yilda Turkiston ASSRda 5.221963 kishi yashab, shundan o'zbeklar 2.050755 kishi yoki 39,3%ni qozoqlar, 1.091925 kishi yoki 20,8%, qirg'izlar 522292 kishi yoki 10,0%, tojiklar 399912 kishi yoki 7,7%, turkmanlar 266681 kishi yoki 5,1%, qoraqalpoqlar 75334 kishi yoki 1,4%, ruslar 536671 kishi yoki 10,3% tashkil kilar edi.

1918-1922-yillardagi fuqarolar urushi munosabati bilan demografik vaziyat jiddiy ravishda o'zgardi. Migratsiya jarayonlari kuchaydi, tub joy

bo‘lmaqning o‘lkadan ko‘chib ketishi o‘sdi. Biroq, baribir kelgan aholi ma’lum foizni tashkil qilgan, uning eng ko‘p qismini hamon sharqiy slavyanlar tashkil qilar edi. Ularning soni jihatidan Samarqand viloyati birinchi, Sirdaryo viloyati ikkinchi o‘rinda turar edi. Mazkur hududlar milliy tarkibi quyidagicha edi. Sirdaryo viloyatida jami aholining 8,0% ruslar, 4,7% ukrainlar, 0,2% beloruslar; Farg‘ona viloyatida 3,2% ruslar, 2,2% ukrainlar; Samarqand viloyatida 0,5% ruslar, 0,1 % ukrainlar tashkil etgan.

Shunday qilib, ruslar sharqiy slavyan diasporasida ko‘pchilikni tashkil kilar, ukrainlar undan keyingi o‘rinda turib, beloruslar soni esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Nisbatan qisqa tarixiy muddatda Turkiston o‘lkasi hududida sharqiy slavyanlarning kuchli diasporasi vujudga keldi.

1921-yil bahoridan kelgindi aholining ko‘chib ketishi o‘rnini Rossiyaning ocharchilik avj olgan viloyatlaridan aholining ko‘chib kelishi egalladi. Ular Turkiston yerlariga tezlik bilan o‘rnashib ola boshladilar. Sovet hokimiyati tomonidan mazkur aholini avvalo “Sirdaryo va Samarqand viloyatlarining dehqon axolisi orasiga” joylashtirish tavsiya etildi.

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligidan sovet mustamlakachiligining farqi shundan iborat ediki, u xalqlar do’stligi, tenglik va qardoshlik, insonparvarlik va ijtimoiy adolat shiorlarini e’lon qiluvchi yangi mafkura asosida kurilgan edi. O‘z navbatda bu shiorlar, bag‘rikenglik va mehrmondo’st tub joy axolisining ruhi va mentalitetiga mutlaq mos tushar edi. Shu bois Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq turli xalqlarni O‘zbekistonga deyarli bemalol ko‘chirish siyosati boshlangan edi.

20-yillarning boshlariда hozirgi O‘zbekiston hududi Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR), Buxoro Xalq Sovet Sotsialistik Respublikasi (BXSSR) va Xorazm Xalq Sovet Sotsialistik Respublikasi (XXSSR) o‘rtasida taqsimlangan edi. Jami o‘zbeklarning 66,5% TASSRda, 22,2% BXSSRda, 11,3% XXSSRda yashar edi.

O‘zbeklar TASSR axolisining 51,4%, BXSSR axolisining 50,1% va XXSSR axolisining 61,0%ini tashkil qilar edi. O‘rta Osiyodagi 1924-yilgi milliy davlat chegaralanishidan keyin, mintaqaga hududida Turkmaniston SSR, O‘zbekiston SSR, O‘zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR, Rossiya Federatsiyasi tarkibida Qoraqirg‘iziston avtonom viloyati, Qozog‘iston ASSR tarkibida Qoraqalpog‘iston avtonom viloyati tashkil etildi.

O'sha paytda sobiq Rossiya imperiyasi hududida yashab turgan barcha o'zbeklarning 82% O'zbekiston tarkibiga, barcha tojiklarning 75,2% Tojikiston tarkibiga kiritildi. CHegaralarni o'tkazishda yo'l qo'yilgan xatolar sababli yangi respublikalar hududida etnik guruhlar ko'payganligini ta'kidlab o'tmoq kerak.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Mustamlaka davrida ko'chirish siyosatining bosqichlari qaysi yillarni o'z ichiga kamrab oladi va har bir bosqichi nima bilan xarakterlanadi?
2. Sovet davrida O'zbekistonga boshqa millat vakillari ko'chib kelinishi sabablarini tushuntirib bering.
3. Mahalliy millatlar – bu qaysi millatlar?
4. Mennoniyalar kim va qayerdan ko'chib kelgan?
5. Sharqiy slavyan diasporasi qachon tashkil topgan?
6. Milliy masalalar bo'yicha Xalq Komissarligi o'z oldiga qanday maqsadlar qo'ygan?
7. Turkiston Millatlar qo'mitasi faoliyati haqida nima bilasiz?
8. 1897-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatga olishning natijalari va ahamiyatini ochib bering.

### **Kalit so'zlar:**

Mustamlakachilik siyosati, ko'chirish siyosati, ko'chirish siyosatining bosqichlari, metropoliya, ocharchilik, shahar axolisi, rus axolisi, mahalliy aholi, slavyanlar, millatlar ishlari Xalq Komissarligi, Turkkomnats, kamsonli millatlar, kadrlar siyosati, markazlashtirish, diaspora.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Murtazayeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlari va bag'rikenglik (oliy o'quv yurtlari magistrleri uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Universitet, 2007. – 57-123 B.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 56, 4 b.t.
2. Isxokov F.B. Natsionalnaya politika sarizma v Turkestane (1867-1917 gg.). – Tashkent, 1997.

3. Chebotaryova V.G. Narkomnats RSFSR: svet i teni natsionalnoy politiki. 1917-1924 gg.- Moskva, 2003.
4. G'afforov Sh. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Botirova B.N. O'zbekistonda o'tqazilgan sovetlarning aholini ko'chirish siyosati (1926-1941-y.). Avtoref.tarix fan nomz. – Toshkent, 2010.
6. Saipova K.D. Istorya Narodnogo Komissariata po natsionalnym delam TASSR (1918-1924 gg.). Avtoref. kand.ist.nauk. – Toshkent, 2011.
7. Xaynazarov B. O'zbekistondagi uyg'urlar diasporasi tarixi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011. – 84 b.
8. Xan V.S. Kore saram: kto мы? (ocherki istorii koreysev). – Bishkek: NS "Arxiv", 2009. – 208 s.
9. Xan V.S. Diaspornye sredy. Po materialam g.Tashkenta. etnosotsiologicheskie issledovaniya 2000-2012 gg. – Tashkent: Tafakkur, 2013. – 88 s.
10. Kim P. Koreysы Respublikи Uzbekistan (istoriya i sovremennost). – Tashkent: Uzbekistan, 1993. – 176 s.
11. Ashirov A., Atadjanov SH. Etnologiya (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2007. – 276 b.
12. Ten V.S. Formirovanie, razvitiye i transformatsiya etnokulturnoy identichnosti koreysev Uzbekistana. Diss...kand.ist.nauk. – Tashkent, 2011.
13. Zunnunov G.SH. Tadjiki. – Tashkent, 2011.
14. Ataxanov SH. Sыgane Ferganskoy doliny (istoriko-etnologicheskoe issledovanie). Avtoref. Diss.k.i.n. – Tashkent, 2005.
15. Nazarov R., Aliyeva V.R., Yunusova D.M. Kazaxskaya diaspora Uzbekistana: istoriya i sovremennost // Poisk. Seriya gumanitarnykh nauk. – Almaty, 2006. – №3.- S.122-127.
16. Azerbaydjanskaya diaspora Uzbekistana i ee rol v razvitiyi azerbaydjano-uzbekskix otnosheniy // Problemy iskusstva i kultury. – Baku, 2011. – №2 (36). – S.105-118.
17. Etnicheskie diasporы kak faktor razvitiya etnopoliticaleskix i mejgosudarstvennyx otnosheniy // Evro Aziya. Rossiya-Uzbekistan: istoriya i sovremennost. Chast 3, noyabr 2008 (№6). –M.: IEARAN, 2009. – S.381-387.
18. Mendikulova G.M. Istoricheskie sudby kazaxskoy diasporы. Proisxojdenie i razvitiye. – Almaty: Gыlym, 1997.

19. Amitin-SHapiro, Ayubov I.M. Natsionalnye menshinstva Uzbekistana (ocherki sotsialisticheskogo stroitelstva). – Tashkent, 1935.
20. Kabirov M.N. Ocherki istorii uygurov. – Alma-Ata, 1975.
21. Etnicheskiy atlas Uzbekistana. – Tashkent, 2002.
22. Valixanova G. Farg'ona vodiysi uyg'urlari: turmush tarzi va madaniyati. – Toshkent: Yangi nashr, 2013. – 176 b.
23. Inoyatova D.M. Vekovye traditsii druzy i tolerantnosti uzbekskogo i nemetskogo narodov. – Toshkent: Uzbekistan, 2019.
24. Inoyatova D.M. Nemetskaya diaspora Uzbekistana: vexti istorii. – Toshkent: Turon iqbol, 2019.

## **8-mavzu. MILLIY MASALAGA OID SOVET NAZARIYASI VA AMALIYOTI. SOVET MILLIY NAZARIYASI VA AMALIYOTINING ASL MOHIYATI VA UNING O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILISHI.**

### **Reja**

1. Sovet milliy siyosat nazariyasining hayotdan ajralganligi.
2. Milliy kadrlar masalasi.

#### **1. Sovet milliy siyosat nazariyasining hayotdan ajralganligi**

Sobiq sovet davlati 70 yildan ortiq hukmronlik qilgan tuzumining tor sinfiy yo'nalishga asoslangan milliy siyosati mamlakatda istiqomat qilgan turli millat vakillari bo'lgan xalqlarni o'z milliy haq-huquqlaridan mahrum qilgani holda "leninchaadolatli milliy siyosat"ni targ'ib etib, "millatlarning qo'shilib ketishi" natijasida shakllanadigan "yagona sovet xalqi" haqidagi g'ayriimliy qoidalar negizida ish yuritib kelgan edi.

Madaniy merosni o'rganish baxonasi bilan tarixni soxtalashtirish orqali Respublikalar o'rtasidagi munosabatlarning chuchurlashishi va ularning birlashib mustaqil davlat bo'lishga intilishini to'sishga harakat qilingani holda milliy o'zlikni anglash va mustaqillik uchun kurashi zarur bo'lgan tugma ehtiyojlarning uyg'onishiga yo'l qo'yilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida ta'kidlab o'tganidek: "markaz ittifoqdosh Respublikalar va milliy chekka o'lkalarda o'z e'tiqodiga ko'ra ilg'or va o'z xalqiga sadoqatli bo'lgan kishilarni "millatchilik"da ayblab, qatag'on qilish siyosatini olib borgan. Mazkur siyosat majbur "baynalmilallashtirish" orqali xalqlarning milliy xususiyatlarini inqor qilish hamda o'zining imperiyacha manfaatlariga mos tushurilgan "ko'pmillatli" birlikning vujudga kelish jarayonini jadallashtirish maqsadiga xizmat qilgan edi. "Xalqlar va millatlarni yaqinlashtirishdan iborat bunday sun'iy jarayon jamiyatdagi "millatchilik" deb atalgan bo'lgan yashirin va oshkor qarshilik ko'rsatish hollariga olib kelgan edi. Bu harakatlarning barchasi sovet tuzumining "yagona madaniyat" barpo etish niqobi ostida imperiya axolisini ruslashtirishning bir ko'rinishi bo'lgan. Aslida, sovet davlatida millatlararo munosabatlar hal etilgan emas, "balki yanada kuchayib ketayotgan" hamda keskin tus olayotgan edi.

Sobiq ittifoq parchalanishi bilan bolsheviklar milliy siyosati masalasidagi tortishuvlar yanada avj oldi. Sobiq ittifoqda yashagan 200 ortiq etnik birliklarning rivojlanish darajasidagi farqning ulkanligi, milliy

muammolarga diqqat bilan e'tibor berishni, ilmiy asoslangan milliy siyosatni ishlab chiqishni talab etar edi.

Hech bir siyosiy partiya o'z dasturini ishlab chiqqa turib, bu masalani e'tibordan chetda qoldira olmas edi. Shunga ko'ra, ko'plab partiyalar "milliy partiya" sifatida tuzilib, asosiy maqsadi etib "o'z millati"ning manfaatlarini himoya qilish, deya e'lom qilishgan. Lekin har bir partiya milliy masalani hal qilishda o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy tabaqaning manfaatlariga mos keluvchi yo'lni tanlagan.

Bolsheviklarga to'xtaladigan bo'lsak, Lenin o'z vaqtida milliy siyosat yo'nalishlarini belgilab bergen edi. Unga ko'ra, sovet hukumati milliy respublikalarni mustabid tuzum iskanjasida mustahkam ushlab turishi uchun, eng avvalo, "sotsializm" niqobiga o'rallgan yangi mustamlakachilik siyosatining mohiyatini yashirishi, uning oshkor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi zarur edi. Buning uchun bolsheviklar partiyasi milliy siyosatni har bir tarixiy bosqichda, har bir vaziyatda sharoitdan va asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda uning yo'nalishini, maqsadini va mohiyatini o'zgartirib bordi.

Oktabr tuntarishi arafasida bolsheviklar demokratiyaning umuminsoniy tamoyillaridan biri bo'l mish-millatlarning "o'z taqdirini o'zi belgilash" huquqini e'lom qilgan edilar. Biroq, Turkiston Muxtoriyatining qurolli yo'l bilan tor-mor etilishi, Qo'qon axolisining ommaviy qirgin qilinishi bolsheviklarning asl maqsad-mohiyatlarini ochib tashladi. Ularning mahalliy xalqlar milliy davlatchiligiga tish-tirnog'i bilan qarshi ekanligini ochiq-oydin ko'rsatdi. Umuman olganda, "millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi"- bolsheviklar milliy dasturining eng asosiy talablaridan biri bo'lsa-da, bu talab amalda ro'yobga chiqarilmadi. 20-30 yillarda o'z taqdirini o'zi belgilash konsepsiysi ham shuningdek, bu huquqni ta'minlash amaliyoti kabi o'z mazmunini butunlay o'zgartirdi va amalgalashmaydigan shiorga aylandi. O'zbek xalqining o'z taqdirini o'zi belgilashga, suverenitetga, o'zini o'zi boshqarishga bo'lgan huquqi O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tuzish va uning umumittifoq hokimiyat organlarida konstitutsiyaviy tarzda vakil bo'lib qatnashuvidan iborat hujjatda namoyon bo'lishi bilan chegaralandi, xolos. O'zbek xalqining amaldagi siyosiy tengligi ana shu bilan nihoyasiga etdi.

Bolsheviklar mintaqada hukmonrikni o'rnatish, mustahkamlab borish uchun siyosatning boshqa yo'llarini ham ishlatishg'a kirishdiilar. Bu mahalliy aholining ko'pchilik qatlamlarini ijtimoiy-siyosiy hayot maydoniga yo'latmaslik, ular o'rtasida adovatni keltirib chiqarish va shu

kabilar edi. Shundan keyingi davrda ham rasmiy hujjatlarda “millatlarning teng huquqliligi”, “erkin milliy rivojlanish” zarurligi to‘g‘risida gapirib o‘tilgan. Biroq, real hayotda ko‘p narsalarni va da qilgan bayonotlarga qarama-qarshi o‘laroq, oktabrdan keyingi dastlabki kunlardan boshlab sovet davlati ulkan kommunistik imperiya sifatida tashkil topdi.

U millatlar va etatlarni ezish, ularni qiyofasiz yangi tuzilma bo‘lgan sovet xalqiga sun’iy ravishda birlashtirish siyosatini olib bordi. Bu, ayniqsa, totalitar tizimning yuzaga kelishi va Stalin shaxsiga sig‘inishning shakllanish davrida yaqqol namoyon bo‘ldi. Respublikalar suverenitetining yo‘q qilinishi va markaz tomonidan ularning ichki ishlariiga betartib aralashuvi, amalda SSSRning federativ davlatdan unitar davlatga aylanayotganligini bildirar edi.

SSSR Konstitutsiyasida milliy tillarda ta’lim olish hamda milliy madaniyatlarni rivojlantirish uchun sharoit yaratish, o‘zlikni saqlab qolish bilan bog‘liq bo‘lgan, umume’tirof etilgan qoidalar o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, aslida u deklaratсиya tarzida e’lon qilingan va faqat qog‘ozdagina qolib ketgan edi. Amaliyot esa “millatlarning yaqin kelajakda qo‘silib ketishi” hamda “yagona sovet xalqi“ning shakllanishi haqidagi nazariyaga bo‘ysundirilgan edi. Ana shu g‘oya ta’siri ostida milliy til va milliy madaniyatlarga bepisandlik bilan qarash hukmronlik qilgami holda milliy manfaatlarni himoya qilgan ilg‘or fikrli shaxslarga qarshi “millatchilik” niqobi ostida ayovsiz kurash olib borildi. Sovet davrida milliy masala na amaliy va na nazariy jihatdan 1923-1987-yillar oralig‘ida, ya’ni 64 yil davomida biron marta ham yo davlat hokimiyyati tomonidan, yoki kommunistik partiya tomonidan muhokama qilinmagan. “Millatchilik” bilan bog‘liq masalalar esa KPSS qarorlari, rezolyutsiyalarida doimiy ravishda tilga olinib kelingan. Ularning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, shartli ravishda uchta davrni farqlash mumkin:

Birinchi davr 1925-1943-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrdagi 11 ta qaror va rezolyutsiyalarda ruhoniylar, boylar, quloqlar, mayda burjua unsurlari, ziyolilarning “millatchilik” yo‘lidagi harakatlariga qarshi kurashlar olib borilgan. Masalan, VKP(b) Markaziy Komitetining 1929-yil 25-maydagi “O‘zbekiston partiya tashkiloti faoliyati haqida”gi qarorida savdogarlar, boylar, ruhoniylar va ularga yordam berayotgan millatchi ziyolilarning sotsializm qurilishiga quturib qarshilik ko‘rsatayotgani ta’kidlanib, millatchilik mafkurasi, buyuk o‘zbekchilik shovinismiga qarshi kurash dolzarb bo‘lib turgani qayd etilgan.

Mazkur yillarda qabul qilingan qarorlar amaliy hayotda o‘zining mudhish aks sadosini topdi. Masalan, 1937-1938-yillarda yirik “millatchi” guruhlarning fosh etilib, qatag‘on qilinishi bunga misol bo‘la oladi. Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jayev boshchiligidagi “Burjuamillatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi”, Abdurauf Qoriyev rahbarligidagi “Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonchilar tashkiloti”, I.Ortiqov rahbarligidagi “Yoshlarning aksilinqilobiy burjuamillatchilik tashkiloti”ning “fosh etilishi” buning dalilidir. Aslida esa bunday tashkilotlar bo‘lmaganligi, ular sovetlar tomonidan o‘ylab topilgan tashkilotlar bo‘lib, sovet hokimiyati va kommunistik partiyaning niqoblanib yo‘naltirilgan milliy siyosatining natijasi edi.

Jamiyat hayotida sovet tartibotining XX asrning 30-yillariga kelib mustahkamlanishi hamda shaxsga sig‘inishning kuchayib borishi natijasida sobiq ittifoqda ma’muriy-buyruqbozlik tizimi tugal tarzda shakllandi. Mustabid sovet tuzumining shakllanishiga, avvalo, xalq ustidan olib borilgan ommaviy zo‘ravonlikni kuchaytirish evaziga erishildi. Totalitar tartibot insonparvarlik va demokratik tamoyillarni poymol etdi, xalqlarning milliy manfaatlarini himoya qiluvchi mustaqil fikrga ega bo‘lgan har bir shaxsni ta‘qib etib, ommaviy qatag‘onlar uyuştirib, millionlab insonlarni qirib tashlash siyosatini olib bordi.

Stalincha qatag‘onlik siyosati kelajak avlod tarbiyachilar bo‘lgan maorif sohasi vakillarini ham chetda qoldirmadi, aksincha, ular fojiali taqdirda duchor qilinib, qatag‘onlik to‘lqiniga giriftor etildi.

1933-yildan boshlangan o‘qituvchilar o‘rtasidagi repressiyalar ham turli uydirmalar ostida olib borilgan. Xususan, ular o‘zbek xalqini “ilg‘or rus madaniyati”dan ajratib qo‘yishga urinish, yoshlarni millatchilik og‘usi bilan zaharlashda ayblanganlar. Ularga, bir tomonidan, rus tilining o‘zbek sinflarida o‘qitilishiga to‘sqinlik qilish va shu yo‘l bilan rus adabiyotini birinchi manbalar orqali o‘rganishga imkon bermaslik, ikkinchi tomonidan, rus klassiklari asarlarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishini paysalga solishdek ayblar qo‘yilgan. 1936-1940-yillarda mobaynida respublika bo‘yicha 5758 nafar davlat va jamoat arbobi, olim, yozuvchi, jurnalist va o‘qituvchilar Yuqorida keltirilgan ayblovlar ostida qamoqqa olinib, ulardan 4811 nafari otib tashlangan.

Oktabr to‘ntarishidan so‘ng bir munkha vaqt davomida milliy hayotda, xususan, milliy tillar rivojida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni inkor etib bo‘lmaydi. Xususan, 1913-yilda Rossiyada istiqomat qilib turgan yuzdan ortiq millat va elatlardan faqtgina 19 tasining tilida bosma kitob chop etilgan bo‘lsa, 1933-1934-yillarga kelib, 112 ta tilda bosma nashrlar

chiqa boshladi. 48 millat va elat o‘z yozuvini tuzdi. Jumladan, urushgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda 22 tilda ta’lim olib borish yo‘lga qo‘yilgan.

1930-yillarda ilgari surilgan millatlarning qorishib, aralashib, yagona millatni tashkil etishi haqidagi nazariya kelgusida butun milliy siyosatning dasturiga aylantirildi. Agar avvallari respublikalardagi milliy tillar rus tili bilan bir xil huquqlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, endilikda esa birinchi o‘ringa rus tilini targ‘ib qilish va o‘rganish masalasi qo‘yilgan edi. 1938-yilda SSSR XKS va RKP(b) MK tomonidan qabul qilingan milliy respublikalarda rus tilini majburiy ravishda o‘rganish haqidagi qaror buning uchun zarur sharoitlarni yaratib berdi. Rus tilini o‘rganish uchun, asosan, milliy tillar hisobiga dars soatlari ajratildi. Milliy tillar esa, milliy o‘zlikni anglashning asosiy mezonlaridan biri sifatida ikkinchi o‘ringa siqib chiqarildi.

O‘zbek tilining rivojlanishiga alisboning o‘zgartirilishi ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi (1929-yili arab alifbosi – lotin alifbosiga, 1940-yili esa-kirill alifbosiga o‘zgartirilishi).

Televideniya, radio, matbuot orqali rus tilini o‘rganish haqida targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borilgan. O‘zbek tilida nashr etiladigan bolalar va o‘smirlar jurnallarida (“Lenin uchquni”, “Yosh leninchi”, “G‘uncha”, “Gulxan”) “Rus tilini o‘rganing” mavzusidagi davriy bo‘lim kiritilgan. Bunday tadbirlar 1960-yillarda ham davom ettirilgan. Rus tili festivallarini, haftalik rus tili kunini, rus tilini o‘qitish masalalariga hamda uning har bir xalq va umuman sovet xalqi tarixida tutgan roliga bag‘ishlangan konferensiyalarni o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan har bir shaxs rag‘batlantirilar edi.

Rus bo‘lmagan xalqlar orasida rus tilini tezroq tarqatish maqsadida rahbariyat tomonidan haftada bir kunni rus tili kuni deb belgilash lozim topilgan. Tashkilotchilarning g‘oyasi bo‘yicha partiya a’zolari O‘zbekiston kompartiyasi birinchi kotibidan tortib to 1-sinf o‘quvchisigacha rus tilida so‘zlashishi kerak edi.

Shunday qilib, rus tiliga sig‘inish shakllantirila boshlandi. Bu esa o‘zining salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi. Respublikada rus tili yagona davlat tili sifatida yuritila boshlandi. Ma’muriy-buyruqbozlik bosimi ostida rus tilini qaror toptirish hamda bir vaqtning o‘zida milliy tillarni mensimaslik natijasida ilgari rus tiliga bo‘lgan qiziqish keyinchalik milliy til ahamiyatining pasayishiga nisbatan befarqlik kelib chiqishiga olib keldi.

Sovet davlati markazlashgan xalq xo'jaligi majmuasida ittifoqdosh respublikalar qatori O'zbekistonning ham o'ziga xos o'rni va ishtirokini belgilagan sanoatlashtirish sobiq SSSRda sotsializm qurish dasturiy rejasining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab qo'yildi. VKP(b)ning XIV syezdi (1925-yil dekabr) va VKP(b) MKning maxsus plenumlarida (1926-yil aprel) Ittifoqni sanoatlashtirishda partiyaning bosh strategik vazifasi ko'rsatib berildi. Uni amalga oshirishda Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) islohotlariga chek qo'yish va iqtisodiyotni rejali boshqaruv siyosatini yo'lga qo'yish zarur edi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda Ittifoq siyosiy rahbariyati xalq xo'jaligi boshqaruvini uch yo'naliш bo'yicha: Ittifoq, Respublika va mahalliy vazirliklar orqali amalga oshirdi. Bu vazirliklar bevosita respublika davlat boshqaruvidagi tegishli tarmoqlar orqali boshqarilgan. Jumladan, Ittifoqqa bo'ysunuvchi tarmoqlarga elektr-kimyo sohalari, GEStlar, rangli va nodir metallar qazib chiqarish, ko'mir sanoati, paxta, yog', un maydalash kabi sanoat korxonalari; respublika vazirligiga bo'ysunuvchi tarmoqlarga – go'sht va sutli mahsulotlar, oziq-ovqat, yengil sanoat, melioratsiya va suv xo'jaligi, montaj va maxsus qurilish ishlari, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi va paxta tozalash sanoati, energetika va elektrifikatsiya, ichki ishlari, sog'liqni saqlash, tashqi ishlari, madaniyat, aloqa, savdo-sanoat, moliya, adliya, mahalliy sektorga tegishli vazirliklarga esa avtomobil transporti, tosh yo'llar, shosselarni ishga solish va qurish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, kommunal xo'jalik, mahalliy sanoat (oziq-ovqat, vinochilik, pivo va qand ishlab chiqarish), ijtimoiy ta'minot va boshqa sohalar kiritildi.

O'zbekiston xo'jaligining xomashyo etishtirishga ixtisoslashtirilishi Ittifoq uchun yuqori ahamiyatga ega bo'lib, shu bois ham asosiy e'tibor paxta bilan bog'liq tarmoqlarga qaratilgan. Mablag'larning deyarli barchasi paxtachilikka ajratilar, shu asosda yangi sanoat korxonalari vujudga kelar edi. Olib borilayotgan harakatlar natijasida O'zbekiston paxtachilik uchun zarur bo'lgan barcha mashinalar – kultivator, seyalka, paxta terish mashinalari, ko'sak teradigan va ko'sak chuviydigan mashinalar, ko'sak terish, paxta dalalari uchun traktorlar, mineral o'g'itlar, paxta tozalash zavodlari uchun uskunalar, to'qimachilik mashinalari ishlab chiqaradigan asosiy markazga aylantirildi. Ular, asosan, Ittifoq ehtiyojlarini qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarish mahsulotlari bilan yuqori darajada qoplashi kerak edi. Markaz ko'rsatmalarga ko'ra iqtisodiy va tabiiy, tarixiy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda bu ikki yo'l bilan qoniqtirilishi kerak bo'lgan.

Birinchisi, Ittifoqqa xomashyo yetkazib berish (birinchi navbatda paxta toiasi va ipak), ikkinchisi eksport mahsulotlarini yetkazib (qorako'l terisi va quruq mevalar) berishga moslashtirilishi oqibatida markaz O'zbekistonni tobora agrar respublikaga aylantirib qo'ya boshlagan edi.

Tabiiyki, o'zaro taqsimot qoidasiga ko'ra O'zbekiston ham boshqa respublikalardan turli mahsulotlarni olar edi. Jumladan, RSFSRdan zavod va fabrikalar uchun asbob-uskunalar, qishloq xo'jalik mashinalari, yog'och, g'alla, neft, to'qimachilik buyumlari keltirilardi. Ukrainadan esa g'alla, shakar-qand olib kelingan. Bu respublikalar yangi qurilayotgan korxonalarini texnikaviy jihozlar bilan ta'minlashda ham muhim rol o'ynar edi. Ta'kidlash joizki, 1932-yilning o'zida texnik jihozlarning 90%i RSFSR, Ukraina va Belorussiyadan keltirilgan edi.

Ittifoqda hech bir alohida olingan korxona mustaqil mahsulot ishlab chiqara olmas, ya'ni bir-biriga uzviy ravishda bog'lab qo'yilgan edi. Masalan, "Toshqishloqmash" zavodining to'liq ishlab chiqarishga o'tishi uchun ko'plab zavodlardan asbob-uskunalar keltirilgan. Jumladan, "Krasnaya Presnya" zavodidan quyish sexi uchun parrak va mashina; Leningradning "Elektrik" zavodidan elektrosvarka uskunasi; Rostovning "Katloturbina" zavodidan motor, Toshkentning "Stalsbyt" zavodidan qalin listli temir; Chelyabinsk va Ryazan zavodlaridan turli xil stanoklar; Lyubers zavodidan bo'yoqlar uchun mexanik aralashshtirgich; "Serp i molot" zavodidan temirchilik sexi uchun buldozer; Pskovdagi "Krasnyy metallist" zavodidan temir; Xlopsnabdan ruberoid, akumlyator shular jumlasidandir. Yuqorida qayd etilgan uskunalar qiyinchilik bilan zavod rahbariyatining qayta-qayga murojaat etishi natijasida undirib olingan. Xilkovo zavodi avariyyaga uchraganda "Toshqishloqmash"ga sement Vol'sk zavodidan keltirilgan. Umuman olganda hamma narsa hatto mix, gayka, ya'ni har bir zavodda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlar ham albatta har joydan keltirilishi kerak edi. Ko'pgina mahsulotlar va uskunalarini O'zbekistonda ishlab chiqarish imkoniyati bo'lsa-da, markaz tomonidan mablag' yo'qligi pesh qilinib, unga ruxsat berilmagan.

O'zbekiston Ittifoqning sanoatlashgan hududlaridan tashqari O'rta Osiyo Respublikalari bilan ham yaqin iqtisodiy aloqalar o'matilgan bo'lib, jumladan, Qozog'istondan ko'plab xomashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari, jumladan, ko'mir, oltengugurt kolchedani, fosforit, cho'yan, sement, g'alla, un, go'sht, mol yog'i va boshqa mahsulotlar jo'natilgan.

Ikkinchı jahon urushigacha boʻlgan 15 yil mobaynida Respublikada 515 ta sanoat korxonasi qurilib ishga tushirildi. Muhimi shundaki, bu korxonalar kimyo, elektr energiyasi, ranglı metallurgiya, mashinasozlik sanoati tarmoqlariga tegishli edi. Agar bu sanoat tarmoqlarining Oʻzbekistonda ilgari boʻlmasligini hisobga olsak, ularning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi oʻz-oʻzidan maʼlum boʻladi. Lekin yuqoridagi sohalarning deyarli barchasi Oʻzbekiston manfaatlariga emas, balki markaz mansaatlariiga xizmat qilar edi.

Sovet hukumati tomonidan qabul qilinib, mohiyatiga kommunistik mafkura singdirilgan iqtisodni rivojlantirishning rejali yoʻli shubhasiz, bir tomonlama xarakterga ega boʻlib, zoʻravonlik, maʼmuriy-buyruqbozlik uslublari asosida amalga oshirildi. Bunday siyosat tabiiyki, Oʻzbekiston iqtisodiyotiga ham salbiy taʼsir koʻrsatib, qishloq xoʼjaligining vayron boʼlishiga, shuningdek, yagona xalq xoʼjaligi tizimiga Oʻzbekiston xomashyo etishtiruvchi respublika boʻlib kiritilishi natijasida mavjud muammolarni mustaqil hal eta olmasligi, mahalliy sharoitlarni hisobga olinmaganligi, ijtimoiy ahvolga eʼtiborning pastligi bir qator muammolarning kelib chiqishiga sabab boʻldi.

Niqoblangan shaklda siyosat olib borgan sovet hukumati xalqlarni goʼyoki ixtiyoriy ravishda teng huquqli yagona oilaga birlashgani, milliy madaniyatlar va tillar oʼzining eng yuksak choʼqqisiga koʼtarilganligi, bularning barchasi milliy manfaatlar va madaiiy yaqinlashish, uygʼunlashish asosida sodir boʼlayotganini asoslashga urinib, turli xalqlarning manfaatlarini teng himoya qilayotgan adolatli demokratik jamiyat haqida jar solgan boʼlsa-da, aslida buning negizida murakkab va ziddiyatli maqsadlar yotgan. Bu maqsadlardan koʼzlangan birinchi yoʼl xalqlarni asta-sekinlik bilan ruslashtirishdan iborat boʼlgan boʼlsa, ikkinchi yoʼl xalqlar oʼrtasida ishonchszilik, nizolarni kuchaytirish hamda shu orqali respublikalar ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda ularni bir-biriga bogʼliq qilib qoʼyishdan iborat edi.

Mustabid tuzumning iqtisodiyot sohasidagi milliy siyosati vazifalaridan biri barcha Respublikalarning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuviga erishishdan iborat boʼlib, bundan koʼzlangan asosiy maqsad Respublikalarni yagona umumittifoq xalq xoʼjalik majmuiga mahkam bogʼlab qoʼyish boʼlgan. 20-yillarning ikkinchi yarmi – 30-yillarda yangi hududiy mehnat taqsimoti, respublikalarning shakllantirilayotgan umumittifoq xalq xoʼjalik majmuida ixtisoslashuvi qaror topgan. Oʻzbekistonga mamlakatning asosiy paxta bazasi boʼlish vazifasi yuklangan. Natijada partiyaning milliy siyosatidan nafaqat

mafkuraviy maqsadlar yo‘lidagina, balki markazning iqtisodiy manfaatlari yo‘lida ham foydalanilgan.

## **2. Milliy kadrlar masalasi**

Sovet hukumati milliy Respublikalarни mustabid tuzum iskanjasida mustahkam ushiab turishi uchun, eng avvalo, “sotsializm” niqobiga o‘ralgan siyosatning mohiyatini yashirishi, uning oshkor bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymasligi zarur edi. Buning uchun bolsheviklar partiyasi milliy siyosatni har bir tarixiy bosqichda, har bir vaziyatda sharoitdan va asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda uning yo‘nalishini, maqsadini va mohiyatini o‘zgartirib bordi. Masalan, 1917-1924-yillar davomida partiya milliy siyosatining asosiy negizi bo‘lgan “millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi”ning kun tartibiga qo‘yilishi va uning bolsheviklar “andozasi” asosida amalga oshirilishi natijasida sun’iy ravishda milliy respublikalar tashkil qilingan bo‘lsa, 1925-1941-yillardagi milliy siyosatning asosiy yo‘nalishi va maqsadi millatlarning amaldagi tengsizligini tugatishga barham berishga qaratilgan bo‘lib, buning uchun milliy respublikalarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqligiga barham berish vazifasi qo‘yildi. Bu vazifa partiya X, XII, XIV syezdlari qarorlarida o‘z aksini topdi. Mazkur vazifani amalga oshirish jarayonida davlat qurilishi ishlariiga mahalliy millat kishilarini keng jalb qilish, davlat apparatini “mahalliylashtirish”ga muhim ahamiyat berildi. Davlat apparatini “mahalliylashtirish” davlat, jamoat va xo‘jalik apparatiga mahalliy millat vakillarini keng jalb etishdan, ish yuritishda o‘zbek tili va boshqa mahalliy tillarni joriy qilishdan iborat bo‘ldi. 1924-yilda O‘zSSR MIQ huzurida davlat apparatini o‘zbeklashtirish Markaziy komissiyasi tashkil etildi, shuningdek, bu xildagi komissiyalar joylarda ham tashkil topdi. 1928-yilga kelib O‘zbekiston SSR hukumati “Davlat apparatini o‘zbeklashtirish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Mazkur qarorga muvofiq o‘zbek axolisi ko‘proq bo‘lgan tumanlardagi barcha davlat, jamoat, kooperativ muassasalarini va tashkilotlari ish yuritishni o‘zbek tilida yoki bu yerda ko‘pchilikni tashkil qilgan elat tilida olib borishlari shart edi.

Mahalliylashtirish masalalariga e’tiborni kuchayishi boshqaruvin sohasidagi milliy kadrlar qatlamini ko‘paytirish, o‘zbek tili tatbiq etiladigan hududlarni kengaytirish tadbirlarini keng quloch yoydirishga imkon berdi. Natijada respublikani markaziy muassasalarida o‘zbek xodimlar soni 1924-1927-yillarda 2,5 baravar ortdi. 1930-yilning oxiriga kelib quyi apparat 75%ga milliylashtirildi. Ayni vaqtida ish yuritishni

mahalliy tillarga o'tkazish ham boshlab yuborildi. Shu munosabat bilan O'zSSR XKKning "O'zSSR muassasalari, korxonalar, tashkilotlari xizmatchi xodimlarining o'zbek tili majburiy ravishda o'rganishlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Asosiy millat tiliga davlat tili makomini berish yuzasidan boshqa tadbirlar ham ko'rildi: o'zbek tilini o'rganish bo'yicha turli kurslar, to'garaklar tashkil etildi, yevropalik millatlardan chiqqan xodimlarning bu tilni o'rganishi ular maoshiga ustamalar to'lash bilan rag'batlantirildi. Barcha rasmiy va me'yoriy hujjatlar rus va o'zbek tillarida nashr etila boshladи.

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, apparatni "milliylashtirish" jarayonida uning mazmuni birmuncha o'zgardi, bunda asosiy e'tibor mahalliy aholini davlat boshqarishga jalb qilish emas, balki faqat davlat apparatini aholiga yaqinlashtirishga qaratildi. Buning uchun davlat muassasalardagi yevropa millatiga mansub xodimlar uchun o'zbek tilini o'rganish tizimi ishlab chiqildi. Ammo mahalliy millat vakillaridan xodimlar tayyorlash va ularni markaziy okrug tashkilotlari va muassasalariga jalb etish masalasi sekin-asta respublika rahbariyatining diqqat-e'tiboridan chetda qoldi, XKK huzuridagi o'zbeklashtirish Markaziy komissiyasining 1930-yil 1-oktabrgacha bo'lgan ma'lumotlariga qaraganda, O'zSSR MIQda ishlayotgan 97 kishidan faqat 43 tasi mahalliy millat vakillari edi; O'zSSR XKKdagi 75 xodimdan faqat 21 tasi, Sovet Xalq Komissarligidagi 63 xodimdan 5 tasi, Adliya Xalq Komissarligidagi 51 kishidan 5 tasi mahalliy millat vakillari xolos. Respublika Davlat reja qo'mitasida esa 50 kishidan iborat umumiy xodimlar orasida birorta ham mahalliy aholi vakili bo'lmagan.

20-yillarning o'rtalarida boshlangan mahalliylashtirish ham o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni hal qilmasdan 20-yillar oxiriga kelib to'xtatib qo'yildi. Respublika va okrug tashkilotlariga boshchilik qila oladigan yetarli miqdordagi milliy kadrlar tayyorlanmadи. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda rahbar lavozimlarda avvalgidek, asosan, yevropaliklar o'tirar, shu sababdan ish yuritish ishlari ham avvalgidek rus tilida olib borilardi. 1928-yilda davlat tashkilotlarining faqat 8,6% va jamoat tashkilotlarining 7,7% bu ishni o'zbek tilida olib borardi xolos. Bularning hammasi o'zbek tilining davlat tili sifatida tan olmaslik, uni ikkinchi o'ringa surib qo'yishning boshlanishi edi. 1929-yilda o'zbek yozuvini arab alifbosidan lotin imlosiga, 1940-yilda esa kirill yozuviga o'tkazilishi ham ana shunga yordam berdi. Ayni vaqtda 1939-yildan boshlab maktablarda rus tilini majburiy o'rgatish to'g'risida maxsus qaror qabul qilindi.

Sovet davlati milliy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri iqtisodiy jihatdan respublikalarning, shu jumladan, O'zbekistonning tengsizligiga va qoloqligiga barham berishdan iborat edi. 20-yillarda bu siyosat SSSR sanoat markazlarining qoloq Respublikalarga yordam ko'rsatishi, davlatning katta miqdorda kapital mablag'lar ajratishi va hokazo yo'llar bilan amalga oshirildi.

respublikada og'ir sanoat tarmoqlari ham rivojlantirildi, ularda ishslash uchun kadrlar, asosan, mamlakatning Yevropa qismidan "keltirilardi". Bu hol O'zbekiston axolisi milliy tarkibining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi, aholi tarkibida yevropaliklar salmog'i ko'payib bordi. Mahalliy vakillar og'ir sanoat tarmoqlari ishchilari orasida mutlaq kamchilikni tashkil etardi.

70 yildan ortiq vaqt davomida hukmonlik qilgan kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davrida kadrlar siyosati ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan tashkil etilgan mafkuraga bo'ysunganligi, buyuk davlatchilik tafakkuri falsafasiga amal qilib, sobiq respublikalarni qaramlik asoratida saqlashdan iborat umumiy strategiya ruhidagi siyosiy yo'lni qat'iy amalga oshirib kelgan.

Sobiq ittifoq davrida kommunistik mafkura davlat siyosatining g'oyaviy quroli sifatida xizmat qildi, mafkuradagi yakkahokimlik, sinfiylik tamoyili davlat kadrlar siyosatining asosiy negizini tashkil etdi. Partiyaning kadrlar siyosati mafkuraviy maqsadlar yo'lida markazning iqtisodiy manfaatlari bilan bog'lanib ketdi. Shunga ko'ra kadrlar siyosatiga doir muhim masalalar KPSS MQ O'zbekiston KP MQ syezdlari, plenumlari, viloyat, tuman, partiya konferensiyalarida ko'rib chiqildi. Ularda puxta o'yangan, "lenincha" tartiblarga bo'ysundirilgan usullar yaratildi. Partiya a'zoligi murakkablashtirilib, asosan ishchi, dehqonlar partiya a'zolariga ko'proq olindi. Ularni rahbarlik lavozimlariga ko'tarish yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Sovet hukumatining dastlabki yillarda partiya xodimlarini "mahalliy" va "mahalliy bo'lman" kadrlarga ajratilmadi. Markazda va joylardagi boshqaruva organlari tarkibida turli millat vakillari birgalikda ishladilar. Bu yillarda sanoatda o'zbeklardan umumiy rahbar kadrlar 17% bo'lgan bo'lsa, 1945-yilga kelib 20%ga o'sdi. Ayni paytda O'zbekistonda davlat apparatini mahalliylashtirish maqsadida O'z KP (b) MQ kotibi U.Yusupov milliy kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratdi. O'sha yillari davlat boshqaruva organlarining rahbar xodimlari tarkibida o'zbek va boshqa mahalliy millat vakillarining soni quyidagicha edi: partiya organlarida – 49%, shulardan partiya shahar komitetlari va rayon ijroiya

komitetlari kotiblari – 67%, sovet organlarida – 67%, shu jumladan, shahar va tuman ijroiya komitetlarining raislari – 93%, sud va prokuratura organlarida – 74%, shulardan tuman va shahar prokurorlari – 81%, tuman va shahar gazeta muharrirlari tarkibida – 93%, shahar va tuman xalq ta’limi bo‘limlarida – 82%, O‘zSSR Yuqori kengash deputatlari tarkibida – 68% tashkil etgan edi. 1947-yilga kelib rahbar kadrlar 3725 nafar bo‘lsa, 2012 nafari (54%) o‘zbeklar, 638 nafari (17,1%) ruslar edi. Shuningdek, tub aholi vakillaridan yetishib chiqqan rahbarlar har qancha qobiliyatli, iste’dodli biliimdon bo‘imasinlar, ular doimiy nazoratda bo‘lgan. Markaz chizig‘idan chiqmaydigan kadrlarni tayyorlash siyosatida komsomol va partiya maktablarida o‘qitish, markazdan “vakillar otryadi jo‘natib yordam berish”, qo‘l ostidagi respublikalardagi barcha ikkinchi kotiblarni Moskvadan jo‘natish singari tajribalar ochiq rasmiy yo‘l hisoblansa, mahalliy kadrlarni bir-biriga qarshi qo‘yib birlashishga yo‘l qo‘ymaslik ishlari va usullari avj oldirilgan. Mahalliy rahbar kadrlarni asossiz ravishda tez-tez boshqa joyga ko‘chirish amalga oshirilgan. Ayniqsa, O‘zbekiston Kompartiyasining rahbar organlari biror hisobot saylov davridan keyin taxminan 20% yangilansa, KPSS ustavida yangilanib turishning nisbati mustahkamlangandan keyin 70%, hatto undan ham ko‘proq yangilanadigan bo‘ldiki, buning oqibatida kadrlar ishiga bo‘lgan ishonchszilik, loqaydlik holatlari kuchayib borgan. Mamlakatda kadrlar tayyorlash tizimi faqat kasbiy bilim berishdan iborat bo‘lmay, “markscha-leninchha” dunyoqarash va mehnatga “kommunistik munosabatni” shakllantirish, g‘oyaviy-siyosiy tarbiyani kuchaytirishni o‘z ichiga oldi. Bu tushunchaning mohiyati, chuqur g‘oyaviy e’tiqod, uning asosini “markscha-leninchha” ta’limotni bilish tashkil etardi. 1950-yillardan keyin partiya dohiylarining asarlarini nashrdan chiqarilishi va o‘zbek tiliga tarjima qilinishi oliy maktablar uchun g‘oyaviy qurol bo‘ldi.

Oliy va o‘rtta maxsus ta’lim tizimida ham o‘quv-tarbiyaviy ishlari masjuraviy andozalarga solindi. Mutaxassislik bo‘yicha asosiy fanlarni o‘qitish o‘rniga barcha o‘quv yurtlarida kommunistik masjurani shakllantiruvchi fanlarini o‘qitishni yanada yaxshilash to‘g‘risida tadbirlar ishlab chiqilib, talabalar bu kurslarni chuqur o‘zlashtirishlari shart bo‘lgan. Oqibatda oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning son miqdoriga e’tibor berib, tayyorlanayotgan mutaxassislarning jahon talablaridan jiddiy ortda qolishi xalq xo‘jaligiga malakasiz kadrlar tayyorlanishiga, mutaxassislardan ishlab chiqarishda samarasiz

foydanishga olib keldi. Kadrlar tayyorlash siyosatidagi bu kabi buzilishlar iqtisodiy o'sishga sezilarli darajada to'siq bo'ldi.

XX asrning 80-yillariga kelib turg'un holatiga tushib qolayotgan korxona va tashkilotlarda xodimlarni "ortiqcha" mehnat kuchi sifatida ishdan bo'shatish holatlari ko'payib bordi. Bo'shatib olinayotgan xodimlarning qariyb yarmini 29 yoshgacha bo'lgan mehnatga chanqoq yigit, qizlar, uchdan ikki qismini, asosan, erkaklar tashkil etgan. Iqtisodiy inqirozning kuchayib borishi sababchilari mahalliy kadrlar deb topildi. Natijada bu yillarda ko'plab mustaqil, erkin fikrga ega bo'lgan milliy kadrlar siyosat qurbaniga aylandilar. Umuman, sovet davlatida yil sayin iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayot qanchalik chuqurlashib borsa, "kadrlar malaka"sini oshirish, mamlakatda sodir bo'layotgan inqirozli holatlarni, o'zgarishlarni, ularning ahamiyati va oqibatlarini "marksizm-leninizm" ta'limotidan kelib chiqqan holda chuqur tushuntirilib borilishi to'htovsiz ta'minlab turildi. Biroq, kadrlar masalasiga bunday yondashuv va usullar ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotga befarqliq bilan qarash, rejalarini qog'ozda bajarish bilan cheklanish holatlari kuchaydi. 1989-yilga kelib sobiq ittifoqdosh respublikalar o'z taraqqiyot yo'llarini belgilab, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va jamiyat qurishga kirishdilar.

O'zbekiston sanoatini ishchi kadrlar bilan ta'minlashdagi sovetlar siyosati mahalliy ishchi kadrlarga munosabat, markazdan kadrlar jo'natish siyosati, sanoatda xotin-qizlar kadrlar masalasini o'z ichliga olib, qator xato va kamchiliklardan iborat bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonga mamlakatning markaziy rayonlaridan 90 dan ortiq yirik sanoat korxonalarini ko'chirildi. Biroq, sanoat mutaxassis va ishchilarining katta qismi frontga safarbar etilishi natijasida kadrlar soni kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Bu davrda O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarda sanoat korxonalarining ishchi kadrlarga bo'lgan talabini qondirish uchun davlat rejalarini qabul qilindi va mablag'lar ajratildi. 1946-1950-yillarda hunar-texnika bilim yurtlarida 39,8 ming yosh ishchi kadr tayyorlandi. Bulardan 28,5 ming kishi sanoatga, 7,5 ming kishi qurilishga, 3,5 ming kishi transportga, 300 kishi qishloq xo'jaligiga ishga yuborildi. 1944-1945 o'quv yilida O'zbekistondagi barcha FZT (fabrika-zavod ta'limi) muktablarida o'zbeklar umumiy o'quvchilarning 25% ini tashkil etgan bo'lsa, 1945-yilda tayyorlangan 24737 ishchilardan, 4181 o'zbeklar (17%) edi. Bu yillarda o'zbek rahbar kadrlari ko'rsatkichi ham og'ir sanoatda – 14,5%, yengil sanoatda – 27% bo'lgan. Ayni paytda markazdan O'zbekistonda

ishchi kuchi tanqisligi bahonasida ko'plab ishchi kadrlar ko'chirib keltirildi.

Dastlab markazning sanoat korxonalari bilan birga bu yerga ko'chib kelgan kadrlar ma'lum darajada mahalliy ishchi kadrlar tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq keyingi yillarda markazdan kadrlar jo'natish ko'paydi. Jumladan, RSFSRdan 1961-1965-yillarda 115,3 ming nafar ishchi ko'chirilgan bo'lsa, 1966-1970-yillarda esa 66,4 ming ishchi, 1971-1975-yillarda o'rta hisobda 55,3 ming kishi kelgan. Bunday holatlar bilan respublika axolisi tobora ko'p millatli bo'lib bordi. Yangi buniyod etilgan sanoat shaharlari, xususan, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod, Navoiy, Zarafshon, Muborak kabi shaharlarda, asosan, boshqa millat vakillaridan ishchi kadrlar joylashtirildi.

1966-yil Toshkent zilzilasi oqibatida vayron bo'lgan uy-joy, sanoat korxonalarini tiklash uchun mamlakatning bir qancha shaharlardan katta ishchi kuchi O'zbekistonga jo'natildi. O'zbekistondagi yirik korxonalarining ko'pchiligi boshqa sovet respublikalaridan kelgan ishchi va mutaxassislar yordamida qurildi. Ularning yordami bilan vayron bo'lgan joylar qayta tiklandi, yangi Toshkent shahri barpo etildi. Biroq yordamga kelgan ishchi kuchlarining asosiy qismi doimiy yashash uchun O'zbekistonda qolib ketdilar. Ayni paytda respublikaning chekka qishloqlaridan kelgan mahalliy yoshlar shahar ro'yxatiga o'tish, ishga kirish, yashash uchun joy topishda muammoga duch kelib, ishdan ketish hollari tez-tez takrorlanib turdi va ular orasida ishsizlar soni ortib bordi. 1980-yillarga kelib mehnatga loyqatli, lekin ishlab chiqarishda bo'lmaganlarning soni 2,5-martaga ortdi. Bundan ko'rinadiki, mahalliy millat vakillari sanoat shaharlariiga nisbatan ko'proq qishloqlarda joylashdi.

Ishlab chiqarishinig turli jabhalarida ayollar faolligini kuchaytirishning sovet modeli 1920-yillardan boshlangan bo'lib, tadqiq etilayotgan yillarda tobora yirik ko'lamga ega bo'lib borgan edi. Rahbarlik tizimlariga mahalliy ayollarni ham erkaklar bilan teng saylash ayollarni oilada emas, balki jamiyatda erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishni ta'minlaydigan tizim yo'lga qo'yilgan edi. Xotin-qizlar madaniyat uyida ma'ruzachilik tashkil etilib, tashkiliy-tarbiyaviy ishlar turli asarlar, matbuot, radio-televideniya orqali targ'ibot-tashviqot ishlari kuchaytirilgan edi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi ishtiroklari faqat shakl va sonda namoyon bo'ldi. Chunonchi, 1965-yilda respublikada 33121 xotin-qiz mahalliy kengashlarga, 139 ayollar

O'zbekiston SSR Oliy Kengashiga deputat qilib saylandi, SSSR Oliy Kengashida respublikaning 22 ta vakilasi bor edi. Ulardan SSSR va O'zbekiston SSR Oliy Kengashlari orasida kolxozi raisi Enaxon Ahmadaliyeva, mexanizator Tursunoy Oxunova, ip yigiruvchi Faina Shirinova, kolxozi raisi Risolat Ergasheva, o'qituvchi Muhabbat Abdurahmonova, raqqosa Galiya Izmaylova va boshqalar bor edi. Sovetlar va partiyaviy lavozimlar, syezdlarga saylanadigan ayol deputatlarning ko'pchiligi ishchi va dehqonlardan bo'lib, yetarli yuqori ma'lumotga ega bo'limgan. Bunday lavozimlarda bo'lgani bilan qonunlarga hech qanday o'zgartirishlar, yengilliklar kiritish salohiyatiga ega emasdilar. Qayerga qancha ishchi, dehqon, xizmatchidan vakil, deputat saylash lozimligi, ularning qanchasi ayollardan bo'lish kerakligi haqida maxsus maxfiy ko'rsatmalar ishlab chiqilgan va bu ko'rsatmalar o'sha davrda so'zsiz bajarilgan.

Shu bilan birga ba'zi holatlar ko'pgina tub yerlik oilalar orasida xotinlarining ishga chiqishlari oila boshi tomonidan salbiy qabul qilindi. Oqibatda ko'pgina mahalliy xotin-qizlarning ishga chiqishlaridan oilaviy kelishmovchiliklar yuzaga kelib fojia bilan tugash hollari ham tez-tez uchradi. Mutaxassis kadrlar bo'lib, bunda injener-texnik kadrlar, qishloq xo'jalik kadrlarini shakllantirish, xo'jalikni malakali mutaxassislar bilan masalasiga ham sovetlarcha yondashuv o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatdi.

Ikkinci jahon urushidan so'ng O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishida yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi malakali injener-texnik kadrlarning shakllanishini talab etardi. Respublikaning barcha yirik korxonalarida injener-texnik xodimlarni ishlab chiqarish texnikasiga o'rgatish maqsadida texnika bilimlarini o'qitish kuchaytirildi. O'rta ma'lumotli bo'limgan sex boshliqlari, texniklar, ish ustalari, ko'pgina ilg'or ishchilar sirtqi va kechki oliy o'quv yurtlari va texnikumlarga o'qishga kirdilar. Natijada 1951-1955-yillarda ishlab chiqarishda mahalliy kadrlardan bo'lgan injener- texnik xodimlar soni birmuncha ortdi. O'zbekistonda injener-texnik kadrlarni sovet ittifoqining boshqa respublikalaridan mutaxassislar yuborish orqali ham to'ldirilib turilgan. Masalan, 1954-yilda 383 muhandis 974 texnik, 1955-yilda 516 muhandis va 1245 texnik, 1957-yilda 395 muhandis 447 texniklar O'zbekistonga keltirildi. Holbuki, respublikaning o'zida malakali ishchi kuchining tayyorlashni takomillashtirish, sanoatga texnikani yaxshi biladigan yoshlarning kelishini va O'zbekistondagi ishchi kadrlarning madaniy

texnik darajasini injener-texnik ishchilar darajasiga ko'tarish muhim ahamiyatga ega edi.

1960-1970-yillar davomida O'zbekiston sanoatida avtomatli texnikalarni sozlovchi, ta'mirlovchi ishchilar, mashinistlar, motorchilar, elektr montyor kabi kasblar tashkil etildi. Mamlakat sanoatida barcha turdag'i malakali ishchilar miqdori 1,5 martaga oshdi, avtomatli texnikalarni sozlovchilar esa 1,9 martaga, avtomatlarni ta'mirlovchi ishchilar 3,8 martaga oshdi. Texnikaning rivojlanishi munosabati bilan sanoatda diplomli malakali mutaxassislar talab qilinadigan kasblar paydo bo'ldi. Umuman, O'zbekistonda 1950-1980-yillarda ma'lum darajadagi moddiy-texnikaviy sharoitlarning yaratilishi, qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan bir qatorda tabiiy foydali qazilmalarni markazga tashib ketish uchun zamin yaratildi va bu sovet tuzumi amaliyotida keng quloch yozdi.

SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP (b) MK 1945-yilda "O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risidagi", 1947-yil fevral oyidagi VKP (b) MKning plenumida "Urushdan keyingi davrda qishloq xo'jaligini yanada yuksaltirish tadbirlari to'g'risidagi" qarorlari esa qishloq xo'jaligi tarmog'ini yana ham kuchli rivojlantirish vazifasini qo'ydi. XX asrning 50-yillarida rahbariyat tomonidan kolxozlarni yiriklashtirish masalasi avj oldirilgandan keyin qishloq xo'jalik rahbar kadrlar tarkibini ta'minlash asosiy muammolardan bo'ldi. Sababi 1946-yil 1-yanvar ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda jami 1749 nafar oliy ma'lumotli mutaxassis, shu jumladan, 97 nafar meliorator, 95 nafar qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish muhandisi bor edi. Ulardan o'zbek millatli qishloq xo'jalik rahbarlari 37 foiz bo'lib, oliy ma'lumotlilar – 23%, o'rta – 53%, boshlang'ich ma'lumot – 24% bo'lgan. 6647 kolxoz raisidan faqat 89 kishi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini tamomlagan, 778 kishi umumiyo o'rta ma'lumotli, 5780 kishi "boshqalar" jadvaliga kiritilgan. Bu "boshqalar" jadvaliga faqat boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lgan kolxoz raislari kiritildi. Shu sababli qishloq xo'jalik rahbar kadrlarining ma'lumot va maxsus tayyorgarligini kengaytirishni yaxshilash, kolxoz va sovxozi, MTSlarni malakali mutaxassislar bilan mustahkamlash yuzasidan qat'iy choralar ko'riliishi zarur bo'ldi. Natijada VKP (b) MQ 1947-yilgi fevral plenumida qishloq xo'jalik kadrlari, jumladan, rahbar kadrlarni tayyorlash sohasida qaror qabul qildi. Unda qishloq xo'jalik kadrlari – kolxoz raislari, brigadirlar, ferma mudirlari, hisobchilarni tayyorlash, sifatini yaxshilash maqsadida 1947-yilda

viloyat va respublikalarda bir va ikki yillik davlat maktablari ochish, ular qoshida bilim va tajriba oshiradigan namunali xo'jaliklar tashkil etish kabi masalalar ko'rildi. Qarorga muvofiq SSSR Ministrlar kengashi qishloq xo'jalik rahbar xodimlari tayyorlaydigan birlashgan davlat maktablari shaxobchasini tasdiqladi. O'zbekistonda ham har biri 500 kishiga mo'ljallangan ikki maktab Toshkent va Samarcandda ochildi. O'quv muddati ikki yil bo'lgan qishloq xo'jalik rahbarlarini tayyorlaydigan davlat maktablari o'quvchilarga umumiylumot bilan bir qatorda qishloq xo'jaligiga doir maxsus bilim ham berildi, ya'ni qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish, dehqonchilik asoslari, chorvachilik va boshqa shu kabi bir qancha darslar o'qtildi. 1948-1950-yillarda maktablarning ikki yillik bo'limlarida 740 kishi tayyorlangan bo'lsa, olti oylik kurslarda 960 kolxoz raisi malaka oshirdi. 1976-1985-yillar orasida kolxoz va sovxozi rahbar va mutaxassislari soni 58,4 mingdan 80,3 mingga, shu jumladan, oliy va maxsus o'rta ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar 32,9 ming kishidan 59,0 mingga ko'paydi. Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi mutaxassislarining sifat tarkibi biroz yaxshilangan bo'lsa-da, markaz o'z ayblarini yopish maqsadida, qishloq xo'jaligining turg'un holatga tushib qolishining bosh sababini mahalliy kadrlar mas'uliyatsizligiga taqadi. Aslida ittifoq tomonidan mahalliy sharoitlar hisobga olinmay yuqorida turib, kolxoz va sovxozlarga bir qolipdagagi yo'l-yo'riqlar berilaverGANI qishloqdagi rahbar va mutaxassislar, barcha mehnatkashlarning tashabbuslarini bo'g'ib qo'yib, ishni me'yor bilan boshqarishga xalaqit berayotgandi. Mahalliy mutaxassislar bilan noto'g'ri munosabatda bo'lib kelinganligi, ularning bilim va tajribalariga mensimasdan qaralganligi ham qishloq xo'jaligi ishlaring orqada qolayotganligining sabablaridan biri edi.

Sovet tuzumi sharoitida hukmron siyosat mahalliy kadrlarning o'z milliy manfaatlarini chegaralash uchun imkon bo'lgan barcha chora-tadbirlarni ko'rди. Ularni umumiylenglik va kambag'allikka mahkum etdi. Qishloqlarda yashovchi aholi kolxozda ishlashdan bosh tortsa, tomorqalari tortib olingan va ko'chaga haydalardi. O'zbekiston bo'yicha qishloq axolisining moddiy ahvoli ham past darajada bo'lib, respublika agrar sohasidagi ishchi kuchining qiymati ham ittifoq bo'yicha past qiymatlardan biri hisoblanardi. O'zbekiston kolxozchisi ishlagan bir ish kuni uchun 1980-yillarning o'rtalarida 5 rub. 88 kop., Tojikistonda 6 rub. 04 kop., Qirg'izistonda 6 rub. 90 kop., Turkmanistonda 7 rub. 03 kop., RSFSRda 8 rub. 03 kop., Litvada 9 rub. 90 kop., Estoniyada 14 rub. 04 haq olardi.

Shuningdek, mexanizatorlar tayyorlashda ham muammolar mavjud edi. O'zbekiston qishloq xo'jaligiga mexanizatorlar tayyorlashda mamlakatning boshqa mintaqalariga nisbatan katta tafovut bo'lgan. Mexanizator kadrlarning sezilarli kamayishiga ish jarayonining og'irligi, tabiiy muhitning zaharlanganligi, texnikaning noqulayligi va boshqa sabablar bo'lib, mexanizatorlar chang, zaharli kimyoziy dorilarning qo'llanishi Yuqori bo'lgan dalalarda katta kuch bilan dastakni boshqargan holda mehnat qilganlar. CHangning quyuqligi, yozda xavo haroratining 40-43 gradusga etganligi traktorchilarning nafas olishlarini qiyinlashtirgan. Shu sababli ularda surunkali kasallanish hollari yuqori darajada bo'lgan. Tekshiruvlarning ko'rsatishicha, aksariyat mexanizatorlar nafaqa yoshiga oz yil qolishiga qaramay, 40-45 yoshlarida traktorchilik kasbini tashlashga majbur bo'lgan. Faqat ishlovchilardan 3% i 45 yoshgacha borgan, 50 yoshdan yuqorilari 1% ni tashkil etgan. Biroq paxtachilik sohasida ishlagan mexanizatorlarga qarilik nafaqasi boshqa qishloq xo'jalik sohasida ishlovchi ishchi va xizmatchilar bilan bir xilda berilgan. Ularga og'ir va zararli muhitda ishlaganligi uchun qo'shimcha imtiyozlar berilmagan.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Sovet milliy siyosat nazariyasini qanday g'oyalar tashkil etadi va ularning asl mazmun-mohiyati nimadan iborat?
2. "Sovet xalqi" tushunchasi nimadan iborat va uni O'zbekistonda amalga oshirilishi jarayonini ochib bering.
3. Milliy ishchi, injener-texnik xodimlarni tayyorlash masalasidagi sovetlarcha yondashuvni tushuntiring.
4. Sovet milliy siyosati va til masalasini ochib bering.
5. Sovet milliy siyosatini O'zbekistonda amalga oshirishning oqibatlari nimadan iborat?
6. Sovetlarning XX asr 20-30 yillarda o'tkazilgan "mahalliylashtirish" siyosatining mazmun-mohiyati nimadan iborat?

#### **Kalit so'zlar:**

Sovet milliy siyosati, millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi, milliy kadrlar, sovet xalqi, mahalliylashtirish, til, nazariya, g'oya.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Murtazayeva R.X. Tolerantnost kak integriruyushiy faktor v mnogonatsionalnom Uzbekistane. – Tashkent: Uzbekistan, 2010. – S.47-80.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R. Uzbekistan mnogonatsionalnyy: istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent: Yangi asr avlod, 2011. – S.91-112.
2. Bobojonova N.A. Sovet totalitar siyosatining O'zbekiston axolisi milliy tarkibi shakllanishiga ta'siri (1941-1990-y.). tarix fanl.nomzodi...dis.avtoreferati. – Toshkent, 2008.
3. Yimanova D.A. O'zbekistonda sovet tuzumining kadrlar siyosati va uning oqibatlari (1945-1991-y.). tarix fanl.nomz....diss.avtoreferati. – Toshkent, 2011.
4. Bo'ronova N. O'zbekistonning markazlashgan xalq xo'jaligi tizimiga kiritilishi va uning oqibatlari (sanoat misolida. 1925-1940-y.). Tarix fan.nomz....avtoref. – Toshkent, 2010. – 14 b.
5. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. – Toshkent: Sharq, 2000. – B.406.
6. Yunusova X.E. Sovet davlat milliy siyosatining ba'zi jihatlari (80-yillarda misolida) // O'zbekistonda millatlararo munosabatlar: tarix va hozirgi zamон. – Toshkent, 2003. – B.191.
7. Xasanov B. Repressii protiv intelligensii Uzbekistana v 20-30-e godы i ix posledstviya // O'zbekiston tarixi, 2000. – №1-2. – B.106.
8. Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik (oliy o'quv yurtlarining magistrлari uchun o'quv qo'llarma). – Toshkent: Universitet, 2007.
9. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar: tarix va hozirgi zamон (ilmiy-amaliy anjuman). – Toshkent, 2003. B. 108-111, 126-130, 186-189, 245-251.
- 10.Uzoqov H. O'zbekistonda mustaqillik uchun kurash tarixi (1900-1940-y.). tarix fanl.dokt...diss.avtoreferati. – Toshkent, 1996.
11. Ishanxodjayeva Z.R. Repressivnaya politika sovetskoy vlasti i kultura Uzbekistana: tragediya vyjivaniya (1925-1959 gg.). – Tashkent: Taffakur, 2011. – 18 p.l.
12. Saipova K.D. Istorya Narodnogo komissariata po natsionalnym delam TASSR (1918-1924 gg). Avtoref. Diss.k.i.n.- Tashkent, 2011.
13. Yusupov Z.U. O'zbekiston madaniyatida milliylik va baynalmillalik (1970-2000-y.). Tarix f.nom.diss. avtoref. – Toshkent, 2011.
14. Asatova G.R. YAzykovaya politika v Uzbekistane v XX veke: sut, posledstviya i uroki. Avtoref...kand.ist.nauk. – Tashkent, 2004.

## **9-mavzu. AHOLI RO'YXATGA OLISH KAMPANIYALARI. O'ZBEKİSTONNING ETNO-DEMOGRAFIK HOLATI.**

### **Reja**

1. Sovet davri aholi ro'yxatga olish kampaniyalari va O'zbekiston axolisining milliy tarkibi.
2. Sovet davlatining ko'chirish siyosati.

#### **1. Sovet davri aholi ro'yxatga olish kampaniyalari va O'zbekiston axolisining milliy tarkibi**

Rossiyadagi fevral inqilobi va ayniqsa oktabr to'ntarishi mintaqada taraqqiyotning tabiiy-tarixiy jarayonini tubdan o'zgartirdi. 1917-yil oktabr to'ntarishining va shundan keyingi davrlarning ijtimoiy ag'darto'ntarları natijasida ijtimoiy munosabatlar haddan tashqari keskinlashganligi, Turkiston o'lkasida, shu jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

Urush harakatlari, yuqumli kasalliklarning tarqalishi, iqtisodiy vayrongarchiliq ko'pgina konlarning va ishlab chiqarish korxonalarining yopilib qolganligi, 1917-1918-yillardagi dahshatli hosilsizlik natijasida ko'pgina xo'jaliklar xonavayron bo'lganligi aholi orasida o'limni ko'paytirib, tug'ilish darajasini kamaytirdi. Aholining umumiy soni kamayib ketdi. Farg'ona viloyatining o'zidagina qishloq axolisi salkam 25% ga kamaydi.

1920-yilda Turkiston ASSRda 5.221963 kishi yashab, shundan o'zbeklar 2.050755 kishi yoki 39,3%ni qozoqlar, 1.091925 kishi yoki 20,8%ni, qirg'izlar 522292 kishi yoki 10,0%ni, tojiklar 399912 kishi yoki 7,7%ni, turkmanlar 266681 kishi yoki 5,1%ni, qoraqalpoqlar 75334 kishi yoki 1,4%ni, ruslar 536671 kishi yoki 10,3%ni tashkil qilar edi.

1918-1922-yillardagi fuqarolar urushi munosabati bilan demografik vaziyat jiddiy ravishda o'zgardi. Migratsiya jarayonlari kuchaydi, tub joy bo'limgan aholining o'lkadani ko'chib ketishi o'sdi. Biroq, baribir kelgan aholi ma'lum foizni tashkil qilgan, uning eng ko'p qismini hamon sharqiy slavyanlar tashkil qilar edi. Ularning soni jihatidan Samarqand viloyati birinchi, Sirdaryo viloyati ikkinchi o'rinda turar edi. Mazkur hududlar milliy tarkibi quyidagicha edi. Sirdaryo viloyatida jami aholining 8,0% ruslar, 4,7% ukrainlar, 0,2% beloruslar; Farg'ona viloyatida 3,2% ruslar, 2,2% ukrainlar; Samarqand viloyatida 0,5% ruslar, 0,1%ni ukrainlar tashkil etgan.

Shunday qilib, ruslar sharqiy slavyan diasporasida ko'pchilikni tashkil qilar, ukrainlar undan keyingi o'rinda turib, beloruslar soni esa juda ozchilikni tashkil qilar edi. Nisbatan qisqa tarixiy muddatda Turkiston o'lkasi hududida sharqiy slavyanlarning kuchli diasporasi vujudga kelib, ular keyinchalik mintaqaga respublikaning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishiga juda katta ta'sir o'tkazdi.

1921-yil bahoridan kelgindi aholining ko'chib ketishi o'mini Rossiyaning ocharchilik avj olgan viloyatlaridan aholining ko'chib kelishi egalladi. Ular Turkiston yerlariga tezlik bilan o'rashib ola boshladilar. Sovet hokimiyati tomonidan mazkur aholini avvalo "Sirdaryo va Samarkand viloyatlarining dehqon axolisi orasiga" joylashtirish tavsya etildi.

Rossiya imperiyasi mustamlakachiligidan sovet mustamlakachiligining farqi shundan iborat ediki, u xalqlar do'stligi, tenglik va qardoshliq insonparvarlik va ijtimoiy adolat shiorlarini e'lon qiluvchi yangi maskura asosiga qurilgan edi. O'z navbatda bu shiorlar, bag'rikenglik va mehmondo'st tub joy axolisining ruhi va mentalitetiga mutlaq mos tushar edi. Shu bois Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq turli xalqlarni O'zbekistonga deyarli bemalol ko'chirish siyosati boshlangan edi.

20-yillarning boshlarida hozirgi O'zbekiston hududi Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR), Buxoro Xalq Sovet Sotsialistik Respublikasi (BXSSR) va Xorazm Xalq Sovet Sotsialistik Respublikaşı (XXSSR) o'rtasida taqsimlangan edi. Jami o'zbeklarning 66,5 % TASSRda, 22,2 % BXSSRda, 11,3 % XXSSRda yashar edi.

O'zbeklar TASSR axolisining 51,4 %, BXSSR axolisining 50,1 % va XXSSR axolisining 6,0 % tashkil qilar edi.

O'rta Osiyodagi 1924-yilgi milliy davlat chegaralanishidan keyin, mintaqaga hududida Turkmaniston SSR, O'zbekiston SSR, O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR, Rossiya Federatsiyasi tarkibida Qoraqirg'iziston avtonom viloyati, Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqpog'iston avtonom viloyati tashkil etildi.

O'sha paytda sobiq Rossiya imperiyasi hududida yashab turgan barcha o'zbeklarning 82% O'zbekiston tarkibiga, barcha tojiklarning 75,2% Tojikiston tarkibiga kiritildi. CHegaralarini o'tkazishda yo'l qo'yilgan xatolar sababli yangi tuzilgan respublikalar hududida etnik guruhlar ko'payganligini ta'kidlab o'tmoq kerak.

1926-yilgi Butunittifoq aholi ro'yxatining ko'rsatishicha, o'sha davrda hozirgi O'zbekiston hududida 4 million 447 ming 555 kishi

yashagan. Ana shu ro'yxat O'zbekistonda etno-demografik manzara juda har xil ekanligini ham ko'ssatadi. Aynan shu davrda 65 dan ortiq turli millat, elat va xalq vakillari istiqomat qilganlar.

1926-yilda O'zbekiston chegaralarida respublikaning asosiy millati – o'zbeklarning soni salkam 3,5 million kishiga etdi. Salkam 1 million kishidan iborat bo'lgan tojiklar butun O'zbekiston axolisining 18,4%ini tashkil etib ikkinchi o'rinda edilar. Mamlakatdagi tojiklarning salmog'i bu qadar ko'pligining sababi shuki, 1926-yilgi axolisi ro'yxati vaqtida asosan tojiklar yashaydigan Xo'jand okrugi O'zbekiston tarkibiga kirib, keyinchalik bu okrug Tojikiston tarkibiga kiritildi.

1926-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra, sharqiy slavyan diasporasi 275 ming kishidan ko'proq bo'lib, O'zbekiston jami axolisining 5,3%ini tashkil qilar edi. Mazkur aholi ro'yxati vaqtida "Tub millatlar" deb atalgan guruh alohida ajratilib unga o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, quramalar, uyg'urlar, qipchoqlar, arablar, qoraqalpoqlar, turkmanlar, turklar, O'rta Osiyo yahudiyлari, eroniyilar, qashg'arliklar va shu kabilar kiritildi. Ba'zi xalqlar kabilia va urug'larga bo'lindi. Masalan, quramalar, qipchoqlar va turklar o'zlarini qabila nomlari bilan atar edilar, keyinchalik ular o'zbek millatiga qo'shilib ketdilar. Qoraqalpoqlar 120 dan ko'proq urug'ni o'z ichiga oluvchi 12 guruh qabilalariga bo'linar edi.

#### **1926-yil aholi ro'yhatiga ko'ra O'zbekistonning milliy tarkibi (tegishli yil chegaralarida)<sup>1</sup>**

Millati	Ming kishi	%
jami aholi	5267,7	100,00
<b>shu jumladan:</b>		
o'zbeklar	3475,3	66,0
tojiklar	967,7	18,4
ruslar	246,5	4,7
qozoqlar	107,0	2,0
qirg'izlar	90,7	1,7
quramalar	50,1	1,0
uyg'urlar	31,9	0,6
qipchoqlar	32,8	0,6
tatarlar	25,4	0,5
ukrainlar	25,8	0,5

<sup>1</sup> Manba: 1926 yilgi Butunitifoq aholi ro'yhati. 1926. T.XV.- M., 1928. -- B.8-9

arablar	28,0	0,5
goraqpoldorlar	26,6	0,5
turkmanlar	25,9	0,5
turklar	22,5	0,4
yevropalik yahudiylar	19,7	0,4
O'rta Osiyolik yahudiylar	18,2	0,3
armanlar	15,0	0,3
eroniylar	9,8	0,2
qashg'artliklar	9,2	0,2*
nemislar	4,4	0,1
beloruslar	4,6	0,1
lo'lilar	3,5	0,1
polyaklar	3,7	0,1
moldovanlar	1,8	0,03
boshqalar	15,2	0,29

Aholi ro'yxati ma'lumotlarining ko'rsatishicha, mahalliy bo'lmagan aholi, asosan, 1917-yil oktabridan keyin ko'chib kelganlardan iborat bo'lgan. Bu yerda 9 yilgacha, ya'ni 1917-yildan keyin yashaganlar ulushi erkaklar orasida ham, ayollar orasida ham uchdan ikkini tashkil etadi. Migrantlar orasida 15-39 yosh guruhlari 62,9%, shu yerda tug'ilganlar esa 42,5%ga to'g'ri keladi. Kelgindi aholining qariyb yarmi ruslar edi. 1926-yilda O'zbekiston hududida 246,5 ming rus xalqi vakillari asosan shahar joylarda yashar edilar. O'zbeklar va Markaziy Osiyoning boshqa axolisining shaharlardagi ulushi kamroq (33,4%) bo'lgan. Boshqa millatlar axolisining asosiy qismi ukrainlar, qozoqlar, tatarlar, turkmanlar edi. Mahalliy bo'lmagan aholining 77,6%ini ruslar tashkil etgan.

Fuqarolar urushi va chet el harbiy intervensiysi davrida, O'zbekistonning joylarida ham aholining shaharlardan qishloqqa siljish jarayoni sodir bo'ldi. Chunonchi, 1913-yilda hozirgi O'zbekiston hududidagi shaharlarda 1060 ming yoki jami aholining 24,5%i yashagan bo'lsa, 1924-yilga kelib, shahar axolisi 866 ming kishiga, salmog'i esa 20,3%ga tushib qoldi.

Keyingi yillarda mahalliy aholi yana shaharlarga qayta boshladidi. O'zbekiston SSR tashkil etilgan yil (1924-yil)da Respublikada 4258 kishi, shu jumladan shaharlarda 866 ming (20,3%) va qishloqlarda 3392 (79,7%) kishi yashagan edi. 1926-yilga kelib shahar axolisining soni 1102 kishiga etib, ikki yil mobaynida 27,3 %ga qadar o'sdi.

30-yillarning boshlarida O'zbekistonda sanoat yangidan barpo etilib, rivojlana boshladi. Shu davrda shahar axolisi qishloq axolisidan ko'ra tezroq ko'paydi, shubhasiz, bunda migrantsyaning ma'lum hissasi bor edi.

Shu davrda dehqonlarni tashkiliy ravishda ko'chirish ham davom etdi. Bu ish bilan sobiq SSSR Butunittifoq Markaziy Ijroqo'mi huzuridagi Butunittifoq Ko'chirish Qo'mitasi shug'ullandi, bu qo'mita keyinchalik sobiq SSSR Xalq Komissarlari Kengashi huzuridagi Bosh ko'chirish boshqarmasiga aylantirildi.

Mamlakatning Yevropa mintaqalaridan migrantsiya oqimlarining sifati asta-sekin o'zgara boshladi, ya'ni O'zbekistonga ishga yuborish bilan ayni bir vaqtida fabrika-zavod xodimlarining uyushmagan oqimlari ham kelaverdi. Mahalliy yoshlarni esa o'qish va kasb-hunar o'rganish uchun asosan, Rossiya va Ukrainaga borishi yo'lga qo'yildi.

1926 va 1939-yillardagi Butunittifoq aholi ro'yxatlari o'rtasidagi davrda O'zbekiston axolisining soni va milliy tarkibida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'rinda muayyan hududlarni bir Respublikadan ikkinchisiga olib berish bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni ham ko'rsatib o'tish lozim.

Masalan, 1929-yilda Xo'jand okrugini Tojikiston ASSRga o'tkazish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi. Natijada Tojikiston ASSR axolisining soni 1.156015 kishiga etdi, shundan 78%ni tojiklar edi. O'sha yilning oktabrida Tojikiston ittifoqdosh Respublikaga aylantirildi va O'zbekiston tarkibidan chiqdi.

Qaraqalpog'iston avtonom viloyati esa 1930-yildan bevosita Rossiya Federatsiyasi tarkibiga kirar, 1932-yilda u avtonom respublikaga aylantirib, 1936-yildan O'zbekiston SSR tarkibiga kirdi.

Respublika axolisining milliy tarkibi shu davrda sobiq Sovet Ittifoqidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatda shakllandi. Sobiq SSSRning ko'pgina respublikalarida fuqarolar urushi tugab, ommaviy qatag'onlar boshlangan edi. Qishloq axolisining nisbatan boyroq qatlamlari – "quloqlar", shuningdek ziyorilar, ruhoniylar, butun-butun xalqlar qatag'onga duchor bo'ldi. Iqtisodiy sohada esa bu davrda yuzaga kelgan bir qator iqtisodiy muammolar keyinchalik sobiq Ittifoqning ko'pgina mintaqalariga falokat keltirdi.

Sovet jamiyatida qayd etib o'tilgan va boshqa bir qancha keskin o'zgarishlar aholining sobiq Sovet Ittifoqi ko'pgina respublikalaridan O'zbekistonga va Markaziy Osiyoning boshqa respublikalariga ixtiyeriy yoki majburiy ko'chishiga ham sabab bo'ldi.

Qishloq xo'jaligini zo'r lab kollektivlashtirish munosabati bilan "quloqlar"ni surgun qilish tadbiri majburiy ko'chirishning katta to'lkinini yuzaga keltirdi. Uning ikki manbai bor edi: 1) butun mintaqaning tub joy axolisi va shimoliy Kavkazning milliy tumanlaridan surgun qilinganlar. 2) 30-yillarning o'rtalarida Sibir va Qozog'istonga surgun qilingan, ammo iqlinga o'rgana olmaganlarning ma'lum bir qismi.

Rossiyada, asosan uning musulmon aholi respublikalari (Tatariston, Boshqirdiston, CHuvashiston)da quloq qilinish va siyosiy quvg'inga uchrash xavfi ostida qolgan aholi ham bu yerlarga ko'chib kelishga majbur bo'lgan edi.

30-yillardagi ocharchilik ham, asosan, Volgabo'yidan va Rossiyaning boshqa tumanlaridan, shuningdek Ukrainadan aholining O'zbekistonga va Markaziy Osiyoning boshqa respublikalariga ko'plab oqib kelishiga sabab bo'ldi.

Sobiq SSSRdagagi migratsiya jarayonlarini tartib soluvchi tegishli sovet ma'murlarining ta'siri kuchli edi. Aholi siljishini ro'yxatga olish targ'iboti va uy-joy taqsimoti tizimi ular tomonidan qatiy tarzda cheklab turilar edi. Kokxo'zchilar bu tizinga ko'proq qaram bo'lib, o'sha paytlarda ularning hatto pasportlari mayjud emas edi.

Mamlakatni industrlash siyosati jarayonida sobiq SSSR markazidan slavyan respublikalaridan malakali mutaxassislar va ishchilar tashkiliy ravishda, reja asosida yuborila boshlandi. O'zbekistonga asosan, rus ishchilari doimiy yashash uchun ko'chib kela boshladilar. Masalan, 1930-yilda mamlakatning to'qimachilik markazlaridan O'zbekistonga 300 nafar malakali to'quvchi va ip yigiruvchi yuborildi, ular respublika yangi to'qimachilik korxonalarini ishchilarining asosiy o'zagini tashkil etdi. 1931-yilda Rossiyadan hammasi bo'lib, 15 ming turli kasblarning malakali ishchilari etib keldi.

Birinchi besh yillik davrida O'zbekistonning yirik sanoatiga 57 ming nafar ishchi kelib qo'shildi. Zero, o'sha davrda mahalliy millat ishchilarini 4 ming kishidan oshmas edi.

Sanoat korxonalarini qurilishida ishslash uchun Rossiyadan O'zbekistonga 1933-yilda 3062, 1934-yilda 3500, 1935-yilda 3000 nafar ishchi yuborildi. 1933-1938-yillarda O'zbekistonga hammasi bo'lib 650 ming kishi, shu jumladan Rossiyadan 94,3 ming kishi ishslash maqsadida ko'chib keldi.

Respublika ishchilar sinfi ko'p jihatdan chetdan keltirilgan ishchi kuchi hisobiga shakllantirilganligi, markazning mustamlakachilik siyosati oqibati edi. Chunonchi, sobiq SSSR Gosplani (Davlat

Rejalashtirish Komiteti)ning sanoatda birinchi besh yillik rejani ishlab chiqishga bag'ishlangan majlisida (1927-yil fevral) aniq qilib shunday deyilgan edi: "O'rta Osiyo kabi mamlakatlarda chetdan keltirilgan ishchi kuchi asosida darhol yirik sanoatni barpo etish afzalroqdir". Garchi ishchilar sinfining milliy kadrlarini shakllantirish yo'lida qadamlar qo'yilgan va ularning soni ko'paygan bo'lsa ham, ammo foiz jihatdan ularning soni juda ozchilikni tashkil qilar edi. Masalan, 1926-yilda ishchilar orasida o'zbeklar 50,4%ni, 1936-yilda esa 36,5%ni tashkil etdi xolos.

Sobiq SSSRda 20-30-yillarda xorijiy mamlakatlardan keluvchi muhojirlar, ishchilar sinfi saflarini to'ldirish yo'llaridan biri edi. 5- 10 yil muddatga vaqtincha kelgan bunday muhojirlarning bir qismi doimiy yashash uchun sovetlar mamlakatida qolar edi.

Mintaqa xalq xo'jaligida 70 mingga yaqin eroniy, Xitoyning shimaliy-g'arbidan kelgan ko'pgina muhojirlar bor edi. Ular konchilik sanoati, neft konlari, temir yo'l qurilishi, turli zavodlarda ishlar edilar. Toshkent yaqinidagi paxta tozalash zavodi qurilishining o'zida 640 nafar ajnabiy ishchi bor edi.

1939-yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati dasturida birinchi marotaba milliy tarkib to'g'risidagi katak ko'zda tutilgan bo'lib, undagi ma'lumotga ko'ra, O'zbekistonda yashovchi ruslar soni 727,3 ming kishiga etdi va 1926-yilga nisbatan 480,8 ming kishiga yoki kariyb uch baravarga ko'paydi.

Bu – O'zbekistondagi ruslar soni eng ko'p miqdorda o'sgan davr bo'ldi. Shu davr (1926-1939-yillar) mobaynida ularning respublika axolisi tarkibidagi salmog'i 6,8%ga ko'payib, 11,5%ga etdi. Shu vaqt ichida O'zbekiston axolisining umumiy sonida tatarlar, qozoqlar, ukrainlar, boshqirdlar va tojiklar soni ham birmuncha ko'paydi.

Ana shularning natijasida respublika asosiy axolisining ulushi qisqara boshladи. 1926-1939-yillarda O'zbekiston jami axolisi tarkibida o'zbeklarning ulushi 2,5%ga kamayib, 65%ni tashkil etdi. Ammo, shu vaqt ichida respublikadagi o'zbeklarning soni 524,7 ming kishiga ko'payib, 1939-yilda 4,1 mln. kishiga ham etgan edi.

Ikkinci jahon urushi (1939-1945-yillar), Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston uchun juda xilma-xil demografik oqibatlarni keltirib chiqardi. Jumladan, u respublika axolisining milliy tarkibi xususiyatlarida ham bevosita aks etdi. Farzand ko'rish yoshidagi erkaklar frontga chaqirilishi va ularning ko'pchiliginini urushda halok bo'lishi natijasida tub joy aholi orasida tug'ilish kamayib ketdi. Urush

yillarida aholi orasida tabiiyki oila qurish jarayoni pasaydi, mavjud oilalar ham erkaksiz qoldi, aholining tabiiy ko'payishi esa eng past darajaga tushib ketdi.

Urush yillarida aholining migratsiyasi demografik o'sish nuqtai nazaridan katta ijobiy samaraga ega bo'ldi. Ma'lumki, urush boshlangach, harbiy rayonlarning axolisi mamlakat ichkarisiga — mamlakatning sharqiy rayonlariga, shu jumladan O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'istonga ommaviy ravishda ko'chirila boshlandi.

O'zbekistoniga urushning dastlabki yillarida qisqa vaqt ichida Rossiya, Ukraina, Belorussiya va boshqa respublikalardan butun-butun zavodlar, fabrikalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliv o'quv yurtlari, kutubxonalar, loyiha tashkilotlari evakuatsiya qilindi. Ular O'zbekistonda asosiy ishlab chiqarish xodimlari bilan birga joylashtirilib, xodimlarning ko'pchiligi esa o'z navbatida oilalari bilan kelgan edilar. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistoniga 90 ta zavod asosiy kadrlar tarkibi bilan ko'chirib keltirildi. O'zbekistoniga ko'chirilgan salkam 1 mln. kishining 70%i Rossiyadan kelgan edi. Mazkur zavodlar negizida CHkalov nomidagi aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, "Sredazkabel" ishlab chiqarish birlashmasi, "Chirchiqselmash", "O'zbekselmash", "Tashtekstilmash", "Pod'yomnik", abraziv buyumlar zavodi kabi yirik sanoat obyektlari qad ko'tardi. Ular hozirgi paytgacha respublikaning yirik sanoat korxonalari sifatida sanalib turmoqda. Zavodlar bilan birga kelgan xodimlarning bir qismi urushdan keyin O'zbekistonda doimiy yashash uchun qoldilar.

Shuningdek, urush yillarida mamlakatning g'arbiy okkupatsiya qilingan joylaridan turli millatlarga mansub ko'plab kishilar ommaviy ravishda bu yerga qochib kelishga majbur bo'lgan edilar.

O'lsa xalqlarining bag'rikengligi, mehmondo'stligi, baynalminal tarbiyasi urush yillarida, ayniqsa qochqinlarni qabul qilib olishda yaqqol namoyon bo'ldi. Ko'pgina o'zbek oilalari ota-onasi urushda halok bo'lgan turli millat farzandlarini o'z qaramog'iiga olib, asrab oldilar.

Shu yillarda ham O'zbekistoniga boshqa xalqlarning vakillari (polyaklar, qrim tatarlari, bolqorlar, mesxeti turklari va boshqalar)ni deportatsiya qilish jarayoni davom etdi. Masalan, mesxeti turklari 1944-yilda Gruziyaning janubiy va janubi-g'arbiy tumanlaridan ko'chirildi. Majburan ko'chirilgan 115 mingdan ortiq kishining aksariyati "maxsus ko'chirilganlar" huquqi bilan aynan O'zbekistoniga kelib joylashtirildi.

1944-yil dekabr oyida Toshkent shahar ijroqo'mi huzurida maxsus ko'chirish bo'limi tashkil etildi, 1946-yil fevralida uning nomi ko'chirish

bo'limi deb o'zgartirildi. Mazkur bo'limning malumotlariga ko'ra 1944-yilning noyabrida 566 turk xo'jaligi (2260 kishi) Sirdaryo tumaniga, 463 xo'jalik (1787 kishi) Mirzacho'l tumaniga joylashtirildi.

Turmush sharoitlari og'irligi bois ushbu ko'chirilganlarning bir qismi vafot etdi. Shunga qaramay, 1946-yilda O'zbekistonda maxsus ko'chirib keltirilgan turli millat vakillaridan 179992 kishi yashar edi.

Urushdan keyingi yillarda ham, 70-yillarning o'rtalarigacha O'zbekistonga aholining migratsiyasi davom etdi. Urushdan keyingi dastlabki davrda demografiya sohasida alohida o'ziga xoslikka ega bo'ldi. Jumladan, shu yillar (1946-1955-yillar)da oila qurish o'sib, natijada tug'ilish jarayoni sezilarli ravishda ko'paydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayniqsa tub joy aholi orasida farzand qurish darajasi ortdi.

Urush yillarda aholi kamayib ketganligining o'rni tez orada to'lib ketib, shu tariqa "kompensatsiya effekti" deb ataladigan hodisa yuz berdi.

Urush yillarda O'zbekistonga ko'chib kelgan ko'pgina yevropa-liklar — ruslar, ukrainlar, beloruslar va boshqa millat namoyondalari urushdan keyin sekin-asta o'z yurtlariga qaytib keta boshladilar, ammolarning bir qismi O'zbekistonda doimiy yashash uchun qolib ketdi.

1949-yilda Toshkent, Chirchiq, Bekobod, Yangiyo'l shaharlariga Gretsiyadan siyosiy muhojirlarning kattagina guruhi keldi. Bu yerda ularni samimiy qabul qilib olib, uy-joy va ish bilan ta'minladilar. Oradan 40 yil o'tgach, 1989-yilning kuzida Gretsiya parlamenti ularni o'z yurtiga qaytishlariga ijozat beruvchi qonun qabul qildi, natijada greklarning repartatsiya jarayoni boshlandi.

1939-yilgi Butunitifoq aholi ro'yxati paytiga kelib, O'zbekistonda yashovchi ruslar soni million kishiga etdi. Respublikaning milliy tarkibida ularning salmog'i 1939-yilga nisbatan 1,9% ko'payib, 13%ga etdi. Shu vaqt ichida urushning demografik oqibatlariga qaramay, ko'p jihatdan aholining urush tufayli ko'chib kelishi natijasida O'zbekistonda yashaydigan ruslar soni 324.4 ming kishiga yoki 1,6 barobarga ko'paydi.

Mazkur davrda respublikadagi tatarlar, yahudiylar, beloruslar, osetinlar, boshqirdlar, chuvashlar, ozarbayjonlar, uyg'urlar va boshqalarning soni ayniqsa ortib bordi. Masalan, 1959-yilda 1939-yilga nisbatan O'zbekistonda yashovchi ozarbayjonlar soni 11 barobardan ziyod, osetinlar qariyb 5 barobar, boshqirdlar, beloruslar, koreyslar, tatarlar, chuvashlar, uyg'urlar, yahudiylar 2 barobar va undan ham ko'proq darajada ortdi.

1959-yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati malumotlariga ko'ra O'zbekistonda 444,8 ming tatar, 138,5 ming koreys, 94,3 ming yahudiy, 87,4 ming ukrain, 40,5 ming arman, 27,4 ming ozarbayjon va shu kabilar yashar edilar.

1939-1959-yillarda ayrim millatlar bo'yicha O'zbekiston axolisi sonining qiyosiy ko'payishi, shuningdek mazkur davrda aholining milliy tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

**1939 va 1959-yillarda O'zbekiston axolisining milliy tarkibi.<sup>1</sup>**

millati	1939-yil		1959-yil	
	Ming kishi	%	Ming kishi	%
Jami aholi	6.271,3	100,0	8.105,7	100,0
<b>shu jumladan:</b>				
o'zbeklar	4.081,1	65,0	5.031,3	62,2
qoraqlpoqlar	181,4	2,8	168,3	2,1
ruslar	727,3	11,5	1.090,7	13,4 *
tatarlar	147,2	2,3	444,8	5,5
qozoqlar	305,4	4,8	335,3	4,1
tojiklar	317,6	5,1	311,4	3,8
koreyslar	72,6	1,2	138,5	1,7
yahudiyalar	50,7	0,8	94,3	1,2
qirg'izlar	89,0	1,4	92,7	1,15
ukrainlar	70,6	1,1	87,9	1,1
turkmanlar	46,5	0,7	54,8	0,7
ozarbayjonlar	3,6	0,05	40,5	0,5
armanlar	20,4	0,3	27,4	0,35
uyg'urlar	50,6	0,2	19,3	0,2
moldovanlar	12,5	0,2	14,6	0,15
boshqirdlar	7,5	0,1	13,5	0,15
beloruslar	4,0	0,07	9,5	0,1
osetinlar	1,9	0,03	8,8	0,1
lo'lilar	5,4	0,1	7,9	0,1
chuvashlar	2,9	0,02	5,2	0,05
dog'iston	-	-	3,3	0,04

<sup>1</sup>1939 yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati, Rossiya Federatsiyasi Markaziy Statistika boshqarmasining Markaziy arxivni, F-1, Op 3, D- 620; 73-78-79-80-81-betlar; 1959 yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati yakunlari. O'zbekiston SSR. M., 1962. 138- 143-betlar.

elatlari				
gruzinlar	2,6	0,02	2,5	0,02
boshqalar	69,8	1,1	90,2	1,28

1939-yilga nisbatan respublika axolisi umumiy sonida o'zbeklarning ulushi 1959-yilda 28%ga qisqardi va 62,2%ni tashkil qildi. Tahlil etilayotgan yigirma yil mobaynida o'zbeklarning soni 1 million kishiga ko'paydi, bunda urushning salbiy oqibatlarini ham e'tiborga olish kerak. Shu vaqt ichida O'zbekistonning milliy tarkibida tatarlar, koreyslar, yahudiylar, armanlar, ozarbayjonlar va boshqalarning ulushi o'sdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrlarda ham shahar ham qishloq axolisining ko'p millatli tarkibi shakllanganligini ta'kidlab o'tmoq kerak.

Ikkinchи jahon urushidan avvalgi yillarda shahar va qishloq axolisining milliy tarkibi ko'chib kelgan aholi hisobiga qariyib babbavar tarzda shakllangan bo'lsa, urushdan keyingi davrda bu aholi yevropalik millatlarga mansub shaxslar asosan shaharlarda o'mashib oldi. Bu hol 1926, 1939 va 1959-yillardagi aholi ro'yxati ma'lumotlarida o'z aksini topdi. Keyingi davrlarda bu tamoyil yanada kuchaydi va mustahkamlandi.

O'zbekistonning qishloq joylarida o'zbeklarning mutlaq soni 1939-1959-yillar mobaynida 0,6 milliondan 1,0 million kishiga, qozoqlarning soni 0,3 milliondan 0,7 millionga, tojiklarning soni 0,3 milliondan 0,7 million kishigacha ko'paydi. Shundan tamoyil boshqa tub joy millatlarning kishilariga ham xos bo'ldi.

Biroq O'zbekistonning qishloq joylarida bu millatlarning ulushi bir-biridan anchagini farq qildi. Chunonchi, O'zbekistonning shahar axolisi tarkibidagi o'zbeklarning ulushi 1939-1959-yillarda 40,5%dan 37,2%ga, tojiklarning ulushi esa 3,7%dan 2,4% ga qisqardi, qozoqlarning ulushi 2,3%dan 2,6%ga qadar ko'paydi.

1939-1959-yillarda shaharlardagi yevropalik millatlar vakillarining soni ham anchagini ko'paydi. Masalan, ruslar 0,5 milliondan 0,9 million kishiga, tatarlar 0,1 milliondan 0,3 million kishiga etdi. Yahudiylar, ukrainlar, beloruslar va boshqa millatlarning soni ham shu tariqa o'sib bordi.

Ammo, O'zbekiston shahar axolisining tarkibida mazkur millatlar axolisining ulushi 1939-1959-yillarda boshqacha tarzda o'zgardi. Masalan, O'zbekiston shahar axolisining tarkibida ruslarning ulushi 35,5%dan 33,4%ga, ukrainlarning ulushi 2,7%dan 2,5%ga tushib qoldi. Ayni vaqtida, O'zbekiston shahar axolisining tarkibida koreyslar,

yahudiylar, beloruslar, armanlar, ozarbayjonlar va boshqa millatlarning ulushi ham oshdi. Tatarlarning ulushi 5,3%dan 10,5%ga, beloruslarning ulushi 0,1%dan 0,3%ga, yahudiylarning ulushi 3,1%dan 3,3%ga, koreyslarning ulushi 0,8%dan 1,6%ga qadar ko'paydi.

O'zbekiston qishloq axolisining soni 1939-1959-yillar mobaynida avvalo, tabiiy o'sish hisobiga 4,8 milliondan 5,4 million kishiga etdi, ya'ni yiliga o'rta hisobda atigi 0,3%ga ko'payib bordi.

1939-1959-yillarda O'zbekiston qishloq axolisining o'sishi shahar axolisining o'sish ko'rsatkichlaridan qariyb 15 barobar kam bo'ldi, bu esa shu davrda sodir bo'lgan ko'pgina ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'zida aks ettirar edi. Bunda yangi quruq yerlarni o'zlashtirish, industriya obyektlarini qurish va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning ham ahamiyati katta bo'ldi. Bu obyektlarga "ixtiyoriy" ravishda, haqiqatda esa ko'pincha majburiy tarzda un minglab ishchilarni, avvalo, qishloq joylardan ko'chirish va tashkiliy ishga olish yo'li bilan yuborildi. Bu siyosat O'zbekiston axolisi sonining strukturasiga ta'sir qilmasdan qolmas edi.

Ana shu va boshqa ko'pgina jihatlar O'zbekiston qishloq axolisining milliy tarkibi shakllanish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Qishloq joylarida o'zbeklarning mutlaq soni 1939-1959-yillarda 1,2 barobar ko'payib, ularning ulushi 74,4%ni tashkil qildi. O'zbekiston qishloq axolisi tarkibida boshqa tub joy millatlarning ulushi ancha qisqardi. Masalan, qozoqlarning ulushi 5,6%dan 4,9%ga, tojiklarning ulushi 5,5%dan 4,5%ga, qoraqalpoqlar ulushi 3,5%dan 2,5%ga tushib qoldi va hokazo.

Urushdan avvalgi yillarda O'zbekiston qishloq axolisi tarkibida chetdan ko'chib kelganlarning tarkibi birmuncha sezilarli darajada edi. Chunonchi, 1939-yilda O'zbekistonning qishloq axolisi tarkibida ruslarning ulushi 4,4%ni, ukrainlar ulushi 0,6%ni tashkil qilgan bo'lsa, 1959-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotiga ko'ra ruslarning ulushi 3,3%, ukrainlarning ulushi 0,4%ga teng bo'ldi, ya'ni 1939-1959-yillar mobaynida O'zbekiston qishloq axolisi tarkibida chetdan ko'chib kelganlarning, avvalo yevropalik aholining ulushi keskin qisqardi.

Mamlakatning asosiy millati – o'zbeklarning soni va salmog'i doimiy ko'payib borishi, O'zbekiston axolisi milliy tarkibi shakllanishi keyingi bosqichlarning o'ziga xos asosiy xususiyati bo'ldi. 1959-1970-yillarda o'zbeklarning soni salkam 2,7 million kishiga ko'payib, Respublika axolisining umumiyligi tarkibida ularning ulushi 65,5%ni tashkil qildi. Buni quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston demografiya tarixining qo'rilib chiqilayotgan bosqichida slavyan axolisi (ruslar va ukrainlar), shuningdek Markaziy

Osiyoning qo'shni xalqlari soni ham o'sganligi ko'rinish turibdi. Ayni vaqtida Markaziy Osiyo tub joy axolisining salmog'i asosan avvalgi darajada qolayotgan bo'lsa, mamlakat axolisining umumiy sonida ruslar va ukrainlarning ulushi qisqara boshladi.

**O'zbekiston axolisining 1970-yilgi milliy tarkibi.<sup>1</sup>**

Millati	Ming kishi	%
Jami aholi	11.799,4	100,0
shu jumladan:		
o'zbeklar	7.724,7	65,5
ruslar	1.473,5	12,5
tatarlar	573,7	4,9
qozoqlar	476,3	4,0
tojiklar	448,5	3,8
qoraqlapqlar	230,3	1,9
koreyslar	147,5	1,2
ukrainlar	111,7	0,9
qirg'izlar	110,7	0,9
yahudiyalar	102,9	0,9
turkmanlar	71,0	0,6
ozarbayjonlar	38,9	0,3
armanlar	34,2	0,3
nemislar	34,0	0,3
uyg'urlar	23,9	0,2
boshqirdlar	20,8	0,18
greklar	20,5	0,17
beloruslar	17,0	0,14
eroniylar	15,5	0,13
mordvalar	14,2	0,12
lo'lilar	11,3	0,1
chuvashlar	8,9	0,08
dog'iston elatlari	5,9	0,05
boshqalar	83,5	0,7

Mazkur jadvaldagagi ma'lumotlar ko'p jihatdan ko'nchililik, kimyo korxonalari va qo'riq yerlarni o'zlashtirish uchun chetdan ishechi kuchi keltirilishi bilan ham bog'liqidir. 1961-1975-yillar mobaynida chetdan

<sup>1</sup> 1970 yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati yakunlari, IV tom SSSR abolisining milliy tarkibi. 1-qism, 2-kitib, M., 1971. 596-bet. Qirim tatarlari qo'shib hisablang

salkam 400 ming kishi keltirdi, ularning uchdan ikki qismi Rossiya hisobidan ta'minlandi. Chetdan kelgan aholi asosan shaharlarga kelib joylashdi. Farg'ona, Chirchiq, Navoiy, Samarqand, Toshkent shaharlari migrantlar uchun eng ma'qul shaharlar toifasiga kirar edi. 1966-yilgi zilziladan keyin Toshkentni qayta tiklash uchun quruvchilarni kelishi ro'y bergan so'nggi yirik migratsiya bo'ldi. Uy-joyidan mahrum bo'lgan toshkentliklar mamlakatning boshqa tumanlariga ko'chib o'tdilar, ularning ba'zilari o'sha joylarda doimiy yashab qoldilar. Vayron bo'lgan Toshkentga turli hududlardan quruvchi, me'mor, malakali kadrlar etib kelishdi. Moskva, Leningrad, ittifoqdosh respublikalarning poytaxtlari, boshqa yirik shaharlardan yordamga kelgan jamoa a'zolaridan bir qismi qurilish ishlari tugaganidan keyin, doimiy istiqomat qilgani uchun O'zbekistonda qoldilar.

1939-1970-yillarda ko'pchilik viloyatlarda etnik xilma-xillik indeksi pasaygan bo'lsa, Buxoro viloyatida bu indeks o'sib +0,003ni tashkil etdi, Qoraqalpog'iston ASSRda +0,001 bo'ldi. Toshkent shahrida uning qiymati 0,64 dan 0,69 ga o'zgardi. Shunday qilib, O'zbekiston viloyatlari orasida milliy tarkibning xilma-xilligi kamaygan viloyatlar, xilma-xilligi ko'paygan viloyatlardan ortiqdir.

Tub joy axolisi bilan yevropalik aholining tabiiy ko'payishi jarayonlaridagi katta farq – buning asosiy sababini tashkil qiladi. Jumladan, o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar va qozoqlardagi tug'ilish ko'rsatkichlari ruslar, ukrainlar, beloruslar va boshqalardagi tug'ilish ko'rsatkichlaridan 2-2,5 barobar Yuqori bo'lgan. 1959-yildan 1970-yilgacha O'zbekistondagi ruslar soni 382,8 ming kishiga, ya'ni 13,5%ga kupaygan holda, ularning salmog'i 0,9%ga sissarib, 1970-yilda 12,5%ni tashkil etdi. Tatarlar, ukrainlar, koreyslar, yahudiylar va boshqalarning ulushi ham qisqardi.

Shu vaqt ichida tojiklarning soni 137,1 ming kishiga yoki 144%ga ko'paydi, ularning respublika axolisi umumiy sonidagi ulushi o'zgarmay qoldi (3,8%). Qozoqlar, qoraqalpoqlar, turkmanlar uchun ham mana shunday manzara xarakterli bo'ldi.

O'zbekiston milliy strukturasi rivojlanishida yuqorida qayd etilgan asosiy tamoyillar, kelgusida ham saqlanib qoldi. Biroq, shu bilan birgalikda ma'lum muayyan jihatlari ham kuchaydi. Bu yerda, gap jumladan ruslar, ukrainlar va boshqa slavyan xalqlarining soni mutlaq ko'rsatkichlar bo'yicha o'sgan bo'lsada, lekin ularning ulushi birmuncha pasayganligi haqida bormoqda.

Chunonchi 1979-yilda ruslarning salmog'i 10,8%ga tushib qoldi, mazkur yili shundan avvalgi o'tkazilgan aholi ro'yxatiga nisbatan 1,7%ga kamaygan edi. Holbuki, shu vaqt ichida (1970- 1979-yillarda) ruslarning soni 192,2 ming kishiga ko'paydi. O'tgan 9 yil mobaynida ruslarning o'rtacha yillik mutlaq o'sishi atigi 21,4 ming kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'zbeklarning mutlaq ko'payishi ko'rsatkichidan qariyb 15 barobar kamdir. Ana shu 9 yil mobaynida o'zbeklar har yili 3,16 ming kishiga ko'payib bordi.

Qo'rib chiqilayotgan 9 yil mobaynida o'zbeklarning soni 2,8 million kishiga ko'payib 10 million darajadagi marradan o'tib ketdi. Shu vaqt ichida o'zbeklarning o'rtacha yillik ko'payishi ruslarga nisbatan 1,6 barobar yuqori bo'ldi. Jumladan, o'beklardagi o'rtacha yillik o'sish 3,6%ni, ruslarda esa 1,4%ni tashkil qildi.

O'zbekistonidagi ukrainlar, koreyslar, tatarlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar, armanlarning soni ko'paygani bilan ularning aholi umumiylar milliy tarkibidagi salmog'i o'zgarmayapti. So'nggi 1989-yilda Butunitifoq aholi ro'yxati o'tkazilgan paytgacha, bu tamoyil hozirgi kunga qadar o'zgargani yo'q.

1979-1989-yillarda o'zbeklarning mutlaq soni yanada sezilarliroq ravishda ko'paydi. Shu davr ichida ular qariyb 3,6 million kishiga ko'payib, 14,1 million kishiga etdi. Natijada o'zbeklarning ulushi 1989-yilda jami aholining 71,4% ini tashkil etdi.

Shu davrda ruslarning soni avvalgi darajada 1,7 million kishiligicha qoldi, ularning O'zbekiston milliy strukturasidagi xissasi esa 8,3%gacha kamaydi.

Shu davrda tojiklarning soni sezilarli ravishda ko'payib 594,6 ming kishidan 933,6 ming kishiga, qozoqlarning soni 620,1 ming kishidan 808,2 ming kishiga, qoraqalpoqlarning soni 297,8 ming kishidan 411 ming kishiga etdi. Yuqorida ta'kidlangan xalqlarning respublika axolisi tarkibidagi salmog'i birmuncha oshganligini jadvaldan ham ko'rish mumkin.

Shu davr ichida tojiklarning soni tez sur'atlar bilan ko'payganligi natijasida ular respublika axolisi tarkibida o'zbeklar va ruslardan keyin uchinchli o'rinni egallab, qozoqlarni orqada qoldirib ketdilar. 1989-yilda O'zbekistonidagi Tojiklarning soni million kishiga etay deb qolib, sovet davrining ohirgi 30 yil (1959-1989-yillar)ida uch barobar ko'paydi. Ammo ularning salmog'i o'z vaqtida 9%ga oshdi xolos.

Shu davrda O'zbekiston axolisining respublikalararo migratsiya aloqalari xarakterida tub burilishlar sodir bo'ldi. Shu o'n yillikning

o'rtalarigacha har holda migratsiya sohasida ijobiy savdo saqlanib qoldi. 1971-1975-yillarda u 100 ming qishini tashkil qildi. 1976-yildan boshlangan migratsiyadagi salbiy savdo uzoq muddatli tamoyilga aylandi. 1976-1980-yillar mobaynida migratsiya savdosi doimiy ravishda salbiy tus olib, aholining ko'chib ketishi 110 ming kishini, 1981-1988-yillarda ming kishini tashkil etdi. Shu paytga kelib migratsiya oqimlarining shakllanishiga siyosiy omillar ta'sir o'tkaza boshladи. Mazkur yillarda aholining O'zbekistondan ko'chib ketishi 97 ming kishiga etib, yiliga o'rta hisobda 30,5 ming kishini tashkil etdi.

Shu davrdagi migratsiya vaziyatini bir ibora bilan ta'riflab bo'lmasligi tabiiydir, chunki uni murakkab va xilma-xil ijtimoiy-iqtisodiy, demografiq geografik omillar belgilab berar edi.

O'zbekiston axolisining migratsiya sohasidagi urf-odatlari esa hamisha kuchli bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi.

O'zbekiston axolisining ko'pmillatliligi shakllanishi va rivojlanishida yuqorida ko'rib chiqilgan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xususiyatlar hozirgi kunda respublikaning shahar axolisidagina o'z ifodasini topayotganligini ta'kidlab o'tmoq kerak. Hozirgi qishloq axolisi esa asosan Markaziy Osiyoning tub joy axolisi — o'zbeklar, qoraqalpoqlar, tojiklar, qozoqlar va turkmanlardan iborat. Ularning respublika qishloq axolisi tarkibidagi ulushi 1989-yilda 96,7%ni tashkil qildi.

Respublika qishloq axolisining qolgan ozgina qismi 1989-yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, qirg'izlar (0,3%), uyg'urlar (0,2%), ozarbayjonlar (0,1%), ukrainlar (0,1%), eroniylar (0,1%) va boshqa millatlar (0,4%)ni tashkil etadi. Qishloq joylarda ruslarning ulushi haddan tashqari kam (0,7%) bo'lib, 1989-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra 1653,6 ming ruslardan bor-yo'g'i 85,8 ming kishi mamlakatning qishloq joylarida istiqomat qilar edi.

Sovet mustamlakachiliginin ilk bosqichlarida bu manzara butunlay boshqacha bo'lgan, chunki yangi yerlarni o'zlashtirish vazifalari va qisqa muddatlarda metropolianing paxta mustaqilligiga erishishi zarurligi, asosiy millatni Rossiyaning hamma joylaridan, mamlakatning chekka milliy o'lkalariga, shuningdek ittifoqining chekka qishloq tumanlariga ko'chirishni talab qilar edi.

Chunonchi, 1939-yilda O'zbekistonning qishloq joylarida 212,3 ming rus axolisi joylashgan edi. Uning respublika qishloq axolisi tarkibidagi ulushi 4,4%ni tashkil qilar, ya'ni ular qozoqlar (5,6%), tojiklar (5,5%) dan sal ozroq va qoraqalpoqlar (3,6%)dan sal ko'proq edi.

Usha paytda mamlakatning shahar axolisi orasida ruslarning salmeg'i ancha yuqori edi. 1939-yilda shahar axolisi orasida ular o'zbeklar bilan deyarli bir xil ulushni egallagan. Masalan, agar shahar axolisi tarkibida o'zbeklarning ulushi 40,8% bo'lsa, ruslarning ulushi 35,5% edi. Keyinchalik bu ulush asta-sekin kamayib, 1989-yilda 19,5% ni tashkil etdi yoki qariyb ikki barobarga qisqardi. O'zbekistonning shahar axolisi tarkibida o'zbeklarning ulushi doimiy ravishda oshib bordi va 1989-yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra 53,7%ni tashkil qildi.

millat	Jami aboli		Shahar		Qishloq	
	aholi	%	aholi	%	aholi	%
Jami aholi	15389307	1000,0	6281636	100,0	9107671	100,0
Shu jumladan						
O'zbeklar	105690007	68,7	3023782	48,1	754225	82,8
Qoraqolpoqlar	297788	1,9	121860	1,9	175928	1,9
Ruslar	1665658	10,8	1525544	24,8	140114	1,2
Tatarlar	531205	3,5	441698	7,0	89507	1,0
qozoqlar	620136	4,0	216332	3,4	403804	4,4
tojiklar	594627	3,9	220207	3,5	374420	4,1
karislar	163062	1,1	117327	1,9	45735	0,5
Qrim tatarlar	117559	0,8	90093	1,4	27466	0,3
Qirg'izlar	142182	0,9	12685	0,2	129497	1,4
ukrainlar	113826	0,7	104982	1,7	8844	0,1
Turkmanlar	92285	0,6	14849	0,2	77446	0,9
Azerbayjonlar	59779	0,4	32173	0,5	27606	0,3
Armanlar	42374	0,3	40508	0,6	1866	0,0
uyg'urlar	29104	0,2	13151	0,2	15953	0,2
Boshqirdlar	25879	0,2	20294	0,3	5585	0,1
beloruslar	19073	0,1	15554	0,2	3519	0,0
Nemislar	39517	0,3	34318	0,5	5199	0,1
Lo'lilar	12581	0,1	8376	0,1	4205	0,0
chuvashlar	9389	0,1	7841	0,1	1548	0,0
Greklar	14025	0,1	13143	0,2	882	0,0
Eroniyalar (forslar)	20026	0,1	17278	0,3	2748	0,0
Mordvaliklar	12263	0,1	11001	0,2	1212	0,0
turklar	48726	0,3	10901	0,2	37825	0,4

Yevropalik yahudiylar	73920	0,5	834	0,0	834	0,0
Yahudiylar	25643	0,2	25448	0,4	195	0,0

#### O'zbekistonning aholi soni (1989-y.)

Hududiy bo'limmalar	Aholi soni, ming kishi			Shahar axolisining ulushi, %
	jami	shahar	qishloq	
Toshkent shahri	212.6	2126.8	-	100
Toshkent viloyati	2105.5	929.6	1175.9	44
Sirdaryo viloyati	568.3	186.1	382.2	33
Jizzax viloyati	736.7	220.2	516.5	30
Farg'ona viloyati	2151.5	701.9	1449.6	33
Andijon viloyati	1725.7	558.5	1167.2	32
Namangan viloyati	1475.1	549.5	925.6	37
Navoi viloyati	655.5	269.1	386.4	41
Samarqand viloyati	2119.9	656.9	1463.0	31
Buxoro viloyati	1140.1	396.8	743.3	35
Qashqadaryo viloyati	1596.2	415.2	1181.0	26
Surxandaryo viloyati	1251.7	243.8	1007.9	19
Xorazm viloyati	1013.4	280.9	732.5	28
Qoraqolpog'iston Respublikasi	1213.8	583.7	630.1	48
Jami	19880.2	8119.0	11761.2	41

#### O'zbekistonning milliy tarkibi (1989-y.)

millat	Jami aholi		Shahar		qishloq	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Jami aholi	19810077	100.0	8040963	100.0	11769114	100.0
Shu jumladan						
O'zbeklar	14142475	71.4	4320026	53.7	9822449	83.5
Ruslar	1653478	8.3	1567630	19.5	85848	0.7
tojiklar	933560	4.7	301315	3.7	632245	5.4
qozoqlar	808227	4.1	320360	4.0	487867	4.1

Tatarlar	467829	2.4	411954	5.1	55875	0.5
Qoraqlpoqlar	411878	2.1	220903	2.7	190975	1.6
Qrim tatarlar	188772	1.0	149010	1.9	39762	0.3
koreyslar	183140	1.0	146077	1.8	37063	0.3
Qirg'izlar	174907	0.9	21021	0.25	153886	1.3
ukrainlар	153197	0.8	138346	1.7	14851	0.1
Turkmanlar	121578	0.6	22194	0.3	99384	0.8
turklar	106302	0.5	31924	0.4	74378	0.6
Yevropalik yahudiylar	65493	0.3	64777	0.8	716	0.0
Armanlar	50537	0.3	48964	0.6	1573	0.0
Azerbayjonlar	44410	0.2	33344	0.4	11066	0.1
Nemislar	39809	0.2	35004	0.4	4805	0.0
uyg'urlar	35762	0.2	17862	0.2	17900	0.2
Boshqirdlar	34771	0.2	28916	0.0	5855	0.0
beloruslar	29427	0.1	25090	0.3	4337	0.0
Yahudiylar	28369	0.1	28256	0.35	113	0.0
O'rta Osiyolik forslar	24779	0.1	17851	0.2	6928	0.1
Lo'lilar	16397	0.1	11930	0.1	4467	0.0
Mordvaliklar	11914	0.05	10958	0.1	956	0.0
Greklar	10453	0.05	9733	0.1	720	0.0
chuvashlar	10074	0.05	8823	0.1	1251	0.0
boshqalar	62539	0.25	48695	1.3	13844	0.1

Shunday qilib, sovet davrida o'tkazilgan aholi ro'yxatga olish bo'yicha:

Aholi ro'yxatga olish yili	Millatlar soni	Aholi milliy tarkibida o'zbeklarning ulushi (% hisobida)
1926	65	3 475 340
1939	90	65
1959	90	62.2
1970	120	65.4
1979	120	68.7
1989	127	71.4

Aholi demografik holati, milliy tarkibiga sovet davrida ta'sir ko'rsatgan omillardan biri – bu aholini ko'chirish siyosati. Bu

siyosatning asosiy maqsadi yangi yerlarni o'zlashtirishga, paxta maydonlarini kengaytirishga, chorizmdan meros qolgan paxta monopoliyasini yanada kuchaytirishga, "paxta mustaqilligiga erishishga" qaratildi. Ushbu bilan bir qator respublikadagi mavjud demografik muammoni bartaraf etish, yakka dehqon xo'jaliklarini kollektivlashtirish, rsepublikadagi qirg'iz, qozoq, turkmanlarning ko'chmanchi qismini o'troqlashtirish kabi vazifalarning hal etilishi maqsadlashtirilgan edi.

Shuningdek, O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi ahvolga ikkinchi jahon urushidan oldingi yillarda o'zlashtirilmagan hududlarni o'zlashtirish hamda aholini ko'chiriish siyosati katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davr murakkabliklar va ziddiyatlarga boy bo'lib, ularning mohiyatini chuqurroq idrok etish uchun ham aholini ko'chiriish siyosati tarixiga nazar tashlash kerak.

Yangi yerlarni o'zlashtirish, paxta mustaqilligini ta'minlash, demografik keskinlikni yumshatishga qaratilgan aholini ko'chiriish siyosati g'oyasi Rossiya imperiyasi davridayoq vujudga kelgan edi, ammo uni ro'yobga chiqarish ulkan sarf-xarajatlar bilan bog'liqligi tufayli amalga oshmadi. Oktabr to'ntarishidan so'ng bir qator sohalarda o'zini avvalgi tuzumning vorisi sifatida namoyon etgan sovet hukumati ushbu g'oyani amalga oshirish maqsadida aholini zichligi yuqori bo'lган hududlardan yangi yerlarga ommaviy ravishda ko'chirishni, ularning mehnati hisobiga o'sha yerlarni o'zlashtirishni rejalashtirdi. Unga ko'ra Samarqand, Toshkeng viloyatlaridan, Farg'ona vodiysidan 1925-yildagi hisob-kitobga ko'ra ortiqcha hisoblangan 53,3 foiz aholini ko'chiriish kerak edi. Aholi zichligi yuqori, er etishmovchiligi muammoi o'tkir bo'lган hududlar orasida Farg'ona vodiysi bиринчи o'rinda turgan. Shu bois, ko'chiriish siyosatiga ko'proq vodiy axolisi tortilganligi aniqlangan. Farg'ona axolisining ko'chiriish siyosatida tutgan yana bir alohida va muhim o'rni bor ediki, bu uning paxta mustaqilligini ta'minlash uchun nihoyatda zarur dehqonchiliq jumladan, paxtachilikda katta tajribaga ega ekanligi bilan bog'liq edi. Farg'ona vodiysi axolisi ko'chiriish fondlarida tub aholiga bu borada ustoz bo'lishlari ko'zda tutilgan.

"Meros" xalqaro ilmiy-amaliy ekspeditsiya xayriya jamg'armasi tomonidan 2004 va 2008-yillarda Jizzah, Samarqand, Navoiy, Surxondaryo viloyatlari bo'ylab ilmiy safar uyuştirildi, vodiyliklar aholini ko'chiriish siyosati davomida barpo qilgan bir qator qishloqlar aniqlandi. Tub aholi "farg'onachilar" deb nom bergan vodiyliklar bu yerga sovet hukumati tomonidan ikkinchi jahon urushidan oldingi

yillarda “paxta ustoz”, “paxta ustasi”, yoki “tajribakorlar” sifatida ko‘chirib keltirilganliklari haqida ma’lumot berdilar.

Aholini ko‘chirish siyosati natijasida hal etiladigan masalalardan yana biri respublikadagi qirg‘iz, qozoq, turkmanlarning ko‘chmanchi qismini o‘troqlashtirish masalasi bo‘lgan. Shuningdek, aholini ko‘chirish siyosati davomida kolxozlarning sonini ko‘paytirish orqali kollektivlashdirish siyosatini amalga oshirilishiga ham ko‘maklashish rejalashtirilgan edi.

Aholini ko‘chirish siyosatiga 1925-yil 10-apreldagi “SSSR MIK qoshida Butunittifoq Ko‘chirish Qo‘mitasini tashkil etish haqida”gi SSSR MIK Prezidiumi qarori hamda 1927-yil 21-fevraldaggi O‘zSSR MIK va XKSning “O‘zSSRda aholini ko‘chirishni respublika bo‘ylab rejali o‘tkazilishi haqida”gi qarori asos bo‘lgan. Bu qarorlarda Butunittifoq Ko‘chirish Komitetining funksiyalari va uning O‘zbekistondagi aholini ko‘chirish bo‘yicha vazifalari, maqsadlari va ko‘chiriladigan hujaliklar uchun imtiyozlar belgilab beriladi. O‘zbekistonda aholini ko‘chirish ishlari Er ishlari Xalq Komissarligi, uning qoshidagi ko‘chirish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi. Ko‘chirish tadbirlariga bevosita rahbarlik O‘zSSR MIK raisi Yo‘ldosh Oxunboboev zimmasiga yuklatiladi.

“Meros” jamg‘armasi ekspeditsiyasining Surxondaryoga safari chog‘ida o‘sha yerda turg‘un bo‘lib yashab qolgan vodiyliklarning “bizni Oxunboboev ko‘chirgan”, degan fikrni aytganliklari ham buning ifodasidir.

Rejalilik, ixtiyorilik, tashkiliylik, ko‘chirilganlarga imtiyozlar berish, aholini ko‘chirishda milliy, xo‘jalik, turmush shart-sharoitlarini hisobga olish kabi qoida-tamoyillar aholini ko‘chirish siyosatiga asos qilib olinadi.

Aholini ko‘chirish ishlari uch bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi boskich 1926-1928-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda aholini ko‘chirishning huquqiy negizi va mexanizmi yaratiladi, aholi, asosan, o‘zlar yashaydigan okruglar ichkarisidagi bo‘sh yerlarga ko‘chiriladi.

Ikkinci boskich 1929-1932-yillarni tashkil etadi. 1929-yildan respublikaning okruglariaro hamda respublika tashqarisiga ommaviy ravishda aholini ko‘chirishlar boshlandi.

Uchinchi bosqich 1932-yildan keyingi yillar bo‘lib, aholini ko‘chirish siyosati avvalgi tartib va yo‘nalishlarda davom etadi.

Xullas, XX asrning ikkinchi choragida O‘zbekistonda amalga oshirilgan aholini ko‘chirish alohida siyosat bo‘lgan. Uning ittifoqdosh

respublika pardagi ko'chirish siyosatidan farqli tomonlari bo'lgan. Ular bu siyosatning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan. Aholini ko'chirish siyosatining dastlabki bosqichida uning huquqiy-me'yoriy asoslari va mexanizmi yaratilgan. Ko'chirish ishlari O'zbekiston SSR Er ishlari Xalq Komissarligi va okruglardagi ko'chirish bo'limlari tomonidan amalga oshirilgan. Ko'chirish shartlari va tartiblariga ko'ra, birinchi navbatda zinchlik yuqori bo'lgan Farg'ona vodiysidan tashkiliy ravishda aholining ko'chirilishi boshlangan. Aholini ko'chirish siyosati davomida uning dinamikasida o'zgarishlar ro'y berdi. Birinchi bosqichda aholini ko'chirish siyosati kichik hajmda amalga oshirilgan. Ikkinci bosqich esa aholini ko'chirish siyosatining eng shiddatli davri hisoblanadi. Bu davrda aholini ko'chirish jarayoni o'zining yuqori nuqtasiga ko'tarilgan. Uchinchi bosqichda ham aholini ko'chirish tadbirlari keng qo'lamma amalga oshiriladi. Lekin vaqt o'tishi bilan sekin-asta o'z ahamiyatini yo'qotib boradi.

O'zbekistonda aholini ko'chirish uch yo'nalishda: rayonlar ichkarisida, rayonlar tashqarisiga va respublika tashqarisiga ko'rinishlarida amalga oshirildi. Aholini ko'chirishning birinchi bosqichi 1926-1929-yillarda asosan rayonlar ichqarisidagi aholini ko'chirishlar ko'rinishida amalga oshirilgan, bu davrda ko'chirish tadbirlarining ko'lami keyingi bosqichlardagilarga nisbatan kichik bo'lgan, bor-yo'g'i 8047 xo'jalik o'zları yashaydigan okruglar ichkarisidagi o'zlashgirilmagan hududlarga ko'chirilgan. Rayonlar ichkarisidagi ko'chirishlar keyingi bosqichlarda ham davom etaverdi. Masalan, bиргина Andijon okrugidan 1929-30 yillarda 2400 xo'jalik o'zları yashaydigan okrugdagи o'zlashtirilmagan hududlarga ko'chirilgan. Biroq faqat ichki ko'chirishlar hisobiga paxta mustaqilligini ta'minlash, demografik muammoni bartaraf etish mumkin bo'lмаган. Natijada sovet hukumati aholini ko'chirish ishlarini yangi bosqichga ko'targan: 1929-yildan respublika ichqarisida va respublikalararo keng qo'lamma aholini ko'chirishlar boshlanadi. Aholi Andijon, Farg'ona, Toshkent okruglaridan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Surxondaryo okruglaridagi o'zlashtirilmagan hududlarga ko'chiriladi. Aholini ko'chirish kampaniyasining ikkinchi bosqichi hisoblangan 1929-1932-yillarda davomida yigirma mingga yaqin xo'jalik ko'chiriladi.

Aholini ko'chirish siyosatida respublika tashqarisiga ko'chirishlar ham alohida o'rinn tutadi. 1930-yili 510 xo'jalik (1530 kishi) Andijon okrugidan Kavkaz ortiga ko'chirilgan. Birinchi besh yillik mobaynida 7312 xo'jalik Farg'ona vodiysi okruglaridan Tojikiston SSRga

ko'chirilgan. Bu o'rinda ham ayni Farg'ona vodiysi dehqonlarining ko'chirilishi nafaqat demografik keskinlikni yumshatish, balki ularning paxtachilik sohasidagi tajribasi va uni yoyish bilan bog'liq edi.

Aholini ko'chirish paxta mustaqilligini ta'minlashga qaratilgani bilan unga dehqonlarga emas, balki zichlik yuqori hududlardagi butun aholi safarbar etilgan, ko'chiriluvchilar qishloq hududlaridangina emas, shahar joylardan ham saralangan. Pekin baribir asosiy ko'pchilikni dehqonlar tashkil qilgan. Dastlabki yillarda yakkaboshi xo'jaliklar ko'chirilgan, ammo keyinchalik dehqonlariing tabiiy ravishda o'z oilasi bag'riga intilishi umumiy ishga halaqit beradi, deb e'tirof etilib, oilaviy tarzda ko'chirishlarga o'tilgan.

Ko'chirish fondlarida asosiy ishchi kuchi erkaklar hisoblansada, lekin ayollar ham uy yumushlaridan tashqari dalada mehnat qilganlar. "Meros" ilmiy-amaliy ekspeditsiyasi tarkibida viloyatlarga qilingan safar chog'ida aholini ko'chirish siyosati ishtirokchilaridan to'qayzorlar, dasht yerlarni o'zlashtirishda ayollarning ham erkaklar bilan bab-baravar dalada mehnat qilganliklari to'g'risida yozib olingan xotiralari diqqatga sazovordir.

Ko'chirilganlarning ijtimoiy tarkibi ham turlicha bo'lgan, biroq ularning asosiy qismi ersiz, qambag'al xo'jaliklar edi. Buning o'z sabablari bo'lgan. Markscha-leninchcha sinfiylik nazariyasiga ko'ra er biringchi navbatda qambag'allarga berilgan. Bundan tashqari aholini ko'chirish siyosati er kamligi muammosini hal etishga qaratilganligi bois, ersiz yoki kam erli qatlamlar ko'chirilgan. Kamdan-kam hollarda boy-quloq xo'jaliklar ham majburiy tartibda ko'chirilgan. Ba'zan esa aholini ko'chirish boy-quloq xo'jaliklar, siyosiy huquqdan mahrum etilganlar, umuman hukumatning "qora ro'yxatiga" tushganlar uchun boshpana vazifasini ham o'tagan. Aholi zichligi yuqori markaziy rayonlarda hukumat tomonidan ta'qib qilingan, instinctiv ravishda jon saqlashga intilgan ba'zi "sinfiy yot unsurlar" ariza yozib ko'chirish fondlariga jo'nashdan boshqa yo'lni ko'rmaganlar.

Aholini ko'chirish siyosati o'zbeklarnigina emas, balki, boshqa millat vakillarini ham o'z girdobiga tortgan. 1929-1934-yillarda 6312 nafar boshqa millat vakillari ko'chirilgan qirg'iz, qozoq, turkmanlarning ko'chmanchi qismi ham o'troqlashtirish baxonasida o'zlashtirilmagan hududlarga ko'chirilgan. Aholini ko'chirish jarayonida yahudiylarni ko'chirish siyosatiga tortish masalasi alohida masala sifatida ajratib olingen. Usha vaqtga qadar tiriqchilik manbai may'da hunarmandchiliq yoki savdo-sotiq bo'lgan yahudiylar dehqonchilik bilan shug'ullanishga

majbur qilingan. Aholini ko'chirish kampaniyasining ikkinchi bosqichida 1061 ta yahudiy xhjaliklari ko'chirilgan. Bundan tashqari, paxtachilik ilmi bilan deyarli tanish bo'Imagan ruslar, polyaklar, nemislar va boshqa xalqlar aholini ko'chirish siyosatiga torgilgan. Bu hukumatning milliy siyosatda namoyon bo'lgan zo'ravonligining o'zginasi bo'lgan.

Ko'chirilganlarning ijtimoiy tarkibi turlicha bo'lgan, lekin asosiy ko'pchilikni baribir qambag'allar tashkil etgan.

Milliy tarkibi bo'yicha aholini ko'chirish siyosatiga tortilganlar saflaridan o'zbeklardan tashqari milliy ozchilikni tashkil etuvchi tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, turkmanlar, uyg'ular, polyaklar, nemislar, koreyslar va boshqa etnos vakillari o'rinn olgan. Yahudiylarni erga joylashtirish, dehqonchilikka jalb etish muammosiga alohida masala sisatida qaralgan. Qizil askarlar, afg'on siyosiy muhojirlari, xitoylar, dunganlar, lo'lilar ham aholini ko'chirish jarayonidan chetda qolmaganlar.

Aholini ko'chirish kampaniyasida barcha yosh, jins, millat, ijtimoiy holatga mansub kishilar ko'chirish siyosatining kichik bir murvatchalariga aylanib, ulkan davlat siyosatini haraka'tlantrish va amalga oshirishda ishtirot etganlar. Sotsialistik jamiyat qurishda muhim ahamiyatga ega hisoblangan kollektivlashtirish jarayoni aholini ko'chirish siyosatini ham chetda qoldirmadi. Ko'xozlashtirishda raqamlar ketidan quvishlar ko'chirish fondlaridagi xo'jaliklarni ham yoppasiga kollektivlashtirishni taqozo etgan. 1927-1928-yillarda birgina Samarqand okrugidagi ko'chirish fondlarida faoliyatdagi 21 ta kolxozi bo'lganligi ma'lum.

Lekin, bunday raqamlar haqiqiy sifat ko'rsatkichi emas edi. Ko'chirish fondlaridagi kolxozlarning ko'pchiligidagi ichki holat yomon bo'lgan.

Ko'chirilganlarning mehnat faoliyati qiyinchiliklar bilan kechgan. Ko'chirish fondlari uchun ajratilgan yerlarning aksariyati dehqonchilik uchun yaroqsiz bo'lgan.

XX asr 50-yillariga kelib sovet davlati o'z rivojlanish istiqboli hamda iqtisodiyotning paxta homashuosiga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib e'tiborini qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga qaratdi.

Mazkur siyosat avval an'anaviy dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan Farg'ona vodiysiga qartildi. Sovet organlari Markaziy Farg'ona ko'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratgani holda ushbu masala KPSS MQ XIX syezdi direktivalarida ham o'z aksini topdi. Tez orada ushbu masala yuzasidan markaz ko'rsatmasiga muvofiq respublika hukumatining Markaziy Farg'onadagi yangi yerlarni

o'zlashtirishga oid qarori chiqdi. 1952-yil 16-noyabrda qabul qilingan ushbu qarorga muvofiq Markaziy Farg'ona hududida 65 ming ga erni o'zlashtirish masalasi kun tartibiga qo'yilgan. Markaziy Farg'ona hududida o'zlashtirilgan yangi yerlarda tashkil etilgan Bo'z, YOzyovon, Zadaryo (Mingbulloq) tumanlari aynan paxtachilik sohasiga ixtisosolashtirilib, bu tumanlarga vodiyning boshqa yerlaridan ma'lum darajadagi aholi ko'chirib keltirildi. Markazi Farg'ona yerlarining o'zlashtirilishi 1973-yilga qadar davom ettirilib, vodiyya paxtachilik sohasining kengayishiga bevosita turki bo'lib xizmat qildi.

Bir vaqtning o'zida sovet hukumati tomonidan Mirzacho'l so'ngra Jizzax cho'llarini o'zlashtirishga e'tibor qaratildi. Mirzacho'l hududi muhim iqtisodiy hudud sifatida O'rtta Osiyo uchun strategik ahamiyatga molik hudud rolini o'ynar edi. Cho'lni o'zlashtirishga e'tibor sovet davlati tomonidan dastlab 1920-yillardan boshlangan edi. Mazkur jarayon XX asr 50-yillariga kelib paxta xomashyosi etishtirishni ko'paytirish siyosati mohiyatidan kelib chiqqan holda yangicha yo'nalishda davom etdi. 1955-yildan Mirzacho'lning yangidan o'zlashtirish jarayoni davom ettirilib, SSSRni iqtisodiy rivojlantirishning 6-besh yillik rejasida (1956-1960-y.) cho'lni o'zlashtirish hisobiga paxta ekin maydonlarini kengaytirish masalasiga alohida urg'u berildi. Qozog'iston va O'zbekistonga qarashli Mirzacho'l hududida SSSRdagi eng yirik paxtachilik rayonini tashkil etish tugal maqsad bo'lib qoldi. Shu maqsadda 1956-yil 6 avgustda KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining "Paxta etishtirishni ko'paytirish uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi Mirzacho'lning qo'riq yerlarini sug'orish va o'zlashtirish to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 1960-yillar boshlarida mazkur hududidda 300 ming ga ko'riq erni o'zlashtirish 34ta paxtachilikka ixtisoslashgan sovxozi tashkil etish rejalashtirildi. Xususan, mazkur erning 200 ming ga O'zbekiston zimmasiga to'g'ri kelar edi. Markaz qarorini amaliy hayotga joriy qilish maqsadida O'zbekiston hududidagi Mirzacho'l yerlarini o'zlashtirish 1956-1975-yillarda 300 ming ga ortdi.

1956-yil oktabrda ko'riq yerlarni o'zlashtirishga umumiy rahbarlik uchun tuzilgan "Glavgolodnostepstroy" birlashmasi tashkil qilindi. Ushbu birlashma kuchli boshqaruvga ega bo'lgan tuzilma bo'lib, qo'riq yerlarni o'zlashtirishga bevosita rahbarlik qilib keldi. Mirzacho'l qo'riq yerlarni o'zlashtirish ikki bosqichda amalga oshirilgan bo'lib, birinchi bosqichda (1956-1961-y.) hududda magistral kanallar, kollektor-drenajlar, yirik suv xo'jaligi obyektlarini qurishga e'tibor berildi.

Ikkinchchi bosqichda (1961-1975-y.) qo‘riq va bo‘z yerlar o‘zlashtirilib, ularning irrigatsiya-melioratsiya holati yaxshilandi, paxtachilik sovxozi tashkil etildi, Qayroqqum suv ombori, uchta yirik kanal ishga tushirildi.

Ta’kidlash joizki, Mirzacho‘lni o‘zlashtirish jarayonida boshqa hududlar, xususan Farg‘ona vodiysisidan aholini “majburiy-ixtiyoriy” tamoyil asnosida ko‘chirib keltirish ishlari boshlandi. Xususan, 1956-1959-yillarning o‘zida Mirzacho‘lga 42 mingdan ortiq oila ko‘chirib keltirildi. Shu davrda respublika ma‘naviy hayotida qo‘riq va cho‘l zonalarini o‘zlashtirishga chorlovchi g‘oyaviy shiorlar ko‘tarildi, bu borada turli tadbirlar amalga oshirildi, “cho‘lquvarlik – mardlar ishi” g‘oyasi ostida ommaviy axborot vositalarida qator chiqishlar amalga oshirildi. Qayd etish lozimki, ko‘chib kelgan aholi uchun tegishli maishiy xizmat sohalari, xususan turar-joy, tibbiy, o‘quv maskanlarining yo‘qligi, mavjudlari ham mutlaqo talabga javob bermasligi ko‘chib kelganlarning 40% ko‘pini qayta ko‘chib ketishlariga sabab bo‘ldi. Mirzacho‘lning o‘zlashtirilgan yerlarida Paxtakor, Ilich, Do‘slik, Arnasoy Oqoltin, Mehnatobod va boshqa tumanlar bilan bir qatorda Yangier, Guliston, Paxtakor, Do‘slik, SHirin, Baxt kabi shaharlar barpo etildi. Yuqorida ta’kidlangan holat bevosita urbanizatsiya jarayonlariga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Qarshi dashtini o‘zlashtirish 1963-yil 7-dekabrdan boshlanib, 1970-yil 25-iyunda KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining “O‘zbekiston SSRda Qarshi cho‘li yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilinib, dashtda 1980-yilga qadar 700 000ga erni o‘zlashtirish mo‘ljallandi. Respublikada keng hajmda o‘zlashtirilgan hududlarda shaharlar, turar-joy, posyo‘lkalar va maktablar ham barpo etildi. Jumladan, aholini Qarshi cho‘llariga tashkiliy ravishda ko‘chirishning butun davri mobaynida u erga 600ta oila ko‘chib borgan, ulardan 40ta oila yashab qolgan, xolos. Qarshi dashtiring o‘zlashtirilgan yangi yerlarida 6ta yangi – Nishon, Usmon Yusupov, Ulyanov, Baxoriston, Muborak hamda Tallimardon shaharlari tashkil qilinib, ularning paydo bo‘lishi hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Jizzax cho‘lini o‘zlashtirish ishlari 1974-yilda boshlangandan so‘ng bu yerga respublikaning ko‘plab hududlaridan oilalar “majburiy-ixtiyoriy” ravishda, xususan Andijon, Farg‘ona va Samarqand viloyatlaridan, Jizzax viloyatining eski tumanlaridan 600dan ortiq oilalar ko‘chib kelgan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Sovet davrida qachon va necha marta aholi ro'yxatga olish kampaniyalari o'tkazilgan?
2. Aholi milliy tarkibi o'zgarishlarining sabablari nimada?
3. O'zbekistonning titul millatini soni nima sabablarga ko'ra o'zgargan?
4. Sovet davri ko'chirish siyosatini maqsad-vazifalari nimadan iborat?
5. Ko'chirish siyosatining ahamiyati nimada?

### **Kalit so'zlar:**

Aholi ko'chirish siyosati, aholi milliy tarkibi, etno-demografik holat, ko'chirish siyosati, bo'z yerlarni o'zlashtirish.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R. Uzbekistan mnogonatsionalnyi: istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent: Yangi asr avlodি, 2011.
2. Murtazayeva R.X. O'zbekistonda millatlararo munosabatlар va bag'rikenglik (oliy o'quv yurtlarning magistrлari uchun). – Toshkent: Universitet, 2007.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Botirova B.N. O'zbekistonda o'tkazilgan sovetlarning aholini ko'chirish siyosati (1926-1941-y.). Tarix fan. nomzodi... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2010.
2. Komiloy O.K. O'zbekistonda irrigatsiya tizimi rivojlanishi va uning oqibatlari (1951-1990-y.). Tarix fan.dok.(DSc) diss.avtoref. – Toshkent, 2017. – B.21-23.
3. Murtazayeva R.X. Tolerantnost kak integriruyushchiy faktor v mnogonatsionalnom Uzbekistane. – Tashkent: Uzbekistan, 2010.
4. Rasulov A.N. Turkiston xalqi bag'rikengligi. – Toshkent: Yangi nashr, 2011. – 134 b.
5. Rasulov A.N. Turkistonda ochlarga yordam ko'rsatish komissiyasi faoliyati. – Farg'on'a, 2012. – 124 b.
6. Rasulov A.N. Turkiston va Rossiya xalqlari o'rtasidagi munosabatlар. – Toshkent: Turon-iqbol, 2016. – 155 b.

**10-mavzu. IKKINCHI JAHON URUSHINING O'ZBEKISTON  
UCHUN DEMOGRAFIK OQIBATLARI. DEPORTATSIYA  
QILINGAN MILLATLAR VA O'ZBEK XALQINING  
BAG'RIKENGLIGI**

**Reja:**

1. Ikkinchi jahon urushidan keyini O'zbekistonning demografik holati.
2. O'zbekistonga deportatsiya qilingan xalqlar.

**1. Ikkinchi jahon urushidan keyini O'zbekistonning  
demografik holati**

Ikkinchi jahon urushi (1939-1945-yillar), yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston uchun juda xilma-xil demografik oqibatlarni keltirib chiqardi. Jumladan, u Respublika axolisining milliy tarkibi xususiyatlarida ham bevosita aks etdi. Farzand ko'rish yoshidagi erkaklarning frontga chaqirilishi va ularning ko'pchiligini urushda halok bo'lishi natijasida tub joy aholi orasida tug'ilish kamayib ketdi. Urush yillarda aholi orasida tabiiyki oila qurish jarayoni pasaydi, mavjud oilalar ham erkaksiz qoldi, aholining tabiiy ko'payishi esa eng past darajaga tushib ketdi.

Urush yillarda aholining migratsiyasi demografik o'sish nuqtai nazaridan katta ijobiy samaraga ega bo'ldi. Ma'lumki, urush boshlangach, harbiy rayonlarning axolisi mamlakat ichkarisiga — mamlakatning sharqiylariga, shu jumladan O'rta Osiyo Respublikalari va Qozog'istonga ommaviy ravishda ko'chirila boshlandi.

O'zbekistonga urushning dastlabki yillarda qisqa vaqt ichida Rossiya, Ukraina, Belorussiya va boshqa respublikalardan butun-butun zavodlar, fabrikalar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliv o'quv yurtlari, kutubxonalar, loyiha tashkilotlari evakuatsiya qilindi. Ular O'zbekistonda asosiy ishlab chiqarish xodimlari bilan birga joylashtirilib, xodimlarning ko'pchiligi esa o'z navbatida oilalari bilan kelgan edilar. Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonga 90 ta zavod asosiy kadrlar tarkibi bilan ko'chirib keltirildi. O'zbekistonga ko'chirilgan salkam 1 mln. kishining 70%ni Rossiyadan kelgan edi. Mazkur zavodlar negizida CHkalov nomidagi aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, "Sredazkabel" ishlab chiqarish birlashmasi, "Chirchiqselmash", "O'zbekselmash", "Tashtekstilmash", "Pod'yomnik", abraziv buyumlar zavodi kabi yirik sanoat obyektlari qad

ko‘tardi. Ular uzoq vaqt davomida respublikaning yirik sanoat korxonalari sifatida sanalib turgan. Zavodlar bilan birga kelgan xodimlarning bir qismi urushdan keyin O‘zbekistonda doimiy yashash uchun qoldilar.

Shuningdek, urush yillarida mamlakatning g‘arbiy okkupatsiya qilingan joylaridan turli millatlarga mansub ko‘plab kishilar ommaviy ravishda bu yerga qochib kelishga majbur bo‘lgan edilar.

O‘lka xalqlarining bag‘rikengligi, mehmondo‘stligi, baynalminal tarbiyasi urush yillarida, ayniqsa qochqinlarni qabul qilib olishda yaqqol namoyon bo‘ldi. Ko‘pgina o‘zbek oilalari ota-onasi urushda halok bo‘lgan turli millat farzandlarini o‘z qaramog‘iga olib, asrab oldilar.

Shu yillarda ham O‘zbekistonga boshqa xalqlarning vakillari (polyaklar, qrim tatarlari, bolqorlar, mesxeti turklari va boshqalar)ni deportatsiya qilish jarayoni davom etdi. Masalan, mesxeti turklari 1944-yilda Gruziyaning janubiy va janubi-g‘arbiy tumanlaridan ko‘chirildi. Majburan ko‘chirilgan 115 mingdan ortiq kishining aksariyati “maxsus ko‘chirilganlar” huquqi bilan aynan O‘zbekistonga kelib joylashtirildi.

1944-yil dekabr oyida Toshkent shahar ijroqo‘mi huzurida maxsus ko‘chirish bo‘limi tashkil etildi, 1946-yil fevralida uning nomi ko‘chirish bo‘limi deb o‘zgartirildi. Mazkur bo‘limning malumotlariga ko‘ra 1944-yilning noyabrida 566 turk xo‘jaligi (2260 kishi) Sirdaryo tumaniga, 463 xo‘jalik (1787 kishi) Mirzacho‘l tumaniga joylashtirildi.

Turmush sharoitlari og‘irligi bois ushbu ko‘chirilganlarning bir qismi vafot etdi. Shunga qaramay, 1946-yilda O‘zbekistonda maxsus ko‘chirib keltirilgan turli millat vakillaridan 179992 kishi yashar edi.

SSSRda deportatsiya, ayrim manbalarda qayd etilganidek, 1930-1950-yillarda emas, balki ancha avval odad tusiga kiritilgan edi. Sovet davlati qaror topa boshlagan paytidan boshlaboq shafqatsiz repressiya, shu jumladan deportatsiya siyosati qo‘llanilib keldi. O‘sha paytda ro‘y bergen har qanday ijtimoiy mojaro turli millat axolisining ayrim guruuhlariga nisbatan emas, butun-butun xalqlarga nisbatan ham qat’iy choralar qo‘rish bilan hal qilinar edi.

20-yillarda, ya‘ni jamiyatni boshqarishning totalitar tizimi qaror topayotgan sharoitda kazaklar, uzoq Sharqda yashovchi koreyslar, aleutlar, mamlakatning shimoli-g‘arbida yashovchi finnlar ana shunday represeeiyalarni boshidan kechirgan edilar. Bu o‘rinda davlat milliy ozchiliklarning manfaatlari va xohish istaklarini e’tiborga olmaganligi tabiiy.

Keyinchalik boshqa xalqlarga nisbatan ham Stalin ana shunday choralarni ko'rdi.

30-yillarda dunyodagi, Yevropadagi, Sharqdagi siyosiy vaziyat o'zgardi, bu hol SSSRning siyosatiga ta'sir qilmay qolmadi. Natijada, sovet hukumati barcha sohalarda bo'lganidek milliy munosabatlар sohasida ham odatdagidek shafqatsiz choralar ko'ra boshladi. Xalqlar "elak-elak" qilindi, "ishonchli" va "ishonchsiz" unsurlarga ajratildi. Ishonchsiz unsurlar urush bo'lgan taqdirda dushman tomoniga o'tib ketishi mumkin deb faraz qilindi. Usha paytda SSSRning ichki davlat siyosatida hamma joyda jousularni qurish, shubha-gumon kayfiyatı jamiyatning ayrim a'zolarigashna emas butun-butun xalqlarga nisbatan ham kuchaytirib borildi. Usha yillarda markaziy matbuotda, shu jumladan, partiyaning asosiy karnayi hisoblangan "Pravda" gazetasida jousulr haqidagi xabarlar tez-tez bosilib turar edi.

Avvaliga SSSRning chegara mintaqalari "ishonchsiz" unsurlardan "tozalandi", so'ngra ayni shu sababga ko'ra chegaradan olisdagi joylarga va boshqa xalqlarga: koreyslar, nemislar, polyaklar, qurdilar, eronilar, greklarga nisbatan ham qo'llanila boshladi.

1944-yilda Gruziyadan mesxeti turklari, kurdlar, xemshinlar va boshqa millatlar ko'chirilganida xuddi shu "ishonchsizlik" sababi bahona qilib ko'rsatildi. Yuqorida ko'rsatilgan barcha mayda millatlar havf-xatarning oldini olish maqsadida deportatsiya qilindi.

1936-1944-yillarda SSSRning chegara tumanlarida hali jiddiy urush harakatlari boshlanmay turib, bu joylarda yashovchi xalqlarga nisbatan ham ingushlar, bolg'orlar, qrim tatarlari "vatanga hiyonat qildi" degan ayb bilan yoppasiga quvg'in qilindi. Shu yo'l bilan ularning milliy davlat tuzilmalari o'yq qilib yuborildi.

Deportatsiya hodisasi ikki mezon – "oldini olish" (preventiv) va "jazolash" ma'nolarida tasniflanadi. Deportatsiya jarayonlariga rahbarlik qilgan idoralarga tegishli hujjalarni o'rganish asosida yana shunday tasniflash imkoniyati tug'ildi. Bu idoralar jumlasiga SSSR Xalq Komissarları kengashi, Ittifoqdosh respublikalarining Xalq xo'jalik kengashlari, VKP (b) o'lka qo'mitalari, SSSR Ichki ishlar Xalq Komissarligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi, shuningdek, SSSR va RSFSR Xalq xo'jaligi kengashlari huzurida ish olib borgan ko'chirish boshqarmalari va shu kabilar kirar edi.

SSSRda o'tkazilgan deportatsiya jarayonlarining sabablarini birinchi marta Rossiyalik olim professor N.F.Bugay quyidagi tarzda tafsifladi:

1) Mazkur xalqlar o‘rnatilgan tuzumni – sovet hokimiyatini, yangi ukladli va sotsialistik ishlab chiqarish usulini yoqtirmadilar. Bunday xalqlar orasida kazaklar va rusiyabzon aholining boshqa qismlari, boltilq-bo‘yi va Moldaviya xalqlarining ayrim guruhlari (polyaklar, ukrainlar, beloruslar va boshqalar) bor edi;

2) Xalqlar bosqinchi davlat bilan hamkorlik qilishi ehtimoli bor degan bahona bilan to‘sinqilikning oldini olish maqsadida nemislar, kurdlar, mesxeti turklari, xemshilar (xemshillar), greklar deportatsiya qilindi.

3) Ayrim xalqlar: chechenlar, ingushlar, bolqorlar, qorachoylar, qrim tatarlari, bolgarlar, qalmoqlar, qisman turklar, armanlar go‘yo Sovet hokimiyatiga va Qizil Armiyaga qarshi chiqdilar, degan ayb qo‘yildi;

“Ishonchszilik” yoki “ishonchsziz unsurlar” toifasiga ingermanlyandlar, eroniylar, qisman kurdlar ham qo‘shildi;

5) ukrain qo‘zg‘olonchi armiyasi vakillari “vlasovchilar”, ukrain millatchilar tashkiloti a’zolari va boshqalar “fashistlarga gumashtalik qildi” deb ayblandi<sup>1</sup>.

Ana shu xarakterlashdan ma’lum bo‘lishicha, sobiq SSSR xalqlarining deportatsiya qilinishi turli sabablar bilan asoslangan edi. XX asrning 30-40-yillarida aholining 60 dan ko‘proq milliy guruhlariga ana shunday repressiya choralar ko‘rilgan bo‘lsa, ularning 15 tasi to‘la-to‘kis deportatsiya qilingan edi. O’sha yillarda hammasi bo‘lib 3,5 million kishi deportatsiya qilindi<sup>2</sup>.

Xalqlar va millatlarga nisbatan qo‘llanilgan deportatsiya va qatag‘onlar vositasi bilan sovet davlati boshqaruv apparatining hokimiyati saqlab turildi va mustahkamlandi.

Deportatsiyalar mamlakatning deyarli barcha mintaqalaridan asosan uch mintaqa: Sibir, O‘rta Osiyo va Qozog‘istoniga ko‘chirish yo‘li bilan o‘tkazildi.

Deportatsiya qilingan xalqlarning ko‘pchiligi jumladan, O‘zbekistonga ham zo‘rlik bilan badarg‘a qilindi. Bu yerga dastlab koreyslar ko‘chirildi. SSSR Xalq Komissarlari Kengashi bilan VKP(b) MKSning “Uzoq Sharq o‘lkasining chegara tumanlaridan koreyslarni ko‘chirib yuborish” to‘g‘risidagi 1937-yil 21 avgustdaggi qo‘shma

<sup>1</sup> Бугай Н.Ф. 20-40-е годы: трагедия народов.// Восток. – 1992. -№2. -С. 122; Он же. Трагические события не должны повторится. Актуальные проблемы российского востоковедения. – М., 1994. – С. 115.

<sup>2</sup> Конфедерация депрессированных народов Российской Федерации. 1990-1992. Документы и материалы. – М., 1993. С.35.

Qaroridan keyin darhol 1937-yilning oktabr va noyabr oylarida O'zbekistonga 74500 koreys (16307 oila) ko'chirib keltirildi<sup>1</sup>. Ularning ma'lum qismi 1939-yilda Mirzacho'lning O'zbekiston qismiga joylashtirildi.

Keyingi yillarda qrim tatarlari, mesxeti turklari, kurdlar, xemshin (xemshil)lar, shimoliy Kavkaz xalqlari, qalmoqlar, greklar, polyaklar va boshqa millat vakillari ko'chirib kelindi.

Maxsus ko'chirib keltirilganlarni respublikalar bo'yicha hisobga olish miqdori to'g'risidagi arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1950-yil 1-iyulda O'zbekiston SSRda maxsus ko'chirib keltirilganlardan 184122 kishi bor edi. Ular orasida sobiq quloqlardan 5860 kishi, "vlasovchi"lardan 842 kishi, Qirimdan 126114 kishi, Gruziyadan 41885 kishi, nemislardan 7788 kishi, shimoliy Kavkazdan 884 kishi, qalmoqlardan 746 kishi, Moldaviyadan 3 kishi bor edi<sup>2</sup>.

1953-yil 1-aprelda O'zbekistondagi maxsus ko'chirilib keltirilganlar 188689 kishini tashkil etdi. Shundan 52.924 kishi erkaklar, 73139 kishi ayollar, 58996 kishi 16 yoshta etmagan bolalar edi<sup>3</sup>.

Sobiq SSSRdagи Respublikalar, o'lkalari va oblastlarda joylashtirilgan maxsus ko'chirib keltirilganlarning soni to'g'risidagi ma'lumotlar (kontingentlar bo'yicha) quyidagicha: maxsus ko'chirib keltirilganlar orasida o'zga davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar 2743 kishi bo'lsa, shundan 2472 kishi Gretsiyadan, 7 kishi Erondan, 208 kishi Turkiyadan, 1 kishi Germaniyadan, 3 kishi Polshadan, 1 kishi Ruminiyadan, 53 kishi fuqaroligi bo'lмаган shaxslar edi<sup>4</sup>.

1952-yil 1-iyulda O'zbekiston SSRda hisobda bo'lган 186310 nafar maxsus ko'chirib keltirilganlar respublika viloyatlariда quyidagicha joylashtirilgan edi. Andijon viloyatida 21395; Buxoro viloyatida 7307 Samarqand viloyatida 45246, Qashqadaryo viloyatida 6800, Namangan viloyatida 11960, Surxondaryo viloyatida 142, Toshkent viloyatida 62358, Farg'ona viloyatida 29967, Xorazm viloyatida 82 va Qoraqalpog'iston ASSRda 146 kishi edi.

<sup>1</sup> MDA O'zR. F.837. op. 32. d. 593, 39-varaq.

<sup>2</sup> Депортация народов СССР (1930-1959 йиллар) I часть. Документ источник ЦГАОР высших органов госуправления СССР // материалы к серии «Народы и культуры». Выпуск 12. – М., 1992. С. 168.

<sup>3</sup> Каранг: Ўша жойда, 204-бет.

<sup>4</sup> Каранг: Ўша жойда, 314-бет.an

Yangi arxiv ma'lumotlariga binoan bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin.

Deportatsiya siyosati oqibatida sobiq SSSRning boshqa mintaqalari kabi O'zbekiston hududida ham zo'rlik bilan etnik ozchiliklar yashaydigan joylar vujudga keltirildi. O'sha paytda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bunchalik ko'p ko'chirib keltiruvchilarni qabul qilishga tayyor emas edi. Ammo, bu tadbirlar qisman harbiy-strategik tusda bo'lganligi uchun shoshilinch ravishda amalga oshirildi, shuning oqibatida respublika hukumati qator murakkab vazifalarni hal qilishi lozim bo'ldi.

30-yillarning o'rtalarida O'zbekiston o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan mamlakatda oxirgi o'rnlardan birida turardi, nafaqat ko'chirib keltiriluvchilar uchun balki o'z axolisi uchun moddiy turmush sharoitini ta'minlashga ham qiynalgan vaqt edi.

Qurilish materiallari, g'alla va go'sht boshqa respublikalardan keltirilishi sababli uy-joy masalasi tarang va oziq-ovqat mahsulotlari etishmas edi. Tibbiyat xodimlari etishmas, aholi uchun ko'p miqdorda dori-darmon talab qilinad edi. Respublikada 10 ming kishiga bor-yo'g'i 4,7 shifokor to'g'ri kelar, tibbiyat xizmati sifati juda past darajada edi. Zero, respublikada turli yuqumli kasalliklar, bezgak, qizamiq va boshqalar avj olgan edi.

Shunga qaramay, O'zbekiston hukumati, xalqi ko'chirib keltirilgan barcha kishilarni qabul qilish, joylashtirish va ish bilan ta'minlash uchun o'sha murakkab sharoitlarda ham imkonni bo'lgan barcha ishlarni amalga oshirdi.

Xullas, deportatsiya siyosati natijasida millionlab kishilar, ularning aksariyati mutlaqo aybsiz ravishda aziyat chekkanligini ta'kidlash lozim. Deportatsiya g'ayri-qonuniy usullar va benihoya qattiqko'llik bilan amalga oshirildi. Xalqlarning ko'chirilishi o'zining mohiyat-e'tibori bilan millatchilik harakati bo'lmay, balki siyosiy mulohazalar bilan o'tkazilgan edi. Ammo bu siyosat ko'chirilgan xalqlar boshiga behisob kulfatlar soldi.

1930-yillarning ikkinchi yarmida, xususan, 1935-1937-yillarda sobiq ittifoqning chegara rayonlarini "shubhali unsurlardan tozalash" o'tkazilib, bu rayonlarda yashovchi sobiq SSSR bilan "dushmanlik" munosabatida bo'lgan davlatlarga tegishli millatlar – polyaklar, finlar, koreyslar va boshqalar mamlakat ichkarisiga ko'chirildi. Shu tariqa, davlat uchun muhim bo'lgan hayotiy masalalardan biri – davlatning chekka o'lkalarini urushga tayyorlash masalasi o'ziga xos tarzda hal etildi.

Umuman olganda, urushdan oldingi davrda mamlakatdagi ommaviy ko'chirishlarning asosiy sabablaridan biri hukumatning davlatni mustahkamlash, jamiyatni jipslashtirish, oldindan ochiq hamda yashirin tarzdag'i dushmanlardan qutilishga bo'lgan intilishi bilan bog'liq edi. Shuning uchun ham II jahon urushining boshlanishi bilan SSSRning g'arbiy rayonlaridan birinchilar qatorida nemislarning ko'chirilishi tasodifiy xol emasdi. SSSR Oliy Sovetining 1941-yil 28 avgustdag'i "Volgabo'y"i rayonlarida istiqomat qiluvchi nemislarni ko'chirish to'g'risida "gi farmonida mazkur xalqlar orasida "o'n minglab diversantlar va josuslar bor bo'lib, Germaniyaning ishorasi bilan Volgabo'y"i rayonlarida qo'poruvchilik ishlarini olib borishi mumkinligi" to'g'risida qayd etilgan edi. 1941-yilning sentyabr-oktabr oylarida mamlakatning boshqa rayonlaridagi nemislar ham deportatsiya qilindi. Shunday qilib, aytish lozimki, mamlakatdagi nemis aholibini ko'chirish sovet nemislarining okkupant va diversantlar bilan hamkorligining oldini olish choralar sifatida amalga oshirildi. Bu shafqatsiz chora ayni vaqtida fashistlar Germaniyasi bilan urush kayfiyatida bo'lgan barcha davatlarda keng qo'llanildi.

1943-1947-yillar milliy Respublikalarda "millatchilikka" qarshi kurashning ikkinchi davri hisoblanadi. Mazkur yillarda asosan fashistlar bosqinidan ozod qilingan mintaqalarda natsistlar bilan hamkorlik qilganlarni fosh etish bayrog'i ostida "millatchi" unsurlarga qarshi kurashni kuchaytirish partiya tashkilotlari oldiga asosiy vazifa qilib qo'yildi. Bu VKP(b) MKning ana shunday mazmundagi 2 ta qaror va 2 ta murojaatida o'z ifodasini topgan edi.

Uchinchi davr 1947 va undan keyingi yillarni o'z ichiga olib, bu davrda feodal-patriarxal o'tmishni ideallashtirish, tarixni yoritishda "millatchilik" og'ishlariga yo'l qo'ymaslik, mahalliychilik elementlariga milliy mahdudlikka qarshi kurashish, "reaksion" an'analar va urfdotlarni ulug'lashga yo'l qo'ymaslik, bunday hodisalarni baholashda sinfiy yondashuvni ta'minlash zarurligi uqtirib kelindi.

Bunday da'vat masalan, KPSS MKning 1963-yil 9-apreldagi "Toshkent shahar partiya komitetining rahbar kadrlar bilan olib borayotgan g'oyaviy- tarbiyaviy ishlari haqida"gi va 1972-yil 8 avgustdag'i "Toshkent shahar partiya komitetida rahbar kadrlarning markscha-leninchcha o'quvlar va iqtisodiy ta'limi haqida"gi qarorlarida ham o'z ifodasini topdi. Xususan, ularda mahalliychilik, milliy kalondimog'lik va mahdudlik, reaksion an'analar va marosimlarni maqtashdek "millatchilik" urinishlariga qarshi ayovsiz kurashish, ayrim shaxslar va hodisalarni baholashda sinftiylik pozitsiyasidan

chechinayotgan ziyyolilarga prinsipial baho berish zarurligi o'qtiriladi. Mazkur davrda "millatchilik" ko'rinishlarining oldini olishga qaratilgan ko'rsatmalar KPSS MKning 17ta qarori hamda rezolyutsiyasida o'z ifodasini topgan.

Natijada M.SHayxzoda "Jaloliddin", Oybek "Alisher Navoiy", I.Mo'minov "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'mi va roli" asarlarida o'tmishni, tarixiy shaxslarni ideallashtirishda ayblandilar. Umuman olganda, KPSS MK 1926-1982-yillar orasida qabul qilgan va "millatchilikka" qarshi kurash u yoki bu darajada aks etgan, jami 32 ta hujjatlarning 14 tasi umumittifoq miqyosida, 18tasi esa, konkret milliy Respublikalar, shundan 14tasi esa, bevosita slavyan bo'limgan Respublikalardagi ahvolga bag'ishlanib qabul qilinganini ta'kidlash zarur.

"Millatchilikka" qarshi kurash ba'zan telbanoma shakllarda ham namoyon bo'ldi. "1986-yili Chirchiqdagi o'zbek va rus tilida o'qitiladigan mактабда bo'lib o'tgan voqeа xanuz yodimdan chiqmaydi, – deb yozadi A.Raximberdiyev. – Rus sinfi tomidan chakka o'tgani uchun maktab direktori Rahim Sulaymonov shahar partiya komitetida millatchilikda ayblandi".

Shuningdek, milliy masalaga yondashuvda ikki yoqlamalik xususiyatini sezish mumkin: birinchi yondashuv mustamlakachilik bosimidan ozod bo'lishga harakat qilayotgan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi xalqlariga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi esa, ittifoq ichidagi tizimdan qutilishga harakat qilgan xalqlarga nisbatan qaratilgan edi.

O'rganilayotgan davrda milliylikning har qanday ko'rinishiga qarshi kurash, etnik o'ziga xosliklarni inkor etish, ularni qoloq deb bilihsga asoslangan kamsitish siyosati yashirin va oshkora tarzda, turli shakllarda va izchil ravishda davom ettirildi.

keyingi yillarda qrim tatarlari, masxeti turklari, kurdlar, xemshin (xemshil)lar, shimoliy Kavkaz xalqlari, qalmoqlar, greklar, polyaklar va boshqa millat vakillari ko'chirib kelindi.

Maxsus ko'chirib keltirilganlarni Respublikalar bo'yicha hisobga olish miqdori to'g'risidagi arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1950-yil 1-iyulda O'zbekiston SSRda maxsus ko'chirib keltirilganlardan 184122 kishi bor edi. Ular orasida sobiq quloqlardan 5860 kishi, "vlasovchi"lardan 842 kishi, Qrimdan 126114 kishi, Gruziyadan 41885 kishi, Nemislardan

7788 kishi, shimoliy Kavkazdan 884 kishi, qalmoqlardan 746 kishi, Moldaviyadan 3 kishi bor edi<sup>1</sup>.

1953-yil 1-aprelda O'zbekistonndagi maxsus ko'chirilib keltirilganlar 188689 kishini tashkil etdi. Shundan 52.924 kishi erkaklar, 73139 kishi ayollar, 58996 kishi 16 yoshga etmagan bolalar edi<sup>2</sup>.

Sobiq SSSRdagи Respublikalar, o'lkalar va oblastlarda joylashtirilgan maxsus ko'chirib keltirilganlarning soni to'g'risidagi ma'lumotlar (kontingentlar bo'yicha) quyidagicha: maxsus ko'chirib keltirilganlar orasida o'zga davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'Imagan shaxslar 2743 kishi bo'lsa, shundan 2472 kishi Gretsiyadan, 7 kishi Erondan, 208 kishi Turkiyadan, 1 kishi Germaniyadan, 3 kishi Polshadan, 1 kishi Ruminiyadan, 53 kishi fuqaroligi bo'Imagan shaxslar edi<sup>3</sup>.

1952-yil 1-iyulda O'zbekiston SSRda hisobda bo'lgan 186310 nafar maxsus ko'chirib keltirilganlar respublika viloyatlariда quyidagicha joylashtirilgan edi. Andijon viloyatida 21395; Buxoro viloyatida 7307 Samarqand viloyatida 45246, Qashqadaryo viloyatida 6800, Namangan viloyatida 11960, Surxondaryo viloyatida 142, Toshkent viloyatida 62358, Farg'ona viloyatida 29967, Xorazm viloyatida 82 va Qoraqalpog'ston ASSRda 146 kishi edi.

Yangi arxiv ma'lumotlariga binoan bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin.

Deportatsiya siyosati oqibatida sobiq SSSRning boshqa mintaqalari kabi O'zbekiston hududida ham zo'rlik bilan etnik ozchiliklar yashaydigan joylar vujudga keltirildi. O'sha paytda O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bunchalik ko'p ko'chirib keltiruvchilarini qabul qilishga tayyor emas edi. Ammo, bu tadbirlar qisman harbiy-strategik tusda bo'lganligi uchun shoshilinch ravishda amalga oshirildi, shuning oqibatida respublika hukumati qator murakkab vazifalarni hal qilishi lozim bo'ldi.

30-yillarning o'rtalarida O'zbekiston o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan mamlakatda oxirgi o'rnlardan birida turar, nafaqat ko'chirib keltiriluvchilar uchun balki o'z axolisi uchun moddiy turmush sharoitini ta'minlashga ham qiyngagan vaqt edi.

<sup>1</sup> Deportatsiya narodov SSSR (1930-1959 yillar) 1 chast. Dokument istochnik STAOR vlysshix organov gosupravleniya SSSR // materialы k serii «Narody i kultury». Vypusk 12. – M., 1992. S. 168.

<sup>2</sup> Qarang: O'sha joyda, 204-bet.

<sup>3</sup> Qarang: O'sha joyda, 314-bet

Qurilish materiallari, g'alla va go'sht boshqa respublikalardan keltirilishi sababli uy-joy masalasi tarang va oziq-ovqat mahsulotlari etishmas edi. Tibbiyot xodimlari etishmas, aholi uchun ko'p miqdorda dori-darmon talab qilinar edi. Respublikada 10 ming kishiga bor-yo'g'i 4,7 shifokor to'g'ri kelar, tibbiyot xizmati sifati juda past darajada edi. Zero, respublikada turli yuqumli kasalliklar, bezgak, qizamiq va boshqalar avj olgan edi.

Shunga qaramay, O'zbekiston hukumati, xalqi ko'chirib keltirilgan barcha kishilarni qabul qilish, joylashtirish va ish bilan ta'minlash uchun o'sha murakkab sharoitlarda ham imkonni bo'lgan barcha ishlarni amalga oshirdi.

Xullas, deportatsiya siyosati natijasida millionlab kishilar, ularning aksariyati mutlaqo aybsiz ravishda aziyat chekkanligini ta'kidlash lozim. Deportatsiya g'ayri-qonuniy usullar va benihoya qattiqqo'llik bilan amalga oshirildi. Xalqlarning ko'chirilishi o'zining mohiyat-e'tibori bilan millatchilik harakati bo'lmay, balki siyosiy mulohazalar bilan o'tkazilgan edi.

### **O'zbekiston SSRga evakuatsiya qilingan va joylashtirilgan aholi ro'yxati**

Viloyatlar nomi	Joylashtirish plani	Jami 20.12.1941-yilga qadar avakoppunktllarning ma'lumotiga ko'ra kelganlar va joylashganlar soni	15.12.1941-yilga qadar viloyatda hisobga olinganlar soni
Kelganlar (hisobga olinganlar)	525 000	597 119	503 973
Shu bilan birga viloyatlar bo'yicha:			
Tosbent shahri	29 000	45 167	45 167
Toshkent viloyati	73 000	43 209	23 959
Samarqand viloyati	81 000	56 341	89 617 (1-dekabr)
Andijon viloyati	73 000	102 226	74 000
Farg'on'a viloyati	79 000	77 631	79 896
Namangan viloyati	62 000	80 770	55 437
Buxoro viloyati	84 000	120 214	108 540
Korazm viloyati	22 000	2 330	4 617 (1-dekabr)
Qoraqalpog'iston	12 000	51 662	21 777
Surxandaryo	10 000	12 569	963
Sovxozi	-	5 000	-
Bundan tashqari korxonalar va tashkilotlar bilan uyushgan holda kelganlar soni	-	80 000	-
Jami:	525 000	677 119	503 973

№	Respublika, oʻlka, viloyat nomi	Kontingentlar nomi	OʻZBEKISTONGA DEPORTATSIYA QILINGANLAR				Jami hisobda gilar
			Mavjud kishilar	Bundan tashqari	Shu jumladan	Ozodlikdan mahrum etish joyarida	
Oila	Kishi	Kattilalar	Qidiruvda				
1	Oʻzbekiston Jami: SSR	45600	185055	126063	58992	156	3478
Shu jumladan	Qalmoqlar	224	794	551	243	-	14
	“Vlasovchilar”	-	216	216	-	6	95
	Moldaviya SSRdan	1	10	8	2	-	-
Qirimdan		32263	130856	91555	39301	101	2774
Shu jumladan:	Tatarlar	30882	125519	87392	38127	97	2732
	Greklar	1068	4065	3185	880	1	31
	Armanlar	99	379	304	75	-	2
	Bolgarlar	14	53	40	13	-	-
216	Qirimdan maxsus koʼchirilganlar olasi tarkibiga kirmaydigan boshqaga millatlar						53
	Gruziyadan	10756	43611	26888	16723	39	217
	Turkiyadan	7407	30399	18664	11735	35	154
	Kurdar	135	666	396	270	-	1
	Xemshillar	-	2	2	-	-	667
	Nemislar	2021	7996	5804	2192	8	2
							362
							8366

Shu jumladan	Mahalliyar		1230	4603	3291	1312	3	58	4664
	Hukumat qarori bilan qilinganlar	surgun	381	1431	1068	363	-	20	1451
	Safarbar qilinganlar		213	1010	788	222	-	14	1024
	Repatriatsiya qilinganlar		192	910	615	295	5	270	1185
Maxsus	ko'chirilgan nemis oilalariga kirmagan boshqa millatlar		5	42	42	-	-	-	42
Shimoliy Kavkazdan			335	1572	1041	531	2	16	1590
Jumladan:	Qorachoyjar		150	818	558	260	1	2	821
	Bolgortar		101	409	250	159	-	1	410
	CHechenlar		53	175	119	56	-	5	180
Inguishiar			29	159	106	53	1	7	167
Shimoliy Kavkazdan maxsus ko'chirilganlar oilasiga kirmagan boshqa millatlar			2	11	8	3	-	1	12

O'zbekiston shahar va qishloq aholi milliy tarkibiniñ o'zgarishi (foiz hisobida)  
(1939-1989-yillar)<sup>1</sup>.

Milliati	1939	1959	1979	1989
	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq
Jami aholi, shu jumladan	100,0	100,0	100,0	100,0
o'zbeklar	40,3	72,5	37,2	74,8
ruslar	35,5	4,4	33,5	24,8
tojiklar	35,7	5,5	2,5	4,5
qozoqlar	42,3	5,6	2,6	4,9
tatarlar	5,3	1,5	10,5	2,9
qoraqalpoqlar	0,7	3,6	1,2	2,5
qrim tatarlari	-	-	-	-
koreyslar	0,8	1,3	1,6	1,75
qirg'izlar	0,1	1,8	0,1	1,7
ukrainlар	2,7	0,65	2,4	0,4
turkmnlar	0,3	0,9	0,15	0,9
turklar	-	-	-	0,2
yevropaliik yahudiylar	3,1	0,1	3,3	0,1
armanlar	1,3	0,5	0,9	0,05
ozarbayjonlار	0,2	0,0	0,4	0,6
nemislar	-	-	-	0,5
uyg'urlar	0,4	0,9	0,2	0,3

<sup>1</sup> 1939 йили Бутунтифрок ахоли рўйхати. Россия Федерацияси Марказий статистика бозикармасининг Марказий архиви, Ф-1, В.620, 73, 78, 81-вараклар; 1959 йилга Бутунтифрок ахоли рўйхатининг Ўзбекистон ССР бўйича якупчари – М., 1962, 139-143-бетлар; 1989 й.г.ни бутунтифрок ахоли рўйхати якупчари. Ўзбекистон ССРнинг миллый таркиби. – Тошкент, 1990. 57-58-бетлар.

boshqirdlar	0,2	0,1	0,3	0,1	0,3	0,1	0,4	0,0
beloruslar	0,2	0,03	0,3	0,05	0,2	0,0	0,4	0,0
O'rta osiyo yahudiyları	-	-	-	-	0,4	0,0	0,4	0,0
eronilar	-	-	-	-	0,3	0,0	0,2	0,1
lo'ililar	0,05	0,1	0,1	0,1	0,1	0,0	0,1	0,0
mordvalar	0,45	0,1	0,45	0,05	0,2	0,0	0,1	0,0
greklar	-	-	-	-	0,2	0,0	0,1	0,0
chuvashlar	0,1	0,02	0,1	0,05	0,1	0,0	0,1	0,0
boshqa millatlar	2,3	0,85	2,2	0,95	0,9	0,3	0,8	0,4

### **Savol va topshiriqlar:**

1. O'zbek xalqining evakuatsiya va deportatsiya qilingan xalqlariga ko'rsatilgan bag'rikenglik namunalarini keltiring.
2. Ikkinchи jahon urushi yillarda O'zbekistonga ko'chirilgan sanoat obyektlari qayerda joylashgan va ularning sonini keltiring.
3. Deportatsiyaga uchragan xalqlarni sanab o'ting.
4. Sovet davlati tomonidan turli millatlarga nisbatan qo'llanilgan deportatsiya siyosatini mohiyati nimada?
5. Deportatsiya qilingan koreys millatini taqdirini yoriting.
6. Urushdan keyingi yillarda millatchilikda ayblangan o'zbek ziyorolar haqida qanday ma'lumotga egasiz?
7. Sovet davri aholi ro'yxatga olish bo'yicha O'zbekiston ahaolisining milliy tarkibi qanday bo'lgan?
8. Aholi milliy tarkibida o'zbeklarning ulushi necha foizni tashkil etgan?

### **Kalit so'zlar:**

Evakuatsiya, reevakuatsiya, deportatsiya, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, "kompensatsiya effekti", aholi milliy tarkibi.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. Uzoq Sharq o'lkasi chegara rayonlaridan koreys axolisini ko'chirish to'g'risida" 1937-yil 21 avgust VKP (b) MK qarori.
2. SSSR Oliy Sovetining 1941-yil 28 avgustdagи "Volgabo'yи rayonlarida istiqomat qiluvchi nemislarni ko'chirish to'g'risida"gi farmoni.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob, – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Ata-Mirzayev O.B., Gentshke V., Murtazayeva R. Uzbekistan mnogonatsionalnyj: istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent: Yangi asr avlodи, 2011. – 252 s.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Alfyorova I.V. Gosudarstvennaya politika v otnoshenii deportirovannykh narodov konets 30-x-50-e gody). Diss.kand.ist.nauk. – M., 1998. – 197 s.
2. Bugay N.F. 20-40-e gody: tragediya narodov // Vostok, 1992. – №2.
3. Bugay N.F. Tragicheskie sobytiya ne doljny povtortsya. Aktualnye problemy rossiyskogo vostokovedeniya. – M., 1994.
4. Konferensiya repressirovannykh narodov Rossiyskoy Federatsii. 1990-1992. Dokumenty i materialy. – M., 1993.
5. Belya kniga. O deportatsii koreyskogo naseleniya Rossii v 30-40-x godakh. Kniga 1. – M., 1992.
6. Deportatsiya narodov SSSR (1930-1952 gg). Chast 1 // Materialy k serii "narody i kultury". Vypusk 12. – M., 1992.
7. Kim P.G. Koreysy Respublikni Uzbekistan. – Tashkent, 1993.
8. Pirimqulov SH. Polyak fuqarolari Samarcanda (1941-1946). – Samarqand, 1999.
9. Pirimqulov SH. Surg'un qilingan polyak fuqarolari O'zbekistonda (1941-1946-y.). – Toshkent: Fan, 2006.
10. Saipova K.D. Tolerantnost uzbekskogo naroda k evakuirovannym i deportirovannym narodam v gody voyny s fashizmom. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2018. – 92 s.
11. Xaynazarov B. O'zbekistondagi uyg'urlar diasporasi tarixi. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012. – 80 b.
12. Rahmonqulova A. O'zbekistonga ko'chirilgan greklar. // Qonun himoyasi, 2003. – №3. – B.32.
13. Rahmonqulova A. Darbadarlik. // Fan va turmush, 2001. – №2. – B.21-22
14. Rahmonqulova A. Deportatsiya kak instrument sovetskogo totalitarizma. // Obchestvennoe mnenie. Prava cheloveka, 2001. – №2. – S.43-46.
15. Rahmonqulova A. O'zbekistonga zo'rlik bilan ko'chirilgan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga doir (1930-1950-y.). // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari, 2002. – №1. – B.67.
16. Rahmonqulova A. Deportatsiya va uning sabablari. // Jamiyat va boshqaruvin, 2003. – №2. – B.35.

## **11-mavzu. XX ASR 80-YILLAR OXIRIDAGI MILLATLARARO MOJAROLAR – TOTALITAR MILLIY SIYOSAT NATIJASI.**

### **Reja**

1. O‘zbekistonning istiqlol arafasidagi chuqur inqiroziy holati va undan chiqish yo‘lidagi izchil harakatlar.
2. Farg‘ona fojiasi.

#### **1. O‘zbekistonning istiqlol arafasidagi chuqur inqiroziy holati va undan chiqish yo‘lidagi izchil harakatlar.**

O‘zbekiston tarixida 1989-1991-yillar – istiqlol uchun kurashda eng murakkab, og‘ir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, sotsializm tuzumining inqirozi eng Yuqori cho‘qqisiga etgan davr hisoblanadi.

XX asrning 80 – yillari oxiriga kelib, sobiq SSSRda ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatdan yaqqol tunazzul holati yuzaga kelib, KPSSning bu boradagi harakatlari qulab borayotgan imperiyani saqlab qolishga qodir emas edi. “Qayta qurish” siyosati barbod bo‘lishi, ma’muriy – buyruqbozlikka asoslangan, mulkchilikning turli shakllari raqobat asosida saqlanishni inkor etgan mavhum siyosiy, sifsiy, umumiyl manfaatlarni milliy manfaatlardan ustun qo‘ygan, yagona partianing to‘la hukmronligiga tayangan mustabid tuzum butunlay istiqbolsiz ekanini amalda yana bir bor ko‘rsatdi.

1988-yilda mamlakatdagi ijtimoiy – iqtisodiy vaziyat yanada og‘irlashib ketgach, inqirozlarning sabablarini oldini olish, xo‘jaliklarni boshqarishni takomillashtirish, korxonalarni xo‘jalik hisobida ishlashga o‘tkazish, ularning mustaqilligini kengaytirish maqsadida qabul qilingan “Davlat korxonalarini to‘g‘risi“gi qonunda ham korxonalar narx – navoni o‘zi belgilishi, iste’mol talabiga mos mahsulotlar ishlab chiqarishi lozim edi. Ayni paytda bu mayda korxonalariga, xususiy tadbirkorlikka e’tibor, bozor munosabatlari rivojlanishida muhim omil hisoblanardi. Lekin bu qonunni bajarish ham navbatdagi kompaniyaga aylanib ketib, qonun korxonalarning xo‘jalik hisobida ishlashi uchun yetarli imkoniyat yaratib bermas edi. Chunki, qabul qilingan qonunlar erkin bozor iqtisodiyotining talablariga mos kelmas, boshqarishning ma’muriy – buyruqbozlikka asoslangan tizimi bu kabi hujjatlarni to‘la ado etishga yo‘l qo‘ymas edi. Masalan, O‘zbekistonda 1988-yilda Respublikadagi 1267 ta yirik sanoat korxonalaridan faqat 320 tasi xo‘jalik hisobi va o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlashga o‘tib ishlagan bo‘lsada, bu korxonalariga berilgan davlat buyurtmasi talab va taklifning haqiqiy nisbatini e’tiborga olmas edi.

Natijada, bu amaliyot ham rejalashtirishning ma'lum shakliga aylanib qolgan edi.

Inqirozdan chiqib olish maqsadiga intilayotgan sovet hukumati tomonidan 1989-yil "Ittifoqdosh Respublikalarning suveren huquqlarini kengaytirish, o'z-o'zini boshqarish va o'zini pul bilan ta'minlash asosida iqtisod va ijtimoiy sohaga rahbarlikni qayta qurishning umumiyligi prinsiplari" to'g'risidagi qonun e'lon qilindi. Bu qonunda yagona xalq xo'jaligini mustahkamlash maqsadida yoqilgi – energetika, metallurgiya va mashinasozlik komplekslari, kimyo, meditsina va mikrobiologiya, o'rmon va sellyuloza – qog'oz sanoati tarmoqlari, shuningdek, er osti geologiyasi va uning boyliklarini qidirib topish, mudofaa tarmoqlari, temir yo'l, dengiz, xavo transporta, quvur transporta, informatika va aloqaning umumittifoq tizimlari Yuqorida qayd etilgan tarmoqlarda ittifoq darajasidagi rahbarlik saqlanib qolinishi ko'rsatib o'tildi.

1989-yil SSSR Xalq deputatlarining II syezdida kooperativlarni rivojlantirish, ular uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib berish iqtisodiy tanazzuldan chiqishning asosiy yo'li ekanligi ta'kidlandi va iqtisodiy taraqqiyotning barcha tizginlarini davlat o'z qo'lliga olishi homashuoning isrof etilishi, aholi unumdorligining pasayishi, ishlab chiqarilgan mahsulot sifati og'irlashishining asosiy sababi bo'lgan, degan xulosa chiqarildi. Agar, kooperativlar davlat korxonalari uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlarga ega bo'lsa, ularning faoliyati mamlakat itisodiy hayoti va taraqqiyotida bundan ham samaraliroq o'rinnegallashi mumkinligi ko'rsatildi. Lekin bu masalada ham usha davr iqtisodiy, siyosiy mezonlaridan chiqib ketib bo'lmadi, kooperativlarga xo'jalikni sotsialistik asosda yuritishning tarkibiy qismi deb qaraldi.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni izga solish maqsadida boshlagan yondashuvi 1989-yil O'zbekiston KP MQning plenumida aholi turmush tarzini oshirish maqsadida O'zbekistonda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar xususidagi masala tartibiga qo'yildi. Plenumda yakka tartibdagи yordamchi xo'jaliklarda, uy-joy qurilishini rivojlantirish, aholiga ajratilgan tomorqalarni kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan qator yangi vazifalarini birinchi o'rinda hal etilishi lozimligi asoslab berildi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida:

– oziq-ovqat dasturini bajarish uchun shaxsiy xo'jaliklar sonini, ularga ajratiladigan yerlar miqdorini ko'paytirish;

– uy – joy tanqisligini hal etish, kishilarga uy-joy qurish uchun kerakli qurilish materiallарini yetkazib berishni tashkil etish;

- ishsizlik muammosini hal etish uchun xo‘jaliklarda g‘isht pishiradigan, duradgorlik va boshqa mahsulotlarni tayyorlaydigan korxonalar qurish;
- ayollarning ish bilan bandligini ta’minlash;
- ijtimoiy siyosiy barqarorlik masalalarini hal etish, yoshlarni ish bilan ta’minlashni tezlashtirish.

Qishloq axolisi o‘z mexnati natijalaridan bevosita manfaatdor bo‘lishi, kam kuch va oz mablag‘ sarflab, katta daromad olishga, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga intilishi jahon tajribasida sinalgan yo‘l edi. Zero, qishloqda ishlab chiqarishni takomillashtirish yo‘llaridan biri turli shakldagi koopertivlarni tashkil etish, yakka tartibdagi aholi faoliyatiga keng imkoniyatlar ochish, aholiga pullik xizmat ko‘rsatish e’tiborga molik rivojlanish yo‘llaridan biri edi. Bu tajriba bir qancha sotsialistik mamlakatlarda, jumladan, Polsha, Vengriya, Xitoy Xalq Respublikasida qo‘llanilib, qisman bo‘lsada, o‘zining samarali natijalarini bergen. Davlat bu mamlakatlarda mulkdorlarning ishlab chiqarishini mustahkamlashiga, ularning manfatlarini himoya qilishga, fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanim, aholi unumdarligini oshirish, etishtirilgan mahsulotning sifati va turlarini yaxshilab, ko‘paytirib borishga e’tibor berib kelgan. Ma’muriy — buyruqbozlik tuzumi va amaliyoti mezonlariga sig‘maydigan bu tajriba asosan, erkin ijodiy aholiga tayangani uchun mulk egalari kam mexnat sarflab, raqobatbardosh mahsulotning miqdori ko‘payib, sifati ortdi. Agar Respublikada shunday imkoniyat bo‘lib, mahalliy dehqonlar o‘z mehnati mahsulotidan to‘la manfaatdor bo‘lib, kam hosilli, lekin Yuqori sifatli tola beradigan paxta navlarini ekib, shu yo‘l bilan ko‘plab ekin maydonlaridan boshqa mahsulotlarni ekish uchun foydalanganida vaziyat bu qadar og‘irlashmas edi.

Manfaatdorlik asosida mehnat qilib, ekologik muvozanatni buzmay, Yuqori sifatli hosil olish tajribasiga ega bo‘lgan o‘zbek dehqoni uchun brigada pudratiga o‘tib ishlash ancha ma’qul yo‘l edi. Shu sababli 1980-yillarning ikkinchi yarmidan ijara pudratini joriy qilish orqali brigada pudratiga o‘tib ishlagan xo‘jaliklarda texnikadan unumli foydalinish va yaxshi tajribalarini ishga solish natijasida hosilning sifati ortdi. Lekin bu tadbirkorlik sotsialistik mulkchilik doirasida bo‘lgan, mulkchilikning sotsialistik shakli to‘la hukmron bo‘lgan bir sharoitda brigada pudrati ham ishlab chiqarishni intensiv tashkil etishning vaqtinchalik yo‘li edi.

Shunday bo‘lsada, O‘zbekistonda qishloq mehnatkashlari brigada pudratiga o‘tib ishlashni yangilik sifatida qabul qildilar. Shu sababli

Respublikada turli shakldagi pudrat asosida ishlayotgan bo‘g‘inlarning soni 30,6 mingtaga etdi. Ularda ishlayotganlar 799,3 ming kishini tashkil etdi. 1985-yilda pudrat asosida ishlayotgan jamoalar, brigadalar, zvenolarda ekin maydonlarining 47,7 foizi, traktorlarning 41,6 foizi, qoramollarning 15,8 foizi, mayda mollarning 40,4 foizi mavjud edi. 1986-yilda O‘zbekistonda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarga ajratilgan yerlar umumiy ekin maydonlarining 6 foizini tashkil etgan bo‘lsa ham bu maydonlardan olingan qishloq xo‘jalik mahsulotlari jami etishtirilgan mahsulotning 40 foizini tashkil etgan.

1990-yilga kelib, O‘zbekiston xalq xo‘jaligida band bo‘lgan ishchi va xizmatchilarining o‘rtacha oylik ish haqi 217 so‘mga etdi. Lekin shuning deyarli yarmi oziq-ovqat uchun, 40 foizdan ko‘prog‘i kiyim kechak va boshqa ehtiyojlarga sarflanar, o‘rtacha miqdorda ish haqi oladigan ishchi va xizmatchilar o‘zlarining madaniy, ma’naviy ehtiyojlarini eng kam miqdorda qondirish imkoniga ega emas edilar. Agar 1985-yilda milliy daromadning 75 foizi iste’molga, 25 foizi jamg‘arma va boshqa xarajatlarga sarflangan bo‘lsa, 1989-yilga kelib esa milliy daromadning iste’molga sarflangan qismi 86 foizni tashkil etgan .

O‘zbekiston rahbariyati bozor munosabatlariiga o‘tishi munosabati bilan ijtimoiy himoya masalalariga asosiy e‘tiborni qaratdi. SSSRda ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqa 1944-yilda qabul qilingan qaror asosida to‘lanar, bu bozor munosabatlariiga o‘tish sharoitida, ayni paytda inqirozga uchragan tuzumdan qolgan qiyin iqtisodiy ahvolda mutlaqo talabga javob bermas edi. Shu maqsadda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti va Ministrlar Soveti “Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish yuzasidan qo‘srimcha tadbirlar belgilash to‘g‘risi“da qaror qabul qildi. Unga ko‘ra Respublikada mablag‘i hisobidan to‘liq bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lmagan kishilarga, xaloq bo‘lgan jangchilariga oilalariga to‘lanadigan nafaqlar 2 baravarga oshirildi.

Ayni paytda O‘zbekistonda Respublika ijtimoiy – iqtisodiy hayotini tubdan o‘zgartirish, markaz hukmronligini cheklash va unga barham berish uchun o‘ziga xos yo‘ldan borishga mustahkam zamin tayyorlanayotgan edi. 1989-yil iyun oyidan boshlab O‘zbekiston SSR KP MK birinchi kotibi lavozimida faoliyat ko‘rsatishni boshlagan I.A. Karimov Respublikada yuzaga kelgan og‘ir vaziyatdan chiqish uchun fakat mustaqil taraqqiyot, yo‘lini tanlash lozimligini ham ko‘rsatib utdi. U 1990-yil 24-martda O‘zbekistonning birinchi prezidenti etib saylandi.

1990-yil 20-iyunda Respublika suvereniteti to‘g‘risida Deklaratsiya qabul qilindi.

Xalqaro huquq qoidalar, umumbashariy qadriyatlar va demokratiya prinsiplariga amal qilgan holda belgilangan deklaratsiyadagi vazifalar asta – sekinlik bilan amalgalash oshira boshlandi. Garchi, SSSR tarkibida bo‘la turib Respublikani milliy ravnaqi va o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li bo‘lishi mumkin bo‘lmasa-da, yangi rahbariyat O‘zbekiston taraqqiyoti kelajagini belgilaydigan asosiy omillar – xususan, iqtisodiyotni ko‘tarish, ijtimoiy hayotni yangidan izga solish, madaniy – ma’naviy hayotni yuksaltirish, tarixiy haqiqat, ta’qib ostida bo‘lib kelgan urf – odat, an‘analarni qayta tiklash kabilarga yetarli darajada e’tiborni qaratdi. I.A. Karimov boscheligidagi O‘zbekiston rahbariyati ijtimoiy – iqtisodiy tanazzuldan chiqish choralarini ilk marotaba markazdan mustaqil ravishda belgilash yo‘lini tutdi. Tabiiyki, bunday yo‘l xomashyo manbaiga aylanib qolgan Respublika uchun og‘ir bo‘lsada, O‘zbekiston RSFSRning ayrim hududlari, ittifoqdosh Respublikalari bilan ham mustaqil iqtisodiy aloqalar o‘rnata oldi. Ayni paytda Respublika Davlat reja qo‘mitasi, Moliya vazirligi, ilmiy-tadqiqot institutlari va Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini shakllantirish konsepsiyasini” tayyorlashga kirishiildi. 1990-yilda “O‘zbekiston xalq xo‘jaligini barqarorlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va bozor iqtisodiyotiga o‘tishning qoidalarini” loyihasi e’lon qilindi va umumxalq muhokamasiga qo‘yildi. Byudjetni shakllantirish maqsadida “O‘zbekiston SSR byudjetini shakllantirish prinsiplari” haqidagi deklaratsiya Respublikaning hamma daromadlariga o‘zi egalik qilish huquqini berdi. O‘zbekistonda iqtisodiyotning samarali amal qilinishi va xalq farovonligini o‘sishiga imkoniyat yaratuvchi har qanday shakldagi mulkchilik bo‘lishiga ruxsat berildi. Natijada mol – mulknii saqlash va ko‘paytirib borish uchun barcha zaruriy shart – sharoitlar yaratib berildi va ularning barchasi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi va Respublika nomidan chiqarilgan qonunlar bilan mustahkamlanishi bilan tartibga solinadigan bo‘ldi. 1990-yil 30-oktabrga kelib “O‘zbekiston SSR da mulkchilik to‘g‘risida” qonun e’lon qilindi. Qisqa vaqt ichida QQASSR va ma’muriy – hududiy tuzilmalar mahalliy bo‘ysunuvidagi mulklardan tashkari bo‘lgan ishlab chiqarish sohalari Respublikaga bo‘ysunadigan bo‘ldi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu harakatlar xalq xo‘jaligini barqarorlashtirish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich o‘tish orqali vujudga kelgan murakkab ahvoldan qutulishning amaliy yo‘li edi.

Umuman olganda, 1989-yilning ikkinchi yarmidan boshlab I.A.Karimov boshchiligidagi Respublika yangi rahbariyatining hokimiyatga kelishi O'zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy hayotida burilish davrini boshladi. 1980-yillarning ikkinchi yarmidan ma'naviy qadriyatlarni tiklash uchun boshlangan harakatlar kuchaydi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.

O'zbekiston iqtisodiy hayotida, xususan qishloq mehnatkashlariga yetarli miqdordagi er uchastkalarining berilishi aholini oziq – ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga imkon berdi. 1989-yil oxirlari – 1990-yil O'zbekiston rahbariyati tomonidan ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohaga oid o'zgarish va yangiliklarning amalga oshirilishi sovet davlati chuqur inqirozga yuz tutgan bir vaqtida Respublika kelajak so'ng Davlat tili to'g'risidagi qonunning loyihasi 1989-yil 18-iyunda matbuotda e'lon qilindi va u e'lon qilingan kundan boshlab ikki oy muhokama etilishi belgilab qo'yildi. Bu loyiha mustaqillikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lsa-da, markaz ta'siridan chetlashgan holda loyihani qayta ko'rib chiqish, til haqidagi qonun loyihasini ishlab chiquvchi yangi komissiya tuzish zarurati yuzaga kelgandi. Yangi tuzilgan komissiya tarkibiga norasmiy tashkilotlarning vakillari ham kiritildi. Komissiya qoshida til haqidagi qonun loyihasi yuzasidan bildirilgan barcha fikr va mulohazalarni o'rganuvchi guruh ham tuzildi. Loyiha muhokama qilinayotgan to'rt oy davomida komissiyaga jami to'rt mingga yaqin maktub kelib tushgan, bu xatlarga jami 150 mingdan ortiq kishi imzo chekkan edi. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda bu takliflar o'rganib chiqildi va tezda qonun loyihasining yangi uch varianti yuzaga keldi. Bular komissiya loyihasi, yozuvchilar uyushmasi tuzgan loyiha, norasmiy tashkilotlar vakillari tuzgan loyihalardan iborat edi. Barcha loyihalar ochiq, xolis muhokama etildi va ularni o'rganish, umumlashtirish asosida yangi loyiha tayyorlanib, u 1989-yil 11-oktabr kuni matbuotda e'lon qilindi. Ushbu loyiha O'zbekiston SSR Olyi Sovetining birinchi chaqiriq o'n birinchi sessiyasida muhokama etilib, unda "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuni" qabul qilindi. Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbek tilining hayotda amal qilishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yuzaga keldi. Yangi qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida Respublikadagi bir qancha taniqli shaxslar, xususan, B. Nazarov, I.Qo'chqortoyev, A. Rustamov, E.Yusupov, A. Aliyev, O. Yoqubov, J. Kamol, S. Ahmad, M. Kenjaboev, E.Vohidov va boshqalar o'z fikrlarini bildirib, bu jarayonlarda faol ishtirot etdilar.

Ushbu qonunni amalga oshirish jarayonida O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti qabul qilgan "O'zbekiston SSRning davlat tili haqida"gi qonunni amalga oshirishning davlat Dasturiga to'liq amal qilinishi zarur edi. O'zbek tiliga davlat maqomi berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan mablag'lar ham hisoblab chiqildi. O'sha vaqtida Respublikadagi og'ir iqtisodiy vaziyat e'tiborga olinib, bu mablag'lar bosqichma – bosqich beriladigan rejalashtirildi. Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilingani bilan unga amal qilish, qonunni bajarilishini nazorat qilish masalalarini to'liq hal etish lozim edi. O'zbek tilini bilmaydigan fuqarolarga davlat tilini bepul o'rgatish bilan bog'liq bo'lgan vazifalar ham belgilab olindi. Umumiy yig'inlarda davlat tilini bilmaydiganlarga ma'ruzalar matnini tarjima qilib berish masalalari ham kiritildi. Shundan so'ng davlat tilini izchil takomillashtirish maqsadida keng harakatlar boshlandi. Qonunda belgilangandek, Respublikada qonun loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar aniq belgilangan holda faqat rahbar xodimlargina emas, balki turli millat vakillari bilan mutazam aloqada buluvchi kishilar, huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, ijtimoiy ta'minot, xalq maorifi, madaniyat va sog'liqni saqlash, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, aloqa, transport, kommunal xo'jalik, ommaviy axborot vositalari xodimiari, o'z vazifalarini bajarishi uchun yetarli darajada davlat tilini bilishlari kerakligi ta'kidlangandi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston rahbariyati o'zbek tilini davlat tili darajasiga ko'tarishda Respublikada istiqomat qiladigan boshqa xalqlarning milliy manfaatlarini ham hisobga oldi. Davlat tili haqidagi qonunda o'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishi boshqa milliy tillarning manfaatlariga zid kelmasligi lozim edi. Qonunga Respublikada yashovchi barcha xalq va millat vakillari teng huquqli ekanini ko'rsatuvchi modda ham kiritildi. Shuningdek, harbiy, diniy va boshqa sohalarda kerakli til belgilanishiga urg'u berildi.

Yangi qonunda davr sharoitlaridan kelib chiqib Respublikada ittifoq tasarrufidagi yoki davlat tili yetakchilik qila olmaydigan aholi jamoalarini borligi ham inobatga olindi. Shuni e'tiborga olib qonunda bu jamoalarda ish yuritishni rus tilida ham, boshqa tillarda ham olib borish mumkinligi e'tirof etildi. Bu tadbir hali sovet davlati saqlanib turgan murakkab bir davrda Respublikadagi ijtimoiy, siyosiy vaziyatni keskinlashtirib yubormaslik zaruriyati bilan izohlangan edi.

Qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonida barcha idoralarda Davlat tilida ish yuritishga o'tish muddati ikki yil bo'lishi kerak, degan taklif

kiritilgan bo'lsada, bu amalga oshirish mumkin bo'limgan muddat edi. Chunki, boshqa millat vakillari uchun ikki yil mobaynida o'zbek tilini o'rganib, unda ish yuritishga o'tishning imkoniy yo'q edi. Hatto, ikki yil ichida o'zbek tilida ish yuritishga o'tishga mahalliy millatga mansub bo'lgan rahbarlarning anchagini kismi ham tayyor bo'limgan. O'zbekiston KP MK, birinchi kotibi I.A. Karimovning vaziyatni chuqur o'rganib, kiritgan taklifiga binoan ish yuritishida davlat tiliga to'la o'tish muddati sakkiz yil deb belgilandi. Bu murakkab muammoni o'sha davrlarda oqilonan hal etishning yagona va to'g'ri yo'li edi.

Qonunni bosqichma-bosqich amalga oshirish muddatlari ham rejalashtirilgan, jumladan, qonunning qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston SSR Oliy Soveti qaror qabul qildi. Qarorga ko'ra qonunning 4,7,8 moddalari 8 yil davomida, 5 va 24 moddalari 3 yil davomida, 16 moddasi esa 1991 – 1992 o'quv yilidan boshlab kuchga kiritilishi ko'rsatib o'tildi. 22 moddasi 1991-yildan kuchga kirishi belgilandi. Qolgan moddalari qonun qabul qilingan kundan boshlab kuchga kirdi.

O'zbek tilining ijtimoiy – siyosiy va ilmiy-texnikaviy atamalarini tartibga keltirish va takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Ministrlar Soveti huzurida maxsus Atamalar qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita oldiga tegishli vazifalar qo'yildi. Qo'mita dastlabki vaqtidan boshlab matbuotda berilgan, radio va teleko'rsatuvlarda qo'llangan atamalarni, 15 ta vazirlik, qo'mita va idoralardan kelgan, shu idoralarga talluqli atama va nomlanishlarni to'plab, muhokama etdi. Bu qo'mita oldiga tegishli vazifalar qo'yildi. Qo'mita dastlabki vaqtidan boshlab matbuotda berilgan, radio va teleko'rsatuvlarda qo'llangan atamalarni, 15 ta vazirlik, qo'mita va idoralardan kelgan, shu idoralarga taalluqli atama va nomlanishlarni to'plab, muhokama etdi. Masalan, tibbiyot seksiyasi sog'iqliqi saqlashda qo'llaniladigan eng dolzarb atamalarni to'plab o'z seksiyasida muhokama qildi. To'plangan atamalar qo'mita byurosida muhokama qilinib, yana muhokamaga 22 tashkilotga yuborildi.

1989-yilda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonun ayrim kamchiliklardan xoli bo'limasa-da, biroq bu qonunning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda qabul qilinganini hisobga olsak, bunday kamchiliklarning sabablarini tushunib olish qiyin emas edi. Mazkur qonun xalq madaniy merosi, milliy qadriyatlarini o'rganish, tarixiy xotirani tiklash, shu asosda milliy ong, ruhiyat mustahkamligi, ijtimoiy faoliy kuchayishiga ham yo'l ochib berdi. Shu ma'noda milliy tillarga davlat maqomi berilishi mustaqillik yo'lidagi harakatlarning kuchayishiga ham ijobjiy ta'sir etdi.

O'zbekistonda 1989-yilning ikkinchi yarmidan boshlangan o'zgarishlar O'zbekistonda "paxta ishi" qatag'onlari bilan bog'liq bo'lgan Gdlyan guruhiga nisbatan munosabatni ham keskin o'zgartirib yubordi. Shubhasiz, bu voqealarga Respublika yangi rahbariyati befarqlik bilan qarab turmas edi. "Paxta ishi" bilan bog'liq bo'lgan qonunbuzarliklarni fosh etish, begunoh kishilarni oqlashda O'zbekistonning I.A. Karimov boshchiligidagi yangi rahbariyati muhim ishlarni boshladi. O'zbekiston SSR yangi rahbari I.A. Karimovning tashabbusi bilan "paxta ishi"da jinoiy javobgarlikka tortilganlarni oqlash uchun markazdan mustaqil tarzda harakatlari boshlanib ketdi. Respublika yangi rahbariyatining boshlagan jiddiy harakatlari bilan kishilar ruhiyatida istiqbolga ishonch tuyg'ulari uyg'ona boshladi. O'zbekistonga nisbatan uyushtirilgan, mahalliy rahbarlarga nisbatan bo'lgan munosabat va uning ortidan kelib chiqqan "paxta ishi" uydirmalari markazdag'i ittifoq rahbariyati tomonidan puxta rejalashtirilgan ishlardan biri edi. 1989-yil may oyida tuzilgan komissiyaning ish faoliyatida ham O'zbekiston rahbariyatining ko'rsatadigan yordami muhim ahamiyat kasb etar, komissiya a'zolarining O'zbekistonda ish olib borishlari uchun qulay sharoit va imkoniyatlar zarur edi. Shu bois O'zbekistonning shu yillarda yangi saylangan rahbariyati tomonidan haqiqatni yuzaga chiqarish maqsadida markazdan kelgan komissiya a'zolari xolis ishlashlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan edi.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi 1989-yil 12-sentyabrda "paxtachilikdagi qo'shib yozishga yo'l qo'ygani uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan kishilarni afv etish maqsadida xo'jjatlar tayyorlaydigan" komissiya tashkil etdi. Ushbu komissiya tayyorlagan hujjatlarga tayanib, O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi jinoiy javobgarlikka tortilgan 43 kishini gunohidan o'tishni O'zbekiston SSR Oliy Sovetidan so'radi. Unda ko'plab shaxslarga belgilangan jazo muddatlarini yengillashtirish choralar ni so'ralgan edi. Ma'lum bo'lishicha, shu vaqt oralig'ida "paxta ishi"da sudlanganlar soni 4018 kishini tashkil etgan bo'lsa, Respublikada boshlangan ijobjiy o'zgarishlardan so'ng reabilitatsiya qilinganlar soni 2940 kishini, qayta tergovga yuborilganlar 63 kishini, asossiz sudlanganlar 1016 kishini tashkil etdi.

Shu bilan bir qatorda 1990-yil 8-fevralda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti sudlar qarorida ko'rsatilgan, paxtachilikda qo'shib yozishlar orqasida keltirilgan zararlar haqidagi ma'lumotlar haqiqatga qanchalik mos kelishini chuqurroq tekshirish maqsadida yana bir

komissiya tashkil etdi. Keyinroq borib bu komissiya O'zbekiston SSR Oliy Soveti komissiyasiga aylantirildi. Ushbu komissiya o'z faoliyat davomida jinoiy javobgarlikka tortilgan ko'plab shaxslarning jinoiy – tergov ishlarini o'rganib chiqdi va O'zbekiston SSR Oliy Sudi plenumining 1985-yil 9 avgustdag'i 9 – sonli qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaror loyihasini ishlab chiqdi. Bu loyiha binoan "sudlar har bir konkret holatda Yuqori lavozimdag'i rahbarlarni majburlash va tazyiq ostida qo'shib yozishlarga yo'l qo'yish hollarini majburlash orqasida amalga oshirilgan ish", deb baholashi lozim edi. Lekin SSSR Bosh prokurori N.S.Trubin, bu o'zgartirishlarni "SSSR qonunlarini mensimaslik", deya O'zbekiston SSR Oliy Sudi plenumining qarorini ham shaklan, ham mazmunan noto'g'ri deb baholadi. SSSR Bosh prokurori Respublika Oliy Sudining paxtachilikdagi qo'shib yozishlar bo'yicha qo'zgatilgan barcha jinoiy ishlarni qayta ko'rib chiqish, jinoiy javobgarlikka tortilganlarni ozod qilish haqidagi qaroriga qarshi chiqdi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqkan holda shuni ta'kidlash joizki, 1980-yillarning oxiriga kelib o'zbek xalqining milliy uyg'onishini ta'minlovchi asosiy omillar etilib bo'ldi. Ayni paytda O'zbekistonda yashab turgan turli millat va etatlarning milliy – madaniy rivojlanishi uchun imkoniyatlarni kengaytirishga doir ijtimoiy-ma'naviy tadbirlar markazdan mustaqil ravishda ishlab chiqila boshlandi.

## 2. Farg'ona fojiasi

Ma'lumki, XX asrning 80-yillari oxirlarida sobiq SSSRda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqiroz jarayonlari kuchayib, tartibsizlik avj olib ketdi. O'z navbatida, necha yillar davomida hal etilmagan, xalqning sabr kosasini to'ldirgan muammolar oxir-oqibatda ijtimoiy larzalarga, milliy nizolarga olib keldi.

Bunday salbiy holatlar, afsuski, O'zbekistonni ham chetlab o'tmadı. 1989-yilning may oyi oxirlari, iyunning boshlari butun Farg'ona viloyati janjal va to'polonlar alangasi ichida qolib ketdi. Dastlab 23-may kuni boshlangan fojia ikki kundan keyin Toshloq tumaniga, undan so'ng esa Marg'ilon va Qo'qon shaharlariga o'tdi.

Aytish mumkinki, bunday fojialar, yurtimiz tarixida ilgari hech qachon yuz bermagan. Qadimdan o'zining bag'rikenglik, mehmondo'stlik, mehr-shafqatilik fazilatlari bilan shuhrat qozongan xalqimiz hech qachon birovga nisbatan adovatda bo'lмаган, qo'l qo'tarmagan. Biroq, sobiq Ittifoqdagi buzgunchi kuchlar ta'sirida ana

shunday favqulodda kutilmagan fojia sodir etildi va begunoh insonlar halok bo'ldi. Mingga yaqin kishi jarohatlandi. Sakkiz yuzdan ortiq uyg'a o't qo'yildi. Davlat va jamoat idoralarining binolariga ziyon etkazildi. Ommaviy chiqishlar va to'polonlarda o'ttiz mingga yaqin odam ishtirok etdi. Etkazilgan ziyon bir necha million so'mdan iborat bo'ldi.

Sobiq SSSRning markaziy matbuoti jahondagi ko'pgina OAV Farg'ona voqealarini bir yoqlama yoritishga harakat qildi. Asosiy aybdorlar etib, xalqimizni ko'rsatishga urindi.

Respublikamizning yangi rahbari Islom Karimov zimmasiga o'sha paytda qanchalar og'ir vazifalar tushganini ko'rsatadi. Atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov o'zining "Prezident" nomli risolasida o'sha paytda yurtimizda hukm surgan vaziyatni qaynab yotgan qozonga qiyoslagani bejiz emas edi. Bu qaynoq qozonning ichiga tushish u yodqa tursin, uning oldiga yaqinroq bo'lishining o'zi tasavvur etib bo'lmaydigan jasorat edi.

I.Karimov Toshkentda va Moskvada bo'lib o'tgan katta anjumanlarda, shuningdek, matbuotdag'i chiqishlarida bu masalada qat'iy positsiyada turib, quyidagi fikrlarni alohida ta'qidlaydi:

**"O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealarini o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturnuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta, o'ziningadolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati xamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lмаган. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingen ko'pgina misollar bilan isbot qilingan".**

Farg'ona fojialari tagida shovinizmga aloqador sabablar ham bor edi. Bu voqealar, aytish mumkninki, 1986-yili Qozog'iston poytaxti Olmaotada amalga oshirilgan "Metel" operatsiyasining davomi edi. Albatta, ssenariylar shakli, tashkiliy uslubi jihatidan ular har xil bo'lishi mumkin. Biroq, maqsad bitta edi. Shu tariqa mavjud siyosiy tizimni turli alg'ov-dalg'ovlar, tus-to'polonlar, milliy Respublikalardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni chigallashtirish orqali saqlab qolishga harakat qilindi.

Farg'onaning mahalliy axolisi esa ijtimoiy-siyosiy talablari uchun Qo'qonda o'qqa tutildi. Bu ikki harakatda ham ruslarga qarshi kayfiyat bor, degan sun'iy da'volar o'ylab topildi. Bunday fitna O'shda 1989-yil 20-mayda bo'lib o'tgan voqeadan keyin paydo bo'lgan edi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida Farg‘ona voqealarining tub sabablarini quyidagi masalalar bilan bog‘liq holda talqin etadi:

1. Farg‘ona vodiysida yashayotgan aholining og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
2. Odamlarning ta‘minoti, daromadi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haddan tashqari pastligi tufayli bunday holat O‘zbekistonning boshqa joylarida ham sodir bo‘lishi mumkinligi.
3. Ishsizlik, ishchi o‘rinlarining kamligi, ya’ni ortiqcha ishchi kuchining ko‘payib borishi.
4. Yoshlar va ularni ishga joylashtirish masalasi jiddiy o‘ylab qo‘rilmagani kabi sabablar.

Millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish har qanday ko‘p millatli jamiyatda o‘tish davrining hal qiluvchi masalasi, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlashning eng muhim omili sifatida kun tartibiga chiqadi. Bunday paytda davlat faqat adolat kuchiga tayanib, milliy, irqiy, diniy mansubligidan qat’iy nazar, mamlakat fuqarolarining huquq va manfaatlarini birdek himoya qila olgandagina bu masala ijobji xal etiladi. Buni O‘zbekiston misolida yaqqol qo‘rish mumkin. O‘zbekistonda milliy va millatlararo munosabatlarga ana shunday oqilona yondashildi. Natijada mustaqillikning dastlabki yillarda og‘ir siyosiy buhronlar, iqtisodiy tangliklar, ma’naviy-ruhiy parokandalikning keskin ijtimoiy-siyosiy larzalarning oldi olindi.

Turli siyosiy buhronlar va iqtisodiy tangliklar mayjud bo‘lgan bir paytda har xil qarashdagi odamlarning, diniy munosabatlari va milliy xususiyatlaridan qatiy nazar, mamlakat fuqarosi sifatidagi yahlitligini, kundalik turmush ehtiyojlarini ijtimoiy adolat yuzasidan teng ravishda qondirib turish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy aslohotlarning butun mohiyat-mazmunini, samarasini miqyosini belgilaydi. Ayni shu jihatlar hisobga olingen taqdirdagina u o‘z samarasini beradi. Millatlarni milliy xususiyatlaridan qat’iy nazar, umumiy taqdir va umumiyy istiqbol tushunchasi yaqinlashtiradi, birlashtiradi.

Millatlararo munosabatlar – bu ijtimoiy hodisa. Chunki har qaysi millat vakili ijtimoiy barqarorlikdan, ijtimoiy ta‘minotdan xaqli ravishda manfaatdor bo‘lishga doimo intiladi. Millatidan qat’iy nazar, har qaysi inson fuqaro sifatida o‘z mamlakatidagi barcha imkoniyatlardan, ne’matlardan foydalanishga haqli. Ijtimoiy munosabatlar jamiyat yangilanayotgan bir paytda eskicha qarashlar iskanjasidan xalos bo‘lishi

lozim. Olamni yangicha idrok qilish orqali uning mohiyatini anglash jarayonida dunyoqarashlar uyg'unligiga, erishish ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisadir.

Millatlararo munosabatlar — bu ma'naviy-axloqiy hodisa. Chunki millat o'zini anglash, o'zini tiklash jarayonida milliy xudbinlikka yo'l qo'ymasligi kerak. Millat uyg'onish jarayonini boshidan kechirayotgan bir paytda o'z milliy qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda his qilishi lozim. Ana shu qadriyatlar millatning millat sifatida o'zini anglashidan oldin insonning inson sifatida o'zini anglashini ustun qo'yishiga olib keladi.

### Namangan voqealari

1991-yilning 9-dekabrida Namangan shahrida bir guruh ko'poruvchi kuchlar viloyat ijroiya qo'mitasi binosini egallab olib, O'zbekistonni islom davlatiga qurish da'vo qilib chiqishadi va Respublika rahbari bilan uchrashuvni talab qilishadi. Islom Karimov prezidentlikka nomzod sifatida ertasi kuni Namanganga etib keladi va ongi aqidaparastlik g'oyalari bilan zaharlangan, jazavaga tushib, qora kuchga aylangan johil olomon orasiga soqchi va hamrohlarsiz bir o'zi hech ikkilanmasdan, shijoat va shiddat bilan kirib bordi. Bu o'ta keskin holat videotasmasida muhrlanib qolgan. Ana shu jasoratga to'la, har qanday odamni ham hayajonga soladigan tarixiy lahzalar "Mustaqillik arafasida yoki shurolarning so'nggi talvasasi" filmida aks ettirilgan. SHiddat bilan kirib kelgan Respublika rahbarini ko'rishgach, aqidaparastlar bir oz dovdirab qolishadi. Yurtboshimiz vazminlik bilan so'z boshlaydi va ularning barcha da'volarini aniq faktlar bilan rad etadi.

Bu harakat a'zolari 1991-yilning dekabrida Namanganda viloyat ijroiya qo'mita binosini egallab olib, hukumat vakillariga quyidagi talablarni qo'yadi:

- Dunyovi tuzumdan voz kechish va O'zbekistonni islomi davlat deb e'lon qilish.
- Dunyovi qonunlarni bekor qilish va mamlakatda shariat arkonlarini joriy etish.
- Dunyoviy maktablarni yopish va o'g'il bolalar hamda qiz bolalar alohida o'qitiladigan maktablar ochish.
- Islomiy kiyinishga o'tish, ayollarning hijobda yurishlarini joriy etish.
- Namangandagi sobiq siyosiy ta'lim muassasalari binolarini islom radikallari ixtiyoriga berish va hokazolar.

Ular jami 15 ta talab asosida hokimiyatni miyasi diniy radikalizm bilan zaharlangan kuchlarning qo'liga berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. Hokimiyatning ularga berilishi ularning nazarida jihod qilinishi lozim bo'lgan barcha insonlarning — o'zga dindagilarni, o'zgacha fikrlovchilarni, dunyoviy taraqqiyot tarafdarlarining, qisqasi, ko'ngillariga yoqmaganlarning istisnosiz tarzda kirib tashlanishiga olib kelgan bo'lar edi.

Shuni aytish kerakki, Islom Karimovning qat'iyati va jasorati binoni boshiga ko'tarib baqir-chaqir qilib yotgan minglab eng ashaddiy ekstremistlarni ham sarosimaga solib qo'yadi. Mamlakatimiz rahbari hayajonga berilmasdan, ular talab qilayotgan yo'l qonunga mutlaqo zid ekani va hech qachon yaxshilikka olib kelmasligini o'qtiradi, o'zining salobati va irodasi bilan g'uvullab yotgan olomonning shashtini so'ndirishga, behuda qon to'qilishining oldini olishga muvaffaq bo'ladi.

Mustaqillik arafasida talonchilik, bosqinchilik, garovga olish, ta'mag'irlilik, o'g'irlilik, tovlamachilik, odam o'ldirish bilan bog'liq jinoyatlar Namanganda ham avj oladi. 1990-yilning o'n oyida viloyatda 3189 ta jinoyat yuz bergan bo'lsa, yilning may oyiga (besh oy ichida) kelib bu ko'rsatkich 3213tani tashkil etadi . O'ziga to'q oilalarning bolalarini o'g'irlab ketib, evaziga katta pul so'rash holatlari kuchayadi.

Terroristik usullarini keng qo'llagan, mamlakat hayotini izdan chiqarish va shu orqali davlatni kuchsizlantirish yo'lini tanlagan radikallar 1992-yil bahorida o'zlarining yovuz basharasini yana bir bor namoyish qilib, rasmiy hokimiyatning bir necha vakillarini garovga olishadi. Keyinchalik Tojikiston va Afg'oniston hududidagi harbiy harakatlarda ishtirok etgan bu kuchlar mazkur mamlakatlardagi harbiy lagyerlarda tayyorgarlikdan o'tib, O'zbekiston hududida ham bir qator terroristik jinoyatlarni sodir etdi.

Yuqorida zikr etilganidek, dunyodagi bebahो boylik bo'lgan tinchlik va osoyishtalikni saqlash, uni ko'z qorachigidek asrash masalasi mamlakatimiz birinchi rahbari Islom Karimovning faoliyatida doimo eng muhim, eng ustuvor yo'nalish bo'lib keldi. Buni har xil buzg'unchi kuchlar, diniy va dunyoviy niqobdagi radikal oqimlar bosh ko'targan o'sha notinch davrda, Islom Karimovning chuqur iztirob bilan o'rganib, 1992-yil 4-yanvar kuni Oliy Kengashning 9-sessiyasi minbaridan turib xalqqa qilgan murojaatidagi bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ushbu so'zlar yaqqol tasdiqlaydi:

**"Aziz do'stlar! Nima kerak bo'lsa, aytинг, hammasini qilib beramiz. Lekin, aziz onalar, opa-singillar, otaxonlar, do'stlar,**

**ukajonlar, men Prezident bo'lsam ham sizdan tiz chuqib so'rayman,  
iltimos qilaman: shu masalada yordam qiling!**

**Axir, Qur'oni Karim ham do'stlikka, birodarlikka chaqiradi,  
nizo chiqarishni qoralaydi.**

**Janjal chiqqan yurtning xudosi ham undan yuz o'g'irar ekan.  
Shu sabab baraka ham, rizq-ro'z ham nasiya bo'lib qolarkan!"**


Yillar davomida mustaqillik sari intilib yashagan xalqimiz qalbining o'ziga xos ifodasi bo'lgan ushbu nutq va ma'ruzalar o'sha davrda faoliyat yuritgan aksariyat rahbarlarning chiqishlariда kuzatiladigan kommunistik ritorika va demagogiyadan, aravani quruq olib qochishlardan mutlaqo holi ekani, otashin ruhi va samimiyati bilan keskin ajralib turadi. Tarixning noyob hujjatiga aylangan bu chiqishlar vaqt o'tsada, beixtiyor odamni hayratga soladi.

Birinchi Prezident Islom Karimovning xalqimizning siyosiy tafakkur xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shilgan "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobi istiqlol tufayli asl ildizlarimizga qaytib, o'z taqdirimizni o'zi belgilash huquqiga ega bo'lganimizni, avlodlarga ibrat va namuna bo'ladigan ishlarni amalga oshirganimizni yana bir bor g'urur-iftixon bilan ta'qidlashga asos beradi.

- 1989-yil may-iyun oylarida Farg'ona viloyatining Farg'ona, Quvasoy, Qo'qon shaharlari va Toshloq tumanida mesxeti turklar bilan sodir bo'lgan etnik mojarolar;
- iyun oyida Namangan viloyatining Namangan shahrida mesxeti turklar bilan sodir bo'lgan etnik mojarolar;
- iyun oyida Samarcand viloyatining Ishtixon tumanida mesxeti turklar bilan sodir bo'lgan etnik mojarolar;
- iyul oyida Sirdaryo viloyatining Guliston tumanida mesxeti turklar bilan sodir bo'lgan etnik mojarolar;
- 1990-yil 19-21-fevralda Toshkent viloyatining Be'ka tumanida mesxeti turklar bilan sodir bo'lgan etnik mojarolar;
- 3-martda Toshkent viloyatining Parkent tumanida mesxeti turklar bilan sodir bo'lgan etnik mojarolar;
- 2-may kuni Andijon shahrida "Paxtakor-Spartak" futbol o'yiniga to'plangan futbol ishqibozlari tomonidan o'yin sababsiz qoldirilganligi munosabati bilan uyuştirilgan ommaviy tartibsizliklar;
- 2-4-dekabr kunlari Namangan shahrida harbiy xizmatchilar va aholi o'rtaida yuz bergen nizo sababli kelib chiqqan ommaviy tartibsizliklar;

- 1991-yil 9-dekabrdan Namangan shahrida T. Yuldashev rahbarligida “Islom lashkarlari” va boshqa norasmiy guruhlar tomonidan viloyat “oblispolkom” binosini egallanishi hamda uyushtirilgan ommaviy tartibsizliklar;
- 1992-yil 16-17-yanvar kunlari Toshkent shahar Talabalar shaharchasida studentlarga non sotib olish uchun kartochkalar yetkazib berilmaganligi sababli sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar;
- 1997-yil dekabr oyida Namangan viloyatida “Islom lashkarlari” nomli jinoiy guruh tomonidan sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- 1999-yil 16-fevralda Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- 30-mart kuni Xorazm viloyati, Pitnak tumani hududida bir guruh terrorchilar tomonidan avtobusda bo‘lgan 35 nafar yo‘lovchilarning garovga olinishi;
- 30-mart kuni Toshkent shahar Mirobod tumani hududida sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- iyul-avgust oylarida “O‘zbekiston Islom harakati”ning jangarilari Qirg‘iziston Respublikasining Batken tumani hududi orqali Uzbekistonga kirib kelishga uringanlar; 11-noyabrda Toshkent viloyati Angren tumanidagi “Yangiobod” turbazasi hududiga terrorchilarning kirishi;
- 2000-yil iyul oyida Surxondaryo viloyatining Sarosiyo va Uzun tumanlariga terrorchilarning kirishi;
- avgust oyida Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- 2004-yil mart oyida Buxoro viloyatining Romitan tumanida sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- mart-iyul oylarida Toshkent shahrida sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- noyabr oyida Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahridagi bozorda Davlat soliq insieksiyasi xodimlari bilan aholi o‘rtasida kelib chiqqan kelishmovchilik natijasida yuz bergen ommaviy tartibsizliklar;
- 2005-yil 12-13-may kunlari Andijon viloyatida sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- 2009-yil 25-26-may kunlari Andijon viloyatining Andijon shahri va Xonobod tumani hududida sodir etilgan terrorchilik harakatlari;
- iyul oyida Toshkent shahrida bir guruh diniy ulamolar hamda huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga nisbatan uyushtirilgan terrorchilik harakatlari;

- 2010-yil 10-14-iyun kunlari Qirg'iziston Respublikasining janubiy hududlarida sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar.



**1989-yilning may oyida**  
Farg'ona viloyatida  
buuzg'uuchi kuchilar  
tomonidan ommaviy  
tartibsizliklar  
tashkil etilishi

**Bo'ka, Parkent,**  
O'shdagi ommaviy  
tartibsizliklar


**1989-yil 25-iyuu kuni**  
Farg'ona janjal  
to'polonlar alangasi  
ichida qolib ketishi

**O'zbekiston yetakchisining**  
lovillab yonayotgau uylar,  
taxlikka va sarosimaga  
tushgan shahar va  
qishloqlar, qahr g'azabga  
to'lgan odamlarning ichiga  
dadil kirib borishi

## IJTIMOIY LARZALAR

### Jinoyatchilikka qarshi kurash choralar

- **1991-yil 15-fevral kuni**  
“Transport vositalarini olib  
quechganlik uchun jinojy  
javobgarlikni kuchaytirish  
to'g'risi”da Qonun qabul  
qilindi;
- **1990-yil 31-oktyabrda** “militsiya  
xodimlarini ijtimoiy va  
huquqiy jihaddan himoya  
qilishni kuchaytirish  
to'g'risida”gi Qonun qabul  
qilindi;
- **Vazirlar Mahkamasining 1991-yil**  
25-oktyabrdagi qabul qilingan  
“O'zbekiston Respublikasining  
Ichki ishlari vazirligi  
to'g'risida”gi 270-sonli qarori



1991-yilda Farg'ona vodiysida 5555,4 ming kishi yashagan va O'zbekiston axolisining 26,9 % tashkil etgan. Respublikadagi aholi sonining hajmi bo'yicha Farg'ona viloyati 10,7%-birinchi o'rinda, Andijon viloyati – 8,7% – beshinchi o'rinda, Namangan viloyati – 7,5% – ettinchi o'rinda edi.

1985-yil 1-yanvar ko'rsatkichlariga qaraganda Farg'ona vodiysi Respublika miqyosida aholi eng zich yashayotgan hudud edi. 1 kv.metr maydoniga Andijon viloyatida 370 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, Farg'ona viloyatida 273,7, Namangan viloyatida – 164,9. Boshqa viloyatlarda esa aholi zich yashashi ko'rsatkichlari quyidagicha edi: Toshkent viloyati va Toshkent shahri – 258,8, Xorazm viloyati – 141,5, Jizzax viloyati – 30,5, Qoraqalpog'iston – 6,5, Navoiy viloyati – 5,7 kishiga to'g'ri kelgan edi.

Respublikani chuqur inqiroz holatidan chiqarish maqsadida quyidagi masalalar ustuvor yo'naliishlarga aylandi:

- tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo totuvlikni asrash;
- aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatish;
- iqtisodiyotni tubdan isloh qilish, mulkchilik, erga egalik qilish masalasini alohida qo'rib chiqish;
- milliy armiyani, qurolli kuchlarni shakllantirish;
- sud-huquq tizimini yangi asoslarda barpo etish;
- inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash;
- sog'liqni saqlash, ilm-fan, ta'llim-tarbiya va madaniyat jahhalariga e'tibor qaratish, kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish.

Tarixan juda qisqa muddatda, o'ta murakkab davrda, nafaqat har soat, balki daqqa va soniyalar ham buniyodkorlik ishlarini amalga oshirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. Xronologik jihatdan mustaqilikka erishish yo'lida quyidagi dolzarb ishlar amalga oshirildi:

– 1989-yil, avgust – “Kolxozchilar, sovxozi ishchilari, fuqarolar shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida” qaror qabul qilindi.

– 1989-yil, oktabr – “O'zbekistonning davlat tili to'g'risida“gi Qonun qabul qilindi.

– 1989-yil, mart – O'zbekiston Oliy Soveti deputatlari Islom Karimovni O'zbekiston Prezidenti etib sayladi.

– 1990-yil, iyun – “Mustaqillik Deklaratsiyasi” qabul qilindi.

– 1990-yil, oktabr – “O'zbekiston xalq xo'jaligini sog'lomlashтирish va bozor iqtisodiyotiga o'tishning asosiy prinsiplari” ishlab chiqildi va umumxalq muhokamasiga qo'yildi.

– 1990-yil, fevral – “Navro'z” umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish haqida“gi Prezident Farmoni e'lon qilindi.

– 1991-yil, yanvar-iyun – O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligi va siyosiy suverenitetini ta'minlashning huquqiy asoslarini yaratish uchun aniq choralar ko'rib chiqildi.

– 1991-yil, iyul – “O‘zbekiston hududida joylashgan Ittifoqqa bo‘ysunuvchi davlat korxonalarini, muassasa va tashkilotlarini O‘zbekistonning huquqiy tobe’ligiga o‘tkazish to‘g‘risida” qaror qabul qilindi.

– 1991-yil 25 avgustda Birinchi Prezidentning muhim farmoni e’lon qilindi. Unga ko‘ra Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi xizmati O‘zbekiston yurisdiksiyasiga o‘tkazildi.

1991-yil, 31 avgust – “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘ta qisqa fursat 1989-1990-yillarda ichida 1,5 milliondan ko‘proq O‘zbekiston dehqonlarining tomorqa uchastkalari kengaytirildi, tomorqaga etoimay yurgan 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi.

Umuman, 1989-1991-yillarda mobaynida 400 ming hektar er tomorqa sifatida berildi. Holbuki, sovet davlatining 72 yil hukmonligi davomida O‘zbekiston dehqonlariga faqatgina 300 ming hektarga yaqin er ajratilgan edi, xolos. Bu ma’lumot I.A.Karimovning “O‘zbekiston mustaqilliqqa erishish ostonasida” kitobida birinchi bor e’lon qilindi.

Tomorqa xo‘jaligi maydonining o‘sishi, unga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi, tomorqaga egalikning ko‘payib borishi va davlat agrar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi uning qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rnini keskin o‘sishiga olib keldi.

Dadillik bilan davlat erini dehqonlarga tarqatilishi tariximizdagi o‘ta muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega vokealar sirasiga kirishi, shubhasiz. Natijada, dehqonlarning azaliy orzusi amalga oshirildi.

1989-yil 21-oktabrda Respublika Oliy Kengashi tomonidan O‘zbekistonning Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillik sari tashlagan o‘ta muhim qadamlaridan biri bo‘ldi. Istiqlol sari qo‘ylgan qadamlardan yana biri – O‘zbekistonda rahbar kadrlarni Markazdan yuborish, siyosiy byuronining roziligidini olish “tajribasi“ga chek qo‘yildi. Respublika rahbar kadrlarni tanlash, joyjoyiga qo‘yish ishini o‘z ixtiyoriga oldi.

O‘zbekistonning barcha mulk shakllariga egalik qilish va undan foydalanan masalalari yuzasidan Respublikaning suveren huquqlarini amalga oshirishning samarali mexanizmini yaratish vazifasi qo‘yildi.

O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi shakli joriy qilindi. Respublikada boshqaruvning aynan bu shakli, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalardagi muammolarni xal qilish

vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhimi, sobiq ittifoqdosh Respublikalar orasida bиринчи bo‘lib Prezident lavozimining joriy etilishi va Islom Karimovni O‘zbekiston Prezidenti etib saylanishi Respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o‘tishni bildirar edi.

80-yillar o‘rtalarida o‘zbek xalqi azaldan sevib, ardoqlab kelgan urfatlar va marosimlar, bayramlar cheklab qo‘yilgan edi. Natijada, avvallari nishonlanadigan “Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Gul sayli” va boshqa xalq bayramlari unutib qo‘yilgan edi. “Navro‘z” bayrami esa avval ta‘qilandi, so‘ng sun‘iy tarzda “Navbahor” bayramiga aylantirildi.

Islom Karimov tashabbusi bilan Navro‘z bayrami qayta tiklandi va umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni deb e’lon qilindi. Xalqimizning azaliy qadriyat, sevimli bayrami hisoblanmish “Navro‘z” bayramini xalqimizga qaytib berilishi mamlakat tarixida katta voqeа bo‘ldi.

Umuman olganda, 1991-yil 31 avgust kuni O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilinganiga qadar xalqimiz hayotini yaxshilash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tubdan o‘zgartirish, mamlakatimizni isloh qilish va milliy davlatchilik poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilgan ulkan ishlar jarayonining mazmun-mohiyati chuqur anglab, haqqoniy tahlil qilib, xolis xulosalar chiqarishimiz lozim.

Istiqlolga erishish yo‘lida 1989-1991-yillar mobaynida olib borilgan o‘ta og‘ir va mashaqqatli kurashlar tarixini tahlil qilar ekanmiz, bиринчи galda bu davrni vaqt, tarixiy shaxsning faoliyati va voqealar prizmasi orqali o‘rganib, aynan shu davrning xususiyati, rivojlanish qonuniyati va mohiyatini chuqur anglash lozim.

Aynan bu tarixiy davrda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlar hozirgi kundagi tinch hayotimizga, barqarorlik, totuvlik, kelajakka ishonchimizga va milliy taraqqiyotga asos solinganligini anglab olishimiz zarurdir.

Mana shunday og‘ir sharoitda, chuqur inqiroz holatida – o‘sha paytdagi paxta yakkaxokimligi, bir yoqlama rivojlangan iqtisodiyotning xalokatli oqibatlari, aholining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad darajasining o‘ta pastligi, ekologik nochor holatda jamiyatda siyosiy burilish jarayoni boshlangan edi. Respublika rahbari tomonidan qiyin ahvoldan chiqish yo‘lida ishlarning ahvoliga xolis baho berish, Respublikadagi vaziyatni sog‘lornashtirishning aniq dasturini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Bu ishlar bиринчи galda xalqimiz hayotining barcha sohalarida qat’iy tartib va intizom o‘rnatishdan, rahbar kadrlarni

joy-joyiga to‘g‘ri qo‘yishdan, ularga nisbatan talabchanlikni oshirishdan boshlandi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. SSSRni XX asr 80-yillar oxiridagi inqiroz holatini izohlang.
2. “Qayta qurish” siyosatining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. Farg‘ona fojiasining kelib chiqish sabablari nimadan iborat?
4. Namangan voqealari-chi?
5. O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimovni Respublikadagi vaziyatning barqarorlashtirishdagi rolini ko‘rsatib bering.
6. Farg‘ona vodiysini iqtisodiy ahvolini tahlil qilib bering.
7. I.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobining tarixiy ahamiyatini ochib bering.
8. O‘zbekistonning mustaqillik arafasidagi chuqur inqiroz holatidan chiqish yo‘lidagi harakatlar nimadan iborat edi?

### **Kalit so‘zlar:**

Inqiroz, “qayta qurish”, aholi zichligi, ijtimoiy ahvol, turkmesxetinlar, ishsizlik, millatlararo mojarolar, barqarorlik, shaxsning roli.

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. “O‘zbekistonning davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Bezorov O. 1989-yildagi Farg‘ona fojeasi: uning sabab va oqibatlari. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Yunusova X.E. O‘zbekistonda sovet davlatining milliy siyosati va uning oqibatlari (XX asr 80-yillari misolida). – Toshkent: Zar qalam, 2005. – 90 b.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.

2. Bobobekov X. Farg'ona fojealari kundaligi // Fan va turmush, 1990. – №5. – B.17-18.
3. Korni Ferganskoy tragedii // Pravda Vostoka, 1989 god 6 avgusta. – №181 (22047). – S.3.
4. Rahmonqulova A. O'zbekistonga zo'rlik bilan ko'chirilgan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga doir (1930-1950-y.) // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari, 2002. – №1. – B.67.
5. Rahmonqulova A. Deportatsiya va uning sabablari // Jamiyat va boshqaruv, 2003. – №2. – B.35.
6. Azizxo'jayev A. Chin o'zbek ishi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
7. Bobojonova N.A. Sovet totalitar siyosatining O'zbekiston axolisi milliy tarkib shakllanishiga ta'siri (1941-1990-y.). Tarix fan.nomz.ilm.daraja olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2008. – 165 b.
8. Ochildiyev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.

## **12-mavzu. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BAYNALMILAL MARKAZINING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI.**

### **Reja:**

1. RBMM tashkil etilishi va faoliyati.
2. Millatlararo munosabatlар va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasini tashkil etilishi – millatlararo munosabatlarni rivojlantirishning yangi bosqichi.

### **1. RBMM tashkil etilishi va faoliyati**

Ko'pmillatli mamlakatda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlashning ustuvor yo'nalişlaridan biri – millatlararo munosabatlarning barqaror tizimini yaratishdir. Mustaqillikning ilk kunlaradanoq milliy siyosatning o'ziga xos yo'li ishlab chiqilib, davlatimiz siyosatida millatlararo totuvlik va tenglik g'oyasiga amal qilindi va bu umuminsoniy tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddalarida qayd etildi.

Yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millatlar jamiyatimiz hayotida muhim o'rinn tutadi. Millatlararo totuvlik, milliy va umuminsoniy fazilatlar negiziga asoslanishi tufayli O'zbekiston xalqining, tarixan boshqa xalqlar bilan ahil-inoq ekani, o'zbekning ruhiyati Yuqori baholanishini o'zida to'liq ifoda etadi. O'zbekistonning boyliklarini orasida eng katta boyiligidiz, eng yuksak qadriyatimiz – jamiyatda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlik.

Millatlararo totuvlik va madaniyatlارaro bag'rikenglikni rivojlantirishda 1988-1989-yillardayoq tashkil etila boshlagan milliy-madaniy markazlar (MMM) faoliyatini muvosfiqlashtirib olib borish maqsadida 1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи qarori asosida tuzilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi (RBMM) millatlararo totuvlik va madaniyatlарaro bag'rikenglikni mustahkamlashda muhim rol o'ynadi.

1992-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasini "Respublika Baynalmilal madaniyat markazi to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, O'zbekiston Millatlararo madaniyat markazi Respublika baynalmilal madaniyat markaziga aylantirilishi belgilangan. 2003-yil 8-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika baynalmilal madaniyat markazining faoliyati masalalari to'g'risida"gi qaror qabul

qilinadi. Qaromi 1-ilovasida Respublika baynalmilal madaniyat markazi to‘g‘risida Nizom e‘lon qilindi. Unda:

– Respublika baynalmilal madaniyat markazi millatlararo munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlар vakillarining totuvligi va hamkorligini ta‘minlash, ularning o‘ziga xos madaniyatlari va ma‘naviy qadriyatlарini rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash sohasidagi siyosatni amalga oshirishda davlat organlariga va jamoat tashkilotlariga ko‘maklashuvchi mustaqil muassasa hisoblanadi.

– Markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, mazkur Nizomiga amal qiladi va o‘z faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

– Markaz maslahat, ekspert va axborot-tahlil funksiyalarini amalga oshiradi, milliy madaniyat markazlari, uyushmalar, jamiyatlar, shuningdek etnik asosda tashkil etilgan boshqa tashkilotlar va ular huzurida tuzilgan tarkibiy bo‘linmalar (keyingi o‘rnarda matnda “madaniyat markazlari” deb yuritiladi) monitoringini olib boradi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Ushbu sohada joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va Markaz bilan aloqalar o‘rnatish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o‘rbosarlaridan biriga yuklanadi.

*Nizomda Markazning asosiy vazifalari quyidagicha belgilandi:*

– tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, shuningdek jamoat tashkilotlari bilan birgalikda millatlararo munosabatlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishida qatnashish;

– millatlararo totuvlik prinsiplari qaror topishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag‘batlantirish, muvofiqlashtirish va taqdirlash, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish;

– davlat organlarida madaniyat markazlarining manfaatlarini ifodalash, Nizomda qayd etilgan vazifalar amalga oshirilishi masalalari bo‘yicha ular faoliyatini muvofiqlashtirish, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlар vakillarining o‘ziga xos milliy an‘analari, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash va rivojlantirish;

– turdosh xorijiy tashkilotlar bilan aloqalar o'matilishida madaniyat markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu masalada ularga har tomonlama ko'maklashish, millatlararo munosabatlarni tartibga solishga taalluqli xalqaro huquqiy hujjatlar ma'lumotlari bankini barpo etish;

– millatlararo munosabatlar masalalariga tegishli qonun hujjatlari va normativ hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda ishtirot etish;

– madaniyat markazlariga amaliy va metodik yordam ko'rsatish;

– adliya organlaridan ro'yxatdan o'tishda madaniyat markazlari tomonidan kiritiladigan hujjatlar yuzasidan xulosalar tayyorlash;

– jamoat tashkilotlariga millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha maslahatlar berish, O'zbekiston Respublikasida yashovchi har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish;

– millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda tashkiliy, huquqiy, metodik yordam ko'rsatish, konferensiylar, seminarlar va "davra suhbatlari" tashkil etish;

– har xil millatlar va elatlar vakillarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan teleradio ko'rsatuvlar va eshittirishlar tayyorlashda, kitoblar, risololar, ma'lumotnomalar, prospektlar, bukletlar va bosma mahsulotlarning boshqa turlarini tayyorlashda qatnashish;

– madaniyat markazlarining faoliyati to'g'risida axborot-tahlil ishlarini yuritish va ushbu masala bo'yicha zarur ma'lumotlar bankini barpo etish.

#### *Markazning huquqlari ko'rsatildi:*

– madaniyat markazlari o'z faoliyatini amalga oshirishiga tashkiliy-metodik va amaliy yordam berish, ular ishini muvofiqlashtirish, ular tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashish, masalalarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikda hal etilishiga ko'maklashish;

– millatlararo munosabatlar masalalari bo'yicha materiallarni ko'rib chiqish va zarur chora-tadbirlar ko'rish uchun boshqaruvning tarmoq va hududiy organlariga yuborish;

– o'z funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan tegishli axborotni davlat organlari va boshqa organlardan, muassasalar, korxonalar va tashkilotlardan, madaniyat markazlaridan so'rab olish;

– o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish maqsadida muvofiqlashtiruvchi kengashlar va boshqa kengashlar, jamg'armalar, komissiyalar va ishchi guruhlari tashkil etish;

– xorijiy davlatlar, xalqaro va boshqa tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan vakolatxonalari bilan millatlararo munosabatlari masalalari bo'yicha hamkorlikni amalga oshirish;

- belgilangan tartibda matbuot organi ta'sis etish;
- markaz huzurida Jamoatchilik kengashi faoliyat ko'rsatadi, u milliy madaniyat markazlari, manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa davlat organlari, jamoatchilik va ijodiy tashkilotlar rahbarlaridan, millatlararo munosabatlari inuammolari bo'yicha mutaxassislardan tuziladi. Jamoatchilik kengashining shaxsiy tarkibi va Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Madaniyat, ta'lif, sog'liqni saqlash va ijtimoiy muhofaza masalalari kompleksi rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Markazning Jamoatchilik kengashining vazifalari ham ko'rsatildi.

BMM tuzilgach, MMMning faoliyati anchagina faoliashdi. Ularning soni yil sayin ko'payib bormoqda. 1989-1990-yillarda Toshkentda dastlabki 9 ta MMM (Ozarbayjon, Armani, Boshqird, Qozoq, Koreys, Nenets, Tojik, Tatar, Uyg'ur) va boshqa mintaqalarda ham bir qancha (Samarqand va Buxoroda Tojik, Andijonda Uyg'ur, Sirdaryo va Farg'ona, Nukusda Koreys) MMMLar tuzildi. 1991-yilda bunday markazlar soni 35 taga etdi, shundan 14 tasi Toshkentda edi, yana uchta markazni tuzish ishlari boshlab yuborilgan edi.

1992-yilga kelib 54 ta milliy-madaniy markaz ishlay boshladi va endi Respublika baynalmilal madaniy markazi ularning faoliyatini muvoqiqlashtirishga kirishdi.

1994-yilda 76 ta markaz (shu jumladan, Toshkentda 22 ta markaz) ishlayotgan va yana ikkita markaz tuzila boshlagan edi. 2003-yilda ularning soni 122 taga, 2005-yilda 135 taga, shu jumladan, Toshkentda 35 taga, Samarqandda 11taga, Buxoroda 10 taga etdi.

RBMM o'z faoliyatini Markaz rahbariyati, MMMLarning raislari, manfaatdor vazirliklar va idoralar (Madaniyat vazirligi, Xalq ta'lifi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi), turli jamoat tashkilotlari, shuningdek, Respublikaning yetakchi olimlari tavsiyalari asosida rejalashtirib va amalga oshirib bordi.

RBMM va MMMLar tashabbusi bilan 1995-yilda O'zbekiston "Xalq birligi" jamoat harakati tuzilib, unga atoqli olim va jamoat arbobi akademik T.N. Dolimov boshchilik qila boshladi.

O'z etnik guruqlarining muxtor vakillari sifatidagina emas, ayni vaqtida millatlararo totuvlikni mustahkamlashga va madaniyatlararo hamjihatlikni rivojlantirishga faol ko'maklashuvchi O'zbekiston

fuqarolari sifatida ham ish olib borayotgan MMM faollarining xizmatlarini Respublikamiz hukumati Yuqori baholamokqa. Bir qator milliy-madaniy markazlarining raislari hukumatning Yuqori mukofotlariga sazovor bo'ldilar.

RBMNning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ijtimoiy barqarorlikning garovi bo'lmish millatlararo inoqlik va madaniyatlararo birlikni mustahkamlash orqali ko'p millatlari Respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha millatlar, elatlar, etnik guruhlar vakillari o'rtaida uyg'un o'zaro munosabat o'rnatishga erishish;

MMMLarning amaliy faoliyatini muvofiqlashtirib turish;

turli millatlarga mansub fuqarolarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda amaliy va uslubiy yordam berish, ularning tili, madaniyati, urf-odatlari va an'analarini avaylab asrash;

turli elatlarga mansub fuqarolarni vatanparvarlik, insonparvarlik, baynalmilchilik ruhida tarbiyalash;

etnik madaniyatlarni rivojlantirib, shu orqali Respublikaning umumiyligi qiyofasini yuksaltirishga munosib hissa qo'shish;

chet ellardagi milliy madaniyat markazlari va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik o'rnatish va uni yanada rivojlantrish;

muhojirlarning o'z tarixiy vatani bilan etnik madaniy aloqa o'rnatishlarida ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash.

RBMM faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri Respublika ijtimoiy hayotidagi muhim voqealarga, Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami, Konstitutsiya kuni kabi tantana va bayramlarga, shuningdek, tarixiy shaxslar (fan, madaniyat arboblari va sh.k.) xotirasiga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik qo'rish va ularni o'tkazishda etnik kelib chiqishi turlicha bo'lgan fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashdan iborat.

RBMM tashabbusi bilan va uning faol ishtirokida hozirgi zamonning dolzarb muammolariga bag'ishlangan konferensiya, seminar, suhbatlar, davra suhbatlari va shu kabi tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Milliy an'analar, urf-odatlar, bayramlar bilan bog'liq tadbirlar, ayniqsa, e'tiborga sazovor. Ular orasida Rojdestvo, Pasxa, Maslenitsa, Purim, Xansik, Hosil bayrami, CHusok, Sabantuy kabilarni aytilib o'tish mumkin. Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasining 125 yilligi, "Manas" eposining 1000-yilligi, Amir Temurning 660 yilligi, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Abay, A.S.Pushkin, Maxtumkul, Taras SHevchenko, Sergey Esenin, Muxtor Avezov, CHingiz Aymatov,

Vladimir Visotskiy va boshqa atoqli milliy madaniyat arboblarining yubileyleri kabi muhim sanalar keng ko‘lamda nishonlandi.

RBMM, MMM, “Xalq birligi” jamoat harakati etnoslararo hamjihatlik va madaniyatlararo hamkorlikni mustahkamlash kabi muhim masalalaga davlat va keng jamoatchilik ommasining diqqatini tortishga harakat qildilar. Respublika Kasaba uyushmalari federatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika qo‘mitasi, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyat Assambleyasi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va boshqa bir qancha tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida birqalikda turli tadbirlar olib borilgan.

Chunonchi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi bilan birqalikda 100 dan ortiq tasviriy san‘at ko‘rgazmasi o‘tkazildi. Bunday tadbirlar ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritib borildi. Teletomoshabinlar MMMLarning faoliyati haqida, milliy-ijtimoiy va milliy-madaniy jarayonlar to‘g‘risida Televideniya orqali “Axborot”, “Davr”, “Assalom, O‘zbekiston”, “Poytaxt”, “Yoshlar”, “Mening yurtim”, “Madaniyat va ma’rifat”, dasturlaridagi doimiy ko‘rsatuvlarni bahramand bo‘lganlar. Xalqaro telekanal ham milliy tillarda, hatto ingliz tilida ham qiziqarli ko‘rsatuvlarni namoyish etgan. Ular orasida rus tilidagi “O‘zbekiston – umumiyl uymiz”, “Yagona oilada”, uyg‘ur tilidagi “Umid”, qozoq tilidagi “Jetigen”, “Zamandas”, “Diydor”, qirg‘iz tilidagi “Aychurek”, tojik tilidagi “Mehrängez”, “Ranginkamon”, tatar tilidagi “Biznen miras”, ukrain tilidagi “V dobroy xate”, koreys tilidagi “CHinsen” va boshqa ko‘rsatuvlar bor.

Madaniy markaz Respublika radiosи, shuningdek, bir qancha yetakchi gazeta va jurnallarning tahririylar bilan yaqindan hamkorlik qilayapti. “Narodnoe slovo”, “Xalq so‘zi”, “Pravda Vostoka”, “Vecherniy Tashkent”, “Toshkent oqshomi”, “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda” va boshqa gazetalarning sahifalarida “Milliy-madaniy markazlarda” rubrikasi ostida milliy markazlarning faoliyati muntazam va har tomonlama yoritib borilayapti. 2000-yilda “Respublika baynalmilal madaniyat markazi” degan maxsus ma’lumotnoma nashr etilib, markazning 1992-1999-yillardagi asosiy tadbirlari bayon etilgan.

2002-yil yanvarida Respublika baynalmilal madaniyat markazi uzining 10 yillik yubileyini, 2007-yilda 15 yillik yubileyini nishonladi. Shu sanalarga bag‘ishlangan ko‘pgina uchrashuvlar, konsertlar, ko‘rgazmalar, do’stlik kechalari o‘tkazildi. Poyahtdagи Xalqlar do’stligi saroyida shu sanaga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali yig‘ilish

yubileyning markaziy voqeasi bo'ldi, unda madaniyat markazlari xavaskor jamoalari va san'at ustalari ishtirokida katta konsert bo'ldi. Respublika baynalmilal madaniyat markazi 10 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan milliy madaniyat markazlarining faollaridan 14 kishi mamlakatimizdagi millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qo'shgan hissalarini uchun, milliy madaniyatlar, urf-odatlar va an'analarini saqlab qolish va rivojlanterish sohasidagi faol ishlari, fuqarolarning ruhiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish sohasidagi samarali faoliyati, jamoat ishidagi faol ishtiroki uchun fahriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlandilar.

Ko'rinib turibdiki, mustaqillik yillarda milliy madaniy markazlar nufuzli jamoat tashkilotlariga aylandi. Mamlakatimiz poytahti Toshkentda va barcha viloyatlarda milliy madaniy markazlar huzurida xalq ansamblari va turli to'garaklar faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Konstitutsiyamizning 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'rurasida: "O'zbekistonimizda tinchlik-osoyishtalik va havfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko'z qorachigidek saqlash va mustahqamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo'lib qolishi darkor", deya ta'kidlagan edilar.

Mustaqillik yillarda Respublikamizda turli millat va elat vakillari o'tasida o'zaro hurmat, teng huquqlilik va hamjihatlik ta'minlandi. O'zbekistonning har bir fuqarosi, millatidan qat'iy nazar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol qatnashayotir. Senat a'zolari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda mahalliy Kengashlar deputatlari, yirik korxona va tashkilotlar rahbarlari orasida turli millat vakillari bor. Mahallalarimiz ham ko'pmillatli bo'lib, o'nlab o'zini o'zi boshqarish organlariga qorakalpoq, rus, tatar, qirg'iz, qozoq, ukrain, arman, tojik, turkmak, ozarbayjon va boshqa qator millatlarga mansub fuqarolar boschchilik qilib kelmoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda 9 mingdan ziyod jamoat tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Ular orasida 140 ga yaqin milliy madaniy markazlar bor. Jamoatchilik tuzilmalari bo'lgan bu markazlar o'ziga xos milliy madaniyatni rivojlanterish barobarida, yoshlarimizni barcha millat va elatlar madaniyatini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

2012-yil 13-yanvar kuni 20 yoshga to'lgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillarining milliy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, har bir millatga xos

urf-odat va an'analarni saqlab qolishda milliy-madaniy markazlarga ko'maklashish, bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishga qaratilgan jamoatchilik tashabbuslarini ko'llab-quvvatlash yo'lidan bormoqda. Har bir milliy markaz o'z an'ana va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun sharoit yaratilgan. Bundan g'amho'rlik ortidan turli millatga mansub fuqarolarimiz ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hayotda faol ishtirok etib, mustaqilligimizni mustahkamlash yo'lida samarali mehnat qilayotgani, ularning mehnati Vatanimizning yuksak mukofotlari – "O'zbekiston Qahramoni" unvoni, "Do'stlik" ordeni va medallar bilan taqdirlanayotgani, shunday rag'batta erishgan yurtdoshlarimiz soni 100 dan oshgani e'tiborlidir.

2013-yilda beshinchi bor o'tkazilgan "O'zbekiston – umumiylar uyimiz" shiori ostidagi an'anaviy Respublika do'stlik va madaniyat festivali ko'pchilikda unutilmas taassurot qoldirdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrini qamrab olgan festival doirasida 165 ta yirik ilmiy va madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Yurtimizning 57 shahri va aholi maskanlarida tashkil etilgan festival tantanalarida 28 mingga yaqin kishi, aksariyat yoshlar ishtirok etdi. Millatlararo totuvligimiz namoyishi Televideniya, radio za bosma OAV orqali muntazam ravishda yoritib borildi.

O'tgan yillarda mobaynida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tomonidan ko'plab ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etildi. Respublikamizning barcha viloyatlari, qator shahar va tumanlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilgan "Millatlararo totuvlik va diniy: bag'rikenglik – taraqqiyot omili", "Milliy g'oya – bizning g'oya" shiori ostidagi doimiy harakatdagi ko'chma seminarlar, "O'zbekiston Konstitutsiysi: huquq, burch va mas'uliyat", "Milliy g'oya va millatlararo totuvlik masalalari", "O'zbekiston Konstitutsiysi va demokratik taraqqiyot masalalari", "Fuqarolararo va millatlararo totuvlik – yurt obodligini ta'minlashning muhim omili" kabi mavzulardagi ilmiy-amaliy anjumanlar buning yorqin misolidir. Milliy-madaniy markazlar uchun ko'plab yo'riqnomalar, 20 ga yaqin ilmiy risola va to'plamlar, shuningdek, mamlakatimizdagi millatlararo totuvlik va bu borada istiqlol yillaridagi yutuqlarni aks ettiruvchi "O'zbekiston – umumiylar uyimiz" albom-kitobi, "O'zbekiston – bag'rikeng diyor", "O'zbekiston Konstitutsiysi – buyuk kelajagimiz kafolati", "Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji" nomli maqolalar to'plamlari chop etildi. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining (EXXT) oz sonli millatlar bo'yicha Oliy

Komissari Knut Vollebek Baynalmilal madaniyat markazida bir necha bor mehmon bo'ldi va turli milliy madaniy markazlar faoliyati bilan tanishdi. O'zbekistonda oz sonli millat vakillariga o'qish, o'z madaniyatlarini rivojlantirish borasida yaratilgan sharoitlarni ko'rib, bu tajribani boshqa davlatlarga ham yoyish kerak, degan fikri bildirdi. Jahonda milliy-etnik munosabatlар murakkablashib, eng ilg'or davlatlarda ham oz sonli millat vakillarini kamsitish, hurlash va siqib chiqarish holatlari kuzatilayotgan bir paytda, turli millat va elat vakillari yagona oila farzandlaridek ahil va inoq yashayotgan O'zbekiston chindan ham boshqalarga namuna bo'lsa arziydi.

Mana shunday tenglik va o'zaro hamkorlik hayotiy-amaliy xususiyat kasb etgani sabab milliy mansubligidan qat'iy nazar, yurtdoshlarimizda Vatan taqdiriga dahidorlik, uning buguni va istiqboli yo'lida hamjihat harakat qilish tuyg'ulari o'sib borayotir. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir millat, elat e'tibor va hurmatga munosib. Shu o'rinda Birinchi Prezident I.Karimov quyidagicha so'zlagan: "Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi Er yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi".

O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash orqali tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlab borish g'oyasi davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev barcha nutq va ma'ruzalarida tinchlikni ta'minlash, millatlar va dinlararo totuvlik muhitini qo'llab-quvvatlash, din niqobidagi ekstremizm va terrrorizmga qarshi ayovsiz kurash masalalarini asosiy tamoyil sifatida olg'a surib kelmoqda. "Ma'lumki, bizning qadimiylar va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezzulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi", – deb ta'kidlagan SH.Mirziyoyev. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyada beshinchi yo'nalish sifatida "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar" belgilandi. Bu esa yurtimizda

fugorolarimiz xavfsizligi, millatlar va diniy bag'rikenglikka berilayotgan ulkan e'tibordan dalolat beradi.

2017-yilda Respublika Milliy madaniy markazi tashkil etilganligining 25 yilligi keng nishonlandi. Mamlakatimizda milliy-madaniy markazlarni soni 140 dan ziyod bo'lib, ular Respublikamizning jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bu markazlar faoliyatida, millatidan qat'iy nazar, barcha yurtdoshlarimiz qatnashishlari mumkin. Millatlararo munosabatlар yo'nalishidagi yana bir dolzarb masalalardan biri aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta'lif-tarbiya tizimini tashkil qilish. Bu borada Respublikamizda bugungi kunga kelib, 10 mingga yaqin mакtab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qирғиз tilida, 7 ta maktabda koreys tilida ta'lif berish yo'lga qo'yilganini ta'kidlash kerak. Bular orasida ikki yoki uch tilda o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan maktablar ham bor. Xalq ta'limi vazirligiga qarashli pedagogik institutlarida o'zbek tilidan tashqari rus, tojik, turkman, qирғиз, qozoq, qoraqalpoq tillarida ham mashg'ulotlar olib boriladigan maktablar uchun mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Respublikamizdagi ommaviy axborot vositalarining faoliyati ham aholi milliy tarkibining rang-barang ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda 8 tilda, ya'ni o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, ingliz, koreys tillarida gazeta va jurnallar chop etilmoqda.

O'zbekiston televideniyasi orqali qator xorijiy tillardagi ko'rsatuvlarning muntazam ravishda namoyish qilinishi va maxsus radio eshittirishlarning turli tillarda efirga uzatilayotgani ham diqqatga sazovor. Zero, 12 (o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qирғиз, tojik, ozarbayjon, rus, tatar, boshqird, koreys, uyg'ur) tillarida teleradio eshittirishlar efirga chikmoqda. Bundan ko'rindiki, O'zbekistonning millatlararo siyosati insoniylikka, demokratiyaga qarshi bo'lgan siyosatning har qanday ko'rinishlarini to'liq va mutlaq rad etishga asoslangan.

"Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlар rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fugorolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi

hayotda o‘zining to‘liq ifodasini topdi”, – deya ta’kidladi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Ko‘rinib turganidek, millatlararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish borasida O‘zbekiston o‘ziga xos tajriba orttirdi. Bunda faqat milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini tarbiyalash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odatlarini asrab-avaylash bilan cheklanmaslik, balki mamlakatdagi barcha millatlarning umumiy birdamligiga erishish tamoyiliga amal qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan qurilgan bu siyosat:

- ko‘p millatlilikni yaratuvchilik qudratiga ega bo‘lgan omil sifatida tan olish;
- fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, shaxsi, ijtimoiy kelib chiqishi va mavqeidan qat‘iy nazar, tengligini ta’mirlash;
- milliy mansubligidan qat‘iy nazar, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi teng huquqli ishtirokini-kafolatlash;
- milliy til, urf-odatlar va an’analalar hurmat qilinishini ta’mirlash va ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilmassisligi asosida rivojlanishini ta’mirlash;
- fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan milliy, irqiy, diniy adovat va nizoni targ‘ib qiluvchi faoliyatga yo‘l qo‘ymaslik;
- millatlar va elatlar huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga doir xalqaro qoidalar ustuvorligini tan olish kabi tamoyillarga tayangan holda izchil amalga oshirilmoqda.

Shuni unitmaslik kerak-ki, qayerda millatlararo totuvlik g‘oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo‘layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichida millatlararo munosabatlardagi barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-may “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do’stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta’mirlash, fuqarolar ongida katta, ko‘p millatli yagona oilaga

mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Xususan, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Qo'mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldag'i hamyurtlarimiz diasporasi bilan do'stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklanadi.

Qo'mita millatlararo totuvlik, do'stlik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish, millatlararo munosabatlari madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish va rag'batlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, milliy madaniy markazlarga amaliy va metodik yordam ko'rsatadi, ularning tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydi, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, "O'zbekiston — umumiylarimiz" tamoyilini amalga oshirish choralarini ko'radi.

Yoshlarni bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, tarix, madaniyat, milliy an'ana va urf-odatlarni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu millatchilik va ekstremizm aqidalariga qarshi masfuraviy immunitetga ega, mustaqillik g'oyalariga sodiq, O'zbekiston milliy manfaatlarini himoya qiladigan va ilgari suradigan ma'nnaviy barkamol avlodni shakllantirish imkonini beradi.

Qo'mitaga davlat organlarida milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarining manfaatlarini himoya qilish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlari va marosimlarini asrash va rivojlantirishga ko'maklashish vazifasi yuklangan.

Farmonda xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni, chet eldag'i hamyurtlarimiz va turdosh tashkilotlar bilan aloqalarni yanada

mustahkamlash vazifalari belgilangan. Qo'mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy mamlakatlarning tashkilotlari va diplomatik vakolatxonalar, xorijiy davlatlarda faoliyat ko'rsatayotgan turdosh tashkilotlar bilan samimiyligi va o'zaro hurmatga asoslangan aloqalar o'rnatish hamda izchil rivojlantirishga qaratilgan ishlarni tizimli amalga oshiradi.

Bu boradagi ishlar xalqaro hamjamiyatda Respublikaning nufuzi va makomini yanada yuksaltirish, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish borasida erishilgan yutuqlarni keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan. Bu borada o'zbek xalqining boy tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari va an'analarini, shu zaminda tug'ilib o'sgan buyuk olim va mutafakkirlar merosi, ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini keng namoyish etish bo'yicha tadbirlar o'tkaziladi.

Qo'mita o'zbek xalqining mamlakatimiz tashqarisidagi tarixiy va madaniy meros obyektlarini asrab-avaylashni ta'minlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi.

Xorijiy mamlakatlar bilan millatlararo munosabatlari va do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga qaratilgan ilmiytadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borishda bevosita ishtirot etishga ko'maklashish Qo'mitaning ustuvor vazifalari sifatida belgilangan.

Farmonga muvofiq hududlarda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yo'lgan qo'yish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rribbosarlari zimmasiga yuklatiladi.

Muxtasar aytganda, Farmon qoidalarining hayotga tatbiq etilishi mamlakatda millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yaxlit tizimni rivojlantirish, milliy madaniy markazlar uchun yanada qulay va keng imkoniyatlar yaratish, ularning buniyodkorlik tashabbuslari va intilishlarini qo'llab-quvvatlash, faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalarini yanada rivojlantirish, "xalq diplomatiyasi" vositasida chet eldag'i vatandoshlar bilan munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Yangi tashkil etilgan qo'mita tomonidan tadbirlar keng tashkil etilmoqda. Masalan, 2017-yil 19-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tadbir Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida tashkil etildi. Unda milliy madaniyat markazlari, do'stlik jamiyatlari, turli jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Tadbirda mamlakatimiz Konstitutsiyasida irqi, jinsi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar tengligi belgilab qo'yilganligi ta'kidlandi.

7-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasida Belorusiya Respublikasi mustaqilligi kuniga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Bino foyesida belorus madaniyati, tarixini ifodalovchi ko'rgazma tashkil etilgan bo'lib, unda belorus milliy liboslari, taomlari, adabiyoti va san'ati o'rinnegallagan. Bayramni Qo'mita raisi Rustambek Qurbanov Belorus xalqini qutlug' bayram bilan tabriklab, jumladan shunday dedi:

3-iyul sanasi belorus xalqi uchun alohida ahamiyatga ega. 1944-yili shu kuni Minsk shahri fashist bosqinchilari qo'lidan ozod qilingan. Bu bayram belorus xalqining jonini tikib vatan ozodligi uchun kurashi, unda har uchinchi belorus qurban bo'lgani haqida so'zlaydi. Ozodlikning qadri va unga qanday mashaqqat bilan erishilishi o'zbek xalqi uchun ham tanish. O'zbek va belorus munosabatlari oxirgi yillarda yanada rivojlanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukoshenkonning birgalikdagi harakati tufayli qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishilmoqda. Bu, ayniqsa, madaniy aloqalar sohasida o'z aksini topmoqda.

Belorus Respublikasining O'zbekistondagi Favqulotda Muxtor elchisi Leonid Marinich O'zbekistonda turli millat vakillari uchun yaratilgan sharoitlar, tinch va osuda hayotni ta'minlab bergen Respublika rahbariyatiga o'zining minnatdorchiligini bildirdi.

Toshkent shahridagi "Svitanak" Belarusiya madaniyat markazi rahbari Svetlana Dyuduk o'zining bayram tabrigini yo'llab, yurtimizda istiqomat qilayotgan belorus millati vakillarini jonajon O'zbekiston va Belarus ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilib, ikki davlat o'rtasidagi do'stlik aloqalarni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shishga chaqirdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda belorus diasporasining paydo bo'lishi urush yillariga borib taqaladi. Keyinchalik, 1966-yilgi zilziladan so'ng Toshkentni qayta qurish uchun 2 mingdan ortiq belarusiyaliklar jalb etilgan. Toshkent shahridagi ko'plab binolar aynan belorus

arxitektorlari tomonidan yaratilgan. "Kosmonavtlar" va "Alisher Navoiy" metro bekatlari, O'zbekiston Milliy universiteti kutubxonasi va Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti kabilalar aynan belarus haykaltaroshlari tomonidan bezatilgan. Bundan tashqari, belarus professorlar, xususan, ota-bola Ixediyevskiyalar O'zbekiston ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda O'zbekistonda 18 mingga yaqin belarus millatiga mansub fuqarolar bo'lib, ular Toshkentdan tashqari Samarcand va Buxoro shaharlarida istiqomat qilishadi.

Ushbu bayramda ikki millat munosabatlарини rivojlantirishga hissa qo'shayotgan fuqarolar Belarusiya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasining maxsus tashakkurnomalari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Tadbirning badiiy qismida belarus milliy raqslari va qo'shiqlari namoyish etildi. Xususan, "Fiesta" raqs guruhi, "Katyusha" badiiy jamoasi, "SHans" bolalar teatri ishtirokchilari, "Legava" raqs ansambl raqqosalari o'z namoyishlari bilan ko'tarinki kayfiyat bag'ishlashdi. Bundan tashqari, "Slavutich" Respublika ukrain madaniyat markazidan Lyubov Tarasova, tatar madaniyat markazidan Rumiya Devlikamova hamda O'zbekiston Davlat konservatoriyasi professori Irina Galushenko badiiy chiqishlari bilan ishtirot etishdi.

Belorusiya Mustaqilligi kuninig O'zbekistonda nishonlanishi bu ikki millat va davlat o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

2018-yil Qozog'istonda "O'zbekiston yili" deb e'lon qilinganligi tarixiy voqeа bo'lib, do'stlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar o'tkazildi. 2018-yilning 26-30-iyun kunlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi raisi Rustambek Qurbonov boshchiligidagi bir guruh xodimlar Qozog'istonga xizmat safariga borishdi. Delegatsiya tarkibida "O'zbekiston-Qozog'iston" do'stlik jamiyatি a'zolari ham ishtirot etishdi.

Tashrifning birinchi kuni SHimkent shahri Qozog'iston xalqi Assambleyasи binosida yig'ilish tashkil etildi. Unda Qozog'iston o'zbeklari etnomadaniy birlashmalarining "Do'stlik hamjamiyati" kengashi a'zolari, faollari, shuningdek, Turkiston viloyati, SHimkent shahri va tuman o'zbek etnomadaniyat birlashmalarining raislari va faollari hamda O'zbekistonning Qozog'istondagi elchixonasi xodimlari ishtirot etishdi.

Do'stlik hamjamiyati raisi ikrom Hoshimjonov yig'ilganlarni O'zbekistondan tashrif buyurgan mehmonlar bilan tanishtirib, safarning maqsad va vazifalari haqida so'zлади.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi millatlararo munosabatlар va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi raisi yig'ilganlarga Qo'mita faoliyati haqida axborot berdi. Tadbir doirasida maktab kutubxonalarini va etnomadaniy birlashmalariga Toshkentdan keltirilgan 435 dona taniqli o'zbek yozuvchi va shoirlarining badiiy kitoblari topshirildi.

Uchrashuv chog'ida vatandoshlarimiz tomonidan ko'plab takliflar kiritildi. Ular o'zbek maktablari uchun darsliklar yetkazib berish, o'zbek tilida badiiy kitoblar yetkazish, filmlar, rassomlarning ko'rgazmalari, badiiy guruhlarning tashrifi, taniqli artistlar bilan ijodiy uchrashuvlar tashkil etish, turli davra suhbatlari va ilmiy anjumanlar o'tkazish, yosh iqtidorli san'at ixlosmandlarini Toshkentdagি Glier nomli musiqa muktabiga yuborish va boshqa masalalar to'g'risida takliflar bildirishdi. Takliflar yuzasidan Qo'mita rahbariyati va elchixonamiz xodimlari tomonidan tegishli ma'lumotlar berildi.

Uzoq yillar davomida O'zbekistonning AQSH va Kanada buxoro yahudiylari Kongressi bilan hamkorligi rivojlanib kelmoqda. 2018-yil avgust oyida Qo'mita tomonidan tashkil etilgan uchrashuvda Kongress rahbari Boris Kandov bir guruh a'zolari bilan ishtiroy etdi. Prezident farmoni asosida tuzilgan Qo'mita – bu davlat tashkiloti bo'lib, Respublikadagi milliy madaniy markazlarni faoliyatini koordinatsiya etish, jahondagi davlatlar bilan do'stlik madaniy aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash borasida olib borayotgan ishlар bilan delegatsiyani tanishtirildi.

Shu vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlар va xorijiy davlatlar bilan do'stlik Qo'mitasi rahbariyati Jahon turk-messxetinlar Assotsiatsiya delegatsiyasi bilan uchrashuv o'tkazdi. Assotsiatsiya 2009-yilda tashkil etilib, Turkiya Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yxatga olinganligi hamda jahonda 9 davlatda faoliyat olib borayotganligi haqida ma'lumot berildi. Ikki tashkilot o'rtaSIDA aloqalar rivojlantirish istiqbollari belgilandi.

Qo'mitaning serqirra faoliyati mamlakatimizda millatlar o'rtaSIDA hamjihatlik, do'stlik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Respublika baynalmilal milliy madaniy markaz qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?
2. RBMMni faoliyatini haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
3. Nechta oz sonli millat vakillari davlat mukofotiga ega?
4. Respublikamizda istiqomat qilayotgan millatlarga “O‘zbekiston – umumiyligi” deyishga qanday asoslar mavjud?
5. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlari va xorijiy davlatlar bilan do’stlik aloqalari Qo‘mitasi qachon tuzildi va uning maqsad-vazifalari nimadañ iborat?
6. Millatlararo munosabatlarda Respublikada yangi bosqichga qadam qo‘ylganligini nima bilan isbotlaysiz?
7. Respublikada nechta milliy madaniy markazlar mavjud?

### **Kalit so‘zlar:**

Baynalmilal, milliy madaniy markaz, oz sonli millat, xalq diplomatiyasi, bag‘rikenglik.

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi // Xalq so‘zi, 2017-yil 24-yanvar.

### **Normativ-huquqiy hujjalalar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvarda “Respublika Baynalmilal madaniyat markazi to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika Baynalmilal madaniyat markazi to‘g‘risida”gi Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-may “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Xalq so‘zi, 2017-yil 23-may.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Mustaqil O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
2. O‘zbekiston – ko‘pmillatli ahil oila. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
3. O‘zbekiston – tinchlik va totuvlik mamlakati. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

#### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. “Bag‘rikenglik – o‘zaro ishonchni rivojlantirishning vositasi sifatida” xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Toshkent: Universitet, 30-may 2018-yil.
2. Bag‘rikeng O‘zbekiston diasporalari tarixi (buxoro yahudiyлari, nemis, polyak, koreys, grek, uyg‘ur, boltiqbo‘yi xalqlari misolida). 2-kitob. Jamoaviy manografiya. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018.

## **13-mavzu. MUSTAQILLIK YILLARIDA MIGRATSIYA JARAYONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. 1-MA'RUDA. JAHON MIGRATSIYA JARAYONLARI – GLOBALLASHUVNING ALOHIDA MODELI**

### **Reja**

1. Globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlaridagi yangi tamoyillar.
2. O'zbekiston jahon migratsiya oqimlari silsilasida.
3. O'zbekistonda mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishlari.

### **1. Globallashuv sharoitida migratsiya jarayonlaridagi yangi tamoyillar**

Migratsiya deganda aholining bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga yoki mamlakat ichida ko'chib yurishi tushuniladi.

Hozirgi vaqtida bu jarayonning odamlar, pul va tovarlarning nisbatan erkin harakatini o'z ichiga oluvchi alohida bir turi shakllanib, globallashuvning noyob modeli yuzaga keldi. Migratsiya almashinuvida dunyodagi deyarli barcha mamlakatlar (218) ishtirok etmoqda, 2010-2013-yillarda xalqaro migrantlar soni deyarli 5% ga oshib, 221 milliondan 232 millionga etdi. BMT ekspertlarining taxminicha, kelgusi 15 yilda bular yoniga yana 30 million kishi qo'shiladi.

2013-yilda barcha xalqaro migrantlarning yarmidan ko'pi atigi 10 ta mamlakatda yashar edi. Barcha xalqaro migrantlarning qariyb 20% i Amerika Qo'shma SHtatlarida yashardi.

35 ta davlat va hududda, shu jumladan, Fors qo'ltig'i arab davlatlari hamkorligi Kengashiga a'zo bo'lgan qator davatlarda migrantlar soni barcha aholining 30% ini tashkil qildi. Butun dunyo axolisining 3,2 % i migrantlardan iborat.

Migrantlarning o'z vatanlari rivojiga hissa qo'shishlarining eng sezilarli shakllaridan biri pul jo'natmalari. 2014-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tkazilgan pul mablag'lari hajmi 435 mlrd. AQSH dollariga etdi, bu raqam mazkur mamlakatlarni rivojlantirish maqsadida beriladigan rasmiy yordam hajmidan uch hissa oshib ketdi.

Migrantlarning o'z vatanlariga jo'natmalari Xitoydan boshqa barcha rivojlanayotgan mamlakatlardagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiyligi hajmidan ancha ortdi.

Eimmigratsiyaning asosiy sabablari demografiya va iqtisodiyotga bog'liq bo'lib kelmoqda.

Oxirgi 25 yilda jahon axolisining soni 2 milliard kishiga ortdi – 1990-yildagi 5,3 milliarddan 2015-yilda 7,3 milliardga etdi. Jahon axolisi sonining o'sish sur'ati pasaygani bilan, hali ham yiliga 81 million kishiga ortib bormoqda. 2030-yilga borib, 2015-yildan keyingi rivojlanish sohasidagi dasturni amalga oshirishni yakunlash ko'zda tutilgan paytda Jahon iqtisodiyoti taxminan 8,4 milliard kishini kun kechirish uchun kerakli vositalar bilan ta'minlashiga to'g'ri keladi. Yevropa bundan mustasno, u yerda 2030-yilga borganda aholinig umumiy soni 1% dan kamroq pasayishi taxmin qilinmoqda, boshqa barcha mintaqalarda yaqin 15 yilda aholi sonining kamida 10% o'sishi kutilmuoqda. Uzoq davr mobaynida eng qashshoq va eng kam rivojlangan qit'a bo'l mish Afrika hissasiga aholi mutlaq o'sishining eng Yuqori darajasi bo'Igan 40 % dan ortig'i to'g'ri keladi. 2030-yilga borib ushbu qit'ada Er yuzi axolisining deyarli <sup>17</sup> qismi istiqomat qiladi.

2015-2030-yillarda butun dunyoda 2,1 milliard bola tug'iladi, bu oldingi 15 yilda tug'ilgan bolalar umumiy sonidan ikki foiz ko'pdir. Ushbu bolalarning taxminan yarmi Osiyoda tug'iladi.

Global o'zgarishlar natijasi bo'l mish migratsiyaning o'zi migrantlarni qabul qiluvchi jamiyatlarda ham, migrantlar manbai bo'Igan jamiyatlarda ham kelgusi o'zgarishlarni rag'batlantiradi. Shu tariqa, Yevropa mamlakatlarda aholi soni o'sishi ko'proq migrantlar hisobiga bo'ladi, chunki ushbu mamlakatlarda tug'ilish darajasining pastligi natijasida mahalliy aholining qarib borishi tobora tezlashaveradi.

Keyingi yillarda migratsiya sohasida muammoning o'ta murakkab va o'tkirligidan dalolat beruvchi ko'plab xalqaro hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar muhojirlar hayotini birmuncha yengillashtirgan bo'lsa ham, vaziyatni o'zgartira olmadi. Migratsiya avvalgidek o'sib, muammolar esa keskinlashib bormoqda. Hozir butun dunyoda turli migratsiya oqimlari kuzatilmuoqda, eng sezilarlilari Janubdan Shimolga va Sharqdan G'arba qarab sodir bo'lmoqda. Ko'plab insonlar xavfsiz joylarda yashash va ish topish ilinjida o'zga yurtlarga intiladilar. Ular tug'ilish kamayib, aholi qarib borayotgan va natijada mehnat resurslari kerak bo'lgan boy hudud -larda bermalol yashashga umid qiladilar. Aholining bir qismi, ayniqsa qurolli to'qnashuvlar hududlaridagi aholi doimiy yashash joylaridan haydalmoqda. Ayni bir vaqtida, shuni ta'kidlash lozimki, migratsiya mashaqqatlariga qaramay, aholining ko'chishi doimo rivojlanishning tarixiy yo'ldoshi bo'lib kelgan.

Aholi migratsiyasining zamonaviy tamoyillari quyidagicha:

*Birinchi tamoyil*: migratsiya hajmining oshishi va geografiyasi kengayishi.

*Ikkinchchi tamoyil*: migrantlarning yangi turlari paydo bo'lishi, ularning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari murakkablashuvi. Ularning paydo bo'lishi birinchi navbatda mehnat bozorlari globallashuvi va mehnat migrantlarining tez ko'payishi bilan bog'liq.

*Uchinchi tamoyil*: migratsiyaning feminizatsiyalashuvi. Migrantlarning 47,5% i – ayollar. Feminizatsiyalashuvning eng muhim tamoyili shuki, ayollar kuzatib boruvchi shaxs sifatida emas, tirikchilik vositalarining asosiy topuvchisi sifatida migratsiya qiladilar.

*To'rtinchi tamoyil*: migratsiyaning dunyodagi ijtimoiy o'zgarishlar omili sifatidagi ta'siri. Migratsiyalar bilan ijtimoiy o'zgarishlar orasidagi o'zaro aloqa avvalgi barcha tarixiy bosqichlardagiga nisbatan ancha chuqurlashdi, migratsiya jarayonlarining o'zi esa migrantlarni oladigan va qaytaradigan jamiyatlardagi ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy sabab va omillaridan biri bo'lib qoldi.

Xalqlarning ko'chib yurishi doimo taraqqiyotning tarixiy yo'ldoshi bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlangan sayin migratsiya harakati ijtimoiy-iqtisodiy zarurat bo'lib borishi va kuchayishi odat tusiga kirib qolgan.

Migratsiyalar o'ta murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotining ko'p sohalarini o'z ichiga oladi. Bu jarayon faqat alohida mamlakatlardagina emas, butun olamda ham aholi soni o'sishi sur'atiga, etnik tarkib o'zgarishiga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

## 2.O'zbekiston – jahon migratsiya oqimlari silsilasida

Globallashuv sharoitidagi faol migratsiya harakatlari O'zbekistonning bu jarayonlarda jahon hamjamiyatining to'la huquqli a'zosi sifatida qatnashishiga yordam berdi.

O'rta Osiyo mintaqasi o'zining geosiyosiy joylashuvi tufayli azaldan ommaviy migratsiya maydoni bo'lib kelgan, buning o'ziga xosligi shundan iboratki, bu yerga o'zga millat vakillari ko'chib kelgan-u, ammo ko'chib ketish deyarli kuzatilmagan. Hozirgi sharoitda amaldagi huquqiy me'yorlar doirasida yaqin va uzoq xorijga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati mavjudligi o'zbekistonliklar uchun yangi hodisa bo'ldi. SSSRning parchalanishi, mustaqil davlatlar tuzilishi, olamdagи siyosiy o'zgarishlar ommaviy migratsiyada O'zbekistonning ham ishtirok etishi uchun sharoit yaratdi.

Mustaqillik yillarda migratsiya jarayonlarining huquqiy me'yorlarini aks ettiruvchi qonunchilik asosi yaratildi va rivojlanmoqda.

Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– mehnat qilish va ishni erkin tanlash huquqini amalga oshirishda barcha fuqarolarga jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli va mansab mavqeidan, dinga munosabati, e'tiqodidan, jamoat birlashmalariga mansubligidan, shuningdek xodimlarning ishchanlik jihatlariga hamda ular mehnatining natijalariga bog'liq bo'limgan boshqa holatlardan qat'iy nazar teng imkoniyatlarni ta'minlash;

– kishilarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularda mehnat qilish va hayot kechirishda munosib sharoitlarni ta'minlaydigan unumli va ijodiy mehnat qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;

– mehnat qilishning ixtiyoriyligi;

– ish bilan ta'minlanish sohasidagi ijtimoiy kafolatlar berish va aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta'minlash;

– ijtimoiy himoyaga o'ta muhtoj va ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun mavjud ish joylarini saqlab qolayotgan va yangi ish joylarini yaratayotgan ish beruvchilarni rag'batlantirish;

– ish bilan ta'minlash sohasidagi tadbirlarni iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning boshqa yo'naliishlari bilan muvofiqlashtirish;

– aholini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, amalga oshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishda davlat organlari, kasaba uyushmalari, xodimlarning vakillik organlari va ish beruvchilarning o'zaro hamkorligi;

– aholini ish bilan ta'minlash muammolarini hal qilishda davlatlararo hamkorlik.

Hozirgi dunyoda iqtisodiy taraqqiyot borgan sari ijtimoiy rivojlanishning jahoniy tamoyillari va qomuniyatlariga qaram bo'lib qolmoqda. Aholi migratsiyasi kuchayishi globallashuv jarayonlarining yorqin ko'rinishidir. Migratsiya mamlakatdagi ijtimoiy islohotlar va taraqqiyot omili bo'libgina qolmasdan, ayni paytda u doimiy nazoratni talab qiluvchi ko'plab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

**Mehnat migratsiyasi** – obyektiv va iqtisodiy asoslangan jarayon. Migrantlarning o'zi uchun bu boshqa mintaqqa yoki o'zga mamlakatda ish topish imkoniyatidir. Migrantlarni qabul qiluvchi mintaqqa yoki davlat uchun ushbu hodisa mahalliy bozorda etishmayotgan mehnat resurslarini

jalb qilishning qo'shimcha imkoniyati sifatida maydonga chiqadi. Lekin mehnat migratsiyasi ijobjiy ta'sirdan tashqari ko'plab muammolarni ham keltirib chiqaradi. Birinchi navbatda xalqaro mehnat migratsiyasi nazarda tutilyapti.

Dunyodagi aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotining ayrim sohalarida va mittaqalarida, alohida kasblar va ish turlarida ish kuchining etishmasligi xorijiy ish kuchining bandligiga imkon bermoqda. Birinchi navbatda kam haq to'lanadigan va malaka talab qilinmaydigan sohalarda, olisdagi ish joylarida shunday holat kuzatilmoqda.

Davlatlarning mehnat migratsiyasi sohasidagi hozirgi siyosati birinchi navbatda mamlakat ichidagi ishsizlikni tugatishga qaratilgan, chunki iqtisodiyotda ichki migratsiya degan tushuncha ham mavjud. Shuning uchun birinchi galda o'z fuqarolarini ish bilan ta'minlashga asosiy e'tibor beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda va chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlanishi masalalarini hal etish Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari Agentligi (TMMMA), shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Mehnat va ijtimoiy muhofaza vazirligi qoshidagi fuqarolarni chet elda ishga joylashtirish regional byurosi zimmasiga yuklatildi. Qamrov zonasini kengaytirish maqsadida ular Toshkent, Buxoro, Nukus, Farg'ona, Qarshi shaharlarida faoliyat ko'rsatadilar. Chunonchi, bizning mamlakatimiz fuqarolari qonunchilikka binoan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi orqali hukumatlararo, idoralararo shartnomaga va bitimlar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqish huquqiga ega.

Yuqorida aytilgan hukumat qarori doirasida fuqarolar agentlik beradigan ruxsatnomalar bo'yicha xususiy mehnat shartnomalariga asoslanib mehnat qilish uchun xorijga chiqish huquqiga ham egadirlar. Misol uchun O'zbekiston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi bilan Koreya Respublikasining mehnat vazirligi o'rtaida hamfikrlik to'g'risida Memorandum imzolandi. Ushbu hujjatda ishchilar Koreyaga bandlikni hal qilish tizimi bo'yicha yoki, boshqacha qilib aytganda, erkin yollanib jo'nashi haqida kelishib olingan. Ko'rsatilgan mamlakatga ishslashga jo'nashdan avval O'zbekiston

fugorolari Davlat chegarasidan chiquvchi fugorolarni tayyorlash va o'qitish markazida ta'lif oladilar. Globallashuv davrida migratsiya jarayonlari turli davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bog'liq ravishda uzoq kelajakda mehnat migratsiyasi masalalari o'zining muhimligi va dolzarbligini saqlab qoladi, binobarin, shu sohadagi qonunchilikni doimo takomillashtirib borishni talab qiladi.

### **3. O'zbekistonda mehnat migratsiyasining asosiy yo'naliishlari**

Umumjahon jarayonlarining globallashuvi mamlakatlarning ochiqligi kuchayishiga va ularning jahon hamjamatiiga qo'shilib ketishiga olib keladi. Bu faqatgina xomashyo, sarmoya, moliyaviy va moddiy resurslarninggina emas, mehnat kuchining ham harakatini keltirib chiqardi. Globallashuv sharoitida jahon mehnat bozorlari shakllanishi faollashadi, bu esa aholining mehnat migratsiyasi vositasida amalga oshadi. Hozirgi sharoitda xalqaro mehnat migratsiyasi jahon iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston ish kuchi yuboruvchi tomon bo'lgani uchun ushbu jarayonlarda faol qatnashiyapti. Hozirgi paytda mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi eng kuchli migratsiya oqimi bo'lib turibdi.

Masalan, 2016-yilda 13 700 dan ziyod O'zbekiston fugorolari Yevropa Ittifoqi davlatlarida rasmiy yashab kelmoqda. Ulardan 2 272 – CHexiyada, 2000-yaqin – Polshada, 1900 – Shvetsiyada, 1500-Latviyada, 1300-Italiyada.

2018-yilda esa O'zbekistondan 2 593 700 odam ketgan. Ularning 80% Rossiyaga immigratsiya qilgan, 15% esa – Qozog'istonga, kam qismi – Koreya va Turkiyaga. Immigrantlarni eng ko'p qismi Samarqand, Andijon, Farg'ona va Namangan shaharlariga to'g'ri keladi.

Sotsiologik so'rov natijalarining ko'rsatishicha, Respublikamiz fugorolaringin asosiy qismi boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketishga intilmaydi, ular o'z uylarida yashab, ahyon-ahyonda vaqtinchalik, mavsumiy ishlashga Respublikadan tashqariga chiqishni ma'qul ko'radi.

Mamlakatimiz fugorolarining xorijda kasbiy faoliyat ko'rsatish huquqi O'zbekiston Respublikasining aholi bandligi to'g'risidagi Qonunida (1992-yil fevral) e'lon qilingan va mustahkamlangan. Mehnatning migratsiya jarayonlari sohasida tashkiliy-huquqiy negiz yaratilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil

14-iyuldagи “Ishchi kuchlarini chetdan keltirish va chetga chiqarish masalalarini boshqarish to‘g‘risida”gi 353 sonli Qaroridan boshlandi.

O‘zbekiston axolisi mehnat migratsiyasining asosiy sabablar quyidagilar:

- 1) mehnat bilan ta‘minlanmaganlik darajasining Yuqoriligi;
- 2) mehnat resurslarining tez rivojlanishi;
- 3) mehnat kuchiga bo‘lgan talabdan taklifning ortiqligi;
- 4) bandlikning o‘zgaruvchanligi;
- 5) ish kuchining nisbatan arzonligi;
- 6) tadbirkorlik omili (birlamchi sarmoya) yaratish muammolari;
- 7) ishslash va tadbirkorlikning bozorga xos ko‘nikmalarini egallash istagi.

Migratsiya jarayonlari rivojlanishi natijasida Respublikada tashqi mehnat migratsiyasining 3 asosiy oqimi, chunonchi, Rossiya, Qozog‘iston va olis xorij oqimlari yuzaga keldi.

O‘zbekistonning eng asosiy migratsiya sheri Rossiyaadir. BMT ma‘lumotiga ko‘ra, Rossiya xalqaro migrantlar soni bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni egallaydi, bu raqam 6,5 – 7,0 mln.ga etadi; FMS ning oxirgi ma‘lumotlariga ko‘ra esa, Rossiyada 10 mln.ga yaqin migrant ishlaydi, ularning asosiy qismi sobiq Sovet Ittifoqi Respublikalari – Tojikiston, Qирг‘изистон, O‘zbekiston, Ukraina, Ozarbayjondan keladi.

O‘zbekiston axolisining tashqi mehnat migratsiyasi umumiy hajmining yarmidan ko‘pi – 400-450 ming kishiga yaqini – Rossiyaga to‘g‘ri keladi. Bunga sabab Rossiya mehnat bozorlarining hajmi kattaligi, ish haqining nisbatan Yuqoriligi, shuningdek, oxirgi paytda migratsiya qonunchiligining liberallahuvidir. O‘zbekistonlik mehnat migrantlari Rossiyaning barcha mintaqalarida mehnat qiladilar. Ular Yuqori malakali mutaxassislikda emas, turar joylarda kommunal xizmatlar ko‘rsatadilar, qurilishda ishlaydilar. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ular faoliyatining asosiy sohalari – qishloq va uy-joy qurilishi (23%), savdo-sotiq (18%), xizmatlar (19%), shuningdek, qishloq xo‘jaligi, sanoat korxonalari, transport.

Jahon moliyaviy inqirozi, ayniqsa, Rossiyadagi mehnat migratsiyasi ko‘lamiga katta ta’sir qildi. 2008-yilda ba’zi mehnat migrantlarining odatdagи mavsumda ayni faol ish vaqtida qaytib ketishi hamda pul jo‘natmalari hajmining kamayishi (2009-yil birinchi choragida – 37% ga) shundan dalolat beradi. Biroq, mutaxassislarining fikricha, mehnat migratsiyasining qisqarishi inqiroz bilan bog‘liq bo‘lgan vaqtinchalik hodisadir.

Rossiya bilan bir qatorda qabul qiluvchi tomon bo'lib qolgan Qozog'istoniga oxirgi yillarda O'zbekistondan migratsiya ko'paydi. Hududiy yaqinlik, mehnat bozorining anchagina kattaligi, iqtisodiyotning qo'shimcha ish kuchiga ehtiyoji ortishi, shuningdek, mehnatga birmuncha Yuqori darajada haq to'lanishi migratsiya oqimining o'sishiga imkon beradi.

O'zining migratsiya maqomiga ko'ra O'zbekiston asosan ish kuchi yuboruvchi tomondir, lekin shu bilan birga u xorijiy ish kuchini ham qabul qiladi. Biroq xorijiy ish kuchi hajmi O'zbekiston axolisining tashqi bandligidan ancha kamdir. Asosan bular Turkiya, Koreya, Afg'oniston, Xitoy, shuningdek, Markaziy Osiyo Respublikalari fuqarolaridir.

Uzoq vaqt davomida O'zbekiston mehnat migrantlarining aksariyati MDH davlatlarida muvaqqat, ko'pincha nolegal maqomda bo'lganlar, lekin oxirgi yillarda qabul qiluvchi mamlakatlardan ushbu jarayonlarni tartibga solish uchun ancha samarali qadamlar qo'ydilar.

Tashqi mehnat migratsiyasi Respublika ichki mehnat bozori uchun juda muhimdir, ammo uni faqat ishchi kuchi eksporti yoki ichki ishsizlikni silliqlash usuli tariqasida jo'ngina qabul qilmaslik kerak, chunki u juda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir vaqtida mazkur jarayonlar mehnat resurslarining miqdor va sifat tarkibiga ta'sir ko'rsatadi, mehnat faoliyatining bozor ko'nikmalari rivojlanishiga, bir qator holatlarda esa ish kuchining malakasi oshishiga, xodimlar tabirkorligi rivojlanishiga yordam beradi.

Shu bilan birga mehnat migratsiyalarining haddan tashqari o'sishi salbiy oqibatlarga ham olib boradi. O'zbekiston mehnat bozori tashqi mehnat migratsiyasi tufayli eng serg'ayrat va layoqatli aholini yo'qotmoqda. Ish kuchini tartibli eksport qilishni kengaytirish sohasida davlat tomonidan ko'rilgan choralariga qaramay, o'zbekistonliklarning ko'p qismi qabul qiluvchi mamlakatlarda tashkil qilinmagan tartibsiz asosda mehnat qiladilar. Ushbu oqimlarda mehnat migrantlari asosan o'z kasb va mutaxassisliklarida ishlatilmaydilar, ko'pincha o'z kasbiy bilim va malakalaridan mahrum bo'ladi. Respublikadan katta miqdordagi harakatchan, malakali ishchilarning chiqib ketishi milliy mehnat bozori uchun muayyan muammolarni tug'diradi: mutaxassislar taqchilligi oshadi, sanoat korxonalarini xodimlar bilan ta'minlashda muammolar yuzaga keladi. Mehnat migratsiyasi Respublikadan umumiy migratsiya chiqishi bilan aralash holda ro'y berishini e'tiborga olish lozim. Bularning hammasi birga qo'shilib, hozirning o'zidayoq malakali ishchi kuchi etishmasligi muammolarini keltirib chiqaryapti. Malakali xodimlar

taqchilligi ortishi, minglab kishilarning kasbiy-malakaviy imkoniyatlaridan foydalilmaslik kelgusida iqtisodiy sohada nojo'ya oqibatlarga olib borishi mumkin.

Bundan tashqari, nolegal chiqib ketayotgan mehnat migrantlari o'z davlati tomonidan ham, qabul qiluvchi davlat tomonidan ham ijtimoiy himoyaga ega emaslar.

Hozirgi paytda Respublikada tashqi mehnat migratsiyasini hisobga olishni takomillashtirish sohasida yangi choralar ko'rilmoxda. 2007-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (15.05.2007-y.) "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini hisobga olishni takomillashtirish to'g'risida"gi 97- sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga binoan mehnat migrantlarini hisobga olish ularning ishga chiqib ketayotgan paytlarida Bojxona deklaratsiyasi asosida amalga oshirila boshlandi.

Migrantlarning pul jo'natmalari Respublika iqtisodiyoti taraqqiyotiga yaxshigina hissa qo'shamdi. Bizning taxminimizcha, mehnat migratsiyasi hajmlari oshishini hisobga olganda, hozirgi vaqtida O'zbekiston axolisi mehnat migratsiyasidan tushayotgan umumiy iqtisodiy samara 2 mlrd. AQSH dollaridan oshdi.

Aholi mehnat migratsiyasining iqtisodiy samaralarini:

1. O'z oilasini boqish uchun ishlab pul topdilar.
2. O'z moddiy ahvollarini yaxshiladilar.
3. Uy-joylarini yaxshiladilar.
4. Qimmatbaho buyumlar sotib oldilar.
5. Farzandlarining o'qishi uchun haq to'ladilar.
6. Kam ta'minlangan qarindoshlariga moddiy yordam ko'rsatdilar.
7. Sog'liqlarini saqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar (davolanishga haq to'lash, kerakli dori-darmon xarid qilish va sh.k.b.).

Aholining tashqi bandligi sohasi ko'proq liberallashgan mamlakatlarda mehnat migratsiyasining sezilarli iqtisodiy samarasini qayd qilindi. Masalan, Meksikada u yiliga 14 mlrd. AQSH dollarini, axolisi hozirgi kunda ko'plab xalqaro mehnat bozorlariga faol chiqa boshlagan Filippinda 6,2 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilmoqda.

Rossiyaning Federal migratsiya xizmati rahbari K.Romodanovskiy bergen ma'lumotga ko'ra, misol uchun, tojik migrantlarining daromadlari Tojikistonning ikki yillik milliy byudjetiga teng, Rossiya'dagi gruzin migrantlarining pul jo'natmalari esa Gruziya YAIMning 20% idan ortiq. Milliy banklarning ma'lumotlariga ko'ra, Qirg'iziston migrantlarining pul jo'natmalari mazkur mamlakat YAIM

umumiyligi 14% ini, Tojikistonda – 20%, Moldovada – 27%, Gongada – 31%, Gaitida – 25% ni tashkil qiladi. Xitoy diasporasi ushbu manbadan Xitoy iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning 70% ini ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda mehnat migrantlari pul jo‘natmalarining YAIMdagi hissasi ancha kam, biroq u uzlksiz o‘sib bormoqda va hozirgi vaqtida 10% ga yaqinlashib qoldi.

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, mehnat migrantlarining pul jo‘natmalari o‘z mamlakatlari valyuta tushumlarining muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi, bu esa importni, shu jumladan, yangi texnologiyalarni rivojlantirish hamda tashqi qarzlarni to‘lash imkonini beradi. Ular sarmoya va pul jamg‘arish manbai bo‘lib, taraqqiyotning turli sohalariga investitsiya sarflash imkonini beradi. Binobarin, pul jo‘natmalari ma‘lum miqdorda ham iqtisodiyotga, ham xususiy tadbirkorlikka investitsiya manbai bo‘ladi, shuning uchun ularga mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining real fakti sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Biroq shuni tan olish kerakki, mehnat migrantlari ishlab topgan pullar asosan oilaning kundalik iste’moliga sarf bo‘lmoqda. CHetga borib ishlab topilgan mablag‘ning investitsion imkoniyatlaridan hozircha yetarli foydalaniilmayapti. Mehnat migrantlarining savollarga bergen javoblariga qaraganda, ularning atigi 6-7% i ishlab topgan pullarini ishlab chiqarishga sarflash va o‘z ishini tashkil qilish niyatlari bor.

Mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlari:

1. Odatdagi turmush tarzining buzilishi.
2. Oilaviy munosabatlар yomonlashishi.
3. Ko‘pgina mehnat migrantlarining mehnat imkoniyatlaridan samarasiz foydalanishi.
4. Eng serg‘ayrat va ishchan ish kuchining Respublikadan chiqib ketishi.
5. Respublika mehnatga layoqatli axolisining bir qismidan mahrum bo‘lish xavfi.

Hozirgi vaqtida Respublikada tadbirkorlik faoliyatiga erkinlik berish sohasida ko‘p ishlar qilinmoqda, shu tufayli turli investitsion loyihalarga pul o‘tkazmalari ko‘proq tusha boshladi, bu esa yangi-yangi korxonalar barpo etilishiga olib kelmoqda. Bir qancha mamlakatlarning tajribasidan ma‘lumki, migrantlarning pul o‘tkazmalaridan investitsiya maqsadlarida foydalanish uchun davlat sarflayotgan kuch-g‘ayrat yaxshi samara beradi. Pul o‘tkazmalaridan samarali foydalanishda mehnat migrantlari

va ularning oilalariga ko'maklashuvchi davlat dasturini ishlab chiqish katta naf keltirishi mumkin. Bu dasturda ishlab chiqarishni rivojlantirish va ish joylarini tashkil qilishni rag'batlantiruvchi ta'sirchan vositalarni yaratib berish ko'zda tutilishi lozim. Migrantlarning oilalariga investitsiyalash tajribasini o'rganishlarida amaliy yordam berish, iqtisodiyotga investitsiyalash uchun pul o'tkazmalari imkoniyatlaridan to'liq va samarali foydalanish imkonini beruvchi yetarli va qulay mexanizmlarni yaratib qo'yish ham muhimdir. Buning uchun mehnat migrantlarining investitsiya borasidagi faoliyatini bank-moliya muassasalari tomonidan faolroq qo'llab-quvvatlash, depozit qo'yilmalariga pul o'tkazishni rag'batlantirish, mikrokreditlash tizimini rivojlantirish, soliq sohasida oilaviy biznesni yo'lga qo'yishga qaratilgan imtiyozlar joriy etish hamda aholini investitsiya jarayonlarida qatnashishga qiziqtiradigan boshqa chora-tadbirlarni ko'rish zarur.

Mehnat migratsiyasi oshgan sharoitda Respublikadan chetga borib ishlovchilarining ish haqi va pul o'tkazmalari hajmi ko'paymoqda va ularning investitsion imkoniyatlaridan rivojlanish maqsadlarida samarali foydalanish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, milliy va mahalliy mehnat bozoriga ijobji ta'sir qiladi.

Migratsiya jarayonlarining birmuncha salbiy oqibatlari ham bor. Shu jarayonlar natijasida mehnat salohiyatining bir qismidan mahrum bo'lish bilan birga Respublika mehnat resurslarining sifat tarkibi yomonlashmoqda. O'zbekiston har yili oly va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarining bir qismini yo'qotmoqda, ular migratsiya jarayonida o'zlarining kasb-malaka ko'nkmalaridan mahrum bo'lmoqdalar. Mehnat migratsiyalari hisobiga O'zbekistonning mehnat bozoridan eng harakatchan, qobiliyatli ishlovchilar chetga chiqib ketayotir. Mehnat migratsiyasining salbiy ijtimoiy demografik oqibatlari ham juda sezilarlidir – muhojirlar sog'ligi yomonlashadi, oilaviy munosabatlari chigallashadi, bolalar tarbiyasiga e'tibor susayadi, ba'zan oilalar buzilib ham ketadi, bu esa kelgusida mamlakatdagi demografik vaziyat mushqo'llashuviga olib borishi mumkin.

### Savol va topshiriqlar:

1. Jahon migratsiya jarayonlaridagi zamонавиј tamoyillarni ayting bering.
2. Dunyodagi migratsiya jarayonlarining hozirgi kunдagi faollashuvini qanday izohlash mumkin?
3. Migratsiyaga tegishli xalqaro hujjalarni ayting.

4. O‘zbekiston axolisi mehnat migratsiyasining asosiy sabablari nimalardan iborat?

5. Mehnat migratsiyasining O‘zbekiston uchun qanday ijobiyligi va salbiy jihatlari bor?

#### **Kalit so‘zlar:**

Tashqi, ichki migratsiya, mehnat migratsiyasi, pul jo‘natmalar, ishsizlik, migrantsion jarayonlar, aholi bandligi.

#### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1.Xalqaro Mehnat Tashkilotining ishchi-migrantlar to‘g‘risidagi 27-sonli Konvensiyasi (1949-yilda qayta ko‘rib chiqilgan).

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Aholini ish bilan ta’milash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirishlar va qo‘srimchalar kiritish haqida. 1998-yil 1-may. 616-1-son, 5-modda.

3. 143-Konvensiya. Migratsiya sohasidagi suiste’molliklar va ishchi-migrantlarga imkoniyat va muomala tengligini ta’milash to‘g‘risidagi Konvensiya.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1.Migratsiya i tynok truda v stranax Sredney Azii. Pod red.L.P.Maksakovoy. – Moskva-Tashkent, 2002.

2. Murtazayeva R.X. Migratsionnye protsessy v Uzbekistane v konse XX – nachale XXI vekov: istoricheskie sobytiya i pochvye tendensii (uchebnoe posobie dlya magistrov). – Germaniya: Lambert, 2015. – 15,6 p.l.

#### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. BMTning xalqaro migratsiya masalalari bo‘yicha ma’ruzasi.

2. T.N.YUdina. Migratsiya. Asosiy atamalar lug‘ati. – M.: RGSU, 2007. – 472b.

3. Djaxangirova D. Problemy zanyatosti i trudovoy migratsii v usloviyakh modernizatsii ekonomiki strany. // Doverie. Ishonch. -№43, 27-oktabrya 2006 g.

4. Kremliev N.D. Narodosberejenie kak osnova razvitiya regiona. Voprosy statistiki. – №6, 2005.

5. Uzbekistan: otsenka urovnya jizni naseleniya. Dokument Vsemirnogo banka. May, 2003. Tom 11. – s.33.

6. Olimova S. Adaptatsiya trudovyx migrantov iz stran Sentralnoy Azii v Rossii: rol obrazovaniya. V kn. "Etnicheskaya situatsiya i konflikty v gosudarstvakh SNG i Baltii. Ejegodnyy doklad Seti etnologicheskogo monitoringa i rannego preduprejdeniya konfliktov", 2005. Pod red.V.Tishkova i E.Filippovoy. – M.: UOP IEA Ran, 2006. – s.39.
7. Trudovye migranty iz Uzbekistana v ujnyx regionax Kazaxstana. – Almaty: Izd.MOM, 2006.
8. Trudovaya migrantsiya v Respublike Uzbekistan. Otvet.redaktor Abdullayev B. – Tashkent, 2008.
9. Sentr novostey OON, un.org./Russian/esa. – p.36.
- 10.“Vesti.ru”

## **2- ma’ruza. O’ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ICHKI MIGRATSİYALARI**

### **Reja**

1. Qishloq – shahar migratsiyasi.
2. O’zbekiston axolisi milliy tarkibiga migratsiyaning ta’siri.

#### **1. Qishloq – shahar migratsiyasi**

O’zbekistonda viloyatlararo va viloyatlar ichidagi – qishloq bilan shahar o’rtasidagi, tumanlar o’rtasidagi va ularning ichidagi ko‘chib yurishlar asosiy migratsiya oqimlari hisoblanadi. Bu hol aholining avvalgi o’n yilliklarda sodir bo‘lib kelgan va hozir ham davom etayotgan an’ana tusini olgan ichki ko‘chishlari bo‘lib, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, jug’rofij omillar taqozosni bilan sodir bo‘ladi.

Ichki Respublika migratsiyalarida asosan tub joy axolisi ishtirok etadi. O’zbeklarning aksariyati asosan Respublika ichkarisida ko‘chib yuradi. Hisob-kitoblarga qaraganda, ichki migratsiya oqimida ular ko‘chib yuruvchilarning 97-98% ini tashkil etadi. Tashqi migratsiyalar tarkibida jami migratsiya hajmining 5% iga yaqini o’zbeklardan iborat.

Respublikadagi eng asosiy migratsiya yo‘nalishi qishloqdan shaharga ko‘chish hisoblanadi. O’zbekistonda bu oqim anchagina salmoqqa ega. Aslida, bunday migratsiyalar aholi migratsion harakatchanligi rivojidagi birinchi qadam bo‘lib, azaldan davom etib kelgan yoki doimo sodir bo‘lib kelgan. Qishloq-shahar migratsiyalari ta’lim olish, yangi kasblarni egallash, kasb malakasini oshirish va malakaviy harakatchanlikning qudratli omilidir. Sotsiologik kuzatuvlardan ma’lum bo‘lishicha, shaharda doimiy yashash uchun ko‘chishga ahd qilgan ko‘pchilik qishloq axolisining o‘z turar joyini o‘zgartirishga undovchi asosiy sabab aynan ana shudir.

O’zbekiston sharoitida qishloq-shahar migratsiyasida boshqa ko‘pgina mamlakatlarga, jumladan, Rossiyaga xos salbiy holatlar uchramaydi. O’zbekiston axolisining ko‘pchiligi qishloq joylarda yashaydi va bu joylarda aholi va mehnat resurslarning nisbiy Yuqori tabiiy o’sishi davom etib kelmoqda. Aholi zich yashaydigan qishloq tumanlarida ish kuchi ortiqcha bo‘lib, ish bilan ta’minlash va yangi ish joylarini hosil qilish muammolarini hal etishda qiyinchiliklar mavjud. Ana shunday sharoitda ortiqcha ish kuchini qishloq xo‘jaligidan chiqarib olish, shuningdek, qishloqdan shaharga ko‘chirish, umuman olganda, qishloq iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Boz ustiga, O'zbekistonda bunday migratsiya demografiya sohasida tanglikka olib bormaydi va qishloqning mehnat salohiyatini pasaytirib qo'ymaydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, bunday migratsiya qishloq axolisi ortishining atigi saikam 4,0% ini va mehnat resurslari ko'payishining 6% ini tashkil etadi.

Hozirgi paytda qishloq axolisi hisobiga shaharlardagi migratsiyaning o'sishi yiliga taxminan 20 ming kishidan oshmaydi, bu ko'rsatkich o'tgan asrning 80-yillari o'rtasi va oxiridagi ko'rsatkichdan 1,3-1,4 baravat kamdir. Bir tomondan, qishloq joylarda migratsiyani kamaytiruvchi omillar uchraydi: shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga beriladigan yerlar ko'paytirildi, mehnat faoliyatining qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'limgan turlari va qishloq tadbirdorligi rivojlantirildi. O'zbekistonda qishloqlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish davlat siyosatini o'tkazish natijalari ham qishloq migrantsiyasiga muayyan ta'sir o'tkazdi. Ikkinchi tomondan, shaharlardagi bir qancha tarmoqlarda korxonalardan ortiqcha ish kuchini chiqarib yuborish jarayonlari kuchaymoqda, bu esa shaharlarning migratsion sig'imini kamaytiradi, qo'shimcha ish kuchiga talabni pasaytiradi, ana shularning hammasi qishloq axolisining, ayniqsa yoshlarning shaharga oqib kelish ishtiyoyqini kamaytiradi. Hozirgi O'zbekistonda qishloq axolisining doimiy yashash uchun shaharga ko'chib kelishga qiziqishi kamayib bormoqda. Qishloq axolisi tug'ilib o'sgan joylarida yashab, vaqt vaqt bilan vaqtinchalik yoki mavsumiy ish uchun shaharlarga kelib turishni afzal ko'rmoqda.

O'zbekistonda shahardan qishloq joylarga ko'chish jarayonlari uzoq vaqt davom etdi. Shahar axolisidan ko'ra qishloqlar axelisi jadal sur'atlarda ko'payib borgan.

1991-2005-yillarda shahar axolisi 12,7%, qishloq axolisi esa 34,5% ortgan, natijada shahar axolisining ulushi 49,8% dan 36,6 % ga tushib qolgan, qishloq axolisi esa 59,2% dan 63,4 % ga etgan. Bunday o'sish sur'atiga tug'ilish darajalaridagi katta tasovutdan tashqari aholining Respublika tashqarisiga chiqib ketishi ham ta'sir qildi. Ya'ni chetga chiqib ketish jarayonida qishloq axolisidan ko'ra shaharliklar ko'proq ishlisirok etdi.

Keyingi yillarda shahar va qishloq axolisining joylashuvida birmuncha o'zgarish sodir bo'ldi. 2005-yil iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu qaror turar joylarning shahar yoki qishloqqa tegishliligi mezonlarini biroz

o'zgartirdi. Natijada 2009-yilga kelganda shahar axolisining ulushi 51,7% ga ko'tarildi, ammo bu hali o'tish davrining holati bo'lib, aholi joylashuvining yangi tarkibidan ko'ra, eski holatni ko'proq aks ettirar edi.

Aholi joylashuvining xususiyati shundan iboratki, O'zbekistonda qishloq-shahar migratsiyasi, urbanizatsiya jarayonlari rivoji nuqtai nazaridan olganda, katta istiqbollarga ega. Bu o'rinda sost urbanizatsiyalashgan hududlarda shahar axolisining ulushi kam (20-27%) bo'lib, qishloq-shahar migratsiyasi orqali shahar axolisining ko'payishiga erishish mumkin.

Respublika ichkarisida viloyatlararo migratsianing ahamiyati katta. Bunday migratsiya asosan Farg'ona vodiysi va Samarqand viloyatining aholi zich yashaydigan mintaqalarida sodir bo'lib, Toshkent shahri va Toshkent viloyatini ko'zlaydi. Viloyatlararo migratsiya oqimida kelayotganlarning 50-55% i shu yerlarga kelmoqda.

Viloyatlararo migratsiya muayyan miqdorda aholining hududiy qayta taqsimlanishiga imkoniyat yaratmoqda. O'zbekiston uchun buning ahamiyati katta, chunki uning hududida aholi bir tekis joylashgan emas. Aholi zichligi ko'rsatkichlarida farq katta: Navoiy viloyatida bir km<sup>2</sup> ga 7,4 kishi to'g'ri kelsa, Andijon viloyatida 545 kishigacha to'g'ri keladi. Aholining viloyatlararo ko'chishi yashash muhitining yomonlashuvi bilan ham bog'liqdir, buni ekologik migratsiya desa bo'ladi. Orol dengiziga tutash joylar, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati ana shunday migratsiya manbaidir. Aholining viloyatlararo ko'chishida bu mintaqaga salbiy savdoga ega bo'lib turibdi.

Migratsiya oqimlarining hajmi va nisbatlaridagi o'zgarishlar migratsianing yalpi hajmi tarkibiga ta'sir qildi. Unda yil sayin ichki migratsianing hajmi oshib, shunga muvofiq ravishda aholining tashqariga siljishi ulushi qisqarib bormoqda. Tarkibiy siljishlar ayniqsa olis yillarga nisbatan sezilarli bo'limoqda. Chunonchi, Respublika ichidagi migratsiya 60-yillarda umumiyligi migratsianing 40-45% ini, 70-yillarda 50-55% ini, 80-yillarda 65-70% ini, 2008-yilda esa 80% dan ko'prog'ini tashkil etdi.

O'zbekistonda qishloqlardan shaharlarga ko'chish ijtimoiy jihatdan eng salmoqli ichki migratsion oqim bo'lib turibdi. Qishloq joylarda aholining tabiiy ko'payishi hali ham Yuqori darajada (23-24 promille) davom etmoqda, Respublikaning deyarli barcha mintaqalarida qishloq xo'jaligida ish kuchining ortiqchaligi sezilib turibdi. Shu sababli mamlakatda kelgusi o'n yilliklarda ham aholining qishloqdan shaharga

ko'chishining ahamiyati kattaligicha qolaveradi. Ana shu jarayon yordamida ko'pgina muammolar hal etiladi. Uning yordamida ichki mehnat bozori tartibga tushadi, mehnat salohiyatini shakllantirishda sifat siljishlariga erishiladi, urbanizatsiya rivojlanadi va boshqa shu kabi muammolar o'z yechimini topadi.

O'zbekiston tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida qishloq axolisining shaharlarga migratsiyasi jadalligi doimo past bo'lgani mustaqillik yillarida yanada kuchayib bordi, bu esa qishloq axolisining tabiiy ko'payishi nisbatan oshib borayotgan sharoitda ijimoiy-iqtisodiy muammolarni keskinlashtiradi.

Asosan shaharlarda yashab kelgan aholining mamlakatdan ko'plab ko'chib ketishi, Yuqorida ta'kidlanganidek, yangi davrning asosiy migratsion tamoyilidir. Bunday vaziyatda mahalliy qishloq axolisi kelib shaharlarda bo'shab qolgan ish joylarini egallashi kuchayishi kutilar edi. Ammo bunday bo'lmasdi. Buning ustiga jahon miqyosida ro'y bergan iqtisodiy tanglik ishga joylashish uchun ham, o'qishni davom ettirish uchun ham qishloq axolisining ko'chib kelish imkoniyatiarini toraytirib qo'ydi. Bunday sharoitda tub joy axolisining harakatchanligi pasayib, O'zbekistonning qishloq joylaridagi demografik vaziyat tobora chigallashib borayotir. Tug'ilish darajasi Yuqori bo'lib turganligi mehnatga layoqatli qishloq axolisining ko'payishiga olib bormoqda. Ularni o'z joyida ish bilan to'la-to'kis ta'minlashning iloji yo'q. Shu sababli ish ta'minoti muammolari tobora murakkablashib borayotir.

Hozirgi sharoitda qishloq axolisi doimiy yashash uchun shaharga ko'chib borishdan ko'ra, qishloqda yashab, ishlash uchun shaharga borishni afzal ko'rmoqda. Qishloqliklar tebranuvchi mehnat migratsiyalari oqimlariga qo'shilmoqdalar yoki shaharda tadbirkorlik bilan shug'ullanib, vaqt vaqt bilan qishloqqa qaytib bormoqdalar.

Xillas, qishloq-shahar migratsiyasi O'zbekiston axolisi ichki migratsiyasining eng fael yo'nalishi bo'lib qolgan, bu hol tub joy axolisi hududiy harakatchanligini oshirishga va umuman Respublika nufuzini rivojlantirishga ko'maklashmog'i lozim. Aholi hududiy harakatchan bo'lmasa, rivojlanish ham bo'lmasligi ma'lum.

## 2. O'zbekiston axolisi milliy tarkibiga migratsiyaning ta'siri

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, jahondagi voqealar, xususan migratsiya jarayonlariga qo'shildi. O'zbekistonda 137 millat vakillari istiqomat qiladi. Mamlakat axolisining ko'pchiligi (83,4% i)

o'zbeklar, 10% idan ko'prog'i O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning vakillari (5% i tojiklar, 3% i qozoqlar, 2,5% i qoraqalpoqlar, bitoz turkmanlar va boshqalardir. Etnik ozchilikning eng ko'pi ruslar (5,5%)dan iborat. Mamlakat axolisining 42 % i shaharlarda yashaydi. O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrining axolisi 2,3 mln.kishi.

O'zbekiston endigina mustaqillikka erishgan davrda millatlararo va etnoslararo munosabatlarning xususiyatlari migratsiya jarayonlariga sezilarli ta'sir qildi. Mustaqil davlatni barpo etishning boshlanishi Farg'ona viloyatidagi etnik mojararo endigina barham topgan paytga to'g'ri keldi. Biroq ilk davning katta qiyinchiliklari, yonginamizdagi Afg'oniston va Tojikiston mojarolariga qaramay, O'zbekistondagi ijtimoiy vaziyatni nazoratdan chiqarmaslikka va etnoslararo munosabatlarning mushqo'llashishiga yo'l qo'ymaslikka muvaffaq bo'lindi. Milliy davlatchilikni qayta tiklash va milliy uyg'onishning dastlabki yillarda milliy munosabatlarda muayyan keskinlik mayjud edi, buning natijasida o'zga millat vakillari bu yerdan ko'chib ketish kayfiyatiga tushgan edi. Bu vaziyat qisqa muddatda bartaraf etildi va oqilona milliy siyosat natijasida 90-yillarning o'rtalariga kelib, chetga ko'chish oqimlari birmuncha kamaya boshladi. Ko'p millatli mamlakatda bunday siyosat ijtimoiy barqarorlikning juda muhim omili bo'ldi. Ainmo millatlararo munosabatlar qanchalik yaxshilanmasin, ijtimoiy-iqtisodiy omillar migratsiya jarayonlariga baribir o'z ta'sirini o'tkazmay qoimadi.

90-yillarning birinchi yarnidagi MDH hududida qatag'on qilinganlarning (repatriant) o'z tarixiy yurtiga qaytib keluvchilardan iborat migratsiya oqimlari ko'pchilikni tashkil qildi. O'zbekiston ham muayyan tarzda ushbu jarayon girdobida edi. Chetdan keluvchilarning anchagina qismi (37 %) o'zbeklar ekanligi shundan darak beradi. Bu jarayonlar 90-yillarning boshlarida ancha faol edi. Islohotlarning dastlabki uch yilda chetdan keluchilarning 40% i o'zbeklar edi. Yangi asrning boshlarida esa 17-19 % ni tashkil etdi, ayrim yillarda 35% ga ko'tarildi. Tashqi migratsiyada mamlakatning qatnashuvidanagi o'zgarishlar, shuningdek, qatag'on qilinganlarning oqlanish (repatriatsiya) jarayonlari va qaytib kelish migratsiyasining davom etishi bunga ta'sir qilib turdi.

Boshqa mamlakatlardan O'zbekistonga qaytuvchilar orasida ruslar (barcha yillar mobaynidagi umumiy miqdordan salkam 30%), qozoqlar (14%), tatarlar va tojiklar faolroq bo'lidi.

Chetdan keluvchilarning (immigrantlarning) kamayib borish tamoyili barcha millatlar, shu oqimni shakllantiruvchi ruslar orasida ham

namoyon bo'ldi. Ruslarning ulushi 90-yillar o'tasidagi 30-32 % dan 19-29% ga tushib qoldi. Butun rusiyabon aholiga shu holat taalluqlidir. Chetdan keluvchilar orasida qozoqlar (hozir ular qaytib keluvchilar (immigrantlar) ning 40% ini tashkil qiladi), tojiklar va qиргизларning ulushi ortib, ya'ni immigratsiya oqimida Markaziy Osiy mintaqasi axolisi, faoliyat qilmoqda.

Ana shu yangi tamoyillar Respublika jami axolisining milliy tarkibiga muayyan darajada ta'sir qilmoqda. Bu tarkibda Markaziy Osiyo tub millatlari vakillarining soni uzuksiz ko'payib bormoqda. Chunonchi, 1989-yilgi aholi ro'yxati o'tkazilgandan keyingi 15 yil mobaynida O'zbekistonda yashovchi qozoqlar 169,9 ming kishiga(21%), qиргизлар 52,5 ming kishiga (30%), turkmanlar 30,7 ming kishiga (25,2%), tojiklar 303,8 ming kishiga (32,5%) ko'paydi.

O'zbekistondan Rossiyaga ko'chib ketuvchilar oqimida O'rta Osiyoning tub millatlariga mansub bo'limgan aholi ko'pchilikni tashkil qiladi. Bundan tashqari, sotsiologik tadqiqotlarning natijalariga qaraganda, O'zbekistondagi milliy sabablariga asoslangan migratsiyaning potensiali ko'proq (40,9%), Qozog'istonda esa 31,9%, Qиргизистонда 34,2% ni tashkil qilar ekan.

90-yillarning oxiriga kelib ko'pgina etnoslarning ko'pchiligi ko'chib ketib bo'ldi. Chunonchi, 1989-yilgi aholi ro'yxatidan keyingi 15 yilda Respublika hududida yashovchi ruslarning soni 600 ming kishiga (1,6 baravar), ukrainlarning soni 56 ming kishiga (1,6 baravar), tatarlarning soni 381 ming kishiga (2,4 baravar) kamaydi. Mustaqil ekspertlar bundan ham kattaroq raqamlarni aytishmeqda. Ularning taxminicha, 1999-yilda ruslarning soni 843 ming kishiga (2 baravar), ukrainlarning soni 77 ming kishiga (2 baravar), yahudiylarning soni 50 ming kishiga (4,3 baravar), tatarlarning soni 337 ming kishiga (1,0 baravar) kamaygan va h.k. Raqarlardagi tafovutlarga qaramay, O'zbekistondagi emmigratsiya jarayonlari anchagini jadal davom etib, aholining turli qatlamlarini o'z ichiga olmoqda.

Hozirgi vaqtga kelib ayrim etnik guruhlarning deyarli hammasi (kurdlar, gruziular, ozarbayjonlar) deyarli batamom ko'chib ketib bo'ldi.

O'zbekistondan ko'chib ketgan tatarlarning anchaginasi repatriatsiya jarayonidagi qrim tatarlaridir. Ko'chuvchi tatar axolisining 25,2% i utarning ulushiga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga ke'ra 90-yillarda O'zbekistondan Qrimga 130 mingdan ko'proq qrim-tatarlari ko'chib ketdi, ularning bobolari fashizmga qarshi urush vaqtida O'rta Osiyoga

deportatsiya qilingan edi. Qrim tatarlarini repatriatsiyasi jarayoni hali tugagan yo'q.

Respublikada faol migratsiya jarayonlari natijasida rusiyzabon aholining umumiy migratsiya imkoniyati sezilarli darajada kamayganini ayтиб о'tмоq kerak.

Olis xorijga emmigratsiya qiluvchilar saimog'i unchalik katta emas va tobora kamayib bormoqda. Uning hajmi ko'p bo'lmasa ham, har holda O'zbekistonning dunyodagi turli mamlakatlar bilan munosabat bog'lashiga imkon bermoqda, bu hol O'zbekistonning migratsiya aloqalari hududiy jihatdan muayyan tarzda kengayib borishidan darak beradi. Umuman tahlil qilinayotgan davrda migratsiyaning salkam 10% i olis xorij mamlakatlariga to'g'ri kelmoqda, bu jarayon 14,9 % dan 2,6% gacha davom etmoqda. Bu ham asosan etnik migratsiyalardan iborat bo'lib, ko'proq yahudiylar, greklar va nemislarga to'g'ri keladi. O'tgan yillarda ularning ham migratsiya imkoniyatlari sezilarli ravishda pasaydi. 2000-yilga kelib O'zbekistonda ilgari yashab kelgan nemislarning 10-12 % i, yahudiylarning 3,5 % i, greklarning ko'pi bilan 5-8% i qoldi. 2008-yilga kelib bu ulush tag'in kamaydi.

Emmigratsiya jarayonlari aksariyat axolisi o'zbek bo'lмаган hududlarga ko'proq taalluqli bo'lib, aholining sonigagina emas, milliy tarkibiga ham ta'sir etadi. Avvalo, bunda Respublikaning poytaxt mintaqasi (Toshkent shahri va Toshkent viloyati) ko'zda tutiladi. O'zbekistondan ko'chib ketganlarning 48% idan ko'prog'i shu hududga to'g'ri keladi.

Keyingi yillarda asosan Qoraqalpog'iston Respublikasidan ko'chib ketuvchilar keskin ko'payganligi hisobiga poytaxt mintaqasining emmigratsiya sohasidagi ulushi birmuncha kamaydi. Orol dengiziga tutash hududlardagi yashash muhiti yomonlashuvi oqibatida kelib chiqqan ekologik muammo kabi bir qancha omillar bunga sabab bo'ldi.

MDHning boshqa Respublikalarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham tarixan vujudga kelgan ta'sir etuvchi an'anaviy omillardan tashqari hozirgi zamon migratsiya oqimlari hajmida, ularning tarkibi, yo'nalishida, migratsiya jarayonlarining xarakterida va migrantlarning xulq-atvori asoslarda, ayniqsa, bepoyon sobiq mamlakat barbos bo'lib, yangi mustaqil davlatlar vujudga kelgan davrda etnik omillar yaqqol yuzaga chiqib qoldi.

Zamonaviy o'zgarish jarayonlari mamlakat tub joy axolisining ham migratsiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Joriy hisob-kitob ma'lumotlariga ko'ra, 1991-2008-yillar mobaynida o'zbeklarning

migratsiyasi yalpi hajmi Respublikadagi jami tashqi migratsiyaning qariyb 15% ini tashkil qiladi. Bu asosan shaharlarning axolisi bo'lib, shuning uchdan ikki qismi immigratsiyaga va uchdan biri emmigratsiyaga to'g'ri keladi.

90-yillarning boshlarida o'zbeklarning emmigratsiya oqimi Yuqoriqoq edi, ammo 90-yillarning o'rtalariga kelib, u yiliga 4-5 ming kishidan oshinay qoldi, bu raqam ilk davrdagidan 3,6-3,7 baravar kamdir. Ana shu tamoyilni rossiyalik tadqiqotchilar qayd etdilar. J.A. Zayorichkovskayaning hisobiashicha, 80-90-yillar oralig'ida Rossiyada sobiq SSSRdagи deyarli barcha asosiy millatlar bilan salbiy savdo qayd etilgan bo'lsa, 90-yillarning o'rtalariga kelib, aksincha, istisnosiz barcha millat vakiularining immigratsiya oqimi boshlandi. Keyingi yillarda keluvchilar tarkibida ham, ketuvchilar orasida ham o'zbeklar soni izchil kamayib borayotir (ayrim yillar bundan mustasno). Umuman olganda esa, hozir O'zbekistondan emmigratsiya hajmlarida o'zbek axolisining ulushi 5-7% dan oshmayapti.

Tashqi migratsiya aloqalarida O'zbekiston o'z tub joy axolisining bir qisimidan mahrum bo'lmoqda, MDH mamlakatlari bilan ham, olis xorij mamlakatlari bilan ham almashuvda salbiy savdo sodir bo'lmoqda. Uning hajmi unchalik katta emas. Ammo aholi emmigratsiyasining umumiyligi milliy elita (eng o'qimishli ziyoli va mutaxassislar)ni ham o'z ichiga oldi. Sotsiologik tadqiqotla ko'rsatishicha, yosh, ishchan, o'qimishli, malakali aholi orasidan ayrim shaxslarning AQSH, Germaniya, Belgiya, Angliya, BAA va boshqa mamlakatlarga jo'nab ketishi yoki jo'nash niyati kuzatilmogda va ular o'sha mamlakatlarga berib vaqtincha yashash huquqini yoki fuqarolikni olmoqda ham. Keyingi yillarda tashqi migratsiyalarda ko'pincha ba'zilari sho'rolar davrida obro'li oliy o'quv yurtlarida ta'lif olib, Yuqori saviyali ma'lumotga ega bo'lgan o'rta tabaqaga mansub etuk yoshdag'i o'zbeklar ham ishtirok etmoqdalar.

Emmigratsiya uchun jozibador mamlakatlar orasida Rossiya, asosan Moskva, Sankt-Peterburg, Kaliningrad, Volgabo'yи shaharlari katta o'rin oladi. Ammo Rossiya bu o'rinda o'zining mavqeini yo'qota boshladi. Bu sohada Chechenistondagi urush, shuningdek, Rossiyaning turli mintaqalarida sodir bo'lgan ko'pgina terrorchilik harakatlarining ta'siri bo'ldi, bunday hodisalar farzandlarning kelajagini xavf ostida qoldirar edi. Lekin haribir Rossiya rusiyabzon aholi uchun asosiy migratsiya oqimi makoniligicha qolayotir.

Sotsiologiya so'rovi ma'lumotlariga ko'ra, tub joy axolisi Rossiyaga doimiy yashash uchun emas, muayyan bir davr mobaynida – ishlab pul topish uchun borishni afzal ko'tadi. Respublikamizda erkaklarning yosh avlodи vaqtı-vaqtı bilan Rossiyaga ishlash uchun borib kelayotgan oilar topora ko'payib borayapti. Aralash rusiyabon oilalarning bir qismi doimiy yashash uchun Rossiyaga ko'chib borishni istaydi.

MDH hududidagi Respublikalar bilan migratsiya aloqalari murakkablashuvi, migratsiya maqsadlarini amalgga oshirishdagi tashkiliy-huquqiy, moliyaviy, lisoniy to'siqlar, jahon mehnat bozoridagi kuchli raqobat sharoitida potensial migrantlarning o'z qarorini o'zgartirishi kabi omillar tub joy axolisining emmigratsiya jarayonlaridagi ishtirokiga halaqit bermoqda. Migratsiyaning moliyaviy jihatlari ham topora katta ahamiyat kasb etmoqda. Hatto o'z mamlakati doirasida ham yangi istiqomat joyiga ko'chish anchagini mablag' talab qiladi va shu sababli ko'pgina kishilar buning uddasidan chiqolmaydi.

Respublikada aholining migratsiyasi 1994-yilda eng Yuqori darajaga ko'tarildi. O'sha yili 179,2 ming kishi ko'chib ketgan bo'lsa, 38,0 ming kishi chetdan ko'chib keldi.

1990-1998-yillarda O'zbekistondan 600 mingdan ko'proq kishi, shundan 81,4 % i MDH mamlakatlariga va Boltiqbo'yiga, 18,6 % i olis xorij mamlakatlariga ko'chdi. Rossiya migratsiya jarayonlarida O'zbekistonning asosiy sherigi(partnyor) bo'lib, unda migrantlarning hissasi 70-75 % ni tashkil qiladi. Rossiya mintaqalari ichida Moskva, Voronej, Saratov, Tambov, Samara, Tula, Nijniy Novgorod guberniyalari va Moskva shahri ko'proq afzal ko'rilmoxda.

Industrializatsiya, II jahon urushi, 1999-yil zilzila yillarida O'zbekistonga ko'chib kelgan ruslardan yarim millioni 1990-1998-yillarda o'z tarixiy vataniga ko'chib ketdi. O'sha yillarda MDH tashqarisiga (Isroil, Germaniya) emmigratsiya asosan etnik xaraktyerde edi.

Keyingi yillarda O'zbekiston axolisi milliy tarkibidagi o'zgarishlar, avvalo, rusiyabon aholi – ruslar, ukrainlar, beloruslar, yahudiylar (yevropalik va o'rta osiyolik yahudiylar)ning, shuningdek, tatarlar, shu jumladan, qrim tatarlarining Respublikadan ko'chib ketishi bilan bog'liq bo'ldi. Respublikadagi ahvol bilan bog'liq bo'lmanan sabablarga ko'ra nemislar, mesxeti turklari va boshqalar ham ko'chib ketishdi.

Keyingi yillarda asosan Markaziy Osiyo Respublikalaridagi o'zbeklar va 90-yillarda fuqarolar urushi sodir bo'lib, hamon ijtimoiy-

iqtisodiy ahvol juda mushkul bo'lib turgan Tojikistondan tojiklar doimiy yashash uchun O'zbekistonga ko'chib kelmoqdalar.

Mahalliy millatlar vakillari (o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, tojiklar va turkmanalar) ning ulushi tez sur'atlar bilan ko'payib bordi (1989-1995-yillarda ular 4,4 punkt oshdi) va qariyb 20 million kishiga etdi. Bunday o'sish asosan ular orasida tug'ilishning nisbatan Yuqori darajada bo'lishi hisobiga ro'y berdi.

Yahudiy va nemislarning emmigratsiyasi MDHning barcha Respublikalarida sodir bo'ldi, ular asosan O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishuvidan avvalroq, 1991-yilgacha ko'cha boshlagan edi. Tatarlarning ulushi qrim tatarlari hisobiga kamaydi, ular urush vaqtida O'zbekistonga ko'chirilgan va 1980-yillarning oxirida Qrimga qaytib ketishga rasmiy ruxsat olgan edi. Qozon tatarlarining bir qismi ham Rossiyaga ko'chib ketdi.

Ruslar xususida shuni aytish kerakki, ularning ham ulushi qisqargan bo'lsa-da, ammo juda ham kamayib ketgani yo'q. Sirasini aytganda, umuman 1989-1995-yillardagi qisqarish (- 2 punkt)ni 1979-1989-yillardagi ko'rsatkichga (- 2,5punkt) deyarli teng desa bo'ladi. Boshqa barcha millat vakillarining yarmidan ko'prog'i hali ham ruslardan iborat.

1995-yilda Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlarda migratsiya jarayoni ko'proq o'z mamlakatlari doirasida amalga oshdi. Ammo MDHning o'zga mamlakatlardan baribir ko'pgina kishilar ko'chib kelar va ko'chib ketar edi. Mutlaq hajmda ham, nisbiy hajmlarda ham olganda migratsiya Qozog'istonda eng ko'p miqdorda sodir bo'lar edi. Bu mamlakatning migratsion aloqalarini Markaziy Osiyodagi boshqa to'rtta Respublikaning migratsiya aloqalarini birga qo'shganda ham, ulardan ortiq edi.

Agar Sovet Ittifoqi barbod bo'lganidan keyin (1991-1996-yillarda) sobiq SSSR mamlakatlariiga Markaziy Osiyodan borgan migrantlarning umumiy soni ko'rib chiqilsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 691 340 kishini tashkil etadi.

O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichida alohida e'tiborini migratsiya jarayonlarga qaratdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyul "Ichki ishlar organlarining migratsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylarshtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 26-dekabrda "Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini (Bryussel, 1953-yil 19-oktobr) ratifikatsiya qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonunini qabul qilinishi, 2018-yil 5-iyul O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migrantsiya tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish, ichki ishlar organlarining migrantsiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish va boshqa tashkiliy ishlar belgilandi va amalga oshirildi.

O‘zbekistonda doimiy istiqomat qiluvchi aholi soni 1-yanvar holatiga ko‘ra 32 million 653,9 ming kishini tashkil etib, 2017-yil davomida 533,4 ming kishiga yoki 1,7 foizga ko‘paydi. Bu haqda Davlat statistika qo‘mitasi Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi xabar qildi.

Shahar axolisi soni 16 million 533,9 ming kishiga etib, umumiy aholi sonining 50,6 foizini tashkil etgan bo‘lsa, qishloq axolisi 16 million 120 ming kishiga yoki 49,4 foizga etdi.

Viloyatlar kesimida Samarqand viloyatida aholi soning eng ko‘pni tashkil etdi — 3 million 719,6 ming kishi (Respublika axolisining 11,4 foizi). Bu ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatida 3 million 620,1 ming kishi (11,1 foiz), Qashqadaryo viloyatida 3 million 148,1 ming kishi (9,6 foiz) va Andijon viloyatida — 3 million 11,6 ming kishini (9,2 foiz) tashkil etdi.

2017-yilda 715, 5 ming go‘dak dunyoga keldi. Tug‘ilish koeffitsiyenti 1000 kishiga 22,1 promilleni tashkil etib, 2016-yil bilan solishtirilganda tug‘ilish koeffitsienti 0,7 promillega kamaygan.

2017-yilda eng ko‘p tug‘ilish Surxondaryo viloyatida qayd etilgan bo‘lib, ko‘payish har ming kishiga 25,7 dan 25,9 promillega oshgan. Qoraqalpog‘istonda esa 21,9 dan 20,7 promille, Farg‘onada — 22,2 dan 21ga, Toshkent viloyatida — 20,3 dan 19,2ga, Xorazmda — 22,2 dan 21ga, Buxoroda 20,9 dan 20 ga va Jizzaxda 24,5 dan 23,6 ga tushish kuzatildi.

Yil davomida 161,5 ming o‘lim ro‘yxatga olindi. O‘lim koeffitsienti 2016-yildagidan 0,1 promillega oshib, 5 promilleni tashkil etdi.

Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Farg‘ona va Surxondaryoda o‘lim koeffitsienti birmuncha ko‘tarilgan. Jami vafot etganlarning 8,2 foizi mehnatga layoqatlilik yoshidan kichiklarni tashkil etsa, 27,6 foizi mehnatga layoqatga ega bo‘lgan yoshdagilardan iborat.

2017-yilda vafot etganlarning 59,9 foizi qon aylanish kasalliklari, 9,3 foizi yangi paydo bo‘lgan xastaliklar, 6,5 foizi baxtsiz hodisalar,

zaharlanish va jarohatlanishdan, 5,7 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari, 4,8 foizi nafas olish kasalliklari, 1,7 foizi infeksion va parazitar kasalliklar hamda 12,1 foizi boshqa turli xastaliklardan olamdan ko'z yumgan.

Aholining tabiiy ko'payishi 554 ming kishini tashkil etib, 2016-yil bilan taqqoslaganda 17,4 ming kishiga kamaygan (571,4 ming kishi).

2017-yil davomida FHDYO organlari tomonidan 306 ming nikoh qayd etildi. Surxondaryo (+26,6%), Jizzax va Namangan (+15,9%), Samarqand (+12,3%) va Qashqdaryo viloyatlarida (+11,2%) yangi oilalar soni bo'yicha o'sish qayd etilgan.

Yil davomida turmush qurgan qizlarning 21,6 foizi 20 yoshgacha, 70,2 foizi 20–29 yoshgacha, 8,2 foizi esa 30 va undan Yuqori yoshda bo'lgan. Erkaklar orasida 0,9 foizi 20 yoshgacha uylangan bo'lsa, 83,5 foizi 20–29 yosh, 15,6 foizi esa 30 va undan Yuqori yoshdagilardan iborat bo'ldi.

Shu bilan birga, 2017-yil davomida FHDYO organlari 31,9 ming ajrimni ro'yxatga oldi. Ajrashishlar soni Surxondaryo (+28,6%), Jizzax va Sirdaryo (+22,2%), Samarqand (+21,2%), Namangan (19%) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (+18,2%) oshgan.

Yil davomida mamlakatga kelganlar soni 157,1 ming, chiqib ketganlar — 177,7 ming kishini, migratsiya savdosi esa -20,6 ming kishini tashkil etdi.

Toshkent viloyatida (-6200 kishi), Samarqand (-5200 kishi), Qashqdaryo viloyati (-4000 kishi) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (-4400 kishi) eng Yuqori migratsiya savdosi qayd etildi.

Xorijdan kelgallarning 36,4 foizi Qozog'iston, 31 foizi Rossiyadan, 18,1 foizi Tojikistondan, 3,3 foizi Turkmanistondan, 1,6 foizi Qirg'izistondan, 9,6 foizi esa boshqa davlatlardan.

Xorijga yo'l olganlarning 52,2 foizi Rossiya, 42 foizi Qozog'iston, 0,5 foizi Qirg'iziston va Tojikiston, 0,4 foizi Ukraina, 4,4 foizi boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonga 2094 kishi doimiy yashash uchun kelgan bo'lsa, xorijiy davlatlarga 21,1 ming kishi doimiy yashashga chiqib ketgan.

### Savol va topshiriqlar:

1. Hozirgi zamon sharoitida O'zbekistonda Respublika ichki migratsiyasining qanday oqimlari bor?
2. O'zbekiston sharoitida qishloq-shahar migratsiyasining o'ziga xos qaysi xususiyatlarini bilasiz?

3. O'zbekistonning qaysi mintaqasi aholi zichligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi?
4. Qishloq-shahar migratsiyasining yo'nalishlarini va unda yoshlarning ishtirokini aytib bering.
5. Tebranma oqimlar shakllanishining qanday asosiy qonuniyatlaribor?
6. Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasining milliy tarkibi qanday?
7. O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrining milliy tarkibi qanday?
8. O'zbekistondagi qaysi millatlar repatriatsiya doirasiga tushdi, ya'ni o'z tarixiy yurtiga jo'nab ketdi?
9. O'zbekistondan ko'chib ketuvchilar oqimida qaysi millatlar ko'pchilikni tashkil qiladi?
10. Emigratsiya jarayonlarida o'zbeklar ishtirok etayaptilarmi?
11. Respublika axolisi tarkibida o'beklarning ulushi oshib borayotganini qanday izohlaysiz?

**Kalit so'zlar:**

Ichki, tashqi, mehnat migratsiyasi, emmigratsiya, aholi milliy tarkibi, migratsiya xizmati, bandlik, migratsiya siyosati.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Maksakova L.P. Migratsiya naseleniya Respubliki Uzbekistan. – Tashkent: Eldinur, 2000.
2. Trudovaya migratsiya v Respublike Uzbekistan. Otv.red. Abdullayev B. – Tashkent, 2008.
3. Murtazayeva R.X. Migratsionnye protsessy v Uzbekistane v konse XX – nachale XXI vekov: istoricheskie sobytiya i novye tendensii (uchebnoe posobie dlya magistrov). – Germaniya: Lambert, 2015. – 15,6 p.l.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Trudovaya migratsiya v SNG: sotsialnye i ekonomicheskie effekty. / otv.red.J.Zayonchkovskaya // Sentr izucheniya problem vymijdennoj migratsii v SNG. Nezavisimyy issledovatelskiy Sovet po migratsii stran SNG i Baltii. Institut narodnohoz. prognozirovaniya RAN. – M., 2008. – 288 s.
2. Migratsiya i tymok truda v stranax Sredney Azii. Materialy regionalnogo seminara 11-12-oktobra 2001 g. Tashkent. //

otv.red.J.Zayonchkovskaya // Sentr izucheniya problem vlyuijdennoy migratsii v SNG. Nezavisimyy issledovatelskiy Sovet po migratsii stran SNG i Baltii. Sentr effektivnoy ekonomiceskoy politiki Minmakroekonomstata Respubliki Uzbekistan. – Tashkent, 2002.-180 s.

3. Migratsionnaya situatsiya v stranax SNG.  
otv.red.J.Zayonchkovskaya // Sentr izucheniya problem vlyuijdennoy migratsii v SNG.

4. Ata-Mirzayev A.B. Narodonaselenie Uzbekistana: istoriya i sovremennost. – Tashkent. // Ijtimoiy fikr, 2009.

5. Ubaydullayeva R.A., Ata-Mirzayev O.B., Umarova N. O'zbekistonda demografik jarayonlar va aholi bandligi. – Toshkent: Universitet, 2003.

## **14-mavzu. O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK JARAYONLAR VA AHOLI TARKIBIDA YOSHLAR ULUSHI**

### **Reja:**

1. Respublika aholi o'sishi dinamikasi.
2. Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta'siri.

#### **1. Respublika aholi o'sishi dinamikasi**

2018-yil davomida O'zbekiston axolisi 597 mingdan ziyodroqqa ko'payib, 33 254 100 kishini tashkil etdi.

O'zbekistonning doimiy axolisi soni 1-yanvar 2019-yil holatiga 33 254 100 kishini tashkil etib, 2018-yilda 597 4 000 kishiga yoki 1,8% o'sdi. Bu haqida Davlat statistika qo'mitasining demografik vaziyatga bag'ishlangan hisobotida so'z boradi.

Jumladan, shahar axolisi soni 16,804 mln kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,5%), qishloq axolisi soni esa 16,449 mln. kishini (49,5%) tashkil etdi.

Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki. O'zbekiston bo'yicha 1 km<sup>2</sup> ga 74,1 kishi, aholining eng zich joylashuvi Andijon (1 km<sup>2</sup> ga 713,2 kishi), Farg'ona (1 km<sup>2</sup> ga 544,8 kishi), Namangan (1 km<sup>2</sup> ga 370 kishi) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Navoiy viloyati (1 km<sup>2</sup> ga 11,2 kishi) to'g'ri kelmoqda.

Respublika doimiy aholi sonining 30,3% mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 59,5% mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,2; mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 613,6 ming kishini tashkil etib, 2017-y. mos davriga nisbatan 58,8 ming kishiga (2017-yilning yanvar-dekabr oylarida 554,8 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

2018-yil yanvar-dekabr oylarida Respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 160 ming kishini (157,2 ming kishi Respublika hududlaridan, 2,8 ming kishi xorijiy mamlakatlardan) ko'chib ketganlar soni esa 176,2 ming kishini (157,2 ming kishi Respublika hududlariga, 19 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya savdosi minus 16,2 ming kishi bo'lib, 2017-yilning mos davrida minus 18,6 ming kishi bo'lgan<sup>19</sup>.

<sup>19</sup> Gazeta.uz, 2019 йил 18 январь.

Aholining tabiiy harakati va tashqi migratsiyasi, shubhasiz, Respublika axolisi umumiy va hududiy rivojlanishini belgilab bermoqda.

Shu boisdan, viloyatlar aholi soni salmog'i jihatdan bir-biridan katta farq qiladi. Bunday mintaqalar o'tasidagi nomutanosiblikka ma'lum darajada ularning geografik o'mi, ma'muriy-hududiy chegaralarining o'zgarishi, tarixiy rivojlanishi, o'ziga xes tabiiy-geografik sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik salohiyati, hududiy tarkibi, aholi joylashuvida turli shakllarning mavjudligi kabi xususiyatlar ham sabab bo'lgan.

Mutaxassis Z.Tojiyevani tahlili natijalari, 2000-2005-yillarda Respublikaning 8 ta viloyatida aholi o'rtacha yoshiga ko'ra quyidagi uchta guruhg'a ajratildi:

- axolisi (2005-2015-y.) nisbatan ko'payayotgan mintaqalar (yiliga o'rtacha 0,7 % dan kam): Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri;
- axolisi o'rtacha sur'atda ko'payayotgan viloyatlar (0,7-0,8 %); Buxoro, Jizzax, Xorazm viloyatlari;

— o'sish sur'ati yuqori (0,9 % va undan baland) darajada bo'lgan mintaqalar: Andijon, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari. Aholi soni o'sish sur'atlaridagi bunday farqlar mazkur hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq holda ro'y bermoqda.

Barcha viloyatlarda aholi umumiy soni 1,3-1,5 barobarga ko'payishiga qaramasdan, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati muntazam pasayib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy harakati nisbatan yuqori bo'lgan. Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida ham bu jarayon yanada jadal ro'y bermoqda.

Aholi tabiiy va mexanik harakatining turli sur'atda rivojlanishi, mintaqalar axolisining mamlakat umumiy axolisidagi ulushini belgilab beradi. Jumladan, Farg'ona demografik rayonining axolisi 1989-yilda Respublika jami axolisining 26,8 %ini, 2016-yilda 28,5% ini o'zida mujassamtashtirgan holda, O'zbekistonning 4,1 % hududida joylashgan bo'lib, kv.km joyga, o'rtacha 415,2 kishidan to'g'ri keladi. Bulardan Respublika umumiy maydonining atigi 1,5 foizini qamrab olgan Farg'ona viloyatida umummamlakat axolisining eng katta ulushi, ya'ni 11,1 %; qishloq axolisining 9,4 % istiqomat qifadi. Shuningdek, Andijon viloyatida umummamlakat axolisining 9,4 %, Namangan viloyatida 8,2 % joylashgan. Ko'rileyotgen viloyatlar maydoni ulushi kichik bo'lishiga qaramay, hududiy tarkibda eng ko'p aholini qamrab olish va u yanada ortib borish bilan ajralib turadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri axolisining hududiy mujassamlashuv darajasi pasayib borishi kuzatildi. Bu aholi tabiiy ko'payishining sustligi va chetga ko'plab ko'chib ketish jarayonlari bilan bog'liqdir. Mazkur mintaqalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati mamlakat umumiy maydonining katta qismini, ya'ni 62 foizini egallaydi. Ayni vaqtida, qolgan barcha viloyatlar axolisining Respublika jami axolisidagi salmog'i ortganligi va turlicha taqsimlanganligi kuzatiladi. Masalan, Janubiy demogeografik rayon tarkibiga kiruvchi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari axolisining ulushi (17,2 %, 2016-y.) 1,0-1,2 punktga ko'paygan bo'lsa, boshqa viloyatlarda bu ko'rsatkich 0,1-1,5 punktga to'g'ri keladi. Surxondaryo viloyatida, atigi 7,6 foiz Respublika axolisi yashaydi va bu viloyat nafaqat umumiy, balki 2009-yilga qadar qishloq axolisi o'sish sur'ati Yuqoriligi bilan ham ko'zga tashlanib kelgan. Shuningdek, mamlakat axolisi hududiy tarkibida Samarqand viloyati ulushi (11,6 %) nisbatan katta. O'zbekistonda egallagan er maydoni ko'pgina qismi cho'llardan iborat bo'lgan Navoiy (3,0 %), Jizzax (4,1 %), Sirdaryo (2,5 %) viloyatlarining har biri Respublika jami axolisining 4 foizini ham tashkil etmaydi. Aholining aksariyati, sug'orina dehqonchilikka asoslangan vodiylarda, o'rta, katta va yirik shaharlarda joylashgan. Ushbu viloyatlar umummamlakat maydonining 30,4 foizini egallagan holda, hamon mavsumiy xususiyatga ega bo'lgan ishchi kuchi etishmasligi muammosiga duch kelishmoqda. 1989-2008-yillar oraliq'ida barcha viloyatlar shahar axolisi uchun uning mutlaq miqdori muttasil ortib borishi, biroq urbanizatsiya darajasi pasayib borishi xos bo'lidi. Masalan, 1989-yilda shahar axolisining jami aholidagi salmog'i 40,7 foiz bo'lgan bo'lsa, 2008-yilda 36 foizga tushdi, uning o'rtacha yillik ko'payishi 1989-1995-yilda 1,25 foizni, 2000-2005-yilda 0,60 foizga teng bo'lidi. Respublika umumiy axolisida 2009-yildan shahar axolisining ulushi 52 foizga ko'tarildi.<sup>20</sup> Shahar axolisining jami mamlakat axolisidagi salmog'ini ortishi oqibatida, Namangan, Andijon, Farg'on'a viloyatlari axolisida shahar axolisining ulushi 50 foiz va undan balandni tashkil etmoqda. Ayni chog'da, Buxoro, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand viloyatlarida urbanizatsiya darajasi 40 foizga ham bormaydi. Buni ushbu viloyatlar axolisi tabiiy, mexanik harakati, qishloq xo'jaligi tarmog'ining yaxshi rivojlanganligi va uni taraqqiy ettirish uchun qulay imkoniyatlar mavjudligi kabi omillar bilan belgilash mumkin.

<sup>20</sup> З.Н.Тожиева. Ўзбекистон ахолиси: ўсими ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Ташкент: Фан ва технология, 2010. – Б.144-145.

Jumladan, Andijon (9,5 %), Namangan (10,2 %), Toshkent (8,6 %), Farg'ona (12,4 %) va Samarqand (8,5 %) kabi "demografik yuki" og'ir viloyatlar Respublikada shahar axolisi ulushi kattaligiga ko'ra yetakchilardan hisoblanadi. Andijon, Namangan, Surxondaryo, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlari shahar axolisi mujassamlashuv darajasida o'sish ro'y berdi, qolganlari esa o'zgarishsiz qolmoqda. Bunga sabab, ushbu viloyatlarda O'zbekistonning yirik shaharlari, sanoat korxonalarini rivojlanganligi va to'planganligi hamda qadimdan shahar turmush tarzining mavjudligidir.

Qishloq axolisi dinamikasi tahlili, o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab shahar axolisi o'sish sur'ati qishloq axolisidan orqada qola boshlaganligini ko'rsatadi. Sababi, ushbu yillardan aholi tabiiy harakatining o'ta faolligi, ya'ni qishloq joylarda farzandlar tug'ilishining keskin ko'payishi va o'lim darajasining asta-sekin kamaya borishi natijasida, aholi sonining ortishi kuzatilgan. Qolaversa, o'sha davrlarda tug'ilganlar 1980-yillardan boshlab aholi takror barpo bo'lish jarayonida bevosita ishtirok eta boslashi va ularda ham tabiiy harakatning Yuqoriligi qishloq axolisi salmog'iда o'z aksini topdi. Bu jarayon 2008-yilgacha davom etganligi bois, 1989-2008-yillarda qishloq axolisining o'sish sur'ati 148,2 foizga teng bo'lди. Ma'muriy-hududiy o'zgarishlar tufayli, 2008-2009-yillarda qishloq axolisi mutlaq miqdori 4076,6 ming kishiga kamaydi yoki jami aholidagi salmog'i 64,1 foizdan 48,3 foizga o'zgardi.

Mamlakat qishloq axolisi soni va salmog'i qator yillarda katta ko'rsatkichlarni tashkil etgan bo'lsada, uning o'rtacha yillik ko'payishi sur'ati yildan-yilga kamayib bordi. 1989-1995-yillarda qishloq axolisining o'rtacha yillik ko'payishi 2,75 %, 1995-2000-yilda 2,15 %, 2000-2005-yilda 1,60 %, 1989-2009-yilda 0,6 foizga teng bo'lди. 1989-1995-yillarda viloyatlarning 30,7 foizida aholi o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 3 % ni, 61,5 % ida esa 2 % va undan baland bo'lgan bo'lsa, 2000-2005-yillarda bironta viloyat qishloq axolisida bunday holat qayd etilmaydi. Qishloq axolisi o'sish sur'ati Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida nafaqat, Yuqori, balki umumRespublika darjasidan ham baland bo'lgan. Aynan shu hududlar axolisi mamlakat demografik rivojlanishidagi mintaqaviy xususiyatlarni belgilab beradi. Chunki, bu viloyatlarda qishloq axolisining ko'payish darjasи boshqa viloyatlardagiga o'xshab keskin pasayib borganda, mamlakat axolisining o'sishi ancha tushgan bo'lar edi.

Z.N.Tojiyeva tadqiqotlari tahliliga qaraganda, qishloq joylar demografik vaziyati bir-biridan keskin farq qilmaydi. Biroq,qishloq

axolisining hududiy mujassamlashuv darajasidagi o'zgarishlar har bir viloyat demografik salohiyatining o'ziga xosligidan, dalolat beradi. Jumladan, 2009-yilga qadar janubiy demogeografik rayonda, Respublika qishloq axolisining 1/5 qismi yashagan. 1989-2008-yillar davomida faqat mana shu rayon qishloq axolisining hududiy mujassamlashuv darajasi oshib borgan. Aksincha, Farg'ona demogeografik rayoni va Navoiy, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari qishloq axolisida hududiy mujassamlashuv darajasi sekin-asta pasayib borgan bo'lsa, qolgan viloyatlarda bu ko'rsatkich o'zgarmay qolgan. 2009-yildan qishloq axolisining jami aholidagi ulushi barcha viloyatlarda kamaydi, biroq, hamon Samarqand, Surxondaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlari axolisi tarkibida qishloq axolisi salmog'i ustun. Aynan shu viloyatlar Respublika qishloq axolisining 39,1 foizini o'ziga qamrab olgan. Ushbu viloyatlar axolisining 60 foiz va undan ko'pini qishloq axolisi tashkil etadi. Qolgan viloyatlarda shahar axolisi ulushi nisbatan ko'p. Aksincha, Namangan (36,1 %), Farg'ona (42,6 %) va Andijon (47,3 %) viloyatlari axolisi tarkibida qishloq axolisi hissasi shahar axolisinikiga nisbatan kam.<sup>21</sup>

Mazkur viloyatlarda yirik sanoat korxonalari joylanishi va rivojlanganligining, axolisi milliy, yosh-jinsiy tarkibiga ko'ra birmuncha farq qilishi, shahar turmush tarzining kengroq taraqqiy etganligi va oxirgi yildagi ma'muriy-hududiy tuzilishdagi o'zgarishlar aholi hududiy tarkibida bevosita aks etmoqda. Respublika axolisi o'sishi va joylanishida nafaqat, uning shahar va qishloqlarga taqsimlanishi, balki hududlarning relef ko'rinishi, ya'ni yer yuzasi tuzilishi, tabiiy xo'jaligi xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Tog', cho'l tekislik hududlari demografik jarayonlari o'ziga xos bo'lib, ma'lum qonuniyatlarni oshib beradi. Bu borada, sof tog'li zona; tipik cho'lli; aralash zonalarda aholi o'sishi va joylanishidagi hududiy omilning ta'siri yaqqol ifodalanadi. Birinchi zona aholi soni, salmog'i nisbatan kichik bo'lishiga qaramay, demografik vaziyati, demografik salohiyati, demografik qarashlari bilan II va III-zona axolisidan tubdan farqlanadi. Tog'li zona, egallagan maydoni asosiy relef shakliga ko'ra tog'lardan iboratligi, aholi yashashi uchun biroz noqulaylik tug'diradi. Iqtisodiy-demografik sig'im imkoniyati ancha cheklangan ushbu zonada joylashgan tumaniyor asosan, chorvachilik, bog'dorchilik, o'rmon xo'jaligi va uzumchilikka ixtisoslashgan bo'lib, Respublika hududining atigi, 11,1 %, axolisining 7,0 % ini mujassamlashtirgan holda, aholi soni va zichligining 1991-

<sup>21</sup>3.H.Тожиева. – 150 б.

2015-yillarda, eng katta 160,9 % ga o'sishi qayd etiladi. Bu zonadagi Bo'stonliq, Urg'ut tumanlarida aholi soni nisbatan ko'p, Ohangaron, Sux, Yangiobod, Nurota, Forishda aksincha, aholi soni oz. Shuningdek, Sux, Bulung'ur, Baxmal, Qo'shrobod, Nurota, Urgut, Boysun va Forish tumanlari axolisining tabiiy ko'payishi hatto mamlakat miqyosida ham Yuqori darajada. Mazkur hududlarda avvalo aholining milliy tarkibi va milliy xususiyatlarining hamon saqlanib kelinayotganligi, axolisi deyarli 100 foiz mahalliy millat vakillaridan iboratligi, qishloq turmush tarzi, ayollarning asosan uy-bekasi ekanligi, urbanizatsiya darajasi pastligi, milliy an'ana va urf-odatlarning keng yoyilganligi, aholimexanikharakati sustligi bois, aholi soni muntazam o'sib bormoqda. Natijada, tog'li zonaning qarovsiz tog' yon bag'irlari, qir va adirlari, unumdar yaylovlari uy-joylar qurish, xo'jalikda foydalinish uchun tobora o'zlashtirilmoqda, aholi zichligi ortmoqda. Bu esa, hozirdan yer, suv, ekologiya muammolarini keltirib chiqarmoqda, chorvachilikdan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlari narxining ko'tarilib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinci zonaga tegishli hududining asosiy qismi cho'llardan iborat bo'lgan viloyatlar kiritildi. U Respublika umumiy maydonining 71,8 foizini, axolisining 16,9 foizini qamrab oladi. Bu zona tipik cho'l hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo viloyatlari) maydonini egallanligi tufayli, uni cho'l zonasasi, deb atash to'g'ri bo'ladi. Ushbu hududlar Respublikada eng katta yer maydonlariga (Sirdaryo bundan mustasno), boy tabiiy resurslarga ega, ammo zichlik ko'rsatkichi tog'li zonaga qaraganda 2,6; jami mamlakat axolisiga nisbatan 4,1-martaga kam, zichlik ko'rsatkichining o'sish sur'ati ham past (133,0 %).

Umummamlakat axolisi salmog'ida ulushi muntazam qisqarib borayotgan, axolisi tarqoq va siyrak joylashgan cho'l zonasida aholi punktlari ko'p (jami mamlakatdagi qishloqlarning 32,1 foizi), hududlarni o'zlashtirish imkoniyati Yuqori. Kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy soha va tarmoqlarda aholi soni yetishmasligi muammolari ushbu hududlarda dastavval yuzaga kelishi mumkin.

III- zona mamlakat umumiy maydonining 17,1 %, axolisining 76,1 % ini mujassamlashtirgan, axolisi eng zich joylashgan (kv.kmga, 292,3 kishi, 2015-yil), qadimdan sug'orilib dehqonchilik qilinayotgan voha va vodiy hududlaridan iborat. 1991-2015-yillarda zichlik ko'rsatkichining 144,3 foizga o'sishi, demografik sig'im imkoniyati kattaligini ko'rsatadi. Mazkur zonada aholi punktlari yirik, unda aholi ko'p va ,g'uj to'planganligini hisobga olib, yangi ish o'rinnari tashkil etish; aholini ish

bilan ta'minlash; ko'p ishchi kuchi va ilm talab korxonalarini (mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat, radio-elektronika, qurilish materiallari) qurishga, mavjudlarini modernizatsiyalashga; qishloq joylarda sanoat korxonalarining filial, sexlarini ochishga ustuvor ahamiyat berish lozim.

Shahar va qishloq axolisining jami aholidagi nisbat 52 va 48 foiz bo'lga holda, shahar va shahar aholi punktlari uchun ming kishiga 20 ga, qishloq aholi punktlari uchun ming kishiga 50 ga teng, bunda sanoat transport, mahsus binolar egallagan maydonlar, umuman aholi yashashi noqulay bo'lgan yerlar maydoni jami aholi punktlarining 35-40 foizini tashkil etadi.

So'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy omillar va demografik jarayonlar tufayli, Respublika aholi zichligi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 1991-yilda 1 km.kv. joyga o'rtacha 46 kishi to'g'ri kelgan holda, 2016-yilda bu ko'rsatkich 70,3 kishiga teng bo'ldi yoki 150,2 % ga o'sdi, o'rtacha yillik ko'payishi 1,75 % ni tashkil etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatlarida aholi juda siyrak joylashgan bo'lsada, 1989-2016-yillarda uning 147,3; 144,2 foizga o'sganligi kuzatiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Mo'ynoq, Taxtako'pir, Qo'ng'irot tumanlari axolisining o'rtacha zichligi mamlakatda eng kam, ya'ni 1-3 kishi atrofida. Mazkur tumanlar har biri maydoni O'zbekistondagi bitta yoki ikkita viloyat maydoniga tengligini hisobga oladigan bo'lsak, aholi joylanishidagi geografik xususiyat yanada oydinlashadi.

Aholining qulay yashashi, kun ko'rishi uchun zaruriy resurslar cheklangan, borlari ham notekis taqsimlangai bir sharoitda hudud demografik sig'im imkoniyatini baholash muhim o'rinn tutadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi maydoni noqulay ekologik vaziyatda joylashganligi, shaharsozlik salohiyatiga ko'ra fuqarolar uchun uy-joy, sanoat korxonalari qurish, kunlik zaruriy ehtiyojlarini mayjud resurslar bilan ta'minlash, shu yerdagi aholi va aholi punktlarini joylashtirish imkoniyati faqatgina maksimum variantda Yuqori. Qolgan minimum va optimum variantlarda bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati, demografik vaziyati, shaharsozlik salohiyati uy-joy, sanoat qurilishlarini olib borishga imkon bermaydi. Shu boisdan, hududdagi o'sib borayotgan aholi va uning zichligi keng va ko'p tarmoqli ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, tuproqhosildorligini o'stirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash demografik sig'im imkoniyatini oshirishni taqozo etadi.

Farg'ona demogeografik rayonida aholining nafaqat tig'izligi, balki tadqiqot davrida zichlikning (140-160 foiz) Yuqori darajada o'sish xususiyati xos bo'ldi. Ushbu rayon hududning demografik sig'imi faqat maksimum variantda aholi va aholi punktlarini joylashtirishni ta'minlay oladi, xolos. Farg'ona va Andijon viloyatlari maydonining umumiy demografik sig'imi optimum va minimum variantlarda allaqachonlar o'zining ahamiyatini yo'qotgan yoki amalda aholi punktlarini joylashtirish imkoniyati yo'q.

Respublikada axolisi zich joylashgan hududlardan yana biri, bu Toshkent viloyati hisoblanadi. 1989-2016-yillarda ushbu mintaqaga axolisi zichligi 133,9 foizga o'sgan holda aholi zichligi km. kv. joyga o'rtacha 183,1 kishidan to'g'ri keldi. Sirdaryo, Xorazm va Samarqand viloyatlari Respublika umumiy maydonining, atigi 6 foizini, axolisining 19,6 foizini egallaydi. Tadqiqot davrida har birining aholi zichligi, mos ravishda, 144,2; 172,8 va 169,6 foizga o'sdi. Mazkur Sirdaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlari bilan birgalikda Jizzax, Navoiy va Buxoro viloyatlari Respublikada HDS Yuqorihisoblanadi. Hisob-kitoblar natijasi, ushbu viloyatlar maydoni shaharsozlik qoidalariga amal qilgan holda, 2016-yildagi aholi sonidan 1,0-1,5 baravar ko'p aholini boqa olishi, uy-joy, sanoat qurilishlari obyektlarini qurishga imkonli borligini ko'rsatadi. Ko'rileyotgan yillarda, Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan va Xorazm viloyatlarida ham aholi zichligi o'sish sur'ati 150 foiz va undan balandni tashkil etdi. Mazkur viloyatlar axolisi zichligi faqat tabiiy ko'payishi Yuqoriliqi tufayli, ortib borgan holda, maydonining demografik sig'imi maksimum variantda Surxondaryoda 2558,7 ming kishi, Qashqadaryoda 3413,4 ming kishi, Xorazm viloyatida 1934,9 ming kishini joylashtirishga qurbi etadi. Qolgan variantlar allaqachonlar o'zining belgilangan me'yoriga etib, ulgurishgan va hozirgi aholi soni bilan HDSi o'rtasidagi moslik aholining ortiqchaligini, demografik sig'im bilan bog'liq muammolar mavjudligini ifodalaydi.

## **2.Mustaqillik yillari demografik jarayonlardagi o'zgarishlarning aholi yosh tarkibiga ta'siri**

Mustaqillik yillari demografik jarayonlarda ro'y bergan o'zgarishlarning, aholi yosh tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatganligi ba'zi yosh guruhlari miqdori kamayishi yoki ko'payishida yaqqol ko'rinishmoqda. Masalan, Respublikada, 1991-2015-yillarda 0-2 yoshgacha bo'lgan bolalarning jami aholidagi hissasi 0.1 (-99,9 %), 3-5 yoshgacha bo'lganlar 1,9 (-88,1 %) barobarga qisqargan. Umum aholining tarkibida 16 yoshdan, to 60 yoshgacha bo'lgan aholi qatlami ulushi ushbu davrda

1,2-1,5 barobarga oshdi. Bunga avvalo aholi o'tasida farzandlar tug'ilishining anglangan tarzda rejalashtirilishi, oilalarda bolalar tug'ilishi kamayib ketganligi sababdir. Chunki, aholi o'limining, xususan bolalar o'limining bu yerda sezilarli ta'siri kuzatilmaydi.

1989-2015-yillarda Respublika axolisi yosh tarkibida 0-15 yoshgacha bo'lganlarning mamlakat umum axolisidagi ulushi 42,9 % dan 29,9 % ga tushdi. Aynan demografik jarayonlardagi pasayishlar dastlabki o'zining natijasini, shu yosh guruhdagilarning kamayishida ko'rsatgan edi. Ammo 2005-yildan boshlangan demografik jonlanish ular salmog'ini yana oshirdi. Biroq, yosh bolalar o'tasidagi depopulyasiya hodisasi, demografik to'lqinning orqaga qaytishi bilan yana davom etadi, bu esa, keyinchalik mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi soni va salmog'ida demografik havfni vujudga keltiradi. Mamlakatda iqtisodiy faol aholining eng samarali ishlash davrini o'z ichiga qamrab olgan 30-49 yoshdagi kishilar, jami aholining 26,3 foiziga (2015-y.) teng kelgan holda, iqtisodiyotda band bo'lganlarning teng yarmidan ko'pini, ya'ni, 54,1 foizini tashkil etadi. Holbuki, bu ko'rsatkich 1989-yilda, mos ravishda, 18,2 foiz va 41,9 foizga teng bo'lgan. Aksincha, ularda mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi salmog'i 60 foizga bormaydi.

### **Aholining iqtisodiy jihatdan yosh tarkibi va prognozi<sup>22</sup>.**

Yillar	Jami aholi	Asosiy yosh guruhlari						55 va undan yuqori yosh ayollar, 60 va undan yuqori yosh erkaklar	
		0-15 yoshgacha bo'lgan erkak va ayollar		16-54 yosh ayollar, 16-59 yosh erkaklar					
		ming kishi	% da	ming kishi	% da	ming kishi	% da		
1989	19810,1	100	8507,1	42,9	9719,3	49,1	1583,2	8,0	
1991	20607,6	100	8883,7	43,1	10122,5	49,1	1601,4	7,8	
1995	22461,6	100	9653,8	42,9	11080,6	49,3	1727,2	7,8	
2000	24487,7	100	9944,1	40,6	12740,1	52,0	1803,5	7,4	
2005	26021,4	100	9328,1	35,8	14859,3	57,1	1834,0	7,1	
2010	29123,4	100	9099,3	32,1	17879,6	60,5	2144,5	7,4	
2015	31022,5	100	9275,7	29,9	19047,8	61,4	2698,9	8,7	
2015*	31332,7	100	9477,1	30,2	19156,2	61,1	2699,4	8,6	
2020	34144,6	100	10511,1	30,8	20106,6	58,9	3526,9	10,3	
2025	36683,9	100	11137,5	30,4	21168,5	57,7	4377,9	11,9	
2030	38676,8	100	10989,6	28,4	22576,8	58,4	5110,4	13,2	

<sup>22</sup> 1. 3.Tojieva tomonidan demografik "yosh surish" metodi asosida bajarilgan prognoz natijalari.

O'zbekiston axolisining 37,6 foizi, 0-20 yoshgacha bo'lganlarga to'g'ri keladi (2015-y.). Barcha viloyatlar axolisining 35 foizdan ko'pi shu yoshdagilardan iborat. Ayniqsa, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarining har birida, bu yoshdagilar hissasi biroz ko'p. Birgina, Toshkent shahrida yoshlar ulushi (0-20 yosh) kam aksincha, mehnat yoshidagi va nafaqa yoshidagilar miqdori katta. Xuddi shu viloyatlar faol demografik rivojlanishi mehnat yoshigacha bo'lgan aholi dinamikasidagi o'zgarishlarni aniq ifodalaydi.

O'zbekiston axolisi yosh tarkibida mehnat yoshidan kichiklarning nisbiy va mutlaq miqdori kamayish evaziga, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi miqdori makon va zamonda tobora ortib boryapti. Mehnatga yaroqli yoshdagi aholi nisbiy va mutlaq ko'rsatkichlarining o'zgarishi mehnat resurslarining shakllanishiga va u orqali mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sur'atlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, 1989-2015-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi miqdori 195,9 foizga o'sdi, yoki jami aholidagi hissasi 49,1 foizdan 61,4 foizga ko'tarildi. Ammo prognoz yillarida bu ko'rsatkich muttasil pasayib boradi, masalan, mehnat yoshidagi aholining umumiy aholidagi hissasi 2015-yilda 61,1 %, 2020-yilda 58,9 %, 2025-yilda 57,7 %, 2030-yilda 58,4 % bo'lsa, mehnat yoshidan kattalarniki mos ravishda, 8; 10,3; 11,9 va 13,2 foizga teng bo'ladi. 1990-yildan boshlangan tug'ilish koeffitsientidagi qiskarishlar aholi yosh tarkibida bolalar sonining kamayib, keksa yoshdagilar ulushining ortishiga olib kelganligi prognozda ham o'z aksini topmoqda. Bunday aholining iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra yosh tarkibidagi o'zgarishlar mehnat yoshidan Yuqori yoshdagilar keyinchalik katta salmoqqa ega bo'lشini, ya'ni aholining quyidan emas, Yuqoridan qarishimi ko'rsatadi. Ko'rileyotgan davrda, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o'sish sur'ati Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida o'ta baland, ya'ni mos ravishda, 194,1; 195,8 va 186,3 foizga teng bo'ldi. Bunday Yuqori o'sish mazkur hududlar ijtimoiy-demografik rivojlanishida mehnat resurslarining keragidan ortib ketishiga va u bilan bog'liq muammolarga olib keldi. Xuddi shu davrda va qatlama o'sish sur'ati umumamlakat ko'rsatkichidan katta bo'lgan viloyatlarga Samarqand (173,3 %), Jizzax (174,2%), Namangan (177,9 %) viloyatlari ham kiradi. Axolisida tug'ilish darajasi kichik, o'lim hodisasi nisbatan Yuqori, demografik tarkibida sezilarli farqlar kuzatiladigan Sirdaryo, Navoiy, Buxoro, Farg'ona va Namangan viloyatlarida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushi nisbatan eng ko'p, ya'ni har birida ular salmog'i, jami aholining 62 foiz va undan Yuqorini

tashkil etadi. Sababi, bu hududlarga boshqa viloyat va shaharlardan ishlash, o'qish va turli xizmatlar bois aholining ko'chib kelishi ham ular miqdorining oshishiga turtki bo'ladi. Ammo, mazkur viloyatlarda, 1989-2015-yillarda mehnat yoshidagi aholi o'sish sur'ati, nisbatan past ko'rsatkichlarni (112,0-189,2 foiz) qayd etdi<sup>23</sup>.

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, mamlakat jami axolisining tarkibida 60 yosh va undan Yuqori yoshdagilar hissasi 1991-yilda 6,5 foiz, 2015-yilda 6,6 foiz bo'lgan holda, ulushi yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bunday holat shu yoshdagilar o'rtasidagi o'lim hodisasi ko'pligi va ularning tug'ilgan davridagi miqdoriy ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Chunki, 60 yosh va undan kattalarning tug'ilgan davri 1950-1955-yillarga to'g'ri keladi. Ma'lumki, bu davr urushdan keyingi demografik to'ldirish davri bo'lib, tabiiyki, farzandlar ko'p tug'ilishiga katta e'tibor berilgan. Aynan "demografik to'ldirish" davrida tug'ilganlar bugungi kunda demografik keksalik pallasiga kirish arafasida bo'lganligi ham aholi tarkibida qariyalar ulushi ortishi ehtimolini, yana bir bora oshiradi. Biroq, ular salmog'i aholi yosh tarkibida hozirda kam bo'lsada, 1991-2015-yillarda miqdori 119,4 foizga o'sdi, shundan shahar axolisida, bu ko'rsatkich 148,6 foizga, qishloq axolisida 128,1 foizga teng bo'ldi yoki o'rtacha yillik ko'payishi mos ravishda, 0,95; 2,10 va 1,30 foizni tashkil etdi. Keksalar soni shahar axolisiga nisbatan qishloq axolisida ko'p va uning miqdori muttasil ko'payishda davom etyapti. Keksa yosh guruhidagilar salmog'i Farg'ona, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrinda Respublika darajasidan katta, ya'ni mos ravishda, 6,6, 7,4 va 10,7 foizga teng bo'lgan holda, 1989-yilga nisbatan 1,1-1,2 barobarga o'sgan. Qolgan viloyatlar axolisi yosh tarkibida ular ulushi 6 foizga ham etmaydi. Poytaxt shahar va viloyati axolisi tarkibida bolalar va o'smirlar miqdori kamligi, pensionerlarning ulushi ko'pligi, aholi o'rtasida tug'ilishdarajasi va yosh bo'yicha o'lim ko'rsatkichlari pastligi bilan izohlanadi.

Aholi yosh tarkibining ijtimoiy ishlab chiqarishdagi amaliy ahamiyati demografik bosim koeffitsienti orqali Z.Tojiyeva tomonidan aniqlandi (bu koeffitsient har 1000 ta 15-59 yoshdagi aholiga nisbatan qancha bolalar, qariyalar va qariyalar-bolalar to'g'ri kelishini ifodalaydi). Bunda, tug'ilish darajasi o'lim ko'rsatkichi bilan teng yoki past, aholi tabiiy ko'payishi sust bo'lgan hududlarda qariyalar bosimi Yuqori, aksincha tug'ilish ko'p, o'lim past aholi tabiiy ko'payishi samarali

<sup>23</sup> З.Н.Тожиева. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Ташкент: Fan va texnologiya, 2010.

amalga oshayotgan davlatlarda bolalar yukining koeffitsienti katta bo'ladı. 1991-2015-yillarda O'zbekistonda bolalar, qariyalarning demografik bosimi kamayib bormoqda.

Demografik jarayonlardagi o'zgarishlar tufayli, 1991-2009-yillarda, har 15-59 yoshdagagi aholiga nisbatan to'g'ri keladigan bolalar demografik bosimi koeffitsienti 1,1 punktga, qariyalarniki 1,4 punktga qisqardi. Biroq, 2015-yilda har 100 ta 15-59 yoshdagagi aholiga 44,6 ta bolalar, 9,2 ta qariyalarning to'g'ri kelishi, aholi yosh tarkibi progressivdan statsionarga o'tish bosqichiga yaqinlashayotganligi, mehnatga layoqatli yoshdagagi aholiga tushadigan demografik bosimda bolalar yuki kamayayotganligini ifodalaydi.

Har 100 ta 15-59 yoshdagagi kishilarga to'g'ri keladigan demografik bosim koeffitsienti viloyatlar miqyosida tahlil etilganida, 60 yosh va undan kattalarning demografik bosim koeffitsienti birgina Surxondaryo, Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlarida kichik bo'lgan bo'lsa, Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida esa aksincha, umummamlakat ko'rsatkichidan (9,2) baland. Shuningdek, har 15-59 yoshdagilarga nisbatan to'g'ri keladigan bolalar yuki Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand viloyati va Toshkent shahrida o'ta past. Aksincha, Sirdaryo, Xorazm, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida bu raqam o'ta Yuqori. Mazkur viloyatlarda bolalar yukining kattaligi aholi yosh tarkibining hamon progressiv turi davom etishidan, mehnatga layoqatli, reproduktiv yoshdagagi aholi soni ko'payib borishidan dalolat beradi. Ushbu viloyatlarda 15-59 yoshdagagi aholiga bo'lgan umumiy demografik bosimning ham kattaligi aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishi biroz sust ekanligini, ishlovchilarga qaraganda boqishni talab etadiganlar ko'pligini ko'rsaiadi.

Mustaqiliik yillarida Respublikada o'ziga xos aholi yosh tarkibi vujudga keldi. Bu yosh tarkib bolalar soni va salmog'i ham, o'rta yoshli aholi qatlami ke'p, keksa va qariyalar juda kichik ulushni tashkil etilishi bilan xarakterlidir. Biroq, yangi iqtisodiy munosabatlar davridagi demografik jarayonlarning natijasi, kelgusi aholi yosh tarkibida qariyalar ulushining ko'payib ketishiga, uning oqibatida, nafaqat, quyidan, balki Yuqoridan qarishiga ham zamin bo'jadi. 1989-yilda Respublika axolisi yosh tarkibi to'liq progressiv ko'rinishda bo'lgan, 2015-yilga kelib progressivdan statsionarga o'tish bosqichida turibdi. Hozirgi mayjud bolalar, o'smit yosilarning mehnatyoshiga etishi, mehnat yoshidagi o'rta qatlami aholining keksalik davriga o'tishi, kelajakda aholi yosh tarkibida

qariyalar hissasi yanada ortishini ta'minlaydi, eqibatda, aholi yosh tarkibi to'liq statsionarga undan regressiv holatga o'tadi.

Respublika axolisining bugungi yosh tarkibi quyidan qarishni boshidan o'tkazmoqda. Shu o'rinda aholi yosh tarkibida qariyalarning ortishiga ta'sir etuvchi o'rtacha umr ko'rish davrining muddatini ham hisobga olish lozim. Sababi, agar tug'ilganda kutilayotganda umr ko'rish davomiyligi qisqa bo'lisa, qariyalar soni, aksincha, ko'paymaydi. Ammo, O'zbekiston axolisida o'rtacha umr ko'rish davri yildan-yilga ortib borayotganligi, tug'ilish pasayishi aholi yosh tarkibida qari va keksa kishilar ulushini ko'payishi, aholining hozirgi quyidan emas, balki Yuqoridan qarishidan dalolat beradi.

Demografik qarish darajasini baholashda, 60 yosh va undan Yuqori yoshdagilarning jami aholiga nisbati muhim o'rin tutadi. Respublika axolisida qarish koeffitsienti qishloq axolisiga qaraganda, shahar axolisida, erkaklarga nisbatan ayollarda Yuqori. Shunga binoan, Respublika axolisi qarish koeffitsienti 1991-yilda 6,5 ni tashkil etgan bo'lisa, 2015-yilda 6,6 ga teng bo'lmoqda. Ammo qarish indeksi bunga mutanosib ravishda barcha hududiy tarkibda o'sib borganini ko'rish mumkin.

1991-2015-yillarda umumaholida Respublika bo'yicha past darajani tashkil etganligi kuzatildi. Qishloq axolisida farzandlar tug'ilishining ko'pligi, o'rtacha umr ko'rish yoshining uzunligi aholi qarish koeffitsienti, indeksining kichikligiga olib kelmoqda. Erkaklarda qarish koeffitsientining kichikligi, barcha yosh guruhlarida erkaklar o'limi ustunligi bilan bog'liqidir. Binobarin, reproduktiv (15-49 yosh) yoshdagiaholi mamlakat umumiy axolisining 57 % ini, shundan, shahar axolisida 58 %, qishloq axolisida esa 56 foizini tashkil etganligi ham samarali aholi takror barpo bo'lishini ta'minlamoqda. Mazkur fertil yoshidagi aholi Respublikada tug'ilish ko'rsatkichi eng Yuqori bo'lgan davr, ya'ni 1960-1993-yillarda tug'ilganlar hisoblanadi. 1989-2015-yillarda reproduktiv yoshdagagi aholi ulushi, Respublikaning barcha viloyatlarida 1,2 barobarga o'sdi. Hozirda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo viloyatlarida uning ulushi eng ko'p, 58 foizni tashkil etadi. Aksincha, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarida esa u, 55-56 foizga teng. 50 yosh va undan kattalarning, umummamlakat axolisida salmog'i o'zgarishsiz qolayotgan bo'lsham faqatgina, Andijon, Buxoro viloyatlarida uning 1,2-martaga ko'payishi kuzatiladi. Qolgan viloyatlarda hozircha bu yosh ko'rsatkichida hech qanday o'zgarish ro'y bermayapti.

## O'zbekiston Respublikasi axolisining qarish darajasi (1991-2015-y.)<sup>24</sup>

Qarish darajas;	1991-yil			2001 yil			2015 yil		
	Jami aholi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Jami aholi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Jami aholi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi
Ps	6,2	8,2	5,8	6,8	8,5	5,8	6,9	8,7	5,9
Ks	6,5	7,9	5,5	6,4	7,8	5,5	6,6	7,5	5,7
Is	0,07	0,09	0,06	0,07	0,09	0,06	0,07	0,08	0,06

Muayyan bir hududda bolalar va yoshlar salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa, jinslar nisbatining o'ttacha ko'rsatkichi me'yorida saqlanadi. Aholi jinsiy tarkibida erkaklar va ayollar salmog'inining tengligi, ya'ni mutanosibligi ularning nikohga kirishida va oilalar tashkil topishida, tug'ilish jarayonining ijobiyl rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston axolisining jinsiy tarkibida erkaklar va ayollar miqdori (ayollar 49,9 %, erkaklar 50,2 %) tengdir. Faqatgina, qishloq axolisida erkaklarning ustunligi kuzatiladi. Ammo tarixiy manbalarda ma'lum bir davrlarda barcha hududlarda erkaklar ayollarga qaraganda ko'p bo'lganligi keltiriladi. Respublika axolisi jinsiy tarkibida ayollar ko'peyishi o'tgan asrning o'talaridan boshlangan bo'lib, bunga o'sha davrdagi ijtimoiy-demografik holat, ya'ni 1940-1945-yillardagi urush ogibatlari sababdir. Biroq, mamlakatdagi qulay demografik vaziyat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish aholining tender farqining yo'qolishiga va tengligiga olib keldi.

Ayollar va erkaklar soni turli yosh guruuhlarida bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi. Jumladan, 0-34 yoshgacha bo'lgan aholi jinsiy tarkibida erkaklarning miqdori ayollarga nisbatan ancha katta, 35 yosh va undan Yuqori yosh guruuhlarda esa ayollar erkaklarga qaraganda, salmoqli ko'rsatkichni tashkil etadi. Bunday holat qishloq joylar axolisida 25-29 yosh guruhi gacha davom etib, keyingi yosh guruuhlarida Yuqoridagidek holat takrorlanadi. Chunonchi, 2015-yildagi aholi jinsiy tarkibidagi o'zgarishlarni yosh guruhlari bo'yicha qaralganda, 0-2 yoshgacha bo'lganlardan har 100 ta o'g'il belaga 93 ta qiz, 0-15 yoshgacha bo'lganlarda esa 94,3 ta qiz to'g'ri keladi. Shuningdek, reproduktiv yoshdagi aholida har 100 ta erkakka 100 ta ayolning mos kelishi ham mamlakat axolisida Yuqori tabiiy ko'panishni ta'minlaydi.

<sup>24</sup>Z.N.Tojieva tomonidan O'zR davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Binobarin, 30-34 yoshdagi aholida, har 100 ta erkakka 99 ta ayol, 35-39 yoshdagilarda, aksincha, 100 ta ayol, 60 yosh va undan Yuqori yoshdagilarda 123 ta ayol tashkil etmoqda. Xuddi shu yoshdagilar shahar axolisida har 100 erkakka, mos ravishda, 101; 98; 133 ta ayol, qishloq axolisida 98; 104 va 109 taayol to‘g‘ri kelmoqda. Aholi o‘rtasida 35-39 yoshdan boshlab ayollarning erkaklarga nisbatan salmog‘i ko‘paya boradi.

Aholining yoshi kattalashgani sari erkaklar miqdori ayollarga qaraganda, kamayib bormoqda va u eng Yuqori yosh guruhi larida yanada aniq ko‘rinadi. Aholining mexanik harakati faollashganligi, to‘g‘ri ro‘y erakklarning chetga ko‘plab ishlash va boshqa xizmatlar bilan ketishi, 30-35 yoshdan so‘ng ular ulushi kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Qolaversa, erkaklarda turli ekzogen va endogen omillar tufayli, ro‘y beradigan o‘lim hodisasi ayollarga nisbatan ko‘p. Chunki, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarning aholi jinsiy tarkibining yosh bo‘yicha o‘zgarishida ta’siri unchalik katta emas.

1989-2015-yillarda O‘zbekiston axolisi jinsiy tarkibida har 100 ta ayolga to‘g‘ri keladigan erkaklar soni oshib, ular o‘rtasidagi mutanosiblik tobora tenglashib bordi. Masalan, 1989-yilda har 100 ta ayolga 97 ta, 2015-yilda 100 ta erkak to‘g‘ri kelgan. Bu davrda ayollar soni o‘sish sur’ati 147,3 foiz, erkaklarniki esa 151,1 foizni tashkil etdi. Respublika viloyatlari axolisining jinsiy tarkibida har 100 ta erkakka to‘g‘ri keluvchi ayollar miqdori dinamikasi tahlil etilganda, ayollarning makon va zamonda kamayayotganligi yana bir bora tasliqlandi. 1989-2015yillarda barcha viloyatlar jami axolisida erkaklar salmog‘i 0,4-0,6 punktg‘a oshdi. Jumladan, 1991-yilda har 100 erkakka 99 ta ayol to‘g‘ri kelgan viloyat faqat Surxondaryo bo‘lgan bo‘lsa, o‘n yildan keyin bunday viloyatlar soni 5 taga, 2015-yilda esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona va Qashqadaryo viloyatlari hisobiga 10taga etdi. Erkaklar nisbati Yuqori bo‘lgan viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy va demografik vaziyatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, aksariyati, mamlakatning yirik sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari rivojlangan hamda rivojlanayotgan, demografik salohiyati, sig‘imi, tabiiy ko‘payishi Yuqori mintaqalari hisoblanadi.

Aholi jinsiy tarkibi hududiy taqsimlanishida hamisha shahar axolisida (49,7 %-erkak, 50,3 % -ayol) qishloq axolisiga (50,3 % – erkak, 49,7 % – ayol) qaraganda, ayollar ulushi katta bo‘lib kelmoqda. Jami aholi singari, tadqiqot yillarda viloyatlar shahar va qishloq joylar

axolisi jinsiy tarkibida erkaklar salmog'i bir tekisda ortishi kuzatildi. Bunday jinslar o'rtasidagi mutanosiblikda Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va qulay demografik vaziyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda oilalarda farzandlar tug'ilishining kamayishi ham shahf jinsiy tarkibida erkaklar miqdorining oshishiga yordam bermoqdadi. Sababi, tug'ilayotgan har 4 ta yoki 3 ta farzandda miqdor jihatdan o'g'il bolaning ustunligi ham (O'zbekistonda 100 ta qiz chaqaloqqa, 107 ta o'g'il bola tug'ilmoqda, 2015-y.). Aholi jinsiy tarkibida ayollarning aks-sekinlik bilan bunday kamayib borishi, keyinchalik aholi takror barpo bo'lishi bosqichlarining o'zgarishi, reproduktiv yoshdagagi oyollar salmog'i kamayishi, aholi o'sish sur'ati yanada pasayishi kabi demografik havf-hatarning kuchayishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston axolisi demografik tarkibida milliy tarkib alohida o'rinn tutadi. Respublikada yashovchi turli millat vakillarining ko'payishi va geografiyasi bir-biridan o'ziga xos farq qiladi. Shu boisdan ham, mamlakatning bironqa mintaqasini so'f bir millatli, deb bo'lmaydi.

Sababi, barchasida qaysidir millatning ma'lum miqdorda ulushi bor. Aksariyat, rusiy zabon millat vakillarining Respublikaga kelib o'mashishi tarixiy omillar bilan bog'liq bo'lganligi bois (bu haqida Yuqoridaq ma'rularda yoritilgan), ular asosan sanoatlashgan, ijtimoiy infratuzilma tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan mintaqalarning markazlarida, yirik shaharlarda ko'plab istiqomat etadi. Bunday hududlarga Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy viloyatlari va ulardagagi Chirchiq, Angren, Olmaliq, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, shuningdek, Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyati markazlari kiradi. Sobiq Ittifoqning parchalanishi ko'pgina davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi axolisi milliy tarkibining o'zgarishiga ham ma'lum darajada ta'sir etdi. Ittifoq tarkibidagi mamlakatlarning mustaqillikka erishuvi rusiy zabon millatiga mansub kishilarning migrations faolligini oshirdi. Aynan turli millat vakillarining ma'lum bir qismi ko'chib ketdi va ketmoqda.

1989-2015-yillar davomida mamlakata xolisi milliy tarkibida rus, ukrain millatiga mansub kishilar soni 2,1, beloruslar 1,6, tatarlar 2,9, latishlar 7,5, estonlar 1,7-martaga qisqardi. Rusiy zabon millatiga mansub kishilarning miqdori yildan-yilga kamayishida nafaqat, mexanik harakat, balkiaholi tabiiy harakatining ham ma'lum ta'siri bor. Chunki, ushbu ta'kidlanayotgan millat vakillarida tug'ilish darajasi juda kichik, o'lim nisbatan Yuqori, tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari pact. Bundan farqli ravishda, Respublika axolisi milliy tarkibida mahalliy millatlarning

mutlaq va nisbiy miqdorida o'sish ro'y bermoqda. Mustaqillik yillarda qoraqalpoqlar – 160,6 %, tojiklar-155,3 %, qirg'izlar-148,9 % va turkmanlar – 147,7 % ga o'sdi. Xuddi shundan o'zbeklarning soni va ulushi ham birmuncha oshdi. 1989-yil aholi ro'yxati ma'lumotiga ko'ra, o'zbeklar mamlakat axolisinnng 74 % ini tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 82,9 foizga etdi yoki shu davrda o'sish sur'ati 175,8 foizga, o'rtacha yillik ko'payish 2,35 foizga teng bo'ldi.<sup>25</sup>

Dunyo tajribasida etnik bir xillik jamiyatda iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishga, qator yutuqlarga hamjihatlik bilan tezda erishishida muhim ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Aynan shunday manomillatli Yaponiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlar iqtisodiy rivojlanishida aholi milliy tarkibi alohida o'rin tutgan. O'zbeklar Respublika bo'ylab notejis joylashgan. Oxirgi aholi ro'yxati ma'lumotlari, jami o'zbek millatiga mansub kishilarning 35 foizi uchta Andijon, Samarqand va Farg'ona viloyatida yashagan holda, qolgan viloyatlarning har birida ular ulushi 10 foizga etmaganligidan guvohlik beradi. Shuningdek, axolisining milliy tarkibida o'zbeklar hissasi 90foizdan Yuqori bo'lgan mintaqqa 1989-yilda birgina Xorazm viloyati bo'lgan bo'lsa, 2015-yilda ularning soni Andijon (92,6 %), Xorazm viloyati (97,5 %), Qashqadaryo (92,3 %), Buxoro (91,3 %), hisobiga to'rtgaga yetdi. Ayni paytda, o'zbeklarning eng kam miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasiga (39,1 %) to'g'ri keladi.

O'zbeklardan keyin salmog'i va salohiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinni mahalliy millatlardan tojiklar (4,8 %, 2015-y.) egallaydi. Ushbu millatlar soni ijobjiy demografik jarayonlar natijasida, muntazam ko'payib bormoqda. 1989-2015-yillarda Respublika axolisi hududiy tarkibida tojiklarning qishloq axolisi milliy tarkibida ulushi qisqarib, aksincha, shahar axolisi milliy tarkibida miqdori birmuncha oshdi. Hududiy tarkibiga ko'ra, tojiklarning 66,3 foizi qishloq, qolgan qismi shahar joylarda yashaydi va mintaqalar bo'yicha turlicha taqsimlanadi. Tahsil etilayotgan yillarda mamlakatdagi tojik millatiga mansub kishilarning eng katta salmog'i, ya'ni 7,7 foizi Samarqand viloyatiga, 12,5 foizi Surxondaryo viloyatiga, 8,9 foizi Namangan viloyatiga, 5,9 foizi Farg'ona viloyatiga, 5,3 foizi Toshkent va 4,4 foizi Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keldi. Aksincha, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy viloyati axolisi milliy tarkibida ularning ulushi juda kichik bo'lib, har birida atigi, 1,0-1,5 foizga ham yetmaydi. Ushbu raqamlarni

<sup>25</sup> З.Н.Тожиева. – 156-157 66.

oxirgi aholi ro'yxati ma'lumotlari bilan solishtiradigan bo'lsak, Samarqand, Buxoro viloyatidan boshqa barcha viloyatlar axolisi milliy tarkibida tojiklarning hissasi 1,0-1,5 barobarga ortgan.

Tahlillar ko'rsatishicha, mamlakat axolisi milliy tarkibida ruslarning ulushi tobora qisqarib bormoqda. Oxirgi aholi ro'yxati davrida Respublika jami axolisining 8,3 foizini, 2015-yilda 2,7 foizini tashkil etgan mazkur millatga mansub kishilarning davriy va hududiy tarkibi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turlicha ko'rinish kasb egadi. Jumladan, 1989-yilda qishloq axolisining 0,7 foiz, shahar axolisining 19,5 % foizni ruslar tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkichlar 0,3; 5,9 foizga teng bo'ldi. Ruslar O'zbekistonning barcha mintaqalarida bir xil joylashmagan, ular ko'proq shahar joylarda va viloyat markazlarida tarqalgan. Binobarin, 1989-yilda ruslarning eng ko'pi Toshkent shahrida (42,4 foiz), Toshkent viloyati (19,0 foizi), Samarqand (6,9 foizi), Buxoro (8,1 foiz) va Farg'ona viloyatida (7,5 foizi) yashagan bo'lsa, boshqa viloyatlarning har birida ulushi 4 foizga ham etmagan. 2015-yilda ruslarning umummamlakat axolisida ulushi 1989-yilga nisbatan 2,0 barobarga qisqargan bo'lsa, Yuqorida nomlari keltirilgan mintaqalarda mos ravishda: 46,0; 18,0; 6,3; 3,3 pa 5,6 foizdan taqsimlanganligi qayd etiladi. Ruslarning mintaqalar axolisi milliy tarkibida salmog'ining kamayishini tabiiy va mexanik harakatning ta'siri hamda mahalliy millatlarda tug'ilish sur'atining Yuqoriligi bilan ifodalash mumkin.

Mustaqillik yillari mamlakatdagi aksariyat, yirik va og'ir sanoat korxonalaridan ayrimlari o'z ish faoliyatini vaqtincha to'xtatishi yoki ish yuritish mexanizmi o'zgartirilishi, ishsizlik, ish bilan ta'minlashda muammolarni yuzaga keltirdi. Natijada, qator mintaqalarning yirik sanoat korxonalarida ishlagan millatlarning ish izlab markazga kelishi, ularning Toshkent shahrida to'planishiga yoki chetga ko'chib ketishiga sabab bo'imorda. Reemigratsiya jarayonida ishtirok etuvchilar ham asosan markaz poytaxtga qaytib kelishmoqda. Shu boisdan ham, so'nggi statistik ma'lumotga ko'ra Respublikadagi jami rus millatiga mansub kishilarning teng yarmi Toshkent shahrida yashamoqda.

O'zbekiston Respublikasi axolisi milliy tarkibida mahalliy millatlardan qozoqlar soni va salmog'i 1989-2015-yillarda kamaydi (99,0 foiz) va aholi umumiy sonidagi, ulushi 1,2-martaga qisqardi. 1989-2001-yillarda mamlakat axolisi milliy tarkibida qozoqlarning mutlaq va nisbiy ko'rsatkichi biroz o'sdi, biroq 2002-yildan keyingi davrdan boshlab kamaymoqda. Qozoqlar miqdori kamayishini ularda ham

tug‘ilish sur’atining pasayib borayotganligi va tashqi migratsiya, ya’ni ma’lum bir qismining Qozog‘istonga ko‘chib ketishi bilan izohlash mumkin.

1989-yilda Respublikadagi qozoqlarning 72,4 foizi ikkita mintaqaga – Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2015-yilda bu ko‘rsatkich 78 foiz, mintaqadagi qozoqlar umumiy miqdori 1989-2015-y. 1,1; 1,3-marta oshgan. Buni qozoq millatining tabiiy va mexanik harakati, tarixiy shakllanishi, joylanishi, ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar, qo‘shti davlatlar bilan bo‘lgan yaqin chegarasi, ya’ni iqtisodiy – geografik o‘rni kabi omillar bilan bog‘lash zarur. Qozoqlarning boshqa millatlardan farqli ravishda 51,9 foizi qishloq joylarda, xususan, Qozog‘iston davlati bilan chegaradosh mintaqalarda yashaydi. Qozoqlarning qishloq axolisi tarkibida ko‘pligiga qaramasdan, shahar axolisidagi qozoqlarga nisbatan umumaholi tarkibida ulushining tezlik bilan pasayayotganligini kuzatiladi, buni oilalarda farzandlar tug‘ilishining kamayib borishi va chetga ko‘chib ketayotganlar asosan qishloq joylardan ekanligi bilan ifodalanadi.

Soni jihatdan beshinchı o‘rinda turuvchi qoraqalpoq millatining 94,4 foizi nomi bilan bog‘liq Respublikada, 3,4 foizi Navoiy viloyatida, qolgan qismi esa boshqa viloyatlarda istiqomat qiladi. Millatlarning mintaqalar bo‘yicha taqsimotida xuddi shunday kuchli mujassamlashuv holatini Toshkent viloyatida jami mamlakatdagi koreyslarning 40,7 foizi, qozoqlarning 42,1 foizi, Andijon viloyatida qirg‘izlarning 37,8 foizi, Toshkent shahrida tatar (43,2 %), ukrain (42,4 %), rus (47 %), arman (45,4 %) va belorus (34,0 %) millatiga mansub kishilarning deyarli yarmi to‘planganligida ko‘rish mumkin. Navoiy, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi mamlakatda turli millatlarga boyligi va ular salmog‘ining kattaligi jihatdan ajralib turadi. Masalan, Navoiy viloyati axolisi umummamlakat axolisining, atigi 3,0 foizini tashkil etgan holda, uning 85,7 foizi o‘zbeklar, 2,6 foizi ruslar, 4,6 foizi qozoqlar, 2,4 foizi qoraqalpoqlar, 1,5 foizi tojik, tatar hamda boshqa millat vakillaridan iborat. Qolgan millat vakillari miqdori jami aholi tarkibida atigi 1 foizga ham yetmaysdi, ammo shunga qaramasdan, geodemografik jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Millatlar shakllanishi, joylanishi va rivojlanishida demografik jarayonlar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ular demografik vaziyatini baholashda tug‘ilishning milliy koeffitsienti alohida ahamiyatga ega. Tug‘ilishning eng katta ko‘rsatkichi hamon mahalliy millatlarga, xususan o‘zbek, tojik, qoraqalpoq, turkman, qirg‘iz va qozoqlarga tufi kelmoqda.

Masalan, 2015-yil ma'lumotiga ko'ra, Respublikada tug'ilish koeffitsienti 23,7 % bo'lgan bo'lsa, o'zbeklarda 25,4 %, qoraqalpoqlarda esa 25,2 % ni tashkil etdi. Bu jihatdan ular boshqa millatlarga nisbatan oldindida turadi. Keyingi o'rnlarni qozoqlar (21,2 %), turkmanlar (19,6 %), tojiklar (19,8 %) va qirg'izlar egallaydi (19,1 %). Mazkur millatlardan farqli ravishda tug'ilish darajasining eng past ko'rsatkichi belorus, rus, arman, ukrain va koreys millatlarida kuzatiladi.

Tug'ilish milliy koeffitsienti hududiy tarkib bo'yicha turlicha o'zgarish xususiyatiga ega. Birgina qishloq joylarda mahalliy millatlarning ulushi umummamlakat va shahar axolisiga qaraganda katta va ularning ko'payib borishiga qaramasdan, aholi tabiiy ko'payishi hamda tug'ilish koeffitsientlari shaharga nisbatan tezlik bilan pasaydi. Binobarin, ruslar, ukrainlar, beloruslar, latishlar, nemislar koreyslarning Respublika qishloq axolisi milliy tarkibida ulushi 1 foizga ham etmagan holda, tabiiy ko'payishi manfiy tusga egadir.

Mamlakat shahar axolisida mahalliy millatlar ulushi 86,4 foizni tashkil etadi. Mazkur hududiy tarkibda ruslarning tug'ilish koeffitsienti o'rgani layotgan yillar oraliq'ida 7,7, ukrainlarda 10,9 punktga qisqardi. Millatlarda tug'ilish darajasining turlicha bo'lishi, ularning qaysi sohalarda bandligi, o'z milliy udum na an'analarini hamda yashash joylaribilan chambarchas bog'liq bo'lmoqda. Tug'ilish darajasi Yuqori yoki pastligida Respublika axolisining milliy va etnik tarkibi xuddi ijtimoiy-iqtisodiy omillar singari alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo so'nggi yillarida O'zbekiston axolisi milliy tarkibida o'zbeklar va boshqa mahalliy millatlar salmog'i ortishi, ularda ko'p farzand ko'rishga bo'lgan moyillikni oshirgani yo'q.

Tug'ilish singari o'lim darajasi ham barcha millatlarda bir tekisda pasayib borgan, ammo umumiy o'lim darajasi tatar, rus hamda koreyslarda Yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega (18,7 %, 12,8 % va 9,6 %). Aynan shuning evaziga, ularda aholining tabiiy harakat ko'rsatkichlari manfiyidir. Har ming kishiga nisbatan o'lim holati tojiklar (3,6 %), qirg'izlar (4,3 %), ozarboyjonlar (3,1 %) va turkmanlarda (5,0 %) biroz past.

Millatlar soni va salmog'i o'zgarishida ularning mexanik harakati ham muhim rol o'yamoqda. Masalan, 1991-1999-yillarda O'zbekiston shahar aholi punktlaridan 356,8 ming ruslar, 32,3 ming ukrainlar, 55,5 ming yahudiylar, 22,6 ming nemislar, 108,0 ming tatarlar ko'chib ketishdi va bu hamon davom etmoqda. Turli millatlardagi tabiiy va mexanik harakatning natijasi, ular soni va salmog'inining kamayishida

yoki ko'payishida aks etadi. Tadqiqot yillari O'zbekiston axolisi milliy tarkibi o'zgarishida mexanik harakatning roli ustun bo'lmoqda. Bu esa, manomillatlari davlat tarkib topishida asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### **Savol va topshiriqlar:**

- 1.O'zbekiston aholi soni va yoshlar ulushini izohlang.
- 2.O'zbekistonning viloyatlar kesimida aholi zichligini ko'rsating.
- 3.Respublika manomillat mamlakatga tobora yaqinlashib borayotganligini tushuntiring.
- 4.Yoshlar tushunchasining klassifikatsiyasining ochib bering.
- 5.Ko'pmillatlari O'zbekistonda millatlarni o'sishdagi farqlarni ko'rsating.

#### **Kalit so'zlar:**

O'sish dinamikasi, mehnatga yaroqli yoshlar, manoetnik davlat, yoshlar ulushi, aholi jinsiy tarkibi, aholi zichligi, shahar va qishloq axolisi.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston axolisi: o'sishi va joylanishi (1989-2009-y.). Manografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
2. Ata-Mirzayev O., Gentshke V., Murtazayeva R. Uzbekistan: istoriko-demograficheskiy aspekt. – Tashkent: Yangi asr avlod, 2011. – S.91-112.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Murtazayeva R.X. Migratsionnye protsessy v Uzbekistane v konse XX – nachale XXI vekov: istoricheskie sobitiya i novye tendensii (uchebnoe posobie dlya magistrov). – Germaniya: Lambert, 2015.

## **15-mavzu. O'ZBEKISTON YOSHLARINING BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASH – DAVR TALABI.**

**Reja:**

1. Yoshlarda millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash yo'nalishlari.
2. Yoshlarda bag'rikenglik ongini takomillashtirish dolzarb masala sifatida.

### **1. Yoshlarda millatlararo muomila madaniyatini tarbiyalash yo'nalishlari**

Globallashuv davrida ommaviy madaniyat, har bir davlat qatori, O'zbekiston yoshlarining ba'zi birlariga ta'sir qilishi va boshqa obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, bag'rikenglik ruhida tarbiya kun tartibiga qo'yildi.

Tolerantlik — ya'ni bag'rikenglik — ko'ngil holati bo'lib, har bir kishi bu holatga erishmog'i, albatta, qiyin kechadi. Alovida olingen jamiyatda bag'rikenglik ongini vujudga keltirish mushkul va murakkab vazifadir. Bag'rikenglikning samaradorligi uning shakl-shamoyili mazkur jamiyatdagi ustun ong xarakteriga naqadar muvofiqligiga bog'liq bo'ladi. Bu narsa avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ong hamjamiyatning poydevori ekanligi bilan belgilanadi. Biz e'tiqodlarimizga qo'shilgan kishilar bilan yoki tili va madaniyati biznikiga o'xshash bo'lganlar bilan yohud bizning etnik guruhimizga mansub bo'lganlar bilan birlashamiz. Olimlarning fikricha, bugun insoniyat tarixi davomida til birligi va etnik yaqinlik tuyg'usi insonlar hamjamiyatining asosi bo'lib kelgan. Shu bilan birga biz "o'zgalarga" — bizdan boshqacha bo'lgan kishilarga dushmanlik ko'zi va qo'rquv bilan munosabatda bo'lishga moyilmiz. Bunday tafovut biologik madaniy yoki siyosiy voqelikning har qanday darajasida mavjud bo'lishi mumkin. Madaniyat yoki dindagi eng muhim an'analar hisobiga o'z birligini saqlab qolgan an'anaviy hamjamiyatlarga nisbatan hozirgi zamondagi barcha millatlar madaniy, diniy va siyosiy jihatdan ko'proq xilmoxsildirlar.

Haqiqatda, biz ishonib kelgan g'oyalarning nuqsoniszligiga va biz bahslashayotgan qarashlarning yolg'onligiga hech qanday shubha-gumon qolmaydigan bo'lsa, har qanday e'tiqod — diniy, siyosiy yoki madaniy e'tiqod toqatsizlikka olib borishi mumkin. Etnik o'zaro munosabatlarda bag'rikenglik haqida gapirish juda mushkul. Chunki ayni etnik soha

zamirida turli-tuman ixtiloslar, ziddiyatlar, mojarolar uchun xavf yashirinib yotadi. Xalqlar o'rtasidagi munosabatlар keskin va fojiali bo'lib kelganligini tarix tajribasi ko'rsatib turibdi. Insoniyat tarixida ro'y bergan ko'pdan-ko'p urushlar davomida ayrim millat va elatlar qirib tashlangan, ba'zilari quvg'inga uchragan. Hozirgi davr kishilar milliy ongida ham buning ta'sirini ko'rish mumkin. Xalqlar ongida saqlangan ana shunday o'ziga xosadolatsizlik mojarolar to'g'risidagi xotiralar oraga ma'lum sovuqchilik tushurib, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni chigallashtirishga sabab bo'ladi.

Etnik bag'rikenglikni shakllantirish — millatlararo mojarolarning oldini olish va bartaraf etishning eng to'g'ri yo'lidir. Bu jarayonda ko'p xil madaniyatlarini birlashtiruvchi yagona makonni vujudga keltirishning ahamiyati kattadir. Buning uchun avvalo millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash zarurki, quyidagilar ushbu madaniyatning oddiy unsurlari hisoblanadi:

- “etnik indiferentlik” (beparvolik), ya'ni shaxslar o'rtasidagi muomalada milliy omilni e'tiborga olmaslik (alohida zarur holatlar bundan mustasno);
  - boshqa millat kishilari bilan munosabatda mulohazali bo'lish;
  - har bir kishi har qanday dunyoqarash masalasida o'z nuqtai nazariga ega bo'lishi, o'z nuqtai nazarini aytish xuquqiga ega ekanligi;
  - milliy, etnik muammolar xususidagi muhokamada mazkur masala yuzasidan o'zi ega bo'lgan bilimlar hajmigagina tayanish;
  - inson uzi yashab turgan etnik guruhning marosimlari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini bilishi zarurligi;
  - til masalasi — millatlararo muomala madaniyatining eng muhim jihatlaridan biri ekanligini esda tutish.

Bag'rikenglik ongini shakllantirishning til masalasini hal etishda ommaviy axborot vositalari va avvalo televideniyaning ahamiyati juda katta. Televideniya, radio va matbuotda bag'rikenglikka unchalik mos kelmaydigan “xeysh spich” — bachkana va behayo iboralarning ishlatalishi, shaxsning milliy va diniy tuyg'ularini ranjitadi hamda bachkana va hayosiz so'zlarni ko'chaga, kundalik hayotga, ko'pchilikning tiliga tushiradi. Demokratik fuqarolik jamiyatida esa, shubhasiz, bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

O'rtaga qo'yilgan maqsadga erishmoq uchun jamiyat ko'p sohalar bo'yicha harakat qilishi zarur bo'ladi. Shu sohalarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Ilmiy-tahliliy yo‘nalish bag‘rikenglik ongini shakllantirishning, totuvlik madaniyatini tarbiyalashning, fuqarolik jamiyatida ekstremizmga qarshi kurashishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishni, ekstremizm ko‘rinishlarini aniqlash, tekshirish va monitoringdan o‘tkazish usullarini, omma ongidagi estremistik kayfiyatni tuzatishning ijtimoiy-psixologik usullarini, shu jumladan kommunikatsion texnologiyalarini ishlab chiqishni, ommaviy axborot vositalarini bu sohadagi faoliyatini kuchaytirishni ko‘zda tutadi.

Tashviqot va qarshi tashviqot yo‘nalishi har qanday shakldagi estremizmni g‘ayri ijtimoiy tabiatini ochib berish uchun ommaviy axborot vositalari (OAV)dan foydalanish, matbuotda bositgan, televideniya orqali ko‘rsatilgan, radio orqali eshittirilgan milliy va diniy adovatri avj olishiga olib boruvchi materiallarni ijtimoiy-psixologik tekshirishdan o‘tkazish, bag‘rikenglikni ommalashtirishdan, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni kamaytirishga ko‘maklashuvchi o‘qimishli materiallar e’lon qilish vazifasini o‘rtaga qo‘yadi.

Ta’lim, uslubiy yo‘nalish barcha pog‘onalardagi ta’lim muassasalarida bag‘rikenglik ongini, dinlarga sabr-toqat bilan qarashni shakllantirishga va madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishga qaratilgan ta’lim dasturlari va texnologiyalarini yaratib joriy etishni, muassasalarda ommaviy kommunikatsiyalar sohasidagi mutaxassislarini, davlat xizmatchilarini, shuningdek huquq-targ‘ibot idoralari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha maxsus dunyoqarash psixologik treninglar (mashg‘ulotlar) o‘tkazish nazarda tutiladi.

Me’yoriy, uslubiy va tashkiliy yo‘nalish doiralarida uslubiy hujjatlar majmuasini ishlab chiqish hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan, ko‘rsatilgan va eshittirilgan materiallarni ijtimoiy-psixologik ekspertizadan o‘tkazish uchun sharoit yaratish, jumladan interaktiv ta’lim vositalari va o‘yinlardan foydalangan holda yangi kommunikatsion texnologiyalar va ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, ekstremizm, agressiya, jabrdiydalar, qochoqlarga va noilojlikdan ko‘chib ketganlarga yordam berish vositalarini yaratish; dinlararo muloqot samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish talab qilinadi.

Texnologik va moddiy-moliyaviy yo‘nalish tinchlik madaniyati sohasida tajribani to‘plash, dunyoqarash barqarorligini ijtimoiy-kommunikatsion texnologiyalari tizimini shakllantirish, shu asosda iqtisodiyotning innovatsion (yangi) tarmoqlarini yaratish vazifasini ko‘zlaydi va hokazo. Hamma joyda va barcha sohada bag‘rikenglik muhitini yaratish shubhasiz oson vazifa emas. Tarbiya – toqatsizlikning

oldini olishda eng samarali vosita hisoblanadi, shu sababli tolerantlik ruhida tarbiyalashni hozir birinchi darajali vazifa deb hisoblamoq kerak. Bag'rikenglik ya'ni tolerantlik ruhda tarbiyalash — ko'pgina davlat va jamiyat muassasalarining umumiy vazifasidir.

Maktablar, kollejlar, akademik litseylar va universitetlarda, norasmiy ta'lif doirasida, uyda va ishda bag'rikenglik ruhini mustahkamlash, ro'y-rostlik bir-biriga e'tibor va birdamlik munosabatlarini vujudga keltirish, doimo tolerantlik fe'l-atvorini o'rgatish, zo'ravonlik va begonalashuvga asos bo'ladigan toqatsizlikning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy manbalarini ochib tashlash zarur bo'лади.

Hozir internet orqali tarqatilayotgan va yil sayin tobora keng va xilma-xil tus olayotgan virtual zo'ravonlikka, shuningdek elektron ommaviy axborot vositalaridan, video va kitob mahsulotlarida tasvirlanayotgan jangari manzaralarga qarshi turadigan ichki dunyoqarashni shakllantirish masalasi kun tartibiga qo'yilmoqda.

Bag'rikenglik muammosi yuzasidan erkin, oshkora muloqot va muhokamaga ko'maklashish, tolerantlik qadriyatlarini ommalashtirish hamda toqatsizlikni targ'ib qiluvchi guruuhlar va mafkuralarga nisbatan loqaydlik ko'rinishlari xavfli ekanini tushuntirib berish ishida kommunikatsiya vositalari birinchi darajali ijobjiy rol o'ynashi mumkin. Ijtimoiy portlashlar xavfini kamaytirish maqsadida millatlar va dinlararo toqatsizlik bilan bog'liq bo'lgan inqirozlarning oldini olish va bartaraf etish sohasida faol qarshi tashviqot olib borish zarur.

Agarda joylarda "Bag'rikenglik markazlari" deb atalgan ilmiy-amaliy markazlar tashkil etilsa, bu hol tolerantlik ruhida tarbiyalash muammolarini hal etishda muhim o'rinn olgan bo'lar edi. Ularning oldiga bag'rikenglik ruhida tarbiyalash sohasida aniq-ravshan chora-tadbirlarni amalga oshirish va jamiyatda bag'rikenglik muhitini rivojlantirishga ko'maklashuvchi maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazish vazifasini qo'yish lozim. Ushbu vazifalar o'z navbatida quyidagilarni qamrab oladi:

- jamiyatda shakllangan bag'rikenglik munosabatlari tuzilmasi va darajasini o'rganish;
- dunyoda va mamlakatda amalga oshirilgan bag'rikenglik ongi taomillarini shakllantirish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash yo'lida ularning ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan dastur va loyihalarni tadqiq qilish;

– mustaqillik yillarida davlatimizda qabul qilingan va jamiyatimizda bag'rikenglik munosabatlari shakllanishiga ta'sir o'tkazgan qonunchilik va boshqaruvchilik qarorlarini o'rganish;

– jamiyatda bag'rikenglik ongi taomillarini shakllantirishni ta'minlaydigan va O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlik sharoitini yaratishga ko'maklashadigan davlat xizmatchilarining lavozim majburiyatlarini o'rganish;

– barcha pog'onadagi davlat xizmatchilarining boshqaruv faoliyati jarayonlarida bag'rikenglik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga bo'lgan ehtiyojlarini tadqiq qilish;

– migratsiya jarayonlari va ularning jamiyatdagи bag'rikenglik darajasiga naqadar muvofiqligini o'rganish;

– jamiyatda bag'rikenglik ongini shakllantirish va uning barqarorligini mustahkamlashga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot dasturini amalga oshirish uchun aholi orasida o'tkaziladigan sotsiologik so'rov usullaridan, loyiha dasturiy faoliyatni amalga oshiruvchi jamoat tashkilotlari, harakatlar, o'quv yurtlari, fondlarning rahbarlari bilan, mutaxassislarning suhbatlaridan foydalanish, omumaviy axborot vositalari monitoringidan, diniy muassasalar, milliy birlashmalar va oqimlar faoliyatiga oid axborotni mutaxassislar yordamida tahlil etish usulidan foydalanish, O'zbekistonda bag'rikenglikka doir materiallardan bemalol foydalanish yo'li bilan olinadigan ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish zarur bo'ladi. Tadqiqot dasturlarini amalga oshirish asosida jamiyatda, aniqrog'i, boshqaruv va tarbiya jarayonlarida bag'rikenglik ko'nikmalarini rivojlantirishga oid aniq-ravshan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

138 milliy, madaniy markazni birlashtiruvchi Respublika baynalmilal madaniyat markazi, o'z vaqtida tashkil etilganligi, mamlakatda millatlararo hamjihatlik va fuqarolarning o'zaro totuvligi muhitini mustahkamlashga, milliy madaniyatlarni saqlab qolish va ularning ma'nnaviy qadriyatlarini targ'ib qilishga, umuman, davlat bilan milliy jamoatchilikning hamkorligi, vositalarini shakllantirishga hissa qo'shib keldi.

Markazning faoliyatini davom etayotgan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlар va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi davom etmoqda.

Mazkur markazlar o‘z madaniyatini targ‘ib qilish sohasidagina emas, shu bilan birga millatlararo munosabatda bag‘rikenglikni tarbiyalash sohasida ham doimo ko‘pgina rejalarini amalga oshirmoqda.

Ko‘pgina xalqlar madaniyati va an‘analarining bir-biriga o‘zarota’siri tufayli Toshkent shahrida o‘ziga xos betakror muhit vujudga keldi. Bu yerda millati va dinidan qat’iy nazar poytaxtning butun axolisi ahil bir katta oila sifatida yashab kelmoqda. Shu munosabat bilan tinchliq bag‘rikenglik, ahillik madaniyati tamoyillari mamlakat axolisi va mehmonlari millatlararo munosabatlarining asosi bo‘lib qolishi lozimligini doimo sergaklik bilan kuzatib bormoq kerak, chunki milliy his-tuyg‘ularning haddan tashqari kuchayishi toqatsizlik fe'l-atvorini, o‘zga milliy va o‘zga din kishilari hisobiga o‘z talablarini qondirish ishtiyoqini va ekstremizm holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Poytaxt hokimiyyati millatlararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash sohasida olib borayotgan ishlar bilan birga milliy-madaniy jamaat tashkilotlarining bu sohadagi kuch-g‘ayratlari va amaliy ishlarini muvofiqlashtirib borishi zarur. Toshkent shubhasiz millatlararo bag‘rikenglik munosabatlari qaror topgan, namunali shahri bo‘lib qolishi lozim bo‘ladi. Toshkent O‘zbekiston Respublikasining eng ko‘p millatli shahri ekanligini e’tiborga olib, “Toshkent – tinchlik madaniyati yo‘lida” mavzusidagi kompleks shahar dasturini qabul qilib, amalga oshirish bu sohadagi muhim amaliy qadam bo‘lar edi.

Bag‘rikenglik — ko‘p ma’noli tushunchadir, shu sababli uni falsafiy, tarixiy, adabiy, diniy, siyosiy va shu kabi nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqmoq kerak. Har qanday holatda ham bag‘rikenglik tarbiyasini insonning muayyan sharoitdagi muayyan fe'l-atvorini ishlab chiqishdan iborat.

Bag‘rikenglikni pedagogik nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, ayniqsa dolzarb masala hisoblanadi.

Shu munosabat bilan ta’limning madaniy buniyod etuvchilik ahamiyatini tiklash, o‘quvchilarни milliy an‘analar va mintaqaviy xususiyatlar asosida tarbiyalab voyaga yetkazish, hozirgi ta’lim tizimining eng muhim vazifasidir. Endilikda ko‘p madaniyatli ta’lim makonini vujudga keltirish muammosi ta’limning barcha bosqichlarida: muktabgacha tarbiya, muktab tarbiyasi, oliy o‘quv yurti tarbiyasi darajasida hal etilmoqda. Ayni oliy o‘quv yurtlarida turli millatlarga mansub yigit va qizlar birgalikda ta’lim olishi sababli, bu joylardan bag‘rikenglik tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish zarur.

O'zbekistonliklarning bag'rikenglik ongini shakllantirish barcha pog'onalaridagi ta'lrim strategiyasining o'zagi bo'lib qolishi kerak. Madaniy ta'lrim texnologiyalariga shaxsiy ekstremistlik ko'rinishlaridan himoya qiladigan ichki barqarorlik tamoyilini asos qilib olish muhimdir.

Mamlakatdagi zamonaviy ta'linning mazmuni jamiyatning umumiy va kasb-hunar madaniyati sohasida jahon darajasidagi fuqaroni kamol toptirishni ta'minlashi lozim. O'zbekistonning hozirgi jamiyatni ko'p millatli va ko'p madaniyatli ekanligi sababli pedagogika fani va ta'lrim tizimi oldida bu yerdagi turli madaniyatlarnipg tinch-totuv yashab, bir-birini boyitib borishi vazifalari bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy muammolarning butun bir majmuasi ko'ndalang bo'lib turibdi.

Dunyodagi yangi ijtimoiy-madaniy voqeliklar: dunyoning globallashuvi va baynalmillallahuvi, etnoslarning o'z madaniyatlarini yuzaga chiqarish va qayta tiklash jarayonlari, ko'p millatli jamiyat va migratsiya muammolariga javoban jahon pegagogika tafakkuri tegishli ta'lrim strategiyasini ishlab chiqmoqda, bu narsa BMT, Yevropa Kengashi, YUNESKO va boshqa mo'tabar tashkilotlarning hujjatlarida o'z ifodasini topmoqda.

Hozirgi vaqtida ko'p millatli ta'lrim millatlararo ta'lrim, global ta'lrim deb atalgan xorijiy konsepsiyalarda mazkur muammo ko'rib chiqilmoqda. O'zbekiston pedagogika fani ham shu masalalar to'g'risida bosh izlanishlar olib bormoqda.

Ko'p millatli tuzilma "noqulay" masalalarni chetlab o'tishga qarshi chiqadi, jumladan, seksuallik yoshga qarab kamsitish, etnoslar aro mojaro, dinning ijobiy jihatlari maktabda muhokama qilinmasligini qoralaydi. Bunday nazariy tarafdarlarining fikricha, qaltis masalalarning muhokamasi fuqaroning o'zligini anglashi sari qo'yilgan qadam bo'ladi. Buning asosiy belgilari quyidagicha: odamlar fikr va mulohazalaridagi bag'rikenglik, jamiyatdagi madaniy xilma-xillikni tan olish va rivojlaptirish; barcha fuqarolar uchun teng huquklar, majburiyatlar va imkoniyatlarning mavjudligi; jamiyatdagi inson hayotiga taalluqli barcha qarorlarni qabul qilishda hammaning va har bir kishining samarali ishtiroki, alohida mumtoz kishilargina emas, hamma uchun adolatning mavjudligi, tanlash erkinligi, ozchilikning xuquqlarini himoya qilishda ko'pchilikning qarorlarini hurmat qilish, insonning madaniy mustaqillikka bo'lgan xuquqini e'zozlash.

Hozir jamiyatimizda bag'rikenglik tamoyillari asosiga qurilgan munosabatlarning yangi madaniyatini amaliy ravishda yuzaga chiqarish to'g'risida o'yab ko'rish zarur bo'lib qoldi. Zo'ravonlikdan voz kechish,

o‘z yo‘lini ixtiyoriy tanlab olish, vijdon erkinligi, boshqalarni majbur qilmay, o‘zini majbur qila olish mahorati kabilarni mazkur tamoyillar qatoriga qo‘shtmoq kerak. Garchi qo‘rqtish, majbur qilish muayyan paytlarda tarbiyaviy omil sifatida odamlarni intizomga solsa ham, ammo umuman olganda, ular vazminlik va sabr-toqatlilikka yordam bermaydi. Mamlakatda toqatsizlikka qarshi turmoq uchun, Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, aslida qonunchilik bazasini vujudga keltirish, u mumiy ma’lumot saviyasini oshirish, omma bilan tarbiyaviy ishlar olib borish kerak bo‘ladi. Xuddi shu ma’noda ta’lim jarayoniga bag‘rikenglik tamoyilini singdirish, bag‘rikeng shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish zarurligi dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

## **2. Yoshlarda bag‘rikenglik ongini takomillashtirish dolzarb masala sifatida**

Har bir insонning bag‘rikengligi jamiyatdagи muvozanat va yaxlitlikka, jamiyatning butun qobiliyatini to‘la-to‘kis namoyon qilishga va ma’naviylikning oltin qoidasi asosida “beg‘alva muhit”ga erishishga ko‘maklashadi.

Biz bag‘rikenglik haqida gapirganimizda olamga bag‘rimizni ochishni nazarda tutamiz. Bu tushuncha mamlakat ichkarisida ham, xalqaro maydonda ham faol ijtimoiy hamjihatlikni nazarda tutadi. Binobarin, jamiyat oldida kelgusi avlod yoshlarining tafakkuridagi esklilik sarqitlarini o‘zgartirish vazifasi paydo bo‘ladi, zero, yoshlar kelajakda davlatimizning ma’naviy va aqliy qadriyatlari, madaniy an‘anaalarini davom ettiradilar.

Dunyoning aksariyat ko‘pmillatli mamlakatlarida hozir bag‘rikenglik tarbiyasi vazifasini hal etishga urinmoqdalar. Masalan, Shvetsiyadagi 8 million aholi taxminan 140 millat vakillaridir. Mamlakatning barcha maktablari va kutubxonalari bag‘rikenglik tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Jamiyatda bag‘rikenglik tarbiyasiga xizmat qiluvchi bir qator metodikalar, majburiy shartlar va harakat dasturlari mavjud. Shved maktablarida ota-onalar bilan ham ish olib boriladi, bola tarbiyasiga bag‘ishlangan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, jumladan, ota-onalardan bir qancha savollarga javob qaytarish iltimos qilinadi. Bu savollar orasida qo‘yidagilar bir: Aytaylik, Sizning qizingiz islom shariati qonunlariga rioya qiluvchi oilaga mehmonga taklif etildi. Siz: a) uning borishiga ruxsat etmaysiz; b) u yerda o‘zini doimgidek tutishni, ya’ni “o‘z e’tiqodidan qaytmaslikni” tayinlaysiz; v) o’sha xonadonining qonunlari va urf-odatlariga, shu jumladan, Sizning fikringizcha, xotin-

qizlarni huquqlarini kamsituvchi qonun va an'analarga rioya qilaverishni buyurasiz; g) o'zingizning yana qanday variantingiz bor? Yoki: Farzandingiz biror-bir masaladagi qarashlari sizga yoqmaydigan oilaning farzandi bilan do'stlashib qoldi. Siz qanday yo'l tutasiz? Ayni shu o'rinda haqiqiy o'zaro munosabat madaniyati namoyon bo'ladi. Yana shunday masalalar bo'lishi mumkin: Sen menga o'xshamaysan, ammo bunda sening ham, mening ham aybim yo'q. Modomiki, shunday ekan, bir-birimizni tushunishni, yoki loaqlal hurmat qilishni o'rganaylik. Mana shularning hammasi ayrim bir predmet yoki kampaniya emas, balki mushtaraklik va majburiyatdir, qunt bilan doimiy olib boriladigan ishdir. Bizning nazarimizda bu qiyin bo'lsa ham, ammo naqd samara beradigan bordan-bir yo'ldir.

Biroq, bag'rikenglik hozircha yer kurrasi yosh avlodining, shu jumladan, O'zbekiston yoshlari fe'l-atvorining tarkibiy qismiga aylangan emas. Shu boisdan ham bag'rikenglik ongini takkomillashtirish dolzarb masala sifatida kun tartibida turishi bejiz emas.

Bu maqsadga erishmoq uchun jamiyatda psixologlar, pedagoglar, siyosatshunoslar, tarixchilar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, faylasuflar va shu kabi olimlarning birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan ijobjiy bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirish borasida aniq maqsadni ko'zlovchi ta'lim strategiyasini amalga oshirish zarur bo'ladi. Bu strategiya o'quv jarayoni orqali ta'lim jamoalarida xayrixohlik muhitini yaratish orqali irqchiliq shovinizm, ekstremizm, ksenofobiyaning har qanday ko'rinishlarini bartaraf etishi, turli etnoslarga mansub bo'lgan o'quvchilarni birlashtiradigan sohalarga (madaniy merosga, fan-san'at, davlatni rivojlantirishga qo'shiladigan hissaga; xarakterming ijobjiy xislatlariga) e'tiborni kuchaytirishi kerak. Boshqa kishilarga hurmat va ochiq ko'ngillik bilan munosabatda bo'lish, bir-biridan farq qiladigan madaniy, diniy va ijtimoiy muhitlardagi kishilar hayotining xilma-xilligini tushunish ruhini singdirish zarur. Har qanday millat kishisi o'zini bemalol his qilishi, himoyalanganligi, "o'zga" qo'shni va dunyo bilan oshkora hamjihatlik qila olishini his qiladigan hamjihatlik muhitini yaratishga ko'maklashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag'rikenglik ruhini tarbiyalashda o'zimizning holatimizni, an'analarimiz va madaniyatimiz xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, odamlarning u yoki bu ko'zlangan anglashga va o'zimizga bog'liq bo'limgan sharoitlarning xususiyatlarini e'tiborga olishga tayyorligini hisobga olib ish tutmoq kerak bo'ladi.

Bag'rikenglikning asosi – avvalo shaxsning tajribasidadir. Shu sababli bag'rikenglik tarbiyasi, pedagogika nuqtai nazaridan, ijobiq bag'rikenglik tajribasini aniq maqsad yo'lida tashkil etishdan, ya'ni "o'zga" kishilar bilan birgalikda harakat qilishni talab etuvchi shart-sharoitlarni sobit qadamlik bilan yaratishdan iborat.

Hamkorlikka tayyorlik ruhini shakllantirish jarayoni naqadar ertaroq boshlansa, shaxsning o'zaro harakat vaziyatlaridagi imkoniyatlari, o'rni va baholi qudrat yordam berishi zaruriyatini anglashi shu qadar tezroq sodir bo'ladi. Shu boisdan, go'dak tug'ilishi bilanoq, uning ongini atrofdagi dunyo va kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda oilaga birinchi darajali rol ajratiladi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, oiladagi muhit: kattalarning o'zaro munosabatlari, fikr va mulohazalar, yurish-turishi va harakatlari jonli va ta'sirchan namuna bo'ladi. Go'dakning dastlabki tushunchasi bilan uning voyaga etganda odamlarga hayrixohik munosabati o'rtasida juda katta masofa borligi barchaga ayon bo'lgan holdir. Go'dak ulg'aya borgan sari uning bag'rikenglik tushunchasi ham o'zgarib, kengayib boradi, bu esa keng va tor ma'noda ijtimoiy-madaniy muhiddagi urf-odatlarni qanday o'zlashtirishiga bog'liq bo'ladi. Uning hayotda orttirgan tajribasi ko'pincha ko'ngilchanglik va xayrixohlikni rivojlantirishga yordam bermasligi mumkin. Inson uchun qaysi fe'l-atvor shakllari ustuvor bo'lishi har bir kishining shaxsiy xislatlari va jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy vaziyatga bog'liq bo'ladi.

Modomiki shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda bag'rikenglik qarashlarini rivojlantirish, ularga har bir kishining ornomusi, nafsoniyat chegarasi borligini tushuntirish, shu chegaradan o'tish uni hafa qilishi va hatto ranjitishi muhimligini ta'kidlash kerak. Xalqlar va hatto odamlar o'rtasidagi adovat ko'pincha ana shu chegarani buzishdan kelib chiqadi. Odamlar turli madaniyatlarga mansub bo'lganliklari uchun ularning urf-odatlari ham har xil bo'ladi. Ijobiq va salbiy madaniyatlar yo'q, ularning har biri noyob va betakror bo'lib, go'dak aynan mana shularni o'qib olishiga yordam berish kerak. Bag'rikenglik – o'zga kishilarning boshqacha ekanligini, tanasining rangi, ko'z tuzilishi bir-biridan farq qilishini, hurmat qilish ham demakdir. Bag'rikeng bo'lish o'zgalar qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish va ular ham yashash xuquqiga ega ekanligini anglash demakdir.

Turli ta'lim va tarbiya muassasalari bu jarayonga qo'shiladilar, zero ularda millatlararo muomalaning ijobiq an'analariga asoslangan ijtimoiy-

madaniy muhit vujudga keltirilsa, bu narsa turli millat o'quvchilari o'rtasida bo'linish va ixtiqlaflarni bartaraf etishga ko'maklashadi hamda millatlararo muomala tajribasini shakllantirish, mojarolarni oldini olish vazifasini hal etish imkonini beradi.

Bolalar bilan bag'rikenglik tarbiyasi sohasida olib boriladigan ishda ta'lif muhiti, avvalo maktabning pedagoglari — o'qituvchilar, tarbiyachilar, ijtimoiy fan muallimlari, psixologlar, bolalar yetakchilari va shu kabilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Mazkur murakkab masalada, birinchidan, bag'rikenglik tarbiyasining mohiyati, mazmuni va ko'rinishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, ikkinchidan, ana shunday tarbiyaning imkoni bo'lgan vositalari, texnologiyalari to'g'risidagi tasavvur va uchinchidan, pedagogning o'zi bag'rikeng bo'lishi juda zarurdir. Bag'rikenglik — pedagogning vazifalari, ish mazmuni va xarakteri taqozo etadigan o'z kasbiga xos fazilat bo'lmog'i kerak.

"Bag'rikenglik pedagogikasi" degan tushuncha endilikda tez-tez ishlatalmoqda. Bu tushuncha bag'rikenglik makonini, muloqot va muomala madaniyatini shakllantirishni bildiradi. Bunda odamlar bir-birining ko'nglini tushunib, tashvishlariga hamdard bo'ladi, bir-biriga o'zaro hamnafaslik tuygs'usi bilan yashaydi. Yangi Zelandiya pedagoglari o'qituvchining bu sohadagi o'z vazifasini bajarishi uchun quyidagi yo'naliishlarni taklif qildilar. Masalan, o'qituvchi:

- o'zini taqlid qilsa bo'ladigan namuna deb tushunishlarini anglaydi;
- muloqotni rivojlantirish va mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun tegishli ko'nikmalarni o'zlashtirib oladi hamda ulardan foydalanadi;
- muammoni hal etishga ijodiy yondoshuvlarni rag'batlantiradi;
- ta'lif jarayoni qatnashchilarining birgalikdagi amaliy faol harakatlari uchun, bu sohadagi shaxsiy yutuqlar uchun sharoit yaratadi;
- do'q-po'pisa yoki ashaddiy raqobatchiliik fe'l-atvori payini qirqadi;
- birgalikdagi faoliyat dasturlarini ishlab chiqish va bu soxada qarorlar qabul qilishga o'quvchilar va ota-onalarni jalb qilishga ko'maklashadi;
- tanqidiy fikrlashga, o'zgalarning nuqtai nazarini qadrlashga o'rgatadi, ayni vaqtda nizoli masalalar xususida o'z fikr-mulohazalarini aniq-ravshan ifodalab beradi;
- madaniy xilma-xillikni qadrlaydi, hamda madaniy tafovutlarni va ularning hayotda namoyon bo'lishini tan olishi uchun sharoit yaratib beradi.

Olimlarning ta'kidlashicha, bag'rikenglikni shakllantirish maqsadida pedagogika sohasida quyidagi sharoitlarni yaratish zarur:

- ta'lif muassasasida yagona bag'rikenglik muhitini yaratish;
- o'quvchilar va pedagoglarning birgalikdagi hamkorligi orqali teng huquqli muloqotga tayyorligi va qobiligidan iborat bag'rikenglik xislatlarini shakllantirish;
- faol ta'lif usullarining turli shakllaridan foydalanish;
- pedagoglar va o'quvchilarning muomaladagi (kommunikativ) bag'rikenglik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- pedagog xodimlarning psixologik pedagogika sohasidagi bilimdonligini oshirish dasturini ro'yobga chiqarish;
- bag'rikenglik muammosiga oid ma'lumotlilik saviyasini ko'tarish maqsadida o'quvchilarga dars berish saviyasini oshirish.

Bag'rikenglikning sifat chegaralari ham borligini pedagog yaxshi bilishi kerak. Bu chegaralar u yoki bu obyekt xususidagi qarashlarni to'la-to'kis qabul etish, ularga rozi bo'lish va keng ma'noda do'stona qarashdan tortib, bevosita yoki bilvosita aloqoni nazar-pisand qilmaydigan loqaydlik va beparvolikkacha odamlarni, fikr-mulohazalarni, vaziyatlarni pinhona yoki oshkora idrok etmasliq biror kimsaning o'zi bilan teng bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi fikrga yo'l qo'ymaslikkacha, toqatsizliq mojararo, hatto tajovuzkorlikkacha yetib borishi mumkin.

Bag'rikenglik tarbiyasiga oid biror-bir tadbirni o'tkazishdan avval bu haqida jamoatchilik fikrini so'rab ko'rish maqsadga muvofiqdir, bunday tadqiqotdan kuzatilgan maqsad mazkur odamlar orasida toqatsizlik muammosi naqadar o'tkir bo'lib turganligini aniqlashdan; muayyan millat vakillarining o'zga millat, madaniyat, din va siyosiy qurash vakillariga munosabatini o'rganishdan; odamlar kimlarga ko'proq ishonmasliklarini aniqlab ko'rishdan, ularga bag'rikenglik tushunchasining o'zi qanchalik tanish ekanini bilib olishdan iborat.

Maktab va kollejlarning o'quvchilarigina emas, hatto oliy o'quv yurtlarining talabalari ham, ko'pincha "bag'rikenglik-tolerantlik" tushunchasi bilan tanish emasliklari ish davomida tez-tez ma'lum bo'lib qolmoqda. Shu sababli, "bag'rikenglik" degan umumiyl nom bilan munozara klublari — davra suhbatlarini o'tkazish zarur.

Buning uchun avvaldan tayyorgarlik ko'rish: tushuncha bilan tanishish, muayyan guruhning tolerantligi yoki notolerantligini aniqlash maqsadida turli usullar yo'li bilan muammoga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Turli guruhlar (maktab o'quvchilari, oliy o'quv yurti talabalari

va shu kabilar) bilan ish olib borganda, har bir guruhga o‘ziga xos ravishda yondoshish talab qilinadi. Masalan, bu ishda oliv o‘quv yurtining talabalariga bir kun talab qilinsa, maktab o‘quvchilariga uch kun beriladi. Guruhlarda ish olib borilayotganida qisqacha ma’ruzalar o‘tkaziladi.

Shaxslarni madaniyatlararo hamjihatlikka tayyorlashning bir qancha uslublari mavjud. Modellar ta’lim usuliga qarab didaktik yoki empirik bo‘lishi, mazmuniga qarab umummadaniy yoki madaniy o‘ziga xos bo‘lishi, asosiy natijalarga erishish sohasiga qarab, kognitiv, emotsiyonal bo‘lishi mumkin yoki fel-atvor sohasiga qarab, bir-biridan farqlanadi. Shu asosda guruhlarda o‘zaro harakatga tayyorgarlik paytida dasturlarning asosiy tillari ajratiladi. 1-etnik birlikning madaniyati va boshqalar haqidagi bilimlarni olish maqsadini ko‘zlovchi maorif, 2-inson uchun yangi bo‘lgan tevarak-atrofdagilar bilan, ularning asosiy g‘oyalari, qadriyatlar bilan tanishish maqsadini ko‘zlovchi Orientir (yo‘nalish) berish. 3-vujudga kelishi ehtimoli bo‘lgan muammolarga keng nazar bilan qarashni ta’milaydigan yoki yangi tevarak-atrofqa moslashishning ayrim jihatlariga asosiy e’tiborni qaratadigan Instruktaj (yo‘l-yo‘riq) berish. 4-ta’limning boshqa guruhlari a’zolari bilan bevosita hamjihatlikka amaliy ravishda yo‘nalishni ta’milaydigan trening.

Bag‘rikenglik ruvida tarbiyalash jarayonida ta’limning faol interaktiv usullaridan foydalanish ma’quldir. Ta’limning bu usullari — oshkora muhokama modeli bo‘lib, u o‘quvchilarda bahslashish, munozara qilish va nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish qobiliyatini rivojlantiradi, ko‘pgina fanlarni o‘qtishda pedagoglarga yordam beradi. Bolalarga ta’lim berish va pedagoglar jamoasi muammolarini hal etishga yangicha yondoshish uchun o‘z o‘quvchilari va pedagoglarning hurmati ortib borishini his qiladilar. Mazkur usullardan foydalanilganda o‘quvchilarning ta’lim dasturiga qizqishi oshadi.

Ammo, bu natijaga erishmoq uchun, avvalo, madaniy muomala ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliy yordam berish va trener-pedagoglar tayyorlash maqsadida treninglar o‘tkazish yo‘li bilan pedagoglarning o‘ziga ta’lim berish kerak bo‘ladi. Bunday treninglarda tarbiya jarayoniga taalluqli bo‘lgan ko‘pgina masalalar muhokama qilinadi. Kichik guruhlarda ishlash, “aqlni charxlash” (“mozgovoy shturm”) va boshqa usullardan foydalanish asosiy vositalar hisoblanadi.

Sifat orqali ta’lim berish o‘zgalarning nuqtai nazarini qabul qilish va qullab-quvvatlash, halollik va ochiqlikka ko‘maklashuvchi muhitni vujudga keltirish, rag‘batlantirish va rahbarlik qilish; o‘quvchilarning

to‘la-to‘kis roziligi va ishonchini qozonish mahoratiga asoslanadi. O‘qituvchi bilan o‘quvchi – bir jamoaning uzviy qismlari bo‘lib, umumiy maqsadga erishish yo‘lida ishlaydilar. Munosabatlarning samaradorligi har bir qatnashchining qadr-qimmatiga ishonishga, uning mustaqil va mas’ul bo‘la olish qobiliyatiga asoslanadi.

Odamlar o‘z his-tuyg‘ularini har safar himoya qilishga yoki kimgadir qarshilik ko‘rsatishga zarurat bo‘lmagan taqdirda yangiliklarni osonroq o‘zlashtirib oladilar. Pedagog o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini o‘zi baholay olish, mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantirish, o‘zini mustaqilroq his etish imkoniyatini berishi kerak.

Mashg‘ulotlar shunday tashzda tashkil etiladiki, unda qatnashuvchi har bir kishi turli vaziyatlarda yashagandek bo‘ladi, o‘zining yetakchilik qobiliyatini, boshqalarni qo‘llab-quvvatlash va xizmatlarini e’tirof etish, ijod qilish, ishontirish, o‘z nuqtai nazarini qattiq turib himoya qila olish, shuningdek o‘zgalarning fikrlarini tushunish, qabul qilish va shu kabi qobiliyatlarini belgilab oladi. Xullas, har bir qatnashchi o‘zini teng huquqli suhbatdosh sifatida his qiladi, o‘z shaxsining ko‘plab turli-tuman jihatlarini kashf etadiki, bu xislatlar unga aloqa o‘rnatish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish imkoniyatini beradi. Bunday mashg‘ulotlar, psixologlarning fikricha, o‘quvchilar shunchaki ko‘zatuvchi bo‘lib qolmasdan, baiki ularga qiyin muammolarni hal etish imkonini beradi; bilim va faoliyat tajribasini mashq vaziyatidan real hayotga tadbiq etish uchun juda katta imkoniyat yaratadi, ruhiy jihatdan esa qiziqarli va ko‘ngillli tarzda bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlangan fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan xulosa shuki, bag‘rikenglik tarbiyasini o‘quv jarayoni bilangina cheklamasdan, mashg‘ulotlardan tashqari vaqlarda ham uzuksiz davom ettirish kerak. Buning uchun bag‘rikenglik mavzusida turli tadbirlar, anjumanlar, spektakllar, ijodiy ko‘riklar o‘tkazib turish mumkin.

Madaniyatlararo muloqotga bag‘ishlangan o‘ziga xos klublar yaratish ayniqsa foydali bo‘lar edi. Unda turli millat kishilarini muloqotga, muayyan etnos madaniyatini chuqurroq anglashga qiziqtiradigan o‘ziga xos etnik taqdimot o‘tkaziladi. Bunday tadbirlar milliy parokandalik va yotsirashni bartaraf etishga, turli madaniyatlarning o‘zaro hamjihatligiga yordam beradi.

“Bag‘rikenglikka sayohat” deb atalgan maxsus tarixiy etnografik tadbir ham o‘tkazilishi mumkin. Nihoyat, yoshlarning maxsus yozgi oromgohi tashkil etiladi, unga turli tanlovlarning g‘oliblari borib, bag‘rikenglik tarbiyasi masalalariga bag‘ishlangan maxsus trening (mashqlar) o‘tkazadilar.

Mavzuning oxirida yana bir narsani ta'kidlab o'tish darkorki, sabr-qanoat va mehr-oqibat g'oyalari munosib o'rin olmagan oila, do'stlar yig'ini, ishlab chiqarish tuzilmasi, umuman jamiyat buzg'unchilik jarayonlariga mahkum bo'lishi, o'z ildizlari, tarixiy va milliy an'analarini "eson-omon yashash" istiqbollarli, yangilik sari muttasil rivojlanish, huquqiy himoyalananish va baxtiyor ravnaq topish istiqbollarini yo'qotishga mahkumdir.

Mustaqil O'zbekiston erishgan yutuqlari, uning nihoyatda boy tarixiy merosi, madaniyati va san'ati butun dunyoda doimiy qiziqish uyg'otib, sarmoyadorlar va sayohatchilarni o'ziga jalb qilmoqda. Bu sohada O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining tafakkuri, turmush tarzi va fe'l-atvorigagi bag'rikenglik tamoyillari shubhasiz muhim o'rindan tutadi.

Xo'sh, O'zbekiston bag'rikenglik modelining ajralib turuvchi xususiyatlarni nimalardan iborat?

Birinchindan, bu modelga o'zbek xalqining ming yillik tarixga asos bo'lgan mehmondo'stlik, bag'rikenglik, o'zga xalklar, madaniyatlar va dirlarga hurmat fazilatlari asos qilib olingan.

Ikkinchindan, mustaqillik sharoitida bag'rikenglik siyosiy madaniyatlarni emas, davlatimiz siyosatining muhim tamoyili ham bo'lib qoldi. Hozirgi jahondagi alg'ov-dalg'ovli zamonda bag'rikenglik masalalari ayniqsa diqqat markazida turishi taqozo etiladi.

Yosh avlodning ongi-shuuri nozik tabiatli bo'lib, bag'rikenglikka zid bo'lgan turli zararli oqimlar ta'siriga beriluvchanligi vajidan ularning tarbiyasiga murg'akligidan sezgirlik bilan yondashish zarur. Jumladan, ma'rifat tizimida va ommaviy axborot vositalari orqali ularga fuqarolik mehr-muhabbatni va bag'rikenglik urug'larini sochmoq kerak. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda O'zbekiston tarixidagi ibratli voqeahodisalardan misollarni esga solish foydadan xoli bo'lmaydi. Tarix saboqlari yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongini bag'rikenglik ruhidagi shakllantirish, ularga odamiylik, vatanparavarlik, Vatanga, ota-onaga, yor-birodarlarga sadoqatli bo'lish fazilatlarini singdirishning eng ta'sirchan vositasidir.

Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston eparxiyasining mitropoliti Vikentiy e'tirofi g'oyat ibratlidir. O'zbekiston axolisining ko'pchiligi islom dinida bo'lishiga karamay, — dedi u, — bu xol insonlararo munosabatlarga salbiy ta'sir qilayotgani yo'q. Moskva va butun Rus patriarxi Kirill ham O'zbekistonga tashrifi chog'ida shu fikrni ta'kidladi. Bag'rikenglik mahalliy aholi o'z din vakillariga toqatliligidagina emas, qalbi kengligining ham nishonasidir, — dedi u.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Patriarx Kirill yoshlari tarbiyasi bilan chuqur shug'ullanishning muhimligi, ularga maorif saboqlarini kuchaytirish zarurligi to'g'risida ibratli gaplarni aytishdi. Ekstremizm mayllarini so'ndirishga urinish oqibatni davolashnigina nazarda tutadi, Holbuki shunday mayllarni keltirib chiqarayotgan asosiy sababni aniqlab, uni tag-tugi bilan yo'qotishni bosh vazifa deb bilmox kerak. O'zbekiston shunday mamlakatdirki, uning xalqi azaldan alohida mentalitet ruhida tarbiya ko'rgan. Islom madaniyatining mavjudligi zamонавиyo ko'pgina illatlarini chetdan o'tib, radikalizmni bartaraf qilish imkonini beradi, – deb ta'kidladi Patriarx Kirill.

O'zbekistonda ko'pmillatli madaniyat, o'ziga xos siyosiy tizim mavjud, deb ishonch bilan aytish mumkin. Qarorlar qabul qilishda yuzdan ortiq millat va elatning manfaatlarini e'tiborga oluvchi demokratik institutlar mavjud.

Yurtimizda bag'rikenglik sohasida katta tarixiy tajriba mavjud bo'lishiga qaramay, hozirgi paytda Respublikada bag'rikenglik tarbiyasini yanada mukammal bir tizimga solishning bir qator yo'nalishlarini belgilab olish zarur, deb hisoblaymiz:

- bag'rikenglik muhitini shakllantiruvchi tadbirlar tizimini amalga oshirish;
- jamiyat turmushining barcha jabhalarida bag'rikenglik muhitini, bag'rikenglik ongi va fe'l-atvorini shakllantirish sohasida ishlab chiqilgan samarali texnologiyalarni joriy etish;
- yoshlar orasida bag'rikenglikni mustahkamlash va ekstremizm illatlarining oldini olish;
- tinchlik va bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish ishida xalqaro va mintaqalararo hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish;
- bag'rikenglikka oid tadbirlar ro'yobga chiqarilishini ilmiy- uslubiy jihatdan ta'minlash;
- har yili 16-noyabr kuni Respublika axolisi "Xalqaro bag'rikenglik kuni"ni keng miqyosda nishonlashini yo'lga qo'yish.

### Savol va topshiriqlar:

1. "Ommaviy madaniyat"ni yoshlarga salbiy ta'sirini tushuntiring.
2. Millatlararo muomala madaniyatini Siz qanday tushunasiz?
3. O'zbekiston davlati tomonidan yoshlarga e'tiborni siz nimada ko'rasiz?
4. Yoshlar ittifoqi ijtimoiy harakatining sizni hayotingizdag'i rolini izohlang.
5. Qaysi yo'llar bilan yoshlarda bag'rikenglik ongini takomillashtirish mumkin?

### **Kalit so‘zlar:**

Yoshlar, bag‘rikenglik, “ommaviy madaniyat”, muomala madaniyati, bag‘rikenglik dunyoqarashi, pedagogik usullar.

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi nutqi. 2017-yil 24-yanvar.

2. Millatlararo munosabatlар va xorijiy davlatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Farmoni. 2017-yil 19-may. AF-5046-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ajodolarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdalar” nutqi. 2017-yil 19-sentyabr.

4. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

### **Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. “Yoshlarga oid Davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun.

2. Yoshlarga oid Davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekistoni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 27-son, 607-modda.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Murtazayeva R.X. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlар va bag‘rikenglik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2007.

### **Qo‘srimcha adabiyotlar:**

1. Voxidov M.T. Tolerantlik – yoshlarni ijtimoiy-axloqiy yuksaltirish omili. Falsafa. Fan.nomz.avtoref. – Toshkent, 2010.

## GLOSSARIY

**Avtoxton** (aborigen – tub aholi) – kelib chiqishi muayyan hududga tegishli, mahalliy, tub joy aholi.

**Adaptatsiya(moslashuv)** – (lotincha adaptare so‘zidan olingan – moslashtirish) – immigrantlarning o‘zga mamlakatdagi yangi sharoitga moslashuvi jarayoni.

**Assimilyatsiya** (lotincha assimilatio s.o. – o‘xshash, qo‘shilish, o‘zlashtirish). Keng ma’noda olganda assimilyatsiya deganda avval ichki tuzilishi, qadriyat yo‘nalishlari, madaniyati farqlı bo‘lgan ikki yoki undan ortiq guruh o‘z tili madaniyati va milliy ongini yo‘qotib, boshqa xalqqa qo‘silib, singib ketishi tushuniladi.

**Aholining migratsiyasi** (lot. migration – “ko‘chib o‘tish”) – odamlarning yashash joylarini doimiy yoki vaqtincha o‘zgartirishi bilan bog‘liq ko‘chishi.

**Bag‘rikenglik** (tolerantlik) – hurmatni; dunyomizdagи boy turfa madaniyatlarni, o‘zligimizni namoyon qilish shakllarini va inson o‘ziga xosligini ko‘rsatish usullarini qabul qilish va tushunishni anglatadi (2-variant: o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatl bo‘lishni anglatadi). Unga bilim, samimiylit, muloqot va fikr, vijdon, e’tiqod erkinligi imkon beradi. Bag‘rikenglik bu – rang-baranglikdagi uyg‘unlikdir. Bu nafaqat ma’naviy burch, balki siyosiy, huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik bu – saxovat bo‘lib, tinchlikka erishuvga imkon yaratadi va urush madaniyatini tinchlik madaniyati bilan almashtirishga yordam beradi.

**Bilingvizm** (ikki tillilik) – ikki tilni bilish; odatda ulardan biri ilk bolalikdan o‘rgangan ona tili bo‘lsa, ikkinchisi esa o‘zga etnik guruhlar bilan muloqot qilinadigan til bo‘ladi.

**Biznes-immigratsiya** – muayyan mamlakat iqtisodiyotiga o‘z mablag‘larini investitsiya qiluvchi tadbirkorlar (va oila a’zolari)ning ko‘chishi.

**Vaqtincha istiqomat qiluvchilar** – aholini ro‘yxatga olishda alohida ajratib ko‘rsatiladigan qo‘sishma toifa. Vaqtincha yashovchilar – ro‘yxatga olish vaqtida mazkur turar joyda yoki shu hududda turgan, ammo boshqa joyda doimiy ro‘yxatdan o‘tgan (xizmat safariga, vaqtincha yoki mavsumiy ishga, ishlab chiqarish amaliyotiga, ta’tilga, mehmonga va sh.k. kelgan) odamlar majmui.

**Vatanparvarlik** – vatanga muhabbat, ona yurtga sodiqlik. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning

vatanparvarlikka asoslangan g'oyasi O'zbekiston xalqi milliy taraqqiyot yo'lining asosiylaridir.

**Voevodalik (sarkardalik)** – Markaziy va Sharqiy Yevropaning ba'zi mamlakatlarida **sarkarda** boshqaradigan ma'muriy-hududiy birlik. O'rta asrlarda voevodalik Polsha, Vengriya, Litva, Latviya, Ukrainada mavjud bo'lgan.

**Genotsid** – biror milliy, etnik yoki diniy guruhni batamom qirib tashlash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat. Bunga faqat qirib tashlashning o'zi emas, u yoki bu guruhning qirilib ketishiga, jismoniy va aqliy tubanlashishiga olib boruvchi sharoit yaratilishi ham kiradi.

**Globallashuv** – ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida integratsiya, standartlash va o'zaro bog'liqlikning kengayishi, chuqurlashuvi va jadallashuvi; dunyoning yaxlitligi; umumjahon aloqalarining bir butun tizimini yaratishga olib boruvchi ko'pmillatlilik asosidagi umumjahon iqtisodiy, madaniy va siyosiy integratsiya. Masalan, jahon iqtisodiyotining globallashuvi – dunyoda milliy iqtisodiyotlararo mustahkam aloqalarning yuzaga kelishi.

**Deportatsiya** (lot. *Deportatio* s. o.) – muayyan shaxslar, guruhlar, xalqlarni mamlakat yoki biron mintaqalarda chegarasidan tashqariga badarg'a, surgun qilish, majburan chiqarib yuborish, haydash.

**Diaspora** (grekcha *diaspora* s. o.) – o'z tarixiy vatanidan tashqarida (yoki o'z xalqi joylashgan hududdan tashqarida) o'zga etnik qurshovda yashovchisi etnik kelib chiqishi bir xil bo'lgan odamlarning turg'un birligi. Ularda ushbu milliy jamoa rivojlanishi uchun ijtimoiy muassasalar mavjud bo'ladi. Diaspora deganda uzoq vaqtlar faqat noyob hodisa bo'lmish yahudiylar tushunilgan. Bora-bora ushbu atama ko'plab boshqa xalqlarga nisbatan ham qo'llana boshladi, chunki aholining migratsiyasi faollashdi, "tarqalish" esa ko'proq ro'y bera boshladi.

**Diasporaviy elita** (sara kishilar) – o'z etnik muhitidan yashab turgan mamlakati jamiyatining eng Yuqori pog'onalariga ko'tarilishga muvaffaq bo'lgan rahnamolarni anglatadi. Hozirgi davrda siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy, harbiy, intellektual elita farqlanadi.

**Diskriminatsiya** – irqiy, etnik kamsitish – shaxs huquqlarining yuridik rasmiylashtirilgan yoki amaldagi cheklanishi (mahrum etilishi), biror-bir odamlar guruhining hukmon millatdan farqli irqiy, etnik mansubligi asosida ta'qib qilinishi.

**Donor mamlakat** – 1) boshqa davlatlarga yordam (birinchi galda iqtisodiy yordam) ko'rsatuvchi mamlakat; 2) boshqa mamlakatlarga emigrantlar ommasi o'tadigan davlat.

**Identiklik** (aynan o‘xshashlik, tenglik, bir xillik) –shaxs va uning o‘zini anglashining barqarorligi, aynan bir xilligi, izchilligini aks ettiruvchi ko‘p ma’noli hayotiy va umumilmiy atama.

**Immigrant** – boshqa mamlakatga uning fuqaroligini olish maqsadida doimiy yashashga kelgan shaxs. Turli mamlakatlarda immigrant maqomini belgilashda uning mamlakatda bo‘lishi vaqt va kelish maqsadiga asoslangan xususiyatlar mavjud. Xususan, AQSHda doimiy yashovchi maqomini olgan shaxslar immigrant hisoblanadi, ular AQSHning fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo‘lishadi, ammo saylash va davlat lavozimlarini egallash huquqiga ega bo‘lmaydilar.

**Immigratsiya** (*lot. immigratio* s.o.) – mamlakatga xorijiy fuqarolarning doimiy yashash yoki uzoq yashash uchun hamda uning fuqaroligini olish uchun kelishi. Bu jarayon odatda aholining nufusi, soni, yosh-jins va etnik tarkibiga sezilarli ta’sir qiladi.

**Internirlash** (*lot. internus* “ichki; mahalliy”) – xalqaro amaliyotda o‘zaro urushayotgan davlatlardan birining ikkinchi urushayotgan davlat fuqarolarini yoki betaraf davlatning o‘zaro urushayotgan davlatlar harbiy xizmatchilarini zo‘rlik bilan ushlab turishi. Ayrim hollarda bir davlat (odatda urush vaqtida) ishonchsz deb hisoblangan o‘z fuqarolarini ozodlikdan mahrum etishi yoki boshqa joyga ko‘chirishi ham internirlash deb ataladi.

**Integratsiya** (*integratio* – tiklash, to‘ldirish, bir butun qilish) — o‘ziga xos jarayon bo‘lib, uning natijasida turli elementlar birlashadi, ammo o‘zining asosiy belgilarini saqlab qoladi. Uyushmani hosil qiluvchi guruhlarning uyushma birligiga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan xususiyatlaridan tashqari barcha tafovutlarini tugatish yoki bir xillikka erishishi talab qilinmaydi. Integratsiya barcha fuqarolar uchun huquqlar, majburiyatlar va imkoniyatlar tengligini kafolatlaydi.

**“Imperiya” millati** – o‘z vakillarining zinch yashaydigan joylarida metropoliya maskanlarini yaratib, mahalliy o‘lka va aholini o‘z taomili, urf-odatlari, rasm-rusumlariga moslashtiruvchi millat.

**Ichki (davlat ichidagi) migratsiya** – odamlarning bir mamlakat ichida boshqa hududga ko‘chishi. Ichki migratsiyalarda shu davlat fuqarolari qatnashadi, ular fuqaroliklarini o‘zgartirishmaydi. Ichki migratsiyalar mamlakat axolisining sonini o‘zgartirmay, uning hududiy taqsimlanishiga ta’sir qiladi. Ichki migratsiyalar tashqi migratsiyalardan farqli ravishda odamlarning sonini boshqalar hisobiga oshirmaydi, balki o‘sha miqdordagi odamlarning geografik joylashishinigina o‘zgartiradi.

**Iqtisodiy bo'shliq** – ishlab chiqarilishi va sotilishi tadbirkorlik muvaffaqiyatini va'da qiladigan mollar(tovarlar) va xizmatlar bozorining band emas yoki to'liq o'zlashtirilmagan bo'sh tarmog'i.

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi** – BMT Bosh Assambleyasining uchinchisi sessiyasida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan, BMTga a'zo barcha mamlakatlarga tavsiya qilingan hujjat. Deklaratsiya 30 moddadan iborat bo'lib, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'risidagi xalqaro pakt, Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro pakt va ikki fakultativ bayonnomalar bilan teng ravishda Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro Billning bir qismi hisoblanadi.

**Integratsiya** – keng ma'noda birlashuv, bir-biriga singishni anglatadi. Qaysidir elementlarning bir butun bo'lib birlashuvi. O'zaro yaqinlashish va o'zaro aloqalarning yuzaga kelish jarayoni.

**Irredenta** – etnosning ona o'zak qismidan ajralib chiqib, o'z tarixiy vataniga chegaradosh davlatlarda zinch yashaydigan qismi, ayniqsa ular qo'shni mamlakatlarda ko'proq to'planadi.

**Irredentizm** – etnosni bir davlat miqyosida birlashtirish siyosatini anglatish uchun ishlatiladigan atama. Bunda etnos ko'pchilikni tashkil qiluvchi titul davlat bilan irredenta yashovchi hududni birlashtirish masalasi ko'tariladi.

**Qaytishsiz migratsiyalar** (ko'chib o'tish, doimiy migratsiya) – ushbu so'zning qat'iy ma'nosidagi ko'chishlar. Bir qator tadqiqotchilar qaytishsiz ko'chishlarni to'liq, ya'ni butunlay sodir bo'lувchi ko'chish deb ataydilar. Qaytishsiz ko'chishningaynan ikkita sharti bor: birinchidan, aholi bir turar joydan boshqasiga ko'chadi va, ikkinchidan, doimiy yashash joyini o'zgartiradi. Birinchi shart aholining turar joylar ichidagi turli ko'chishlarini, ikkinchisi esa – doimiy turar joylarini almashtirib turishini istisno qiladi.

**Keng ma'nodagi etnik siyosat** – ko'p millatli, ko'p elatli davlat sharoitida siyosatning tarkibiy qismi va o'ziga xos jihatlari. Siyosatning umumiy konteksti tarkibiga kiritilgan bo'lsa-da, u birmuncha mustaqil bo'lib, shu tariqa ijtimoiy, ya'ni milliy taraqqiyotni tezlashtirishi ham, susaytirishi ham mumkin.

**Konfessiyalararo munosabatlari** – 1) turli konfessiyalarning, shuningdek, turli din tarafдорлари hamjamiyatlarining o'zaro munosabatlari. Turli konfessiyali hamjamiyatlarining barqarorligi konfessiyalararo munosabatlarga bog'liq. Konfessiyalar oraşidagi totuvlik – o'zaro tinch va inoq yashashning zaruriy sharti; 2) ko'p etnosli jamiyatda ijtimoiy turmushning barcha jahbalaridagi o'zaro munosabat.

Tarixiy tajriba zaminida etnoslararo munosabatlarni tartibga solishning eng maqbul yo'llarini begilash. Ushbu muammo ko'pqirrali bo'lib, tarix va hozirgi zamon, shaxsning ma'naviy dunyosi, madaniyati, ta'lim, sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy munosabat masalalarini o'z ichiga oladi.

**Konfessiyalararo totuvlik** – milliy mustaqillik g'oyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib, bir davlatda yashovchi turli din vakillarining manfaatlari hurmat qilinishini bildiradi. Turli din vakillari o'rtaqidagi totuvlik umuminsoniy qadriyat bo'lib, davlatning milliy taraqqiyotini ta'minlaydi, uning hududida tinchlik va barqarorlikka kafil bo'lib xizmat qiladi.

**Qochoqlar** – doimiy yashab turgan mamlakatini favqulodda vaziyat tufayli tark etgan shaxslar.

**Qochoqlik** – urush yoki tabiiy ofat natijasida aholining o'z vatanini ommaviy ravishda tark etishi.

**Kosmopolitizm** – butun insoniyat hamjihatligiga, olamshumul muammolarning davlat, etnik, milliy, diniy va insoniyatni alohida jamoalarga ajratuvchi boshqa muammolarga nisbatan o'ta muhimligiga asoslangan dunyoqarash.

**Kompoldet** – sobiq SSSRda RSFSR maorif ministrligi qoshidagi Polyak bolalari ishlari bo'yicha qo'mita.

**Ksenofobiya** (grekcha "ksenos" – "notanish", "xorijiy" yoki "muhojir" va "fobiya" – qo'rquv so'zlaridan) – chet elliiklar yoki notanish odamlardan doimiy, g'ayritabiyy yoki haddan ortiq qo'rqish, toqatsizlik (yoki nafrat).

**Qo'shilish** (madaniy qo'shilish) – ikki yoki undan ko'proq madaniyat birlashib avvalgilaridan farq qiladigan yangi madaniyatni hosil qilish. Qo'shilish ham jarayon, ham natija sifatida madaniyatlarning tengligini aks ettiradi.

**Ko'chirilgan shaxslar** – BMTning 1946-yildagi rezolyutsiyasiga binoan ko'chirilgan shaxs bu – o'z fuqarolik davlatidan yoki avvalgi turar joyidan hukumat harakatlari natijasida badarg'a qilingan yoxud diniy, siyosiy yoki boshqa sabablarga ko'ra uyini tark etishga majbur bo'lgan shaxs. Ushbu atama harbiy harakatlar, sanoat halokatlari, tabiiy ofatlar (ocharchilik, suv toshqini, zilzila va b.sh.) qurbonlarigi nisbatan ham ishlatalidi.

**Mayatnikli migratsiyalar** – aholining turli manzillardagi yashash joyidan ish joyiga har kuni yoki har hafta borishi (va qaytishi) ni

anglatadi. Ko‘p mamlakatlarda mayatnikli migratsiyalarda shahar va qishloq axolisining anchagina qismi ishtirok etadi.

**Majburiy (zo‘ravonlik bilan) assimilyatsiya** – u yoki bu etnosni mustaqil birlik sifatida yo‘q qilishni (jismoniy jihatdan emas) maqsad qilib qo‘ygan muayyan milliy siyosatning namoyon bo‘lishi.

**Majburiy assimilyatsiya** – etnoslararo nizolarning sodir bo‘lish manbai. Majburiy assimilyatsiyani noilojlikdan sodir bo‘ladigan assimilyatsiyadan farqlash lozim, noiloj assimilyatsiya G‘arbning rivojlangan mamlakatlardagi migrantlarga xos bo‘lib, ularning tez assimilyatsiyasi muvaffaqiyatlari ijtimoiy va iqtisodiy moslashuvning muhim sharti bo‘ladi.

**Maxsus ko‘chkindi** (ko‘chirib yuborilgan shaxs – badarg‘a qilingan shaxs) – o‘z yashash joyidan aksari mamlakatning uzoq rayonlariga sud yoki kvazisud tartibisiz ko‘chirib yuborilgan shaxs. SSSRda qatag‘onga uchragan aholining alohida toifasi.

**Milliy-madaniy avtonomiya** – ko‘p elatlari (**polietnik**) mamlakatlarda milliy masalalarни yechishda etnik guruhlarga milliy an‘analarini hisobga olib, o‘z jamoalari, etnomadaniy birlashmalarini tuzish, ona tilida ta’lim beruvchi maktablar tashkil qilish va shu kabi huquqlarni berishga asoslangan nazariya va amaliyat.

**Mentallik** – etnos, ijtimoiy guruh, individning fikrlash tarzi, umumiyligi moyilligi kayfiyati. Mentallik xalqlar yashayotgan milliy va ijtimoiy-madaniy o‘ziga xosliklardan kelib chiqadi.

**Metaetnik jamoa** –tili, madaniyati va siyosiy jihatlari yaqin xalqlarning Rossiya etnologiyasida uchraydigan nomlanishi.

**Metisatsiya** – turli irq va etnoslar vakillarining o‘zaro jismoniy aralashuvni.

**Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot (MXT) (International Organization for Migration, YUM)** – hukumatlararo xalqaro tashkilot bo‘lib, 1951-yilda tashkil qilingan, qarorgohi Jeneva(Shvetsariya)da. O‘shanda Belgiya va AQSH tashabbusi bilan Bryusselda xalqaro konferensiya chaqirilgan, natijada migrantlarni Yevropadan ko‘chirish bo‘yicha Hukumatlararo muvaqqat qo‘mita (BMKTIME) tuzilgan. Tez orada BMKTIME Yevropada migratsiya bo‘yicha hukumatlararo qo‘mita (MKME) deb qayta nomlanib, 406 ming qochoq, ko‘chib kelgan shaxslar va iqtisodiy migrantlarni Yevropadan boshqa mamlakatlarga ko‘chirdi.

**Milliy siyosat** – davlatning u yoki bu milliy masalani yechishga qaratilgan qonunchilik, mafkuraviy, tashkiliy choralar majmui.

**Milliy ozchilik yoki etnik ozchilik** – biron davlat hududida yashaydigan, lekin tub millatga mansub bo‘lmay, o‘zlarini milliy jamoa deb anglaydigan kam sonli etnik guruh, uning a’zolari o‘sha mamlakat fuqarolaridirlar.

**Milliy harakat** – etnik guruh muhitida iqtisodiy, siyosiy hamda til va madaniyatga taalluqli manfaatlarni himoya qiluvchi harakat.

**Millat** – tilda ikki ma’noda ishlataladigan atama: 1) hujjatlarda etnik mansublikni bildirish uchun va 2) xalq va etnik guruh so‘zları sinonimi sifatida.

**Millatchilik** – kapitalizm davrida jahoning mustamlakalar va metropoliyalar, qoloq o‘lkalar va ilg‘or davlatlar, ozod xalqlar va mustabidlik iskanjasidagi xalqlarga bo‘linib ketishiga qarshi qurashuvchi demokratik, ma’rifatparvar hamda insonparvar kuchlardan farqli o‘laroq, bu ziddiyatlarni o‘z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haq-huquqlaridan Yuqori qo‘yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqim.

**Milliy masala** – ko‘p millatli davlatlarda o‘zaro ta’sir ko‘rsatuvchi millatlar va etnik guruhlar orasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishning umumiy va xususiy usullari haqidagi masala.

**Muvaqqat migratsiyalar** – asosan mehnatga yaroqli aholining vaqtincha ishlash va yashash joylariga bir necha oyga kelishi, bunda ular doimiy turar joylariga qaytish imkoniga ega bo‘ladilar. Vaqtincha migratsiyalar mavjud hayotiy mezонни yuksaltiribgina qolmay, ish kuchi tanqis bo‘lgan ishlab chiqarishning ehtiyojini ham qondiradi.

**Multimadaniy migratsiya** – mamlakat (mintaqa)ning madaniy va etnik xilma-xilligini oshirishga yordam beradi. Mamlakat(mintaqa)ga etnomadaniy xilma-xillikni ta’minlash uchun immigrantlarni jaib qilish unga asos qilib olingan.

**Ma’naviy madaniyat** – insonning o‘z faoliyati turli sohalaridagi ma’naviy tajribasi majmuasi bo‘lib, tur mush va ijtimoiy ishlab chiqarish, mehnat va hordiq, ilm-fan va san’at, insonning tabiat va Ollo bilan hamda o‘zi bilan munosabatini o‘z ichiga oladi. Ma’naviy madaniyat hozirgi va o‘tgan barcha inson avlod-ajdodlari tajribasidan yuzaga keladi. Aynan shu madaniyat sivilizatsiyaning o‘zagi bo‘lib, umuman butun madaniyatga ma’no bag‘ishlaydi; bu – ma’naviy madaniyat tushunchasini keng ma’noda anglashdir; tor ma’noda esa – insonning ma’naviy bilimiga asoslangan tajribasi ko‘rinishi. Masalan, ma’naviy ruhiyat. Tabiiyki, ma’naviy madaniyatga din va ilohiyot ilmlarini egallash kiradi. Ma’naviy madaniyat yashayotgan va yashab o‘tgan milliardlab insonlarning tajribasi majmuidan hosil bo‘ladi.

**Mehnat migratsiyasi** – odamlarning bandlik va ish qidirish bilan bog'liq ravishda hududlarda ko'chishlari majmuini bildiruvchi migratsiya turi.

**Milliy mustaqillik g'oyasi** – millatning tub manfaatlarini ifodalaydigan hamda O'zbekistondagi barcha xalqlar va etnik guruhlarning demokratik va huquqiy fuqarolik jamiyatি qurishga bo'lgan intilishlarini birlashtirishga, jipslashtirishga qaratilgan umummilliy g'oyalar va qarashlar tizimi.

**Mentalitet** – jamiyat, millat, birlik yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan ahliy qobiliyati, ruhiy quvvati. jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o'ziga xos an'analari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, diniy e'tiqod va irimlarini ham qamrab oladi.

**Naturalizatsiya** (naturlashtirish) -- mazkur davlat hududida uzoq vaqt yashayotgan, naturlashtirishning barcha talablariga javob beruvchi muhojirni fuqarolikka qabul qilish.

**Nikoh migratsiyasi** – odatda, qaytishsiz migratsiya, nikohdan o'tish munosabati bilan nikohlanuvchilardan birining ikkinchisining yurtiga doimiy yashash uchun ko'chib o'tishi. Bunday ko'chish mamlakat ichida yoki tashqarisida bo'lishi mumkin. Keyingi holatda ko'proq ayollar emmigratsiyasi haqida so'z boradi.

**Ozchilik** – davlat axolisining asosiy qismiga nisbatan son jihatdan ozchilikni tashkil etadigan, ustun mavqeni egallamaydigan guruh bo'lib, uning a'zolari bo'lgan shu davlat fuqarolari etnik, din yoki til nuqtai nazaridan asosiy aholi xususiyatlaridan farq qiladi, o'z madaniyati, an'analari, dini yoki tilini saqlab qolish maqsadida, bilvosita bo'lsada, asosiy aholi bilan birdamlik tuyg'usini izhor etadi. Ayrim guruhlar muayyan mamlakat axolisi nuqtai nazaridan ozchilikni tashkil qilsa ham, ammo boshqa mamlakatlarda yoki mamlakatning muayyan qismida ko'pchilikni tashkil qilish mumkin.

**Osadniklar** (polyakcha osadnicy, birligi osadnik – ko'chkindi) – polyak mustamlakachi-ko'chkindilari, Polsha Qo'shini(Voysko Polskoe)ning iste'foga chiqqan harbiylari, ularning oilalari, shuningdek, Rech Pospolityanining noharbiy ko'chkindi-fuqarolari.

**Paradigma** ("misol, andoza, nusxa" – ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinadigan va ma'qullanadigan funamental ilmiy ko'rsatmalar, tasavvurlar va atamalar majmui.

**Repatriatsiya** – (lotincha repatriate) – vatanga qaytish. Atama odatda harbiy asirlar, ko'chirilgan shaxslar, qochoqlar, emigrantlar va sh.k.larga nisbatan ishlatalidi.

**Retsipient mamlakat** – 1) tashqaridan iqtisodiy, moliyaviy va boshqa xil yordam qabul qiluvchi davlat; 2) o‘z yerlariga immigrантlar, qochoqlar va xorijiy o‘lkalarning boshqa toifa fuqarolari ommasi kirib kelishi va yashashiga ijozat beruvchi mamlakat.

**Separatizm (separatchilik)** – yangi mustaqil davlat tuzish yoki boshqa davlat tarkibiga kirish yoxud juda keng avtonomiya maqomini olish maqsadida davlat hududi bir qismining ajratilishi siyosati va amaliyoti. Separatizmni ikki turga bo‘lish qabul qilingan: etnik va diniy, ya’ni birinchi turda – etnik, ikkinchi turda esa diniy ozchilikning ajralib chiqish uchun harakati.

**Setsessiya** – o‘z huquqlari uchun kurashning o‘ziga xos usuli. Bir yoki bir necha tizimidagi siyosiy arboblar avvalgi siyosiy birlashuvdan voz kyechib, o‘z xayrixohliklari, umidlari va siyosiy faoliyatini mavjud markazdan boshqa tarafga o‘zgartirishi, o‘z markaziga butun diqqat-e’tiborni qaratishi tushuniladi.

**Suverenitet** – davlatga o‘z tashqi va ichki siyosatini mustaqil ravishda amalga oshirish imkonini ta’minlaydigan hokimiyat holati. Suverenitet – davlatning tashqi siyosat sohasida mustaqilligini, ichki ishlarda qarorlari ustunligi va so‘zsiz ijro etilishi shartligini nazarda tutadi.

**Subetnos (subetnik guruh)** – rus tilidagi ilm-fanda bir etnik guruh doirasidagi o‘ziga xos madaniy guruhlarni bildiruvchi atama.

**Tabiiy assimilyatsiya** – hududlar (alohida mintaqalar va butun davlatlar) va xalqlarning iqtisodiy hamda siyosiy yaqinlashuvining obyektiv jarayonlari (masalan, jahon xo‘jaligi baynalmilallahuvining o‘sishi) oqibati bo‘lib, bu ularning madaniy yaqinlashuviga kuchli turki beradi. Tabiiy assimilyatsiya o‘z yangi vatanida tub joy aholi tarkibiga qo’shilib, sekin-asta singib ketadigan migrantlarga xosdir.

**Tashqi migrantsiyalar** – aholining o‘zga mamlakatlar hududiga ko‘chib o‘tishi. Odatda davlatlararo ko‘chish natijasida fuqarolik o‘zgaradi. Ba’zida u yoki bu mamlakatga ko‘chib kelgan migrantlar uzoq vaqt avvalgi fuqarolikni saqlab yoxud fuqaroliksiz shaxs bo‘lib turadilar. Iqtisodiyoti nisbatan kamroq rivojlangan mamlakatlardan iqtisodiyoti yaxshiroq rivojlangan davlatlarga ko‘proq migrantlar ko‘chishadi.

**Titul etnosi, titul millati** – xalqaro huquqda davlatga nomi berilgan, shu davlatda yashaydigan xalq. Masalan, O‘zbekistonda titul millati

o'zbeklar hisoblanadi, Qozog'istonda qozoqlar, Rossiyada ruslar. G'arb tarixshunosligida "titul" so'zi atama sifatida asosan SHO'rolar Ittifoqi xarobalarida yuzaga kelgan davlatlar haqida so'z borganda ishlataladi.

**Tor ma'nodagi etnik siyosat** – ko'p millatli (ko'p elatlari) davlatlar hukumat tuzilmalari, siyosiy partiyalari, ijtimoiy harakatlarining milliy masaladagi strategik yo'li bo'lib, qonun hujjatlari, maxsus dasturlar va boshqa tegishli hujjatlarda tasdiqlangan bo'ladi.

**Transmillatchilik** – shunday jarayonki, uning yordamida immigrантлар kelib chiqish mamlakatlari va turar joylarini birlashtiruvchi ko'p qatlamli ijtimoiy aloqalar yaratib, ularni qo'llab turadilar.

**Xolokost** – nemis natsistlari va boshqa mamlakatlardagi kollaboratsionchilar tomonidan yahudiy xalqi va boshqa ozchiliklarning vakillarini ommaviy ravishda ta'qib qilish va qirib tashlash.

**Fuqarolik** – shaxsning muayyan davlatga mansubligi. U mazkur davlatdagi qonunlarga bo'ysunadi, fuqarolik huquqlaridan foydalananadi va majburiyatlarni bajaradi. Immigrantlar belgilangan qoida va shartlarga ko'ra fuqarolik oладilar, ular mazkur mamlakatda muayyan vaqt yashaganligi, rasmiy tilni va Konstitutsiyani bilishi ana shu qoida va shartlardandir.

**Shovinizm** – ashaddiy millatchilik, milliy ustunlik g'oyasi va siyosatining ifodasi. XIX asr boshlarida Fransiyada paydo bo'lgan "shovinizm" atamasi (Napoleon Bonapart bosqinchilik urushlarining yorqin tarafdoi oddiy askar N.SHovenning nomidan kelib chiqqan), endilikda milliy ekstremizmnинг namoyon bo'lishi ma'nosida ham ishlatilmoqda.

**Emmigratsiya** – biron mamlakatdan boshqasiga ketish (ba'zan vaqtincha – "vaqtinchalik" yoki "mavsumiy" emmigratsiya).

**Emigrant** (fransuzcha emigre) – fransuz tilidan kelib chiqqan so'z bo'lib, o'z vatanidan ko'chib ketayotgan shaxsni bildiradi.

**Etnodispers** – asosiy aholi orasida "tarqoq" bo'lgan etnik yoki diniy guruh bo'lib, ko'p sonni tashkil qiluvchi rayonlarni yuzaga keltirmaydi.

**Etnonim** – etnik o'zini nomlash, xalqning, etnosning o'z nomi.

**Etnik guruhi** – etnik jamoa (xalq, etnos)ning ilm-fanda eng tarqalgan atalishi, bunda umumiy etnik o'zini anglashga ega bo'lgan, umumiy nomlanish va madaniyat elementlarini qabul qiladigan va boshqa jamoalar bilan mustahkam aloqada bo'ladigan odamlar guruhi tushuniladi.

**Etnik anklav** – atrofi boshqa xalq yashaydigan hudud bilan to‘liq o‘ralgan, biron xalq zich bo‘lib yashaydigan joydir, ko‘pincha bunday joy xalqaro tanglik manbai bo‘ladi.

**Etnik rivojlanish** – tub joy xalqlarining ajralmas huquqi bo‘lib, o‘z madaniyatiga ega bo‘lgan xalqning jamiyat sifatida mustahkamlanishi va jipslashishini, uning o‘z taraqqiyotini boshqarish uchun mustaqil qarorlar qabul qila olish qobiliyati vositasida madaniy va iqtisodiy rivojlana olishga qodirligini bildiradi.

**Etnik tadbirdorlik** – immigrant yoki diasporaviy ozchiliklarning yurtdoshlik aloqalari va etnik guruh (urug‘-aymoq) hamjihatligiga tayanadigan bozor munosabatlari.

**Etnokonfessional jamoa** – etnik va diniy alomatlarning chambarchas bog‘lanishidan yuzaga keladigan jamoa.

**Etnotsid** – tashqi akkuluratsiya jarayoni; tamaddun va texnologiyani kengaytirish niqobi ostida an‘anaviy jamiyatlarning barcha “tuban” madaniyatini siqib chiqarish va inkor etish.

**Etnoslararo integratsiya** – etnoslar birlashuvi jarayoni ko‘rinishi bo‘lib, etnoslarning o‘zaro hamkorligidan iboratdir. Etnoslar madaniyat, mentalitet, axloq qoidalari va shu kabilarning umumiy xislatlarini hosil qilib, bora-bora yaqinlashadilar.

**Etnik konsolidatsiya** – nasl-nasabi, tili, dini va madaniyati yaqin bo‘lgan birt necha etnoslarning (yoki etnos qismlarining) qo‘shilib, yirikroq etnik jamoa hosil bo‘ladigan etnik birlashish jarayonlaridan biri.

**Etnomadaniy marginallik** – ikki etnik madaniyat chegarasida bo‘lib qolib, ushbu madaniyatlarning o‘zaro ta’sirida qatnashayotgan odamlarning holati. Bunday holat akkuluratsiya (o‘zga xalqning madaniyatini qisman yoki to‘la-to‘kis qabul qilish) va assimilyatsiyaning boshlang‘ich bosqichlariga xosdir.

**Etnik ozchilik** – yashash makonidagi o‘zga etnik aholi soniga nisbatan ozchilikni tashkil etuvchi biror etnosga mansub odamlar guruhi.

**Elat** – sho‘ro ilm-fani va ijtimoiy amaliyotida o‘z davlatchiligiga ega bo‘limgan etnik guruhlarga, shu jumladan, SSSR tarkibidagi ittifoqdosh va avtonom Respublikalarga nisbatan keng miqyosda ishlatiladigan atama.

**Etnik jamoa** – mamlakat, shahar va sh.k.larda yashovchi muayyan millat vakillari majmui.

**Etnik tadbirdorlik** – migrantlarning moslashuv tarzi bo‘lib, ba‘zi etnik guruhlarning muayyan faoliyat turi bilan shug‘ullanishga, savdosotiqdagi o‘z o‘rnini tanlash va egallahsga, etnos ichidagi (diaspora

ichidagi) tarmoqdan foydalanishga asoslangan xizmatlar yoki ishlab chiqarishga moyilligida namoyon bo‘ladi.

**Etnik ko‘chib joylashish** – etnoslarning hududiy joylashuvi xususiyatlari. Etnik joylashuvning boshqa etnoslarga nisbatan ikki turi ajratiladi: kompakt va aralash.

**Etnik o‘z taqdirini o‘zi belgilash** – etnik identifikasiya, shaxsning o‘z etnik mansubligini aniqlashi, o‘zini u yoki bu etnik guruhi, jamoaga tegishli deb hisoblashi.

**Etnik o‘zini anglash** – o‘zini muayyan etnosga tegishli deb his qilish; etnosning muhim belgisi bo‘lib, odamlar ongida mavjud etnik aloqalarning aks etishi hisoblanadi va tashqi tomonda o‘zini nomlashda ko‘rinadi.

**Etnik hudud** – u yoki bu etnosga mansub bo‘lib, o‘z tili hamda madaniyati va boshqa o‘ziga xosliklarini tiklovchi odamlar guruhi yashaydigan makon.

**Ekzogamiya** – bir etnik jamoa a’zolariing o‘zaro jinsiy va nikoh munosabatlari taqiqlanishi.

**Etnomadaniyat** – etnik madaniyatning hosil bo‘lishi, rivojlanishi va hozirgi holatini o‘rganuvchi alohida bilim sohasi. Etnomadaniyatning asosiya vazifalari quyidagilar: etnik madaniyatlarning manbalarini, kelib chiqishini, tadrijiy rivojlanish jarayoni va hozirgi holatini o‘rganish; etnoslar ma’naviy madaniyatining tarixiy va hozirgi muammolarini tadqiq qilish; etnik madaniyatning asosiya shakllarini o‘rganish; etnik madaniyatni asrash, qayta tiklash, rivojlantirishning asosiya yo‘l, usul, shakl va vositalarini aniqlash.

**Etnos** (yunoncha ethnos – qabilal, elat, xalq) – odamlarning ma’lum bir tarixiy davrda va ijtimoiy tuzumda tarkib topgan alohida barqaror ijtimoiy guruhi yoki uyushmasi bo‘lib, hududi, madaniyati, tili, xo‘jalik-turmush xususiyatlari mushtarak bo‘ladi, o‘zining birligi va boshqa shunga o‘xshash uyushmalardan farqini anglaydi, ya’ni o‘zligini biladi va o‘z nomiga ega bo‘ladi.

## MUNDARLJA

1-mavzu. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik fani predmeti, uni o'rganishning ahamiyati .....	3
2-mavzu. O'zbekistonda bag'rikenglikning tarixiy ildizlari .....	21
3-mavzu. O'zbekiston Respublikasi milliy siyosatining asosiy tamoyillari .....	46
4-mavzu. Davlat milliy siyosatining huquqiy asoslari .....	66
5-mavzu. O'zbek mentalitetida etnotolerantlik xususiyati-millatlararo totuvlikning garovi .....	96
6-mavzu. O'inka milliy – taraqqiyparvar ziyorolarining diniy va milliy bag'rikengligi.....	113
7-mavzu. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrda O'zbekistonda ko'pmillatlilikning shakllanishi va bag'rikenglik .....	124
8-mavzu. Milliy masalaga oid sovet nazariyasi va amaliyoti. Sovet mmilliy nazariyasi va amaliyotining asl mohiyati va uning O'zbekistonda amalga oshirilishi .....	160
9-mavzu. Aholi ro'yxatga olish kampaniyalari. O'zbekistonning etno-demografik holati.....	179
10-mavzu. Ikkinchi jahon urushining O'zbekiston uchun demografik oqibatlari. Deportatsiya qilingan millatlar va o'zbek xalqining bag'rikengligi .....	206
11-mavzu. XX asr 80-yillar oxiridagi millatlararo mojarolar – totalitar milliy siyosat natijasi .....	222
12-mavzu. O'zbekiston Respublikasi Baynalmilal markazining tashkil etilishi va faoliyati .....	245
13-mavzu. Mustaqillik yillarda migratsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	263
14-mavzu. O'zbekistonda demografik jarayonlar va aholi tarkibida yoshlar ulushi .....	290
15-mavzu. O'zbekiston yoshlarining bag'rikenglik ruhida tarbiyalash – davr talabi .....	311
Glossariy .....	328

## **Qaydlar uchun**

## **Qaydlar uchun**

**RAHBARXON MURTAZAYEVA**

# **O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA TOLERANTLIK**

**Muharrirlar:** A.Tilavov  
A.Abdujalilov  
**Tex. muharrir:** Y.O'rino  
**Musahhiha:** G.Azamova  
**Dizayner:** Y.O'rino

**Nash.lits. №7970-9851-48b3-46a5-3c39-6117-9767  
28.08.2020-yil**

Terishga 15.09.2020-yilda berildi. Bosishga 15.01.2021-yilda  
ruxsat etildi. Bichimi: 60x84  $\frac{1}{16}$ . Ofset bosma. «Times New  
Roman» garniturasi. Shartli b.t. 21,5. Nashr b.t. 19,99.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma №27.

Bahosi shartnomaga asosida.

«Go To Print» nashriyoti, Toshkent shahri,  
Olmazor tumani, Siroq ko‘chasi 100-uy  
e-mail: [go\\_to\\_print@mail.ru](mailto:go_to_print@mail.ru)

«Go To Print» MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent shahri, Shiroq ko‘chasi, 100-uy.  
Telefon: +99871 228-07-96, faks: +99871 228-07-95.

**“Go To Print”**

ISBN 978-9943-6883-9-1



9 789943 688391